ALFRAGANUS UNIVERSITY

ALFRAGANUS UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI

FALSAFA VA INSONIYAT: O'TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TOSHKENT 2025-YIL
21-NOYABR

/alfraganus_university

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alfraganus universiteti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institute, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda O‘zbekiston faylasuflari assatsiyasi hamkorligida 2025-yil 21-noyabr kuni tashkil etilgan “Jahon falsafa kuni” munosabati bilan “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T.: Alfraganus, 2025. 407 b.

“JAHON FALSAFA KUNI” MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN
“FALSAFA VA INSONIYAT: O‘TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK”
MAVZUSIDA

Respublika konferensiya materiallari to‘plami

1-qism

Tahrir hay’ati:

Po‘latov Sherdor
Po‘latova Dildor Akramovna
Ro‘zmatova Gulnoza Miraxrorovna
Abdullayeva Nasiba Bo‘ranovna
Qodirov Anvar
Masharipova Gularam
Tursunqulova Shaxnoza
Sherboboyev Muxriddin
Jo‘rayev Axmad
Musametov Bahodir
Xamdamov Erkin

© Alfraganus universiteti, 2025.

“JAHON FALSAFA KUNI” MUNOSABATI BILAN TABRIK

Qadrli mehmonlar!

YUNESKO tashabbusi bilan har yilning noyabr oyi uchinchi payshanbasida nishonlanadigan an’anaviy “Xalqaro falsafa kuni” munosabati bilan O‘zbekiston faylasuflari assosiatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va “Alfraganus Universiteti” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hamkorligida o‘tkazilayotgan “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” mavzusida ilmiy-nazariy konferensiyasiga xush kelibsiz!

Faylasuflar — o‘z nazariy va amaliy tajribalari bilan jamiyatga hissa qo‘shgan, bir vaqtning o‘zida ilmiy va ijtimoiy sohaga ta’sir qilgan shaxslardir. “Falsafa” atamasi yunoncha phileo – “sevaman” va sophia – “donolik” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur atamaning dastlabki ma’nosini “donolikka muhabbat” deb talqin qilish mumkin. Falsafa so‘zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an’analar orqali) avloddan avlodga o‘tuvchi bilim bilan inson o‘z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo‘li orqali olishi mumkin bo‘lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Ammo ilk faylasuflar o‘zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da’vo ham qilmaganlar, zero, o‘sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko‘ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o‘tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so‘nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo‘lgan bashoratgo‘ylar, kohinlar va oqsoqollar e’tirof etilgan. Ularning so‘zlari yagona haqiqat deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko‘ra donishmandlik muxlisi bo‘lishi, e’tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o‘z aqliga tayanib, ijodiy yo‘l bilan, shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo‘lgan. Faylasuflarda bitta shior bor: “Falsafaning foydasi shundaki, u har qanday odam bilan so‘zlasha olish imkonini beradi”.

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari ham tasdiqlaydi (ba’zan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga da’vogarlik qiladi). Ular falsafa yondashuvlari va metodlari jamiyat hayotining ayrim jabhalari, murakkab ob’yektlar, muayyan fanlar va shu kabilarni o‘rganishga nisbatan qo‘llanilishi natijasida yuzaga keldi. Ularning aksariyati falsafaning eng yangi tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, asosan XX asrga tegishlidir. Bu yerda avvalo tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san’at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar nazarda tutilmoqda. O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilliklarida tadqiqotning

yana bir yangi va o‘ta muhim sohasi – globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo‘ldiki, uni o‘rganish ham foydalidir.

Bir haqiqatni unutmasligimiz kerak-ki, o‘rta asr Sharq falsafasida “Ikkinchi muallim” nomini olgan Abu Nasr Forobiy va islom olamining eng mashhur faylasufi Abu Ali ibn Sino bizning buyuk ajdodlarimiz sanaladi. Abu Nasr Forobiy, shubhasiz, o‘zbek, umuman, o‘rta asrlar jahon falsafiy tafakkurining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan bo‘lsa, Ibn Sino o‘rta asrlarda falsafiy tadqiqotlarning yangi va eng dolzarb standartini belgilab bergan buyuk alloma hisoblanadi. Bundan tashqari, barchamizga ma’lumki, universitetimiz o‘zbek qomusiy olimi, nazariy falsafaning matematikaviy qismi bilan shug‘ullangan Ahmad al-Farg‘oniy nomiga Alfraganus deb nomlangan. Ishonchim komilki, bugungi konferensiyamiz bu buyuk bobokalonlarimizning ishlarini qaysidir ma’noda davom ettirayotganimizni ko‘rsatadi.

Bugungi konferensiyada falsafaning turli sohalarida asosiy dolzarb muammolari o‘rtaga tashlanmoqda. Ushbu anjumanda talabalar ham ishtirok etmoqdalar. Ular o‘zlari uchun dunyoning paydo bo‘lishi, olam, inson va tabiat munosabatlari, unga oid bo‘lgan qadimgi davrlardan to bugungi XXI asr muammolarini o‘z ichiga olgan masalalar, ularga faylasuflarimiz tomonidan muammolarning yechimlari haqida bahs yuritiladi. Bugungi kunda “Ijtimoiy fanlar” fakultetida ham qisqa muddatda falsafa fani bo‘yicha fan doktorlari va fan nomzodlarining yetishib chiqayotganligi diqqatga sazovordir.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi keng ko‘lamli islohotlar, eng avvalo, aholining nafaqat moddiy, balki ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, shuning barobarida, ularda tom ma’noda yuksak ma’naviyatli insonlarni tarbiyalash maqsadi bilan uyg‘unlashgan. Davlat ijtimoiy siyosatining jadal rivojlanishida ma’naviy-axloqiy institutlar roli va ahamiyati muhim o‘rin tutishini “jamiyatni yangilash va inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish borasida olib borilayotgan islohotlar natijadorligini ta’minlashda muhim omillardan biri bo‘lgan mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish”ga qo‘yilayotgan talablar isbotlab turibdi.

Bugungi kun “Xalqaro falsafa kuni”ga bag‘ishlangan tadbirimizni ochiq, deb e’lon qilaman va faylasuflarimizning dono fikrlari ila falsafaning dolzarb masalalarining barchasiga yechim topiladi, deb o‘ylayman. Sog‘-salomat bo‘linglar! Konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!

Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Alfraganus universiteti rektori

1-SHO‘BA. INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLAR

O‘ZBEKISTONDA DUNYOVIY DAVLAT RIVOJI: NAZARIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Ismoil Saifnazarov,
f.f.d., professor(TDIU)

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvida va ijtimoiy hayotda dunyoviylik prinsipi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur prinsip, jumladan, mustaqillik yillaridan boshlab Konstitutsiyaviy normalar darajasida mustahkamlangan hamda davlat va jamiyatning taraqqiyot strategiyasida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Dunyoviy davlat tushunchasi insoniyat taraqqiyoti tarixida jamiyat boshqaruvining ilg‘or shakllaridan biri bo‘lib, davlat tizimida diniy institutlar va e’tiqod sohalarining cheklangan darajada aralashuvi, davlatning inson huquqlari, vijdon va e’tiqod erkinligi, insonparvarlik va adolat kabi zamonaviy g‘oyalarga tayanishini bildiradi. Bu holat taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib, zamon va makonga mosligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: dunyoviy davlat, O‘zbekiston, zamonaviy tendensiyalar, huquqiy asoslar, davlat va din munosabati, fuqarolik jamiyati, demokratik taraqqiyot, konstitutsiyaviy islohotlar, diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy barqarorlik.

O‘zbekistonda dunyoviy davlat rivoji jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratiya tamoyillariga oid qadriyatlar asosida tashkil etadi. Dunyoviylik — bu davlat va dinning alohidaligini, jamiyatda turli diniy va dunyoviy qarashlarning tinch-totuv hamda hamjihat hayot kechirishini, Konstitutsiyada e’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarini to‘laqonli kafolatlashni anglatadi. Dunyoviylik prinsipi davlat boshqaruvi va huquqiy asosga egaligi sababli, barcha sohada fuqarolarning diniy ishonch yoki e’tiqodidan qat’iy nazar teng va adolatli munosabatlar kafolatlanadi. Davlat dunyoviyligi ijtimoiy barqarorlik, totuvlik va taraqqiyotning muhim omili sifatida maydonga chiqadi. Zamonaviy O‘zbekistonda bu prinsip har tomonlama mustahkamlanib, barcha sohada chuqur ildiz otmoqda. Konstitutsiyaning tegishli moddalari, jumladan, davlat va dinning alohidaligini, vijdon erkinligi kafolatlanishini bevosita belgilaydi. Huquqiy davlat qurilishi, inson huquqlarining ustuvorligi, ijtimoiy adolat va demokratiya yo‘lidagi yangilanishlar doirasida dunyoviy boshqaruv zamonaviy jamiyat barpo etilishining negizi bo‘lib xizmat kiladi.

Dunyoviylik talqinining ilmiy-nazariy asoslari O‘zbekistonda huquq, siyosatshunoslik, ijtimoiy hamda falsafiy fikrlarda keng yoritiladi. Bu boradagi ilmiy qarashlarga ko‘ra, davlatning huquqiy asoslari va boshqaruv tizimi har qanday diniy mafkura yoki alohida konfessiyaning ta’siridan holi bo‘lishi zarur. Faqatgina umumjamoatchilik manfaati hamda umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining asosiga aylana oladi. Mazkur tamoyillar huquqiy barqarorlik,

demokratizm va taraqqiyot sari xizmat qiluvchi eng muhim qadamlardan biri sanaladi. O‘zbekistonning tarixi, xalq mentaliteti va an’analarini hisobga olgan holda, zamonaviy dunyoviy qadriyatlar ilgari surilmoqda. Dunyoviy davlat rivoji uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlardan biri – inson huquqlari va vijdon erkinligini kafolatlash, fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda jamiyat a’zolari o‘rtasida ijtimoiy va e’tiqodiy bag‘rikeng muhitni mustahkamlashdir. Ta’lim tizimidan tortib davlat idoralari faoliyatigacha, ijtimoiy munosabatdan siyosiy jarayonlargacha davlat va din munosabatlarining aniq huquqiy chegarasi belgilanadi.

Bugungi kunda dunyoviy davlat rivojida zamonaviy tendensiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, demokratik institutlarni modernizatsiyalash, xalqaro hamkorlik va taraqqiyot siyosati, ilm-fan va texnologik yangilanishlar, fuqarolik jamiyatining faollashuvi, ommaviy axborot vositalari erkinligining kuchayishi — bularning barchasi zamonaviy dunyoviylik sirlarini chuqurlashtirmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, an’analar va jahon tajribasidan ratsional foydalanish muhim hisoblanadi. Dunyoviylik prinsipi davlat va jamiyat barqarorligi uchun asosiy omillardan bo‘lib, tafakkur yangilanishi va ijtimoiy mentalitet evolyutsiyasini taqozo etadi. Dunyoviylik, eng avvalo, inson erki va huquqiga tayanadi. Har bir inson o‘z ishonchi, e’tiqodi va vijdoni bo‘yicha erkin bo‘lishi, diniy va dunyoviy qadriyatlarni xohishicha qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida diniy mafkuradan ijro va qonun chiqarish sohalarida chetlanish, jamiyat hayotining har bir jabhasida inson huquqlari ustuvorligi ta’minlanadi [1].

O‘zbekiston konstitutsion tuzum asoslari va davlat siyosatining zamonaviyligini belgilovchi muhim mezonlardan biri — diniy va dunyoviy qadriyatlarning mustahkam bag‘rikenglik muhitida uyg‘unlashuvi hisoblanadi. Bu holat milliy totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, yuksak ma’naviy muhit shakllanishiga zamin yaratadi. Davlatning dunyoviy asoslarda boshqarilishi, taraqqiyot yo‘nalishlarining aniqlanishi va har sohada ochiqlik hamda oshkoralik muhitining ustuvorligi jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Taraqqiyot bosqichlari va yaxlit jamiyat barpo etilishida dunyoviylik tamoyillari konstitutsiyaviy normalar, qonunchilik, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati munosabatlarida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, huquq-tartibot instituti, ta’lim va tarbiya tizimi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi sohalarda dunyoviy yondashuv yetakchi rol o‘ynamoqda. Ushbu jarayon davlat organlari faoliyatida oshkoralik va javobgarlikni kuchaytiradi, jamiyat a’zolarining erkin va mas’uliyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Nafaqat davlat idoralari, balki ijtimoiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va turli jamoatchilik institutlari faoliyati ham davlatning dunyoviy asoslariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilmoqda. Dunyoviylik davlat va fuqarolik jamiyatining har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan asosiy omil sifatida doimo e’tiborda turadi. Bu borada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va zamonaviy tendensiyalar O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoriga aylangan.

Hozirgi globallashuv sharoitida, jamiyat va davlat tuzumining tezkor yangilanishi natijasida dunyoviy davlat rivoji o‘z oldiga yangi ijtimoiy va siyosiy

vazifalarini qo‘ymoqda. Dunyoviylik, eng avvalo, davlat va jamiyat hayotining ijtimoiy adolat, inson huquqlari ustuvorligi, fuqaroning jamiyatda faol ishtiroki, tenglik va bag‘rikenglikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur prinsip millatlar, elatlar, e’tiqod va mafkuralarda farqlanadigan aholining bir jamiyatga birlashuvida asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekistonda dunyoviy davlat rivojining eng dolzarb zamonaviy tendensiyalari – ilg‘or axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya, zamonaviy ta’lim tizimi, bilimlarni kengaytirish va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish, global taraqqiyot sari integratsiya, ekologik muhofaza va barqaror taraqqiyot strategiyalari hisoblanadi. Bu jarayon mamlakat taraqqiyoti, intellektual potensialning boyishi, xalqaro hamjamiyat bilan teng va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevorni tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, so‘z va matbuot erkinligining mustahkamlanishi, davlat boshqaruvida demokratiyaning chuqurlashuvi O‘zbekiston jamiyatining yangilanish sari qat’iy intilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash borasidagi islohotlar ham dunyoviy yashash tarzining ifodasidir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida islohotlarning markaziga aynan inson huquqlari va erkinliklarini joylash, fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning davlat boshqaruvidagi islohotlar, ommaviy axborot vositalari faoliyatini liberallashtirish, qonunchilik tashabbuslarini kengaytirish, jamiyat hayotida faollik va ochiqlik muhiti yaratish yo‘lida amalga oshirayotgan siyosati mamlakatda dunyoviylik tamoyillari so‘zsiz ustuvor bo‘lib qolishini ko‘rsatadi. Bu omillar taraqqiyot strategiyalari, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, islohotlarning samaradorligi, xalqparvarlik va jamiyatda baraka muhitini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Huquqiy demokratiya taraqqiyoti yo‘lida fuqarolarning ongli va faolligi, mamlakat taraqqiyotiga teng hissasini qo‘shishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan uyg‘un taraqqiyot sari dadil yurishi bilan ko’maklashmoqda. Bularning barchasi dunyoviylik tamoyilining mustahkam barqaror poydevorga aylanishiga xizmat qiladi. Dunyoviy davlatning rivojlanishda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy fan va texnika, axborot texnologiyalari va innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallagan, ijtimoiy mas’uliyatli va vatanparvar shaxslarni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining o‘zak omilidir. Ta’lim tizimining dunyoviy yo‘nalishda rivojlanishi, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarning amalda qo‘llanilishi kuchli intellektual salohiyat va yoshlar avlodining raqobatbardoshligini belgilaydi. Barcha sohalar uyg‘un rivojlanayotganda, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash masalasi ham dunyoviylik tamoyili asosida tubdan isloh qilinmoqda. Fuqarolik jamiyati uchun xos bo‘lgan ochiqlik, oshkoralik, aholi manfaatlariga xizmat qilish, ijtimoiy adolat hamda ijtimoiy murosaning bo‘lishi jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor hisoblanadi. Qonunlar ustuvorligi va inson huquqlarini to‘liq kafolatlaydigan tizim dunyoviylik asosida barpo etilgan bo‘lsa, har bir fuqaro o‘z hayoti, kelajagi uchun davlat oldida mas’uliyatini chuqur his

qiladi. Bu jarayonda demokratik institutlarning har tomonlama shakllanishi, rivojlanish samaradorligi va ochiqlik muhitining mustahkamlashiga alohida e’tibor qaratiladi [3].

Zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xalqaro hamkorlik va integratsiya yo‘nalishlaridagi muvaffaqiyatlar, aholining hayot sifatini oshirish, jamiyatda tinchlik va totuvlikni mustahkamlash sohasida nafaqat ichki balki tashqi siyosatda ham o‘z aksini topmoqda. Dunyo miqyosida mamlakatimizda barpo etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyati, demokratik qadriyatlar va ochiq jamiyat tamoyillari O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat e’tiborini tortib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlarining aniq huquqiy asoslari, vijdon erkinligi prinsipi va fuqarolarning erkinligi davlat siyosatining eng muhim tomonlaridan hisoblanadi. Jamiyat a’zolari o‘z e’tiqodi, dunyoqarashi, dini yoki dunyoviy qarashlaridan qat’i nazar, teng huquqli va hurmatga sazovor shaxs sifatida e’tirof etiladi. Barcha ijtimoiy islohotlar, davlat strategiyalari va milliy dasturda inson manfaatlari birinchi o‘ringa chiqadi.

XXI asr – bu tahlikali o‘zgarishlar, progressiv rivojlanish va ijtimoiy hayotda ilgari misli ko‘rilmagan yangiliklar asridir. Globallashuv, texnologik taraqqiyot, axborot oqimi hamda zamonaviy inson hayotining barcha sohalariga kirib kelgan ilg‘or yondashuvlar natijasida biz bugun ijtimoiy hayotda tub o‘zgarishlar guvohi bo‘lib turibmiz. Ushbu zamonaviy tendensiyalar jamiyatning har bir jabhasiga, insonning turmush tarzi, qadriyatlari, dunyoqarashi hamda kun tartibiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Dastavval, bugungi tashqi va ichki zamonaviy omillar tomonidan shakllanayotgan ijtimoiy faoliyatlar o‘z ifodasini jamiyatning madaniy hayotida, kommunikasiyaviy jarayonlarida, oila va mahalla munosabatlarida, ta’lim tizimida, yoshlar hayotiy pozitsiyasida hamda hatto davlat boshqaruvida ham namoyon etmoqda. Bu jarayonlar natijasida har bir inson o‘z hayotining zamonga mos jihatlarini tanqidiy ko‘z bilan baholay oladigan darajaga erishmoqda. Zamonaviy tendensiyalar jamiyat a’zolarining ongini ochadi, ularni yangi ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirish, rivojlanayotgan jarayonlarga tez va aniq javob berish zaruratini yuzaga keltiradi. Axborot texnologiyalarining beqiyos taraqqiyoti nafaqat odamlarning kunlik hayotini osonlashtirdi, balki axborotga bo‘lgan ehtiyoj va unga tezkor kirish imkoniyatini ham yaratib berdi. Hozirgi kunda dunyodagi deyarli har bir odam mobil telefon yoki kompyuter yordamida cheksiz axborot fazosiga kirish imkoniga ega. Internetning keng tarqalganligi yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo‘lishiga, eski institutlarning esa moslashuvchan ravishda o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bugun ijtimoiy tarmoqlar nafaqat aloqa vositasi, balki ta’lim, targ‘ibot, fikr almashish, hamkorlik qilish va faollik maydoniga aylanib ulgurdi. Bunday imkoniyatlarning paydo bo‘lishi, bir tomondan, ijtimoiy faollik va fuqarolik ongining rivojlanishini jadallashtirsa, boshqa tomondan, jamiyat hayotining ochiqlik, so‘z va fikr erkinligi tamoyillariga asoslanib rivojlanishiga yangi turtki berdi. Odamlar ijtimoiy mavzularda fikr bildiradilar, jamiyat oldida turgan muammolar yuzasidan o‘z pozitsiyasini ochiq e’lon qiladilar, tashabbus bilan chiqadilar. Aynan mana shunday ochiqlik muhitida

ijtimoiy hamjihatlik, jamoatchilik fikri va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi uchun zarur asoslar yaratiladi [4].

Ta’lim tizimi bugun zamonaviy talablarga javob beruvchi, xalqaro andozalarga mos, kreativ va innovatsion imkoniyatlarni ta’minlovchi muhim soha sifatida tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy tendensiyalar natijasida o‘quvchilar va talabalar uchun erkin fikrlash, mustaqil izlanish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, zamonaviy kasb va mutaxassisliklarni egallash imkoniyatlari kengaymoqda. Ustozlar zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanib, har bir yoshning individual qobiliyati va layoqatini ochib bera oladigan, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana oladigan ta’lim jarayonini tashkil qilishga harakat qilmoqdalar. Raqamli ta’lim, onlayn kurslar, masofaviy o‘qitish – bularning barchasi zamonaviy jarayonlarning mahsuli sanaladi. Zamonaviy tendensiyalarning yana bir muhim ko‘rinishlaridan biri – bu global madaniy almashinuvdir. Bugungi jamiyat a’zolari dunyoning istalgan madaniyati, san’ati, adabiyoti, urf-odatlari va qadriyatlari bilan bevosita tanishib, o‘z hayotiga mos jihatlarini qabul qilmoqda. Bu jarayon o‘z navbatida insonlarda bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, madaniy xilma-xillikni qadrlash, dunyoqarash kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Internet orqali dunyoning turli chekkasida yashayotgan insonlar o‘zaro yaqindan hamkorlik qilmoqda — hamkasb, do‘st, maslahatchi yoki hamfikr sifatida virtual aloqalarni mustahkamlamoqda. Bu esa ijtimoiy-gumanitar muammolarni global miqyosda hal etish, insoniyatga xos eng muhim qadriyatlarni birga asrash imkonini beradi.

Ijtimoiy hayotda zamonaviy yondashuvlarning faol bo‘lishi natijasida gender tengligi masalalari ham yangicha tus oldi. Ayollar va erkaklarning huquq va imkoniyatlari tengligini ta’minlash, yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, ijtimoiy muhofaza tizimining rivojlanishi jamiyatda ixtiloflar va diskriminatsiya muammolarini kamaytirishga, ochiq va adolatli ijtimoiy tuzumni barpo etishga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy tendensiyalarning ijtimoiy hayotga ta’siri oila institutida ham o‘z aksini topmoqda. Ilgari mavjud bo‘lgan an’anaviy oilaviy munosabatlar hozirgi innovatsion muhit va axborot vositalarining rivojlanishi natijasida o‘zgarishda davom etmoqda. Oilada bolalarni tarbiyalash usullari, o‘zaro hurmat va mas’uliyat, oila a’zolarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni kabi masalalarda zamonaviy yondashuvlar kuchayib bormoqda. Oilaviy psixologiya, zamonaviy pedagogika, psixologik yordam xizmatlari orqali oiladagi ijtimoiy muhit sog‘lomlashtirilmoqda, farzandlarning zamon talabiga mos yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishi uchun sharoit yaratilmoqda [5].

Bugungi globallashuv jarayoni esa ijtimoiy hayotda ochiqlik va dunyoqarash kengayishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday zamonaviy tendensiya milliy qadriyatlar va ilg‘or xalqaro tajribalar sinteziga asoslanmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy manfaatlar va xorijiy tajribani uyg‘unlashtirish orqali jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. Odamlar nafaqat mahalliy, balki global axborot va bilimlarni qabul qilib, rivojlanish strategiyasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Hamkorlik va ko‘maklashuvning yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishi natijasida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kuchaymoqda. Nodavlat tashkilotlar, volontyorlar, “startap”lar, innovatsion klublar, onlayn hamjamiyatlar

— bularning barchasi zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas bo‘lagiga aylandi. Bu kabi institutlar jamiyat muammolarini aniqlash, takliflar kiritish, ular yechimini topishga ijtimoiy faollar va keng jamoatchilikni jalb etishda muhim o‘rinni egallaydi. Ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari tufayli jamiyatda ishonch, hamkorlik va taraqqiyotga intilish kuchayadi. Zamonaviy tibbiyot, telemeditsina, masofaviy maslahatlar, sog‘lom turmush tarzi va raqamlashtirilgan tibbiy xizmatlarning joriy etilishi ijtimoiy hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Inson o‘z salomatligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, profilaktika, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressga qarshi kurashish, ruhiy salomatlikni ta’minlash asosiy qadriyatga aylanmoqda. Onlayn tibbiy xizmatlar va zamonaviy dori-darmonlardan foydalanib, jarayonlarni tez va samarali amalga oshirish mumkin bo‘ldi. Axborot texnologiyalari yordamida shifokor, bemor va jamiyat o‘rtasidagi aloqa sifat jihatidan oshdi. Ekologik madaniyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari ham zamonaviy jamiyat kun tartibidan o‘rin olgan. Barcha ilg‘or mamlakatlarda barqaror rivojlanish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik tozalikni ta’minlashga e’tibor kuchaydi. Bunday yondashuvlar O‘zbekiston hayotida ham tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari ekologik dasturlar targ‘ibotini kuchaytirishga xizmat qilmoqda, yoshlar va jamiyat ekologik muammolarga befarq qaray olmayapti. Jahondagi siyosiy vaziyat, ziddiyatlar va tinchlik jarayonlari, xavfsizlik masalalari ham ijtimoiy hayotga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Zamonaviy inson axborot texnologiyalari yordamida voqealarga tezkor baho berish imkoniyatiga ega, o‘ziga xos ijtimoiy himoya va xavfsizlik choralari ishlab chiqayapti. Bu jarayonlar natijasida demokratik qadriyatlar, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash uchun ommaviy harakatlar kuchaymoqda.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda dunyoviy davlat rivojining nazariy asoslari konstitutsiyaviy normalarda ifodalanib, zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘un holda taraqqiy etmoqda. Dunyoviylik prinsipining asosiy jihatlari – fuqarolarning tengligi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi, demokratik qadriyatlar ustuvorligi, davlat boshqaruvida adolat va qonuniylik, jamiyat hayotining ijtimoiy iqlimi sifatida yangilanishlarga ochiqlikdan iborat. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining poydevorini tashkil qiladigan mazkur qadriyatlar mamlakat mustaqilligi va barqarorligini mustahkamlaydi. Dunyoviylik prinsipi milliy va umuminsoniy qadriyatlar kontekstida jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun muhim va ustuvor omil ekanini ta’kidlash mumkin. Bu tamoyillar asosida O‘zbekiston jamiyati kelgusida ham taraqqiyot va ochiqlik sari qat’iy intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova, S. (2019). “O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining huquqiy asoslari va uning zamonaviy talqinlari.” Ijtimoiy fanlar, 2(27), 131-137.

2. Abdullayeva, H. (2021). “Dunyoviylik prinsipi va uning O‘zbekistonda qo‘llanilishi.” Filologiya va ijtimoiy fanlar, 3(4), 70-76.

3. Akbarov, Z. (2018). “O‘zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari.” Konstitutsiyaviy huquq, 1(20), 50-57.
4. Aliyev, I. (2020). “Dunyoviy davlat modeli: nazariy tahlil va O‘zbekiston tajribasi.” Davlat va jamiyat qurilishi, 1(8), 112-120.
5. Axmedov, Sh. (2021). “Diniy bag‘rikenglik va zamonaviy jamiyat: O‘zbekiston tajribasi.” Milliy taraqqiyot, 2(10), 144-151.
6. Karimova, N. (2017). “O‘zbekistonda gender tengligi ta’minlanishining huquqiy asoslari.” O‘zbekiston huquqshunosligi axborotnomasi, 4(34), 123-131.
7. Mirzayev, A. (2018). “Dunyoviy davlat va ijtimoiy taraqqiyot: nazariy asoslari va amaliy natijalari.” O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 3(22), 80-86.
8. Olimova, D. (2019). “O‘zbekiston zamonaviy davlat qurilishi va din erkinligi.” Ijtimoiy taraqqiyot va huquq, 1(2), 56-61.
9. Qodirov, N. (2022). “Ta’lim tizimida dunyoviylik tamoyillarining ahamiyati.” Pedagogika va zamonaviy talim, 6(14), 90-95.
10. Sharipova, B. (2020). “O‘zbekiston Respublikasida dunyoviylik va jamiyat taraqqiyoti.” Jamiyat va boshqaruv, 1(5), 103-110.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ANTROF-MUHITGA ANTROPOGEN TA’SIRNING OQIBATLARI

Abdullayeva Nasiba Bo‘ronovna
Falsafa fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida atrof-muhitga antropogen ta’sir va uning salbiy oqibatlari, tabiatni muhofaza qilishni tizimli tashkil qilishning asosiy yo‘nalishlarini tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhit, ekologiya, muhofaza, ekologik tanazzul, qadriyatlar, ekologik gumanizm.

Hozirgi kunda global barqaror xavfsizlikni ta’minlashga mo‘ljallangan ekologik siyosatning integratsiyalashuvi, xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni insonparvarlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday darajada ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar va siyosiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadi ham, inson ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini himoya qilish uchundir. Bu haqda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda: “Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak”[1], deb alohida ta’kidlagan edi.

Ekologik xavfsizlik muammosi milliy va mintaqaviydan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylandi. Global miqyosda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanishi bilan odamlarning tabiiy resurslarga munosabati dolzarb bo‘lib bormoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga oid Qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda, genofondni barqaror rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi xalqaro konvensiyalar, bitimlar va hujjatlarga integratsiyalashuv davom etmoqda. O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik strategiyasi dunyoda xalqlarning an’anaviy tarzda o‘rnatilgan umumiy ekologik turmush tarzi, ularning milliy xavfsizlik, suverenitet manfaatlarini hisobga olgan holda insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslangan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Bugun ekologik muammolar inson hayotiga jiddiy xavf tug‘dirayotganini kuzatishimiz mumkin va achinarlisi shundaki bu muammolar insoniyat tomonidan yuzaga keltirilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimiz ekologik muammolarni bartaraf etish va ularning salbiy oqibatlarini oldini olish bo‘yicha ma’lum tajriba to‘pladi. Ammo joylardagi vazifalar ko‘lami mamlakatimiz va mintaqamizdagi ekologik vaziyatni yaxshilash muammolarini har tomonlama hal etishni, davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi.

Birinchidan, milliy qadriyatlarga sof ekologik mazmun beradigan, shu bilan ekologik tarkibdagi tarixiy an’analarimizdan foydalanish zarur, ayniqsa odamlarni tabiatni muhofaza qilishga undaydigan milliy tarbiyaning tarixan shakllangan asoslari ham muhim rol o‘ynaydi. Xalqimiz sof ekologik mazmundagi bir qator tarixiy an’analarga ega. Masalan keng mazmundagi "uvol" (isrofgarchilik) tushunchasi yaxshi misoldir. Har qanday moddiy ne’matlardan isrofgarchilik bilan foydalanish, tabiiy resurslarni - yer osti boyliklarini, suvni, yerni, o‘simlik va hayvonlarni yo‘q qilish jinoyat va gunoh hisoblangan. "uvol" tor ma’noda non, suv, tuzdan tejamkor foydalanishni ifodalaydi, keng ma’noda butun tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni aks ettiradi.

Ikkinchidan, iste’molchilik psixologiyasining ustunligi, bugungi kunda ekologiya tafakkurining yo‘q qilinishi ekologik ta’lim va tarbiyaga beparvolik bilan bog‘liq. Aholining ekologik ongining yuzakiligi ekologik ta’lim tizimining samarali va samarali emasligidadir. Hamma ham ekologik muammolarni tushunmaydi, chunki ko‘pchilik ekologiya haqida ma’lumotni ommaviy axborot vositalaridan yoki atrof-muhitdan eshitgan narsalaridan oladi. Shuning uchun ekologik bilim va ta’limni muntazam ravishda tashkil etish taqozo etiladi va bu axloq darajasi bilan bog‘liq. Demak, etika fani dasturlarida alohida mavzular kiritilish lozim. Insonda tabiatga muhabbat uyg‘onmaguncha, u tabiatga vaqtincha

iqtisodiy, moddiy manfaatlarni afzal ko‘radigan iste’molchi bilan munosabatda bo‘ladi: atrof-muhit ifloslangan bo‘lsa ham, odamlar zaharli chiqindilardan kasal bo‘lib qolishadi, fabrikalar, ustaxonalar yoki firmalar egalari tabiatni zaharlashda davom etadilar. Tabiat ajralmas tizim sifatida o‘ziga nisbatan oqilona munosabatni talab qiladi. Faqat tabiat bilan uyg‘unlikda yashash, uning qonunlariga muvofiq ishlash, inson va tabiatning dialektik birligi kelajakdagi rivojlanishni ta’minlashi mumkin.

Uchinchidan, ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim tizimida jonli burchaklar tashkil qilish, bolalarga axlatni maxsus idishlarga tashlash, jonivorlarga rahm-shafqatli munosabatda bo‘lishni singdirish va o‘rgatib borish zarur. Maktabda tabiatshunoslik, biologiya darslarida maxsus mavzular kiritish, bolalarni tabiat qo‘yniga, hayvonot bog‘lari, botanika bog‘lariga sayohat uyutirish va maktab atrofini tozalash, plastik butilkalarni yig‘ish bilan bog‘liq tadbirlar tashkil qilish, oliy ta’limda atrof-muhit muhofazasiga oid maqolalar tanlovi, uysiz jonivorlar saqlanadigan joylarga tashrif buyurish, ularga ko‘maklashish, an’anaviy tarzda oliy o‘quv yurtlari atrofini tozalash shanbaliklari o‘tkazish lozim.

To‘rtinchidan, davlat va nodavlat tashkilotlari jumladan, ekopartiyalar ham bevosita amaliy ishlarga o‘tish, nodavlat tashkilotlar faoliyatini matbuotda keng yoritish va OAVda ham ekologiya, atrof muhitni asrashga oid ko‘rsatutv, bloglar, eshittirishlarni ko‘paytirish lozim.

Beshinchidan, inson ekologik faoliyatida tadrijiy o‘zgarishlarni gumanizm tamoyillari nuqtai-nazardan olib qarash, tabiatni muhofaza qilish amaliyotini – ***ekologik gumanizm*** hodisasini XX1 asrda globallashuv sur’atlarini, texnologik taraqqiyot va demografik jarayonlarni inobatga olgan holda yangicha talqin qilishni taqozo qiladi. Shuning uchun O‘zbekiston Ekologik partiyasi Dasturida: “inson hamda uning manfaatlari himoyasi, birinchi navbatda, sog‘lom va musaffo atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning o‘zagini tashkil etgan zamonaviy O‘zbekiston uchun zarur bo‘lgan atrof tabiiy muhitni asrab avaylashni va uni sog‘lomlashtirishni yanada dolzarb qilib qo‘ydi”, deb bu institutning gumanistik xarakteri alohida qayd etilgan.[2]

Oltinchidan, bu borada xalqaro tajribadagi ilg‘or mexanizmlarni qo‘llash va halqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik olib borish taqozo etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi. 2016 yil 8 dekabr.

2. http://eco.uz/uz/kutubkhona/dasturij-uzhzhatlar/12-zbekiston-ekologik-harakati-dasturi

3. Tilavov O‘. Global barqaror taraqqiyot tizimida ekologik partiyalar faoliyatini takomillashtirish strategiyasi. Monografiya. Rennesans, Toshkent: 2021.
4. Qosimova N. Global iqlim o‘zgarishi va jurnalistika. Toshkent., “Turon-iqbol”, 2016 y.

SIYOSIY FAOLIYATDA AXLOQIYLIK TALABI: KLASSIK VA ZAMONAVIY QARASHLAR

Lalixon Muxamedjanova
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, falsafa kafedrasi professori. Email: Lalixon@list.ru, lalixonm@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается место и значение требования нравственности в политической деятельности с точки зрения классической и современной философской мысли. Если в классической политической мысли нравственность понималась как неотъемлемая часть государственного управления и концепции справедливости, то в современную эпоху она тесно связана с принципами законности, прав человека и демократии. В исследовании с помощью философско-аналитического и сравнительного методов раскрывается гармонизация политики и моральных ценностей, а также их роль в современном обществе.
Ключевые слова: политическая этика, справедливость, демократия, законность, ценности.

Abstract. This article examines the role and significance of the requirement of morality in political activity from both classical and modern philosophical perspectives. In classical political thought, morality was seen as an integral part of governance and the concept of justice, whereas in the modern era, it is closely linked with legality, human rights, and democratic principles. Using philosophical-analytical and comparative methods, the study explores the harmonization of politics and moral values, as well as their role in contemporary society.
Keywords: political ethics, justice, democracy, legality, values.

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy faoliyatda axloqiylik talabining o‘rni va ahamiyati klassik va zamonaviy falsafiy qarashlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Klassik siyosiy tafakkurda axloqiylik davlat boshqaruvi va adolat konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy davrda u huquqiylik, inson huquqlari va demokratiya tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda siyosat va axloqiy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi

hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi roli falsafiy-tahliliy va qiyosiy metodlar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy axloq, adolat, demokratiya, huquqiylik, qadriyatlar.

Kirish. Siyosat insoniyat tarixida doimo axloqiylik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Davlat boshqaruvi, ijtimoiy tartibot va jamiyat hayotini tashkil etish jarayonida axloqiy me’yorlar nafaqat nazariy, balki amaliy mezon sifatida ham muhim o‘rin tutgan. Aristotel o‘zining *Politika* asarida siyosiy faoliyatning asosiy maqsadini “yaxshi hayot”ni ta’minlash bilan bog‘lagan holda, siyosatni faqat hokimiyatni qo‘lga kiritish yoki uni saqlash vositasi emas, balki insoniyat uchun fazilatli hayotni yaratish jarayoni sifatida talqin qilgan (Aristotle, 1998). Shu bois, qadimiy davrlardanoq siyosiy qarorlar adolat, burch va axloqiy qadriyatlarga tayanishi zarurligi alohida ta’kidlangan.

Turli mutafakkirlar, jumladan Immanuil Kant, David Hume, Sharl Lui Monteske va Fridrix Nitsshe kabi faylasuflar siyosiy faoliyatga axloqiylik talabini qo‘yganlar. Masalan, Hume shunday yozadi: “Axloq tushunchasi ko‘pchilikda umumiy tushunchani shakllantirib, umumiy hissiyotlarni uyg‘otadi; yagona ob’ekt haqidagi o‘xshash fikrlar hamfikrlikni yuzaga keltirib, ularni boshqarishni osonlashtiradi.”[1] Bu yondashuvga ko‘ra, siyosiy rahbar o‘zining axloqiy fazilatlari orqali jamoatchilik hurmatiga sazovor bo‘lishi lozim.

Jon Lokk esa, Ikki traktat asarida, odamlarning davlat bo‘lib birlashishidan va o‘zini hukumat ixtiyoriga topshirishidan asosiy maqsad “hayoti, huquqlari va mol-mulkini himoya qilish” ekanligini ta’kidlaydi.[2] Bu fikr davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyatini oshiradi va siyosatni axloqiy mezonlar asosida olib borishga undaydi.

Klassik davrlarda shakllangan ushbu qarashlar keyinchalik turli falsafiy maktablar tomonidan davom ettirildi. Platonning “Davlat” haqidagi qarashlari ham aynan siyosatning axloqiy asoslari muhimligini ko‘rsatadi, chunki u boshqaruvchilarni bilimli va donishmand insonlardan tayinlash lozimligini ilgari suradi.[3] Bu yondashuv siyosatni axloqdan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy davrda esa siyosat va axloq o‘rtasidagi munosabatlar yanada murakkab tus oldi. Bir tomondan, huquqiylik, demokratiya va inson huquqlari siyosiy faoliyatning poydevoriga aylangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, global jarayonlar siyosiy qarorlarning axloqiy mazmunini yanada keskinroq muhokama qilishni talab etmoqda. Habermasning ta’kidlashicha, siyosiy qarorlarning legitimligi faqatgina qonuniy kuchga emas, balki ijtimoiy kelishuv va axloqiy asosga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.[4]

Zamonaviy davrda ham siyosiy faoliyatning asosiy o‘lchov mezoni yuqori axloqiy sifatlar bo‘lib qolmoqda. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot

jarayonida rahbar shaxsining axloqiy qiyofasi nafaqat ichki siyosiy barqarorlik, balki xalqaro hamkorlik va ishonchning ham muhim omiliga aylanmoqda. Aristotel ta’riflagan harbiy san’at, iqtisodiy bilimdonlik va notiqlik sifati kuchli siyosatchiga xos bo‘lsa-da, bugungi kunda shaxsiy axloqiy fazilatlar ulardan ko‘ra ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.[5]

Bugungi globallashuv sharoitida siyosiy faoliyatda axloqiylik talabi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inson huquqlari, ijtimoiy adolat va xalqaro munosabatlardagi mas’uliyat siyosatning ajralmas qismi sifatida qaralayapti. Demak, siyosatni faqat hokimiyat vositasi sifatida emas, balki axloqiy qadriyatlarga tayangan ijtimoiy amaliyot sifatida tushunish zarurdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Siyosiy faoliyat va axloqiylik munosabati qadimdan buyuk mutafakkirlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Platon o‘zining mashhur *Davlat* asarida hukmdorlarning donishmandlar orasidan tanlanishi zarurligini ta’kidlab, siyosatning asosiy mezoni sifatida adolat va axloqiylikni ilgari suradi.[6] Aristotel ham siyosiy faoliyatni insoniyatning eng oliy maqsadi – “yaxshi hayot”ni ta’minlashga qaratilgan jarayon deb ta’riflab, siyosat va axloqni bir-biridan ajralmas tushuncha sifatida talqin qiladi.[7] Shu tariqa klassik adabiyotlarda siyosiy qarorlarning mohiyati hokimiyatni qo‘lga olish emas, balki insoniy qadriyatlarni hayotga tadbiq etish vositasi sifatida ko‘rsatiladi.

Biroq uyg‘onish davridan boshlab siyosat va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlik turlicha talqin qilingan. Masalan, N. Maciavelli o‘zining *Hukmdor* asarida siyosatni hokimiyatni mustahkamlash va saqlab qolish vositasi sifatida talqin etib, axloqiy me’yorlarni ikkinchi darajali deb ko‘rsatadi.[8] Bu yondashuv keyinchalik siyosiy realizm maktabining shakllanishiga asos bo‘ldi va jamiyat taraqqiyotida ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy g‘arb falsafasida esa siyosiy axloq yangicha mazmunda talqin qilinmoqda. J. Rawls o‘zining *Adolat nazariyasi* asarida siyosiy tizimning markazida adolat turishini, adolat esa axloqiy tamoyillarsiz to‘liq bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi.[9]

Habermas esa siyosiy qarorlarning legitimligi erkin muloqot va ijtimoiy kelishuvga asoslanishi kerakligini ta’kidlab, kommunikativ axloqiylik konsepsiyasini ilgari suradi.[10]

O‘zbek olimlari ham siyosat va axloq munosabatiga oid muhim ilmiy xulosalar bildirgan. Masalan, Birinchi Prezident Karimov I.A. o‘z nutq va asarlarida siyosiy qarorlarning adolat, insonparvarlik va milliy manfaatlarga asoslanishi lozimligini qayd etadi. Uning fikricha, “xalq davlat idoralariga emas, balki davlat xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak”.[11] Bu yondashuv siyosiy

faoliyatning axloqiy mazmuni milliy istiqlol g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, H. Boboyev siyosiy etika nazariyasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida davlat boshqaruvida axloqiy me’yorlar va huquqiylik tamoyillari uyg‘unligi masalasini alohida tahlil qilgan. Boboyevning fikricha, siyosatning samaradorligi nafaqat qonunlar tizimiga, balki rahbarlarning axloqiy qiyofasiga ham bevosita bog‘liqdir.[12] O‘zbek faylasufi M. Yo‘ldoshev esa axloqiy qadriyatlarni siyosiy jarayonlarda qo‘llashning ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyot uchun ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi.[13]

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, siyosiy faoliyatda axloqiylik talabi klassik davrlardan boshlab dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. G‘arb olimlari siyosiy axloqni adolat, huquqiylik va demokratiya nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lsalar, o‘zbek olimlari uni milliy istiqlol, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan bog‘liq holda talqin qilgan. Shu bois, siyosiy faoliyatning axloqiy poydevori zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda mavzuning ilmiy mazmunini chuqur va har tomonlama ochib berish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Avvalo, **falsafiy-tahliliy usul** tadqiqotning asosiy metodologik asosini tashkil etdi. Bu usul orqali siyosiy faoliyat va axloq o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy davrda qanday talqin qilinayotgani izchil tahlil qilindi. Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan siyosat va axloqiylikning uzviy bog‘liqligi, Machiavelli tomonidan siyosatning mustaqil amaliy faoliyat sifatida talqin qilinishi, shuningdek, Habermas va Rawls kabi zamonaviy faylasuflarning nazariyalari falsafiy kategoriyalar darajasida ko‘rib chiqildi. Falsafiy-tahliliy yondashuv siyosiy etikaning nazariy ildizlarini aniqlash va ularning bugungi dolzarb masalalarga ta’sirini tushuntirish imkonini berdi.

Ikkinchi muhim usul – **qiyosiy metod**. Bu yondashuv yordamida klassik va zamonaviy mutafakkirlarning qarashlari o‘zaro solishtirildi. Masalan, Platon va Aristotelning siyosatni fazilat va adolatga asoslangan faoliyat sifatida talqin qilishi Machiavellining siyosiy realizmi bilan qiyoslandi. Xuddi shuningdek, Rawlsning adolat nazariyasi Habermasning kommunikativ axloqiylik konsepsiyasi bilan tahliliy jihatdan solishtirildi. Bu jarayon siyosiy axloq haqidagi qarashlarning vaqt va makon bo‘yicha o‘zgaruvchanligini, ammo ularning mohiyatan bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda, shuningdek, **manba tahlili usuli** keng qo‘llanildi. Klassik manbalar – Platonning *Davlat*, Aristotelning *Politika*, Machiavellining *Hukmdor*

asarlari; zamonaviy g‘arb falsafasida Rawlsning *Adolat nazariyasi* va Habermasning *Faktlar va normalar o‘rtasida* kitoblari asosiy manba sifatida o‘rganildi. Bundan tashqari, o‘zbek olimlari – I. Karimov, H. Boboyev, M. Yo‘ldoshevlarning siyosiy axloqqa oid qarashlari ham tahlil qilinib, milliy ilmiy maktabning o‘ziga xos xulosalari tadqiqot doirasiga kiritildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda **tarixiy-uslubiy yondashuv** ham qo‘llanildi. U orqali siyosiy axloqiylik talabi qadimdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan jarayonda bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatildi. Tarixiy jarayonlarni solishtirish, ularning zamonaviy siyosiy tafakkurga ta’sirini ko‘rsatishga yordam berdi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy aniqligi va izchilligini ta’minlab, siyosiy faoliyatda axloqiylik talabining nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyatini har tomonlama ochib berishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, siyosiy faoliyat va axloqiylik o‘rtasidagi munosabat tarixiy jarayon davomida turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro bog‘liqligi doimo dolzarb bo‘lib kelgan.

Avvalo, **klassik falsafada siyosiy faoliyatning axloqiylik bilan uyg‘unligi asosiy tamoyil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan**. Platon va Aristotel qarashlarida siyosat adolatli jamiyatni shakllantirish va fazilatli hayotni ta’minlash vositasi sifatida talqin qilingan. Bu davrda siyosiy qarorlar nafaqat hokimiyatni mustahkamlash, balki ma’naviy qadriyatlarni jamiyat hayotiga tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Shu bilan birga, **Maciavelli davridan boshlab siyosatni amaliy vosita sifatida tushunishga intilish kuchaygan**. U hokimiyatni saqlashni davlat boshqaruvidagi asosiy maqsad sifatida ko‘rsatib, axloqiy mezonlarni ikkinchi darajaga tushirgan. Bu yondashuv keyinchalik siyosiy realizm maktabiga asos solgan va siyosatni “san’at” yoki “texnologiya” sifatida talqin qilishga olib kelgan. Natijada siyosiy faoliyat va axloqiylik o‘rtasidagi tafovut yanada keskinlashgan.

Zamonaviy davrda esa siyosiy faoliyat axloqiy asoslardan butunlay ajralib qolmagan, balki huquqiylik, demokratiya va inson huquqlari orqali qayta shakllangan. J. Rawlsning adolat nazariyasi va Habermasning kommunikativ axloq konsepsiyasi bu jarayonni yangi falsafiy asos bilan boyitdi. Siyosiy qarorlarning legitimligi endilikda nafaqat qonuniy kuch bilan, balki ijtimoiy kelishuv, fuqarolarning huquqlari va axloqiy qadriyatlar bilan ham belgilanmoqda.

Bundan tashqari, **globallashuv sharoitida siyosiy qarorlarning axloqiyligi nafaqat milliy darajada, balki umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholanmoqda**. Atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro adolat va ijtimoiy tenglik kabi masalalar siyosiy axloqning zamonaviy

ko‘rinishlarini shakllantirmoqda. Milliy manfaatlarni ko‘zlash bilan bir qatorda, xalqaro hamkorlik va global mas’uliyat tushunchalari ham siyosiy etikaning tarkibiy qismiga aylangan.

Shu bilan birga, **siyosiy etika bugungi kunda nafaqat nazariy muammo, balki amaliy zarurat sifatida davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va fuqarolik jamiyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda**. Davlat rahbarlarining axloqiy qiyofasi, siyosiy qarorlarning adolatga asoslanganligi va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki siyosiy tizimning barqarorligi va ishonchliligini ta’minlovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari siyosiy faoliyatda axloqiylik talabi tarixiy jihatdan turlicha shakllangan bo‘lsa-da, bugungi davrda u huquqiy, ijtimoiy va global qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda siyosiy jarayonlarning barqaror rivojlanishini ta’minlayotganini ko‘rsatdi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy faoliyatda axloqiylik talabi qadimdan buyon dolzarb bo‘lib kelmoqda va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Klassik mutafakkirlar — Platon va Aristotel siyosatni adolat va fazilatga asoslangan faoliyat sifatida talqin qilgan bo‘lsalar, Machiavelli davridan boshlab siyosatni faqat amaliy vosita sifatida tushunish tendensiyasi kuchaygan. Bu ikki qarash o‘rtasidagi tafovut siyosat va axloq munosabatining murakkabligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy davrda esa siyosiy faoliyat axloqiy tamoyillardan butunlay ajralib ketmagan, balki yangi asoslarda qayta shakllangan. Inson huquqlari, demokratiya va huquqiylik qadriyatlari siyosiy faoliyatning tayanch omillaridan biriga aylangan. Habermas va Rawls kabi olimlarning konsepsiyalari siyosat va axloqni uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular siyosiy qarorlarning legitimligini faqat qonuniy kuch bilan emas, balki axloqiy asoslar bilan ham mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida siyosiy qarorlarning axloqiyligi nafaqat milliy darajada, balki umuminsoniy qadriyatlar kontekstida ham baholanishi zarur. Xalqaro munosabatlarda ijtimoiy adolat, inson huquqlarini hurmat qilish va global mas’uliyat kabi masalalar siyosiy etikaning ajralmas qismiga aylangan.

Shu bois, siyosiy etika bugungi kunda nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy zarurat sifatida ham davlat boshqaruvi, xalqaro siyosat va fuqarolik jamiyatining rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, siyosatning barqarorligi va samaradorligi uning axloqiy poydevoriga, rahbarlarning mas’uliyatiga hamda jamiyatning umumiy qadriyatlarga sodiqligiga bevosita bog‘liqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hume, D. (2003). A treatise of human nature (D. F. Norton & M. J. Norton, Eds.). Oxford: Oxford University Press. (Asar aslida 1740-yilda chop etilgan).
2. Locke, J. (1988). Two treatises of government (P. Laslett, Ed.). Cambridge: Cambridge University Press. (Asar aslida 1689-yilda chop etilgan).
3. Plato. (1992). *The Republic*. Basic Books.
4. Habermas, J. (1996). *Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy*. MIT Press.
5. Aristotle. (1998). *Politics*. Oxford University Press.
6. Plato. (1992). The Republic. Basic Books.
7. Aristotle. (1998). Politics. Oxford University Press.
8. Machiavelli, N. (1998). *The Prince*. University of Chicago Press.
9. Rawls, J. (1999). *A Theory of Justice* (Revised edition). Harvard University Press.
10. Habermas, J. (1996). Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. MIT Press.
11. Karimov, I. A. (1996). *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. Toshkent: O‘zbekiston.
12. Boboyev, H. (2001). *Siyosatshunoslik asoslari*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
13. Yo‘ldoshev, M. (2010). *Falsafa va siyosat: uyg‘unlik masalalari*. Toshkent: Ma’naviyat.

AXLOQIY IXTIYOR ERKINLINING YOSHLAR HAYOTIDA O‘RNI

Nodiraxon Nishonova Rayimjonovna,

O‘zbekiston Respublikasi
Toshkent davlat texnika universiteti
falsafa fanlari doktori, professor,
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada axloqning kelib chiqishi haqida har xil qarashlar mavjudligi, G‘arbdagi zamonaviy axloqshunoslik yo‘nalishlar, axloqiy qonun - qoidalar tanlovni ro‘yobga chiqarishi, «Axloqning oltin qoidasi» deb atalgan qoida, insonning o‘z nomusini himoya qilishi va dunyoqarashiga, ilmiga, fikrlashiga, saviyasiga, umuman axloqiy fazilatlariga bog‘liqligi haqida berilgan.

Kalit so‘zlar: Ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov, mas’uliyat, axloqiy taraqqiyot, axloq tuzulmasi, axloqiy ong (anglash), axloqiy hissiyot, axloqiy munosabatlar, maqsad va vosita.

Qadimda ona sayyoramizdagi hayot uch olamdan iborat, deb qabul qilingan. Bular – nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning o‘zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Har uchalasiga ham paydo bo‘lish, rivojlanish, o‘zini muhofaza qilish, nasl qoldirish instinkti berilgan va peshonasiga hayoti o‘lim bilan nihoyat topish qismati yozib qo‘yilgan. Chunonchi, o‘simlik urug‘dan paydo bo‘ladi, rivojlanadi, singan shohlari o‘rnini sirach chiqarib, davolaydi – muhofaza qiladi, urug‘ini qoldirib, bir kun quriydi. Hayvon shu xususiyatlari bilan birgalikda sezish a’zolari va qobiliyatiga hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati, uyat hissi, bir so‘z bilan aytganda, aql bor. Uni Imom G‘azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak, deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa aqlni taqazo etadi.

Axloqning kelib chiqishi haqida ham har xil qarashlar mavjud. Diniy qarash axloq Xudoning ne’mati deb o‘rgatadi. Platon abadiy g‘oyalar olamida mavjud bo‘lgan va inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan «ezgulik g‘oyasi» bor, u kishilarning axloqiy sifatlarini belgilaydi deb hisoblangan. Kant u dunyoning talablarini ifodalovchi «eng umumiy axloqiy qonuniyat» mavjud, u odamning odobi, xulqi, axloqini boshqarib turadi, deb ta’kidlagan. G.Spenser jamiyatda, tabiatdagi singari yashash uchun kurash boradi, u odamlarning yurish – turishlari, axloqiy prinsiplarini belgilaydi, bu kurashda kuchli kishilar yashaydilar, kuchsizlar o‘lib ketaveradilar, deb da’vo qilgan. P.Kropotkin odamlarning ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalari hayvonlarning hayotida bor, ular keyinchalik insoniyat jamiyatiga o‘tgan deb hisoblagan. Uning fikricha, hayvonot olamida o‘zaro yordam, adolat, qo‘llab-quvvatlash mavjud. K.Kautskiy odamning axlokiy fazilatlari unga hayvonot olamidan o‘tgan deydi. Shunday qilib, bunday qarashlar axloq hayvonlarning guruh-guruh bo‘lib yashash xissiyotlarining davomi, takomillashuvi va murakkablashuvidir, deb hisoblaydilar. Ular axloqning kelib chiqishini noto‘g‘ri tushuntiradilar. Bunday qarashlar axloqning paydo bo‘lishida jamiyatning o‘rni, rolini yo‘qqa chiqaradilar, ijtimoiylikni biologikdan iborat qilib qo‘yadilar. Endi axloqiy anglashning tuzulmadagi yetakchilik mavqeiga, to‘g‘rirog‘i, asosiy unsur sifatidagi o‘rniga kelsak, uni bu tarzda talqin etish, bizningcha, to‘g‘ri emas. Vaholanki, sho‘rolar davrida va hozir ham rus olimlari orasida, ba’zi G‘arbdagi zamonaviy axloqshunoslik yo‘nalishlarida ana shunday qarash hukmron ekanini ko‘ramiz. Aslida esa, tuzilmada poydevor unsur sifatida axloqiy xissiyot yoki axloqiy xis etish namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, juda ko‘p

hollarda biror bir axloqiy qarorning amalga oshuvi uzoq yoki qisqa vaqt mobaynida o‘sha qaror oqibatlari to‘g‘risida ongli ravishda xulosa chiqarishga, ularni avvaldan anglab yetishga urunish bilan bog‘liq bo‘ladi, ya’ni biz o‘z xatti-harakatlarimizni axloqiy anglash elagidan o‘tkazib, faoliyat ko‘rsatamiz. Lekin anglab amalga oshirilgan qaror tubida, so‘zsiz, axloqiy xissiyot yotadi. Demak, axloqiy xis etish axloqiy anglash uchun material vazifasini o‘taydi.

Ba’zan esa o‘sha «material» - xissiyotning o‘zi axloqiy anglashni chetlab o‘tib, munosabat tarzida namoyon bo‘ladi. Bunga insonning favqulotda xolatlardagi xatti-harakatlari misol bo‘la oladi. Deylik, yuqori tezlikda ketayotgan avtomobil oldindan yo‘l o‘rtasiga, koptokni quvib, go‘dak chiqib qoldi. Haydovchi tormozni bosish barobarida, shu zahoti mashinasini keskin chetga buradi. Bola omon qoladi, haydovchi jarohatlanadi, mashina pachoq bo‘ladi. Bu holat haydovchining go‘dakka nisbatan, mehr-shafqati, achinish xissi, inson bolasini oliy qadriyat sifatida his qilishi tufayli ro‘y beradi. Bunday holatda haydovchi «oqilona qaror»ga, «yetti o‘lchab bir kesgan xolda kelmaydi» - hamma narsa bir lahzada ro‘y beradi. Bunda hamma narsani anglash emas, ong emas, oniy intuisiya, o‘z qavmdoshi hayotini asrashdek tabiiy- biologik hissiyot – instinkt xal qiladi, ya’ni mazkur hissiyot tom ma’nodagi anglash darajasiga ko‘tarilib ulgurmasdanoq munosabatga aylanadi.

Umuman, inson va jamiyatning axloqiy hayotida tanlov ahamiyati beqiyos. Masalan, tarixda sodir bo‘lgan bir ta’sirchan voqyeani esga olaylik: Bozorda mutasavvuf alloma, ozarboyjon, eski o‘zbek (turkiy), fors tillarida o‘lmas asarlar yaratgan buyuk shoir Imoiddin Nasimiyning g‘azalini yod o‘qiyotgan bir yosh yigitni kufrda ayblab, hibsga oladilar. Yigit oldida ikki yo‘ldan birini tanlash turardi: yo piri Nasimiyni sotish va tavba qilib, banddan ozod bo‘lish yoki g‘azalni o‘zimniki, deb o‘limga tik borish. Pokdomon, or – nomusli yigit ikkinchi yo‘lni tanlaydi. Qozi uni terisini shilishni buyuradi. Olamon yig‘iladi. Shu payt Nasimiy kelib qoladi. Voqedan xabar topgan Nasimiy oldida ham endi tanlov turardi – tanlamaslikning iloji yo‘q edi: yo o‘zini oshkor qilib, yosh yigitni jallod qo‘lidan qutqazish va uning o‘rnini egallash, yoki olamon orasidan sekin sirg‘alib chiqib ketib, shogirdini o‘limga mahkum etilishi evaziga o‘z jonini asrab qolish. Buyuk mutasavvuf shoir birinchi yo‘lni tanlaydi: o‘zini jallod qo‘liga tutqazib, begunoh yigitni ozod etadi. Qozi Nasimiyning terisini shilishni buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga qon sachraydi. Shunda qozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning bir tomchi qoni biror yeringizga tegsa, o‘sha yerni kesib tashlash kerak bo‘ladi, deydi. Qozi gapini tugatar – tugatmas, Tangrining irodasi bilan bir tomchi qon sachrab kelib qozining jimjilog‘iga tegadi. Olamon qozidan barmog‘ini kesib tashlashini talab qiladi. Endi qozining oldida tanlov turardi: yo barmog‘ini kestirib, gapining ustidan chiqish yoki gapidan qaytib sharmisor bo‘lish. U «aql-farosati» ni

ishga solib, o‘zicha yangi fatvo to‘qiydi. Bu fatvoga ko‘ra, nopok qon sachragan barmoqni uch marotaba suv bilan yuvib tashlansa, barmoq poklanadi va uni kesib tashlashga extiyoj qolmaydi. Aslida qozi axloqiy nopok, qo‘rqoq va xudbin odam bo‘lgani uchun u o‘z gapidan qaytadi. Nasimiy esa qiynoqqa mardonavor chidab, churq etmaydi, aksincha qozining ahvolini ko‘rib, istehzoli kuladi va so‘ngi g‘azalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan – asrlarga o‘tdi, ne – ne shoirlarning she’rlarda madh etildi, o‘zi esa insoniy poklik va yuksak axloqiylikning o‘lmas timsoli bo‘lib qoldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtumqulining «Savol-javob» she’ridan quyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin. Maxtumquli:

U nimadir, yemadirlar-to‘ydilar?
U nimadir, ulug‘ kunga qo‘ydilar?
Ul kim edi tovonidan so‘ydilar?
Shoir bo‘lsang shundan bizga xabar ber!
Durdi shoir; - U diydordir, yemadilar to‘ydilar,
U namozdir-qiyomatga qo‘ydilar,
Nasimiyni tavonidan so‘ydilar,
Bizdan salom bo‘lsin, javobimiz shu!

Shunday qilib, ushbu misolda uch xil tanlovni, uch xil mas’ulyatni va ixtiyor erkinligidan uch xil foydalanishni ko‘rdik. Demak, har bir insonnning bu dunyoda axloqiy tanlov sinovidan o‘tmasligi mumkin emas.

Dastlabki axloqiy qonun – qoidalar tanlovni ro‘yobga chiqarishga, yana ham aniqroq aytganda, uni osonroq amalga oshirishga xizmat qilgan. Ilk axloqiy qoida «O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqaga ham ravo ko‘rma» mazmunida dunyoga kelgan. Uning hozirgi zamondagi o‘zbekona ko‘rinishi «Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa o‘zgaga ur», «O‘zingni er bilsang, o‘zgani shyer bil», kabi maqollarda aks etgan. «Axloqning oltin qoidasi» deb atalgan ushbu qoida, bizningcha, eng qadimiy axloqiy talablardandir. Zero, xun olish talabi keyinroq paydo bo‘lgan va insonning asl mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydigan qoidalardan biridir. Barcha muqaddas kitoblarda insonni zo‘rlik bilan jonsiz qilishning mumkin emasligi ta’kidlanadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da axloqiy qonun – qoidalar ishlab chiqilgani diqqatga sazovor. Unda insonni inson tomonidan o‘ldirishgina emas, balki it, ot kabi hayvonlarni jonsiz qilish, daraxt va o‘simliklarni behuda nobud etish qat’iyan man qilinadi. Inson faqat ezgu o‘y, ezgu niyat va ezgu a’mollar bilan yashashi lozimligi ta’kidlanadi. Bibliyada Qobilni o‘ldirgan Hobildan Tangri xun olmaslikni va uni o‘ldirmaslikni talab etadi. Budda ta’limoti ham jonli mavjudotni o‘ldirishni eng katta gunoh, deb biladi. Injilda «O‘z qavmdoshingni sev», «Odam o‘ldirma», degan da’vatlar asosiy qoidalar sifatida namoyon bo‘ladi. Qur’oni karimda esa xun olishdan ko‘ra tovon olmoq ma’qulligi

aytiladi va musulmonlar o‘zaro faqat go‘zal munosabatda bo‘lishi lozimligi ko‘rsatiladi. Demak, dastlabki axloqiy qonun – qoidalar zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan. Shu o‘rinda I.Karimovning: «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin» degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Ana shu, inson ahloqiy hayotining asosi bo‘lgan qonun – qoidalar hozir ham o‘zining zarracha bo‘lsada, ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Odamlar bularni og‘ir majburiyat deb emas, balki bajonidil bajaradigan zamonning tezroq kelishi uchun tinmay harakat qilishlari axloqiy taraqqiyotdan dalolatdir. Zero, ana shu yo‘lda inson o‘z Yaratganiga maqbul shaxs komil inson bo‘lib yetishadi.

An’anaviy axloqshunoslikda ahloqni tarixiy materializm tamoyiliga asoslanib, davriylashtirish qabul qilingan: quldorlik axloqi, feodalizm axloqi, burjua axloqi va boshqa axloqlar buni tarixiylik nuqtai nazarini rad etmagan holda, biz bunday davriylashtirishga ehtiyot bo‘lib munosabatda bo‘lishni tavsiya etardik. Negaki, bunday davriylashtirish axloq ilmini soxtalashtirishga, bir tomonlama qat’iy hukm chiqarishga asoslangan. Chunonchi, unda «quldorlik axloqi» degan tushuncha mavjud va u qat’iy ravishda «Qul – rasmona odam emas, jonli narsa», degan tamoyil bilan ish ko‘radi. Shunday ekan, u holda, yuqorida keltirganimiz, Qadimgi Misr donishmandi Pxatotepning «Pandnoma» sidagi: «Qimmatbaho toshdek yashirindir oqilona so‘z, holbuki uni don tuyayotgan cho‘ridan topish mumkin», degan xikmatini qanday tushunish mumkin? Yoki Qadimgi Yunon masalchisi, qul Ezopga xo‘jayinning munosabati, bekasining uni sevib qolishi yoki Qadimgi Rumoda ba’zi bir ozod etilgan qullarning keyinchalik senatorlardan ham kattaroq obro‘ga ega bo‘lganini qanday izohlaymiz? Yoki «O‘tgan kunlar»dagi Hasanalining Yusufbek hoji oilasidagi mavqei-chi? Xuddi shuningdek, o‘rta asrlarda ajdodlarimiz yaratgan durdona pandnomalarda, odatda, amaldorlar va feodallar emas, balki oddiy xalq vakillari ko‘p hollarda axloqiy jihatdan ustun tasvirlanadi. Abu Bakr ar-Roziy o‘zining «Kambag‘allar tabobati» degan nom bilan mashhur bo‘lgan kitobida, hatto, mana bunday deb yozadi: «Qo‘li qisqa kishilarning bolalari kambag‘al va kamtarona yashayotganliklari tufayli halol, fazilat egalari bo‘lib yetishishlari mumkin, zero, ularning nisbatan sabr- toqat ko‘rsatishlari, tarbiya hamda mashg‘ulotlarda qiyinchiliklarga bardosh berishlari oson ko‘chadi». Axloqiy tushunchalarning nomlari o‘z – o‘zicha mavhum va mantiqiy hodisalardir. Ularning muayyanlashuvi va yashashi makon hamda zamon ichidagi inson xatti – harakatlariga bog‘liq. Masalan, nomus tushunchasini olaylik: u yuqorida keltirganimiz xun olish davrida ham bor edi va ana shu xun olishning amalga oshirilishi orqali ma’no kasb etardi. Tarixga nazar tashlasak, hatto xun olish jarayonining ham taraqqiy topib borganini ko‘rish mumkin. Hozirgi davrga

kelib esa, xun olish axloq muammosi sifatida kun tartibidan chiqib ketdi. Endi nomus tushunchasining asosiy qamrovi boshqacha bo‘lib qoldi. Insonning o‘z nomusini himoya qilishi uning dunyoqarashiga, ilmiga, fikrlashiga, saviyasiga, umuman axloqiy fazilatlariga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, bizning axloqiy hayotimiz, tajribalarimiz, faoliyatimiz ana shu uch omil asosida ro‘yobga chiqadi. Axloqiy kodekslarimiz, me’yorlarimiz va tamoyillarimiz ana shularga asoslanadi. Lekin aldov, yolg‘on, soxtalik va totalitar axloqiy zug‘um hukmronlik qilgan davrlarda yoki mamlakatlarda axloqiy hissiyot, axloqiy anglash, axloqiy munosabatlar qabul etilgan kodekslar, me’yorlar hamda tamoyillarga ko‘pincha to‘g‘ri kelmaydi. Bunda rasmiy axloqiy qonun ustuvorligini tan olinadi, xolos. Bunday qonunlarga asoslanib yashaydigan odamni axloqsiz deb atash o‘rinli. Zero, inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir xatti-harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qur’oni karim. T., «Cho‘lpon», 1992.
2. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. T., «O‘zadabiynashr», 1958.
3. Slovar po etike. M., Politizdat, 1989.
4. Nishonova N.R. Ayollarning akmeologik faolligi – mustahkam oila poydevor // Ta’lim muamolari. Toshkent, 2012. № 1. B. 17-19.
5. Nishonova N.R. O‘tmishdagi ayollarning ijtimoiy faolligi. // Z.M.Boburning 525 yilligiga bag‘ishlangan Respublika yosh olimlar ilmiy to‘plami. Toshkent, 2008. B. 62-64.
6. Nishonova N.R. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda davr ayolining jamiyat va oiladagi o‘rni // Toshkentning 2200 yilligiga bag‘ishlangan “Ustoz va shogird” Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 2009. B. 5-8.
7. Nishonova N.R. Ayollarimiz – jamiyat-ning ma’naviy qiyofasi // Toshkentning 2200 yilligiga bag‘ishlangan “Ustoz va shogird” Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami, Toshkent, 2009. B. 44-46.
8. Nishonova N.R. Xotin-qizlar faolligi jamiyatning poydevori // Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini o‘rganish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: O‘zMU., 2011. B.278-280.

O‘Z-O‘ZINI TASHKILLASHTIRISH JARAYONINING - ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU professori (v.b), f.f.d (DSc)

Annotatsiya: Bugungi kunda insoniyat yangi sohalar, yangi texnologiyalar, yangi kasblar, yangi mutaxassisliklar, yangi fanlar, yangidan yangi innovatsiyalar davrida yashamoqda. Bu kabi yangilanish va rivojlanishlarni qabul qilinishida esa zamonaviy ta’lim-tarbiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi zamon ta’limi o‘z-o‘zini tashkillashtira oladigan, o‘z-o‘zini taraqqiy ettirishning sababchisi va harakat manbai o‘zida bo‘lgan tizim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, tarbiya, tizim, sinergetika, tashkillashtirish, o‘z-o‘zini tashkillashtirish.

O‘z-o‘zini tashkillashtirish haqida fikr yuritar ekanmiz, “tashkillashish” tushunchasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga mufoviqdir. “Tashkillashish” deganda muayyan bir butun qismlarining joylashish tartibi va jarayoni tushuniladi. Tashkillashish oddiy va murakkab ko‘rinishga ega bo‘lgan xossa bo‘lib, tizimlarning strukturasi va funksiyalari birligini ta’minlaydi. Tashkillash xossasining manbai yoki harakatlantiruvchi kuchi tizimning o‘zida bo‘lsa, bu xossa struktura va funksiya holatini parametrlarini o‘zgartirish hisobidan muhitga moslashish xislatini yuzaga keltirsa, unday tizim o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizimga aylanadi. Ta’lim-tarbiya tizimining tashkillanish xossasi uning o‘zida. Bu ta’lim tarkibiga kiruvchi har bir elementning o‘rni muhimligi bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya tizimining o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonida xuddi sinergetik metodologiyada e’tirof etilganidek, tizimning yaxlitligida uni kichik bir elementining funksiyasi ham inobatga olinadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tizimning hattoki kichik bir bo‘lagi ham e’tibordan chetda qolsa, butun bir tizim faoliyatiga ta’sir etadi. Bu esa o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayoniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun insoniyat yangi sohalar, yangi texnologiyalar, yangi kasblar, yangi mutaxassisliklar, yangi fanlar, yangidan yangi innovatsiyalar davrida yashamoqda. Bu kabi yangilanish va rivojlanishlarni qabul qilinishida esa zamonaviy ta’lim-tarbiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi zamon ta’limi o‘z-o‘zini tashkillashtira oladigan, o‘z-o‘zini taraqqiy ettirishning sababchisi va harakat manbai o‘zida bo‘lgan tizim hisoblanadi.

O‘z-o‘zini tashkillash hodisasini o‘rganish XVIII asrdayoq boshlangan. Bu klassik siyosiy iqtisod asoschisi Adam Smitning (1723-1790) nazariy izlanishlari bilan bog‘langan. U o‘zining “Xalqlar boyligining mohiyati va sabablari” asarida bozorda spontan, (ya’ni o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan, tashqi omillar emas, balki

ichki sabablar tufayli yuzaga keladigan) tartiblanish turli, ko‘p hollarda qarama-qarshi maqsad va manfaatlarga ega bo‘lgan qatnashchilarning o‘zaro ta’siri natijasidir, degan g‘oyani bayon etgan [4;157]. Zamonaviy ta’limda ham xuddi shunday, ya’ni tartiblanish uchun ko‘p hollarda qarama-qarshi maqsad va manfaatlarga ega bo‘lgan qatnashchilarning o‘zaro integratsion uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Bu holatni, ayniqsa, hozirgi vaqtda ta’limdagi zamonaviylik va an’anaviylikni uyg‘unlashuvida, taraqqiy etgan xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimi bilan integratsiyasida kuzatish mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayoni ma’lum bir davr sharoitidan, ya’ni tizimning o‘zgarishi ta’sirida taraqqiy etib boradigan, o‘z-o‘zidan tashkillashadigan hamda tartiblashadigan jarayon sanaladi. Professor B.O.Turayev shunday ta’kidlaydi: “Har qanday jismning tanasi va ichki a’zolarining tashkil etgan fazoviy nuqtalar shunday tartibda joylashganki, har bir nuqta o‘zining qat’iy o‘rniga ega, bu tartib buzilsa, bu jism parchalanib ketishi yoki ichi bilan tashqarisining farqi qolmaydi” [3;59]. Shuningdek, bizningcha, “tartiblanish ham o‘z-o‘zidan tashkillashishning bir ko‘rinishidir. Koinotdagi barcha narsa va hodisalar azaldan, ya’ni ilk vujudga kelgan paytlaridan boshlab o‘z-o‘zini tashkillashtiribgina bugungi holatiga yetib kelgan. O‘z-o‘zini tashkillashtira olmagan obyektlar sharoitga moslashmay halokatga uchragan” [6;207]. Tizimning yashovchanligi, uning umri qay darajada o‘z-o‘zini tashkillashtirishiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiya tizimi ham o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyati tufayli yillar davomida har qanday davr, ijtimoiy tuzum, siyosiy, iqtisodiy tebranishlar sinovlariga moslasha olgan hamda o‘z taraqqiyotiga o‘zi sababchi bo‘lgan tizimlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim-tarbiya sistemasi o‘z ishtirokchilari (ta’lim-tarbiya beruvchilar hamda oluvchilar) ni o‘z-o‘zini tashkillashtirishi jarayonida quyidagi muhim funksiyalarni bajarishi mumkin:

- ✓ zamon talabiga mos keladigan ilmiy tafakkur tarzini shakllantiradi;
- ✓ ilmiy dunyoqarashni kengaytirish borasidagi har qanday masalada tanqidiy, kreativ, va mantiqiy yondashuvga yo‘naltiradi;
- ✓ jahon sivilizatsiyasida sodir bo‘layotgan keskin, munozarali o‘zgarishlarni tezkorlik, yaxlitlik va umumiy birlikda o‘zlashtirish, tizimli tahlil etish qobiliyatini rivojlantiradi;
- ✓ ko‘p qutbli olamning ilmiy muammolarini sinergetik tahlil etishga va yangi yechimlarini topishga imkoniyat yaratadi.

A.A.Mukushevning fikricha, sinergetika bilan birgalikda tartibsizlik va tartib almashinuviga asoslangan o‘z-o‘zini tashkil etish jarayoni dunyo tartibining umumbashariy prinsipi ekanligini anglab yetish mumkin [2;95]. Demak, bu borada A.A.Mukushev o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyatini butun dunyodagi barcha jarayonlalarga xos bo‘lgan, rivojlanishning manbai sifatida e’tirof etib “dunyo

tartibining umumbashariy prinsipi", - deya ta'kidlamoqda. Bu ta'rif ta'lim jarayoniga ham bevosita taalluqlidir.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining rivoji, avvalo, uning o'z ichki imkoniyati, salohiyati, mohiyati bilan belgilanadi, o'z taraqqiyotining sababchisi o'zi hisoblanadi. G.Xaken sinergetikani o'z-o'zini tashkillashtirish haqidagi ta'limot sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, "O'z-o'zidan tashkillanishning o'ziga mos qandaydir ta'rifini topish foydalidir. Biz tashqaridan beriladigan biror o'ziga xos (spesifik) ta'sir ko'rsatishsiz (ko'rsatilmagan holda) fazoviy va funksiona [5] strukturaga ega bo'lgan sistemani o'z-o'zidan tashkillanuvchi sistema deymiz. O'ziga xos (spesifik) ta'sir deb esa sistemaga strukturalanish yoki funksionallashishni majburlaydigan ta'sirni tushunamiz. O'z-o'zidan tashkillanish holida esa sistema o'ziga xos bo'lmagan (nospesifik) ta'sirni boshidan kechiradi (unga duch keladi).

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ochiq tizim sifatida kirib keladigan turli xil informatsiya, modda va energiya bizningcha, nospesifik ta'sirlardir. Bu ta'sirlar ta'limni ma'lum bir qolipga solmaydi, qat'iy strukturaga majburan birlashtirmaydi, balki o'z-o'zini takomillashtirishiga, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab olishiga imkon beradi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi bu o'z-o'zidan tashkillanish hodisasida nospesifik tashqi ta'sirlar bilan birga ichki ta'sirlar ham muhim o'rin tutadi. Bu ta'sir, ya'ni ta'lim tizimining o'z-o'zini tashkillashtirishidagi ichki sabab va mohiyat undagi attraktor omillarining faoliyati bilan belgilanadi.

"Bizga ma'lumki, o'z-o'zidan tashkillashish ob'yekt komponentlarining faqat ichki aloqalari hisobidan va o'tmish tarixiga muvofiq kollektiv harakati natijasida vujudga kelishidir" [6;208]. Mazkur masalada faylasuf olim Sh.S.Kushoqov shunday fikr bildiradi: "O'z-o'zicha harakat – bu harakat manbai, sababi, harakatlanuvchan narsaning o'zida bo'ladigan harakatdir. Organizm, odam jamiyat, koinot va shu kabi tizimlar o'z-o'zicha harakat qiladigan "narsalar" dir. Azaldan bu muammo muhokama qilingan, ya'ni koinotning harakati manbai o'zidami yoki uning tashqarisidami?" [4;180].

Bizningcha, ta'lim-tarbiya tizimining harakatlantiruvchi kuchi va manbai uning o'zidadir. Sohada qancha islohotlar amalga oshirilsa-da, tizim rivojiga oid qanchalik rejalar, dastur va loyihalar qo'llanilsa-da, ta'lim-tarbiyaning taraqqiyoti o'z-o'zidan rivojlanish qonuniyati bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya tizimining quyi bosqichdan to yuqori bosqichga qadar yuksalishi, avvalo, uning o'zini-o'zi tashkillashtirish yo'lini tanlab olishiga bog'liqdir. Qolgan barcha islohotlar faqatgina ichki va tashqi ta'sirlar sifatida qaralishi mumkin. Shuni ta'kidlashimiz o'rinliki, ta'lim-tarbiya tizimining o'zini-o'zi tashkillashtirishida turli sabab va ta'sir etuvchi omillar muhim ahamiyatga egadir. Istiqbolni ko'zlagan, oqilona,

tizimli, bosqichma-bosqich, o‘ylangan ta’lim islohotlari va ta’lim taraqqiyoti uchun qabul qilingan mamlakatdagi turli dastur va loyihalar ta’limning o‘zini-o‘zi tashkillashtirishi uchun ta’sir etuvchi sabab va vositalar bo‘la oladi. Ta’lim-tarbiya sistemasi tashqaridan kirib keladigan faol energiya, informatsiya va moddani qabul qilish jarayonida o‘z-o‘zidan tashkillashadi, shu bilan birga qabul qilgan informatsiyalarini takomillashtirib, yangi axborotni ishlab chiqaradi.

Ta’lim jarayonini rivojlantiruvchi harakat manbai uning (tizimning) o‘zida bo‘lib, mazkur tizimda turli o‘zgarishlar amalga oshirilishi, yangilik va islohotlarning kirib kelishi, qo‘llanilishi ichki va tashqi ta’sirlar sifatida amaldagi (eski) sistemani yangilash (o‘zgartirish) hisobidan boshqa bir sistemaning o‘z-o‘zidan tashkillanishiga turtki beradi. Shuningdek, tizimning o‘z-o‘zini tashkillashtirishida uning ichidagi elementlarning faoliyati muhim o‘rin tutadi. Bunga ta’lim-tarbiya beruvchilar salohiyati, ta’lim-tarbiya oluvchilar dunyoqarashi, ilmiy, axloqiy-ma’naviy muhit, ma’lum ijtimoiy sharoit, moddiy resurs va boshqa elementlarni kiritish mumkin.

V.P.Branskiyning ta’biricha, “Agar tizimga hech qanday tashqi, maxsus ta’sirlar bo‘lmay turib, u funksional jihatdan o‘zining tuzilmasini yuzaga keltirsa, biz bunday tizimni o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizim deb ataymiz. O‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasi tanlash asosida rivojlanishning barcha fenomenologik belgilarini, murakkablik, xilma-xillik va moslashuvchanlikni o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu sinergetik nazariya rivojlanishning universal mexanizmi sifatida barcha dissipativ tizimlarga xos bo‘ladi. Jamiyat ham xuddi shunday tizimdir, shu sababdan ushbu nazariya jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita taalluqlidir” [1;119]. Demak, o‘z-o‘zidan tashkillanish jarayoni barcha murakkab, dissepativ sistemalarda uchraydi va bu tashkillanishda ichki va tashqi ta’sirlar tizim strukturasi bilan uyg‘unlashadi. Ta’lim-tarbiya sistemasi ham ichki va tashqi ta’sirlar natijasida o‘z-o‘zini tashkillashtiradigan murakkab tizimlar sarasiga kiradi. Ya’ni, mazkur tizim o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonida to‘xtovsiz ravishda tashqi muhitdan axborot, energiya olib turadi. Bu axborot va energiya uning doimo yangilanib o‘z-o‘zini isloh etib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ta’lim-tarbiya jarayoniga chetdan qabul qilinayotgan energiya va axborot tizim taraqqiyotiga xizmat qilsagina, uning sifatini ijobiy tomonga o‘zgartirsagina o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonining natijasi ham istiqbolli bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya sistemasi yopiq tizim sifatida o‘z-o‘zini munosib tarzda tashkillashtira olmaydi, faqat ochiqlikdagina rivojlanadi, taraqqiy etadi, yuksaladi. Yopiqlik ta’lim-tarbiya tizimining turg‘unligiga, ochiqlik esa tizimning o‘z-o‘zini tashkillashtirishiga asos bo‘ladi. O‘z-o‘zini anglash – bu shunchaki insonning ichki hayoti, his-tuyg‘ulari, fikrlari, xatti-harakatlari, qadriyatlari, afzalliklari, maqsadlari, kuchli tomonlari, qiyinchiliklari, munosabatlari, fikrlash tarzi va

boshqalarni bilish qobiliyatidir [8]. Demak, o‘z-o‘zini anglash jarayonida inson o‘z ichki olamiga nazar soladi, o‘z hissiyotlarini, tafakkurini boshqara oladi, o‘zining faoliyatiga o‘zi ongli ravishda baho bera oladi.

Xulosa:

Birinchidan, zamonaviy ta’lim-tarbiya sistemasi o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizim hisoblanadi. Bugungi zamon ta’limi va tarbiyasining rivoji uning mustaqilligi, erkinligi kabi omillar bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya sistemasida o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyatining amal qilishi, jarayondagi har bir elementning taraqqiyoti orqali amalga oshadi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayoni, ayniqsa, oliy ta’lim tizimi bugungi zamonning har tomonlama rivojlangan, aqlli insonlarini shakllantirishda muhim bo‘g‘in sanaladi. Oliy ta’lim tizimining sifati va samaradorligi o‘z-o‘zini anglab yetgan, o‘z-o‘zini boshqara oladigan, o‘z-o‘zini rivojlantirib, o‘z faoliyatini taraqqiyotga yo‘naltira oladigan kuchli, salohiyatli kadrlarni tayyorlash bilan belgilanadi.

Uchinchidan, o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayoni ta’lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga, kelajak uchun xizmat qilishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda islohotlar shiddat bilan davom etayotgan bir davrda ta’lim-tarbiyani inson kamoloti uchun yo‘naltirish jamiyat taraqqiyoti uchun samarali natija beradi. O‘z-o‘zini tashkillash jarayoni elementlarini ta’lim tizimi orqali inson kamolotiga yo‘naltirish bugungi davrning zaruriy talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бранский В.П. Теоретические основания социальной синергетики. //Вопросы философии. 2000. №4.
2. Мукушев Б.А. Отражение идей синергетики в содержании школьного естественно-научного образования. //Вестник. ТГПУ, 2010. №2 (92).
3. Тураев Б. Борлиқ: моҳияти, шакллари, хусусияти. –Тошкент: ЎзРФА И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011.
4. Қўшоқов Ш. Табиатшунослик фалсафаси. – Самарқанд: СамДУ, 2004.
5. Хакен Г. Синергетика. – Москва: Мир, 1980.
6. Эргашева М.Х. Авестода ўз-ўзини ташкиллаштириш жараёнини англашнинг гносеологик хусусиятлари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2017. № 1.
7. Ergasheva M.X. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025.
8. SEL for Students: Self-Awareness and Self-Management. https://ggie.berkeley.edu/student-well-being/sel-for-students-self-awareness-and-self-management/.

SHAHAR AHOLISIDAGI IJTIMOIY MUAMMOLAR: TAHLIL VA TAKLIFLAR

Xolmirzayev Nodirjon Nizomjonovich
Qo‘qon universiteti v.b. professori
nodirjon89.86@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shahar aholisi orasida yuzaga kelayotgan ma’naviy muammolar, ularning ijtimoiy va falsafiy ildizlari tahlil qilinadi. Muallif urbanizatsiya, individualizm va globallashuv jarayonlarining inson ruhiyati hamda jamiyatdagi qadriyatlar tizimiga ko‘rsatgan ta’sirini ochib beradi. Shahar hayoti insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarning qisqarishi, manfaatparastlik, o‘zaro hurmat va oilaviy qadriyatlarning zaiflashishiga sabab bo‘layotgani qayd etiladi. Maqolada O‘zbekiston jamiyatidagi oilaviy barqarorlik, milliy qadriyatlarni asrash hamda ma’naviy muhitni mustahkamlash zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Muallif shahar hayotida ma’naviy muvozanatni tiklash uchun din, milliy an’ana va insoniy qadriyatlarga tayanish lozimligi haqida takliflar beradi.

Kalit so‘zlar: shahar madaniyati, ma’naviyat, individualizm, globallashuv, urbanizatsiya, qadriyatlar, oila, jamiyat, inson erkinligi, ma’naviy muhit, milliy an’ana.

Davlatlar paydo bo‘lib ular rivojlanish bosqichiga chiqqan bir mahalda aholi o‘rtasida turli munosabatlar tizimlari paydo bo‘ldi. Bu har doim keskin muhitni keltirib chiqardi, unda eng zaiflar bostirildi va kuchlilar o‘zini o‘zi saqlab qolish uchun qizg‘in kurashga chaqirildi. XVIII asr insonni siyosiy, agrar, sinfiy va diniy xarakterdagi zanjirlar bilan zo‘rlik bilan bog‘lab qo‘ydi, inson erkinligi ma’nosini yo‘qotdi. Shaxsga g‘ayritabiiy shart-sharoitlarni yuklaydigan cheklovlar va uzoq vaqtdan beri adolatsizlikka aylangan tengsizlik shakllari yuzaga keldi. Bunday vaziyatda erkinlik va tenglikka da’vat, ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar sohasidagi shaxs faoliyatining to‘liq erkinligiga ishonch ifodasi shakllandi.

Odamlar umume’tirof etgan qoidalarga bo‘ysunish ular uchun foyda keltirmasligini bunday faoliyat ularni harakatdan to‘htatishini anglab yetdilar. Ular o‘z-o‘zini himoya qilish tuyg‘usidan kelib chiqib, o‘zlarini umumbashariy qonun qoidalardan chekladilar hamda erkin faoliyat yoki individuallikga chorladilar. Aslini olganda individualizm muammosi taixan ham mavjud bo‘lib, aynan shu davrga kelib rivojlana boshladi.

Individualizmning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarshi qo‘yish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun ko‘rish bilan bog‘liq xolda qadimgi zamonlardan boshlab shakllangan. Ayrim faylasuflar antik davrlardayoq shaxsiy va jamiyat manfaatlari o‘rtasida keskin ziddiyat vujudga kelishi mumkinligiga e’tibor qaratgan. Bu ziddiyat turli falsafiy oqim va maktablar vakillari tomonidan o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Masalan, Aflotun va

uning maktabiga mansub faylasuflar shaxs manfaatlari jamiyat manfaatlariga to‘liq buysundirilishi zarurligini asoslashga intilgan. Kiniklar esa, aksincha, ijtimoiy kayot kadriyatlarini butunlay inkor etib, shaxs erkinligi va manfaatlari ustuvorligini yoqlab kelgan. [3, 110]

Individualizm, umuman olganda, inson erkinligi uning ma’naviy hayotida farovonlik tuyg‘usi bilan aks ettirishga urinishlar bugungii g‘arb insonining asosiy g‘oyasiga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtda katta shahar hududining kengayishi va shaxsiy erkinlikka bo‘lgan ehtiyojning ortishi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning jahon-tarixiy jarayoni natijasi sifatida qabul qilsak shaharlarni shaxsiy va ijtimoiy erkinlikning yoki individualizmning markazi deb hisoblash mumkin degan xulosaga kelsak bo‘ladi.

Katta shaharning bevosita vizual belgilarida, nafaqat hududning kengligi shuningdek uning aholisining ko‘pligi, bunga katta shaharlar doimo kosmopolitizmning diqqat markazida bo‘lganligi ham katta yordam berdi. Natijada dunyoning va mamlakatimizning shaharlarida ayrim ijtimoiy muammolar yuzaga keldi. Bugun respublikamiz aholisining 98 foizi oilalarda istiqomat qiladi va oilalar soni 7 million 560 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Dunyo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston oila ajralishlari soni kamligi bo‘yicha yetakchi davlatlardan biridir. Vaholanki, shunday davlatlar borki, ularda har ikki oiladan biri ajralish bilan barbod bo‘lmoqda. Albatta, buning sabablari bisyor. Globallashuv davrida olamshumul yutuqlar bilan birga insoniyatning boy berayotgan fazilati — oilaparvarlik o‘rnini individuallashuv, hoyu havaslarga berilish, ota-onalik, farzandlik burch va mas’uliyatlaridan qochish kabi illatlar egallab olayotgani, moddiyat ortidan quvish qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni bartaraf etish, mustahkam, sog‘lom oilalar sonini ko‘paytirish qator davlatlar uchun eng dolzarb yumushga aylangani boisi ham shunda. [2, 3]

Ta’kidlash joiz katta shahardagi iqtisodiy, shaxsiy va ma’naviy munosabatlar inson dunyoqarashining o‘sishi, uning ma’naviy hududining o‘sishiga misol bo‘la oladi. Ammo yuqoridagi fikrlardan ma’lumki bularning barchasi ma’lum chegaralardan tashqariga chiqib ketgan. Insonning rivojlanishida erishgan har bir kengayish keyingi, bir xil emas, balki sezilarli darajada kengayish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada ayrim munosabatlar tizimiga darz ketgan. Ayrim shaharlarning ahamiyati undagi shaxslarning yashashi bilan bog‘liq edi va ular bilan birga yo‘qoladi. Boshqa tomondan, katta shaharda, hatto eng muhim individual shaxslar ham to‘liq mustaqilligi bilan tavsiflanadi. Masalan mashhur kishilarning yashashi shaharga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Katta shaharning eng muhim qadriyati uning xududiy chegaralaridan tashqari funksional ahamiyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning ta’siri qaytariladi hamda katta shahar hayotini muhim

va mas’uliyatli qiladi. Bunday shaharlarda aniq chegaralar va unga xos qadriyat va an’analar shakllanadi.

Ayrim shaharlar vaqt va makonda o‘zini namoyon qiladi, shuning uchun ular o‘zining bevosita chegaralaridan tashqaridagi ta’sirining kattaligini ko‘ramiz. Bu kabi shaharlarga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qonni misol keltirish mumkin.

Shaharlar, eng avvalo, mehnat taqsimotining eng katta rivojlanish markazlaridir. O‘z hajmining o‘sishiga mos ravishda, shahar mehnat taqsimoti uchun tobora ko‘proq shart-sharoitlarni yaratmoqda. U o‘zining kattaligi tufayli ulkan odamlarni sig‘dira oladigan doira yaratadi. Eng xilma-xil mehnat massasi, bir vaqtning o‘zida odamlarning to‘planishi va ularning xaridor uchun kurashi shaxsni mehnatga ixtisoslashishga majbur qiladi, bunda boshqasi tomonidan majburan chiqarib yuborilishi qiyinroq bo‘lishi mumkin. Bu yerda hal qiluvchi narsa shundaki, shahar hayoti tabiat bilan yashash uchun kurashni inson uchun kurashga aylantirganligi, kurashayotgan ustunlik tabiatdan emas, balki insondan kelayotganligidir. Chunki bu yerda gap yuqorida aytib o‘tilgan ixtisoslikda emas, balki chuqurroq narsada. Sotuvchi har doim mijozlarda yangi va maxsus ehtiyojlarni yaratishga intilishi kerak. Hali tugab bo‘lmaydigan daromad manbasini, osonlik bilan almashtirib bo‘lmaydigan mehnatni topish uchun ishni ixtisoslashtirish zarurati aholi ehtiyojlarining farqlanishiga, takomillashishiga, ko‘proq boyligiga ta’sir qiladi, bu esa, o‘z navbatida, uning muhitida paydo bo‘lishiga olib kelishi kerak.

Bu jarayon ma’naviy, tor ma’noda ma’naviy fazilatlarning individuallashuviga olib keladi va bu yo‘nalishda o‘z hajmi va hayot tarziga ko‘ra shahar ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerda bir qator omillarni aytib o‘tish mumkin. Birinchidan, katta shaharlardagi hayotning ulkan ko‘lamini hisobga olmasdan ma’naviy qadriyatlarni mensimaslikka urinish bo‘lsa ikkinchidan insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda manfaatlar tizmining yuqori o‘ringa qo‘yilishidir. Bu bizning og‘riqli tomonlarimiz hisoblanib uni bartaraf etmasdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ga erishib bo‘lmaydi. Zero prezidentimiz ta’kidlab aytganlaridek - “Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma’naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas’ulmiz”. [1, 37]

Ammo hozirgi kunda odamlar o‘zlaridan boshqalardan farq taassurotlarini uyg‘otib, qandaydir tarzda ijtimoiy doiraning e’tiborini o‘z tomoniga tortishga urinmoqdalar. Oxir-oqibat, bu ataylab ekssentrikliklarga, katta shaharga xos bo‘lgan isrofgarchiliklarga, o‘z-o‘zini izolyatsiyaga, injiqliklarga, da’vogarlikka olib kelmoqda. Bularning ma’nosi endi u yoki bu xatti-harakatlarning mazmunida

emas, balki faqat uning shaklida yoki ko‘rinishidadir. Biroq, ko‘pchilik uchun bu boshqalarning e’tibori tufayli o‘zingizni qadrlashni boshlash va ma’lum bir joyni egallab turganingizni anglashning yagona yo‘li xolos. Shahar aholisining bunday hatti-harakati individullashish jarayoni hisoblanib ular turli marosimlar ko‘rinishida ham aks etmoqda.

Shu ma’noda, bitta sezilmaydigan, ammo uning natijalarining yig‘indisida sezilarli darajada namoyon bo‘ladigan omil mavjud. Bu kichik shaharlar bilan solishtirganda odamlarning bir-biri bilan uchrashuvlarning qisqaligi va kamligi. Bu holat o‘zini yanada keskinroq ko‘rsatishga harakat qiladi, shaxs to‘g‘risida aniq tasavvur allaqachon tez-tez va uzoq uchrashuvlar orqali berilganidan ko‘ra to‘liqroq, ehtimol ko‘proq xarakterli bo‘lib boradi. Biroq, katta shaharlarning shaxsning eng katta individuallashuviga ta’sirining eng chuqur sababi - bu har doim to‘g‘ri bo‘ladimi yoki yo‘q - fikrimizcha quyidagilar hisoblanadi.

Zamonaviy madaniyatning rivojlanishi sub’ektiv ruhdan ob’ektiv ruh deb atash mumkin bo‘lgan narsaning ustunligi bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki til va jamiyatda, texnika va san’atda, fan va uy-ro‘zg‘or buyumlarida shunday ruh mavjudki, uning kundalik o‘sishi uchun sub’ekt unchalik tez sur’atda bo‘lmaydi va ko‘pincha undan orqada qoladi. Agar biz so‘nggi 100 yil ichida, ob’ektlar va bilimlarda, muassasalar va qulayliklarda o‘zida mujassam bo‘lgan ulkan madaniyatga e’tibor qaratsak va uni o‘sha davrda alohida shaxslar erishgan madaniy muvaffaqiyatlar bilan solishtirsak ular o‘rtasidagi farq juda katta bo‘ladi. Ba’zi bir nuqtalarda, hatto shaxslar o‘rtasida madaniyatning regressiyasini qayd etish mumkin. Bu bugungi kunda inson qadridan ko‘ra narsa va buyumlarga o‘chlikda namoyon bo‘lmoqda.

G‘arb faylasuflarining qarashlarida kam individualizm masalalari yorqin ifodasini topgan. V.G. Fedotova “Yaxshi jamiyat” nomli monografiyasida so‘ngi vaqtda jamiyatda yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlarga xamda kishilar hayotini, haqiqatan ham, yaxshilashi mumkin bo‘lgan eng ma’qul muqobilliklar bilan birga davrimizda yuz berayotgan xatarning ortishi, global va cheklangan narsalar nisbatining o‘zgarishi, umid qilinayotgan tinchlik o‘rniga millatchilikning kuchayishi, cheklangan urushlar hamda terrorchilikning kuchayishini, g‘arb jamiyatidagi chuqur qadriyatli o‘zgarishlar vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar hayotning barcha sohalariga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlarini yoritadi. U individuallashgan ommaviy jamiyatning asosiy belgisi, deydi u (garchi begonalashgan biroq, o‘zaro bir-biriga o‘xshash individlardan tashkil topgan ommani nazarda tutuvchi individuallashgan so‘z birikmasi parodoksal bo‘lib ko‘rinsada) - individuallikni, shaxsni yaratmasdan individlashuv, fakat o‘zi xaqida o‘ylovchi xudbin shaxsni shakllantirishdir. [4, 111]

Bu asosan kuchaygan mehnat taqsimoti va boylikka intilishning natijasidir, chunki bunday holat shaxsdan tobora ko‘proq bir tomonlama ishni talab qiladi, bu esa o‘zining eng yuqori rivojlanishida ko‘pincha shaxsni butunlay o‘ldiradi.

Amalda inson o‘zi anglaganidan ham kuchliroq bo‘lib, individuallashuv sabab arzimas darajaga tushib qoldi, asta-sekin barcha taraqqiyotni, barcha ma’naviyatni o‘ziga jalb qiladigan ulkan ob’ektlar va kuchlar tashkiloti oldida chang zarrasiga aylandi. Natijada u moddiy qadriyatlar qo‘lida qulga aylandi. Bularni bartaraf etishning birgina yo‘li fikrimizcha muqaddas dinimiz buyurgan ishlarni og‘ishmay bajarishdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, katta shaharlar bu madaniyatning asosiy maydoni bo‘lib, u har bir narsadan ustun turadi. Bu yerda, binolar va ta’lim muassasalarida, texnika mo‘jizalari va qulayliklarida, ijtimoiy hayot shakllarida va tashqi davlat institutlarida, kristallangan, xissiz ruhning shunday ulkan massasi borki, aytish mumkinki, uning oldida insonlar mutlaqo ojiz xolga kelib qolmoqda.

Ta’kidlash joiz bunda bir tomondan, hayot inson uchun cheksiz oson bo‘ladi, chunki har tomondan hayajon va qiziqishlar uning vaqtini va fikrlarini to‘ldirish uchun keladi va bu uni doimiy ravishda oqimda ushlab turadi. Ammo, boshqa tomondan, shaxsning hayoti haqiqatan ham ko‘proq shaxsiy bo‘yoq va o‘ziga xoslikni bostirishga moyil bo‘lgan shaxsiy bo‘lmagan mazmun va materiallardan iborat bo‘lib qoladi. Shunday qilib, bu shaxsiyat qutqarilishi uchun eng katta o‘ziga xoslik zarur. Bunda milliy qadriyatlar omili muhim o‘rin tutadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki biz individullashuvni yoqlar ekanmiz jamiyatda milliy qadriyatlardan begonalashuv paydo bo‘ladi. Odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat yo‘qoladi. Ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida o‘zaro tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Bu jarayonlarning eng daxshatli tomoni ota-ona va farzand o‘rtasidagi eng nozik munosbatlarga darz ketadi. Bir so‘z bilan aytganda shaharlashuv madaniyatining ushbu omili xalqimiz an’analari va qadriyatlarini rivojlanishga zid hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:

1. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baho. T.2. – T.: «O‘zbekiston», 2018. – B.37.
2. Narbaeva T.K. Oila institutini mustahkamlashga innovatsion yondashuv – mamlakat taraqqiyotining muhim omili. Falsafa va xuquq 2018 y. - №2 B-3
3. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar. T.; Turon zamin ziyo – 2015 y. B-110
4. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar. T.; Turon zamin ziyo – 2015 y. B-111

G‘OYALAR TRANSFORMATSIYASINING GLOBALLASHUV JARAYONIGA TA’SIRI

Uralov Dilshodbek
Alfraganus universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.v.b.
E-mail: duralov589@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘oyalar transformatsiyasi jarayonining globallashuv davrida inson ongi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy tafakkurga ko‘rsatgan ta’siri, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, axborot oqimlari orqali g‘oyaviy raqobatning kuchayishi, turli mafkuraviy model va qadriyatlarning o‘zaro aralashuvi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘oya, transformatsiya, globallashuv, mafkura, axborot makoni, milliy manfaat, g‘oyaviy raqobat, madaniy identitet, mafkuraviy xavfsizlik, yoshlar tafakkuri.

Globallashuv jarayonlari sharoitida u yoki bu mamlakatning milliy manfaatlariga qarshi qaratilgan tahdidlar orasida g‘araz niyatli kuchlar tomonidan axborot xurujlari tizimini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilayotgani ularning fuqarolar ongiga ta’sir etish kuchining yuqoriligi bilan izohlanmoqda. Axborot olamidagi ustunlik ko‘p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat ham kasb etmoqda. Keyingi yillarda tez-tez qaytalanayotgan tabiiy ofatlar, to‘fon va suv toshqinlari ko‘plab mamlakatlar qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatiga katta salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Misol uchun, Hindistonda dengiz va okean sohillarida mavjud bo‘lgan katta ekin-tikin yerlari doimiy tabiiy ofatlar tahdidi tufayli oxirgi ikki yil ichida boshqa maqsadlarda ishlatila boshladi. Ya’ni ushbu hududlarda ilgari shakarqamish ekilgan edi, endilikda bu ekin maydonlari yo‘q qilindi, chunki doimiy suv toshqinlari, dengiz to‘fonlari ekindan hosil olish imkonini bermayapti. Natijada, jahon bozoriga shakarqamish va boshqa shu kabi mahsulotlarning eng katta miqdorda yetkazib beradigan Hindiston o‘z ichki ehtiyojlarining bir qismini import hisobiga qoplashga majbur bo‘lmoqda. Bu esa, jahon miqyosida shakar mahsulotiga bo‘lgan talabni va shu tarzda narx-navoning oshib ketishiga olib kelmoqda.

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan tashkiloti va Jahon banki keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 1-2 yilning o‘zida dunyoning 35 dan oshiq davlatida aynan shu muammo tufayli ommaviy to‘qnashuvlar, siyosiy noroziliklar yuz berdi. BMT hisob kitoblariga ko‘ra, oziq-ovqat tanqisligi natijasida 2025-yil hisobodan, dunyoning 1,2 mlrd. kishilik aholisi

ochlikka yuz tutishi mumkin. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash mumkinki, bugungi dunyo xaritasida davlatlararo majorolar, qurolli to‘qnashuvlar, ochiqdan-ochiq kuch ishlatish, BMT va boshqa tegishli xalqaro tashkilotlarning qarorlarini toptash holatlari ko‘payib bormoqda.

Butunjahon miqyosida, markazida AQSh turgan bir qutbli dunyo tartibi tanazzulga yuz tutib, umuman qutbsiz, yoki ko‘p qutbli yangi tartib shakllanmoqda. Mintaqaviy miqyosda, ba’zi xalqaro tashkilotlar o‘z obro‘sini yo‘qotib bormoqda, xalqaro maydonda yangi obro‘li tashkilotlar paydo bo‘lmoqda. Jumladan, Yevropada Hamkorlik va Xavfsizlik Tashkilotining xalqaro ahamiyati kamayib borayotgan bir paytda, Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘z ta’sir doirasini kengaytirib bormoqda.

Xalqaro qurolli mojarolar soni kamaymasdan ko‘payishda davom etmoqda. Yaqin Sharq muammosi, Isroil-Falastin munosabatlari, Eronning yadroviy dasturi, Hindiston-Pokiston o‘rtasida ziddiyat, Iroqdagi va Afg‘onistondagi ko‘p yillik urushlar, Rossiya-Ukraina urushi, Eron-Afg‘oniston munosabatlarining keskinlashuvi hamon tinch aholi vakillari hayotiga zomin bo‘lib kelmoqda hamda ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga va butun jahonda tinchlikni saqlash yo‘lidagi urunishlarga katta to‘g‘anoq bo‘lib qolmoqda.

Afsuski, bugungi dunyo miqyosidagi tangliklar yuqorida sanab o‘tilgan o‘ta dolzarb va murakkab global muammolar bilangina cheklanib qolmaydi. Dunyo siyosiy manzarasida avj olib borayotgan muammolar ichida dinlararo, millatlararo, madaniy-tamaddunlararo nizolar va to‘qnashuvlarni, informatsion-kiber terrorizm, noqonuniy qurol va narkotik moddalar savdosi, odam savdosi kabi turli xildagi tahdid va xavflarni sanab o‘tish mumkin. Jumladan, diniy aqidaparastlik xalqaro terrorizmning kengayishiga, G‘arb davlatlarida islamofobiya jarayonining keskin tus olib ommaviy siyosiy darajada avj olishiga olib kelmoqda. Zamonaviy voqelik dindan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanish davom etishi barobarida, u o‘ta nozik tus va xatarli ko‘rinishlar olayotganidan guvohlik bermoqda[1].

Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.

Hozirgi davrda jahon maydonlarining mafkuraviy bo‘lib olishga urinishlar kuzatilmoqda. Geosiyosiy globallashuv jarayonining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qilayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Bu sharoitda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lib qolmoqda[2].

Yadro poligonlari qayerda joylashgani, uning quvvatini, qanday maqsadga yo‘nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo, yovuz va yot

mafkuraviy maqsadlarni qayerdan va qanday yo‘llar bilan insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib bo‘lmaydi.

“Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha yuz yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negiziga bepisandlik bilan qarash, ularni qo‘porib tashlashga yo‘naltirilgan tahdidlar odamni tashvishga solmay iloji yo‘q.

Bugungi kundagi turli mafkuraviy markazlar chetdan turib, yoshlar ongiga “mutloq erkinlik”, “chegarasiz erkinlik”, “erkin axloq” degan soxta g‘oyalarni singdirishga zo‘r bermoqda. Bu yo‘lda “ommaviy madaniyat” namunalaridan, turli axborot texnologiyalaridan radiotelevidenie, internetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanmoqdalar. Zero, “millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf ostida saqlanib qolishi muqarrar”– deb yozadi Prezidentimiz[1].

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so‘z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Milliy istiqlol g‘oyasiga zid bo‘lgan va begona g‘oyalarning kirib kelishiga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug‘ maqsadlarni amalga oshirishdan og‘dirishda urinishlar bo‘lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarning tarafdorlari “do‘st”, “millatdosh”, “vatandosh”, “dindosh” bo‘lib ko‘rinish maqsadida o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga urindilar. Natijada, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli xil qarashlar aholi, ayniqsa, yoshlar ongini egallashga harakat qildi[3,43].

Turli mamalakatlarni mafkuraviy zabt etish g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Ya’ni, jamiyatni mafkurasizlantirishga, g‘oyasizlantirishga yo‘naltirilgan axborotlar bozorida ma’naviy-madaniy, g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan saviyasi past bo‘lgan audio va video kassetalar, ahloqsizlikka olib keladigan adabiyolar va boshqa “san’at asarlarining” sotilishi kimlar uchundir juda katta foyda manbai bo‘lib qolayotganligi hammaga ma’lum.

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta’sir o‘tkazishning yangidan-yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-ochiq qoralash, yerga urish yoki ayrim tarixiy voqea-xodisalarni umuman bo‘lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan xissa qo‘shgan ulug‘ allomalarimizni bizga aloqasi yo‘qdek qilib ko‘rsatishga urinishlar mavjud. Shuningdek, mintaqa davlatlari o‘rtasida ziddiyatlar keltirib

chiqarish va jahon afkor ommasida O‘zbekiston haqida noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirishga bo‘layotgan intilishlarni hech qachon e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Mana shunday vaziyatda milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda joylardagi rahbar shaxslarning, shu jumladan din sohasida oddiy fuqarolarga qaysidir ma’noda rahbarlik qiluvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi imomlar oldida quyidagi muhim vazifalar turibdi:

- mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilayotgan hozirgi davrda milliy istiqlol g‘oyasini keng jamoatchilik ongiga singdirish. Bu borada kadrlar faoliyati, uning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etish yo‘llari, usul va vositalarini tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi;
- mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish, mafkuraviy profilaktika ishlarini o‘z vaqtida olib borish lozim;
- yot g‘oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish;
- mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy ishlar majmuini, bir so‘z bilan aytganda, bu sohada to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish;
- jamiyatda sog‘lom muhitni qaror toptirish;
- O‘zbeksiton manfaatini o‘ylab ish yuritish;
- mustaqillikni mafkuraviy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan davlat islohotlarini joylarda bekamu-ko‘st bajarilishini ta’minlash;
- geosiyosiy konsepsiyalarni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish, jahondagi umumiy ahvol, shu jumladan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini bilishni talab etadi[4,125].

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamon ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikr bildirib o‘tgan edi.

XULOSA. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bugungi geosiyosiy jarayonlarni turlicha ta’riflab, uni har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatlarini aks ettirgan. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr geosiyosatning globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda.

Bunday ta’rif ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda zamonoviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgargidek, “bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q”, deb beparvo qarab bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirzieevning-oliy-25-01-2020.
2. M. Muxammadsiddiqov. Afrika davlatlarida din omilining etnik va millatlararo ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta’siri. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2015 yil №2(70). –B.90.
3. Xakimov A. Globallashuv jarayonlari tufayli yoshlar tarbiyasida ro‘y berayotgan ma’naviy tahdidlar. “Globallashuv jarayonida axborot xavfsizligi: informatsion tahdid va mafkuraviy immunitet masalalari”. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. Farg‘ona: 2013. –B.43.
4. Sayitxonov A. Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash – eng ustuvor vazifa. “Globallashuv jarayonida axborot xavfsizligi: informatsion tahdid va mafkuraviy immunitet masalalari”. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. –Farg‘ona: 2013.
5. Uralov D. Ibn Sinoning falsafiy qissalarida axloqiylik me’zonlarining badiiy obrazlar orqali ifodalanishi // “Tamaddun nuri” Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. UDK: 930.905. ISSN 2181-8258. DOI prefiksi:10.69691. 10 (61) 2024.
6. Uralov D. Ibn Sino axloqiy qarashlarida yaxshi va yomon xulqlar haqida // “Tamaddun nuri” Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. Impakt faktor-9.347. UDK: 091.274.11. ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691 2025-yil, 6-son (69). 2025.
7. Uralov D. On human morality and professional culture in the ethical views of Ibn Sino // “Science Problem” (Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari) 5-jild, 6-maxsus son, iyul 2025, ISSN: 2181-1342. DOI: 10.47390/SPR1342V5S16Y2025. 89-93-betlar.
8. Uralov D. The importance of the views of children's education and moral virtues in the works of Ibn Sina today // Western European Journal of Historical Events and Social Science. ISSN

ZAMONAVIY FALSAFIY VA ILMIY TASAVVURLAR KONTEKSTIDA KOMMUNIKATIV REALLIKNING MOHIYATI

Yakubova Mavluda Iskandarovna
O’zbekiston Milliy universiteti, Falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: mavlyudayakubov0@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, zamonaviy falsafiy va ilmiy tafakkur nuqtayi nazaridan kommunikativ reallikning mohiyati tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi natijasida inson faoliyati va ongida shakllanayotgan yangi kommunikativ tajriba o‘rganiladi. Tadqiqotda kommunikativ reallik ijtimoiy ong, madaniyat va texnologik taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi murakkab tizim sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ reallik, axborot jamiyati, raqamli madaniyat, ijtimoiy ong, falsafiy tafakkur, texnologik kommunikatsiya.

Zamonaviy falsafiy va ilmiy tafakkur doirasida kommunikativ reallik tushunchasi inson mavjudligining ontologik, bilish va ijtimoiy asoslarini qayta anglashga xizmat qiluvchi muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi. Hozirgi globallashuv, axborotlashuv va raqamli texnologiyalar davrida insonning dunyoni idrok etish, uni tushunish va u bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish jarayoni bevosita kommunikatsiya orqali amalga oshmoqda. Shu bois kommunikativ reallik faqatgina axborot almashinuvi yoki til vositasidagi muloqot emas, balki inson va jamiyat o‘rtasida ma’no yaratuvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi murakkab mavjudlik shaklidir. Falsafiy nuqtai nazardan olganda, kommunikativ reallik inson borlig‘ining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u til, ong va ijtimoiy munosabatlar o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G.Gadamerning germenevtik falsafasi, M.Baxtinning dialogik konsepsiyasi, Y.Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi hamda N.Luhmannning ijtimoiy tizimlar nazariyasi bu tushunchaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qildi. Ushbu qarashlarga ko‘ra, inson o‘z “men”ini faqat muloqot jarayonida anglaydi, haqiqat esa yakka subektning fikrida emas, balki subektlararo muloqot, o‘zaro tushunish va kelishuv jarayonida shakllanadi. Shunday qilib, kommunikativ reallik – bu haqiqatning tayyor shakli emas, balki haqiqatning shakllanish jarayonidir, ya’ni insonlar o‘zaro aloqada bo‘lgan sari dunyoni birgalikda yaratadilar.

Ilmiy yondashuvda esa kommunikativ reallik sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, semiotika va axborot texnologiyalari kabi fanlar kesishmasida o‘rganiladi. U inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini, axborotning nafaqat texnik uzatilishi, balki ma’no ishlab chiqish jarayoni ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar, internet va sun’iy intellekt tizimlari kommunikatsiya shakllarini tubdan o‘zgartirib, insonning dunyo bilan o‘zaro munosabatini yangi bosqichga olib chiqdi. Virtual olamda shakllanayotgan tajribalar inson idrokining chegaralarini kengaytirib, real va virtual o‘rtasidagi farqni noaniq holga keltirdi. Shu tariqa, kommunikatsiya bugungi kunda ijtimoiy haqiqatni yaratishning asosiy vositasiga aylandi. Natijada, kommunikativ reallik zamonaviy inson hayotining markazida turuvchi, ma’no va qadriyatlarni ishlab chiqaruvchi, jamiyatning ma’naviy va madaniy qiyofasini belgilovchi hodisa

sifatida namoyon bo‘lmoqda. U nafaqat tashqi axborot maydoni, balki insonning ichki dunyosini ham qayta shakllantiradi. Til, ramz, belgi va raqamli kodlar orqali mavjud bo‘lgan ushbu reallik insonni yangi “kommunikativ mavjudlik” bosqichiga olib chiqmoqda. Demak, zamonaviy falsafiy va ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan kommunikativ reallik insonning borlig‘i, bilish faoliyati va ijtimoiy o‘zini anglash jarayonining yagona integratsion maydonidir. U inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali nafaqat mavjudlikni ifodalaydi, balki uni yaratadi ham.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda kommunikativ reallik fenomeni inson va borliq, tafakkur va til, ong va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni ifoda etuvchi markaziy kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. XXI asr ilmiy paradigmasi insonni faqat biluvchi subekt sifatida emas, balki ma’nolarni yaratib, ularni muloqot orqali qayta ishlab chiquvchi mavjudot sifatida talqin etadi. Shu ma’noda, kommunikativ reallik ontologik jihatdan borliqning yangi shakli, gnoseologik jihatdan bilishning ijtimoiy modeli, mantiqiy jihatdan esa dalillash va tushuntirishning universal mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ontologik nuqtai-nazardan, kommunikativ reallik mavjudlikning muloqotli shakliga aylanmoqda. Insonning mavjudligi endilikda o‘z-o‘zidan mustaqil borliq emas, balki uzluksiz axborot almashinuvi, til va fikr orqali yaratilayotgan jarayondir. Ustoz D.Fayzixodjayeva ta’kidlaganlaridek: “Axborot-kommunikativ texnologiyalar muloqotning nafaqat shaklini, balki borliqning o‘zini konstruktiv tarzda qayta yaratmoqda”[1,6]. Bu fikr ontologik jihatdan nihoyatda muhim - chunki unda borliqning mohiyati substansial emas, balki kommunikativ asosli sifatida talqin etiladi. Ya’ni, mavjudlikning o‘zi muloqotda vujudga keladi va kommunikativ harakat orqali doimiy qayta tiklanadi. D.Fayzixodjayeva nazariyasida ontologik borliq “kommunikativ logos” asosida izohlanadi - bu esa, klassik metafizikaning substansiya markazli modelidan farqli o‘laroq, mavjudlikni faol jarayon sifatida tushuntirish imkonini beradi. Shunday qilib, kommunikativ reallikning ontologiyasi mavjudlikning ijtimoiy, semiotik va axborotli birligidir.

Mazkur jihatni Sharq falsafiy merosida ham kuzatish mumkin. T.Norov o‘z tadqiqotida: “Borliqning mohiyati va uning in’ikos shakllari tafakkur va til orqali muloqotda namoyon bo‘ladi”[2] – deb e’tirof etadi. Bu yondashuvda ontologiya muloqotning ilohiy va ma’naviy mohiyatini ochadi. Insonning borliqdagi mavjudligi uning fikr, so‘z va amal birligida mujassam topadi. T.Norovning qarashlari zamonaviy kommunikativ ontologiya uchun o‘ziga xos g‘arbona muqobilni taklif etadi, u borliqni muloqot orqali anglashni texnologik emas, ma’naviy-tasavvufiy jarayon sifatida tushuntiradi. Shu bois, D.Fayzixodjayeva tomonidan ta’kidlangan axborot-kommunikativ borliqni T.Norovning “muloqotli mavjudlik” konsepsiyasi bilan uyg‘un holda ko‘rish, zamonaviy ontologiyani madaniyatlararo asosda boyitadi.

Gnoseologik nuqtai nazardan, kommunikativ reallik inson bilishining yangi fazasini ifoda etadi. Inson tafakkuri endilikda nafaqat ob’ektiv haqiqatni izlaydi, balki kommunikativ aloqalar jarayonida uni ishlab chiqaradi. A.Haydarova, “Virtual reallik inson tafakkurining gnoseologik o‘lchovi sifatida, bilishning yangi algoritmik tuzilmasini yaratadi”[3] – deb yozadi. Uningcha, bilish jarayoni endilikda texnologik vositalar orqali muloqotga kirishuvchi onglar o‘rtasidagi

interaktiv faoliyat sifatida kechadi. Demak, bilish jarayoni faqat subektiv idrok yoki ob’ektiv kuzatuv emas, balki ijtimoiy-kommunikativ harakatdir. Bu jihat “bilimning kommunikativ epistemologiyasi”ni asoslaydi. Bilish - bu muloqot orqali haqiqatga erishish jarayoni. Bu fikrni S.Turabova ilmiy bahsning gnoseologik mohiyatini tahlil etar ekan, “Bahs va munozara haqiqatni izlashning mantiqiy vositasi sifatida, bilish jarayonining ijtimoiy tabiatini ochib beradi”[4]. Uning fikricha, inson bilimga muloqot orqali yaqinlashadi, demak, epistemik haqiqat yakka subekt ongining mahsuli emas, balki argumentativ jarayonda shakllanadigan umumiy ijtimoiy konstrukt sifatida mavjud. D.Fayzixodjayeva bu fikrni yanada kengaytirib, “argumentlash jarayonida chinlik va maqbullikning o‘zaro nisbati muloqotning mantiqiy tuzilmasini belgilaydi”[1,12]. Bu tahlilda bilish jarayoni mantiqiy asoslash orqali ijtimoiy muloqotning madaniy qoidalariga bo‘ysunadi. Haqiqatning gnoseologik mohiyati esa, argumentativ muloqot orqali shakllanadigan “kelishilgan chinlik”dir.

Kommunikativ reallikning mantiqiy tahlili uning mantiqiy-epistemik strukturasini ochib beradi. Professor D.Fayzixodjayeva bu borada quyidagi fikrni ilgari suradi: “Argumentlashning kommunikativ strukturasida chinlik va maqbullik o‘zaro nisbati, mantiqdagi shakl va mazmun dialektikasini ijtimoiy nutq darajasida qayta belgilaydi” [1,65]. Bu yondashuv mantiqni abstrakt formal tizimdan insoniy muloqotga yo‘naltirilgan faol jarayonga aylantiradi. Mantiq bu yerda faqat isbotlash mexanizmi emas, balki muloqot ishonchliligini ta’minlovchi axloqiy-intellektual meyor sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, D.Fayzixodjayeva nazariyasi J.Habermasning “kommunikativ aql” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi, va u milliy falsafaning madaniy-axloqiy asoslariga tayanadi. X.Toshov esa mantiqiy kommunikatsiyaning radikal jihatini tahlil qilib, manipulyativ argumentatsiya orqali inson ongining boshqaruvchanlik darajasini ochib beradi. U, “formal mantiqning yetarli asos va uchinchisi istisno qonunlarini buzish orqali simulyatsiyalangan haqiqat hosil qilinadi, bu esa kommunikativ reallikda ongni boshqarishning argumentatsion mexanizmini shakllantiradi” [5,13]- deb yozadi. Bu yondashuv mantiqiy tizimlarning kommunikativ xavfsizlik nuqtai nazaridan ham o‘rganilishini zarur qiladi. X.Toshov tahlilida manipulyatsiya faqat ijtimoiy ta’sir vositasi emas, balki mantiqiy qonunlarning suiste’mol qilinishi orqali yaratilgan soxta mantiqiy tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, kommunikativ reallikni ontologiya, gnoseologiya va mantiq kontekstida bir butun tarzda talqin etish inson tafakkurining hozirgi bosqichidagi sinteziga asoslangan mohiyatini ochib beradi. D.Fayzixodjayeva tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ argumentatsiya nazariyasi ushbu sintezning metodologik markazida turadi. U muloqotni mavjudlikning ontologik negizi, bilishning ijtimoiy modeli va mantiqning kommunikativ strukturasiga asoslovchi falsafiy konsepsiya sifatida talqin etadi. T.Norovning muloqotli ontologiyasi, A.Haydarovaning virtual gnoseologiyasi, S.Turabovaning epistemik dialektikasi va X.Toshovning argumentatsion mantiqi bilan birgalikda D.Fayzixodjayeva konsepsiyasi zamonaviy kommunikativ falsafaning integral poydevorini tashkil etadi.

Kommunikativ reallik tushunchasi XXI asr falsafasida inson borlig‘ining eng murakkab va ko‘p qirrali shakli sifatida shakllanmoqda. Bu reallikda borliq,

bilim va tafakkur o‘zaro kommunikativ jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois kommunikativ reallikning mohiyatini anglash - ontologiya, gnoseologiya va mantiq kabi falsafaning fundamental sohalarining uyg‘un talqinini talab etadi. Ontologik nuqtai nazardan kommunikativ reallik mavjudlikning muloqot orqali vujudga kelishidir. M.Xaydegger “Til mavjudlikning uyi” (“Die Sprache ist das Haus des Seins”) deb yozar ekan, u mavjudlikni tildan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Bu fikrga tayanib, kommunikativ reallikni insoniy mavjudlikning zamonaviy tildagi modifikatsiyasi sifatida talqin qilish mumkin. Chunki zamonaviy insonning borligi endi nafaqat tabiiy dunyo, balki tarmoq va axborot oqimlari orqali ifodalanmoqda. Mavjudlikning kommunikativ shakli insonning boshqa insonlar bilan o‘zaro muloqoti, belgilar tizimi, raqamli kodlar va tarmoqdagi diskurslar orqali shakllanadi. Shu jihatdan Xaydeggerning ontologik konsepsiyasi zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida yangi ma’noda talqin qilinadi. Biroq Xaydegger ontologiyasining tanqidiy jihati shundaki, u tildagi mavjudlikni ontologik markaz sifatida ko‘rgan bo‘lsa-da, zamonaviy axborot makonida tilning o‘rnini algoritmik belgilar tizimi egallagan, demak, mavjudlikning “uy”i endi so‘z emas, kodga aylanmoqda.

Yurgen Habermasning “kommunikativ harakat nazariyasi”da reallik “insonlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish jarayonida, diskursiv harakat orqali shakllanadi”[6,54] deb ta’riflanadi. Habermas fikricha, reallik ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasidagi intersub’ektiv kelishuv jarayonidir. Biroq ushbu yondashuvga tanqidiy yondashilsa, u ontologiyani haddan tashqari intersub’ektivlashtirib yuboradi. Chunki mavjudlik faqat ijtimoiy kelishuv emas, balki kommunikatsiyadan mustaqil, fizik, biologik va texnologik qatlamlarga ega jarayondir. Shu bois Habermasning ontologik modeli kommunikativ reallikni to‘liq anglash uchun yetarli emas, biroq u kommunikatsiyani mavjudlikning ijtimoiy shakli sifatida talqin etishda metodologik asos yaratadi.

Gnoseologik nuqtai nazardan kommunikativ reallik bilishning yangi modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Jan Fransua Lyotar “Postmodern sharoitda bilim – bu ma’lumotlar almashinuvi samaradorligi bilan o‘lchanadigan tovar” deb yozadi. Bu fikrda gnoseologik jarayonning iqtisodiy va kommunikativ tus olgani yaqqol ko‘rinadi. Bilim endi haqiqatga emas, balki axborot aylanish tezligiga bog‘liq. Bu holat, bir tomondan, bilishning demokratlashuviga olib kelsa-da, boshqa tomondan, haqiqat mezonining kommunikativ muvaffaqiyat bilan almashtirilish xavfini tug‘diradi. Shu bois Lyotar ta’limotiga tanqidiy yondashilsa, u gnoseologiyani haqiqatdan emas, tizimning o‘zidan kelib chiqadigan utilitar jarayonga aylantiradi.

Farida Yuldasheva “Islom qadriyatlari jamiyat ma’naviy yangilanishida insonni muloqot orqali haqiqatni anglashga undovchi qadriyatlar tizimini yaratadi”[7,103-106] deb yozadi. Unga ko‘ra, gnoseologiya faqat bilish jarayoni emas, balki ma’naviy muloqot jarayonidir. Bu yondashuv Habermasning sekulyar kommunikativ modelini diniy-axloqiy kontekstda boyitadi, chunki unda bilish jarayoni axloqiy ong bilan uzviy bog‘lanadi. Shu bilan birga, bu fikrga tanqidiy munosabat sifatida ta’kidlash joizki, gnoseologiyani faqat axloqiy mezonlarga asoslash uni sub’ektivlashtirishi mumkin. Mantiq kontekstida kommunikativ

reallik inson tafakkurining muloqotga asoslangan shakli sifatida talqin etiladi. Fikrlash endi monologik emas, balki dialogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. M.Xaydeggerning “so‘z mavjudlikning o‘zini ochadi” degan g‘oyasini davom ettirgan M.Buber “Men va Sen” konsepsiyasida inson tafakkurini “munosabat ontologiyasi”ga aylantiradi. Zamonaviy ilmiy kontekstda bu yondashuv axborot texnologiyalari yordamida mantiqning raqamli shaklini vujudga keltiradi.

Matluba Tillavoldiyeva “Mafkura va ijtimoiy taraqqiyot: o‘zaro aloqadorlik muammolari” nomli tadqiqotida “zamonaviy muloqotning mantig‘i inson tafakkurining ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘unligidan kelib chiqadi”[8,125-130] deb yozadi. Uning fikricha, jamiyatning har qanday mantiqiy tuzilmasi muloqot jarayonlarida shakllanadi. Bu g‘oya kommunikativ reallik mantig’ining ijtimoiy yo‘nalganligini ko‘rsatadi. Ammo bu fikrga tanqidiy munosabat bildirilar ekan, shuni qayd etish lozimki, muloqot mantiqning yagona manbai emas, inson tafakkuri o‘zida intuitiv, irratsional va estetik elementlarni ham mujassamlashtiradi. Demak, kommunikativ reallik mantig’i klassik formal mantig’idan farqli ravishda kontekstual va intersub’ektivdir. Unda tafakkur nafaqat qoidaviy mantiqqa, balki ma’no yaratishning semantik tizimlariga asoslanadi. Shu jihatdan, kommunikativ reallik mantig’i inson tafakkurining eng murakkab bosqichini ifodalaydi - bu bosqichda haqiqat ijtimoiy muloqotda “yaratiladi”, lekin uni faqat kelishuv bilan emas, ilmiy asosli tahlil bilan tasdiqlash zarur. Kommunikativ reallik zamonaviy falsafa va ilm-fanning umumlashgan natijasi bo‘lib, u inson borlig‘i, bilishi va fikrlashining yangi integrativ shaklini ifodalaydi. Uning ontologiyasi mavjudlikni muloqot orqali anglash, gnoseologiyasi bilimni axborot va ijtimoiy muloqot orqali yaratish, logikasi esa tafakkurni intersub’ektiv ma’no tizimi sifatida tushunishdir. Shunday qilib, kommunikativ reallik inson tafakkuri va texnologik muhit o‘rtasidagi sintez mahsuli sifatida yangi ontologik darajani belgilaydi - bu darajada mavjudlik, bilim va mantiq uzviy bir butunlikda amal qiladi.

Zamonaviy falsafiy tafakkurda kommunikativ reallik inson, borliq va tafakkur o‘rtasidagi ontologik, gnoseologik hamda mantiqiy aloqadorlikning yangi shakli sifatida talqin etilmoqda. U insonning mavjudlikni nafaqat idrok etish, balki uni muloqot va ma’no yaratish jarayoni orqali qayta barpo etish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Mazkur jarayon postnoklassik tafakkur paradigmasining, xususan, sinergiya, intersubyektivlik, virtual ontologiya va kommunikativ epistemologiya tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Sh.Kushoqov “postnoklassik falsafa va fan metodologiyasi muammolari”da bu borada shunday yozadi: «fan va falsafa o‘rtasida sodir bo‘layotgan paradigmal o‘zgarishlar natijasida borliq endi statik emas, balki muloqotda vujudga keladigan, axborotli va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi»[9,3-7]. Ushbu fikr zamonaviy ontologiyada mavjudlikning asosiy atributi sifatida “aloqa” va “axborot” kategoriyalarining o‘sib borayotgan rolini ifodalaydi. Agar klassik metafizikada mavjudlik substansial birlik sifatida qaralgan bo‘lsa, postnoklassik epistemologiyada u kommunikativ munosabatlar to‘ri sifatida talqin qilinmoqda. Shu jihatdan Kushoqov fikri ontologik jihatdan yangicha yondashuvni ifodalaydi - borliq o‘z “substansiyasini” emas, balki o‘zaro ta’sir mexanizmini ifoda etadi. Shu

bilan birga, muallifning ontologik modelida ijtimoiy komponent yetarlicha ochilmagan, insoniy subyektning ijtimoiy-madaniy kodlari, til va ong o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi chuqurlashgan holda tahlil etilishi zarur.

Aynan shu jihatni K.Narimanov o‘zining “Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik konsepsiyalari” nomli tadqiqotida yanada chuqurlashtiradi: «Aql va tajribaning inson bilish imkoniyatiga bog‘liqligi fanning epistemologik modelini belgilaydi. Bilish faqatgina munosabat orqali amalga oshadi, demak, bilimning o‘zi ham kommunikativ hodisadir»[10,9-10]. Bu fikr gnoseologik kontekstdan qaraganda muhim, bilim insonning obyektni izolyatsiyada emas, balki o‘zaro aloqalar tizimi orqali tushunishini ko‘rsatadi. Narimanovning ta’kidlashicha, “bilish harakati - bu ijtimoiy-tarixiy muloqotning shakli”, demak, kommunikativ reallik bilimning o‘zini tashkil etuvchi ontologik sharoitdir. Shu o‘rinda tanqidiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, muallif gnoseologiyani sotsial-madaniy o‘lchovda talqin etadi, biroq bilishning transsubektiv, ya’ni texnologik yoki semiotik o‘lchovini yetarlicha ochmaydi; hozirgi kommunikatsion muhitda bilishning sun’iy intellekt va algoritmik idrok bilan o‘zaro munosabatlari ham muhimdir.

M.Ergasheva “Avesto”dagi falsafiy g‘oyalarni sinergiya yondashuv asosida tahlil qilib, kommunikativ borliqning qadimiy manbalarini aniqlaydi: «‘Avesto’da tartib va tartibsizlik uyg‘unligi inson bilishidagi nochiziqli harakatni anglatadi. Bilish jarayoni sinergetik jarayon bo‘lib, unda inson, tabiat va ma’no bir-biri bilan muloqotga kiradi»[11,8]. Bu fikr qadimgi metafizik an’anada mavjud bo‘lgan kosmik uyg‘unlik konsepsiyasining hozirgi ilmiy terminologiyadagi talqinidir. Olima ontologik jihatdan kommunikativ reallikni inson va borliq o‘rtasidagi uyg‘un rezonans sifatida ko‘radi. Ammo sinergiya tushunchasi bilan cheklanmasdan, zamonaviy kvant ontologiyasi yoki neyrofalsafiy epistemologiya yondashuvlarini integratsiya etish, mazkur uyg‘unlikning ilmiy modellari uchun zarur bo‘lar edi.

N.Umirzakova bioetikani ta’lim va insonparvarlik bilan bog‘liq tahlilida shunday yozadi: «Bioetika inson hayoti qadrini yangicha anglatadigan fan sifatida inson, jamiyat va tabiat munosabatlarini axloqiy-kommunikativ tizimda ifodalaydi»[12,12]. Muallifning bu fikrida gnoseologik va axloqiy komponentlar uyg‘unlashgan - bilim endi faqat bilish akti emas, balki axloqiy hamkorlik jarayoni sifatida qaraladi. N.Umirzakova fikriga ko‘ra, ta’lim kommunikativ muhit bo‘lib, unda bilimning shakllanishi subektlararo etik o‘zaro ta’sirlar orqali amalga oshadi. Bu fikrning dolzarbligi shundaki, bugungi ilmiy axborot jamiyatida “bilish”ning o‘zi ham insoniy qadriyatlar va ma’naviy aloqadorlikdan ajralmagan axloqiy voqelikdir. M.Mamadjonova sinergiya nazariyasiga tayangan holda, “tasodif” fenomenining bilishdagi o‘rni haqida yozar ekan, «tasodif va zaruriyat o‘zaro ta’sirda bo‘lib, bilish faoliyatining nochiziqli mantiqiy tuzilmasini vujudga keltiradi»[13,9] deydi. Bu fikr mantiqiy jihatdan postklassik tafakkurning eng muhim xususiyatini ifodalaydi: mantiq endi deterministik emas, balki kontekstual, o‘zgaruvchan va ko‘p qatlamli tizim sifatida mavjud. Tanqidiy nuqtai nazardan, muallifning “mantiqning sinergik ochiqligi” haqidagi fikrini yanada kengaytirish

mumkin, kommunikativ reallikda mantiqiy tizimlar faqat haqiqatni ifodalash emas, balki ma’no yaratish jarayonida ijodiy funksiya bajaradi.

S.Abdullayevning “Go‘zallik inson ma’naviy borlig‘ining shakli sifatida” nomli asaridagi quyidagi jumla esa kommunikativ ontologiya bilan bevosita uyg‘unlashadi: «Go‘zallik inson ma’naviy borlig‘ini ifoda etuvchi universal forma bo‘lib, u mantiqiy munosabatlar orqali nafaqat idrok, balki ma’no yaratish jarayonini ta’minlaydi»[14,9]. Bu fikrga ijodiy munosabat bildirar ekan, aytish mumkinki, go‘zallik bu yerda estetik emas, balki kommunikativ kategoriya sifatida talqin etiladi: u muloqotda mazmun yaratuvchi akt, ya’ni “mantiqiy estetik hodisa”dir. Shu orqali S.Abdullayev mantiqiy reallikni inson ma’naviy borlig‘ining estetik holati bilan bog‘lab, postgumanistik talqinga eshik ochadi. Yuqoridagi barcha mualliflarning g‘oyalari umumiy bir ilmiy tendensiyani — reallikning kommunikativ mohiyatini tasdiqlaydi. Endilikda borliq — bu obyektiv narsalar majmuasi emas, balki o‘zaro axborot almashinuvi, ma’no yaratish va tushunish jarayonida mavjud bo‘ladigan ochiq tizimdir. “Kommunikativ reallik” deganda, inson tafakkuri, til, madaniyat va texnologiya o‘zaro sintezlashgan, mavjudlikni ijtimoiy-madaniy shaklda qayta tashkil etuvchi dinamik muhit tushuniladi. Demak, ontologik jihatdan kommunikativ reallik - bu mavjudlikning ijtimoiy-axborotli tabiati, gnoseologik jihatdan - bilishning dialogik, sinergik va o‘zini tashkil etuvchi shakli, mantiqiy jihatdan esa - ochiq, kontekstual, ko‘pvariantli mantiq tizimi bo‘lib, u haqiqatni yaratishning ijodiy mexanizmidir. Zamonaviy falsafaning mohiyati aynan shundaki, “borliqni tushunish” emas, “borliqni muloqotda yarata olish” yangi ilmiy va mantiqiy paradigmaga aylanmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy falsafiy va ilmiy tafakkur kontekstida kommunikativ reallik inson borlig‘ining, bilish jarayonining va ijtimoiy ongning markaziy determinanti sifatida namoyon bo‘ladi. U inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni, ma’no yaratish va haqiqatni shakllantirish jarayonini ifodalovchi murakkab tizimdir. Kommunikatsiya bu jarayonda faqat axborot uzatish vositasi emas, balki mavjudlikni quruvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va insonni o‘zligini anglashga olib boruvchi asosiy mexanizmdir.

Raqamli texnologiyalar, global axborot tizimlari va virtual muhitning kengayishi natijasida kommunikativ reallik yangi ontologik darajaga ko‘tarilmoqda. Inson endilikda nafaqat kommunikatsiya ishtirokchisi, balki uning faol yaratuvchisiga aylanmoqda. Shu bois kommunikativ reallik bugungi ilmiy tafakkurda insonning kommunikativ mavjudlik sifatidagi mohiyatini yorituvchi universal tushuncha sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ reallik zamonaviy inson faoliyatining barcha sohalarida – falsafiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlarda – asosiy integratsion tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. U inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni ta’minlabgina qolmay, balki haqiqatni yaratish, uni anglash va uni qayta qurishning fundamental asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzixodjayeva D.I. Argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy tahlili. DSc dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2023.

2. Norov T.O. Alisher Navoiy ontologik qarashlarining falsafiy-konseptual tahlili. DSc dissertatsiyasi. – Samarqand: SamDU, 2022.
3. Haydarova A.X. Virtual reallik falsafasining metodologik yo‘nalishlari. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2022.
4. Turabova S.K. Ilmiy bahsning mantiqiy-epistemik tahlili. PhD dissertatsiyasi. – Samarqand: SamDU, 2019.
5. Toshov X.I. Ongni manipulyatsiyalashning argumentatsion mexanizmlari. DSc dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2025. – B.13.
6. Habermas, J. Theorie des kommunikativen Handelns. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1981.
7. Юлдашева Ф. Роль исламских ценностей в процессе духовного обновления общества. – Андижан: АндДУ, 2006.
8. Tillavoldiyeva M. Mafkura va ijtimoiy taraqqiyot: o‘zaro aloqadorlik muammolari. – Toshkent: TDPU, 2006.
9. Kushoqov Sh.S. Postnoklassik falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. - Samarqand: SamDU nashri, 2011.
10. Narimanov Q.G. Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik-axloqiy konsepsiyalari. - Toshkent, 2022.
11. Ergasheva M.H. «Avesto»dagi falsafiy g‘oyalarga sinergetik yondashuv (ontologik va gnoseologik tahlil). - Samarqand, 2017.
12. Umirzakova N.A. Ta’limni insonparvarlashtirish kontekstida bioetikaning ontologik va gnoseologik jihatlarining metodologik tahlili. - Toshkent, 2022.
13. Mamadjonova M.Q. Sinergetikada tasodif fenomenining konseptual tahlili. - Toshkent, 2022.
14. Abdullayev S.T. Go‘zallik inson ma’naviy borlig‘ining shakli sifatida. -Samarqand, 2022.

ZAMONAVIY JAMIYATNING CLOBAL MUAMMOLARI VA ULARNING IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Jo‘rayev Ahmad Muhammadiyevich
Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
juraev.1982@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatni tahlil qilishda ijtimoiy-falsafiy jihatlarning muhimligi ko‘rsatiladi. Ijtimoiy tuzilma, madaniy identitet, ijtimoiy adolat, etik masalalar va siyosiy tizim kabi ahamiyatli qirralar chuqur tahlil etiladi. Maqola ijtimoiy o‘zgarishlar, innovatsiyalar va fuqarolik jamiyatining zamonaviy jamiyatdagi roli bilan bog‘liq muammolarni yoritadi va tahlil qiladi.

Natijada, bu jamiyatni yaxshiroq tushunish uchun qanday yo‘llar mavjudligi haqida hisob qo‘yiladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, kommunikativlik, ijtimoiy identitet, global fuqarolik, submadaniyat, gender tengligi, ijtimoiy adolat, milliy madaniyat, milliy qadriyat, ontologiya, epistemologiya, jamiyat.

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti globallashuv jarayonlari ta’sirida yangi bosqichga ko‘tarildi. Globallashuv — bu dunyoning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirning chuqurlashuvi jarayonidir.

Ushbu holat zamonaviy jamiyatning mohiyatini, insonning undagi o‘rnini va qadriyat tizimini yangicha falsafiy yondashuvda tahlil qilishni talab etadi.

Globallashuv — bu faqat iqtisodiy yoki texnologik jarayon emas, balki insoniyat tafakkuri va madaniyatining umumiy uyg‘unlashuvi, yangi dunyoqarash shakllanishi jarayonidir. U ijtimoiy-falsafiy jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ontologik jihatdan — inson va jamiyatning yagona global makonda mavjudligi, “mahalliy” va “umuminsoniy” o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolib borishi;

- Aksiologik jihatdan — qadriyatlar tizimining universallashuvi, biroq shu bilan birga, milliy identifikatsiyaning yo‘qolish xavfi;

- Epistemologik jihatdan — bilim, axborot va texnologiyaning tezkor tarqalishi orqali inson tafakkurining global darajada o‘zgarishi.

Zamonaviy jamiyat bugungi kunda juda katta o‘zgarishlar va rivojlanishlarga duch kelmoqda. Globalizatsiya, texnologiya, madaniy diversifikatsiya, ijtimoiy tenglik va adolat kabi masalalar insonlar hayotida katta o‘rin tutmoqda. Ushbu mavzu zamonaviy jamiyatni tushunish va uni tahlil qilish uchun juda muhim. Bu o‘rganish jarayoni jamiyatdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini taklif qilishga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy jamiyat – axborot, tarmoqlilik va kommunikativlik tamoyillari asosida rivojlanayotgan tizimdir.

Bu jamiyatda:

- axborot eng muhim resurs sifatida e’tirof etiladi;
- insonning ijtimoiy roli raqamli muhitdagi faollik darajasi bilan belgilanadi;
- “global fuqarolik” tushunchasi shakllanadi.

Shunday qilib, zamonaviy jamiyatni o‘rganishda postindustrial, axborot va raqamli jamiyat nazariyalari falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi (D. Bell, M. Kastels, E. Toffler, U. Bek va boshqalar).

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2021 yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor

yig‘ilishidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, – deb ta’kidlab: – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat [7, 2] ekanligiga e’tibor qaratdi.

Mavzuga oid mavjud muammolar:

1. Madaniy identitet va diversifikatsiya: Turli madaniyat va submadaniyatlarning yonma-yon yashishi vaqtida madaniy identitetni saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin.

2. Ijtimoiy adolat va tenglik: Jamiyatda ijtimoiy tenglikning yo‘qligi, iqtisodiy va ijtimoiy adolat masalalari dolzarb muammolar sifatida qolmoqda.

3. Gender tengligi: Gender tengligi hali ham ko‘p joylarda katta muammodir va bu masala hali ham to‘liq hal qilinmagan.

4. Globalizatsiya va milliy suverenitet: Globalizatsiya jarayonida milliy madaniyat va iqtisodiy mustaqillikni saqlab qolish muammosi.

5. Axloqiy masalalar: O‘zgaruvchan jamiyatda axloqiy masalalarni hal qilish zarurati.

Muammoni hal qilish usullari:

1. Inson huquqlarini himoya qilish: Jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish va teng huquqlarni ta’minlashga qaratilgan qattiq qonunchilikni amalga oshirish.

2. Ta’lim tizimini rivojlantirish: Ochiq va tolerant jamiyat yaratish uchun innovatsion ta’lim tizimini joriy qilish.

3. Madaniyatlararo dialog: Turli madaniyatlar o‘rtasida muloqotni kuchaytirish va ular o‘rtasida tushunishni oshirish.

4. Ijtimoiy tenglikni ta’minlash: Iqtisodiy tenglikka erishish va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun davlat siyosatini kuchaytirish.

Ingliz sotsiologi A.Giddens “The Consequences of Modernity” (Zamonaviylikning oqibatlari) asarida “Zamonaviylik jarayonlari va ularning ijtimoiy tizimlarga ta’siri, madaniyat va shaxsiy identitetlik” sifatlari haqida chuqur tadqiqotlar olib boradi. [1, 25]

A.Giddens zamonaviylik o‘z tabiatiga ko‘ra globallashuv bilan bog‘liq - bu zamonaviylik institutlarining ba’zi muhim xususiyatlari, shu jumladan, birinchi navbatda, ularning ozodligi va refleksligi bilan aniq ko‘rsatilgan. Ammo globallashuv aynan nima va bu hodisani qanday tushunish mumkin? Men bu masalalarni bu erda batafsil ko‘rib chiqaman, chunki bugungi kunda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlarining markaziy ahamiyati sotsiologik adabiyotlarda ushbu konseptsiyaning batafsil muhokamasiga to‘g‘ri keladi. Biz

ilgari aytilgan ba’zi fikrlarni takrorlashdan boshlashimiz mumkin. Sotsiologlar tomonidan “jamiyat” g‘oyasini yopiq tizim ma’nosida haddan tashqari faol ishlatish o‘rniga, biz boshlang‘ich nuqta sifatida, ijtimoiy hayotning makon va zamonda qanday tartibga solinganligini tahlil qilishga e’tibor qaratishimiz kerak. Fazoviy-vaqtinchalik masofa muammosi. Vaqt va makon masofasi bilan bog‘liq tushunchalar tizimi bizning e’tiborimizni mahalliy ishtirok (birgalikda mavjudlik holatlari) va masofadagi o‘zaro ta’sir (mavjudlik va yo‘qlik aloqalari) o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga qaratadi.

Zamonaviy davrda vaqt va makon o‘rtasidagi masofa darajasi oldingi davrlarning har qandayiga qaraganda ancha yuqori va mahalliy va uzoq ijtimoiy shakllar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar mos ravishda “cho‘zilgan”. Globallashuv, mohiyatiga ko‘ra, turli ijtimoiy kontekstlar yoki mintaqalar o‘rtasidagi aloqa usullari ularning tarmog‘ida yer sharining sirtini to‘liq qamrab oladigan darajada kengayish jarayonini anglatadi deb ta’riflaydi. [1, 55]

Ingliz sotsiologi Zigmunt Bauman “Liquid Modernity” (Suyuq zamonaviylik). Bu asar ijtimoiy tuzilmalarni va zamonaviy globalizatsiya jarayonlarining shaxslar va jamoalarga ta’sirini ko‘rib chiqadi. [2, 23]

Odamlar ma’lum funksiyalarni ifodalaydigan, hamma narsa oqilona, tartibga solinadigan va boshqariladigan murakkab voqelik modeli o‘rnini boshqaruv zaiflashgan, odam ko‘proq darajadagi qobiliyatga ega bo‘lgan suyuq zamonaviylik modeli egalladi. Barcha mas’uliyat shaxsning yelkasiga tushadi, chunki endi hamma uchun javobgar bo‘lishga va rahbarlik qilishga tayyor bo‘lgan xo‘jayin, rahbar, usta yo‘q. Bundan buyon insonning o‘zi qaror qabul qiladi va harakat vektorini tanlaydi. Dunyo keskin o‘zgarmoqda. Muallif zamonaviylikni suyuqlik bilan solishtiradi (suyuqlik metaforasi orqali davom etayotgan o‘zgarishlarni tushunishga urinish) - zamonaviy suyuqlik haqiqati. Suyuqlik nima? Vaqtinchalik o‘zgarishlarga duchor bo‘lgan suyuqlik, har qanday shaklni osonlik bilan qabul qiladigan, ammo uni saqlashda qiyinchilikka duchor bo‘lgan modda. Baumanning so‘zlariga ko‘ra, shunga o‘xshash narsa zamonaviy haqiqatda sodir bo‘lmoqda.

Chegaralar o‘chiriladi, hamma narsa o‘zgaradi, o‘tkazuvchan va dinamik bo‘ladi, yomon boshqariladi, oldindan aytib bo‘lmaydi, paradoksal bo‘ladi. Umumiy maqsad yo‘q. Har bir inson o‘zining shaxsiy baxtiga erishishga intiladi, har bir kishi doimiy harakatda (zarrachalarning xaotik harakatini eslatuvchi narsa). Tez o‘zgarishlar uzoq muddatli prognoz qilish imkoniyatini bermaydi. Omon qolish uchun siz tez o‘ylashingiz, tez qaror qabul qilishingiz va bir zumda harakat qilishingiz kerak. Moslasha olish. Doimiy ravishda yangi narsalarni o‘rganing, o‘z malakangizni oshiring, bilim, ko‘nikma va qobiliyatingizni boyiting.

Qaysidir ma’noda, bu iste’molchilar jamiyati, doimiy tanlov holatida, ko‘p imkoniyatlar orasida, to‘yinganlik yoki qoniqish hissisiz.

Aytishimiz mumkinki, inson erkin, u harakatchan va o‘z tanlovida cheklanmagan. Ammo shu bilan birga, bu odam o‘zini tez o‘zgaruvchan, oldindan aytib bo‘lmaydigan, yomon boshqariladigan makonda, haqiqat bilan yuzma-yuz ko‘radi. Raqobatbardosh imkoniyatlar va doimiy tanlov dunyosida. Qo‘llab-quvvatlashsiz, qo‘shimchalarsiz. To‘liqlik va qoniqish hissisiz. Jamiyat va odamlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lmagan holda, qandaydir sof shaxsiy maqsad sari abadiy harakatda. [2, 63]

Beck, U. “Risk Society: Towards a New Modernity”. Riskli jamiyat tushunchasi ijtimoiy o‘zgarishlarni va yangi xavf-xatarlarni o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. [3, 33]

Habermas, J. “The Theory of Communicative Action”. Bu asar fikr almashish va madaniy interaksiyaning ijtimoiy hayotdagi yangi roli haqida qiziqarli fikrlar beradi. [4, 32]

Ushbu adabiyotlar zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilish uchun muhim nazariy asoslar yaratadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar:

1.Interaktiv muhit yarating: Jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida muloqotni kengaytirish uchun ilmi forumlar va konferensiyalar tashkil etish.

2. Tadqiqot va monitoring: Jamiyatdagi o‘zgarishlarni muntazam tahlil qilish va ularga nisbatan tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun tadqiqot markazlari tashkil etish.

3. Qonunchilikni takomillashtirish: Ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta’minlash maqsadida amaldagi qonunchilikka o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish.

4. Jamoatchilik ishtiroki: Aholining barcha qatlamlari ishtirokini ta’minlash orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.

O‘zbekiston uchun globallashuv jarayoni ikki yo‘nalishda ahamiyatli:

1. Ijobiy jihatlar — xalqaro iqtisodiy aloqalar kengayishi, ta’lim, fan va texnologiyalar sohasida integratsiya;

2. Murakkab jihatlar — milliy o‘zlikni saqlash, yoshlar ongida “ijtimoiy identitet”ni mustahkamlash zaruriyati.

Shu boisdan, O‘zbekiston falsafiy tafakkurida globallashuvni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi.

Bu esa “mahalliylik va universallik” o‘rtasidagi muvozanatni topishni taqozo etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki globallashuv sharoitida zamonaviy jamiyatni o‘rganish ijtimoiy-falsafiy jihatdan insoniyatning o‘zini anglash, qadriyatlarni yangilash va yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayonidir. Falsafaning vazifasi — bu jarayonda insonning erkinligi, ma’naviy barkamolligi va mas’uliyatini himoya qiluvchi konseptual asoslarni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Giddens, A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford University Press.
2. Bauman, Z. (2000). Liquid Modernity. Polity Press.
3. Beck, U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. Sage Publications.
4. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Beacon Press.
5. Ritzer, G. (2004). The Globalization of Nothing. Pine Forge Press.
6. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Blackwell Publishers.
7. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/692

QADRIYATLAR TIZIMINING O‘ZGARISHI: GLOBAL JAMIYAT MUAMMOLARI VA FALSAFIY YECHIMLAR

Sultanova Aziza Rikhsivoyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotasiya. Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyoti jarayonida qadriyatlarning shakllanishi, o‘zgarishi va hozirgi zamondagi inqiroz holati falsafiy tahlil etiladi. Tadqiqotda o‘tmish sivilizatsiyalaridagi axloqiy-me’yoriy tamoyillar bilan bugungi globallashuv sharoitidagi qadriyatlar tizimi taqqoslanadi. Muallif qadriyatlar inqirozining ongiy, axloqiy va madaniy omillarini ochib berar ekan, ularning kelajak jamiyat rivojiga ta’sirini yoritadi. Shuningdek, falsafiy tafakkur, ta’limiy islohotlar, diniy–ma’naviy meros hamda umuminsoniy gumanistik tamoyillarga tayanilgan echimlar taklif etiladi.

Annotasiya. В данной статье проводится философский анализ формирования, трансформации и современного кризиса ценностей в процессе развития человечества. В исследовании сопоставляются нравственно-нормативные принципы древних цивилизаций с системой ценностей эпохи глобализации. Автор раскрывает духовные, нравственные и культурные факторы кризиса ценностей и освещает их влияние на развитие будущего общества. Кроме того, предлагаются решения, основанные на философском мышлении, образовательных реформах, религиозно-духовном наследии и общечеловеческих гуманистических принципах.

Abstract. This article provides a philosophical analysis of the formation, transformation, and contemporary crisis of values throughout human development. The study compares the moral and normative principles of ancient civilizations with the value system shaped by modern globalization. The author reveals the intellectual, ethical, and cultural factors underlying the crisis of values and examines their impact on the future development of society. In addition, the article proposes solutions grounded in philosophical reflection, educational reforms, religious-spiritual heritage, and universal humanistic principles.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar inqirozi, axloq falsafasi, Islom falsafasi, inson qadri, ta'lim, umuminsoniy qadriyatlar.

Klyuchevie slova: krizis sennostey, filosofiya morali, islamskaya filosofiya, chelovecheskoe dostoinstvo, obrazovanie, universalnie sennosti.

Keywords: value crisis, moral philosophy, Islamic thought, human dignity, education, universal values.

Zamonaviy jamiyat axborot va texnologiyalar asrida mislsiz rivojlanishga erishayotgan bo‘lsa-da, shu bilan birga axloqiy va ma’naviy jihatdan jiddiy tanazzul jarayonlarini ham boshdan kechirmoqda. Inson huquqlari va erkinliklariga doir xalqaro hujjatlar soni ortib borayotganiga qaramay, axloqiy muhitning zaiflashuvi nafaqat shaxsiy hayotda, balki global miqyosda ham sezilmoqda. Qadriyatlar inqirozi, avvalo, inson ma’naviyatining sustlashuvi, madaniy individualizmning kuchayishi, ommaviy ongning manipulyatsiya qilinishi hamda sekulyar dunyoqarashning ustuvorlikka chiqishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Natijada jamiyatda axloqiy poydevorlar, burch va mas’uliyat hissi tobora so‘nib bormoqda.

Qadimgi va o‘rta asr falsafiy manbalarida qadriyatlar inson hayotiga ma’no, tartib va barqarorlik baxsh etuvchi mezon sifatida talqin etilgan. Aristotel, Konfutsiy, Ibn Sino, Kant, Jon Rolz kabi buyuk mutafakkirlar axloqiy fazilatlar, burch, adolat va insoniylik tamoyillarini jamiyatning mustahkamligi va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan asoslar sifatida e’tirof etganlar.

Falsafa nuqtai nazaridan, qadriyatlar ontologiya va etikaning ajralmas qismidir. Ontologik jihatdan, qadriyatlar mavjudotning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, insoniy hayotning qiymatini belgilaydi. Axloq falsafasida esa ular yaxshilik, burch, fazilat va munosabatlar tizimini shakllantiradi. Nisha Chandel o‘z maqolasida ta'kidlaydiki, qadriyatlar inqirozi — bu faqat axloqiy muammo emas, balki mafkuraviy boshlanish nuqtasining yo‘qolishi, ma'naviy kamolotning tahdid ostida qolishidir (Chandel, 2024). Qadriyatsizlik, yoki qadriyatlar nisbiyligi (relativizm) jamiyatda normalar zaiflashishiga, shaxs ongining parchalanishiga va individualizmning haddan tashqari o‘sishiga olib keladi.

Mutaxassislar ta'kidlaydiki, qadriyatlar inqirozining ildizi — madaniy, diniy va oilaviy tizimlar zaiflashuvida, ommaviy madaniyat va texnologiyalar orqali standartlashgan iste'mol qadriyatlarining etakchilikka chiqishidir (Evreeva et al., 2023). Masalan, televidenie, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar tez ta'sirchan axloqiy namuna olmoqda. Bu “ekran falsafasi” yoki “infoteynment” fenomeni o‘z navbatida real hayotdagi qadriyatlarga e'tiborni kamaytiradi. Ayn Rand, Nietzsche va postmodernistlar insonning erkinligi va shaxsiy xohishlarini absolyutlashtirgan holda qadriyatlar mafkurasini mutlaqlashdan bosh tortganlar. Bu qarashlar jamiyatda burch va ma'suliyatni emas, balki shaxsiy manfaatni ustun qiladigan munosabatga aylanib qoldi.

Kantning “kategorik imperativ” nazariyasida inson boshqa insonlarga hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida munosabatda bo‘lishi kerakligi ta'kidlanadi (Kant, 1997). Bugungi dunyoda bu qarash amaliyotda aks etmaydi, chunki insonlar ko‘proq tovar va raqobat sub'ekti sifatida baholanmoqda. Natijada jamiyatda befarqlik, agressiya va mas'uliyatsizlik tarqalmoqda. Buning natijasi sifatida, oilada ajralishlar, maktablarda zo‘ravonlik va jamiyatda ijtimoiy ajrim kuchaymoqda.

Islom falsafasida qadriyatlar Qur'on va sunnat orqali Alloh tomonidan berilgan va ular mutlaqdir. Muhammad Abdulloh Diraz va Husayn Nasrning ta'kidlashicha, Islom axloqi “ilohiy huquqlar va inson mas'uliyati” o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi (Nasr, 2002). Islom axloqida “inson qadri” — Qur'onda alohida qayd etilgan qadriyat bo‘lib, har qanday insonga nisbatan munosabatda yuksak axloqiy me'yorlarni talab qiladi. Bu yondashuv axloqiy qadriyatlarni relativ emas, balki mutlaq va umumbashariy deb biladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning (tarixiy zaruriyat) obyektiv jarayonlari bilan iroda erkinligining (kishilarning tarixdagi subyektiv faoliyati) o‘zaro munosabati muammosi turli davrdagi, turli axloqiy oqim namoyondalarini qiziqtirib kelgan.

Iroda erkinligi masalasi bilan birinchi bor yunon faylasufi Sokrat shug‘ullanadi. U iroda erkinligini kishining aql bilan tanlangan yo‘ldan yurishi uchun aqlga nomuvofiq, bo‘lgan harakatlarni bartaraf etishda o‘zini majbur qilish deb va aqlning hissiy mayllar ustidan g‘alabasini ta’minlash deb tushungan. Uning fikricha, iroda erkinligiga aqliy rivojlanish orqali, xususan axloqiy bilimni egallash orqali erishish mumkin. Misol, har bir fazilat u yoki bu turdagi bilimlardan iborat. Mardlik - qo‘rquvni daf qilishni, donolik - qonunlarga rioya qilishni, qanoatlilik - o‘z hissiyotlariga erk qo‘ymaslik, adolat yaxshilikni qanday qilib amalga oshirishni o‘rgatadi.

Kant falsafasida iroda erkinligi va ma’suliyat masalasiga ko‘p o‘rin berilgan. U erkinlik bilan zaruriyatni birlashtirishga harakat qilgan. Kant etika tarixida «axloqiy qonun» qat’iy buyruq - kategorik imperativ haqidagi o‘z nazariyasi bilan iz qoldirdi. Kant kishilardan axloq normalariga qat’iy rioya qilishni, o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qilishni talab qiladi.

«O‘z faoliyatini tahlil qilmay va axloq normalariga rioya qilmay turib, o‘zidan zavqlanadigan kishining hayoti qadr-qimmatga ega emas» [3, 224], - deya takrorlaydi u. Chunki axloqiy qonunga bo‘ysunish shaxsning axloqiy kamolotga va axloqiy erkinlikka erishuvining asosiy shartidir. Axloqiy qonunga amal qilish haqida faylasuflar, hamma odamlar va hamma zamonlar uchun, har qanday sharoitlarga birgina axloq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Spinoza inson irodasining mutloq erkinligi mavjud emasligini, balki hamma narsa qat’iy zaruriyat bilan belgilanishini ta’kidlaydi. «Mening nazarimda erkinlik erkin hal etishda bo‘lmay... balki erkin zaruriyatdir» [4, 155], - deb yozgan edi u, ya’ni zaruriyatga tayanmagan erkin tanlash bo‘lishi mumkin emas. Agar zaruriyat bilib olinsa, u erkinlikka aylanadi. Erkinlik bilingan zaruriyatdir. Kishi tabiatni o‘z xatti-harakatlari va mayllarini bilib, ular ustidan hukmronlik qila olish qudratiga ega bo‘la olsa erkin bo‘la oladi. Erkinlik zaruriyatni rad etmaydi, zaruriyat esa erkinlikni inkor qilmaydi. Mutafakkirning buyuk xizmati ham shuni e’tirof etishdadir.

Mutafakkir erkinlik bilingan zaruriyatdir, deyish bilan jarayonni faqat sof mushohadadan iborat, aql yordamidagina erishiladi, deb tushundi. «Men aqlga amal qiluvchi odamni erkin, deb atayman» [4, 156], - deydi u. Irodani aql bilan birday qilib ko‘rsatgan. Spinozaning fikricha, o‘zini himoya qilishga intilish va o‘z foydasini ko‘zlash insonning xulq-atvorini harakatga keltiradi. Iroda hamisha motivlarga bog‘liq deb e’tirof qiladi, erkinlik zaruriyatni bilishga asoslanuvchi

xatti-harakat sifatida yuz berishi mumkin deb hisoblaydi. Sharq mutafakkiri Forobiy axloqni aqlga bo‘ysundiradi. A.Navoiy:

Gar oltin qafas ichra qizil gul bitsa,

Bulbulga tikandek oshyon bo‘mas emish [1, 160].

deb erkinlikni ulug‘laydi.

Xulosa

Shunday qilib, kishining erkin axloqiy faoliyati faqat zaruriyatni bilish asosidagina amalga oshadi. Zaruriyat shaxsni jonsiz qo‘g‘irchoqqa aylantirmaydi – u o‘zining sharoitning quli qilishi ham yoki o‘zini ongli ravishda ularga qarama-qarshi qo‘yishi ham mumkin. Zaruriyatni bilgan kishi unga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi – bu uning erkinligidir. U bilib olingan zaruriyatga bo‘ysunmasligi va unga zid bo‘lgan xatti-harakat qilishi mumkin, bu esa uning o‘zboshimchaligidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Воронцов В. Тафаккур гулшани /Ш.Абдураззоқова тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
2. Гегель. Сочинения. – Т. 3. –М.: Мысль, 1966.
3. Кант И. Кант И. Лекции по этике / Под ред. А.А.Гусейнова. – М.: Республика, 2000.
4. Спиноза Б. Избранные произведения в 2-х томах. –М.: Мысль, 1957.
5. Rakhimdjanova D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach // International Journal of Social Science Research and Review. - Volume 6, Issue 1. ISSN: 2700-2497. http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921. - Germany, Duisburg, 2023. - P. 457-466.
6. Rakhimdjanova D.S. Conversion of the Phenomenon of Freedom in the Ancient Philosophy // International Journal of Arts, Humanities and Social Studies. - Volume 3, Issue 6, ISSN (Online): 2582-3647. https://doi.org/10.5281/zenodo.5717668. - Nov-Dec 2021. - P. 17-21.
7. Rakhimdjanova D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy // PSYCHOLOGY AND EDUCATION JOURNAL - Volume 58, № 1. ISSN: 00333077. https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562. - 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021-01-29. - P. 4553-4563.
8. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o‘rtasidagi differensiatsiyasini sotsiologik so‘rovnoma orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.

DUNYONING TABIIY-ILMIY TASAVVURIDA MIFOLOGIK BILIMLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Sultonmurod Pardayev XXX,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi,
E-mail: sultonmurod121993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning tabiiy-ilmiy tasavvuri shakllanishida mifologik bilimlarning o‘ziga xos o‘rni tahlil qilinadi. Insoniyat tafakkurining dastlabki bosqichida mifologiya tabiat hodisalarini izohlash, jamiyat hayotini tartibga solish hamda voqelikni anglashning asosiy shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Mifologik qarashlar keyinchalik falsafa, diniy e’tiqodlar va ilmiy dunyoqarash rivojlanishi uchun muhim poydevor vazifasini bajargan. Maqolada mifologiyaning tabiiy-ilmiy bilimlarga ta’siri, uning tarixiy-madaniy va ma’naviy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: mifologik bilimlar, tabiiy-ilmiy dunyoqarash, qadimgi tafakkur, falsafiy qarashlar

Insoniyat tafakkuri tarixida dunyoni anglash va unga munosabat bildirishning dastlabki shakllaridan biri mifologik tasavvurlar bo‘lgan. Mifologiya qadimiy jamiyatlarda voqelikni tushuntirish, tabiat va jamiyatdagi hodisalarni izohlashning eng muhim vositasi sifatida yuzaga kelgan. U nafaqat afsonaviy obrazlar, ramzlar va timsollar orqali insonning olam haqidagi qarashlarini mujassam etgan, balki o‘z davrida ma’lum darajada ilmiy bilimlar o‘rnini ham bajargan. Shu bois mifologik bilimlar tabiiy-ilmiy tafakkur shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, keyinchalik falsafiy qarashlar, diniy e’tiqodlar va ilmiy nazariyalar rivojlanishi uchun poydevor vazifasini o‘tagan.

Bugungi kunda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini shakllantirish jarayonida mifologik qarashlarni faqat xom va asossiz tasavvurlar sifatida emas, balki insoniyat tafakkurining muhim bosqichi sifatida o‘rganish dolzarbdir.

Tabiiy-ilmiy dunyoqarash insoniyatning ko‘p asrlik bilimi, kuzatuvi va tajribasi natijasida shakllangan bo‘lsa-da, uning dastlabki manbalari mifologik tafakkurga borib taqaladi. Dastlabki dunyoqarash shakli bo‘lgan mifologik dunyoqarash zamirida tabiatdagi barcha jonsiz narsalar jonli ekanligi ta’kidlangan. Qadimgi dunyo tabiiy-ilmiy manzarasiga ko‘ra insonlar Olamning tashkil topishini Koinot Tuxumining sinishi jarayoni bilan bog‘liq holatda tasavvur qilishgan. Shu ma’noda, Olamning paydo bo‘lishi haqidagi mif syujeti hozirgi zamon fizikasida ilgari surilgan «Ulkan portlash» to‘g‘risidagi nazariyaga mosdir. Ammo, N.A.Shermuxamedovaning fikricha: «Fiziklar Ulkan portlashdan oldinroq mavjud bo‘lgan Olamning dastlabki singulyar holati haqida so‘z yuritar ekanlar, bu

dastlabki singulyar holatning substratlari tarkibi qanday bo‘lgani haqida ishonchli bir g‘oyani hanuzgacha ilgari surganlari yo‘q, balki makon va vaqt, materiya hamda energiya haqidagi hozirgi tasavvurlarni unga tatbiq etish mumkin emas, degan fikrlarni ro‘kach qilish bilan qutulishga harakat qiladilar».[1, B.39] Shunga asoslanib aytish mumkinki, eng qadimgi davrda odamlar dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasidagi barcha tabiiy-ilmiy hodisalarni mifologiya bilan bog‘lab tasavvur qilganlar. Shunga ko‘ra, ular tabiatdagi narsa va hodisalarni barchasi jonli sifatida tasavvur qilishganligini dalil sifatida keltirish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, inson paydo bo‘lgan davrdan moddiy ehtiyojlarini ta’minlash jarayonida o‘zining atrofidagi tabiatni o‘zgartirgan. Natijada uning avlodi asta-sekin tabiatni o‘zlashtirish orqali tabiiy hodisalarning mazmun-mohiyatini anglab, ularni turli darajada asta-sekinlik bilan talqin qilib borgan. Shu asosda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi turli ko‘rinishlarda mukammal ko‘rinishga ega bo‘lib borganligini aytish mumkin. Xususan, arxaik tasavvurlarga ko‘ra, «Qadimgi yunon mifologiyasida olam dastlab cheksiz, qorong‘i xaosdan iborat. Xaosdan yer xudosi Geya paydo bo‘lgan. Yerdan juda uzoqda osmon va cheksiz chuqurlikda abadiy zulmat hukmdori Tartar paydo bo‘lgan. Xaosdan hayot va muhabbat manbai Eros paydo bo‘lgan. Shu tartibda dunyoda hayot paydo bo‘lgan».[2, B.39] Bizning nazarimizcha, ular bunday tasavvur jarayoni orqali, nafaqat xudolarning paydo bo‘lishini, balki, barcha xudolarni butun tabiatning egasi sifatida tasavvur qilishi mifologik bilimlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lsa, va bunday tasavvurlarning keng tarqalishi natijasida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida bir qator yangi xususiyatlarni shakllanishiga olib kelgan.

Sharq mamlakatlaridan biri Qadimgi Misrda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini ilk mifologik ko‘rinishlarini uchratishimiz mumkin. Xususan, Misr miflarining ahamiyati turli davrlarda yuzaga kelgan diniy tasavvurlarni qiyosiy tahlil qilish uchun qimmatli manba sifatida xizmat qilgan. N.A.Shermuxamedova fikricha: «Qadimgi Misr mifologiyasi ancha yuksak sivilizatsiya negizida rivojlanishi jarayonida yozuv ixtiro qilingan».[3, B.10] Misrliklarning olamning kelib chiqishi to‘g‘risidagi miflari bir qarashda rang-barang taassurot qoldirishi mumkin. J.Tulenov yozishicha: «Qadimgi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan va hamma narsada havo bor».[4, B.6] Bu miflarda xudolar, insonlar va olamning yaratuvchilari sifatida goh qushlar, goh hayvonlar, goh ilohlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi; bir afsonaga ko‘ra quyosh samoviy sigirdan yaralgan, yana bir afsonaga ko‘ra esa u loladan yaralgan, uchinchi afsonaga ko‘ra esa – g‘oz tuxumidan yaralgan. Qadimgi Misrning juda ko‘p miflarida quyoshni yaratuvchi va olamni shakllantiruvchi ilohiy birlik sifatida biror hayvon yoki qush keladi. Bu haqida «Piramidalar matnlari»da ham ma’lumot bor va unda osmon

tomonidan dunyoga keltirilgan oltin buzoqcha «Ra» to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shu ma’noda Olam yaratuvchisi va barcha tirik mavjudotlarning onasi sifatidagi buyuk sigir to‘g‘risidagi qarashlar hozirgi davrda ham Afrika mamlakatlaridagi xalqlar og‘zaki ijodida ham keng tarqalganligini aytish o‘rinlidir.

Qadimgi Xorazm mifologiyasida Xubbi suvlarning hukmroni va kishilarni halokatdan qutqaruvchi afsonaviy qahramon sifatida tasvirlangan. Unda aytilishicha, «Qadim zamonda Amudaryoda Xubbi ismli yigit hukmron edi. U bir qo‘li bilan baliq tutar, ikkinchi qo‘li bilan uni quyoshga tutib turar va keyin baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda 300 yil yashab, daryo suvini quritibdi, biron bir yomon ruh, hatto chivin ham daryoga yaqin yo‘lashga botina olmagan».[5, B.23] Ushbu mifning ramziy ma’nosi shundaki, juda ko‘p asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari orasida Xubbi va uning onasi suvni himoya qiluvchi va baxt keltiruvchi ma’budlar sifatida e’tirof etilishida namoyon bo‘ladi. Bundan bilishimiz mumkinki, Xorazmda paydo bo‘lgan ushbu mifologiya dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini bir qator tabiiy mezonlarini aks ettirgan.

Shunisi e’tiborga molikki, dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida mifologik bilimlarga oid g‘oyalar antik davr tarixida o‘z izini qoldirgan. Xususan, antik davrda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida mifologik bilimlar bosqichma-bosqich tarzda o‘z xususiyatlari va qonuniyatlarini oshkor qilib borgan. Aynan, qadimgi dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida mifologik bilimlarning dastlabki ilmiy kurtaklarini kuzatish mumkin.

Qadimgi Yunonlar va Rimliklar tomonidan yaratilgan va mil.av. VIII asrdan mil. V asrgacha, ya’ni G‘arbiy Rim imperiyasining qulashigacha bo‘lgan sivilizatsiya butun dunyoga deyarli barcha tabiiy-ilmiy bilimlarni yoyilishiga olib kelgan. Shu bilan birga bu davrda tabiat, inson va koinot kabi tabiiy qonuniyatlar asosida munosabatlarga kirishuvchi kuchlar stixiyali ravishda shakllangan. Shu boisdan, mazkur amaliy omillarning barchasi, bir-biri bilan o‘zaro munosabatlarga kirishib, pirovard natijada mifologik ongning parchalanishiga va nazariy ongning shakllanishiga olib kelgan. Zero, bizning fikrimizcha, bu kabi g‘oyalar dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida tabiat, inson va mifni ilmiy va falsafiy jihatdan anglashning eng sodda shakli vazifasini bajargan.

Biz ushbu davrdagi shakllangan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini boshqa davrlardan farqini belgilovchi quyidagi xususiyatlarni tasniflashimiz mumkin: a) bu davrda hodisalarni tabiiy sabablarini tushuntirishga harakat qilingan; b) inson bilimi oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan; s) bilimlarni to‘plash ma’lum bir tizim asosida olib borilgan; d) haqiqiy bilimni ilmiy jihatdan tushuntirishga harakat qilingan. Zero, bizning tahlilimizga ko‘ra, ushbu xususiyatlar tabiiy-ilmiy tafakkur, eng muhimi falsafiy tafakkur tarzining asoslarini yaratish imkonini beradi. Shu

nuqtai nazardan aytish mumkinki, tabiatni o‘rganishning birinchi obyektlari sifatida mif yuzaga chiqqan. Mazkur tarixiy jarayonning asosiy manbasi Gomer dostonlaridir. Darhaqiqat, Gomer yaratgan dostonlar qadimgi sinfchilik jamiyatida rivojlanib borgan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini mifologik va estetik jihatdan qayta ishlanishidir. Jumladan, o‘sha davrda mifologik solishtirishlar ko‘p holatlarda kundalik holatlar bilan almashtiriladi. Shunga ko‘ra, Gomer qarashlarida mifologik bilimlar tabiatni talqin qilishning yagona yechimi bo‘lmay qoladi. Shunisi e’tiborga sazovorki, u tabiatga boshqacha nazar bilan qaraydi va unga ko‘ra koinot o‘zining tabiiy, sababiy qonuniyatlari bilan aks etishini tan oladi. Rus olimi A.Losevning fikricha: «Gomerning skeptikizmini, uning an’anaviy tasavvurlarga nisbatan tanqidiy munosabatini, ba’zan uning qadimgi mifologiyadan intellektual noroziligi va bugungi kunda hurfikrlilik, deb atash mumkin bo‘lgan miflarga nisbatan kulgi bilan yoki turli qochiriqlar va o‘ynoqilarcha munosabatini shu bilan izohlash mumkin».[6, C.6] Yuqoridagi fikrga tayanib, uning qarashlari qadimgi dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida ongning ratsionallashuvi asosida mifologik ongning shakllanishiga katta xizmat qilgan, deb ta’kidlash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi Sharqda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi bir paytning o‘zida eng sodda mifologik va ezoterik bilim sifatida amal qilgan. Xususan, Misr germetizmi yashirin bilim manbai bo‘lib, unda magiyaga alohida e’tibor qaratilgan, magiya esa, o‘z davrida ibtidoiy ong tomonidan hali anglab yetilmagan gravitatsiya, termodinamika va dunyoning o‘zaro tortishish qonunlari doirasida amal qilib, bu dunyoning ezoterik manzarasi sifatida tan olingan. Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini dastlabki asosi sifatida miflar amal qilgan. Miflarning shakllanishi tabiiy sharoitlar va qabilalarning mentaliteti ta’sirida bir - biridan farq qilgan.

Qadimgi mifologik manbalardagi dunyo manzarasiga oid arxaik tafakkur mahsullari, masalan; yunon mifologiyasidagi dunyoning cheksiz xaosdan paydo bo‘lishi, vikinglar mifologiyasidagi dunyoning katta portlash g‘oyasi zamonaviy fan rivojlanishining nazariy asosi sifatida amal qilgan va bu orqali miflarning amaliy ahamiyati isbotlangan. Demak, dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida mif odamlar turmush tarzida dunyoni bilishning dastlabki shakli sifatida asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra miflar insonlar orzu-umidlari talqini, mifologiya tabiiy jarayonlarning ilohiylashtirilishini namoyon etishi keyinchalik o‘z ilmiy isbotini topganligini ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermuhamedova, N. A. Falsafaga kirish. – Toshkent: Noshir, 2022. – B. 304

2. Tulenov, J. Falsafa tarixi. – Toshkent: Pedagogika universitet, 2001. – B. 412.

3. Turdiqulov, E. O. Markaziy Osiyoda ekologik ta’lim taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 256.

4. Лосев А.Ф. Гомер. – М.: Наука, 1996. – С. 4.

EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O’QUVCHILAR ONGIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Azamova Sitora Ayonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi f.f.f.d (PhD), v.b dotsent
Email:azamovasitora04@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada jahon ilm-fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar global ekologik inqirozning oqibatlarini yumshatishning asosiy yechimlari, ekologik muammolar va ekologik madaniyat, o’quvchilar ongida tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish masalalari bilan bog‘liq ekanligi haqida fikr bildirilgan. Tabiat bilan uyg‘unlashgan hayot va uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat kelgusida insoniyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: ekologik globallashuv, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tafakkur, barqaror rivojlanish, falsafiy metodologiya, ta’lim, ma’naviyat.

Аннотация: В статье высказывается мнение о том, что научные исследования, проводимые в мировой науке, связаны с основными решениями смягчения последствий глобального экологического кризиса, экологическими проблемами и экологической культурой, вопросами формирования бережного отношения к природе в сознании читателей. Жизнь в гармонии с природой и деятельность в соответствии с ее законами остаются определяющим фактором дальнейшего развития человечества.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическая культура, экологическое сознание, экологическое мышление, устойчивое развитие, философская методология, образование, духовность.

Abstract: The article expresses the opinion that scientific research conducted in the world of science is related to the main solutions to mitigate the effects of the global environmental crisis, environmental problems and ecological culture, issues of forming a careful attitude to nature in the minds of readers.

Living in harmony with nature and acting in accordance with its laws remain a determining factor in the further development of mankind.

Keywords: ecological globalization, ecological culture, ecological consciousness, ecological thinking, sustainable development, philosophical methodology, education, spirituality.

Jahonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonning tabiat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o‘z navbatida, tabiat yaxlit tizim sifatida o‘ziga nisbatan oqilona munosabatni talab etib, faqat tabiat bilan uyg‘unlashgan hayot va uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat kelgusida insoniyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda bugungi rivojlanish jarayonida ishlab chiqarishni ekologik xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish barqaror taraqqiyotni saqlash va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanib, fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan estetk ongni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash bugungi global ekologik inqiroz kontekstida yanada dolzarblashib bormoqda.

Global ekologik tahdidni oldini olish, uning oqibatlarini bartaraf qilish obyektiv zaruriyat sifatida uning mustahkam ilmiy-nazariy, metodologik-konseptual asoslarini yaratishda ekologik ong va madaniyat, xususan ekologik ongning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan integrasiyalashish dolzarv vazifaga aylanmoqda.

Jahonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonning tabiat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabati ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o‘z navbatida, tabiat yaxlit tizim sifatida o‘ziga nisbatan oqilona munosabatni talab etib, faqat tabiat bilan uyg‘unlashgan hayot va uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat kelgusida insoniyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda bugungi rivojlanish jarayonida ishlab chiqarishni ekologik xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish barqaror taraqqiyotni saqlash va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanib, fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan ekologik ongni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash bugungi global ekologik inqiroz kontekstida yanada dolzarblashib bormoqda.

Jahon ilm-fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar global ekologik inqirozning oqibatlarini yumshatishning asosiy yechimlari, ekologik muammolar va ekologik madaniyat, yoshlar ongida tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish masalalari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Xususan, global ekologik tahdidni oldini olish, uning oqibatlarini bartaraf qilish obyektiv zaruriyat sifatida uning mustahkam ilmiy-nazariy, metodologik-konseptual asoslarini yaratishda ekologik ong va madaniyat, xususan

ekoestetikaning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan integrasiyalashish imkoniyatlarini zamonaviu uslubda falsafiy tahlil qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi mezonlar tizimida tabiatga ekologik munosabat va jamiyat estetik madaniyatining deterministik, sinergetik, tizimlilik mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga estetik munosabatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1, 322]. Shu nuqtai nazardan, har bir shaxsda ekologik ong va madaniyatni, ularda tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish, umuman jamiyatda tabiiy atrof-muhit barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy mezon, usul va vositalarini falsafiy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. mkoniyatlarini zamonaviu uslubda falsafiy tahlil qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi mezonlar tizimida tabiatga ekologik munosabat va jamiyat estetik madaniyatining deterministik, sinergetik, tizimlilik mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Falsafiy adabiyotlarda tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar muammosiga Rossiya koinotchilari va ekologlari (L.E.Grinin, N.F.Fedorov, K.E.Siolkovskiy, V.S.Solovyov, N.G.Xolodniy, V.P.Tugarinov) ko‘proq inson huquqlari doirasida fikr yuritishgan. Falsafada insonning tabiat bilan muloqotida turli asoslar - “aql va nazorat” (koinotchilar nuqtai nazari) yoki “sevgi va uyg‘unlik” (ekologlarning nuqtai nazari) orqali o‘zgaruvchanlik rolini taklif qiladi. Ushbu ko‘rib o‘tilgan tendensiyalarda inson va tabiatning uyg’unligi va ijtimoiy munosabatlari tahlil qilindi, lekin inson yashaydigan muhitini, etnopsixalogiyasini hisobga olmadilar.

Tatqiqotda inson va tabiat uyg‘unligi va ekologik go‘zallik hozirgi davr ijtimoiy munosabatlarini markaziy tushunchalariga aylanishi kerak. Tabiat-insonning o‘zaro ta’sirlashuvi ekologiya-estetika tushunchalarini o‘zaro yaqinlashtirib yangi qadriyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bularni shartli ravishda ekoestetik qadriyatlar deyish mumkin.

Ijtimoiy inqirozlar natijasida jamiyatlar o‘z hayot faoliyatini qayta tashkil qilish, inson resurslarini yana ko‘paytirishi mumkin. Tabiiy inqirozlar bu-ortga qaytmaydigan jarayon bo‘lib, qayta tiklanmaydigan shaklda uchraydi. Jamiyat va

tabiiy muhit “yagona tizimni tashkil qiladi va ular o‘rtasida bunga xos bo‘lgan jarayonlar sodir bo‘ladi:

1) moddalar almashinuvi; 2) o‘zaro ta’sir qilish; 3) o‘zaro konvertatsiya qilish; 4) har ikkala element uchun umumiy ta’lim”[2;7].

Insonning o‘zi va boshqa odamlar bilan uyg‘un, mas’uliyatli munosabatlarini shakllantirish, ekologik axloqni rivojlantirish, ijtimoiy darajadagi ekologik o‘zaro ta’sir, bizning fikrimizcha, bugungi kunda eko-estetikaning rivojlanmagan sohasidir. O’quvchilarni mehnatga o‘rgatish, jismoniy faol bo‘lishga ko‘niktirish, bizning fikrimizcha quyidagilar bilan bog‘liq: 1) umuminsoniy qadriyatlar va zamonamizning insonparvarlik g‘oyalari, shu jumladan ekologik-madaniy qadriyatlar va sog‘lom turmush tarzi haqidagi g‘oyalarga muvofiq yangi axloq asoslarini shakllantirish; 2) jamiyat bilan uyg‘un munosabatda bo‘lishga va madaniyatga organik ravishda kirishga qodir shaxsning ijtimoiy asoslarini shakllantirish; 3) mustaqil, erkin faoliyat ko‘rsatish ijodiy faollikni rivojlantirish bilan mehnatga undash; 4) yoshlarning hissiy tajribasiga, dunyoni bilishning amaliy indikativ va obrazli shakllariga asoslangan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; 5) mehnatga halol munosabatni shakllantirishda diniy qarashlarni shaxsiy sifatlar bilan uyg‘unlashtirish va optimistik dunyoqarashni shakllantirish [3;18]. Shu bilan birga o’quvchilarda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqollardan keng foydalanishimiz darkor. “Halol mehnat - yaxshi odat, berar senga baxt-saodat”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik” shular jumlasidandir. Tarixdan ma’lumki, ajdodlarimiz yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishgan. Tarbiyani tizimlashtirish aqliy tarbiya, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, hunar o‘rgatish (Abu Ali Ibn Sino), ta’lim jarayonida shaxsiy namuna, shaxsiy o‘rnak hamda ko‘rgazmalilik, mehnat orqali kun kechirish, halollik, o‘z ehtiyoji uchun o‘zi mehnat qilish, mehnat qahramoni bo‘lish (Alisher Navoiy) kabi tarbiya va ta’limga tegishli bo‘lgan metodologiyani ilgari surganlar. Samarqand jadidchilaridan bo‘lgan “Abduqodir Shukuriy birinchi bo‘lib maktablarda mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo‘jalik va bog‘dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatar edi”[4;50]. Bundan ko‘rinib turibdiki Abduqodir Shukuriy yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiya qilishni yoshlikdan boshlab o‘rgatish lozimligini maktab misolida ko‘rsatib bergan. An’anaga ko‘ra, ilmiy tadqiqotlarda ekologik, estetik, axloqiy, tarbiyaviy masalalar san’at orqali hal qilinishini ko‘rish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda san’atni bitta shakli bo‘lgan musiqaning tarbiya va ta’lim jarayonlariga ta’siri, ekologik va axloqiy-estetik tarbiyadagi o‘rni, turlicha yondashuvlar orqali tahlil qilingan. Musiqa san’ati vositalaridan foydalangan holda ekologik ta’limning pedagogik asoslari belgilab berilgan. “Psixologik-pedagogik

adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, musiqa vositalaridan foydalangan holda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatning hissiy tomoni: o‘smirlarga sezgirlik, hayratlanish hissi, idrok, ishtiyoq, tabiatga hissiy ijobiy munosabatlarni shakllantiradi. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar tabiat go‘zalligiga o‘z hissalarini qo‘shadilar, bu jarayon esa ijtimoiy hayotda ekologik bilimlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug‘ olamga shunchaki kelmaydi. “Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy bo‘hronga qarshi kurashishdan ko‘ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi”[5;82]. Komillikning har bir davrga xos ijtimoiy mezonlari mavjud. Buning boisi shuki, odamzod aqliy, axloqiy -estetik, jismoniy va ruhiy rivojlanish nuqtai nazaridan bir-biridan farqlanadi. Bu taklif va tavsiyalarning amalda bajarilishi respublikamizda yoshlarning ekoestetik dunyoqarashini shakllanishida, tahlikali ekologik vaziyatdan olib chiqishda inson omili rolini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, shaxsning jamiyatdagi ekologik maqomini, ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.
2. Тарбия (Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопидия). -Т. Давлат илмий нашриёти, 2010.
3. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.
4. Ниёзов Г., Аҳмедов.Қ., Тожибоев Қ. Шарқ алломалари ва маърифатпарвар адибларнинг баркамол авлод тарбиясига оид маънавий-ахлоқий қарашлари. –Т:. Ўзбекистон, 2010. -Б.71
5. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т. Университет. 1998. -Б. 82.

TURKIY FALSAFIY TAFAKKURDA INSON KONSEPSIYASI VA UNING PARADIGMATIK ASOSLARI

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sarvar0202pm@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatni erkinlashtirish jarayonini jamiyat va har bir inson hayotiga ta’siri va tartibotini birinchi navbatda insonning o‘zi o‘rnatishi haqida ta’kidlangan. Jamiyat va undagi inson tomonidan yaratilgan turli me’yorlar, insonning ichki dunyosi va ma’naviy borlig‘iga qanday ta’sir o‘tkazishi ham ko‘p jihatdan insonning o‘ziga bog‘liqligi haqida yoritilgan va tegishli xulosalarga kelingan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, jamiyat, ong, yoshlar, ijtimoiy munosabatlar, erkinlik, mas’uliyat.

Аннотация. В статье подчеркивается, что влияние и порядок общества, социальных отношений и процесса либерализации общества на общество и жизнь каждого человека устанавливаются самим человеком. Освещено и сделаны соответствующие выводы о том, что общество и различные нормы, созданные в нем человеком, как они влияют на внутренний мир и духовное бытие человека, во многом зависят от самого человека.

Ключевые слова: духовность, общество, сознание, молодежь, общественные отношения, свобода, ответственность.

Annotation. The article emphasizes that society, social relations, and the process of societal liberalization have an impact on society and the life of each individual, and the order is primarily established by the individual themselves. It is highlighted that society and the various norms created by man in it, how they affect a person's inner world and spiritual being, largely depend on the person himself, and corresponding conclusions are drawn.

Keywords: spirituality, society, consciousness, youth, social relations, freedom, responsibility.

Jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari tomonidan amalga oshirilayotgan yetakchi ilmiy-falsafiy tadqiqotlar obyekti aynan Markaziy Osiyo mintaqasida mujassam bo‘lib eng qadimiy, rang-barang og‘zaki hamda yozma madaniyatning ilmiy jihatlariga oid tadqiqotlar amalga oshirmoqda. XXI asr madaniy muloqot tendensiyasi G‘arb va Sharq sivilizatsiyalarining bir-birini to‘ldiruvchi umuminsoniy qadriyatlar bo‘lishi qatorida, ma’lum millat va elatning buyuk ilmiy merosini e’tirof etadi. Jahon ilm-faniga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylar ilmiy, ijtimoiy-falsafiymohiyatini o‘rganish, tarix o‘tmishidagi voqealarning ro‘yxati va ta’rifi hamda tasvirigina emas, balki ayni vaqtda bu allomalarning asl qo‘lyozma manbalarini falsafiy germenevtika uslubiyati asosidagi, tarjima va tahlil orqali ijtimoiy-axloqiy paradigma qonuniyatlarini dolzarb va asrlar osha qadriyat darajasiga ko‘tarilgan jihatlarini ilmiy tahlil etish uning amaliy mohiyatini xususan, voqelikdagi go‘zallik va insondagi ulug‘vorlik tamoyillarini islom

ta’limotining nafis va chuqur falsafiy tafakkurining ratsional mohiyati bilan tasdiqlash va ulardan oqilona foydalanish zaruriyati mavjudligi diqqat markaziga aylanmoqda.

Husayn Voiz Koshifiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari O‘rta asrlarda Sharq mintaqalarida futuvvatga bag‘ishlangan ko‘plab risolalar paydo bo‘lgan davrda o‘z aksini topgan. Ushbu asarlar orasida Koshifiyning Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati, Muxtassar al-javoxir, Jome’ as-sittiyn yo tafsiri surai Yusuf risolalari diniy-axloqiy mavzularda alohida ahamiyat kasb etadi. Asar shu jihati bilan e’tiborliki, unda futuvvatni ijtimoiy muvozanat sifatida emas, balki tasavvufning bir bo‘lagi sifatida e’tirof etiladi. Garchi, futuvvat va tariqat oqimlari XIII asrga kelib bir-biri bilan qo‘shilib ketgan bo‘lsada, aslida bu jarayon X–XI asrlarda boshlangan edi.

Shu davrlarda yashagan Xuroson, Eron va Movaroannahr shayxlari o‘z muridlarini mardlik va fidoyilik, saxovat va qanoat ruxida tarbiyalash, javonmardlikni tariqat shioriga aylantirishga intilganlar. Tasavvuf va futuvvat bir-birini to‘ldirgan va bir-biriga madad bergan. Futuvvat va tasavvuf ta’limotlari orasida o‘xshashliklar, xususan, Islom dini qonun qoidalariga e’tiqod qilish, futuvvat ahli yoki muridning piru ustozga ega bo‘lishi, insoning poklanishi, xulq-odob qoidalari, sahovat, oliyhimmatlilik, fidoyilik, mehr-shafqat, mardlik, halollik, mexnatsevarlik kabi g‘oyalarning uyg‘unligi bilan asoslangan.

Hozirgi kunda, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Koshifiyning 18 ta nomdagi asari, ularning 212 ta qo‘lyozma va 75 ta toshbosma nusxalari saqlanadi. Qo‘lyozmalar fondida Koshifiyning «Risola dar ilmi adod» («Xisob ilmi haqidagi risola»), «Oynayi Iskandariy» («Iskandar oynasi»), «Ravzati Shuhado» («Shahidlar bog‘i») axloqqa va komil insonni tarbiyalashga oid, «Axloqi Muhsiniy», «Anvari Suhayli», «Risolati Xotamiya», «Futuvvatnomai Sultoniy» kabi asarlari saqlanadi.

Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» kitobi, odob, axloqqa doir fors tilida yozilgan asar sifatida, Temuriylardan bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li bo‘lmish Muhsinga bag‘ishlangan. Koshifiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari bo‘yicha yirik tadqiqotchilardan biri X.Aliqulov ta’kidlaganidek: «Koshifiyning turli manbalarda qayd etilgan asarlarining ayrimlari Moskva, Leningrad, Toshkent kutbxonalarida, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik insituti qo‘lyozmalar fondida hamda bir qancha chet el kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda» [1, B. 55].

Husayn Voiz Koshifiyning «Risolayi Xotamiya» asari 1883–yilda Parijda Sharl Shefer tomonidan nashr qilingan va keyinchalik bu asar Eronda ham chop etilgan. Risola kirish qismi, ikki bob va xulosadan iborat bo‘lib, unda she’riy tushuncha, nazmning turli janrlari haqida so‘z boradi.

Koshifiyning qator ilmiy, adabiy, diniy, falsafiy asarlari qatorida Sharq xalqlari orasida mashhur bo‘lgan kitobi «Anvari Suhayli»dir. Ushbu kitob, Eron va Hindiston, jumladan qator ko‘pgina mamlakatlarda ham chop etilgan.

«Kitobning kirish qismida aytilishicha, Koshifiy A.Nasrulloning «Kalila va Dimna» asarini qayta ishlab, unga ko‘pgina hikoyalar, maqol va matallar, o‘z zamonasi shoirlarining she’rlaridan kiritgan» [1, B. 56]. Asarda insoniylik yuksak fazilat sifatida ta’riflanadi hamda saxiylik, mehr–muruvvat, xalq g‘ami bilan yashash, kamtarlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Allomaning ushbu asari axloq ilmi bo‘yicha Eron oliygohlarida talabalarga darslik sifatida ham qo‘llanilgan.

Ayniqsa, bu asar Tehronda tahsil olayotgan talabalarda katta qiziqish uyg‘otib, ular kitobdan asosiy qo‘llanma sifatida foydalanganlar. Hindistonda esa Koshifiyning «Anvari Suhayli» kitobi, davlat muassasalariga ishga kiruvchi insonlar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Alloma asarlariga xorijiy mamlakatlardagi yuqori qiziqish, uning bebaho ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj juda kuchliligidan dalolat beradi. Koshifiy o‘z asarlarida inson zotini ulug‘laydi va uni jamiki mavjudotlarning sarvari sifatida ta’riflaydi.

Professor X.Aliqulov Koshifiyning asarlari bo‘yicha juda ko‘p tojik olimlari izlanish qilganligini qayd etadi. Xususan, M.Axmedov o‘z izlanishlarida, «Anvari Suhayli» asarining 8 - bobini tahlil qilib, undagi voqealarning mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Muallif, Koshifiyning «Anvari Suhayli» kitobidagi fikrlarni nafaqat o‘zi yashagan davr uchun, balki bugungi kunimiz uchun ham naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr bildiradi.

Qo‘lyozmalardan quyida Koshifiy asarlaridan ba’zilari haqida, ularni fan sohalariga ajratgan holda, qisqacha ma’lumot berishni lozim topdik:

1.Qur’on ilmlariga doir:

Koshifiyning bu sohadagi asarlarini ikki turga bo‘lish mumkin:

a) Tafsirlar:

1. «Javohir at-tafsir li tuhfat al-Amir», 2. «Muxtasar al-javoxir» 3. «Jome as-sittiyn yo tafsiri sakri Yusuf», 4. «Mavohibi Aliyya», 5. «Tafsiri oyati faroiz».

b) Qur’on o‘qish qoidalariga doir risola (tajvid).

1. «Naqovat fi odob at-tilovat» - Koshifiyning ushbu asari tilovat qoidalariga bag‘ishlangan, tarkibiy jihatdan muqaddima va uchta maqoladan iborat, yagona qo‘lyozmasi Qohirada saqlanadi.

2.Hadis ilmlariga doir:

1. «Risolat al-oliyya fi axodis an-nabaviyya» - Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning diniy marosimlarga tegishli hadislardan 40 tasini o‘z ichiga olgan fors tilidagi risola.

3.Tasavvufga doir:

1. «Futuvvatnomai sultoniy»- javonmardlikka (saxovatpeshalik) oid fors tilida yozilgan risola.

Jamiyatni erkinlashtirish jarayonining jamiyat va har bir inson hayotiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash lozimki, ushbu jarayon ziddiyatli tarzda namoyon bo’ladi. Gap shundaki, erkinlik inson hayotiga turlicha ta’sir ko’rsatadi. Erkinlik, ham jamiyat, ham inson hayotida tartibotdan, tartibsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Xo‘sh erkinlik aslida nima o‘zi? Insonning o‘z istagi bo‘yicha ish tutishi bu erkinlikdir. Bu tushuncha huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, estetika kabi ijtimoiy bilim sohalarida keng ishlatiladi. Vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi va hokozo. Erkinlik - boshboshdoqlikni emas, jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalaydi. U insonning jamiyat oldidagi vazifani bajarishni ixtiyoriy tanlashidir. Erkinlik insonning siyosiy, ma’naviy ta’qibdan, zo‘ravonlikdan himoyalanganligini bildiradi. Erkin inson o’zini-o’zi tashkillashtirish imkoniga ega, bu esa undagi ko’pchilik bilan hisoblashish hislarini kamayib borishiga olib kelishi mumkin. Bu o’z navbatida inson ma’naviy olamiga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Akademik M.Xayrullayev ta’biri bilan aytganda: «Aql mavzusi o‘rta asr falsafasi uchun xos bo‘lgan spetsifik masala – haqiqatning ikki tomoni yoki ikki xil haqiqat masalasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu mavzuga shu qadar e’tibor berilishi dunyoviy madaniyat taraqqiysining ana shu masalani hal etishga ehtiyoj kuchli ekanligini va shu bilan birga, o‘sha davrdagi tabiiy-ilmiy bilimlar rivoji aql temasidek murakkab falsafiy masalani hal etish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi» [2, B. 22].

Erkinlikdan o’z o’rnida, ijobiy foydalanish hammada ham bir xil amalga oshmasligi mumkin. Inson erkinligi ob’yektiv shart - sharoit va vaziyatga bog‘liqdir.

U mavhum emas, u doimo konkretdir. Shaxs muayyan sharoit va vaziyatda tayin imkoniyatga tayanib aniq maqsadiga erishadi. Ammo, sharoit, vaziyat va imkoniyatlarga hamma ham bir xilda ega bo‘lmasligi mumkin. Maqsadga erishishda kimgadir shart - sharoit, kimgadir maqsadga erishish vositasi, kimgadir imkoniyat yetishmay qoladi. Muayyan vaziyatda va shart-sharoitda kimdir maqsadga erishish uchun erkinlikka ega bo‘lishi yoki kimdir undan mahrum bo‘lishi mumkin.

Shaxsning erkinligini oshiruvchi omillarga u egallagan bilim va tajriba kiradi.

Islom ta’limotida insonga erkin bo‘lishi uchun aql - idrok berilgan deb aytiladi.

Husayn Voiz Koshifiy islomdagi iroda erkinligini sharhlab, insonga berilgan aql, idrok unga o‘z xatti-harakatida yaxshilik va yomonlikni, halol va haromni, savob va gunohni, to‘g‘ri yoki egri yo‘lni tanlash erkinligini berdi, bizning kelajagimiz shu yo‘llardan qay birini tanlay olishimizga bog‘liq, deb uqtirgan. Inson erkin ongli faoliyati bilan hayvondan farq qiladi. Hayvonlar shart - sharoit va vaziyatga qaramdir.

Inson esa ongli ravishda maqsadga erishish yo‘lini izlaydi. Inson yaratgan jamiyat va undagi inson tomonidan yaratilgan turli me’yorlar, insonning ichki dunyosi va ma’naviy borlig’iga qanday ta’sir o’tkazishi ham ko’p jihatdan insonning o’ziga bog’liq. Masalan, quldorlik tuzumida yashab ham inson ruhan, ma’nan ozod bo’lishi yoki erkin demokratik jamiyatda yashab ham inson o’z erkinligini his qila olmasligi, undan to’g’ri foydalana olmasligi mumkin. Bugungi kunda dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va siyosiy manzarasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ushbu sohalarning barchasida beqarorlik, xaos kuchayib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

Fikrimizcha yuqorida sanab o’tilgan sohalarda kuzatilayotgan tartibsizlik va beqarorlik holatlarining barchasining asosida inson erkinligi, insonning erkin tanlovi turibdi.

«Insoniyatning nimaga qodirligi, uning kelajak taqdirini oldindan aniqlab, basjorat qilib bo’lmaydi, chunki oxir oqibat barchasi uning erkin tanloviga bog’liq bo’lib qoladi» [3, B. 14]. Inson har doim tanlash erkinligiga egaligidan uning ma’naviy, axloqiy kamoloti yuzaga chiqadi. «Jamiyatni erkinlashtirish jarayoni bu birinchi navbatda inson va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga intilishdir» [4, B. 11], deb ta’kidlagan edi, siyosatshunos olim I. Ramazanov. Chunki erkinlashtirish jarayonida jamiyatda inson va davlat o’rtasidagi munosabatlar muvofiqlashtirib boriladi. Erkin jamiyat insoniyatning orzusidagi jamiyatdir.

Koshifiy do‘st va ustoz bilgan Davoniy haqida M.Abidovaning nomzodlik dissertatsiyasida, Hasanbek Rumluning «Axsan at-tavorix» asari asosida Sheroz shahrining madaniy hayoti haqida qayd etilgan» [5, B. 22]. XV asrning yirik allomasi Davoniyning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar uning zamondoshi, alloma haqidagi ko‘plab ma’lumotlar muallifi, mashhur tarixchi Xondamirning «Xabib as-siyar» kitobida berilgan. Davoniyning yuksaklikka erishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhitining ham katta ta’siri bo‘lgan. Xususan Abu Toxir Xo‘janing «Axloqi Muzaffariy» nomli, Shamsiddin Somiyning «Qomus ul–allom» nomli tazkirasida Davoniyning mashxur alloma ekanligiga ishora qiluvchi fikrlar va uning risolalari tahlil etilgan. «Muhammad Ali Tabriziy «Rayhonat ul-adab» tazkirasida Davoniy haqida batafsil ma’lumot berib, uning yirik olim, faylasuf, mantiqshunos, taniqli

shoir, ilm - fanning turli sohalarida, xususan aqliy fanlar sohasida chuqur bilimga ega bo‘lgan shaxs ekanligini qayd etadi» [1, B. 56].

Jamiyatni erkinlashtirish jarayoni natijasida inson va jamiyat o‘rtasida uzilmas munosabat paydo bo’ladi. Chunki erkinlik inson ma’naviy borlig’ining mohiyatli, ajralmas qismidir. Erkinlik insonning tafakkuriga, ruhiyatiga, irodasiga, axloqiga, butun bir ma’naviy olamiga xosdir. Erkin bo’lgan inson erkin bo‘lmagan jamiyatda yashar ekan, uning jamiyat bilan bo’ladigan munosabatlarida ziddiyatlar kelib chiqadi.

Chunki, jamiyat inson mohiyatini inkor etsa, inson ham unday jamiyatni inkor etadi. U jamiyatda inson baxtu-saodatga erisha olmaydi. Shu sababdan ham davlatimiz intilayotgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni bevosita jamiyatni erkinlashtirish jarayoni bilan birgalikda olib borilmoqda. Inson ongli mavjudot sifatida anglanib olingan ehtiyoj bor, yaratuvchanlik bor.

Ehtiyojlarni qondirish, yaratuvchilik bilan shug‘ullanish uchun unga bilim, amaliy tajriba kerak. Shu sababdan unda dunyo sirlarini ochishga qiziqish, intilish bor.

U jamiyatda o‘z o‘rnini faqat tarbiyalanuvchi passiv shaxs sifatida topolmaydi.

U doimo izlanishda, ya’ni amaliy-aqliy va zarur hollarda ilmiy izlanishda bo‘lishi, amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak. Tabiat ne’matlaridan qanday bo‘lsa shundayligicha emas, ularni o‘ziga kerakli tarzda qayta ishlab, yangidan yaratib foydalanadi. Inson shu hislati bilan hayvondan farqlanadi. Insonning yaratuvchanlik hislati ma’lum bir bilimga tayanadi. U butun umri davomida bilimni hayot amaliyotidan va ta’limdan oladi. Bilimi va tajribasi o‘sgani sayin insonning muloqot va faoliyat doirasi kengayib boradi. Bu esa o‘z navbatida insonning erkinlik darajasini yuksaltiradi, faoliyat doirasini kengaytiradi, yaratuvchilik salohiyatini kuchaytiradi.

Bilim va tajriba birinchi navbatda insonning tabiatga va qisman maishiy, kasbiy jihatdan muhitga bevosita qaramligini kamaytiradi, jamoadagi mavqeini ko‘taradi.

Bundan tashqari, jamiyat rivojlanishi jarayonida u insonga yangi imkoniyatlar yaratdi, jumladan, uning erkinlik darajasini oshirib boradi. Bilim va tajribasi yuqori kishi jamiyat bergan imkoniyatlardan to‘laroq foydalana oladi, bilimi, saviyasi past kishi hatto o‘z haq-huquqlaridan ham foydalana olmaydi.

Insonning qalbi va ongiga jo bo‘lgan milliy ma’naviy-axloqiy me’yorlar, qarashlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo‘lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo‘shishga, o‘zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undashi lozim.

Shuning uchun ham «Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak» [6] - degan ulkan maqsadlarni belgilab oldik. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, har qanday salbiy ta’sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish - bugungi kun ta’lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlargina kelajakda yuksak ma’naviyatli, erkin jamiyat poydevorini yarata oladilar. Milliy ma’naviyatimiz an’analarida shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari - axloq, iymon e’tiqod, jamoaviylik, ilm, mas’uliyat, mehr-oqibat o‘zaro uyg‘unligi masalasi ustivor yo‘nalish ekanligi ma’lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra G‘arb ta’lim-tarbiya tizimida ayni shu o‘zaro mutanosiblikka yetarli e’tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma’naviy-axloqiy sohada ba’zi bir juda og‘ir muammolar kelib chiqmoqda: individualizm odamlarni bir-biridan va8 jamiyatdan begonalashib borayotganligi, shaxs hayotida virtuallashishning kuchayishi, boylik orttirish hirsi, iste’molchilik psixologiyasi o‘sib borayotganligi turli jinslar o‘rtasidagi munosabatlarda an’anaviy qadriyatlar, me’yorlar deformatsiyaga olib kelmoqda.

Takror aytishga to‘g‘ri keladi - ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi. Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi shiori ostida tadbirkorlik subyektlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berildi. Insonlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, sog‘lom turmush tarzini joriy etish, ularning maishiy turmushini yaxshilash uchun bir qancha amaliy ishlar qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki inson erkinliklari va huquqlarining o‘sishi uning tafakkuri, tashabbuskorligi, yaratuvchanligi yuksalishiga hamda dunyoqarashining kengayishiga keng imkoniyatlarning yaratilishi jamiyatimizdagi ma’naviy muhitning yaxshilanishiga, ijodkorlik, yaratuvchanlik qobiliyatining o‘sishiga zamin bo‘lmoqda. Demakki, bularning ta’sirida jamiyat ma’naviy hayoti izchil ravishda rang-baranglashib, go‘zallashib, boyib boraveradi. Ma’naviyat tizimida ijtimoiy ong shakllarining jamiyat hayotidagi o‘rnining ortib borishi hamda ularning o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida inson faoliyatining rang

baranglashuvi yuz beradi. Bu esa ma’naviyatning tizim sifatida yanada barqarorlashishini hamda rivojlanishini ta’minlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy ma’naviy merosida diniy tasavvurlarning milliy qadriyatlariga sinkretlashuv xususiyatlarini falsafiy jihatdan tadqiq etish maqsadida, Sharq falsafiy tafakkur taraqqiyotida voqelik va inso konsepsiyasining genezisi va shakllanish jarayonining umumiy va alohida jihatlari eramizdan avvalgi shakllangan ilk ijtimoiy-falsafiy ta’limotlar mifologik tafakkurdan boshlab, tizimlashgan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, yahudiylik va islom kabi e’tiqodlarning mamlakatimiz hududlarida mavjud tarixiy sharoitlarda ko‘pgina xalqlar, millatlar va elatlarning ijtimoiy-falsafiy ma’naviy-ma’rifiy, diniy-e’tiqodiy dunyo qarashlarini belgilab bergan.

Markaziy Osiyoning islom ma’naviyati bilan boyigan, yangi madaniyat shakllana boshlagan davri IX-XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davr axloqiy paradigmasi shariat, tasavvuf, diniy ta’limotlar, xususan g‘oyalarida yetakchi mavzuga ayalanishi, ichki ma’naviy-ruhiy ko‘tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo‘lishiga qaratilgan faoliyat evolyutsiyasi sifatida o‘z takomilini islom ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarida namoyon etdi. Husayn Voiz Koshifiy XV asr Xuroson va Movaroannahr diniy-axloqiy qarashlari bilan nafaqat bir tarmoqqa xizmat qildi.

Allomaning asarlari o‘sha davr uchun ko‘p fanlarga o‘quv qo‘llanma vazifasini bajargan. Zero Koshifiyning ilmiy merosi tarmoq va fanlar kesimida o‘rganilmagan bo‘lsada, lekin qator sohalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov X. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. Falsafa va huquq insituti. Toshkent. 2009 y. B. 55–56.

2. Хамруш А.А. Учение о государстве и праве в средневековой араб-мусульманской культуре и философской традиции. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата философских наук. МГУ-1981 г. 22 с.

3. Киселов Г. Свобода и эволюция // Вопросы философии, 2005, – №10. – С. 14.

4. Ramazonov I., Mo‘minov E. “Politologiya” – Toshkent: Adolat, 1997. B. 11.

5. Усманова О. Ахлаки Мухсини Ваиза Кашифи. Введение в изучение памятника XV в., перевод, историко-филологический комментарий: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Т., 1984. – 22 с

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/4057.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA EKOGLOBALISTIKA PARADIGMASINING TRANSFORMATSIYASI

Alikulov Xusniddin Akbarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kasb mahoratini oshirish markazi sektor mudiri, f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Maqolada global iqlim o‘zgarishi sharoitida ekoglobalistika paradigmasining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muallif **ekoglobalistika paradigmasi**ni insoniyatning global rivojlanishini ekosistema barqarorligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Maqolada ekoglobalistik fikr evolyusiyasi, uning falsafiy-metodologik asoslari hamda zamonaviy iqlim siyosatlari va ekologik etika bilan bog‘liq yangi tendensiyalar ochib berilgan. Shuningdek, falsafiy paradigmalar va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar tahlil qilinib, ekologik ongni mustahkamlashning nazariy va amaliy yo‘nalishlari ishlab chiqilib, ushbu yo‘nalishda taklif-tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ekoglobalistika, transformatsiya, geoekologik tamoyillar, etnoegoistik kayfiyatlar, ekogegemonlik, barqaror rivojlanish, global muammolar, xalqaro tashkilotlar.

Аннотация: В статье анализируется трансформация экоглобалистской парадигмы в контексте глобального изменения климата с социально-философской точки зрения. Автор анализирует экоглобалистскую парадигму с точки зрения глобального развития человечества в аспекте устойчивости экосистем. В статье раскрывается эволюция экоглобалистской мысли, её философско-методологические основы, а также новые тенденции, связанные с современной климатической политикой и экологической этикой. Анализируются связи философских парадигм с моральными ценностями, разрабатываются теоретические и практические направления укрепления экологического сознания, даются предложения и рекомендации в этом направлении.

Ключевые слова: глобализация, экоглобалист, трансформация, геоэкологические принципы, этноэгоистические настроения, экогегемония, устойчивое развитие, глобальные проблемы, международные организации.

Abstract: This article analyzes the transformation of the eco-globalist paradigm in the context of global climate change from a socio-philosophical perspective. The author examines the eco-globalist paradigm from the perspective

of global human development in terms of ecosystem sustainability. The article explores the evolution of eco-globalist thought, its philosophical and methodological foundations, and new trends related to contemporary climate policy and environmental ethics. The article analyzes the connections between philosophical paradigms and moral values, develops theoretical and practical approaches to strengthening environmental awareness, and provides proposals and recommendations in this area.

Keywords: globalization, eco-globalist, transformation, geo-ecological principles, ethno-egoistic sentiments, eco-hegemony, sustainable development, global problems, international organizations.

Hozirgi davrda turli davlatlarning: iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy tizimi, etno-demografik tarkibi, konfessional xususiyatlari, geografik o‘rni va ma’naviy an’analaridan qat’iy nazar ekologik muammolar doirasida xalqaro ijtimoiy-siyosiy munosabatlari: integratsiyalashish$_{g‘}$ universallashish va intensivlashish jarayonlari globallashuvi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, insoniyat tarixiy taraqqiyotining XX asri o‘rtalaridan boshlab, dunyo davlatlarida tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish sohasida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy “mental xususiyatlar” integratsiyalashib, universal geoekologik tamoyillar shakllanmoqda. Bu esa, bir tomondan, umuman ekologik muammolarni o‘rgananayotgan fanlar, xususan ekoglobalistika paradigmalari shakllanishiga asos bo‘lmoqda va o‘zgarishlarini kompleks-sistemali tadqiq qilish ehtiyojini kuchaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, ekologik muammolar globallashuvining: mahalliy, milliy, hududiy xususiyatlarini ijtimoiy makon, tarixiy zamon kontekstida o‘rganib, ularning vujudga kelishi, rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari haqidagi muqobil falsafiy ta’limotlarga differensial yondashishni taqozo qilmoqda.

XX asrdagi dunyo geoekologik manzarasidagi tub sifat o‘zgarishlar: 1) ekoglobalistikaning ob’ekti, predmeti doirasini, kategorial apparatini, ilmiy maqomini, tamoyillarini va vazifalari ko‘lamini; 2) ekologik muammolar globallashuvi: umumiy ijtimoiy-siyosiy makon, transmilliy iqtisodiyot, axborot maydoni, ma’naviy-madaniy muhit shakllanishi ekoglobalistika paradigmalari o‘zgarishlarini; 3) ekoglobalistikaning, nisbatan yangi fan yo‘nalishi sifatida, ob’ektiga falsafa fani qonunlari, kategoriyalar kontekstida yondashishi, uning nisbatan turg‘un, umumlashgan, universal bilimlari shakllanishiga asos bo‘lishini hamda umummetodologik ahamiyatini aniqlab berdi.

Hozirgi paytda ekoglobalistika ta’limotiga asosan mavjud global ekologik muammolar: birinchidan, vujudga kelish genezisi, shakllanishi, transformatsiyasi va ta’sir doirasiga ko‘ra umumplanetar bo‘lib, barcha davlatlarda yashovchi

xalqlarning: iqtisodiy rivojlanish darajasidan, siyosiy mavqeidan, etno-demografik strukturasidan, irqiy-milliy mansubligidan, diniy e’tiqodidan qat’iy nazar hammasi uchun hayotiy, taqdirshumul axamiyatga ega; ikkinchidan, global muammolarni hal qilish ehtiyoji va zaruriyati dolzarbligini anglash asosida xalqaro siyosiy munosabatlar miqyosida kun tartibiga qo‘yib, kechiktirmasdan yechimi topishning institutsional tizimini shakllantirish, konstruktiv-ratsional usullari, vositalarini oqilona tanlash hamda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi; uchinchidan, oqibatini baholashda umuminsoniy manfaatlar ustuvorligini e’tirof qilib ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra mahalliy, milliy, hududiy darajalarda yechimi topilmagan taqdirda, ularning eskalatsiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi mavjudligiga halokatli ta’sir qilib: ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyotini inqiroziga olib kelish muqarrardir; to‘rtinchidan, global ekologik muammolar yechimini topishda davlatlarning ichki va tashqi imkoniyatlarini integratsiyalashtirishga moyilligi jahon hamjamiyati moliyaviy, moddiy-texnik, intellektual salohiyati resurslarini umumiy maqsad uchun safarbar qilib, hamkorlikdagi sa’yi-harakatlarini talab qilishi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi davrga kelib “dunyoda globallashuv, beqarorlik va qarama-qarshilik kuchayib borayotgan sharoitda aynan yaqin va o‘zaro manfaatli hamkorlik barqaror rivojlanish va taraqqiyotga erishish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi”[1]. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning globallashuv jarayoni borasidagi ushbu fikrlarini ekologik muammoning: retrospektiv asoslari, mavjudlik holati, rivojlanish tendensiyasi va salbiy oqibatlarini bartaraf qilish mexanizmlari va istiqbollari kontestida olib qarasak, genezisiga ko‘ra dastlab muayyan chegaralangan ijtimoiy makonda, tarixiy zamonda ehtiyojlar va manfaatlar kurashi asosida vujudga kelib, eskalatsiyasi natijasida butun dunyoni qamrab, insoniyatning bugungi va kelajak avlodlari hayotiga jiddiy xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar, tashkilotlar va xalqlarning manfaatlaridan kelib chiqib hamkorlikdagi faoliyatini taqazo qiluvchi muammolar – global ekologik muammolar, deb atalishiga asos bo‘ladi.

Global ekologik muammo yo‘nalishlarini, harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlarini, determinlashtiruvchi omillarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini davrlashtirish mezonlarini aniqlash ekoglobalistikaning muhim nazariy-metodologik vazifasidir. Shu nuqtai nazardan, ekoglobalistika fani rivojlanish tarixini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – global ekologik muammolarning vujudga kelishi va shakllanishi davrlarini o‘z ichiga olib, nisbatan diskretligi va fragmentarligi bilan xarakterlanadi. Bu davr miloddan oldingi III asrlardan boshlanib, eramizning XIX asrlariga xos bo‘lgan. (Ya’ni diskretligi, fragmentarligi deyilganda globallashayotgan muammolarning: konkretligi, individualligi, ko‘lami doirasi,

ta’siri preventivligi, transformatsiya sur’ati nazarda tutiladi). Zero, har qanday global hodisa butun “sayyora qobig‘ini” mutlaq, istisnosiz qamrab olishi mumkin emas.

Ikkinchi bosqich – XIX asr oxiri, XX asr birinchi yarimini o‘z ichiga olib, bu jarayonning differensiallashuvi va oqibatlari integratsiyalashuvi ustuvor xususiyati sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davr boshlanishida: sanoatlashtirish, sanoat inqiloblari, urbanizatsiya jarayonlari millatlararo ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar kuchayishi yangi yo‘nalishlardagi ekologik muammolar vujudga kelishi va tranformatsiyasiga asos soldi. Ikkinchi tomondan, bosqich oxirlarida dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tengsizlik, milliy o‘zlikni anglash eyforiyasi, etnoegoistik kayfiyatlar aynan shu muammolar keskinlashuvini rag‘batlantiruvchi omil bo‘ldi.

Uchinchi bosqich – XX asr o‘rtalaridan boshlanib, asrning oxirlarida poyoniga yetdi. Bu bosqich jahondagi barcha mamlakatlarning: geografik o‘rnidan, iqtisodiy rivojlanish darajasidan, xalqaro siyosiy mavqeidan, texnik, texnologik, intellektual potensialidan qat’iy nazar global ekologik muammolar komiga, istisnosiz tortilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fan-texnika taraqqiyoti insonning tabiatga antopotexnogen bosimi kuchayishi, atrof muhit (hatto, kosmosning) intensiv ifloslanishi, tabiiy boyliklar zaxirasining “qashshoqlanishi” ro‘y bermoqda.

To‘rtinchi bosqich – XX asr oxiri, XXI asr boshlariga xos bo‘lgan texnogen sivilizatsiya, postindustrial va axborotlashgan jamiyat rivojlanishi global ekologik muammolarni keskinlashib yubordi. Bu davrda, bir tomondan, kompyuter va Internetdan, kosmik aloqa vositalaridan keng foydalanish umuminsoniy ekologik qadriyatlar ommalashuvini, universallashuvini kuchaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, asrlar davomida shakllangan ekologik ma’naviy qadriyatlar “devalvatsiyalashib”: shaxs va millatlar ekologik marginallashuvi, ijtimoiy begonalashuvi, ayrim millatlarning etnoegotsentrizm kayfiyatiga asoslanib dunyoda “ekologik gegemonlikka” intilish kayfiyati kuchayishi bilan xarakterlanadi. Eng muhimi bu bosqichda ekologik global muammolarning yangi xususiyatlari paydo bo‘lishi – ultragloballashuvini namoyon qilmoqda. Ya’ni globallashayotgan muammolar kesishgan ekologik “chorrahalar”ni aniqlash va ular yechimida ekologik muammolarni hal qilishning ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo‘lmoqda.

Ekoglobalistika sohasida dunyo olimlari global ekologik muammolarning ob’ektiv va sub’ektiv sabablari, rivojlanish qonuniyatlari va oqibatlari xaqida jiddiy ilmiy-tadqiqotlar olib borib, muayyan natijalarga erishmoqdalar. Xususan, hozirgi zamon ekoglobalistikasida bu jarayonni: tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish institutsional tizimi samaradorligini oshirishga doir muqobil nazariy

xulosalar, metodologik tavsiyalar, amaliy takliflar, konstruktiv modellar ishlab chiqilmoqda. Ularning muqobilligi bu jarayonning genezisini, retrospektiv asosini, mavjudlik holatini, rivojlanish tendensiyasini, oqibatlarini Hazrati insonning global ekologik maqsadlari, ehtiyojlari, manfaatlari bilan bog‘lash masalasida umumiy pozitsiyaga ega.

Bugungi kunda insoniyat global ekologik muammolarni ayrim davlatlar yoki ularning gruhida avtanom tarzda, siyosiy kuch bilan hal qilishi mumkin emasligini, aksincha uning ma’naviy-axloqiy asoslari ustuvorligini ta’minlash orqali yechimini topish muqobili bo‘lmagan yo‘lligini anglab yetmoqda. Bu esa, o‘z navbatida har bir davlat va millatning globallashayotgan va keskinlashayotgan muammolarga munosabatini tubdan o‘zgartirishini, ya’ni: “global miqyosda – fikrlash, lokal miqyosda – kurashish”, degan shiorga amal qilishini taqozo etmoqda. Lekin hozirgi davrda, umuman global muammolar, xususan ekologik muammolar yechimiga: optimistik, pessimistik, skeptik, alarmistik, fatalistik, realistik yondashuvlar (har biri o‘zicha haqiqatlikka davogarlik qilishiga qaramasdan) yoki ularning eklektik “qorishmasi” muammolar yechimini topishning universal ilmiy nazariyasi va metodologiyasini yaratishga qodir emas. Chunki globallashuv muammosi umumiy bo‘lsa ham har qanday individ, shaxs, ijtimoiy gruh taqdiriga differensiallashgan tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Ularning maqsadlari, ehtiyojlari, manfaatlari individualligi globalizm haqidagi g‘oyalariga asoslangan faoliyati xilma xilligiga, ziddiyatiga va qarama qarshiligi kuchayishiga olib kelmoqda. Lekin bu ekologik muammolar globallashuvi masalasida mutlaqo shartli va nisbiydir.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda ilgari surilayotgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 16 sentabr kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) sammitida tashkilot doirasida Iqlim masalalari bo‘yicha Kengash tuzishni taklif qildi [2]. Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq xatarlarni qisqartirish, barqaror bioxilma-xillik va transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini qayd etib, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash sohasida majburiyatlar to‘g‘risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi [3].

Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar jarayoni dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillarini iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va uning oqibatlarini

yumshatish, iqlim bo‘yicha strategiyalar va “yashil” energetikaga o‘tishni moliyalashtirish borasidagi xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Dunyoda shakllangan ekologik vaziyat g‘oyat jiddiy va murakkab bo‘lishiga qaramasdan pessimizmga berilmasdan, hamkorlikda ularning yechimini topish yo‘llarini izlash lozim. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, - “hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashmoqda, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi mutlaqo yangi, xavotirli geosiyosiy voqelikni vujudga keltirmoqda” [4]. Lekin ekologiya sohasida ortiqcha optimizm avantyurizmning namoyon bo‘lishini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Insoniyatni global ekologik muammolar girdobidan, keskinlashayotgan inqirozlardan silsilalarsiz olib chiqishning real imkoniyatlari bormi, uning shart-sharoitlari qanday degan, savollar xalqaro hamjamiyat oldiga keskin qilib qo‘yilmoqda. Z.Freydning o‘z vaqtida: “Biz bundan keyin ham insonning tabiiy istak-mayillari oldida aql-idrok ojizligini tan olamiz va e’tirof etishga haqlimiz. Ammo, aql-idrok ojizligiga qaramay, odamni hayvoniylikdan insoniylikka chaqirishdan tolmaydi. Aql-idrok, doimiy mag‘lubiyatlarga qaramay, bir zamon kelib, ustuvor bo‘lishini uzoq zamonlar kutishga to‘g‘ri keladi, ammo bunday zamon cheksiz uzoq ham emas”[5], degan xulosasi insoniyatni global ekologik muammolar yechimini topishda hamkorlikka chaqirishning yorqin namunasidir.

Hozirgi zamon ekoglobalistikasining umumlashgan xulosalariga ko‘ra, ularning yechimi quyidagi shart-sharoitlarga, omillarga bog‘liq, ya’ni:

1. Hozirgi davrda fan, texnika, texnologiya, axborot inqiloblari, inson intellektual salohiyati natijalarini ekologiyalashtirish, xususan ularni umuminsoniyatning ekologik manfaatlariga bo‘ysundirish, sivilizatsiyaning yangi bosqichini – global ekologik ma’naviy yuksalishni vujudga keltiradi.

2. Insoniyatning ma’naviy-madaniy merosi potensialini universal “global ekologik tafakkur madaniyatini” shakllantirishga yo‘naltirib, har bir millat va davlatning barqaror ekologik taraqqiyoti xavfsizligini ta’minlash ehtiyoji halqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvini taqozo qiladi.

3. Xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarda: gumanistik va demokratik; o‘zaro tenglik va manfaatdorlik; umuminsoniy ekologik qadriyatlar ustuvorligi tamoyillari ekologik muammolar globallashuvi oqibatlarini baholashda asosiy mezon bo‘lishi lozim.

4. Global ekologik muammolar yechimida turli davlatlar, millatlar, konfessiyalarning hamkorlikka intilish tendensiyasi, xayrixoxlik psixologiyasi

kuchayib, ekoglobalistikada: “ekologik konsensus”, “ekologik kompromiss” degan xalqaro tushunchalar milliy tillar leksikoniga kirib kelmoqda.

5. Global ekologik muammolar yechimida ekoglobalistikaning: ratsional va irratsional nazariyalarini, dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini, G‘arb mentaliteti va Sharq etiketini, liberalizm va demokratizm g‘oyalarini, muqobil falsafiy ta’limotlarini, tolerantlik tamoyiliga ko‘ra uyg‘unlashtirish asosiy omildir.

6. Dunyodagi har bir xalq, etnik guruh ekologik madaniyati integratsiyalashuvi, unifikatsiyalashuvi natijasida universalizm kuchayib, umuminsoniy “global ijtimoiy-siyosiy makon” konturlari konkretlashmoqda va global muammolar yechimini topishga doir xalqaro institutsional tizim shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T.: “O‘zbekiston”, 2020, 267 bet.

2. https://yuz.uz/news/ozbekiston-delegatsiyasi-dubay-shahrida-bolib-otadigan-iqlim-ozgarishlariga-qarshi-kurashish-sohasidagi-harakatlar-boyicha-jahon-sammitida-ishtirok-etadi

3. https://president.uz/uz/lists/view/7689

4. https://president.uz/uz/lists/view/8528

5. Sveyg S. Zigmund Freyd. Ruhiy tahlil san’ati. //Jahon adabiyoti. 2000, №3. 134 bet.

2-SHO‘BA. FALSAFA, FAN, SIYOSAT VA DINNING INSONIYAT KELAJAGINI SAQLASHDAGI AHAMIYATI

MINTAQAVIY IDENTITLIK-MILLIY YUKSALISH OMILI

Anvar Qodirov
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi
professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada ilmiy adabiyotda kam tadqiq qilingan muammo – mintaqaviy identitlikni anglashning Yangi O‘zbekiston yuksalishi uchun siyosiy axamiyati to‘g‘risida muloxaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy xamkorlik, identitlik, yagona tarix, islom dini, turkiy til, milliy mustaqil rivojlanish.

Postsovet ijtimoiy makonida 1991 yil kuzatilgan “mustaqillik paradi” (B.Yelsin) dan so‘ng milliy davlatchilikni barpo etish, milliy tiklanish va taraqqiyotga erishish tendensiyasi shakllandi. Totalitar, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan siyosiy tartibotdan suveren rivojlanish o‘zaniga o‘tish sabab sobiq tuzum xalqlari xalqaro xamjamiyat ta’sirida demokratik taraqqiyot, inson xuquk va erkinliklari ta’minlanadigan jamiyat barpo etish tomon yuz tutdi. Biroq, dunyodagi murakkab vaziyat, yetakchi davlatlarning xamon planetada gegemonlik qilish uchun o‘zaro raqobati milliy o‘zlikni anglashdan tashqari mintaqaviy identitlikni anglashga erishish xam zarur ekanligini ko‘rsatdi.

Postsovet makonda bunday zarruratni dastlab anglab yetgan Rossiya va Belarus o‘zaro integratsiya yo‘liga kirgan bo‘lsa,keyinchalik Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari xam o‘zaro mintaqaviy xamkorliksiz milliy rivojlanishga erishish mumkin emasligini anglab yetdilar. Bu O‘zbekistonda 2017 yilida xukumat boshiga Sh.Mirziyoyevning kelishi bilan yanada chuqur anglab yetildi, yaqin qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy vektoriga aylandi (1.592).

Milliy mustaqillikka erishishdan so‘ng mintaqaviy identitlikni anglash muammosi o‘ziga xos tarixiy axamiyatga molik dolzarb masala ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu masala dastlab 90-yillar o‘rtalarida O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan olg‘a surilgan “Turkiston-umumiy uyimiz!” degan siyosiy shiorda o‘z aksini topdi. Bu g‘oya ayrim sabablarga ko‘ra amalga oshmadi. Natijada ayrim tashqi omillar ta’sirida tarixi, o‘tmishi,dini, qismati bir bo‘lgan Markaziy Osiyo yosh mustaqil davlatlari o‘rtasida integratsiya emas,deintegratsiya jarayonlari yuzaga keldi.

Asosiy qism.

Milliy o‘zlikni anglash muammosi milliy mustaqillikka erishilgandan so‘ng dolzarblashdi.Biroq milliy o‘zlikni anglash jarayoni uzoq o‘tmishga borib taqaladi-X1X asr oxiri va XX asr birinchi yarmiga borib anglab yetildi, jadidlar xarakati buning yorqin misolidir. Mustaqillik uchun kurash tajribasi shuni ko‘rsatdiki,mintaqaviy o‘zlikni anglash faqat bir millat doirasida mumkin emasligi ma’lum bo‘ldi. Etnik o‘zlikni anglash insonni o‘zi yashab turgan ijtimoiy makon bilangina cheklanmasligi,ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlatda mintaqaviy xamkorlik, turli xalqlar bilan yagona g‘oya atrofida birlashishsiz unga erishish qiyin ekanligini ko‘rsatdi.

Milliy o‘zlikni anglash shu bois mintaqaviy o‘zlikni anglash bilan uyg‘un xodisadir.Biroq unga erishish dastavval milliy o‘zlikni anglashdan boshlanadi,u o‘ziga xos asos,poydevor rolini o‘ynaydi. U quyidagicha komponentlarni taqozo qiladi:

1.Milliy o‘zlikni anglash ijtimoiy-tarixiy shakllanish jarayoniga ijobiy munosabatda bo‘lish,o‘z etnik guruxini o‘zga etnik guruxlar bilan umumiy jixatlari va o‘ziga xos etnospesifik xususiyatlarini chuqur idrok etish bilan bir qatorda,o‘z etnik guruxining o‘zga etnik guruxlar vakillari tarixi bilan umumiy jixatlar mavjudligini anglash va shu asosda ularga nisbatan xayrixoxlik,tolerantlik xissi immunitetini shakllantirish;

2.Milliy o‘zlikni anglash xar bir etnos milliy mentalitetining shakllanib rivojlanshida xamda etnosning rivojlanish jarayonida tarixiy-madaniy omillar ta’sirida uni idrok etish,o‘zlikni anglab,o‘zga etnik gurux vakillari urf-odatlari va an’analariga xurmat bilan qarash;

3.Milliy o‘zlikni anglash-etgosning millat sifati pozitiv rivojlanishinng davomiyligidir. Milliy o‘zlikni anglash—o‘z milliy-xududiy birligida istiqomat qiluvchi millatdoshlari taqdiri,ularning o‘tmishi va kelajagiga,yurtning ravnaqiga ma’suliyatni xis etishdir;

4.Insoniyat taqdiriga befarq bo‘lmaslikning dastlabki bosqichi,o‘zligini anglab, millatdoshlari taqdiriga, ularning o‘tmishi va kelajagiga daxdorlik tuyg‘usiga ega bo‘lish va x.k.(4.).

Mintaqaviy o‘zlikni anglash yuqorida sanab o‘tilgan asosiy jixatlardan tashqari mintaqada o‘zaro kesishgan geosiyosiy manfaatlar xususida xam ma’lumotga ega bo‘lish,xamkorlik, integratsiyaga yo‘naltirilgan mafkuraviy tarbiyani yo‘lga qo‘yishni xam taqozo qiladi.Mintaqaviy integratsiya mintaqaviy mafkurani talab qiladi. Mintaqaviy mafkura mintaqa xalqlarini o‘zaro birlashtiruvchi xamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi muxim g‘oyaviy vositadir. Mafkura bag‘oyat qudratli,yaksok qiluvchi xamda bunyod qiluvchi g‘oyaviy vositadir. “Sovuq urush” degani xam mafkuraviy urush degani xamdir. U “Qaynoq”

urushdan ming chandon kuchli kudratga ega. Masalan, 2-Jaxon urushida butun Yevropa davlatlarini birlashtirgan Germaniya fashistik imperiyasi g‘ayriinsoniy integratsiyasi xurujiga 5 yildan ziyod bardosh bergan va pirovardida g‘alabaga erishgan buyuk davlat-SSSR ning mafkuraviy kurash natijasida 90-yillar oxiriga kelib parchalanib ketishiga mafkuraviy ta’sirlar sabab bo‘ldi. Qurolli,xarbiy ekspansiya mafkuraviy ekspansiyaning xosilasidir.Bunga tarixiy misollar bisyor.

Masalan, XU1-XU111 asrlar davomida Osiyo,Afrika va Amerika qit’alarida paydo bo‘lgan mustamlakalar birinchi galda mafkuraviy,g‘oyaviy ta’sirlar natijasida shakllandi.Bu xususda aniq va ishonarli fikrlar mavjud.Masalan,buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy Buyuk Britaniyani o‘zidan ko‘ra ko‘proq axoliga ega bo‘lgan Xindistonni zabt etishi xususida shunday degan edi: “Tijorat kompaniyasi ikki yuz million axoliga ega bo‘lgan millatni bo‘ysundirdi. Buni oddiy insonga aytsang,u bu so‘zlarning ma’nosini tushunmaydi. Bu nima degani,30 ming kishi ikki yuz million kishini bo‘ysundirdimi? Aslida,inglizlar zarur g‘oyani singdirdilar,xindlar esa bunga rozi bo‘ldilar” (4.183 s.).

Ushbu fikrning taxlil etilayotgan masala uchun axamiyati shundaki, mintaqaviy integratsiya integratsiyaga kirishuvchi siyosiy subyektlar o‘rtasida ularni o‘zaro birlashtiruvchi g‘oya shakllanganida mumkin bo‘ladi. Shu ma’noda 90-yillarda Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan olg‘a surilgan “Turkiston-umumiy uyimiz!” degan shior mintaqa davlatlarini o‘zaro integratsiyaga kirishishi uchun metodologik dastur,integrativ g‘oya vazifasini o‘tashi mumkin edi.Biroq bu g‘oya o‘sha davrlarda Rossiya tomonidan geostrategik axamiyat kasb etayotgan “Yevroosiyo integratsiyasi” g‘oyasi qarshiligiga uchradi.2004 yili Rossiyaning “Markaziy Osiyo xamkorlik Kengashi “ ga xamda SHXT ga a’zo bo‘lishi ushbu g‘oyani amalga oshishiga imkon bermadi.

Biroq “Oqqan daryo oqaveradi” deganlaridek, Markaziy Osiyo qardosh xalqlari chegaraviy va boshqa to‘siqlarga qaramay bir-birlariga azaliy talpinish,intilishdan to‘xtamadi. Siyosiy fan patriarxlaridan biri,kuchli taxlilchi,AQSH siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy ta’biri bilan ifodalaganda “Yevroosiyo" g‘oyasi bir tomondan SSSR ni tiklashdek bema’ni g‘oya bilan bog‘liq bo‘lsa,ikkinchi tomondan “Xartleyend” geostrategik g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq (6.256.). Bu masala aloxida yondashuvni taqozo qiladi.

2017 yildan Prezident Sh . Mirziyouv tomonidan tashabbus qilingan Markaziy Osiyo integratsiyasi va Turkiya Prezidenti Erdogan tomonidan olg‘a surilgan “Buyuk Turon” g‘oyasi mintaqa xalqlari barqaror rivojlanishi va milliy yuksalishi uchun xayotbaxsh axamiyat kasb qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1.Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.:”O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-592 b.

2.Mirziyoyev Sh.M.YangiO‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-T.;”O‘zbekiston”,2022.-416 b.

3.Beruniy Alimov.Myedia makonda milliy manfaatlar.-T.,2019. 230 b.

4.Gadjiyev K.S.Vvedeniye v geopolitiku.-M.:”LOGOS”,2000.-183 s.

5.Kushayev U.Geostrategik manfaatlar va g‘oyaviy jarayonlar.-T.:” Fan va tehnologiya “,2013.-140 b.

6.Bjezinskiy Z.Velikaya shaxmatnaya doska. -M.»Mejdunarodnыye otnosheniya».2003. -256 s.

MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Ramatov Jumaniyoz Sultanovich

Toshkent davlat transport universiteti “ijtimoiy fanlar” kafedra mudiri,
falsafa fanlari doktori, professor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi, ularning mazmun-mohiyati hamda jamiyat ma’naviy hayotiga ko‘rsatayotgan ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali mexanizmlari sifatida milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning zamonaviy usullarini qo‘llash, media va axborot savodxonligini oshirish, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, diniy-ma’rifiy islohotlarni izchil olib borish va milliy madaniy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kabi yo‘nalishlar yoritilgan. Tadqiqot davomida mantiqiy-tahliliy, tarixiylik, komparativ va obyektivlik kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Maqolada O‘zbekistonning milliy xavfsizligi, ma’naviy barqarorligi va yoshlar dunyoqarashini mustahkamlashda mazkur mexanizmlarning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. mafkuraviy tahdidlar, globallashuv, ma’naviy xavfsizlik, ideologik kurash, media savodxonlik, ma’naviy immunitet, axborot xuruji, milliy tarbiya, diniy-ekstremistik g‘oyalar, madaniy ekspansiya, yoshlar mafkuraviy himoyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy barqarorlik, targ‘ibot-tashviqot, milliy mafkura.

Kirish. Globallashuv jarayonining jadallashuvi insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jabhalarida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Axborot almashuvining keskin kuchayishi, davlatlararo integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, texnologik rivojning tezlashuvi bir qator global muammolarni paydo qildi. Tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, ekologik xavfsizlik,

migratsiya, gumanitar inqirozlar va mafkuraviy tahdidlar ana shunday global masalalar sirasiga kiradi. Bu muammolarni bartaraf etish barcha davlatlarning sa’y-harakatlari va hamkorligini talab etadi.

Mafkuraviy tahdidlar — globallashuv jarayonining eng qonuniy, ammo eng xavfli oqibatlaridan biridir. Chunki bu tahdidlar jamiyatning ma’naviy negiziga, tarixiy xotirasiga, qadriyatlariga, milliy identitetiga bevosita zarar yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun mazkur masalani ilmiy asosda o‘rganish, tahdidlarning mohiyatini anglash va ularga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zamonaviy O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

Bugungi kunga kelib, insoniyat tarixida turli manbalarda keltirilishicha, 14 mingdan ortiq urushlar sodir bo‘lgan bo‘lib, harbiy to‘qnashuvlar va mojaro o‘choqlari XXI asrda ham barham topgani yo‘q. Global miqyosdagi harbiy xavf XX asrda ayniqsa keskin tus oldi. Ikkinchi jahon urushlari jarayonida 70 milliondan ziyod inson halok bo‘lganligi bu fojianing ko‘lamini yaqqol namoyon etadi. Hozirgi zamonda esa AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokistonning yadroviy qurolga ega davlatlar sifatida e’tirof etilishi global xavfsizlik masalasini yanada murakkablashtirmoqda.

Dunyoning turli hududlarida — Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg‘oniston, Janubiy Sudan va boshqa mintaqalarda davom etayotgan qurolli mojarolar va fuqarolik urushlari ko‘plab davlatlarni gumanitar falokat yoqasiga olib kelgan. Urushlar oqibatida millionlab insonlarning hayoti izdan chiqmoqda, iqtisodiy tizimlar izdan ketmoqda va butun mintaqalarning siyosiy barqarorligi xavf ostida qolmoqda.

Axborotlashgan jamiyatning keskin o‘zgarishi va globallashuv jarayonlarining tezlashuvi jahon mafkuraviy manzarasini tubdan o‘zgartirdi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab integratsiyalashuvning chuqurlashuvi, axborot oqimlarining cheksiz ko‘payishi natijasida umumsayyoraviy sivilizatsiya shakllanishining yangi bosqichi kuzatildi. Biroq global miqyosda yagona, barqaror mafkuraning yo‘qligi, geosiyosiy manfaatlarning qayta taqsimlanishi, davlatlar o‘rtasidagi mafkuraviy raqobatning kuchayishi mavjud g‘oyaviy bo‘shliqni salbiy ta’sirchan g‘oyalar bilan to‘ldirishga imkon yaratmoqda.

Shunday sharoitda o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan, o‘z ehtiyoj va manfaatlarini anglay olgan, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lgan, milliy g‘oyasini shakllantirib olgan millatgina o‘z istiqbolini mustahkamlay oladi. O‘zbek xalqi ham asrlar davomida shakllangan milliy g‘oyasi, ma’naviy merosi va qadriyatlari asosida globallashuv sharoitida ham o‘zlikni anglashni davom ettirib kelmoqda.

Bugungi kunda yoshlar dunyoqarashini zamonaviy texnologiyalar asosida boyitish, ularda milliy identitetni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni e’zozlash, estetik madaniyatni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga xolis holda yetkazish

davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Zero, milliy g‘oyaga tayanmagan jamiyatning mafkuraviy barqarorligi, g‘oyaviy mustaqilligi va ma’naviy mustahkamligi tahdid ostida qoladi.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi zamonaviy dunyoda g‘oyaviy-mafkuraviy raqobatning keskinlashuviga olib kelmoqda. Xususan, davlatlar va transmilliy kuch markazlarining dunyoni g‘oyaviy jihatdan bo‘lib olishga bo‘lgan intilishi global xavfsizlik muammolarini yanada murakkablashtirmoqda. Bunday sharoitda milliy mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat barqarorligi, farovonligi va tinchligini ta’minlash har bir fuqaroning ijtimoiy mas’uliyati sifatida qaralishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev globallashuv sharoitida ma’naviyatga qarshi kuchayib borayotgan xurujlar — diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, shuningdek, “ommaviy madaniyat”ning buzg‘unchi oqimlari — bugungi kunda nihoyatda jiddiy xavf tug‘dirayotganini alohida ta’kidlab, bunday jarayonlarning mohiyati chuqur anglab yetilishi lozimligini qayd etadi. Inson ongiga singgan milliy-ma’naviy negizlar uni butun hayoti davomida halol, pok, bilimli, Vatanga sodiq bo‘lishga undovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli jamiyatning intellektual-ma’naviy salohiyatini yuksaltirish ma’naviy xavfsizlikning asosiy omili hisoblanadi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi Harakatlar strategiyasi, milliy davlatchilikni mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy tiklanish g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati hamda uning ma’naviy hayotimizdagi rolini izchillik bilan tushuntirishni talab etadi. Bugungi kunda yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, ularda ezgulik, axloqiy poklik va ijtimoiy faollikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Prezident Sh. M. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, globallashuv sharoitida “ommaviy madaniyat”, boqimandalik kayfiyatining kuchayishi, odob-axloq va qadriyatlar eroziyasi xavfi mavjud bo‘lib, inson ma’naviy olami va xalqlar madaniyatini belgilovchi manbalarni asrab-avaylash har qachongidan ham dolzarbdir. O‘zbekiston milliy uyg‘onishning yangi bosqichiga kirar ekan, tarixiy-madaniy meros, milliy qadriyatlar va urf-odatlarning qayta tiklanishi bilan bir vaqtning o‘zida dunyoda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib bormoqda. Har qanday mafkura jamiyatning milliy ruhiy ehtiyojlari, an’analari va turmush tarziga mos kelgan taqdirdagina yashovchan va ta’sirchan bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, globallashuv sharoitida yoshlar ongida yangicha estetik madaniyatni shakllantirish, ularni milliy mafkura asosida tarbiyalash, axborot

xurujlariga qarshi immunitetni kuchaytirish muhim metodologik vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Bugungi taraqqiyot bosqichida qurol-yarog‘ emas, balki “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya” tamoyili asosiy o‘ringa chiqib, mafkuraviy kurash ichki va tashqi maydonlarda birdek davom etmoqda.

Mafkuraviy tahdidlar asosan jamiyat tinchligi, siyosiy va konstitutsiyaviy tizim barqarorligiga qarshi qaratilgan bo‘lib, ular ko‘pincha diniy, milliy hissiyotlar, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar kabi zaif nuqtalardan foydalanishga urinadi. Ayniqsa, yoshlar orasida buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremistik qarashlar, radikalizm unsurlarini singdirish orqali siyosiy barqarorlikka rahna solishga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda. Virtual makonning kengayishi natijasida internet orqali buzg‘unchi kontent, elektron targ‘ibot vositalari, yolg‘on mafkuraviy materiallar tarqatilish sur’ati keskin oshgan.

Islom ta’limoti va milliy ma’naviyat tamoyillariga ko‘ra, buzg‘unchilik, fitna, vahima tarqatish, insonlar o‘rtasida nifoq solish qat’iyan qoralanadi. Biroq din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan ayrim oqimlar jamiyatda nizolar keltirib chiqarish, begunoh insonlarni yo‘ldan urish, ekstremistik harakatlarga jalb qilish orqali ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga urinmoqda.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda bir qator strategik yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- yoshlar ongida mafkuraviy sergaklik va hushyorlikni shakllantirish;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish;
- oila–mahalla–ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish;
- vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-shafqat, el-yurt sha’niga hurmat kabi fazilatlarni mustahkamlash;
- axborot xurujlariga qarshi axborot-ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar bilan manzilli ishlash;
- milliy merosni o‘rganish va uni targ‘ib etishni jadallashtirish.

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosi yoshlarda ma’naviy immunitetni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Yoshlarning bu merosni chuqur o‘rganishi, uni xalqaro maydonda targ‘ib etishda faol ishtiroki ularning qalbida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi.

Globallashuvning mazmuni shundan iboratki, u insoniyat sivilizatsiyasining yangi, murakkab, dinamik bosqichini aks ettiradi. Bu jarayonda milliy manfaatlarni himoya qilish, milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni asrash, milliy til mavqeini mustahkamlash har bir ongli fuqaroning burchiga aylanadi. Mahatma Gandining “uyimga toza havo kirishi uchun eshikni ochaman, lekin dovul kirib uyimni vayron qilishiga yo‘l qo‘ymayman” degan fikri globallashuvning mohiyatini aniq ifodalaydi.

Demak, globallashuvning ijobiy jihatlari — xalqlarning yaqinlashuvi, iqtisodiy va madaniy integratsiyaning kuchayishi —dan samarali foydalanish bilan birga, uning salbiy oqibatlari — milliy identitetning susayishi, madaniyatsizlik va axloqiy inqiroz kabi jarayonlarga qarshi kurashish zarur bo‘ladi. Bu borada milliy mafkura, ma’naviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’limning barcha turlari — maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek, maktabdan tashqari ta’lim aniq belgilab berilgan. Mustaqillikning dastlabki davrlarida davlat byudjetining asosiy qismi, tabiiy ravishda, oliy ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jamiyat uchun zarur malakali kadrlar tayyorlash zarurati bilan izohlanardi. Biroq moliyalashtirishning “qoldiq tamoyili” asosida amalga oshirilishi natijasida ta’lim tizimining boshqa bo‘g‘inlari, ayniqsa maktabgacha ta’lim, yetarlicha mablag‘ bilan ta’minlanmay kelgan.

Xorijiy tajriba, xususan Yaponiyaning ta’lim tizimi tahlili mazkur yo‘nalishda tamoman boshqacha yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Yaponiyada bolalarga 5-sinfgacha an’anaviy ma’nodagi fanlar o‘qitilmaydi; aksincha, ularga milliy odob, axloq, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy xulqiy me’yorlar o‘rgatiladi. Yaponiya pedagogik falsafasiga ko‘ra, avvalo tarbiya berish, ya’ni bolada shaxsiy mas’uliyat, mehnatsevarlik, intizom, jamiyatga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ularning talqinicha, bilim berish jarayoni kechikishi mumkin, biroq tarbiyada kechikish jamiyat taraqqiyotiga jiddiy putur yetkazadi. Shu maqsadga qaratilgan izchil siyosat tufayli Ikkinchi jahon urushidan eng og‘ir ahvolda chiqqan Yaponiyaning qisqa davr ichida jahondagi yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin olgani bejiz emas.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyot, musiqiy asarlar, teatr va kino mahsulotlarining mazmunan boy va ma’naviy-yuksak bo‘lishi ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois bolalar ijodi yo‘nalishida ishlayotgan adiblar, rejissyorlar va musiqachilarni rag‘batlantirishning puxta tizimini yaratish zarur.

Shuningdek, targ‘ibot-tashviqot faoliyatini tizimli va zamonaviy asosda yo‘lga qo‘yish muhim omillardan biridir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sobiq ittifoq davrida keng ko‘lamli idologik-informatsion tizim orqali aholining fikriga ta’sir o‘tkazishning murakkab usullari qo‘llangan. Maktabdan tashqari siyosiy-ma’rifiy bo‘limlar ochilishi, teatr, kino, ko‘rgazma, ma’ruza va boshqa vositalardan foydalanish orqali aholi ongini muayyan mafkuraviy yo‘nalishga yo‘naltirish ko‘zlangan. “Qizil choyxonalar”, agitpoezd va agitparoxodlar, siyosiy suhbatu munozaralar, kinolektoriylar kabi yuzlab targ‘ibot shakllari keng tatbiq

etilgan. Bu tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kuchli bo‘lgan sharoitda targ‘ibotning ta’sirchan mexanizmlari har qanday mafkuraviy tahdidga qarshi immunitet yaratishda muhim vosita bo‘la oladi.

Bugungi sharoitda jamiyat rivojiga fidokorona hissa qo‘shayotgan, halol mehnat qilayotgan turli kasb egalari — o‘qituvchi, shifokor, temiryo‘lchi, fermer, ilmiy xodim, haydovchi va boshqa mehnat fidoyilarini keng jamoatchilikka zamonaviy qahramon sifatida tanitish ham mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlovchi omillar sirasiga kiradi. Ularning faoliyati haqidagi badiiy asarlar, hujjatli filmlar, teatr sahna asarlari yaratish yoshlar uchun ijobiy namunalar shakllanishiga xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari va madaniyat maskanlarida bunday shaxslarning portretlarini targ‘ib qilish, ularga munosib e’tibor ko‘rsatish yosh avlodni ibratli hayot yo‘liga undaydi.

XULOSA. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida dunyoda mafkuraviy raqobatning kuchayishi, turli buzg‘unchi g‘oyalar va ma’naviy-xavfsizlikka tahdid soluvchi oqimlarning faoliyati global ijtimoiy taraqqiyotning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Zamonaviy informatsion makonda mafkuraviy tahdidlar ko‘proq g‘oya, axborot va ong uchun kurash sifatida namoyon bo‘lib, ularning ta’sir doirasi ayniqsa yoshlar ongida tez va keng tarqalishi bilan xarakterlanadi. Shunday sharoitda O‘zbekistonning milliy manfaatlari, ma’naviy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotini himoya qilish uchun mafkuraviy xavfsizlikning samarali mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning eng muhim omillaridan biri — jamiyat a’zolarida, ayniqsa yoshlar orasida, mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirishdir. Bunda milliy g‘oya va milliy qadriyatlarning mohiyatini chuqur anglash, tarixiy xotira va ma’naviy merosni o‘rganish, milliy identitetni mustahkamlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ongida sog‘lom e’tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiy poklik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarning rivojlanishi mafkuraviy xavflarning oldini olishning eng barqaror vositasidir.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ta’lim-tarbiya tizimi mazkur jarayonning asosiy strategik maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, maktabgacha ta’limdan boshlab tarbiyaviy jarayonni kuchaytirish, milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, tarbiyaga ustuvorlik berish — Yaponiyaning muvaffaqiyatli tajribasi misolida ko‘rinib turibdiki, ma’naviy barqarorlikning poydevoridir. Shuningdek, bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlar, badiiy film va madaniy mahsulotlarni rivojlantirish, ma’naviy barkamollikka xizmat qiluvchi kontent ishlab chiqarishni rag‘batlantirish mafkuraviy immunitetni kuchaytiruvchi muhim mexanizmdir.

Targ‘ibot-tashviqot faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy tajriba (sobiq ittifoq propagandasi) shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kommunikatsion vositalardan oqilona foydalanish orqali g‘oyaviy ta’sirning keng ko‘lamini ta’minlash mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, media platformalar, raqamli axborot muhiti mafkuraviy kurashning asosiy arenasi bo‘lib, ularda milliy manfaatlarga mos, ma’naviy yuksalishga xizmat qiluvchi kontent ulushini ko‘paytirish zarur.

Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, jamiyatning turli sohalarida fidokorona xizmat qilayotgan shaxslarni — o‘qituvchi, shifokor, olim, muhandis, harbiy, fermer va boshqa kasb egalari — “zamonaviy qahramon” sifatida targ‘ib qilish yoshlar ongida ijobiy namunalarni shakllantiradi. Bu esa yoshlarni yot mafkuraviy ta’sirlardan himoyalashda kuchli psixologik-barqaror omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samaradorligi quyidagi kompleks yondashuvga tayangan taqdirdagina ta’minlanadi:

1. ma’naviy tarbiyani kuchaytirish va milliy g‘oyani ongga singdirish;
2. oilada, mahallada va ta’lim muassasalarida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
3. axborot xurujlariga qarshi axborot-ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish;
4. yoshlar orasida estetik, intellektual va huquqiy madaniyatni oshirish;
5. milliy meros va tarixiy xotirani targ‘ib qilishni kuchaytirish;
6. zamonaviy pedagogika va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash;
7. jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida ijobiy ideal va qahramonlarni shakllantirish.

Shunday qilib, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash faqat tashqi ko‘rinishdagi xavflarni bartaraf etish emas, balki jamiyatning ichki ma’naviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan chuqur strategik jarayondir. Mazkur mexanizmlar izchil amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekiston yoshlarining mafkuraviy barqarorligi, milliy o‘zligini anglash darajasi va intellektual salohiyati yanada yuksaladi, bu esa mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy mas’uliyat – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentyabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023 (yangi tahrir).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti materiallari. – Toshkent, 2022–2024.
6. Qodirov Q. Ma’naviy xavfsizlik va mafkuraviy barqarorlik asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
7. Saidahmedov N. Globallashuv sharoitida milliy mafkura asoslari. – Toshkent: Universitet, 2018.
8. To‘xliyev B., Abdullayeva D. Yoshlar ma’naviyati va mafkuraviy tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2020.

«QADRIYATLAR SOHASI» VA «AKSIOLOGIYA QONUNIYATLARI» TUSHUNCHALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

To‘xtayev Xakim Primovich
O’zbekiston Milliy universiteti, Falsafa kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori
Email: tuxtayevxakim0@gmail.com

Annotasiya: Maqolada qadriyatlar sohasi, aksiologiya qonunuyatlari tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni va o’ziga xos jihatlari hamda aksiologiya qonunuyatlarining jamiyat hayoti bilan bog’liqligi va namoyon bo’lish xususiyatlari tadqiqiga e’tibor qaratilgan.

Tayanch tushunchalar: Qadriyatlar sohasi, aksiologiya qonuniyatlari, qadriyatlar transformatsiyasi, qadriyat va haqiqat, qadriyat va baho uyg’unligi, demokratik qadriyat mezonlari.

Insoniyat tarixning o‘tgan davrlariga e’tibor qaratsak, qadrli ash’orlarning yaratilganligi va ularni davrlar osha avloddan-avlodga takomillashtirilgan holda yetkazish usullari izlanilgan bo‘lib, chunki, insoniyatning ilk madaniy taraqqiyot davrlaridan boshlab bugungi rivojlangan zamonda ham ijtimoiy-falsafiy fikr egalarini bu jihatlar qiziqtirib keladi.

Dunyo olimlari e’tibor markazida turgan ilmiy muammolar qatorida yuqoridagi tayanch tushunchalarning hayotiy jarayonlar bilan uzviyligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu bejizga emas, albatta. Xilma-xil shakl va ko‘rinishdagi tahdidlar avj olgan zamonaviy dunyoda «Qadriyatlar sohasi» va «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining mazmun-mohiyatini tavsiflash, shu doiradagi muammolarni yechish uchun ularning o‘ziga xos tabiatini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mos ravishda, bizda ham mazkur tabiatdagi jarayonlarni befarq qoldirmaslik, zamonamiz qadriyatlaridagi yangilanishlar transformatsiyasida ijobiy taraflarning ustunligini saqlash hamda insonlar ong ostidagi salbiy xususiyatlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan buzg‘unchi fikrlarning oldini olish borasida

muhim qadamlar tashlash fursati yetilgan. Bu yo‘nalishda jamiyatdagi mavjud fikr va qarashlardan kelib chiqib, har tomonlama asoslangan, pishiq tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj katta.

Shuningdek, globallashuv jarayonlarining salbiy ta’sirlarini yumshatish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning o‘rni va ahamiyatini yoritish, davlat boshqaruvi bilan jamiyatdagi qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi aloqalarning namoyon bo‘lishiga doir ilmiy tadqiqotlar yaratilishi lozim. Negaki, qadriyatning saqlanib qolishi millatning saqlanib qolishiga to‘g‘ri proporsionaldir. Shuning uchun ham bu borada avvalo tarixiy tajriba, qolaversa XXI asr ehtiyojlariga tayangan holda, milliy davlatchilik tarixi va taraqqiyoti hamda qadriyatlar sohasi tadrijini o‘rganib, eng samarali davlat siyosatiga erishish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Jahon ilm-fanida bu kabi mezonlar «qadriyatlar sohasi», «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi qamroviga kiritib kelinadi. Aslida aksiologiya qonuniyatlari anchayin keng qamrovli tushuncha bo‘lib, qator ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Qadriyatlar sohasi va qadriyatlarning obyektivligi haqidagi fikrlarga nisbatan O.Gessenning qarashlari o‘ziga xos. Uning fikricha, «asosan dunyo tarixida, insoniyat xayotida juda ko‘p g‘ayrioddiy va maqsadlarning turfa xilligidan farqli o‘laroq, insonlarning xoxish va ehtiyojlariga bo‘ysunmaydigan, aniq vazifa atrofida har bir avlodni birlashtirishga, maqsad sari intilishga va bu istaklarni amaliy bo‘lishiga majbur qiladigan qadriyatlar mavjud bo‘lib, ular har qanday sivilizatsiya qadriyatlarining asosiy mezonini tashkil qiladi». O.Gessenning «obyektiv, doimiy qadriyatlar» bilan «tarixiy jarayonda vujudga keladigan ba’zi qadriyatlar» o‘rtasida farq bor, tarixiy jarayonni uzluksizligi obyektiv qadriyatlarni o‘tmishdan kelajakka, avloddan-avlodga meros qolishi orqali amalga oshadi», degan xulosalari ham bor.

P.Chijovskiyning bu xususidagi fikrlari sal boshqacharoq bo‘lib, uningcha «Insonning vazifasi o‘zini o‘rab turgan olam, narsa va hodisalar qadrini anglab olishga intilishdan, shu qadriyatlarga asoslanib yashashdan iboratdir»[1,60].

U.Djeyms «qadriyat»ni “haqiqat» bilan bir qatordagi tushuncha doirasida ta’riflagan. Uning fikricha, «qadriyat mazmuni foydalilik bilan o‘lchanadi, nima foydali va qadrli bo‘lsa o‘sha haqiqat. Qadriyat bizga lazzat va zavq-shavq bag‘ishlagani uchun ham qadrlidir, agar narsa yoki voqelikni biror shakli keraksiz bo‘lsa, ehtiyojlarimizga xizmat qilmasa uning qadri yo‘q»[1,60]. U.Djeyms qadriyatni psixologik, metafizik, kazuistik, ya’ni uch xil yo‘l bilan o‘rganishni tavfsiya qilgan.

U.Djeymsning yana bir izdoshi sanalgan J.Dyu’i fikricha, «jamiyatning eng asosi qadriyati insondir, boshqa qadriyatlar unga xizmat qilmog‘i lozim. Inson esa eng o‘z umrini g‘oyat qadrlashi, vaqtdan unumli foydalanishi kerak»[1,61], degan xulosaga keladi. J.Dyu’ining yana quyidagi qarashi ham nihoyatda muhim: inson uchun eng qadrli zamon erkinlik va demokratik qadriyatlarga, ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratilgan davr bo‘lib hisoblanadi. Inson uchun eng qimmatli davr-jamiyatda demakratiya to‘la galaba qozongan, ilm-fan taraqqiyotiga keng yo‘l ochilib jamiyat a’zolarining ko‘pchiligini yetuk ziyolilarga aylangan davrdir.

A.Meynong esa qadriyatlar xususida ko‘plab izlanishlar olib borgan va u inson his-tuyg‘ulari qadriyatlarni shakllanishiga asos bo‘la oladi, degan xulosaga kelgan. Olimning fikricha, «insonda yaxshilik tuyg‘usi kuchli bo‘lsa - yaxshilik, nafosat tuyg‘usi ustun bo‘lsa - go‘zallik, odillikdan - adolat, yovuzlik tuyg‘usidan jinoyat va razolat tug‘ulishi mumkin». [1,61]

G‘arb olimlaridan I.Richards inson qadrini oshirish masalasida ko‘plab ijobiy fikrlar bildirganki, ularning ba’zilarini sanab o‘tmaslikning imkoni yo‘q. Richards fikricha: «olam odamlarsiz quruq bir bo‘shliqqa aylanib qoladi, o‘zini qadriga yetadigan asosiy subyektidan judo bo‘ladi, hech kimga keragi bo‘lmaydi; voqeylikni biror shakliga, narsalarga ehtiyojini qondirish uchun harakat qiladigan odamzotgina o‘sha narsalarni qadriyatga aylantirishi, ularning qadriga yetishi mumkin; qadriyatni yoqolishi esa unga ehtiyoj qolmaganligi, shu narsani odamlarga keraksiz bo‘lib qolganini anglatadi».[1,61]

R.Uil’yams fikricha, «qadriyat qiziqish, ehtiyoj, talablar, ma’naviy burch, nafosat tuyg‘usi va boshqalar bilan bog‘liq vujudga keladigan holatdir. U kishining hayot yo‘lini, faoliyat mezonini, voqealarga nisbatan o‘z pozitsiyasini tanlab olayotganida muayyan ta’sir ko‘rsatadigan tushunchadir».[1,62]

T.Munro, M.Roder va B.Yesup kabi olimlarning qarashlari individual qadriyatlar ta’sirida e’tirof etilgan. Ularning fikricha, «industrial jamiyat sharoitida shaxs qobiliyati, tashabbuskorligi juda qo‘l keladi, u aynan shular bilan bog‘liq shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga erishishi lozim».[1,62] Hozirgi shiddatli jamiyatda ijtimoiy jamiyatning tezlik jarayonida har bir shaxs o‘z baxtini, kelajagini, yaratishga o‘z kuchiga kurashchanligiga tayanishi lozim bo‘lib, davlat va korporatsiyalarning yordamiga tayanmasligi asosiy vazifa hisoblanadi.

Fan tarixida «qadriyatlar sohasi», «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalariga doir ayrim fikr va qarashlar uchraydi. Fikr va qarashlardagi xilma-xillik tabiiyki, Sharq va G‘arbning o‘ziga xos jihatlariga doir qimmatli mulohazalar uchraydi. Aytish kerakki, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan, bir birini taqozo etadigan bu tushunchalarni chalkashtirmaslik, bir ma’noda qo‘llash mumkin emas.

««Qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarini umumiy, mavhum atama sifatida baholamaslik kerak. Sababi, har qanday sohada bo‘lganidek, aksiologiyada ham boshqalarda uchramaydigan xos jihatlar mavjud, albatta».[2,17]

Jamiyatdagi qadriyatlar tizimini tashkil qiladigan turli jihat va ma’naviy omillar beqiyos ahamiyatga ega. Sohada o‘zaro mutanosiblik, jamoa o‘rtasidagi muayyan munosabatlar bilan jamiyat ijtimoiy qurilishidagi mustahkam bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Bu xususda fikr yuritgan olim I.Ergashev ta’kidlaganidek, «o‘z o‘rnida bu kabi uzviy bog‘liqlik insonlar hayotidagi ma’lum davr qadriyatlarining umumiy ko‘rinishi uchun asos bo‘lib, ulardagi umumiylik, mutanosiblik, yangilanuvchanlikni ifodalaydi hamda ushbu jarayonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi».[3,13]

Misol uchun, qadriyatlar inson va jamiyat yashab turgan davrdagi voqeliklar bilan bog‘liqdir. Qadriyatshunoslik qonuniyatlari esa sanalganlarning har biri uchun tayanch mohiyat hisoblanib, bu yo‘nalishdagi jarayonlar tadrijiga va mazmuniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi.

«Ma’naviy hayotdagi barcha ijtimoiy jihatlarda bir qator insoniylik fazilatlari halollik, poklik, iymonlilik, go‘zal xulqlik, samimiylik, mas’uliyatlik, to‘g‘rilik, vijdonlilik va shu asosda shakllangan barcha qadriyatlar aksiologiya qonuniyatlari tushunchasida jamlanadi».[4,333] Ular yaxlit hodisa ko‘rinishida yuzaga chiqadigan ijtimoiy mezon sifatidagi xususiyatiga ahamiyat qaratilgan. Bunday tavsiflarda ijtimoiy tahlil ustuvor ekanligi sezilib, qadriyatlarning odamlarni qalban va ruhan ulg‘aytirishi, ichki olamini boyitib, ruhini poklashi, iymon-e’tiqodini mustahkamlash masalalariga urg‘u berilib, qadriyatlarning jamiyat a’zolari tayanadigan kuchli ruhiy omil sifatidagi asosiy xususiyati yoritiladi.

Akademik Jondor Tulenov qadriyatga quyidagicha ta’rif berganlar: «Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim».[5,12]

Akademik Erkin Yusupov esa «qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda va hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy va ma’naviy boyliklardir» [6,323]– deb ta’rif beradi.

Olim F.Musayev esa o‘z tadqiqotlarida, «mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni demokratik qadriyat mezonlari sifatida»[7] tadqiq etgan.

Jamiyat rivoji yangi qadriyatlarning shakllanishiga, o‘tmishdan meros bo‘lib qolganlari esa davr ruhi yangi ijtimoiy extiyoj talablari asosida rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy taraqqiyotning imkoniyatlari ham kengayadi. Jamiyat tarqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.

Qadriyatlar kishilarning avvalo ishlab chiqarish va mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Yangi qadriyatlar yuzaga kelishi - insonning ham, ma’naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir.

Yangi talablar, sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanayotgan ijtimoiy ma’naviy hodisalar qadriyat hisoblanadi. Darhaqiqat qadriyat kelajak avlod rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradigan moddiy va ma’naviy boyliklardir. Qadriyatlarni mohiyatini aniqlashda jamiyat a’zolarning umumiy ma’naviy kamoloti, ijtimoiy, milliy ongning yetukligi ham katta ahamiyatga egadir. Ma’naviy yetuk jamiyat milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini to‘g‘ri baholash imkoniga ega bo‘ladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham qudratlidir. Tarixiy merosni asrab – avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir».[8,144]

Demak, «qadriyatlar sohasi» tushunchasi, ijtimoiy hayotning bir necha yo‘nalishlarga bog‘langan bo‘lib, turli sohalarida xilma-xil ma’nolarni ifodalaydigan tushuncha sifatida namoyon bo‘lsa, ilmiylik asosidagi yondashuvlarda esa bu tushuncha uzviy xarakterdagi subyektlar tashkil qiladigan tizim sifatida qabul qilinadi. Ushbu hodisa jamiyatdagi qadriyatlar sohasining o‘zigagina xos jihatlari bilan ajralib turadigan munosabatlar tizimi sifatida yuz beradigan aksiologik jarayonlarda yuzaga chiqishi tabiiy.

Masalan mamlakatimizda o‘rta asrlarda yashagan ko‘plab faylasuflar, ilohiyotchilar, hadisshunoslarning asarlaridan o‘rin egallagan va an’anaviy tarzda «ilm» ta’rifi va tavsifiga bag‘ishlangan muqaddima qismi bo‘lgan «Bilim kitobi» deb nomlangan ash’orlar bu boradagi muhim manbalar qatoridan o‘rin olgan. Ushbu muammoga bag‘ishlangan adabiyotlarda ta’kidlanishicha, bilim konsepsiyasi ilohiyot tafakkurining tayanchi bo‘lgan, din va imonning haqiqiy mohiyatini anglashda namoyon bo‘ladi. Bu borada Qur’onda ilm so‘zi va uning ildizidan tarkib topgan o‘zakdosh so‘zlar, shu jumladan «ilm» (arab.- bilim, fan) 750 marta uchrashi, Muhammad (S.A.V.) payg‘ambarning «Ilmni Chinda bo‘lsa ham borib o‘rganinglar» degan da’vati asos, deb hisoblanadi. Musulmon ilohiyotchilari, ba’zi bir taxminlarga ko‘ra, VIII asr oxiri yoki IX asr boshidan o‘z asarlarini ana shunday epistemologik muqaddima bilan boshlaganlar.

Bu an’anani Imom Buxoriy (810-870 yy.) boshlab bergan. Uning «Bilim kitobi» «oliy ilm metodikasi»ga bag‘ishlangan, ya’ni o‘sha davrda sahih va g‘aliz hadislarni aniqlash maqsadida bu boradagi bilim metodologiyasini muhokama qilish hadisshunoslikning ajralmas qismi hisoblangan. Keyinchalik hadisshunoslikda, kalomda «bilim» muammosini muhokama qilish yana bir muhim maqsadga - haqiqiy bilimning din va imon bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan. Demak hadisshunoslikda bilim ham nazariya, ham amaliyotning kaliti hisoblangan.

Ilmiy-aksiologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilim, har bir konsepsiyani yaratishda yuqori darajali qadriyat sifatida tan olinadi. Xususan, Moturidiyning «Kitob at-tavhid» asarining muqaddimasi bilish nazariyasini bayon etish bilan boshlanadi va u bilim nazariyasini izohlab berishdan boshlanadigan eng qadimiy asarlardan biri hisoblanadi. Moturidiy epistemologiyadan nafaqat kalomda, balki fiqx va boshqa sohalarda foydalangan. Ta’kidlash kerakki, yahudiy ilohiyotchilar asarlarida epistemologiya masalalarining yoritilishi aynan al-Moturidiy yashagan davrda, ya’ni X asrda boshlanadi, bu hodisa musulmonlar uni ancha ilgari tushunib olganliklarini bildiradi.

O‘rta asrlar musulmon ilohiyotchilari asarlarida epistemologiya va ilohiyotning birlashib ketganligini ushbu mavzuga bag‘ishlangan kitoblardan anglab olish mumkin. Masalan, «Al-Ba’d va-t-tarix» kitobining epistemologik muqaddimasida musulmon ilohiyotini o‘rganishdan oldin aqliy mulohaza yuritishni, bilim va unga erishishning turli yo‘llarini o‘zlashtirish tavsiya etiladi. Shunday holat Suxravardiyning «Al-Maktula» asarida ham kuzatiladi. Ibn Sino «Donishnoma» kitobi muqaddimasida yozganidek: «har qanday amaliyot bilimga asoslanganligi, bilimga asoslangan amal misoli, geometr yoki shifokor amaliyoti

ularning bilimlariga muvofiqligidir». Ibn Sino amaliyotni o‘z tabiatiga yoki irodasiga, yoki aksidensiyasiga muvofiq bo‘lishini qayd etadi.

Al-G‘azzoliyning (1111-yilda vafot etgan) mashhur «Ihyou ulumid din»[9] asarining muqaddimasi ham «Ilm kitobi» deb nomlangan. Ilohiyotchilar epistemologiya – ilmiy faoliyat asosi ekanligini va ilmiy asarlarning boshida ko‘rilishi lozimligini belgilab berishdi. Lekin Abu Hamid al-G‘azzoliy uchun bilim muammosi oddiy iymon muhokamasiga o‘tish yoki ilmiy va pedagogik nazariya va amaliyotining metodologiyasi bo‘libgina qolmay, balki bilimning qadr-qimmati va zarariga bag‘ishlangan muhokamaga ham aylangan edi. Al-G‘azzoliy asarida bilimning mavhum tushunchasi «bilimning» individual, cheklangan tadqiqot predmeti bilan chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining «Ilm kitobini» aqlga bag‘ishlangan mulohazalar bilan yakunlaydi, chunki chuqur falsafiy mulohazalar natijasida «aql» konsepsiyasi, ratsional bilish quroli sifatida epistemologiyada birinchi, yetakchi o‘rinni egallay boshlaydi.

G‘azzoliy yozishicha: «ilm bo‘lgach, amalga xojat yo‘q», deganlarning fikrni baholashda bunday ilmning o‘zi bilangina kifoyalanish – shariatni inkor qiluvchi e’tiqod bo‘lib, ular ilm bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa, - shu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilmaydilar. Holbuki, ««o‘qib o‘zlashtirgan ilmiga amal qilmagan odamning qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir», «...amalsiz ilm telbalikdan boshqa narsa emas. Va lekin ilmsiz amal ham naf keltirmaydi... », «...amalning avvali – e’tiqodning mustahkam bo‘lishidir»».[9,45]

Umuman, «Ilm kitobi»larida o‘rta asrlarda musulmon xalqlari tafakkurining rivojlanish yo‘llari yaqqol ko‘rinadiki, bu avvalo ikki asosiy yo‘nalishda: diniy ilmlar (ulum naqliya) va dunyoviy ilmlarning (ulum aqliya) shakllanishida o‘z aksini topadi. Musulmon madaniyatida ilohiy bilim muammosi ilgari (masalan, xristianlik ilohiyotida) mavjud bo‘lgan ilohiy sifatlar munozarasi an’anasining davomi bo‘lishiga qaramasdan, ilohiy bilim konsepsiyasining ishlab chiqilishi musulmon mutafakkirlarining xizmatidir. Ilohiy bilim konsepsiyasini ishlab chiqishda mutafakkirlar «ilm» va «ma’rifat» tushunchalar tahliliga katta e’tibor qaratib, ular ilohiy bilimga nisbatan «ilm» tushunchasini, insoniy bilimga nisbatan «ma’rifat» tushunchasini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi, degan fikrga keladilar. XV asrga kelib esa musulmon mutafakkirlar bu tushunchalar o‘rtasida ma’no jihatdan katta farq yo‘q, lekin shunga qaramasdan ilohiy bilimga nisbatan «ilm» tushunchasini, insoniy bilimga nisbatan esa «ma’rifat» tushunchasini ishlatish lozim, degan fikrda to‘xtaladilar. Ilohiyotda mazkur tushunchalar bilan bog‘liq bu vaziyatni so‘fiy Abu Said al-Harrazning «Sen xudoni ma’rifat qilishingdan avval Alloh sen haqingda bilimga (ilmga) ega bo‘lgan», - degan so‘zlari latif va muxtasar qilib ifodalaydi.

Abu Mansur al-Moturidiy ilmga quyidagicha ta’rif beradi: «...ilm shunday sifatki, ilm egasi bo‘lgan zot unga tajalli qiladi (o‘sha sifat orqali namoyon bo‘ladi)». Jaloliddin Rumiy bilimlarni ikki turga bo‘ladi, «birinchisi uchun faqat shakl mavjud, ikkinchisi shakl ortidagi ma’noni ko‘radi. Birinchisi ba’zan «badanga oid bilim» (ilmi abdon), ikkinchisi «diniy bilim» (ilmi adyan) deb ataladi. Ilmi abdonga hozirgi zamonda biz «fanlar», «bilimlar» tushunchasi tarkibiga kiritadigan narsalar, ya’ni barcha tizimli ravishda o‘rganishni, yodlashni talab qiluvchi narsalar, shu jumladan ilohiyot va metafizika ham kiradi. Bu bilimlar

avvalo ilohiyot, kalomda qo‘yilgan muammolarni hal etilishida o‘z ifodasini topgan». Falsafiy, huquqiy va bilimning boshqa sohalari ilohiy masalalarning hal etilishi jarayonida shakllanib mustaqil fanlarga aylanib borgan. Shu bilan birga bilimning rivojlanish jarayonida, hozirgi til bilan aytganda, metodologiya, epistemologiya, ya’ni turli ilmiy usullarning ishlab chiqilishi ham rivojlangan.

Xullas, bilimga bo‘lgan qiziqish o‘rta asr islom falsafasi va aksiologiyasi doirasida ushbu diniy tafakkurga xos epistemologiyaning yaratilishiga olib keldi. O‘sha davr islom falsafasi vakillari muhokamasida tahlil etilgan bilim manbasi, mohiyati, va xususiyatlari bilan bog‘liq muammolar, ayni kundagi zamonaviy fanlar sanalgan falsafa, sotsiologiya, aksiologiya, din falsafasi kabi fanlarning muammosidir.

Agar «qadriyatlar sohasi» kategoriyasiga aksiologik tizimlar tabiatiga xos tamoyillar asosida yondashilsa, ular hamma aksiologik tuzilmalarga oid umumiy mezon hisoblanishi ayon bo‘ladi. Bunda muayyan jamiyatdagi qadriyatlar sohasi shu davlat yoki hududga har jihatdan bog‘liq bo‘lib, qo‘shni hududdagi madaniy, ma’rifiy va g‘oyaviy omillar ta’sirini ham aks ettiradi, albatta.

Dunyodagi har qanday ma’rifatli jamiyat singari mamlakatimizda ham qadriyatlar sohasi madaniyat, axloqiy qarashlar, din va boshqa sohalar bilan uzviy chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Bu o‘z navbatida, «Qadriyatlar sohasi» va «Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalari bir-biriga qarshi qo‘yilmasligi va ularni alohida-alohida o‘rganish noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan qaraganda, «jamiyat a’zolarining umumiy maqsadlariga mos keladigan totuvlikni ta’minlash asosiy ahamiyatga ega. Har bir jamiyatning o‘z qadriyatlarini boyitishda avvalo moddiy, qolaversa ma’naviy hayot sohalariga har tomonlama munosib aksiologik tamoyillarni diqqat markazida tutishi maqsadga muvofiq bo‘ladi».[10,419]

Biz tadqiq etayotgan, tayanch tushunchalardan biri bo‘lgan «Aksiologiya qonuniyatlari» atamasining haqiqiy mohiyati muayyan jamiyat rivoji bilan hamohanglikda yuzaga keladigan, qator umumiy jihatlar bilan birga ko‘plab o‘ziga xosliklarda namoyon bo‘ladigan qadriyatlar omilining muttasil va takrorlanib turuvchi jarayonini, uning jamiyat va insonga doimiy ta’sirini anglatadi.

Bu ta’rifda qadriyatli omillar bilan birga hayotning har qaysi yo‘nalishdagi insoniy faoliyat ham nazarda tutilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu sohadagi ilk izlanishlar, olim Q.Nazarov tomonidan asoslab berilgan qadriyatlar sohasiga doir qonunlar «Aksiologiya qonunlari» tushunchasi uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki tajriba bo‘lgan ushbu asarda «aksiologiya qonunlari qadriyatlar sohasiga doir narsa va hodisalarning ahamiyati bilan bog‘liqligi asoslab berilgan»[8,196] ekanligi aytiladi.

Yuqorida tilga olingan asar muallifi qadriyatlar sohasiga tegishli qator aksiologik qonunlarni asoslab berganini aytish darkor. Bular sirasiga:

«- aksiologiya qonunlarida ma’naviy va moddiy jihatlarning uyg‘unligi;

- aksiologiya qonunlarining ijtimoiy voqelik bilan dialektik bog‘liqligi;

- aksiologiya qonunlari namoyon bo‘lishini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi qonuni kiradi».[11,196]

Qadriyatlar sohasining qonunlari tahliliga e’tibor qaratish lozim:

1. Aksiologiya qonunlarida ma’naviy va moddiy jihatlarning uyg‘unligi qonuni. Adabiyotlarda ma’naviylik va moddiylikning qaysisi ustuvorligi xususida juda ko‘plab fikrlar, bahslarga duch kelamiz. Kimlardir ma’naviy qadriyatlarni, kimdir inson ruhiyatini, boshqasi moddiy hayotni birlamchi deb biladi.

Bunda qaysidir jihatni boshqasiga qarama qarshi qo‘yish, birini boshqasidan ustun ko‘rish masalaga biryoqlama qarashdan boshqasi emas va bu yondashuv o‘zini oqlamasligi ma’lum.

2. Aksiologiya qonunlarining ijtimoiy voqelik bilan dialektik bog‘liqligi qonuni. Inson va jamiyat hayotini qadriyatlarsiz tasavvur qilish mumkin emasligi singari inson va jamiyatsiz qadriyat ham mavjud bo‘la olmaydi. Mos ravishda jamiyatdagi o‘zgarishlar qadriyatlarga, qadriyatlar borasidagi yangiliklar jamiyatga bevosita ta’sirini o‘tkazadi.

Bashariyat o‘tmishi va rivojlanish tarixiga ushbu qonun asosida nazar solish har qaysi davr ruhiga, shakllangan qadriyatlar tizimining mos kelishi va bu tizimning ijtimoiy hodisalarda namoyon bo‘lish imkonini beradi.

3. Aksiologiya qonunlari namoyon bo‘lishini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorligi qonuni. Aksiologik hodisalarning rivojlanish jarayoni tarixiylikdan zamonaviylikka, inkor, vorislik, yangilanishning davomiyligini ifodalaydi. Bu jarayonda shakllangan qadriyatlardan butunlay voz kechilmaydi, balki, yangi zamon talab ehtiyojlariga mos, yangicha dunyoqarash mahsuli bo‘lgan yangi qadriyatlar tizimi dunyoga keladi.

Jamiyatdagi qadriyatlar ba’zan ijtimoiy o‘zgarishlardan biroz orqada qolishi yoki aksincha, oldinga o‘zib ketishi kamyob hodisa bo‘lib, yuqoridagi uchta qonunlarning mavjudligini yo‘qqa chiqara olmaydi. Bu esa qadriyatlarning ijtimoiy taraqqiyot bilan mustahkam bog‘liqligi tamoyilining tub mohiyatini belgilaydi.

Shu bilan birga, qadriyatlar tizimining jamiyatdagi ustuvor g‘oya va mafkura, madaniyat va ma’rifat kabi alohida sohalarga bog‘liq bo‘lgan talay qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalar qadriyatlarga mos me’yoriy tizimlarni tashkil qiladi hamda muayyan sohada turli hodisalar va jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday tizimni hozirgi kundagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unlikda tadqiq qilish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki bu holat butun dunyoda bo‘layotgani kabi O‘zbekistonda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlarning qadriyatlar sohasiga xos tomonlarini kuzatish, to‘plangan ilmiy dalillarni amalda qo‘llash hamda kelajak vazifalarni, chora-tadbirlarni tuzib olishga sharoit yaratadi.

O‘z navbatida qadriyatlarning o‘zi ham hayotning barcha yo‘nalishlaridagi ta’sirini saqlab qoladi. Bu jihatdan, «aksiologiya qonuniyatlari jamiyat hayotining turli sohalari xususiyatlari bilan uzviy aloqadorlikda shakllanadi va amal qiladi».[11,196]

Shu bois, ma’naviy hayotga xos bo‘lgan o‘zaro harakat shaxslararo munosabatlarga asoslanadi. Aksiologik yondashuv narsa ma’naviy hayotda yaratilgan hodisalar tahlilida aksiologik qonuniyatlari mukammal bo‘lsagina, mavjud olamga shunchalik munosib bo‘la oladi. Ayni shu omil «qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining mohiyatini ijtimoiy-

aksiologik jihatdan ifodalaydi. Inson kun sayin o‘zining hayotga, umri mazmuniga bo‘lgan yondashuvini boyitib, oldiga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish davomida hayotiy qadriyatlarini yuksaltirib boradi va shu asnoda o‘z «men»ini topadi, o‘z ma’naviy dunyosining haqiqiy subyektiga aylanadi.

Hozirgi zamon ilm-fanida aksiologiya qonuniyatlari hajman kengroq tushunchaga aylangan. Ammo, negadir ijtimoiy falsafa, qadriyatshunoslik bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar bu sohaga doir masalalarga yetarlicha e’tibor qaratishmaydi. Qadriyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, madaniy sohalar bilan o‘zaro mutanosibligi hamda qadriyatlar sohasining aksiologik axloq, madaniyat va mafkura bilan bog‘liq ilmiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati yetdi.

Shu bilan birga, qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlardagi tashqi ta’sirlarni ko‘zdan qochirmaslik, bu borada jahon miqyosidagi ta’sir va tahdidlarni o‘rganishda salmoqli natijalarni qo‘lga kiritgan yirik olimlar xulosalarini ham hisobga olish lozim.

Aksiologik jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadigan voqelikni ma’naviy jihatdan o‘zlashtirish hamda muayyan jamiyat hayotida bunday aloqadorlikni ta’minlash masalasi ham soha mutaxassislaridan ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Ayni vaqtda aksiologik omillar va qadriyatlar sohasi yangi ijtimoiy-aksiologik qadriyatlarni yaratish, tatbiq qilish va uyg‘unlashtirish uchun turtki beradi.

«Qadriyatlar sohasi» har bir davlatning ma’naviyat sohasidagi siyosatida ustuvor tushunchalardan bo‘lib, unda so‘z yuritilayotgan hodisalarga oid ko‘p xususiyatlar mujassamlashadi.

«Aksiologiya qonuniyatlari» tushunchasi «qadriyatlar sohasi» kategoriyasining ko‘pgina zaruriy xususiyatlarini aks ettiribgina qolmay, bu sohaga taalluqli ijtimoiy, iqtisodiy va aksiologik jihatlarni ham amaliy faoliyatida qamrab oladi. Bundagi muhim jihatlar «Qadriyatlar sohasi» tushunchasiga xos bo‘lgan yo‘nalishlarni tanlab olishda muhim o‘ringa ega. «Jamiyat hayotining ma’naviy mezonlari uning ma’naviy rivojlanishi omillari va mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lib, bunday aloqadorlik jamiyat qadriyatlar sohasiga xos bo‘lgan voqealar va hodisalarda o‘z aksini topadi».[12,70] Bunda jamiyat va inson hayotining ma’naviy salohiyati samaradorligining oshishiga sabab bo‘ladigan qadriyatlar sohasining negizi rivojlanadi. Natijada jamiyat hayotining ma’naviy asoslari yanada mustahkamlanadi va aksiologiya qonunlari barqarorlashadi.

Qadriyatlar sohasining ijtimoiy-aksiologik munosabatlar bilan bog‘lanishi yuqorida aytilganlardan iborat emas. Davlatning qadriyatlar sohasidagi faoliyati uchun asosiy yo‘nalishni belgilashda shu omil hisobga olinadi, amaldagi sharoit, zamon talabi e’tibor markazida bo‘ladi. Bu esa faqat jamiyat hayotida amaliyotga tatbiq etilishigina emas, bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasidan ham o‘rinli foydalanish zarurligini bildiradi.

Fikr yuritilayotgan va jamiyatning qadriyatlar borasidagi faoliyatida tayanch tushunchalardan biri bo‘lgan aksiologiya qonuniyatlarini xalq, millat, elat tarixiy taraqqiyot yo‘lidagi boshqaruv tashkilotlari tarkib topishiga bevosita yoxud bilvosita ta’sir qiladigan qator omillarning ajralmas qismi sifatida o‘rganish lozim.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yangicha taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatimiz milliy va umuminsoniy qadriyatlarni umumlashtirgan holda, xalq mentalitetidan kelib chiqib, o‘z faoliyatida an’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan bormoqda.

Barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonda demokratik tamoyillarini ifoda etadigan, milliy, diniy va dunyoviy qadriyatlar hamkorligiga asoslangan aksiologiya qonunlari amal qiladigan erkin fuqarolik jamiyatini o‘zida ifoda etadi. Demak, jamiyatdagi subyektlarning qadriyatlar sohasidagi tayanch omillardan bo‘lgan aksiologiya qonuniyatlarini ta’riflashda undagi hodisalarning xos belgilarini, genezisi va transformatsiyasini ham e’tiborga olish lozim. Shu bilan birga aksiologiya qonuniyatlariga tegishli elementlarni, uning mazmun-mohiyatini anglash talab qilinadi.

Qolaversa, aksiologiya qonuniyatlari bevosita xalq hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, aksiologik, ma’rifiy, madaniy sohalarga va har bir kishi hayotiga ta’sir o‘tkazishini nazarda tutadi. O‘z navbatida, jamiyat hayotini yo‘lga qo‘yishda qadriyatlar sohasining boshqa yo‘nalishlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uzviy munosabatda yuzaga chiqish tamoyillariga ustuvor ahamiyat qaratish kerakligini bildiradi.

Bu ayniqsa, jamiyatdagi mavjud milliy, diniy va umuinsoniy qadriyatlar dialektikasi orqali nihoyatda yaqqol namoyon bo‘ladi. «Darhaqiqat, milliy, diniy qadriyatlar ularning ahvoli kelajak taqdiri kishilarni doimo qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Demokratiya, oshkoralik jarayoni hozirgi ko‘p millatni mamlakatimizda, milliy qadriyatlarni idrok etish va anglashni taqozo etib, bu sohalarda yig‘ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q., To‘xtayev X. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. Darslik. - Toshkent: Universitet, 2022.
2. Mo‘minova Z. Ma’naviy borliqning sinergetik tahlili. – Samarqand: Zarafshon, 2016.
3. Ergashev I. Demokratiya – milliy va umumbashariy qadriyat // Jamiyat va boshqaruv. –Toshkent, 2004. -№ 1.
4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
5. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent, 1998.
6. Yusupov E. Falsafa – Toshkent: Sharq, 1999.
7. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
8. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

9. Imom Abu Homid Muhammad Ibn Muhammad G‘azzoliy. Ihyou ulumid din. (Din ilmlarini jonlantirish). II - kitob. / Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Azon kitoblari, 2022.
10. Falsafa: izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zFA Falsafa va huquq instituti, 2008.
11. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy nomli nashriyot, 1994.
12. Shermuxamedov S. Inson falsafasi. –Toshkent: Fan, 2007.

ISLOM FALSAFASI MANBALARI: G‘OYALAR VA QADRIYATLAR

Pulatova Dildor Akmalovna
fals.f.n., professor
Alfraganus universiteti

Annotatsiya.

Islom falsafasi, jahon falsafiy merosining eng murakkab va chuqur yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u VIII–XII asrlarda shakllandi va yunon, fors, hind hamda islomiy manbalarning uyg‘unligi asosida vujudga keldi. Islom falsafasi, shuningdek, mantiq, axloq, gnoseologiya va aksiologiya kabi falsafiy yo‘nalishlarda jahon falsafasining keng va chuqur tizimini shakllantirdi. Maqolada islom falsafasining asosiy manbalarini, xususan, Qur’on, hadislar, yunon va fors falsafasini hamda ularning islomiy mutafakkirlar tomonidan qayta ishlanishini tahlil qilinadi. Bu maqolada islom falsafasining madaniy va ilmiy manbalarini, shuningdek, uning shakllanish jarayonidagi asosiy g‘oyalar va ta’sirlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Islom falsafasi, mantiq, axloq, gnoseologiya, aksiologiya, Qur’on, hadislar, yunon falsafasi, fors an’analari, sufizm, metafizika, G‘azzoliy, Ibn Sino.

Abstract

Islamic philosophy is one of the most complex and profound areas of world philosophical heritage, which developed between the 8th and 12th centuries and emerged from the synthesis of Greek, Persian, Indian, and Islamic sources. This article examines the main sources of Islamic philosophy, particularly the Quran, hadiths, Greek and Persian philosophies, and their reinterpretation by Islamic philosophers. Islamic philosophy also formed a broad and deep worldview system in such philosophical fields as logic, ethics, epistemology, and axiology. This

paper discusses the cultural and scientific sources of Islamic philosophy, as well as the core ideas and influences that shaped its development.

Keywords: Islamic philosophy, logic, ethics, epistemology, axiology, Quran, hadiths, Greek philosophy, Persian traditions, Sufism, metaphysics, Ghazali, Ibn Sina.

Аннотация.

Исламская философия является одной из самых сложных и глубоких областей мирового философского наследия, которая сформировалась в VIII–XII веках и возникла на основе синтеза греческих, персидских, индийских и исламских источников. В статье рассматриваются основные источники исламской философии, в частности, Коран, хадисы, греческая и персидская философия, а также их переработка исламскими мыслителями. Исламская философия также сформировала широкую и глубокую систему мировоззрения в таких философских направлениях, как логика, этика, гносеология и аксиология. В данной работе рассматриваются культурные и научные источники исламской философии, а также основные идеи и влияния, которые определили ее развитие.

Ключевые слова: Исламская философия, логика, этика, гносеология, аксиология, Коран, хадисы, греческая философия, персидские традиции, суфизм, метафизика, Газали, Ибн Сина.

Kirish

Islom falsafasi jahon falsafiy merosining eng murakkab va chuqur yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u VIII–XII asrlarda shakllandi va yunon, fors, hind hamda islomiy manbalarning uyg‘unligi asosida vujudga keldi. Bu falsafa nafaqat diniy asoslarga, balki aqliy bilish, mantiq va axloq nazariyalariga tayangan keng dunyoqarash tizimini yaratdi. Islom falsafasining shakllanishi, o‘z navbatida, uning hayotiy va nazariy asoslarini belgilaydi va uning ta’limotlari jamiyatning ma’naviy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashga yordam berdi.

Islom falsafasi, islomiy madaniyatning har tomonlama shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan juda keng va chuqur falsafiy tizimdir. U vahiy (Qur’on va sunnat) va aqlning uyg‘unligiga asoslangan ma’rifiy tizimni tashkil etgan. Vahiy va aql orasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ularning muvozanatli integratsiyasi islom falsafasining asosiy prinsipi hisoblanadi. Bu konsepsiya falsafaning barcha yo‘nalishlarida, xususan ontologiya (borliq haqidagi ta’lim), gnoseologiya (bilish nazariyasi), etika (axloq falsafasi) va aksiologiya (qadriyatlar falsafasi) kabi masalalarda o‘ziga xos islomiy yondoshuvni yaratdi.

“Islom falsafasi – jahon falsafiy merosining eng murakkab va chuqur yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u VIII–XII asrlarda shakllandi va yunon, fors, hind hamda islomiy manbalarning uyg‘unligi asosida vujudga keldi” [1].

Asosiy qism

Qur’on va hadis manbalari ta’siri

Islom falsafasi shakllanishida bir necha madaniy va ilmiy manbalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ular orasida yunon falsafasi, fors an’analari, hind falsafasi va, albatta, Qur’on hamda hadis manbalari muhim o‘rin tutadi. Har bir manba, o‘z navbatida, falsafaning turli yo‘nalishlarini shakllantirishda hissa qo‘shgan.

Islom falsafasi, o‘zining ilohiy va aqliy tabiati bilan, bir necha manbaalarga asoslangan. Uning eng asosiy va muayyan manbai – Qur’on va sunnat (hadislar)dir. Bu manbalar falsafaning barcha yo‘nalishlariga: ontologiya (borliq haqidagi ta’limot), etika (axloqshunoslik), gnoseologiya (bilish nazariyasi) va aksiologiya (qadriyatlar falsafasi)ga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Qur’on va hadislar, islomiy falsafaning ilk ilhom manbalari bo‘lib, ularning ta’limoti insonning ma’naviy, axloqiy va aqliy rivojlanishini belgilovchi muhim ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Qur’on, musulmonlar uchun ilohiy axborotning asosiy manbasi bo‘lib, u falsafiy ta’limotlarning asosini belgilagan. Qur’ondagi ko‘plab oyatlar insonning bilish qobiliyati, fikrlash va olamni tushunishga bo‘lgan intilishini kuchaytirishga qaratilgan. Masalan, “Tafakkur qilmaysizlarmi?” va “Ilmlilar va nodonlar tengmi?” kabi oyatlar falsafiy bilishning ilk ilhom manbai bo‘lgan. Bu oyatlar ilm va ma’rifatga bo‘lgan ahamiyatni kuchaytirish bilan birga, ilmning egalariga nisbatan o‘ziga xos shan-sharaf, axloqiy va ma’naviy o‘rnini belgilaydi. Qur’onda insonni ilmga intilishga, falsafiy tafakkurga va olamni ilmiy tushunishga yordam beruvchi tushunchalar ko‘p bo‘lib, ular islomiy falsafaning asosiy tamoyillarini tashkil etadi.

Islom falsafasining insonparvarlik, axloqiy va ma’naviy yo‘nalishlari ko‘proq hadislar orqali shakllangan. Hadislar, Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi va sallamning so‘zlari va amali bo‘lib, ular falsafiy masalalarga aniq yordam bergan va yoshlarning ma’naviy rivojlanishini himoya qilgan. Masalan, Payg‘ambarimiz **“**Ilm talab qilish har bir musulmon uchun farz” [2], deb aytgan hadislari falsafada, axloqda va ijtimoiy hayotda bilimning ahamiyatini belgilaydi. Hadislar, shuningdek, axloqiy qadriyatlar: insonparvarlik, adolat, samimiylik va ma’naviy kamolotga bo‘lgan talablarni ko‘rsatgan.

Shunday qilib, Qur’on va hadis manbalari islom falsafasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular aql va vahiyning uyg‘unlashuvini, ma’naviy kamolot va axloqiy rivojlanishni belgilagan. Qur’on va sunnatdan kelib chiqqan

g‘oyalar, falsafiy ta’limotlar, axloqiy qadriyatlalarni o‘z ichiga olib, islom falsafasining barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatgan. G‘azzoliy va Ibn Rushd kabi mutafakkirlar bu o‘zaro uyg‘unlikni o‘z asarlarida chuqur tahlil qilgan va islomiy falsafaning o‘ziga xos haqiqiy yondoshuvini yoritgan.

Yunon falsafasining ta’siri

Islom falsafasi o‘zining shakllanishida ko‘plab manbalardan ta’sir olgan bo‘lib, shulardan eng kattasi yunon falsafasidir. Yunon falsafasining asosiy namoyandalari – Aristotel, Platon va Plotinning asarlari arab tiliga tarjima qilingan va ularning g‘oyalari islomiy mutafakkirlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Bu davrdagi falsafiy muhokamalar o‘rtasida yunonlik falsafiy an’analarining o‘rni haqida ko‘plab mutaxassislar izlanishlar olib borgan. Islomiy mutafakkirlar, o‘z navbatida, bu g‘oyalarni o‘z mazmun va maqsadlariga moslashtirishga harakat qilishgan. Ibn Rushd o‘zining “*Tahofut at-tahofut” asarida* “Yunon falsafasining ta’limotlari, ayniqsa Aristotelning mantiq va ontologiyaga oid nazariyalari, islom falsafasining shakllanishida muhim rol o‘ynadi”,- deb yozgan edi. [3].

Yunon falsafasining islom falsafasiga ko‘rsatgan ta’sirining birinchi va eng muhim jihati – Aristotelning mantiq tizimidir. Aristotelning mantiq haqidagi qarashlari, asosan, fikrlash va tahlil qilishning aniq va me’yorli asoslarini belgilagan. Uning mantiqka oid ishlari islomiy falsafada kalom va falsafiy tahlilning asosiga aylandi.

Abu Nasr Forobiy o‘zining *«Ihso al-ulum»* asarida Aristotelning mantiq tizimini qabul qilib, uning nazariyalarini islomiy kontekstga moslashtirgan. Forobiy uni “ilmlar ilmi” deb atagan va “aristotelizm” asosida o‘zining “Ilmlar tasnifi” asarini yaratgan. Forobiyning ta’riflashicha, mantiq – bu fikrlashning me’yori, u inson aqlini xatolardan asraydi va aniq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. [4].

Aristotelning mantiq tizimi, xususan, falsafiy va aqliy izlanishlar, islomiy mutafakkirlarning ilm va bilimlarning tizimli tartibini yaratishga yordam berdi. Forobiyning “ilmlar tasnifi”da Aristotelning mantiq nazariyalaridan foydalanish, islomiy ilmlar tizimining mukammallashuviga sabab bo‘ldi.

Platonning “g‘oyalar dunyosi”, “ideal davlat” haqidagi ta’limotlari ham islom falsafasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Plotinning “birlik nazariyasi” ham islomiy falsafaga katta ta’sir ko‘rsatgan. Plotinning ta’limotiga ko‘ra, butun borliq bir yagona, abstrakt birlikdan kelib chiqadi. Bu nazariya tasavvufdagi “vaxdat ul-vujud” (borliq yagona) g‘oyasini shakllantirgan. Bu g‘oyalar Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino falsafiy tizimlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Plotinning birlik nazariyasi Islomiy tasavvufiy g‘oyalarga, ayniqsa, Ibn Arabiy va boshqa tasavvufiy mutafakkirlarning “vaxdat ul-vujud” ma’naviy g‘oyasiga ta’sir ko‘rsatgan. “Vaxdat ul-vujud” ta’limotiga ko‘ra, butun borliqning

to‘liq hikmati va ma’nosi yagona manba – Allohga bog‘liqdir. Plotinning ta’limoti va islomiy tasavvufiy nazariyalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar ushbu ikki falsafiy an’ananing islomiy kontekstda talqin etilganligini ko‘rsatadi.

G. Sarton fikricha: “Islom falsafasida Aristotel va Plotin g‘oyalari islomiy ma’naviyat orqali qayta talqin etilgan” [5]. Shunday qilib, Islom falsafasi yunon falsafasining asosiy g‘oyalaridan katta ta’sir olgan. Aristotelning mantiq tizimi, Platonning g‘oyalar dunyosi va Plotinning birlik nazariyasi islomiy falsafada yangidan yangi mazmun va ma’no bilan shakllangan. Bu g‘oyalar, islomiy falsafaning diniy va axloqiy masalalarga munosabatini aniq belgilashga yordam berdi. Yunon falsafasining islomiy talqini, umumiy ilm va ma’rifatga bo‘lgan yondashuvni takomillashtirdi, shuningdek, islom falsafasiga yangi falsafiy metodlar va nazariyalarni kiritishga sabab bo‘ldi.

Fors madaniy an’analarining ta’siri

Islom falsafasi o‘zining ilk shakllanish davridanoq fors madaniyati va falsafiy an’analaridan ham ta’sirlanib kelgan. Fors madaniyati, jumladan, axloq, davlat boshqaruvi va ezoterik g‘oyalar sohasida muhim ta’sir ko‘rsatgan. Fors madaniyatining ayniqsa, Zardushtiylik ta’limotidan kelib chiqqan g‘oyalar islomiy axloqiy falsafasida singib ketgan, bu esa islomning axloqiy va ma’naviy mazmunlari bilan yaqin aloqador bo‘lgan.

Zardushtiylik ta’limoti axloqiy sohada aniq tartibga ega bo‘lib, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashni asosiy g‘oya sifatida qabul qiladi.

Bu g‘oya fors madaniy an’analarining asosiy qismi bo‘lib, islom axloqiy falsafasida ham yaqqol izlarini qoldirgan. Axloqiy mas’uliyat, ma’naviy poklanish va insonning yaxshilikka intilish g‘oyalari, Zardushtiylikning asosiy komponentlaridan hisoblanadi. Bu g‘oyalar islomning axloqiy ta’limotlarida aniq tartibda ko‘rsatilgan. Fors madaniyatining axloqiy ta’limotlarini o‘z ichiga olgan Zardushtiylik ta’limoti, islomiy axloqning nazariy va amaliy yo‘nalishlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, “Zardusht ta’limotidagi nur va zulmat kurashi islom falsafasida ma’naviy kurash simvoliga aylandi” [6].

Fors madaniyatidagi axloqiy g‘oyalar, xususan, «adolat», «komil inson», «ruhiy poklanish» kabi tushunchalar Forobiy, Ibn Sino va G‘azzoliyning asarlarida ilgari surilgan. Bu g‘oyalar fors madaniyatining falsafiy va ma’naviy asoslaridan olingan bo‘lib, islomiy axloqiy qarashlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uyg‘unlashgan. Masalan, «adolat» tushunchasi, Forobiyning «Fozil jamiyat» haqidagi qarashlarida ham yoritilgan. Uning fikricha, adolat bir yoki bir necha insonlarning o‘ziga xos xususiyatlari emas, balki jamiyatning to‘liq yagona manzarasiga asoslangan hayotni shakllantirishga yordam beradi.Ibn Sinoning «Shifo» asarida ham adolat va axloq yo‘nalishida muhim fikrlar mavjud bo‘lib, u axloqiy kamolotga erishish uchun ichki poklanish va ma’naviy rivojlanishning ahamiyatini ta’riflaydi.

Zardushtiylik ta’limoti yoshlar va jamiyat a’zolarining ma’naviy poklanishini, axloqiy rivojlanishini ilgari surgan. Ma’naviy poklanish g‘oyasi, o‘z navbatida, islomiy tasavvufning «ruhiy kamolot» ga bo‘lgan qarashlarini shakllantirdi. Fors an’analaridan kelib chiqqan bu g‘oyalar, islomiy tasavvufda «ruhiy poklanish» orqali insonning yuqori ma’naviy darajaga erishishini ta’minlashga qaratilgan. Tasavvuf mutafakkirlari, shu jumladan, Ibn Arabi, «ruhiy kamolot» g‘oyasini amaldagi holatda insonning ichki poklanishi va kamol toptirish orqali amalga oshirish g‘oyasini ilgai surgan.

Zardusht ta’limotining nur va zulmat kurashi kabi g‘oyalari islomiy falsafada ma’naviy kurash simvoliga aylandi va bu g‘oya tasavvufiy tafakkurda ham o‘z aksini topdi.

Hind falsafasi ta’siri

Hind falsafasi, ayniqsa Vedanta va Sangxya ta’limotlari orqali, islom falsafasiga kosmologiya va ruhiy kamolot nazariyasi sohalarida ta’sir ko‘rsatdi.

Hind falsafasidagi “braxman” (oliy ruh) va “atman” (individual ruh) konsepsiyalari islom tasavvufidagi “Haq va inson” munosabati bilan ma’naviy o‘xshashlikka ega.“Hind falsafasida ruhning tanadan ustunligi, islomda esa ruhning ilohiy manba bilan bog‘liqligi haqidagi g‘oyalar yaqin” [7]. Islom falsafasida koinotning yaratilishi, harakat va maqsad haqidagi ta’limotlar (masalan, Ibn Sinoning «Shifo» asarida) Vedanta va Sangxyaning metafizik g‘oyalari bilan uyg‘unligi tahlil qilingan.

Xulosa

Shunday qilib, islom falsafasi bir yoqlama diniy fikr tizimi emas, balki turli sivilizatsiyalar tajribasini o‘z ichiga olgan sintez falsafasidir. Unda islom ilohiyoti, yunon mantiqshunosligi, fors axloqi, hind metafizikasi uyg‘unlashgan.

Bu uyg‘unlik islom falsafasining insonparvar, ilmiy va axloqiy qadriyatlarini belgilab berdi. Islom mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushd, Imom G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ushbu manbalarni faqat qabul qilmagan, balki ularni yangi ma’naviy-ma’rifiy asosda qayta yaratganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Corbin, Henry, History of Islamic Philosophy. Sherrard, Liadain (TRN); Sherrard, Philip (CON).Published by Routledge, 2014.

2. Imom Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. – Qohira: Dar al-Fikr, 1981. – J. 1.

3. Ibn Rushd. Tahofut at-tahofut. – Beyrut: Dar Sadir, 1961.

4. Forobiy, A. N. (1999). Ihso al-ulum. Qohira: Dar as-Salaam.

5. Sarton, G. Introduction to the History of Science. – Baltimore: Johns Hopkins Press, 1927. – Vol. I,

6. Corbin, H. L’islam iranien: Aspects spirituels et philosophiques. – Paris: Gallimard, 1971.

7. Nasr, S. (2006). Islamic Philosophy from Its Origin to the Present. London: Routledge.

AXBOROT MADANIYATINING SHAKLLANISH JARAYONI: TARIXIY TARAQQIYOT OMILLARI VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Turgunov Azim Turgunovich
Alfraganus universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani
azimturgunov52@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot madaniyatining shakllanish jarayoni, uning tarixiy taraqqiyoti hamda rivojlanish bosqichlarini belgilovchi omillar ilmiy tahlil qilinadi. Unda qadimgi og‘zaki axborot almashinuvidan tortib, yozuvning yaratilishi, bosma nashrlar paydo bo‘lishi, elektron OAVning shakllanishi va raqamli texnologiyalar davrigacha bo‘lgan jarayonlarning axborot madaniyatining takomillashuviga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari — ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni kengaytirish, media tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash, milliy media makonini rivojlantirish hamda yoshlar axborot madaniyatini oshirish bo‘yicha samarali yondashuvlar yoritiladi. O‘zbekistonning axborot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham mazkur jarayonning dolzarb yo‘nalishlari sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Axborot madaniyati, axborotlashgan jamiyat, tarixiy taraqqiyot, informatsion inqilob, media savodxonlik, axborot texnologiyalari, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, yoshlar, media tahlil, rivojlantirish mexanizmlari.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi bevosita axborotning qay darajada samarali ishlatilishi bilan bog‘liq. Axborot — jamiyat taraqqiyotining strategik resursi, innovatsion rivojlanishning bosh omili sifatida e’tirof etiladi. Shu bois bugungi raqamli davrda axborotdan ongli, mas’uliyatli va madaniyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Axborot madaniyati tushunchasi nafaqat axborot olish va uni qayta ishlash malakasini, balki axborotning mohiyatini anglash, uni baholash, xavfsizlik talablariga rioya qilish, soxta ma’lumotlardan himoyalanish, media kontentni tanqidiy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Axborot zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonida asosiy strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. XXI asrga kelib axborot resurslari global taraqqiyotning yetakchi manbalaridan biriga aylanganligi sababli, axborotdan ongli, samarali va mas’uliyatli foydalanish zarurati sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Shu munosabat bilan “axborot madaniyati” tushunchasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy kategoriyaga aylandi.

Axborot madaniyati — bu shaxsning axborotni to‘g‘ri qabul qilish, uni tahlil etish, qayta ishlash, yaratish, saqlash va tarqatish jarayonidagi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bo‘lib, u axborotdan foydalanishda etik-me’yoriy talablarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur madaniyatning shakllanishi va takomillashuvi texnologik taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, internetdan foydalanishning kengayishi, mobil kommunikatsiya vositalarining hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borishi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy axborot makonida axborot madaniyatining mazmuni an’anaviy axborot iste’moli ko‘nikmalaridan ancha keng bo‘lib, u axborot xavfsizligini ta’minlash, soxta yoki manipulyativ ma’lumotlardan himoyalanish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish hamda media kontentni tanqidiy tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat, davlat va ta’lim tizimi oldida turgan strategik vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu jarayon individual darajadagi intelektual salohiyatning rivojlanishini ta’minlash bilan birga, jamiyatning umumiy ma’naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Axborot madaniyatining rivojlanishi, avvalo, ta’lim tizimining samaradorligi, kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti va ularning kundalik hayotga tatbiq etilish darajasiga bog‘liqdir. Raqamli texnologiyalardan ongli va samarali foydalanish axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib maydonga chiqadi.

Mazkur maqolada axborot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar, uning ijtimoiy ahamiyati, zaruriy mexanizmlari, shuningdek ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborot madaniyati jamiyatning barcha qatlamlari uchun zarur bo‘lgan universal kompetensiya bo‘lib, u axborotni ongli qabul qilish, axborot manbalarining ishonchliligini tahlil etish, ma’lumot tarqatishda mas’uliyatni his etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ehtiyotkorlik bilan yondashishni taqozo etadi.

Bugungi global axborotlashuv sharoitida yoshlarning intellektual, ma’naviy va jismoniy salohiyatini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotiga faol integratsiyasini ta’minlash masalalari alohida

ahamiyat kasb etmoqda. Bunda axborot madaniyatining yuqori darajada shakllanishi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Insoniyat axborotlashgan jamiyat sari uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, mazkur jarayon “eng qadimgi davr”, “qadimgi davr”, “o‘rta asrlar” va “hozirgi zamon” kabi bosqichlar orqali izchil rivojlanib kelgan. Har bir bosqichda axborotning mazmuni, shakli va saqlash hamda uzatish usullari takomillashib borgan. Asrlar davomida axborotga bo‘lgan ehtiyojning kamaymasligi, aksincha ortib borishi, axborotning jamiyat hayotidagi o‘rnining tobora muhimlashuviga sabab bo‘lgan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida esa axborot madaniyati jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biriga aylangan.

Axborot qadimdan jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib keladi. U nafaqat ijtimoiy tizimning rivojlanishida, balki har bir shaxsning ma’naviy va kasbiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Insoniyat tarixi davomida axborotni yig‘ish, saqlash va uzatish vositalari izchil rivojlanib borgan bo‘lsa-da, ushbu jarayon har doim ham bir maromda kechmagan. Zarurat va sharoitga ko‘ra ayrim davrlarda axborot sohasida keskin o‘zgarishlar yuz berib, “informatsion inqilob” deb ataluvchi global hodisalar shakllangan. Mazkur inqiloblarning birinchisi yozuvning kashf etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, u insoniyatga bilimlarni tizimlashtirish, avloddan avlodga yetkazish va jamiyat xotirasini mustahkamlash imkonini yaratdi.

Yaqin o‘tmishda O‘zbekistonda axborot sohasini liberallashtirish, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash, axborotdan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda axborot siyosatini modernizatsiya qilish, huquqiy asoslarni takomillashtirish, oshkoralik va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, jamiyatni axborot bilan ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish, aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish sohasida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Demokratik jamiyat qurish tamoyillariga asoslangan ushbu islohotlar natijasida internetga kirish imkoniyatlari kengaydi, milliy kontent jadal boyidi, internet-nashrlar soni keskin oshdi, nodavlat gazeta, televideniye va radiostudiya tarmoqlari shakllandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Natijada axborot iste’moli madaniyatining o‘zgarishi, jamiyat axborot makonining kengayishi va raqamli savodxonlikning ortishi kuzatildi.

Mazkur jarayonlar ta’lim sohasini ham tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, yosh avlodning raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilim va

ko‘nikmalarini kengaytirish, axborotni qabul qilish va idrok etish jarayonida mustaqil, tanqidiy va tizimli fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj ortdi. Axborot iste’moli madaniyatini oshirish ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2024-yil 27-iyun kuni Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigida axborot sohasida ilgari surilgan tashabbuslar mazkur yo‘nalishda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning izchil davomiyati ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Ushbu tashabbuslar axborot olishning erkin va teng imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, ijtimoiy muammolarga tezkor munosabat bildirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Axborotga bo‘lgan ehtiyoj insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallagan. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan ma’lumotlarga ko‘ra, har bir axborot o‘z davrining jamiyat manfaatlari, maqsadlari va intilishlarini ifodalagan. Axborot tarqatishning og‘zaki shakllari — jarchilar, voizlar, choparlar orqali, yozma shakllari esa papiruslar, lavhalar, e’lon taxtalari orqali qadimdan amaliyotda qo‘llanilgan. Zardushtiylik manbalarida keltirilishicha, Zardusht tomonidan odamlarga yetkazilgan xabarlar ularni halollikka, adolatga, ezgulikka va tinch-totuv yashashga da’vat etgan. “Avesto”da har bir xabarning haqqoniylik, to‘liqlik va takomillik mezonlari ta’kidlanadi, bu esa axborotning ijtimoiy qadri qadimdan yuksak baholanganini anglatadi.

XX asrda televideniye paydo bo‘lishi insoniyat tarixidagi yana bir muhim axboriy burilish bo‘ldi. Televideniye ommaviy axborot, targ‘ibot va ta’lim-tarbiya vositasi sifatida jamoat fikrini shakllantirishda katta kuchga ega bo‘ldi. Bu texnologiyaning ilk namunalaridan biri Toshkentda B. P. Garbovskiy tomonidan 1928-yilda yaratilgan elektron televizion tizimdir. O‘zbekistonda muntazam teleko‘rsatuvlar 1956-yil noyabr oyidan boshlab efirga uzatilgan bo‘lib, bu milliy axborot makonida yangi bosqichni boshlab berdi.

Mustaqillik yillarida milliy matbuot tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar axborotning erkin muomalaga kirishini tezlashtirdi, media makonning demokratlashuviga zamin yaratdi. Biroq globallashuv sharoitida geosiyosiy kuchlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi, zamonaviy targ‘ibot vositalarining mafkuraviy kurash maydoniga aylanishi informatsion xurujlar xavfini orttirib, axborot xavfsizligini ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Kuchli intellektual va moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan markazlar tomonidan yaratilayotgan zararli, manipulyativ axborot oqimlariga qarshi turish uchun milliy ma’naviy targ‘ibot mexanizmlarini takomillashtirish zaruratga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyati zamonaviy raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan fundamental ko‘nikmalar majmuasidir. Uning shakllanishi texnologik taraqqiyot, shaxsning axborotdan ongli foydalanish malakasi, ta’lim sifati va jamiyatdagi axborot siyosatining samaradorligi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli axborot madaniyatini rivojlantirish davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 43.

2. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. Лекции по специальной и политической психологии. – СПб.: Питер, 2004. – С. 163.

3. Столбникова Е.А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования(на материале рекламы). Таганрог, 2006. –С. 76-77.

4. Маматова Я., Сулайманова С. Узбекистан по пути развития медиаобразования. Учебное пособие. – Ташкент: «Extremum-press», 2015. – С. 10.

5. А.Муминов Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари, “Turon zamin ziyo” 2013. 128-129-бетлар

6. Ёқубова М. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологиялари масалалари: Фал. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 2006. – 165 б.

7.Fan, ta`lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari», xalqaro konferensiya materiallari «Centarl Asia – 2017» – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – 364 б.

КИТАЙСКАЯ ФИЛОСОФИЯ В XX ВЕКЕ

Кулуева Ф.Г.- к.ф.н, профессор
кафедры «Философия и
национальная идея», ТашГТУ им. И.Каримова
Абдукаримова М.-студентка «ФНГ»,
ТашГТУ им. И.Каримова

Аннотация: В статье отмечается, что в Китае в конце XIX и начале XX в.в. наблюдается активное развитие философский и общественно-политической мысли. Вместе с тем на развитие общественно-философской и

политической мысли определенную роль оказало провозглашение Китайской Народной Республики. А с конца 70-х гг. XX века на передний план выдвинулись проблемы совершенствования и подъема экономики, вопросы формирования идеологических ориентиров китайского государства.

Ключевые слова: китайское государство, конфуцианство, частная собственность, права народа , народовластие, реформы.

Abstract: The article notes that the late 19th and early 20th centuries in China saw the active development of philosophical and socio-political thought. The proclamation of the People's Republic of China also played a significant role in the development of socio-philosophical and political thought. Since the late 1970s, issues of improving and raising the economy and shaping the ideological guidelines of the Chinese state have come to the fore.

Keywords: Chinese state, Confucianism, private property, people's rights, democracy, reforms.

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xitoyda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkurning jadal rivojlanishi kuzatilganligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Xitoy Xalq Respublikasining e’lon qilinishi ijtimoiy-falsafiy va siyosiy fikrning rivojlanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatdi. XX asrning 70-yillari oxiridan boshlab esa iqtisodiyotni takomillashtirish va yuksaltirish muammolari, Xitoy davlatining mafkuraviy yo‘nalishlarini shakllantirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Kalit so‘zlar: Xitoy davlati, konfutsiychilik, xususiy mulk, xalq huquqlari, xalq hokimiyati, islohotlar.

В конце XIX столетия в Китае наблюдается активное развитие философской и общественно-политической мысли, поскольку страна переживает тотальный кризис и такие ученые и политические деятели как Кан Ювэя, Лян Цичао, Янь Фу, Ху Ши, Ли Дачжао, Сунь Ятсена и другие искали пути выхода и создавшегося положения и внесли тем самым вклад в современную китайскую мысль.

Так, Кан Ювэй (1858-1927) разработал теорию реформирования Китая. Он считал, что частная собственность является причиной всех зол и бед. Экономической основой общества «Великого Единения» должно стать общественное хозяйство. Для построения великого государства важны не только экономические достижения, духовность и образование граждан, но и участие населения в государственной и политической жизни. Поэтому причину беспомощности Китая Ювей видел в том, что его население не участвует в государственной и политической жизни. Он предлагал ввести институт гражданства, определить права и обязанности граждан, учредить

выборные собрания представителей в провинциях, округах, уездах, волостях и селах. И необходимым считал, исходя из экономического упадка, государственного долга и разгула бандитизма, что революция в Китае невозможна, а оптимальна монархия типа Англии или Японии .

Следующий философ Лян Цичао (1873—1929) считал, что существует два пути для Китая: первый - реформы по инициативе самих китайцев, второй - реформы по инициативе иностранцев. На его взгляд-это означало бы превращение их родины в колонию.Философ предлагал создать школы по европейскому принципу при сохранении китайских методов просвещения. От уровня образования народа, по его мнению, зависит состояние политических прав каждого. Если в прошлом узурпация знаний обусловливала ущемление прав народа, то за расширением знаний последует и расширение его политических прав. Причины отсталости Китая мыслитель видел в консерватизме общества, абсолютизме правления, старой философии и морали. Лян Цичао выступал против революции в Китае, считая, что она усугубит разруху и безработицу, где не было бы частной собственности, а люди относились бы друг к другу как братья.

Другой ученый Янь Фу (1853-1921) родился в семье сельского врача. В 1876 г. его посылают в военно-морской институт в Англию. Но его не интересовала карьера морского офицера. В Англии и Франции он усердно изучал труды Смита, Рикардо, Монтескье, Руссо, Канта, Бэкона, Локка, Гоббса, познакомился с произведениями Коперника, Ньютона, Дарвина. Янь Фу переводит на китайский язык работы Т. Гексли, Д. Милля, Г. Спенсера, А. Смита и других. Но после первой мировой войны он меняет свое мнение о ценности западной общественной мысли.

Поскольку могущество или слабость государства определяются физическим, умственным и моральным развитием народа, то в связи с этим Янь Фу предлагает меры по улучшению этих трех факторов для развития китайского общества. Для улучшения физического развития необходимо запретить курение опиума, а также бинтование ног как архаизм старого общества. Для умственного развития надо отменить старую систему госэкзаменов и ввести в образовательные учреждения западные науки. В обновлении морали ученый важным считал пробуждение в каждом китайце чувства любви к родине. Это объединит общие усилия народа в достижении независимости и благосостояния Китая. Выступая за парламентаризм как основу обеспечения свобод граждан и их равенства перед законом, Янь Фу отрицает монархию.

К активным участникам «движения за новую культуру» принадлежал Ли Дачжао (1889-1926). Он полагал, что конфуцианство и конституция, как

необходимый фактор развития Китая, несовместимы. Он по-разному оценивает западные теории. Касаясь теории Дарвина, философ считает, что она оказала «дурное влияние, помогая войнам, наполовину в силу своей собственной неполноты и наполовину в силу использования его злодеями»[1]. Ли Дачжао был сторонником построения социализма в Китае. Однако его воззрения на социализм не имели завершенный вид, особенно в области политической системы такого общества. Взгляды Ли Дачжао не лишены серьезных противоречий: он в одинаковой мере ратовал за построение социализма «даже при деспотизме» и за построение республики по европейским стандартам.

В рассматриваемый нами период такой философ как Ху Ши (1891-1962) снискал популярность критикой конфуцианских норм и представлений, институтов старого общества, пропагандой идей американского прагматизма, культурных, научных и технических достижений стран Запада. Общественный прогресс Ху Ши истолковывал как совершенствование личности. По его словам, в китайском обществе человек находится в плену традиционных норм и представлений, что тормозит прогресс общества. Поэтому он настойчиво пропагандировал лозунг свободы личности.[2]

В Китае в это же время получает распространение направление, главной базой которого служили марксизм как теоретическая часть и ленинизм (русский коммунизм) как практическая. Главным приверженцем этой доктрины был Сунь Ятсен (1866-1925). Его основным трудом является «Три народных принципа» (1924), под которыми понимались национализм, народовластие и народное благоденствие. Принцип национализма в широком смысле, как он полагал, мог быть осуществлен в три этапа: 1. Спасение нации; 2. Освобождение других угнетенных наций; 3. Объединение всего человечества на началах мира, братства и справедливости. Сильное воздействие на формирование национальной концепции реформаторов оказала западная теория социал-дарвинизма о борьбе наций и рас за свое существование. Свой первый принцип Сунь Ятсен тесно связывал со свободой. Второй принцип, гласящий о народовластии, заключался в системе государственного управления на основе пяти ветвей власти: Законодательной, судебной, исполнительной, контрольной, экзаменационной.

Народовластие китайскими философами того времени отождествлялось с западным пониманием демократии. В ее основе лежала конфуцианская концепция о правителе, который должен постоянно заботиться о народе. В противном случае народ имел право на свержение правителя. Таким образом, свержение недобродетельного правителя и выбор другого являлись

важнейшими аспектами китайского восприятия демократии. Сунь Ятсен, так же как Ли Дачжао и Ху Ши, ратовал за утверждение республики. Конституция и парламент, стоящие на страже интересов народа, это, по мнению Сунь Ятсена, чрезвычайно важные инструменты народовластия. Третий принцип — о народном благоденствии, предусматривает экономическое развитие Китая, начиная с земельных реформ и строительства мощной промышленности. В этом он большие надежды возлагал на иностранные инвестиции[3].

Таким образом, философская и общественно-политическая мысль Китая в конце XIX - начале XX вв. пришла к выводу о несостоятельности основ традиционного общества, а также о необходимости нахождения путей спасения Поднебесной. Ее суть выражалась в постановке и решении двух взаимосвязанных задач: реформирования китайского общества и соединения культурных традиций Китая и Запада.

Следующим этапом в развитии общественно-философской и политической мысли является провозглашение Китайской Народной Республики во главе с Мао Цзэдуном (1893-1976), что явилось итогом многолетней борьбы китайского народа за независимость. Провозглашение знаменовало отход китайского общества от традиционных идеологических догм конфуцианства, чему предшествовали долгие философские дебаты мыслителей и политических деятелей Китая на рубеже XIX-XX вв. Мао Цзэдун пытался приспособить теорию марксизма к китайским условиям. Его философские и общественно-политические взгляды характеризуются следующими особенностями:. переосмысление философского наследия Китая, в частности древних учений конфуцианцев и легистов; приспособление марксизма к китайским условиям.

Взгляды Мао об объективном присутствии противоречий и необходимости борьбы сыграли решающую роль в его политической деятельности. Постоянное нахождение «двух противоположностей» в период национально-освободительной войны, годы противостояния Компартии и Гоминьдана, борьба против «левых», «ревизионистов» в пору «культурной революции» - яркие примеры этому. Другой важной чертой идей Мао Цзэдуна было обращение к древнекитайским учениям конфуцианцев и легистов. Тяга «Великого кормчего» к легизму просматривается не только в симпатиях к его методам управления и контроля над деятельностью личности, но и в одобрении антиинтеллектуализма легистов. Об этом говорят события в период «культурной революции» в 60-70-х годах, которые напоминают об эпохе «восхождения» легизма до и после образования первой Цинской империи: репрессии против китайской интеллигенции, гонения на

инакомыслящих посредством движения «хунвэйбинов», кампании Мао против конфуцианства. Слежка и доносы, практиковавшиеся легистами, как форма контроля за чиновниками, широко применялись на протяжении всей китайской истории так же, как и в период «культурной революции»[4].

В основе политических взглядов Мао Цзэдуна лежали два взаимосвязанных положения, взятых из легистской доктрины: насилие является движущей силой всех без исключения социальных процессов, универсальным средством решения социально-экономических проблем; субъективный (личностный) фактор играет главную роль в историческом процессе.

Эти два легистских постулата твердо вошли в основу политики Мао Цзэдуна. Мао Цзэдун был убежден, что любой общественный процесс, отношения между классами, государствами, нациями вне зависимости от их ситуационной специфики определяются, в конечном счете, не экономическими причинами, а силой принуждения. В его интерпретации армия становится главным фактором жизни общества, регулятором всей системы общественных отношений, в результате чего социалистическая государственность переходит в военно-бюрократическую.

Таким образом, провозгласив тезис «политика - командная сила», Мао Цзэдун почувствовал себя свободным от объективных экономических законов. Мао Цзэдун трансформировал изначальную марксистскую теорию о государстве в идеологию, на базе чего узаконивалось партийно-бюрократическое доминирование в обществе. Он верил в необходимость сильного централизованного государства для развития Китая. Стремление Мао Цзэдуна создать такое государство сделало востребованным использование марксизма и легизма как идеологической платформы.

Последствия социально-политических событий, произошедших в период правления Мао Цзэдуна, обусловили процесс переориентации «китайского марксизма» с вопросов борьбы на проблемы социально-экономического характера.

С конца 70-х гг. XX века на передний план выдвинулись проблемы совершенствования и подъема экономики, наведения общественного порядка на правовой основе, а также вопросы формирования идеологических ориентиров китайского государства. Ключевым вопросом в формировании новой идеологической платформы является переосмысление западной философско-политической и экономической мысли, а также традиционных ценностей и в этом плане введение новейших реформ в КНР неразрывно связаны с именем одного из виднейших политических деятелей прошлого века — Дэн Сяопина (1904-1997), который выдвинул теорию четырех

модернизаций явившиеся, по своей сущности, логическим завершением всех философско-политических дебатов на рубеже двух последних столетий. Наметив цель построить развитое индустриальное государство, Дэн Сяопин проводил планомерную, последовательную политику модернизации в четырех областях: сельском хозяйстве, промышленности, политической системе, науке и технике.

Итак, при рассмотрении взглядов Дэн Сяопина важно отметить тот факт, что общей ориентацией его мысли было решение проблем благосостояния народа. Эта проблема в течении всей истории Китая была объектом размышлений китайских философов, мыслителей, ученых, политических деятелей: Конфуция, легистов (Шан Яна, Хань Фэй-цзы), Мо-цзы, мыслителей и политических деятелей XIX-XX вв. (Кан Ювэй, Лян Цичао, Янь Фу, Сунь Ятсен).

Список литературы:

1. Цит. По А.Г. Афанасьев. Борьба против конфуцианства в период движения за новую культуру. М., 1984, С. 269

2.История Китайской идеологии за последние пять-десять лет, Бэйпин, с.10.

3. Основы Философии. Под. Ред. М.А. Ахмедовой и В.С. Хана, Т., 2004, С. 232.

4. Там же с. 234-235

O‘RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODIDA DAVRIYLIK MASALASI

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’rta asr Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nasiriddin Tusi hamda Ibn Xaldunlarning ijodida kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyori masalasiga oid fikrlari ilmiy tahlil qilingan. Ushbu mutafakkirlarning asosiy bir-biri bilan bog‘lik tomoni sifatida jamiyat taraqqiyotini umumiy qonuniyatlarini ochishga bo‘lgan urinishlar hamda insoniyat taraqqiyotini davriylik omili asosida tushintirishga bo’lgan urinish ekanligi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kishilik jamiyati, jamiyat taraqqiyoti, geografik omil, “davr”, davriylik, “davr” bosqichlari, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nasiriddin Tusi, Ibn Xaldun.

O‘rta asrlar davrida Sharq allomalari jahon ilm-fani yutiqlarini rivojlantiruvchi asosiy olimlarga aylanishdi. Xususan Abu Nasr Farobiy Sharq va G‘arb faylasuflarining ustozi “ikkinchi muallim”ga aylandi. Al-Farobiy jamiyatlarni ideal holdan inqirozga uchrashiga olib keladigan axloqiy va siyosiy tanazzul davriyligi bor degan qarashni ilgari suradi. U ideal shaharda ideal -- fazilatga asoslangan davlat avval adolat va bilim asosida yuksalsa-da, vaqt o‘tishi bilan johillik va zo‘ravonlik bosqichlariga o‘tishini tasvirlaydi. Bu - haqiqiy siklik, ya'ni ideal → tanazzul → noto‘g‘ri jamiyat → bazan yangilanish jarayoni. Jumladan mutafakkir shunday yozadi: “Agar fazilatga asoslangan shaharning boshqaruvchilari adolat va bilimdan ketib, o‘z manfaatlari yo‘lida yurishni boshlasa, bu shahar darhol tanazzulga yuz tutadi; ideal tuzum inqirozga yuz tutib, noto‘g‘ri va adolatsiz hukmronlikka aylanadi.”[1] Al-Farobiy jamiyatlarni ideal holatdan tanazzulgacha bo‘lgan trasformatsion sikl sifatida tushuntiradi: ma’naviy rahbarlik zaiflashsa, shahar adolatsiz shakllarga aylanadi, bu esa yangi siklni boshlab berishi mumkin. U bu tushunchani Platon ta’siri ostida shakllantirgan, lekin Sharqona din-falsafa kontekstida yangicha talqin qiladi.

Abu Rayhon Beruniy siklizm g‘oyasini asosan vaqt va tarixiy jarayonlarning davriy takrorlanuvchanligi asosida izohlaydi. U “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (al-Osor al-boqiya) asarida hind, yunon va zardushtiylik qarashlarni solishtirib, vaqtni cheksiz ravishda aylanuvchi sikllar sifatida tushuntirgan. Uning fikricha, insoniyat sivilizatsiyasi muayyan davrlar ichida rivojlanib, keyin tanazzulga yuz tutadi, lekin bu jarayon o‘z-o‘zidan to‘xtamaydi — yana qayta boshlanadi. Har bir davrda yangi “birinchi odam” va “madaniyat boshlanishi” mavjud bo‘ladi. Bu orqali Beruniy insoniyat tarixini chiziqli emas, balki doimiy takrorlanib turuvchi aylana shaklidagi harakat deb baholaydi. Shu bilan birga, u bu davrlarning astronomik holatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlab, tarixiy-falsafiy va ilmiy qarashlarni birlashtiradi.

Abu Rayhon Beruniy tarixiy va madaniy o‘zgarishlarning sababini ko‘proq iqlim va geografik omillar bilan tushuntiradi. Uning fikricha, jamiyatlarning rivojlanishi yoki tanazzuli inson faoliyatiga ta’sir qiluvchi tabiiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Beruniy ayrim hududlarning iqlimi, yerning unumdorligi yoki quruqligi, dengizga yaqinligi yoki tog‘li hududda joylashganligi odamlarning fe’l-atvori, urf-odati, hatto diniy e’tiqodlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun madaniyatlarning yuksalishi va qulashida iqlimiy sharoitlar asosiy omil sifatida

maydonga chiqadi. Bu yondashuv uni sotsiologiyadagi geografik maktab vakillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Nasiriddin Tusi to‘g‘ridan-to‘g‘ri davriylikka oid bo‘lgan fikrlarni o‘z asarlarida davriylik deb atamagan holda, u zamon, fasl va tarixiy jarayonlarni takrorlanuvchi tabiat sifatida ko‘rib chiqadi. Ayniqsa u evolyutsiya, inson tabiati, ma’naviy va ijtimoiy transformatsiyalar haqida gapiradi. Masalan, u “Akhlaq-i Nasiri” asarida insoniyat tarixi va axloqi rivojida ma’naviy pasayish va yangilanish bosqichlari mavjudligini ta’kidlaydi, bu holatlar siklik jarayonlarga o‘xshashdir.

U har bir jamiyatda bilim va axloqiy ong oshishidan keyin buzilish va tanazzul bosqichlari, so‘ngra yangilanish ehtimoli borligini bilish bilan bu davriylikka tegishli qarashlarni ilgari suradi. Shu bilan birga, u bu jarayonlarni kosmik va sivilizatsion kontekstda - ya’ni astronomik kuzatuvlar va jamiyat o‘zgarishlari bilan tahlil qiladi. Jumladan Tusining yuqorida ta’kidlangan kitobida davriylikka oid quyidagi so’zlarni yozib qoldiradi. “Jamiyatda bilim va axloq so‘ngicha yuksalsa, keyin esa bu harakat yo‘qolsa – bu ijtimoiy intizom buzilishi, yangilanishga intilishning boshi bo‘ladi. Shu holda jamiyat o‘z tarixi davomida bir davrni yakunlab, keyingi bosqichga kiradi.”[2] Nasiriddin Tusi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotini axloq, bilim va ijtimoiy normativlarning davriy o‘zgarishi shaklida tushuntiradi. U jamiyatdagi bilim va fazilatning pasayishi orqali yangi siklning boshlanishini ko‘radi.

Ibn Xaldun o‘zining mashhur Muqaddima asarida tarixni chiziqli taraqqiyot emas, balki davriy (siklik) jarayon sifatida tasvirlaydi. Uning fikricha, har bir sivilizatsiya yoki davlat uch bosqichdan iborat tarzda rivojlanadi: birinchi bosqichda, qattiq mehnat va jismoniy kuch bilan asos solinadi (barqarorlik va kuch), keyin ikkinchi bosqichga o‘tib farovonlik va hokimiyat avlodlarga meros qolib, bu avlodlar asta-sekin yumshab, qulaylikka berilib, axloqiy zaiflashuvga uchraydi, nihoyat, davlat tanazzulga yuz tutadi va qulaydi. Bunday sivilizatsiyaviy almashinuvlar tarixda doimo takrorlanadi. Bu yondashuv tarixiy siklizmning klassik va ilk sotsiologik shaklidir. Ibn Xaldun shunday yozadi: “Hokimiyat va davlatning tabiati shundayki, u avval jangovar kuch bilan barpo bo‘ladi, keyin boylik orttiradi, undan so‘ng farovonlik va isrofgarchilik boshlanadi, so‘ng bu hol tanazzul va inqirozga olib keladi. Shuning uchun har bir davlatning bir boshi va bir oxiri bo‘ladi.”[3]

Ibn Xaldun “Muqaddima” asarida har bir davlat yoki sulola o‘z taraqqiyotining muayyan bosqichlaridan o‘tishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, birinchi bosqich — bu davlatning paydo bo‘lishi va kuchayish davridir. Bu bosqichda hukmdorlar qattiq irodali, jismonan baquvvat bo‘lib, ko‘p hollarda ko‘chmanchi hayot tarzidan chiqqan bo‘ladi. Ular o‘zaro qarindoshlik rishtalari (asabiyya) orqali mustahkam birlikda harakat qilib, davlat asoslarini barpo etadilar.

Bu davrda mehnat, fidoyilik va harbiy fazilatlar ustuvor bo‘ladi. Bu xussundagi Ibn Xaldunning so‘zlari quyidagicha. “Agar shon-sharaf bir guruh o‘rtasida umumiy bo‘lib, ular bir yo‘lda birlashgan bo‘lsa, ularning intilishlari va maqsadlari ham bir xil bo‘ladi. Bunday sharoitda ular o‘z kuchlarini boshqalarga ustin kelish va o‘z hududlarini himoya qilishga yo‘naltiradilar va barcha intilishlari yagona maqsadga – ulug‘ shon-sharafni qo‘lga kiritishga qaratiladi.”[4] Shu orqaligina yangidan sivilizatsiya paydo bo‘ladi hamda davlatchilik mustahkamlanadi. Ibn Xaldunning yangidan paydo bo‘layotgan davlatning tug‘ilish bosqichi yangi sulola vakillarining o‘zaro birdam, bir maqsad sari harakat qilishlariga bog‘liqdir. Bu xususda yana shuni ta’kidlash kerakki, Ibn Xaldun sivilizatsiyalarni tashkil etish asosan ko‘chmanchi qabilalar tomonidan amalga oshirilishini ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning sababi esa albatta, u yashagan davrning ruhiyati bilan bog‘liqdir. U yashagan XV asrda asosan ko’chmanchi xalqlar tomonidan tashkil etilgan yirik davlatlar hukmronlik qilar edi. Bu fikrimiz Ibn Xaldun istiqomat qilgan sharq mamlakatlari xususida.

Ibn Xaldun fikricha davlat rivojining (sivilizatsiyaning) ikkinchi bosqichi — bu barqarorlashuv va kuchayish davridir. Bu bosqichda hukmdor o‘z hokimiyatini mustahkamlab, markazlashgan boshqaruv tizimini yaratadi. Davlat ichki tartibni ta’minlab, qonun va soliq tizimlarini yo‘lga qo‘yadi. Bu davrda sarkardalikdan ko‘ra siyosiy boshqaruv, siyosiy donolik va tartib asosiy rol o‘ynaydi. Asabiyya hanuz saqlanadi, ammo asta-sekin qarindoshlik kuchi siyosiy maqsadlarga bo‘ysundiriladi. Ibn Xaldun aynan shu ikkinchi bosqichda davlat amaldorlari va davlat boshlig‘ining qarindoshlari katta boylik ortiradi va buning oqibatida xashamat va dabdababozlikka beriladi. Bunday xashamat esa o‘z navbatida katta sarf-xarajatni talab qiladi. Sarf-xarajatlarning ortishi asta-sekin davlatning zaiflashuviga olib keladi deb ta’kidlaydi.[5]

Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, siklning uchinchi bosqichi — bu hashamat va farovonlik davridir. Bu bosqichda davlat kuchining cho‘qqisiga chiqadi, moddiy ne’matlar ko‘payadi, saroy hayoti hashamdor bo‘ladi. Hukmdorlar oldingi avlodlarning mehnati evaziga barpo bo‘lgan boyliklardan foydalanadi, biroq bu holat asta-sekin moliyaviy isrofgarchilik, harbiy kuchning susayishi va asabiyyaning yemirilishiga olib keladi. Ustuvorlik harbiy va siyosiy g‘ayratdan ko‘ra naf va rohatga intilish bilan belgilanadi. "Uchinchi bosqich – bu rohat-farog‘at, xotirjamlik va boyliklardan zavqlanish davridir. Bu davrda davlat egalari o‘z salaflari yaratgan narsalardan foydalanadilar, ular endi fidoyilik va kurash haqida o‘ylamaydi."[6]

Ibn Xaldun davlatlarning paydo bo‘lishi, o‘sishi va qulashini izchil tahlil qilib, bu jarayon — siyosiy sikl — tasodifiy emas, balki muayyan ijtimoiy-psixologik va madaniy sabablar bilan yuzaga kelishini ta’kidlaydi. U “davr”ni

yuzaga keltiruvchi asosiy sabab sifatida “asabiyya” (ya’ni, qarindoshlik va jamoaviy birdamlik ruhi) tushunchasini ilgari suradi. Davlat asabiyya tufayli yuzaga keladi, chunki bu birdamlik jamiyatni tashqi dushmanlarga qarshi birlashtiradi va siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritishga imkon beradi. Lekin davlat kuchaygani sari asabiyya zaiflashadi, avlodlar qulaylikka o‘rganib qoladi, fidoyilik yo‘qoladi, bu esa davlatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. “Asabiyya — bu hokimiyatning ildizi. Uni yo‘qotgan xalq o‘z hukmronligini ham yo‘qotadi.”[7]

Ibn Xaldun davlatlar tarixini tabiat qonunlariga o‘xshash tarzda tushuntirib, “davr”ni asabiyya kuchining avj olishi va so‘nishi bilan bog‘laydi. To‘g‘ri u “darv”ning asosiy harakatlantiruvchi kuchini, tarixiy jarayonlarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniq tahlil qila olmagan bo‘lsada, lekin birinchilar qatorida kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida umumiy bog‘liqlik borligi va ma’lum qonuniyat asosida taraqqiy etishini tushib yetgan va bunga o‘ziga xos javob bergan. Bu yondashuvi esa uni tarix falsafasi va sotsiologiyaning yirik vakillaridan biriga aylantirgan. Ibn Xaldum yuqoridagi “davr”ning uch bosqichini ko‘rsatishi va ushbu boschiqlar nimalardan iborat ekanligini tushuntirib berish bilan birinchi marotaba “davr” tushunchasini to‘liq ilmiy asoslarda tushuntirishga harakat qilgan olim hisoblanadi. Uning xizmati keyingi zamonlardagi davriylik nazariyasi namoyondalarining ishlari uchun asos bo’lib xizmat qildi.

Yuqorida ko‘rib chiqqan O‘rta asr Sharq faylasuflarining “davr” masalasidagi qarashlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsada, lekin ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Bu masalani aniqroq shaklda ko‘rsatish uchun O‘rta asr Sharq faylasuflarining davriylikka doir qarashlarining qiyosiy tahlil jadvalini ishlab chiqdik. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

O‘rta asr Sharq faylasuflarining davriylikka doir qarashlarining qiyosiy tahlil

Faylasuf	Davriylikka yondashuvi	Davlat/tamaddun hayot bosqichlari	Asosiy sabab	O‘xshashliklar	Farqliliklar
Farobiy	Bilvosita davriylik g‘oyasi	Ideal davlat → tanazzul → qayta tiklanish	Axloqiy buzuqlik, rahbar sifati	Tanazzulni axloqiy buzilish bilan bog‘laydi	“Davr” emas, balki falsafiy davlat modeli asosida tushuntiradi
Beruniy	Tarixiy va tabiiy davriylikni tan oladi	Madaniyatlar paydo bo‘ladi, gullab-yashnaydi, yo‘q bo‘ladi	Iqlim, geografik omillar	Tabiiy davriylikni tarix bilan bog‘laydi	Davlat emas, balki ilm-fan va madaniyat markazlari asosiy tahlil obyekti
Nasiriddin	Aniq davriy	Adolatli siyosat →	Axloqiy	Ijtimoiy-axloqiy	“Davr”

Faylasuf	Davriylikka yondashuvi	Davlat/tamaddun hayot bosqichlari	Asosiy sabab	O‘xshashliklar	Farqliliklar
Tusi	tahlil mavjud	illatlar → inqiroz → qayta yangilanish	buzulish, ijtimoiy nomutanosiblik	omillar “darv”ni belgilaydi	axloqiy-siyosiy rishtalar bilan bog‘langan
Ibn Xaldun	To‘liq davriylik nazariyasini ishlab chiqqan	Asabiyya → davlat qurilishi → farovonlik → tanazzul → qulash	Asabiyya kuchi va zaifligi	Tarixiy-sotsiologik asosli davriylik nazariyasi	Eng tizimli va empirik asoslangan yondashuv

Mazkur to‘rtala mutafakkir ham kishilik jamiyati yoki siyosiy tuzumlar tanazzulga uchrashini tan oladi. Ular davlatning tanazzulga yuz tutishini axloqiy, siyosiy yoki tabiiy sabablar bilan bog‘laydilar. Ushbu mutafakkirlarning ta’limotlaridagi davriylikka oid farqli tomonlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin. Farobiy — ideal davlat g‘oyasiga tayanadi, davriylikni to‘liq nazariyaga aylantirmaydi. Beruniy — tabiatshunoslik va madaniyat asosida “davr” o‘zgarishini ko‘radi, lekin siyosiy davlatlar emas, ilm-fan va iqlim markazida tahlil etadi. Tusi — axloqiy-siyosiy barqarorlik orqali kishilik jamiyatidagi davriylikni izohlaydi. Ibn Xaldun — asosiy va empirik asoslangan davriylik nazariyasi muallifi bo‘lib, asabiyya tushunchasi orqali izchil model yaratgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2004. –B. 160.

2. Nasiriddin al Tusi. Akhlaq i Nasiri. - London. Routledge, 1964. P. 140.

3. Ibn Xaldun. Muqaddima. Abdulbosit Tohirov tarjimasi. - Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. 2006. –B. 113.

4. Ibn Xaldun. Muqaddima. Abdulbosit Tohirov tarjimasi. - Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. 2006. –B. 342.

5. Ibn Xaldun. Muqaddima. Abdulbosit Tohirov tarjimasi. - Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. 2006. –B. 343.

6. Ibn Xaldun. Muqaddima. Abdulbosit Tohirov tarjimasi. - Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. 2006. –B. 344.

7. Ibn Xaldun. Muqaddima. Abdulbosit Tohirov tarjimasi. - Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti. 2006. –B. 101.

ESTETIK EHTIYOJ TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA INSON TABIATIDAGI O‘RNI

Shadimetova Gulchexra Mamurovna

O‘zbekiston Milliy universiteti
«Falsafa» kafedrasi dotsenti, Falsafa doktori(PhD)
Mirzayeva Shahrizoda Shuhratjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy etika yo‘nalishi
3-kurs talabasi
E-mail: mirzayevashahrizoda71@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada estetik ehtiyoj tushunchasining falsafiy mazmuni va inson tabiatidagi o‘rni, uning madaniy va ma’naviy rivojlanishdagi ahamiyati, shuningdek, san’at va go‘zallik orqali shaxsiy va ijtimoiy uyg‘unlikni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Estetika, estetik ehtiyoj, go‘zallik, madaniy rivojlanish, ma’naviy kamolot, san’at, ijtimoiy uyg‘unlik, falsafa.

Insonning tabiati murakkab va ko‘p qirralidir, u o‘zida biologik, ijtimoiy va ma’naviy komponentlarni mujassamlashtiradi. Shu jumladan, inson ongida turli ehtiyojlar mavjud bo‘lib, ular uning hayotiy faoliyati va rivojlanishini belgilaydi. Ehtiyojlar orasida estetik ehtiyojlar alohida o‘rin tutadi, chunki ular insonni faqat moddiy yoki utilitar qoniqish bilan emas, balki ma’naviy va ruhiy rivojlanish orqali hayotga bo‘lgan munosabatini boyitadi. Estetik ehtiyoj tushunchasi falsafa va psixologiyada uzoq tarixga ega bo‘lib, insonning go‘zallikka, uyg‘unlik va san’atga intilishini izohlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, estetik ehtiyoj insonni tashqi va ichki dunyo bilan uyg‘unlashtirishga undovchi tabiiy instinkt sifatida qaraladi. Bu ehtiyoj inson ongini nafaqat sezgi va hissiyotlar orqali rivojlantiradi, balki uning aqliy va ma’naviy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, estetik ehtiyoj inson jamiyatidagi o‘rnini ham belgilaydi. Insonlar o‘z estetik didi va san’atga bo‘lgan qiziqishi orqali ijtimoiy va madaniy aloqalarni rivojlantiradi, bir-birini to‘ldiruvchi madaniy tajribalarni almashadi. Shu jihatdan estetik ehtiyoj nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy salohiyatning ham muhim ko‘rsatkichidir. Falsafiy tafakkurda estetik ehtiyoj insonning go‘zallikni anglash,

uning ma’nosini izlash va uni amaliy hayotga tatbiq etish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Inson tabiatida estetik ehtiyojlar qadimdan mavjud bo‘lib, ularning shakllanishi insonning madaniy va ma’naviy rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Antik davr falsafasida estetik ehtiyoj va go‘zallik tushunchasi ustuvor mavqega ega bo‘lgan. Platon estetik tajribani inson ruhining oliy tabiiy xususiyati sifatida ko‘rgan bo‘lib, san’at orqali insonning ongini va ma’naviyatini rivojlantirish imkoniyatini ta’kidlaydi[1, B.112-115]. Aristotel esa estetik ehtiyojni inson tabiatidagi uyg‘unlik va mukammallik tushunchasi bilan izohlab, go‘zallikni faqat tashqi ko‘rinish emas, balki tartib, nisbat va uyg‘unlik orqali anglash mumkinligini bildiradi[2, C.45-48]. Shu tariqa estetik ehtiyoj falsafiy tafakkurda insonning ruhiy va hissiy dunyosining rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi.

O‘rta asrlarda estetik ehtiyojlar ko‘proq diniy kontekstda talqin qilindi. Bu davrda san’at va go‘zallikni anglash insonning ilohiy olam bilan munosabatiga bog‘liq edi. Masalan, Abu Ali ibn Sino va boshqa islom faylasuflari estetik ehtiyojni inson ruhiy kamolotiga yetaklovchi vosita sifatida ko‘rganlar. Ularning fikricha, estetik tajriba insonni ma’naviy tozalik va ichki uyg‘unlikka intilishga yo‘naltiradi[3, B.120-123]. Shu bilan birga, bu davr falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojning jamiyatdagi o‘rni ham ta’kidlangan, chunki san’at va go‘zallikning qadrlanishi insonlarning bir-birini hurmat qilishi va ijtimoiy uyg‘unlikka hissa qo‘shishiga xizmat qilgan.

O‘rta asr islom falsafasida estetik ehtiyojlar nafaqat individual ma’naviy kamolot uchun, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi va ahil-iymonli muhitni yaratishda ham muhim vosita sifatida qaralgan. Masalan, musulmon olimlari san’at va adabiyotning go‘zallik orqali inson ruhini tarbiyalashga xizmat qilishini, shu bilan jamiyatda etik qadriyatlarning mustahkamlanishiga hissa qo‘shishini ta’kidlaganlar. Shu davrda qurilish san’ati, me’morchilik, naqshinkorlik va she’riyat orqali estetik ehtiyojlar jamiyat hayotiga uyg‘un tarzda integratsiya qilingan. Masalan, markaziy Osiyo madaniyati va Xorazm, Buxoro va

Samarqanddagi yirik me’moriy obidalar inson ruhiyatini estetik uyg‘unlik orqali tarbiyalashga qaratilgan edi[4, B.78-85].

O‘rta asrlar falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar va go‘zallik insonning axloqiy va ma’naviy kamolotiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘rilgan. Shu bilan birga, bu davrda estetik tajriba insonni olamni idrok etishga, tabiiy va insoniy uyg‘unlikni anglashga yo‘naltiruvchi vosita sifatida ham talqin qilingan. Ularning qarashlarida, san’at va go‘zallik insonning shaxsiy va jamiyatdagi mas’uliyatini anglashiga, insoniy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, O‘rta asr Sharq falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar nafaqat individual, balki ijtimoiy, madaniy va diniy kontekstlarda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Estetik tajriba insonning ruhiy dunyosini boyitish, jamiyatda ahillikni ta’minlash va madaniy uyg‘unlikni yaratish vositasi sifatida qaralgan. Bu esa keyinchalik yangi davr falsafasida estetik ehtiyojlar va go‘zallikning yanada insoniy, individual va ijodiy shakllanishi uchun poydevor yaratgan.

Yevropa Renessansi davrida estetik ehtiyojlar insonning individual kamoloti va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘landi. Leonardo da Vinchi, Rafael kabi rassomlar san’at orqali insonning ichki dunyosini boyitish, uning go‘zallik va uyg‘unlikni qabul qilish qobiliyatini oshirishga intilganlar. Bu davr falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar insonning hissiy va aqliy rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qaralgan, u insonni jamiyatga foydali va madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilgan.

Renessans davrida estetik tajriba nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatning madaniy rivojlanishi uchun ham muhim vosita sifatida qaralgan. San’at asarlari orqali insonlarda go‘zallikni qadrlash, uyg‘unlikni anglash va hissiy intilishlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, estetik ehtiyojlar ilm-fan va tabiatni o‘rganish jarayonlariga ham integratsiya qilingan, chunki go‘zallikni anglash va ijodiy tafakkur insonning dunyoni idrok etish qobiliyatini oshiradi[5, P.112-118].

Bundan tashqari, Renessans davrida estetik ehtiyojlar va san’atning ijtimoiy ahamiyati ham rivojlangan. San’at asarlari insonlarni ma’naviy jihatdan

tarbiyalash, etik qadriyatlarni mustahkamlash va jamiyatda uyg‘unlikni yaratish vositasi sifatida qaralgan. Shu tariqa, Renessans falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar insonning individual va jamiyatdagi o‘rnini belgilashda markaziy ahamiyatga ega bo‘lgan[6, P.305-312].

Shu bilan birga, Yevropa falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar insonning tafakkur va hissiyotlarini uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida talqin qilingan. Go‘zallikni anglash va qadrlash orqali inson o‘z ruhiy dunyosini boyitadi, ma’naviy kamolotga erishadi va jamiyatga foydali shaxs sifatida hissa qo‘shadi. Bu davrning tajribasi zamonaviy estetik bilim va inson tabiatidagi estetik ehtiyojlarni o‘rganishda muhim tarixiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi davrga kelib estetik ehtiyojlar inson tabiatidagi tabiiy instinkt sifatida ham o‘rganilgan. XIX va XX asr psixologiyasi va falsafasi bu ehtiyojlarni inson hissiyati va ongining ajralmas qismi sifatida tahlil qilgan. Masalan, psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, estetik tajriba insonning ruhiy holatini tartibga soladi, hissiy uyg‘unlikni shakllantiradi va shaxsiy qoniqish hissini kuchaytiradi. Shuningdek, estetik ehtiyojlar ijtimoiy madaniyat bilan uzviy bog‘langanligi sababli, u insonlarni jamiyatdagi uyg‘un aloqalar, san’atga bo‘lgan qiziqish va madaniy qadriyatlarni qadrlash orqali birlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, estetik ehtiyojlar insonning ma’naviy va madaniy rivojlanishida vositachilik qiluvchi omil sifatida qaraladi.

XX asr falsafiy tafakkurida estetik ehtiyojlar insonning individual va ijtimoiy hayotidagi muhim omil sifatida ko‘rilgan. Maxsus estetik psixologiya va san’atshunoslik tadqiqotlarida estetik tajriba insonning ijodiy salohiyati, tafakkuri va hissiy dunyosini boyituvchi vosita sifatida talqin qilingan. Shu bilan birga, estetik ehtiyojlar orqali shaxslar orasida madaniy hamjihatlik, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari, zamonaviy falsafa va madaniyatshunoslikda estetik ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining muhim indikatorlaridan biri sifatida qabul qilinadi. San’at, musiqa, adabiyot va boshqa estetik tajribalar insonlarda hissiy uyg‘unlikni rivojlantiradi, madaniy qadriyatlarni qadrlashni oshiradi va

shaxslarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Shu tarzda, estetik ehtiyojlar nafaqat individual kamolot, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy uyg‘unligini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi[7, P.57-63].

Bugungi kunda estetik ehtiyojlar insonning individual va ijtimoiy hayotida o‘zining amaliy ifodasini topadi. Masalan, ta’lim, san’at, madaniyat va dizayn sohalarida estetik didning rivojlanishi yosh avlodni estetik qadriyatlar, uyg‘unlik va go‘zallikni qadrlashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, estetik ehtiyojlar shaxsning ijodiy salohiyatini uyg‘otadi, ruhiy qoniqish va ichki uyg‘unlikni shakllantiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu ehtiyojlar insonning ongini boyitib, uning jamiyatdagi o‘rnini kuchaytiradi, ijtimoiy hamjihatlik va madaniy uyg‘unlikni mustahkamlaydi.

Estetik ehtiyojlarning jamiyatdagi roli ham muhimdir. Turli madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuv estetik ehtiyojlar orqali yuzaga keladi va insonlarni birlashtiradi. Shu jihatdan estetik ehtiyojlar faqat shaxsiy kamolot vositasi emas, balki ijtimoiy uyg‘unlik va madaniy rivojlanishning ham asosiy omilidir. Masalan, milliy san’at, musiqa va arxitektura yoshlarni estetik qadriyatlarni qadrlashga, tarixiy va madaniy merosga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

Bugungi zamon falsafiy va madaniy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, estetik ehtiyojlar insonning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy integratsiyasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular orqali shaxslar o‘zining hissiy va intellektual salohiyatini rivojlantiradi, jamiyatning madaniy va estetik uyg‘unligini mustahkamlaydi, turli millatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi. Shu tariqa, estetik ehtiyojlar insonning individual va kollektiv rivojlanishida muhim vosita sifatida harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, estetik ehtiyojlar inson tabiatidagi ajralmas va tabiiy instinkt sifatida shakllangan bo‘lib, ularning rivojlanishi insonning ma’naviy, hissiy va madaniy kamolotida muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy rivojlanish jarayonida estetik ehtiyojlar falsafa va san’at tafakkurida doim markaziy o‘rin tutgan; antik davrda u inson ruhining oliy tabiiy xususiyati sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy va ma’naviy kontekstda talqin qilingan, Renessans davrida esa

insonning individual kamoloti va ijodiy salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida qadrlangan. XIX va XX asrlarda esa estetik ehtiyojlar psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, insonning hissiy va aqliy hayotidagi muhim instinkt sifatida tan olingan.

Bugungi kunda estetik ehtiyojlar nafaqat individual kamolot, balki ijtimoiy uyg‘unlik va madaniy rivojlanishning ham ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim, san’at, madaniyat va dizayn sohalarida estetik didning rivojlanishi yosh avlodni go‘zallik, uyg‘unlik va madaniy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi, shaxsning ijodiy salohiyatini uyg‘otadi va ichki ruhiy uyg‘unlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, estetik ehtiyojlar turli madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytirib, jamiyatning ma’naviy uyg‘unligini mustahkamlaydi.

Shu tariqa, estetik ehtiyojlar inson tabiatidagi tabiiy instinkt sifatida shaxsning individual rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy hamjihatligi uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlab, insonlarning hissiy, aqliy va ma’naviy kamolotiga, shuningdek, madaniy uyg‘unlik va estetik qadriyatlarni qadrlashga hissa qo‘shadi. Shu bois, estetik ehtiyojlarni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniq ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aflotun / Davlat: nasriy doston Tarjimon Urfon Otajon. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2024. – B.512.

2. Аристотель. *Поэтика*. Москва: Наука, 1984. – С. 303.

3. Abu Ali ibn Sino. *Kitab al-Shifo*. Toshkent, 1998. – B. 730

4. Sultonova, M. *O‘rta asr Markaziy Osiyo me’morchiligi va estetik madaniyati*. Toshkent, 2010. – B. 260.

5. Kemp, M. Leonardo da Vinci: The Marvellous Works of Nature and Man. Oxford University Press, 2006. – P. 388.

6. Gombrich, E. H. The Story of Art. London, 1995. – P. 688.

7. Hekkert, P. Aesthetics and the Sciences of the Arts. Amsterdam, 2006. – P. 158.

ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLAR VA INSONIYATNING SOG‘LIK HAQIDAGI FALSAFASI

Salomova Hanifa Jahonovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti,
Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va
sog’liqni saqlashni boshqarish kafedrasi dotsenti.
Tursunova Shamsiya Saidburxon qizi,
Buxoro davlat tibbiyot instituti,
Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va
sog’liqni saqlashni boshqarish kafedrasi magistiri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologik taraqqiyotning inson sog‘lig‘i haqidagi falsafiy tushunchalarga ta’siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt, biotexnologiya, raqamli tibbiyot va gen muhandisligi kabi texnologiyalar insoniyatning sog‘liq, hayot va axloq haqidagi qadriyatlarini qayta shakllantirmoqda. Tadqiqotda tibbiyot falsafasi nuqtai nazaridan texnologik rivojlanishning ijobiy va salbiy oqibatlari, shuningdek, inson qadri, axloqiy javobgarlik va tabiiylik tushunchalari o‘rganilgan. Maqola texnologiya va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zaruratini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: texnologik taraqqiyot, biotexnologiya, tibbiyot falsafasi, bioetika, sun’iy intellekt, sog‘liq, inson qadriyati.

Hozirgi globallashgan jamiyatda ilm-fan va texnologiya jadal rivojlanmoqda. Tibbiyot ham inson hayotida markaziy o'rinni egallaydi. Biroq, texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda tibbiyotda axloqiy, falsafiy va ijtimoiy masalalar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy falsafa inson salomatligi, bioetika, mas'uliyat va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni topishga intilib, bu masalalarni chuqur o'rganadi.

Zamonaviy falsafa insonparvarlik va texnologiya, ong va axloq, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik kabi sohalarda rivojlanmoqda. 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida falsafa postmodernizm, ekzistensializm, germenevtika, analitik falsafa kabi oqimlar tufayli insoniyat tafakkurining yangi bosqichiga kirdi. Bugungi kunda falsafa tibbiyot, biologiya, informatika va sun'iy intellekt o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tufayli shakllangan. Inson hayotining ma'nosi, hayot va o'lim, sog'lik va kasallik, aql va tana o'rtasidagi munosabatlar falsafiy tadqiqotlar markazida.

Falsafa odatda dunyoqarashning nazariy asosi sifatida qaraladi, u yerda dunyoni bilish muammolari va insonning madaniyat va ma’naviy qadriyatlar olamiga yo‘naltirilganligi masalalarini hal qiladi. Falsafani tushunish ob’ekti – umuminsoniy bilishning ideal haqiqati bo‘lib, u bilan boshqa fanlar, masalan, matematika (voqelikning miqdoriy munosabatlari, lekin voqelikning o‘zi emas), tarix (endi mavjud bo‘lmagan o‘tmish haqidagi bilim va fikrlar), tilshunoslik (til ramziy voqelik sifatida) ham shug‘ullanadi. Ammo faylasuflar uchun tushunish mavzusi inson madaniyatining eng umumiy tushunchalari bo‘lib, ular aks ettiruvchi shaxs ongida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Reflektorlik falsafani kundalik ongdan ajratib turadi, u dunyo haqidagi g‘oyalarini dunyoning o‘zidan ajratmaydi. Boshqacha qilib aytganda falsafaning predmeti tabiat fanlaridagi kabi tabiiy voqelikning o‘ziga xos ma’nolari emas, ijtimoiy fanlardagi kabi ijtimoiy voqelik bo‘laklarining ma’nolari emas. Falsafa – bu tasavvufiy “g‘oyalar olami”da emas, balki faylasufning o‘zi tafakkurida yashaydigan, kundalik muhit, kasbiy jamoa, milliy-davlat shakllanishlari, insoniylik kontekstlariga kiritilgan xilma-xilligidagi inson bilimlari asoslarini aks ettirish. Fanlar tizimidagi tibbiyot tabiiy fanlar, ijtimoiy va gumanitar fanlarning, birinchi navbatda, falsafaning o‘ziga xos muammoli sohasidir. Barcha amaliy sog‘liqni saqlashning tushunchaviy apparatini takomillashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, shifokorlarning moddiy va ma’naviy madaniyatining yaxlit tizimida shifokorning ilmiy-mafkuraviy qarashlari va evristik salohiyatini rivojlantiradi.

Inson salomatligi falsafasi faqat kasallikning yo'qligidan tashqariga chiqadi va jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga olgan yaxlit salomatlikka intiladi. Ushbu kontseptsiya turli mutafakkirlar va tashkilotlar, jumladan, Shopengauer, Nitsshe va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu falsafa salomatlikni hamma narsaning asosiy qadriyati sifatida ko'rib chiqadi va uni insonning ekzistensial muammolari va ijtimoiy hissasini qamrab olish uchun keng talqin qiladi. Bu turmush tarzi odatlarini yaxshilash va salomatlik uchun ruhiy va ijtimoiy jihatlarni hal qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) salomatlikni "jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik" deb ta'riflaydi. Shunga qaramay, ko'p odamlar hali ham sog'liq faqat jismoniy muammo ekanligiga noto'g'ri ishonishadi. Chunki hujayralar va genlarni chuqur o'rganuvchi ilg'or tibbiyot ham insonning ruhiy va ijtimoiy farovonligini e'tiborsiz qoldiradi. Bundan tashqari, ilg'or tibbiyot haqiqatda kattalar kasalliklarini davolay oladimi va inson umrini uzaytira oladimi, degan shubha bor.

Ilg'or tibbiy mahsulotlar kabi antibiotiklar emas, balki ovqatlanish va gigienani yaxshilash orqali o'tmishdagiga nisbatan o'rtacha umr ko'rishning keskin

o'sishi akademik doiralarda keng e'tirof etilgan. Ushbu tanqiddan so'ng, sog'liqni saqlash bo'yicha olimlar salomatlik falsafasini yaratishni qo'llab-quvvatladilar.

Ularning ta'kidlashicha, salomatlik haqidagi yaxlit tushuncha va bilimga asoslangan individual turmush tarzi odatlarini takomillashtirish zamonaviy odamlar uchun salomatlikni saqlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Buning sababi shundaki, turmush tarzini yaxshilash saraton va yurak kasalliklari kabi kattalar uchun halokatli kasalliklarni hal qilishning yagona usulidir. Tarkib juda oddiy: chekishni tashlash, mashq qilish, to'g'ri ovqatlanish, yetarlicha uxlash va yetarli dam olish. Muammo ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish metodologiyasini ishlab chiqishdadir. Ommaviy ma'ruzalar, maktab ta'limi va kampaniyalardan faol foydalanish mumkin. Qolaversa, xalqimizning o‘ziga xos turmush tarzi va konstitutsiyalariga moslashtirilgan aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, g‘arbning haftasiga kamida to‘rt marta bir vaqtning o‘zida 30 daqiqadan ter to‘kish va yurak urish tezligini oshirish uchun mashq qilish haqidagi ko‘rsatmalari haqiqatan ham oltin qoidami degan savol tug`iladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ba'zi hollarda hatto kir yuvish, idishlarni yuvish va tozalash ham muhim mashqlar bo'lishi mumkin va uy ishlarini zavqlantirish bizning sharoitimizga sport zaliga a'zolikka pul sarflashdan ko'ra ko'proq mos keladi.

Salomatlik falsafasi orqali turmush tarzimizni yaxshilash sog'liqni saqlash xarajatlarining ko'tarilishidan samarali foydalanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XXI asrda texnologik taraqqiyot tibbiyot sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Diagnostika, davolash va profilaktika jarayonlari sun’iy intellekt, biotexnologiya va raqamli tizimlar yordamida amalga oshirilmoqda. Biroq bu o‘zgarishlar insoniyatning sog‘liq haqidagi an’anaviy qarashlarini o‘zgartirib yubordi. Endilikda sog‘lomlik nafaqat tabiiy holat, balki texnologik boshqariladigan jarayon sifatida talqin etilmoqda. Shu sababli texnologiya bilan bog‘liq tibbiy faoliyatni falsafiy va axloqiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Texnologiya va sog‘liq tushunchasining falsafiy talqini

Falsafada sog‘lomlik — inson tanasi, ruhi va ijtimoiy hayotining uyg‘unligi deb qaraladi. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar esa sog‘liqni o‘lchovli, miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali baholaydi. Genetik testlar, biotibbiy sensorlar va mobil ilovalar inson sog‘ligini raqamli formatga keltirmoqda. Bu esa sog‘liqni tabiiy jarayon sifatida emas, balki texnik konstruktsiya sifatida talqin etish falsafasini kuchaytiradi.

Sun’iy intellekt tibbiyotda diagnostika, davolash va tahlil jarayonlarini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, AI tizimlari qaror qabul qilayotganida insoniy

mas’uliyat va empatiya yo‘qolish xavfi paydo bo‘ladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat “axloqiy subyekt kim?” degan savolni o‘rtaga tashlaydi. AI xato qilsa, javobgar kim bo‘ladi — dasturchimi, shifokormi yoki tizimning o‘zi? Bu masala inson va mashina o‘rtasidagi etik chegaralarni qayta belgilashni talab etadi.

Gen muhandisligi va organ klonlash kabi jarayonlar inson tabiatini o‘zgartirish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, “mukammal inson yaratish” g‘oyasi falsafiy va diniy savollarni tug‘diradi. Bioetika nuqtai nazaridan, texnologik aralashuv insonning tabiiy mohiyatiga hurmat bilan yondashishi kerak. Aks holda, texnologiya insoniyatni o‘z mohiyatidan uzoqlashtiradi.

Telemeditsina va raqamli monitoring sog‘liqni saqlashni qulay qilmoqda, biroq insoniy aloqaning pasayishi — empatiya va g‘amxo‘rlikning kamayishi — tibbiyotning ma’naviy asoslariga xavf tug‘diradi. Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot insonparvarlikning asosi bo‘lib, texnologik vositalar bu qadriyatni to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli falsafiy jihatdan texnologiyani inson qadriyati bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Texnologik taraqqiyot tibbiyot sohasiga mislsiz imkoniyatlar olib keldi. Ammo bu jarayon insoniyatning sog‘liq haqidagi falsafiy qarashlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Inson tanasi endi faqat biologik mavjudot emas, balki texnologik boshqaruv obyekti sifatida qaralayapti. Shu bois tibbiyotda texnik yutuqlar bilan bir qatorda axloqiy, ijtimoiy va falsafiy mas’uliyatni ham rivojlantirish zarur. Inson qadriyati texnologik natijalardan ustun bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, zamonaviy falsafiy tadqiqotlar insoniyatning ma'naviy, texnologik va ijtimoiy rivojlanishini uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydigan tibbiy etika bilan uzviy bog'liqdir. Falsafaning tibbiyotdagi o‘rni texnologiya va axloq o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, inson salomatligini nafaqat biologik, balki ma’naviy qadriyat sifatida tushunishdan iborat. Kelajakda tibbiy etika paydo bo'lgan texnologik muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Foucault, M. The Birth of the Clinic. Vintage Books, 1973.
2. Pellegrino, E. D. & Thomasma, D. C. The Philosophy of Medicine Reborn Pellegrino Reader. University of Notre Dame Press, 2008.
3. Kass, L. R. Toward a More Natural Science: Biology and Human Affairs. The Free Press, 1985.
4. Caplan, A. L. Contemporary Debates in Bioethics. Wiley-Blackwell, 2013.
5. Savulescu, J. Human Enhancement and Well-Being. Oxford University Press, 2018.

DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK INTEGRATSIYASI – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI

Ikramova Iroda Rixsivayevna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dotsenti, PhD
dr.iroda85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniylik va dunyoviylik integratsiyasi asosida e'tiqod va aql munosabatlari ham ko'rib chiqilgan. Din va aql masalasi bugungi globallashuv jarayonlaridagina emas, balki tarixan o'zining dolzarbligi bilan ajralib turgan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, bunda har bir shaxsning o'z pozisiyasi mavjud bo'ladi. Bugun bu aloqadorlik orqali jamiyat barqarorligiga erishish, dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash mumkin. Ayniqsa, noratsional tarzda tashkil etilgan yangi-yangi dinlarga, diniy ekstrimizm, diniy fundamentalizm kabi mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirishda diniy ma'rifat va ilm-fanning o'zaro aloqadorligiga tayanish zaruriyatini taqozo qiladi.

Kalit so'zlar. Din, diniylik, ilm, e'tiqod, aql, dunyoviylik, uyg'unlik.

Bugungi globallashuv tendensiyalari keskin tus olib, zamonaviy voqelik insonni, texnika-texnologiyaning rivojlanishi, modernizatsiya jarayonlari tufayli insonlar yaqin aloqada bo'lishi bilan birga milliy chegaralarning yuvilishi natijasi sifatida mahalliy madaniyatlarning etnik, diniy o'ziga xosligi jihatidan akseologik, ijtimoiy-madaniy tizimlarning o'zaro uzoqlashishi sodir bo'layotgan vaziyatga olib keldi. Tarixdan ma'lumki, doimo ijtimoiy-madaniy, e'tiqodiy xususiyatga ega ma'lum qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan. Biroq, bu mojarolarni hal etish oqibatlari ilgari lokal xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, globallashuv jarayonlari muttasil rivojlanayotgan bugungi kunda har bir keyingi qarama-qarshilikning "hal qilinishi" nafaqat ko'payib borayotgan insoniy va tabiiy resurslarni qamrab olishi, balki zamonaviy inson ma'naviyatiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishini ham kuzatamiz. Zamonaviy voqelikning halokatli tabiatiga asoslanib, insoniyatning oqilona munosabatlari sohasida ijtimoiy-madaniy jamoalar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tuzilmalari talab qilinadi. Bu yangi munosabatlarning shakllantirilishi falsafada ham, dinda ham muhim rol o'ynaydigan e'tiqod va bilim o'rtasidagi munosabatlar muammosini ham dolzarbligini namoyon qiladi.

Bunda e’tiqod masalasiga kelsak, u zamonaviy ilmiy, postmodern va globalistik davrda, “an’anaviy” deb ta’rif berilgan barcha qadriyatlar universallashtirilib, tenglashtirilganda juda dolzarb hisoblanadi. E’tiqodsiz madaniyatning o‘zi ham mavjud bo‘lishi mumkin emas, deb yozgan edi P.Florenskiy. Darhaqiqat, e’tiqodsiz inson ongi ham bo‘lishi mumkin emas, mazmun va axloq ham bo‘lmaydi, umuman inson hayotining ma’nosi ham bo‘lishi mumkin emas.

E’tiqod dunyoqarash va gnoseologiya nuqtai nazar jihatidan zarur hisoblanadi. Chunki inson bilimi har doim ham barcha narsalarni, hodisalarni tushuntirish uchun yetarli bo‘lmaydi. E’tiqod esa uni o‘rnini to‘ldira olish qobilyatiga ega. E’tiqodsiz dunyoqarash mukammal bo‘lolmaydi yoki zamonaviy “ma’rifatparvar” inson har xil xurofotlarga taslim bo‘ladi. Shu ma’noda, ular ta’kidlaganidek, dahriylik mumkin emas, chunki inson ishongan narsa u uchun har doim mutlaq bo‘lib harakat qiladi” [4,75]. Kim uchundir u Xudo, yana kim uchundir u materiya deb atashimiz mumkin. Tarixdan guvohi bo‘lganmizki, insonlar ma’lum bir idealni ham, ma’lum bir ijtimoiy tizimni ham ilohiylashtirib, unga e’tiqod qilgan. Hech bir insonni kimgadir majburlab ibodat qildirib bo‘lmaydi, chunki bunda uning ishonchi, e’tiqodi yetakchilik qiladi. “Har kim o‘z “xudo”sini tanlaydi va unga sig‘inadi. Transsendent tamoyilga ishonish butparastlikning barcha turlarini yo‘q qiladi, chunki hech qanday yakuniy narsa topinishga loyiq emas, aynan shu e’tiqod barcha dunyo dinlari va tegishli falsafaning asosini tashkil qiladi. Darhaqiqat, xurofotdan farqli ravishda, e’tiqod spekulyativdir. U nimagadir “qarshi” bo‘lmaydi, balki o‘ta ilmiy bo‘lib, fanni o‘z ichiga olishi mumkin, biroq uni inkor etmaydi” [4,76]. E’tiqod erkinlik tarafdori va shuning uchun insonning javobgarligini ham e’tirof etadi, ya’ni bunda insonning axloqiy tabiatini ham belgilaydi. Xurofotlar esa ko‘p hollarda ilmga qarshi chiqib, ilmiy dalillarga mos kelmaydi, insonning erkinligini yo‘q qilishga intiladi, ya’ni uni tashqi kuchlarga qaram qiladi. E’tiqod falsafiy mushohada bilan to‘qnash keladi. Aql va bilim esa hayotning ma’nosini izlab, topishga intiladi. Bu ruhiy bilimning bevosita asosiy va barqaror usullaridan biri sanaladi.

Inson ruhiy mavjudligini nazarda tutuvchi e’tiqod va bilim, ma’naviyat va axloq bugungi zamonaviy jamiyatda inson qiyofasini kafolatlaydi. Ma’lumki, din sifatida islom o‘zining tarqalishining boshidanoq shaxsning har tomonlama takomillashuvi va jamiyatning zamonaviy sharoitlarga moslashishi jarayoni mumkin bo‘lgan muhitni shakllantirishga da’vat etgan. Xususan, islom falsafasida targ‘ib etilgan “Komil inson”, “Ideal jamiyat” tushunchalari shundan dalolat beradiki, nafaqat islom falsafasida, balki islom dini mohiyatida ham har tomonlama mukammallik yetakchilik qiladi. Insonlarni uzlatga chekinishlariga

emas, ularni jamiyaning bir bo‘lagi sifatida u bilan hamnafas yashab, o‘zini va yashab turgan jamiyati ravnaqiga chorlangan.

Insonning mohiyati haqida fikr bildirish borliq va shaxs o‘rtasidagi munosabat masalasini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi. Bunda inson borlig‘iga ekzistensial yondashuv muhim sanaladi. Diniylik va dunyoviylik mutanosibligi nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy to‘qnashuvlarning oldini olishda dolzarb sanaladi. U o‘tmishdan zamonaviy dunyoga ko‘chishi davomida turli xil qarashlar, turli xil tendensiyalarni, turli xil yondashuvlarni ko‘rib o‘tdi. Din, e’tiqod hamda aql, bilimning aloqadorligi masalasi tarixdan, shuningdek, bugungi globallashuv jarayonlarida o‘zining dolzarbligi bilan muhim hisoblangan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bunda har bir shaxsning o‘z pozitsiyasi mavjud bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, millatlararo va dinlararo o‘zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, tanlangan dunyoviy demokratik taraqqiyot yo‘limizning bardavomligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sharq faylasuflari o‘z asarlarida insonlarni e’tiqodi jihatidan darajalarga ajratib, bu ularning aqli, bilimi bilan bog‘liqligini aytib o‘tadilar. Ular insonlarning diniy mutaassibligi insoniyat sivilizatsiyasining keyingi rivojini to‘xtashiga olib kelishidan qayg‘uradilar. Biroq mutaassiblik emas, aynan din jamiyat taraqqiyotining muhim tarixiy asoslaridan biri bo‘lib qoladi. Chunki u ekzistensial mohiyatga ega bo‘lib, e’tiqod qiluvchilarga haqiqatni ochib berishga harakat qiladi. Bir tarafdan din o‘z metodlariga asoslanib haqiqatga intilsa, ikkinchi tarafdan ilm-fan o‘z metodlariga asoslanib, haqiqat tomon harakat qiladi. Bugungi kunda insoniyatning oldida turgan dolzarb masalalardan biri ham shu ikki soha metodlarining o‘ziga xosligini, alohidaligini hisobga olib, uyg‘unligiga erishishdir.

“Din abadiy va haqiqiy dunyo sifatida g‘ayritabiiy dunyoni e’tirof etadi va insonning real dunyodagi hayotini abadiy dunyoga o‘tish yo‘lida bir vosita deb o‘rgatadi. Dunyoviylik esa obyekt sifatida moddiy olamni o‘rganish va o‘zgartirishga harakat qiladi. Ammo diniylik va dunyoviylik tushunchalarini bir-biriga qarshi qo‘yish emas, balki bir-birini taqozo qiluvchi jarayon sifatida o‘rganish lozim. Buning uchun ushbu tushunchalarning mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilish ularning konsensusga erishishini ta’minlaydi. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni va demokratik taraqqiyotni ta’minlashning metodologik asosi dunyoviylikdir. Dunyoviylik dahriylik emas, ayni vaqtda diniylik ham emas. U o‘z ichiga tolerantlikni qamrab olgan bo‘lib qarama-qarshi tomonlarning yakdillikka erishishi uchun zamin yaratadi”[5,650].

Turli mahalliy, etnik va diniy madaniyatlar ta’sirida sodir bo‘layotgan ijtimoiy tizimlarning kuzatilayotgan faol o‘zgarishlari bugungi kunda jahondagi vaziyatni tushunishning yangi darajasini talab qiladi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy

salohiyatini shakllantirish va saqlashga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri diniy madaniyatdir. Diniy e’tiqodlar shaxsning ichki o‘zini-o‘zi rivojlantirishining asosi sifatida uning ichki dunyosini boshqarishga, ijtimoiy aloqalarni shakllantirishga yordam beradi.

“Inson ongining chegaralanganligi, uning doimiy to‘liq emasligi uning turli ko‘rinishlarida, jumladan, dinda ham e’tiqod imkoniyatini yaratadi. Insoniyat bilimi taraqqiyotining butun tarixi aql kuchining taraqqiyoti va ortib borishi, uning jamiyat hayotidagi rolidan dalolat beradi. Dinamik rivojlanayotgan ilm-fan ko‘r-ko‘rona e’tiqodni ham ontologik, ham gnoseologik jihatdan doimiy ravishda orqaga suradi va chetga chiqarib yuboradi... E’tiqod bilim olishning zaruriy shartidir. Toki e’tiqod bor ekan, shu paytgacha insonda dunyoni va o‘zini bilish istagi bo‘ladi. Inson bilimi bor ekan, e’tiqod ham unga hamroh bo‘ladi. Chunki e’tiqod ilmga intilishda namoyon bo‘ladi va fanning ijobiy natijalarida amalga oshadi” [3,566]. Din ham, falsafa ham e’tiqodga asoslanar ekan bunday jamiyatda barqarorlik, taraqqiyot vujudga keladi.

O‘zbekiston xalqining milliy ongining nazariy, konseptual asoslaridan biri bu din, ya’ni islom dini hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismi islom diniga e’tiqod qilganligi, yillar davomida bu din xalqning qon-qoniga singib ketganligi sababli yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalashda ham islom dini, e’tiqodi yetakchilik qiladi. Din serqirra va sermazmun ijtimoiy hodisa bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham e’tiqod, ham axloq va ham huquq bo‘lgan qadriyat sanaladi. Shu bilan birga bugungi globallashuv jarayonida O‘zbekiston yoshlarining hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ularning aql-zakovati, bilimi mustahkamligi zarur hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shuvchi barkamol shaxsni tarbiyalashda zarur bo‘lgan ma’naviy va axloqiy fazilatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Zero, ma’naviy tarbiyaning zamini bilim bo‘lib, bilim borliqni ideal obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday tarbiya ham din asosida, ham ilm-fan asosida olinadi. Huddi shunday, har qanday ta’lim ham ilm-fan, ham din asosida egallanadi. Bunda din ko‘proq tarbiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazsa, ilm-fan ta’limga ta’sir etadi. Bu ikki soha parallel olib borilsagina natijaga erishish oson va ishonchli bo‘ladi. Diniylik va dunyoviylik uyg‘unligini chuqurroq anglash uchun albatta uning falsafiy jihatlarini anglash zarur bo‘ladi. Aks holda, bugungi shiddatli zamonda diniy aqidaparastlar, diniy fundamentalistlar, ekstremistlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lish hech gap emas.

Demak, O‘zbekistonda davlat, jamiyat va din munosabatini belgilab beruvchi asosiy tamoyillardan birining mazmuni din sohasidagi o‘zgarishlarni xolis va ilmiy o‘rganish natijasida ijobiy jarayonlarga kengroq imkoniyat yaratish, bu yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olishda namoyon bo‘ladi. Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil

shundan iboratki, davlat dinni xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. “Yurtimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o‘ynamoqda” [1,465]. Bu Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha eng muhim vazifalarda belgilab berilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon, xatto bugungi kunda ma’lum bir kuchlar dunyoviy davlat o‘rniga shariat qonunlariga asoslangan diniy davlat – xalifalikni tiklashga, jamiyatning nafaqat siyosiy sohasini, balki barcha sohasini din asosida boshqarishga, diniy fundamentalizmga da’vat qildilar. Albatta, bunday kuchlar xavfiga qarshi kurash uchun O‘zbekiston yoshlariga, umuman barcha fuqarolariga diniy-ma’rifiy bilim berish zaruriyati ilmiy-nazariy, epistemologik jihatdan dalillanishi kerak. Falsafiy yondashuvgina bunday chigalli, murakkab jarayonlarning mohiyatini topishga ko‘maklashadi. Xususan, bugungi kundagi din niqobini kiygan turli oqimlar o‘z-o‘zidan vujudga kelmagan. Ular ma’lum bir siyosiy maqsadlarning sababiy bog‘lanishlarning oqibatidir. Biroq, O‘zbekiston bugun o‘z yo‘lini, maqsadini tanlab bo‘lgan – diniy ma’rifat va dunyoviylik bilan demokratik davlatda barqaror munosabatni yaratishdir. Diniylik va dunyoviylik munosabatlarida ratsional muvozanatni saqlashda o‘zaro ziddiyatlarga imkon berish kerak emas. Dunyoning turli mintaqalarida keskinlik va radikalizm kuchayib, din niqobidagi ekstremizm va terrorizm tobora avj olib borayotgan hozirgi vaqtda ushbu salbiy tendensiyaning falsafiy-gnoseologik jihatlarini tahlil qilish, o‘rganish, uni ma’rifat sari yo‘naltirishni kuchaytirish lozim, deb hisoblaymiz. Diniylik va dunyoviylik uyg‘unligida jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ichki ziddiyatlar faqat ma’rifiy usulda hal qilinishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda, “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ta’lim-tarbiya hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada takomillashtirish kerak, deb o‘ylaymiz.

Bugungi texnika texnologiya rivojlangan davrda din va falsafa, e’tiqod va aql, imon va bilim o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan yiroqlashib, bu ikki dunyoqarashni yaqinlashtirib tinch-totuv yashashni asosiy maqsad qilib olish zarur bo‘ladi. Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimizda ilm, aql-zakovat hamda insonlarning qadriyatiga aylangan islom dini uyg‘unligiga murojaat qilinmoqda. Diniylik va dunyoviylik mutanosibligida o‘z diniga e’tiqod qilgan holda globallashuv jarayonlariga o‘z aql-zakovati bilan kirib bora olish tushunilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Жилд 1. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017.

2. Ikramova I.R. Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy dunyoqarashida e'tiqod va aql uyg'unligi g'oyasining ahamiyati//Tamaddun nuri jurnali, *6*(69), 9-11.

3. Иззетова Э.М. Модели соотношения веры, разума и знания в контексте философского дискурса: Восток – Запад// Oriental Renessance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences // 2021 ISSN: 2181-1784 Vol 1, Issue 4. – Toshkent, 2021.

4. Нижников С. А. Вера и знание: проблемы онтологии и гносеологии в историко-философском контексте // Социум и власть. – М., 2018. № 2 (70).

5. Саифназаров И., Дониёров Х. Ўзбекистонда дунёвийлик ҳамда динийлик мувозанатини таъминлашнинг асосий шарт ва омиллари// Янги Ўзбекистон: барқарор ривожланишнинг ижтимоий-фалсафий, иқтисодий-сиёсий ва ҳуқуқий масалалари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022.

SHARQ VA G'ARB KONSEPSIYALARIDA SIYOSAT FALSAFASINI ANGLASH

Dilbar Ruzmetova
Alfraganus universiteti,
Ijtimoiy fanlar "kafedrasi professori v.b.,
Izzatbek Habibjonov
Alfraganus universiteti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq yo'nalishi talabasi
izzatbekhabibjonov22@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq va G‘arb siyosiy tafakkuri konsepsiyalarida siyosat falsafasini anglash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining falsafiy-siyosiy mazmuni, inson qadri va fuqarolik jamiyati g‘oyalari bilan uyg‘unligi ochib berilgan. Maqolada Sharqona ma’naviy qadriyatlar va G‘arbona liberal-demokratik tamoyillar sintezi orqali shakllanayotgan yangi siyosiy model “inson qadri ustuvor jamiyat” konsepsiyasi falsafiy tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosat falsafasi zamonaviy O‘zbekiston sharoitida davlat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik tizimi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Siyosat falsafasi, Sharq va G‘arb konsepsiyalari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, inson qadri, fuqarolik jamiyati, sinergetik yondashuv, demokratik islohotlar.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема понимания философии политики в концепциях восточной и западной политической мысли. В исследовании раскрывается философско-политическое содержание стратегии «Узбекистан – 2030», реализуемой под руководством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, а также её взаимосвязь с идеями ценности человека и гражданского общества. В статье проводится философский анализ концепции «общества, где человеческое достоинство является приоритетом», формирующейся на основе синтеза восточных духовных ценностей и западных либерально-демократических принципов. Кроме того, философия политики рассматривается как система гармонии между государством и обществом в условиях современного Узбекистана.

Ключевые слова: философия политики, восточные и западные концепции, стратегия «Узбекистан – 2030», ценность человека, гражданское общество, синергетический подход, демократические реформы.

Annotation: This article analyzes the philosophical comprehension of politics in the concepts of Eastern and Western political thought. The research highlights the philosophical and political essence of the “Uzbekistan – 2030” Strategy implemented under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, emphasizing its harmony with the ideas of human dignity and civil society. The paper explores the synthesis of Eastern spiritual values and Western liberal-democratic principles, forming a new political model — the concept of a “human-centered society.” Furthermore, political philosophy in modern Uzbekistan is interpreted as a system ensuring harmony between the state and society.

Keywords: Political philosophy, Eastern and Western concepts, “Uzbekistan – 2030” Strategy, human dignity, civil society, synergetic approach, democratic reforms

Bugun O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida qabul qilingan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** [1] yurtimizning barcha sohalarini qamrab olgan chuqur islohotlarning uzviy davomi bo‘lib, inson qadri, jamiyat farovonligi va milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bugungi islohotlarimizning markazida inson va uning manfaatlari turishi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi yurtimiz taraqqiyotining bosh mezoniga aylandi.

Mamlakatimiz global o‘zgarishlar, raqobat va yangicha yondashuvlar talab qilayotgan bugungi davrda, huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish sari dadil qadam tashlamoqda. Bu jarayonda **siyosat falsafasi** inson dunyoqarashini shakllantirish, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim poydevoriga aylanmoqda. Siyosiy falsafa antik davrdan to bugungacha siyosiy hokimiyat mohiyati, davlatning jamiyatdagi roli, adolat va ijtimoiy barqarorlik kabi fundamental muammolarni o‘rganib kelmoqda. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotidagi burilish nuqtalarida siyosiy falsafa yangi davrning realliklarini teran anglashga yo‘l ochadi.

Demokratik jamiyat barpo etish uchun hozirgi zamonning siyosiy falsafiy oqimlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, demokratik jamiyat qurilishi jarayonida an’analarni, urf odatlarni inobatga olish lozim. Siyosiy – falsafiy oqim deganda siyosatni, uning kechishini anglash va idrok etishning o‘ziga xos mantiiqiy tuzilmasini nazarda tutamiz.

Siyosat borlig‘i ob’ektiv va sub’ektiv ko‘rinishlarga ega. Uning ob’ektiv ko‘rinishi siyosat o‘zining mantig‘iga egaligi bilan belgilanadi: misol uchun, hokimiyatga intilish, siyosatda konflikt va konsensus, va hokazolar. Siyosatning

sub’ektiv ko‘rinishi insonlarning siyosatga yoki ayrim siyosiy jarayonlarga munosabatlarida ifodalanadi. Shuning uchun siyosatda hilma-xil oqimlar mavjud.

Hozirgi kunning siyosiy jarayonlariga sezilarli ta’sir o‘tkazayotgan oqimlardan biz liberalizm, konservatizm va sotsial - demokratiyani aytib o‘tishimiz mumkin. Mazkur siyosiy-falsafiy oqimlar nafaqat siyosiy mafkura sifatida, balki davlatlarning, siyosiy partiyalarning strategiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuni aytib o‘tish joizki, mazkur oqimlar bir-biridan ajralib turishi bilan birga, o‘z ichida ham farqlanadi.

Hozirgi kunda eng ko‘zga ko‘ringan oqimlardan biri liberalizm hisoblanadi. Liberalizmning asosiy tamoyillaridan:

- inson qadri;
- har bir inson o‘z faoliyatiuchun javobgarligi;
- xususiy mulkka egalik;
- erkin bozor va erkin raqobat mavjudligi;
- imkoniyatlar tengligi;
- hokimiyatlar bo‘linishi va boshqalarni ta’kidlash joiz, deb hisoblaymiz.

Liberalizm tarixan tez sur’atda o‘zgaradigan siyosiy-falsafiy oqim sifatida namoyon bo‘lgan. Unga jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlar o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Liberalizm xilma-xil tizimlarda shakllangan. Shuning uchun ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda mazkur oqim xilma-xil ko‘rinishga ega. Ushbu omilni inobatga olgan holda olimlar liberalizmning turli xil ko‘rinishlarini ajratishadi. O‘zining xilma-xilligiga qaramasdan liberalizmning universal tamoyillari mavjud. Shunga ko‘ra liberalizm mustaqil siyosiy-falsafiy oqim sifatida namoyon bo‘ladi. Liberalizmning vujudga kelishi Renessans va Yangi davrga borib taqaladi. Liberalizmning asoschilari sifatida J. Lokk, Sh.Lui Monteske, T.Jefferson, A.Smit va boshqa olimlarni e’tirof etish lozim. XIX asrda mazkur g‘oyalar rivojlantirilgan va davom ettirilgan. Mazkur jarayonga J.Grin, R.Xatxavus va boshqa olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Liberalizmning vujudga kelishiga Angliyadagi 1641-1643 yillardagi inqilob, AQShdagi 1776-1783 yillardagi mustaqillik uchun kurash, Fransiyadagi 1789-1793 yillarda bo‘lib o‘tgan inqilob va boshqa muhim tarixiy voqealar sabab bo‘lgan. 1776 yil 4 iyul kuni tasdiqlangan AQShning Mustaqillik Deklaratsiyasi liberalizmni amalda qo‘llanilishini ta’minlaydigan birinchi hujjat bo‘lgan. Unda yozilishicha, har bir inson o‘zining ajralmas huquqlariga, ya’ni yashash huquqiga, o‘z fikrini erkin bayon etish huquqiga va baxtga intilish huquqiga ega. Chunki, insonlarni xudo teng qilib yaratgan. Liberalizmning qaror topishi va rivojiga katta hissa qo‘shgan tarixiy voqealardan biri – Buyuk Fransuz inqilobi, xususan, ushbu inqilob jarayonida vujudga kelgan, asosiy hujjatlardan biri “Inson va fuqarolar

Deklaratsiyasi” hisoblanadi. Uning ta’siri ostida mumtoz liberalizmning g‘oyalari shakllangan. Mazkur hujjatning 2-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan har bir siyosiy tashkilotni tuzish insonlarning ajralmas huquqlari hisoblanadi[2,89].

Zamonaviy liberalizmning yana bir turi – Fransuz politologi D.Varru tomonidan yaratilgan institutsionallashgan liberalizm hisoblanadi. Uning fikricha, iqtisodiyot-siyosatning imperativi hisoblanadi va siyosat samaradorligi iqtisodiyotda erishilgan yutuqlar bilan o‘lchanadi. D.Varruning ta’kidlashicha, liberalizm iqtisodiy masalalar bilan cheklanib qolmaydi, balki unga huquqiy va siyosiy masalalar o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, shaxsning suverenitet ikkita holat bilan o‘lchanishi lozim: birinchisi, individualizm institutsionallashgan bo‘lishi kerak; ikkinchisi, har bir shaxs jamiyat oldida mas’ul bo‘lishi kerak.

Dj.Varruning fikriga ko‘ra, davlat fuqarolik jamiyati bilan o‘z munosabatlarini avtonom holatda olib borishi lozim. Biznes ijtimoiy vazifalarni bajarishi, davlatda esa poliakratiya mavjud bo‘lishi kerak. Unga ko‘ra, minimallashgan davlat maksimal huquqni olib keladi[3,100].

E.Berkning fikricha, insonlar o‘zining hayotini o‘zgartirishi jarayonida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi. Insonlar tabiat qonunlariga mos ravishda hayot kechirishlari lozim. Faylasufning fikricha, liberalizm taqdim etayotgan erkinlik haqiqiy va tabiiy erkinlik hisoblanmaydi, balki haqiqiy va tabiiy erkinlik inglizlarning an’analarida mujassam. Bu paytdan boshlab konservatizmning mumtoz an’analari paydo bo‘ldi. Konservatizmning liberalizmdan farqi shundaki, ushbu g‘oya jamiyatni tuzum shaklida ko‘radi va individualizmga qarshi chiqadi. A.Dyuvonal fikricha, hokimiyat xudoning irodasi sifatida hosil bo‘lgan, u jamiyatni tirik mavjudot sifatida ta’riflaydi. J.J.Russo va I.Kantning “jamiyat inson uchun” degan fikrlariga qarshi L.Dyuvonal “inson jamiyat uchun” degan g‘oyani ilgari suradi. L.Dyuvonal shunday yozadi: “Men o‘zimning asarlarimda individualizmga qarshi chiqdim va ijtimoiy insonni yaratishga harakat qildim”[3,104].

Xulosa: Sharq va G‘arb siyosiy falsafalarining o‘zaro ta’siri natijasida O‘zbekiston bugungi kunda o‘ziga xos gumanistik-siyosiy modelni yaratmoqda. Bu modelda G‘arbning institutsional erkinlik tamoyillari Sharqning ma’naviy qadriyatlari bilan uyg‘unlashadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ana shu uyg‘unlikning siyosiy-falsafiy ifodasidir: unda inson qadri, adolat va barqarorlik asosiy o‘lchovga aylangan. Shu jihatdan, O‘zbekiston tajribasi Sharqona donishmandlik va G‘arbona modernizatsiya sinteziga asoslangan yangi siyosiy uyg‘unlik paradigmasi sifatida tarixda o‘z o‘rnini topmoqda.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2023-йил 11 сентябрда PF-158 сонли фармони
2. К.С.Гаджиев.Политическая философия.М.:1994. 89- бет
3. К.С.Гаджиев.Политическая философия.М.:1994. 100- бет
4. Ramatov, J.,. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1974-1980.
5. Ramatov, J., (2021). Central Asia in Ix-xii Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(04), 148-151.
6. Ramatov, J.,. (2022). THE PROCESS OF CIVILIZATION AND IMPORTANT CHANGES IN LIFE. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 243-246.
7. Ramatov, J.,. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p.
8. Ramatov, J., (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 591-597.

QADIMGI SHARQ FALSAFASI TAFAKKURIDA “DAVR” (SIKL) TUSHUNCHASINING NAMOYON BO’LISH XUSUSIYATLARI

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz tarix falsafasidagi muhim tushunchalardan biri bo‘lgan “davr” (sikl) tushunchasini falsafiy mohiyatini ochib berish hamda qadimgi Sharq falsafiy kafakkuridagi uning ifodasini aniqlashga bag‘ishlangan. Jumladan, qadimgi Sharqdagi silivizatsiyalar bo‘lmish Misr, Mesopotamiya, Hindiston va O‘rta Osiyodagi yozma yodgorliklar, shuningdek, qadimgi Xitoy faylasuflaridan Konfutsiy va Lao-szilarning falsafiy ta’limotlaridagi “davr” tushunchasiga oid falsafiy qarashlari qiyosiy tahlil etish asnosida ushbu tushunchaning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kishilik jamiyati, tarixiy taraqqiyot, sivilizatsiya, tamaddun, “davr”, sikl, taraqqiyot qonunlari, “davr” bosqichlari, tug‘ilish, rivojlanish, turg‘unlik, tanazzul.

Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti masalasi ko‘plab olimlar, mutafakkirlar va faylasuflar tomonidan tadqiq etilgan hamda har biri ushbu masala bo‘yicha o‘zining ilmiy xulosalarini berib o‘tgan. Buning oqibatida insonlar yashaydigan jamiyat hayoti murakkablashib, takomillashib borib bugungi zamonaviy jamiyatlarga aylangan. Albatta, jamiyat nima degan savol bugungi insonlar uchun oddiy savolga aylangan, lekin shu jamiyatni takomillashib, rivojlanib borishiga nimalar yoki qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi degan savol ijtimoiy fanlar oldidagi muhim masala hisoblanadi. Aynan insonlar yashab, faoliyat olib boradigan jamiyat hayoti qaysi omillar asosida rivojlanishini aniqlab olish, shuningdek, jamiyat turlari, turli sohalar va insonlarga beradigan imkoniyat nuqtai nazaridan bir biridan farq qilganligi sababli ularni tahlil etish, farqli tomonlarining sabablarini aniqlab olish, fuqarolar uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradigan tarixdagi jamiyatlarga nisbatan rivojlangan jamiyatni yaratish va bu orqali insoniyat kelajagini farovonlashtirish mumkinligi ushbu sohani tadqiq etish dorzarb masala ekanligini asoslaydi.

Bugungi ilmiy jamoatchilikni qiziqtirgan yana bir muhim masala zamonaviy jamiyatlarning bir biridan farq qilishi, insonlarga yaratadigan imkoniyatlarning yoki umuman taraqqiyotning, rivojlanishning turlicha ekanligidir. Bu boradagi tadqiqotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan davlat boshqaruvining xususiyatlari, iqtisodiy rivojlanish, boshqa mamlakatlar bilan do‘stona aloqa va aholining huquqiy va boshqa sohalarda faolligi kabi bir qancha omillarga e’tibor qaratiladi. Xususan, insoniyat jamiyatlarini umumiy rivojlanishini tahlil qilgan olimlardan Daron Ajemo’g’li va Jeyms A. Robinson o‘zlarining “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, Farovonlik va kambag‘allik manbalari” nomli kitobida shunday fikrlarni bildiradi: “Inklyuziv iqtisodiy institutlar nafaqat odamlarga o‘z qobiliyatlariga eng to‘g‘ri keladigan hunar bilan shug‘ullanishga imkon beruvchi, balki barchaga o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lish uchun bir xil sharoit yaratuvchi inklyuziv bozorlarni yuzaga keltiradi. Yangi g‘oya egalari o‘z beznislarini boshlashi mumkin bo‘lsa, ishchilar samaradorroq ishlar bilan shug‘ullanishi, foydasi kamroq firmalar raqobatbardoshlari bilan almashtirilishi mumkin bo‘ladi.”[1] Bu yuqoridagi omillar bizning fikrimizcha asosiy omillar emas. Demak, kishilik jamiyati taraqqiyotida davlat boshqaruvi usul va vositalari, iqtisodiy rivojlanish, va boshqa yuqorida ko’rsatilgan omillar asosiy omil emas ekan, unda qanday omillar kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotini belgilab beradi? Bizning fikrimizcha bu omillarni jamiyat joylashgan geografik muhitdan izlash lozim. Chunki, har bir jamiyat ma’lum bir geografik sharoitda paydo bo‘ladi. Ushbu geografik sharoit o‘ziga xos ishlab chiqarish usulini yaratadi va ushbu ishlab chiqarish usuli sivilizatsiya taraqqiyoti yo‘nalishini va darajasini belgilab

beradi. Bu haqda bir qancha olimlar to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, E.Fromm, K.Vittfogel, E.Kulpin kabi olimlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, tamadduniy yondashuv namoyondalarining fikricha ba’zi jamiyatlar rivojlanib borishi takroriy “davr” (sikl) ko‘rinishida amalga oshib boradi. Mazkur fikrlardan kelib chiqib geografik jihatdan Sharq jamiyatlari iqlimi issiq va quruq bo‘lganligi sababli sun’iy sug‘orishga asoslangan ishlab chiqarish usulini taqozo qiladi va bu sun’iy ishlab chiqarishga asoslangan jamiyatlarning tarixiy taraqqiyoti “davriy” ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu fikr albatta shaxsiy xulosalar. Bu xulosalarimizni aniqlashtirib olishimiz uchun albatta tarixda o‘tgan ko‘plab olimlar, mutafakkirlar, faylasuflar ijodiga murojaat qilish va ularning fikrlari bilan ushbu yuqoridagi tezisni solishtirib ko‘rish, tarixiy dalillarni falsafiy tahlildan o‘tkazish kerak bo‘ladi. Bu masala bilan quyida tanishamiz.

Shu o‘rinda “davr” tushunchasini mazmunini aniqlash va “davr” haqidagi yoki umuman kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti haqidagi qarashlar, ta’limot va nazariyalarni falsafiy mushohadan o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Davr” tushunchasi o‘zbek tilidagi mavjud ilmiy adabiyotlarda qo‘llanilmaydi. Bu tushuncha asosan sikl tushunchasi orqali ifodalanadi, lekin sikl haqidagi ma’lumotlarni kam uchratasiz. Siklizm nazariyasiga ko‘ra ma’lum jamiyatlar takrorlanuvchi siklik harakterga ega. Biz mazkur sikl tushunchasini o‘zbek tilidagi “davr” tushunchasi orqali ifodalashni mumkin. Shunga ko’ra sikl va “davr” tushunchalari bir ma’noga ega deyish mumkin. Sikl (yun. kyklos — doyra) ma’lum vaqt ichida takrorlanib turadigan hodisa, jarayon va boshqalarning har bir davrasi (mas, yillik sikl).[2] Ushbu tushunchani siklizm namoyondalaridan E.Kulpin sikl tushunchasini “sotsio-tabiiy tarix” yo’nalishi sifatida tahlil qilgan. Masalan u “tarixiy siklni” — jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, resurslar va muhit sharoitlari orqali harakatlanadigan jarayon sifatida ko‘rib, “tarixiy siklning tanazzul bosqichlari”ni aniqlashga harakat qilgan.[3]

“Davriylik” nazariyasi namoyondalaridan yana biri bo’lgan A.Toyinbi “Davr” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi. “Sivilizatsiyalar tug‘iladi, o‘sadi, qariydi va o‘ladi – bu jarayon tabiiy, chunki ular doimiy ravishda sinovlarga duch keladi. Muammolarga javob bera olgan sivilizatsiya yashaydi, javob bera olmagani esa yo‘qoladi.”[4] A.Toynbining fikri bo‘yicha “davr” doimiy takrorlanuvchi sivilizatsiyadir. Bu yerda asosiy e’tibor muallif fikricha jamiyatning yuqori qatlami bo‘lgan elitadir. Elita jamiyat oldidagi mavjud muammolarga ijobiy yondashuvi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Jamiyat oldidagi muammolarni hal qilishga urinmaslik, elita tomonidan faqat o‘z manfaatlarini o‘ylashlik jamiyatni yoki A.Toyinbi ta’biri bilan aytganda sivilizatsiyaning tanazzuliga olib keladi. “Har bir sivilizatsiyaning yuragi – ijodiy elita. Agar elita jamiyat muammolarini yechishda muvaffaqiyatli bo‘lsa, sivilizatsiya o‘sadi. Agar

elita faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi.”[5] Lekin A.Toyinbi aynan kishilik jamiyatining rivojlanish omili bo’lgan elita “davr”ning turg’unlik bosqichiga kelib nima sababdan avvalgi rivojlanish bosqichidagi kabi jamiyat manfaatlarini o‘ylamay faqat o‘z manfaatlarini o‘ylashga o‘tib qolishining sabablariga to‘xtalmaydi va e’tiborsiz qoldiradi. Bizning tadqiqotimiz ham aynan shu masalani yechishga qaratilgandir.

Davr haqida tarixda ko’plab olimlar fikr yuritgan. Bu fikrlar tarixini ko‘zdan kechirish esa bizga ushbu tushuncha haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli ham tadqiqotimizda kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlariga e’tibor qaratgan olimlar ijodiga to‘liqroq to‘xtalishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Qadimgi Misrdagi kishilik jamiyati rivojlanish qonunlari haqidagi qarashlar qadimiy diniy-falsafiy dunyoqarash, kosmik tartib (Ma’at), hukmronlik ideologiyasi va ijtimoiy tuzilma bilan uzviy bog‘langan. Misrliklar jamiyat rivojlanishini tabiiy va ilohiy tartibning bir qismi sifatida tasavvur qilganlar. Ushbu jarayonni misrliklar kosmik tartib va Ma’at (mabuda nomi – ma’nosi adolat, muvozanat) qonuni orqali tushuntiradi. Ma’at — adolat, haqiqat, muvozanat va kosmik tartibni ifodalovchi tushuncha. Misrliklar Ma’atni butun jamiyat rivojlanishining asosiy qonuni deb bilgan. Qadimgi Misrdagi jamiyatni bosqichma-bosqich rivojlanish deb tushunish ilohiy tartib tushunchasi orqali ifodalanadi. Qadimgi Misr tarixiga e’tibor qaratsak, ketma-ket keluvchi bir nechta sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishi va tanazzulga uchrashi orqali sodir bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz. Bular:

- Eski Shohlik (m.a. 27–22 asrlar) – piramidalar davri. Markazlashgan davlat va fir’avnning ilohiy hokimiyati jamiyatning bosh qonuni hisoblangan.

- O‘rta Shohlik (m.a. 21–17 asrlar) – ijtimoiy barqarorlik, boshqaruv tizimi va ma’muriy qonunlar mustahkamlangan.

- Yangi Shohlik (m.a. 16–11 asrlar) – harbiy kuch, savdo va xalqaro aloqalar rivojlangan, jamiyatning qonuniy tartibi mustahkam bo‘lgan.

Bu bosqichlar “ilohiy reja”ning namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilingan. Fir’avn Ma’at ya’ni adolatni saqlovchi shaxs sifatida qaralgan. Agar Ma’at buzilsa, bu davlat va jamiyatning tanazzuliga olib keladi deb hisoblangan. Xususan, qadimgi Misr adabiyoti hisoblanadigan Ptahhotepning hikmatlarida jamiyat rivojlanishida axloq, tartib va adolatning rolini asoslab bergan. Umuman qadimgi Misr sivilizatsiyasining xulosalariga ko‘ra kishilik jamiyati ikki asosda rivojlanadi. Bular:

1. Insonlarga bog‘liq bo‘lmagan ilohiy tartibning namoyon bo‘lishi:
2. Insonlar tomonidan o‘rnatilgan jamiyatdagi adolatli tartibning bo‘lishi.

Shu ikki asosning buzilishi esa kishilik jamiyatning tanazzuliga olib keladi deb hisoblashgan. Masalan, “Marhumlar kitobi” (125-bob): “Men adolatni buzmadim, men yovuzlik qilmadim…” – bu ogohlantirishlar jamiyat tanazzulining axloqiy sabablari borligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari qadimgi Misrning yozma manbalaridan biri bo‘lgan Ipuver Papirusi matnining 8:1–2 bandlarida quyidagi so‘zlar mavjud. “Boylar endi kambag‘al bo‘ldi, kambag‘allar esa boylikka ega bo‘ldi. Oltin va lapis-lazuli (ko‘k tosh) oddiy ko‘chalarda yotadi, uni terib oladigan odam yo‘q.”[6]

Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasida ham kishilik jamiyati taraqqiyotining omillari haqida ba’zi fikrlarni uchratish mumkin. Ularning fikricha jamiyat taraqqiyoti — xudolarga itoat qilish va ularning buyruqlariga amal qilish bilan bog‘langan. Masalan, Xammurapi tosh lavhasining kirish qismi shohning adolat xudosi Shamash tomonidan tayinlanganini bayon qiladi. Qadimgi Mesopotamiya jamiyatida taraqqiyotning asosiy qonunlari adolat, huquq, xudolar irodasi, shoh hokimiyatining mustahkamligi va iqtisodiy faoliyat orqali belgilangan. Qonunlar va diniy qarashlar jamiyatni tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi asosiy mexanizm bo‘lgan. Xususan, Xammurapi qonunlarida jamiyat rivojlanishi omillari sifatida adolat, huquqiy tartib, ijtimoiy tenglik (tabaqalar o‘rtasidagi tartib), iqtisodiy faoliyat va oilaviy munosabatlarning barqarorligi orqali yoritiladi. Bu qonunlar jamiyatning ijtimoiy va huquqiy asoslarini belgilagan bo‘lib, jamiyatning mustahkamligi va rivoji uchun poydevor hisoblangan. Jumladan, Xammurapi qonunlarining kirish qismida “Men, Xammurapi, buyuk shoh, adolatni qaror toptirish va yovuzlarni yo‘qotish uchun, kuchsizlarni kuchlilar zulmidan himoya qilish uchun bu qonunlarni yozdirib qoldirdim, toki mamlakatda adolat o‘rnatilsin”[7] deb yozilgan.

Qadimgi Hindistonda “davr” tushunchasi jamiyat va kosmosning chiziqli taraqqiyot emas, balki doimiy takrorlanadigan bosqichlar — yuksalish va tanazzul davrlari orqali rivojlanishini tasvirlaydi. Brahmanik-puranik an’anada bu to‘rt yuga ya’ni “davr” orqali ifodalanadi, har bir “davr” o‘ziga xos axloqiy pasayish darajasiga ega. To‘rtta yuga (davr) 1) Satya Yuga (Krita Yuga) – 1 728 000 yil davom etadi. Haqiqat va adolat to‘liq hukmron. 2) Treta Yuga – 1 296 000 yil. Bu davrda adolat ¾ qismga tushadi, lekin axloqiy qadriyatlar hanuz kuchli. Ushbu davrda Ramayana voqealari sodir bo‘lgan deb hisoblanadi. 3) Dvapara Yuga – 864 000 yil. Adolatning yarmi yo‘qoladi, axloqiy me’yorlar susayadi. Mahabharata janglari shu davrga to‘g‘ri keladi. 4) Kali Yuga – 432 000 yil. Adolatning atigi 1/4 qismi qoladi. Buzuqchilik, yolg‘on, axloqiy tanazzul, urushlar kuchayadi. Bu kabi kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotini bosqichlarga ajratish davriylik hodisasini ilk stixiyali tushunish deb hisoblash mumkin.

Buddizmda bu tushuncha samsara va kalpa (juda uzoq vaqt oralig‘ini ifodalovchi kosmik birlik) doirasida tushuntiriladi, jamiyatning axloqiy qadriyatlari pasaysa, tanazzul, urush va zo‘ravonlik kuchayadi, keyin esa tiklanish bosqichi boshlanadi. Jainizmda esa ikki ulkan yarim sikl — Utsarpiṇi (ko‘tarilish) va Avasarpiṇi (pasayish) doimiy ravishda navbatma-navbat keladi. Yuqoridagilar haqida Mahabharatada “Shunday qilib, Krita (Satya) yugasining (davrining J.M.) umumiy davomiyligi xudolarning to‘rt ming sakkiz yuz yili… Tretaning davomiyligi uch ming yil… Dvapara ikki ming yil… va Kali yuga bir ming yil… Donishmandlar aytishlaricha, ushbu o‘n ikki ming xudolik yil bir to‘liq “davr”ni tashkil etadi.”[8]

Qadimgi Xitoy tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu mamlakatda ikki buyuk mutafakkir Konfutsiy va Lao-szi ijodi muhim ahamiyatga egadir. Konfutsiy ta’limotida “davr” tushunchasi Hindistondagi kabi kosmik yuga-davrlar kabi aniq shakllanmagan bo‘lsa-da, u tarix va jamiyatni ma’naviy-axloqiy davrlar asosida talqin qiladi. Konfutsiy nazarida, insoniyat taraqqiyoti axloqiy tartib (li) va insoniy fazilatlar (ren)ga amal qilish bilan bog‘liq. Tarixiy jarayon odatda buyuk donishmand shohlar davrida uyg‘onish, keyinchalik esa axloqiy pasayish bosqichlari orqali kechadi. Shu sababli, qadimiy qadriyatlarni tiklash va o‘tgan davrlarning eng yaxshi tajribasini o‘rganish muhim deb hisoblanadi. Konfutsiy uchun davriylik — bu tarixiy takrorlanishdan ko‘ra, “fazilat tiklanishi va yo‘qolishi” o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlikdir. Shu ma’noda, jamiyat yuksalishi donishmand rahbarlar va axloqiy tamoyillarga qaytish orqali ta’minlanadi. Faylasuf davriylik masalasida o‘z asarlarida aniq ta’rif bermagan bo‘lsada lekin shunga yaqin fikrlarni ilgari suradi. Xususan, u shunday deydi: “Chou (Zhou) sulolasi avvalgi ikkita sulola – Xia va Shang – tartibini diqqat bilan kuzatdi, shuning uchun ularning madaniyati gulladi. Men endi Chou bilan birga yuraman.”[9] Bu misol Konfutsiy ijtimoiy va siyosiy tarixda davriylik modelini emas, balki tarixdan foydalanish modelini o‘ziga xos tarzda qo‘llashini ko‘rsatadi. Bu esa chiziqli emas, balki tarixiy o‘zgarishlarning davriy takrorlanishiga yaqin fikr hisoblanadi.

Lao-szi ta’limotida davriylik – bu jamiyat, tabiat va inson holatining doimiy o‘zgarishlar va tabiiy aylanishlar qonuniyatiga bo‘ysunishini anglatadi. Dao De Jing asarida dunyodagi har qanday kuch – kuchayishi bilan zaiflashishga, ko‘tarilishi bilan pasayishga, to‘lishi bilan kamayishga mahkum ekanligi aytiladi. Lao-sziga ko‘ra, bu o‘zgaruvchanlik dao (yo‘l, tartib)ning o‘zidir – hamma narsa tabiiy ritm va “davr”ga amal qiladi. Unga ko‘ra, jamiyatdagi haddan oshgan zo‘ravonlik yoki haddan ortiq tartib-intizom muvozanatni buzadi va inqirozni chaqiradi. Haqiqiy donolik – bu harakat qilmaslik orqali harakat qilish (wu wei), ya’ni tabiatning tabiiy oqimiga qarshi emas, balki u bilan birga oqishdir. Shu

asosda, Lao-szi jamiyat va tabiatdagi har qanday haddan oshishning o‘z-o‘zini yo‘q qilish sari olib borishini, bu esa muqarrar tarzda yangi uyg‘onish davriga olib kelishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar davriylik (aylanish, yangilanish) falsafasining markazida turadi. Jumladan Lao-szi “Barchadan o‘z vujudingizni bo‘shating. Zihningizni sokinlikka chorlang. Mavjudotlar to‘lqinlanishini kuzating, lekin ularning asl manbaga qaytishini o‘ylang. Ular gullaydi va o‘sha manbaga qaytadi. Manbaga qaytish – barqarorlik, bu esa tabiatning haqiqiy yo‘lidir”[10] deb ta’kidlaydi. Bu ko‘chirmadan ko’rishimiz mumkinki, mavjudotlar – jamiyat, tabiat, insonlar – tug‘iladi, o‘sadi, qudratga yetadi, so‘ngra barqarorlik va asl holatga qaytadi.

Avestodagi davriylik — insoniyat va dunyo taraqqiyotining bosqichma-bosqich, davriy yangilanishini ifodalovchi g‘oyadir. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, olam yaralishdan to yakuniy yangilanishgacha to‘rt asosiy bosqichda rivojlanadi: 1) yaralish va ezgulik bosqichi, 2) ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, 3) zulmatning kuchayishi (jamiyat inqirozi), 4) Frashokereti — ya’ni oxirgi yangilanish va ezgulikning to‘liq g‘alabasi. Bu davriylik modeli tarixiy jarayonlarning adolatga, axloqqa asoslangan holda vaqtinchalik buzilishlar va ularni tiklash orqali rivojlanishini anglatadi.

Avestodagi bu fikrlar, ayniqsa, “Frashokereti” konsepsiyasi orqali yaqqol ko‘rinadi — bu tushuncha oxiratda dunyoning qayta tozalanishi, insoniyatning ezgulikka erishishi bilan yakunlanadigan davriylik tarixiy jarayonni ifodalaydi.

Xulosa qilib “davr” tushunchasi qadimgi Sharq yozma manbalari hamda mutafakkirlari ijodida diniy-mistik mazmunda tahlil qilingan. Buning sababi ushbu darvning hukmrom mafkurasi va insonlarning dunyoqarashi xususiyatlaridan kelib chiqqan. Biz nazarda tutayotgan “davr” (sikl) tushunchasi ilmiy nuqtai nazardan ancha keyin asoslab berilgan bo‘lsada qadimgi xalqlar ijodini o‘rganish, ularning kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotiga oid qarashlarini ilmiy tahlil qilib, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini to‘g‘ri tushunga yordam beradi degan umiddamiz. Ushbu maqolada berilgan ma’lumotlarni ham o‘quvchiga foydasi tegishiga umid qilamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Daron Ajemo’g’li va Jeyms A. Robinson. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, Farovonlik va kambag‘allik manbalari. Sirotulloxon Muhammadsoliyev tarjimasi. –Toshkent: Asaxiy books nashriyoti, 2021. –B. 114.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sikl#:~:text=Sikl%20(yun.,k.

3. Kulpin E.S. Природа и общество: на пороге метаморфоз. Серия «Социоестественная история. Генезис кризисов природы и общества в России». Выпуск XXXIV. Москва, 2010.

4. Toynbee, A Study of History, 12 vols., Oxford University Press, 1934–1961. p. 71.

5. Toynbee, A Study of History, 12 vols., Oxford University Press, 1934–1961. p. 135.
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Ipuwer_Papyrus?utm_source=chatgpt.com
7. https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp
8. Mahabharata, Book 12, Ch. 231, pp. 156–157.
9. Konfutsiy. The Analects, D. C. Lau, Oxford University Press; Lunyu 3: p. 14–15.
10. Lao-szi. Translator - James Legge, Tao Te Ching, Chapter 16, Oxford University Press, 1891, p. 76.

ИМОМ БУХОРИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ

Бахтиёр ТУРСУНОВ
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази
катта илмий ходими, фалсафа доктори (PhD)
E-mail: baxtiyortursunov69@gmail.com

Бугун инсоният ўта мураккаб ижтимоий-сиёсий жараёнлар гирдобида яшамоқда. Маънавий қадриятлар завол топиб, соғлом инсоний муносабатлар ўрнини бешафқат радикал ҳис-тўйғулар ҳукмрон бўлган ахлоқий таназзул эгалламоқда. Бундай инқирозни бартараф этишда Қуръони карим, ҳадиси шариф каби ислом динининг муқаддас манбалари, аллома ва мутафаккирларнинг покиза ҳаёт тарзи, илмий-маънавий мероси муҳим аҳамият касб этади.

Ислом дини том маънода эзгулик дини бўлиб, унинг мазмун-моҳияти яхшилик, инсонийлик, бағрикенглик, ҳамжиҳатлик каби қадриятлар тарғибига, инсон камолотига қаратилган. Қуръони каримда: “**Афвни ихтиёр этинг, яхшиликка буюринг, жоҳиллардан юз ўгиринг”**[1] (“Аъроф” сураси, 199 оят), деб келтирилади.

Ҳадисда: **“**Муҳаммад (с.а.в.)***: “Албатта, мен солиҳ ахлоқларни батамом қилиш учун юборилганман”*** [2] деганлари қайд этилади *(Имом Бухорий ривояти).*

Демак бундан, У зотга юклатилган шарафли вазифалардан, рисолат берилишининг асосий сабабларидан бири – яхши ахлоқларни баркамол қилиш, такомилга етказиш экани аён бўлади. Дарҳақиқат, тарихда инсоният камолотига Муҳаммад пайғамбарчалик улкан таъсир кўрсатган шахсни топиш мушкул.

Ушбу жараён ўз-ўзини ташкиллаштириш синергетик тамойилини ўзида акс эттиради. Яъни очиқ ижтимоий тизим ҳисобланган инсонни илм воситасида такомилга йўналтириш мумкинлигини кўрсатади.

Дарҳақиқат, кечиримлилик, яхшиликка буюриш ва илм олиш фазилатлари жамиятдаги мавжуд зиддиятларни бартараф этиш ва барқарорликни таъминлашнинг муҳим омиллари ҳисобланади. Синергетиканинг "Мураккабликдаги оддийлик" тамойилига кўра, турли сабаблар туфайли содир бўладиган беқарорликлар мураккаб жараёндир. Бироқ азалий миллий қадриятларимиз, Қуръони карим, ҳадис шариф ва замонавий фан ютуқлари муаммоларни бартараф этишнинг содда йўли сифатида илм олишни тавсия этади. Чунки, инсон ҳаётидаги аксарият зиддият ва муаммолар айнан илмсизлик оқибатида содир бўлади.

Ҳадисларда киши ниятининг холис ва амалининг хайрли бўлиши ҳақида қайғурмоғи лозимлиги таъкидланади.

Пайғамбар (с.а.в.): ***"Албатта, амаллар ниятларга боғлиқдир"****, деганлар (Имом Бухорий ривояти).* Чунки киши ният билан ўз ҳожати учун қиладиган ҳар бир амалини ибодат даражасига кўтаради. Амаллар бир хил бўлса-да, ниятга қараб турли натижалар беради. Шунинг учун исломда ҳар бир амалга ният шарт қилинган.

Имон, ихлос, ибодат ва ният учун ҳам кишига илм керак. Илмдан мақсад амалдир. Аммо илмлилар орасида амал қилмайдиганлар учраб туради. Балки қилинаётган кўплаб илтижо ва дуолар ижобат бўлмаслигининг сабабларидан бири шудир?!

Ҳадисда: ***"Тарозида ҳусни хулқдан кўра оғирроқ нарса йўқ"*** [3] эканлиги таъкидланади *(Имом Бухорий ривояти).*

Ушбу ҳадисда охиратда амаллар тарозига қўйилганда инсоннинг муҳим сифати ҳисобланган ҳусни хулқдан кўра қимматлироқ нарса йўқ экани айтилмоқда. Ҳусни хулқ – ўзаро муносабатда гўзал муомала қилиш қоидаларини ўзида мужассам этади. Чунки муайян сифатга эга бўлган инсон ўзини ана шунга мувофиқ тутади, ўзаро муносабатларда доим чиройли ахлоқ билан ҳаракат қилади, зиддият ва келишмовчиликларга ўрин қолдирмайди. Бу эса ижтимоий барқарорликнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Абдуллоҳ ибн Амрдан ривоят қилинган ҳадисда: ***"Тўрт хислат бор. Агар шу хислатлар сенга берилса, дунёда қолган ҳар нарсадан бебаҳра қолсанг ҳам сенга зарари тегмайди: Ҳусни хулқ; Луқманинг иффатли бўлиши; Ростгўйлик; Омонатни муҳофаза қилиш"***[4] дейилади.

Ушбу қайд этилган хислатларни синергетик тартиб параметрлари дейиш мумкин. Чунки уларнинг ҳар бири улуғ неъматни ўзида мужассам этиб, ўзаро кетма-кетликда инсонни камолга олиб чиқади.

Ҳусни хулқ кундалик муомалада соҳибига шон-шараф келтирса, ейиш-ичишда луқманинг иффатли бўлиши катта хайр-баракадир. Таомда иффатли бўлиш иштаҳани ўртача тутиш ила бўлади. Унда ҳаддан ошиб ҳам кетилмайди, нуқсонга ҳам йўл қўйилмайди.

Ҳадисда: ***“Инсон қорнидан ёмонроқ идишни тўлдирмайди, одам боласига белни қоим қиладиган кичик луқма кифоядир. Бас, қориннинг учдан бири таом, бири сув ва қолгани нафас учундир”,*** дейилади *(Имом Аҳмад ва Имом Термизий ривояти).*

Варроқ Муҳаммад ибн Абу Хотим раҳматуллоҳи алайҳ ёзади: “Имом Бухорий раҳматуллоҳи алайҳ деди: “Ҳадис талабида Одам ибн Абу Иёс ҳузурига борганимда маблағим тугаб, ўт ва барг ея бошладим. Буни ҳеч кимга билдирмадим. Учинчи куни бир бегона киши олдимга келиб бир халта тилла берди”[5]. Бундан маълум бўладики, Имом Бухорий ҳазратлари нафақат илмда, силаи раҳмда, покиза ҳаёт тарзига қатъий амал қилишда, балки нафсни хибс этиш орқали ор-номусни сақлаш ва сабр-қаноат борасида ҳам кўпчиликга ўрнак бўлганлар.

Ростгўйлик муҳим ахлоқий тамойилдир. Бундай сифат эгаси виждонидаги борини тили ила тўғри ифода қилади.

Муҳаммад (с.а.в.): ***“Сизга гуноҳи кабираларни айтиб берайми?” деб уч марта айтдилар. “Ҳа, эй Аллоҳнинг Расули!” дейишди. “Аллоҳга ширк келтириш. Ота-онага оқ бўлиш”, дедилар. Ёнбошлаб турган эдилар, тик туриб, ўтириб одилар. “Огоҳ бўлинг, ёлғон гап ҳам!” дедилар. Шуни қайта-қайта такрорладилар, биз “сукут сақласалар қани эди”, дейишгача бордик”***[6] *(Имом Бухорий ривояти)***.**

Ҳадисда ростгўйликнинг зидди бўлган ёлғончиликнинг оғир гуноҳ эканлиги таъкидланмоқда. Чунки ёлғон сўзнинг ижтимоий хавфи катта бўлиб, биргина ёлғон инсон ҳаётини остин-устин қилиб, уни азобу уқубатга айлантириши мумкин.

Омонатдорлик ҳам улуғ фазилат бўлиб, унинг соҳибидан одамлар жонлари ва моллари омонда бўлишига комил ишонч билдирадилар. Бу жуда машаққатли ва шу билан бирга ўта масъулиятли ишдир. Шу боис, осмонлару ер уни кўтаришдан бош тортган. Аллоҳ таоло фақат инсонни бунга муносиб деб топган.

Имом Бухорий ўзининг дарё орқали сафари чоғида у зот билан хушмуомалада бўлган бир кишига ишониб, гап орасида ёнида минг тилла[7] маблағи борлигини аён қилган. Бироқ тонгда у киши: “Минг тилла солинган халтачам йўқолди”, деб дод солган. Кема назоратчилари тилла солинган халтачани қидиришга кириб, тинтув бошлаган. Имом Бухорий жойни тартибга келтириш асносида сездирмасдан ҳамёнини сувга ташлаган. Ҳамён

топилмагач, тинчи бузилган одамлар даъвогарни маломат қилишган. Сафар якунида “даъвогар” Имом Бухорийдан: “Сиздаги минг тилла қаерга кетди?”, деб сўраганда у зот: “Дарёга улоқтирдим”, деб жавоб қайтарган. У киши “Наҳот шунча пулдан кечдингиз?!, дея ҳайратланган. Имом Бухорий: “Ҳаётимдаги асл бойлик сиқа (ишончли)лик давлатидир. Озгина тиллани деб сиқа (ишонч)ликни қандай барбод қиламан?”, деб жавоб берган[8].

Имом Бухорий маънавий меросининг илмий-амалий аҳамияти шундаки, муҳаддис ҳар бир асарини битишга ўта покдомонлик, илмийлик, синчковлик, ишончлилик билан ёндашган. Хусусан, аллома ўн олти йиллик илмий сафарлари давомида жамланган олти юз мингга яқин ҳадис орасидан энг саҳиҳ етти минг икки юз етмиш беш ҳадисни саралаб, “Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ” (“Ишончли тўплам”) асарини ёзган. Ҳар бир ҳадиснинг саҳиҳлигига тўлиқ ишонч ҳосил қилгач, уни китобга киритишдан аввал ғусл қилиб, икки ракат истихора *(Аллоҳ таолодан бир ишда яхшилик сўраб қилинадиган ибодат)* намозини ўқиганлиги манбаларда қайд этилган.

Аллома ҳадис саралашда ўзига хос қоидага амал қилган. Жумладан, ровийлар *(ҳадис ривоят қилувчилар)* санади (муҳаддисдан то Пайғамбар (с.а.в.)ча муттасил, яъни, узлуксиз кетма-кетликда бўлиши, ровийнинг ислом динига эътиқод қилувчи ҳақгўй киши бўлиши, ўзлигини англаган, зеҳни ўткир, имон-эътиқоди комил, ишида пала-партишликка йўл қўймаслиги шарт бўлган.[9]

Ривоят қилинишича, Имом Бухорий ўзига нотаниш бўлган бир ҳадис эшитгач, узоқ йўл босиб ўша ҳадис ровийсини ахтариб борганда у киши далада бўш юрган отини тутиш мақсадида бўм-бўш этагини қайириб, отни алдаб чақираётганига гувоҳ бўлади. Шунда аллома тилсиз бир жониворни алдаётган кишидан ишончли ҳадис эшитишига шубҳа қилиб, унга учрашмасдан ортга қайтган.[10]

Алломалар илмий омонатдорликга қатъий амал қилишган. Абу Лайс Самарқандий: “Илмни фақат ва фақат ишончли, омонатдор зотлардан олиш лозим, чунки дин пойдевори илм биландир.[11] Бунда таълим олувчи муҳтож бўладиган нарсанинг энг биринчиси ниятини тўғрилаб олишидир. Шунда олган илмидан ўзига ва ундан ўрганадиганларга манфаат етади. Агар ниятни тўғриламоқ учун тўртта нарсани қасд қилмоқ лозим. Илм олиш орқали жоҳилликдан чиқишни, одамларга фойда келтиришни, илмни ривожлантиришни, ўрганганига амал қилишни кўнглидан ўтказсин. Чунки амалсиз илм уволдир, илмсиз амал эса залолатдир”[12], деб таъкидлаган.

Такомилга интилган инсон шу тарзда доимо ҳаёти ва фаолиятининг хайрли бўлиши учун қайғурмоғи лозим. Чунки “ғам-ғусса, нохушлигу касалликларнинг барчаси қачонлардир киши билимсизлик туфайли қилган

хато ва гуноҳларининг меваси, яъни ранж гуноҳнинг муқобили, қувонч эса Аллоҳни таниш ва эзгу ишларнинг мукофоти”[13] эканини яхши англамоғи даркор.

Анас розияллоҳу анҳу айтадилар: ***“Эй Аллоҳнинг Расули, мени дуоси қабул бўладиганлардан қилиб қўйинг”, дедим. У зот: “Эй Анас, касбингни пок қилгин, дуоинг қабул бўлур. Чунки бир одам оғзига бир луқма ҳаромни солса, қирқ кунгача дуоси ижобат бўлмайди”,***[14] **дедилар** *(Имом Бухорий, Имом Муслим, Имом Термизий ва Имом Насоий ривоят қилган).*

Ҳаётда инсон эзгу мақсадлар билан яшар экан, уларининг ижобатини сўраб, Аллоҳга юзланади. Юқоридаги ҳадисдан илтижонинг қабул бўлиши учун касб ва луқманинг ҳалол бўлиши шарт экани англанади.

Имом Бухорийнинг оталари Исмоил ибн Иброҳим (куняси Абул Ҳасан) парҳезкор уламолардан бўлиб, Молик ибн Анасдан дарс олган, Солиҳ ибн Муборак, Абу Муовия ва бошқалардан ривоят қилган.[15]

Исмоил ибн Иброҳим Аҳмад ибн Ҳафс, Яҳё ибн Жаъфар Пойкандий ва бошқаларга устозлик қилган. Аҳмад ибн Ҳафс: “Абу Абдуллоҳнинг отаси Абу Ҳасаннинг олдига вафотидан олдин киргандим. Абу Ҳасан: “Мол-мулким ичра бирор ҳаром ва шубҳалиси борлигини билмайман”, деди. Аҳмад: “Ўша пайтда нафсим ўзимга аҳамиятсиз бўлиб кўринди”, деди. Сўнг Абу Абдуллоҳ: “Сўзларнинг тўғрироғи кишининг вафот этаётган пайтдагисидир”, деди.[16]

Ҳаётда қандай йўл тутиш – ҳар кимнинг шахсий иши, албатта. Аммо кишининг ҳаёти ва фаолияти ҳалоллик, поклик, одиллик каби эзгу тамойилларга асосланмас экан, уни ҳеч нарса билан оқлаб бўлмайди.

Буюк муҳаддис Имом Бухорий ҳазратларининг ана шундай оғир, ўта муҳтож ҳолда ҳам таъмадан тийилиб, ўз қадр-қимматини сақлагани тақвосининг юксаклигига яна бир далилдир.

Чунки ўзини англаган киши учун ўзгалар назаридан қолиш энг катта йўқотишдир. Бундайлар ҳар қандай вазиятда ҳам умри давомида мисқоллаб жамланган ноёб хазина, бисотидаги энг қимматли жавҳар ҳисобланмиш – шаън, қадр-қиммат, ор-номус, ишонч каби муқаддас туйғуларни покиза сақлашда қатъий туради.

Алишер Навоий: “Илм ўрганмоқ – динни мустаҳкам қилмоқ учун, сира бойлик орттирмоқ учун эмас. Саховатсиз бой бамисоли ёмғирсиз булутга ўхшайди. Илмига амал қилмаган олим эса устига китоб ортилган ҳайвонга ўхшайди”,[17] деб амал қилинмаган илмнинг бефойдалигини, илм инсоннинг ўзига ва бошқаларга манфаатли бўлиши лозимлигини қатъий таъкидлайди.

Киши амали унинг ниятига боғлиқ бўлиб, амалнинг ҳақиқати ўз соҳибини ҳолдан ҳолга (сифатдан сифатга), ўзгаришга, пировардида такомил

ва тараққиётга йўналтиради. Маънавий камолот илм ва амални жамлаш орқали ҳосил бўлади. Бинобарин, уларни жамлай олганлар юксак мақомга кўтарилади.

Бугунги глобаллашув даврида халқимизнинг азалий миллий қадриятлари ва улуғ аждодларимизнинг бой маънавий меросининг инсонпарварлик ва бағрикенглик моҳиятини ёшлар онги ва қалбига чуқур сингдириш комил инсонни тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади. Ёшларда Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний қадриятларга юксак ҳурмат, илмга ва касб-ҳунар эгаллашга иштиёқ уйғотиш уларда юзага келаётган айрим беқарорлик ва иккиланишларни бартараф этишга хизмат қилади. Бунинг учун жамият аъзоларидан, аввало, ота-оналар, устоз-мураббийлар ва олимлардан ихлосли илм, ҳалоллик ва эзгуликка асосланган ибратли ҳаёт тарзи талаб этилади.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири. “Аъроф” сураси, 199 ояти. [Таржима ва тафсир муаллифи А.Мансур]. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. – Б.107.

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ал-адаб ал-муфрад. 1-жилд. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б.442.

3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ал-адаб ал-муфрад. 1-жилд..– Тошкент: Sharq, 2011.– Б. 439-440.

4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ал-адаб ал-муфрад. 1-жилд. – Тошкент: Sharq, 2011. – Б.461.

5. Саҳиҳи Бухорий шарҳи. I жилд. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – Б. 26.

6. Имом Бухорий. Биррул волидайн (Ота-онага яхшилик қилиш). – Самарқанд, ИБХИТМ, 2024. – Б.68.

7. Минг тилланинг қиймати ўша давр шароитида бир уйнинг баҳосига тенг бўлган. Имом Бухорийнинг котиби бўлган Абу Жаъфар Варроқ Бухорий “Шамоилий Бухорий” асарида алломанинг 920 дирҳамга унга уй сотиб олиб берганини маълум қилади.

8. Саҳиҳи Бухорий шарҳи. I жилд. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – Б. 25-26.

9. Umarov Sh. Imom Buxoriy ta'rifi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2024. – B.78-84.

10. Umarov Sh. Imom Buxoriy ta'rifi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2024. – B.84-85.

11. Самарқандий, Абу Лайс. Бўстон ул-орифийн/А.Л.Самарқандий; араб тилидан таржимонлар: Масъудхон Исмоилов ва Бекназар Муҳаммадшукур. –Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази”, 2018. –Б.47-48.

12. Самарқандий, Абу Лайс. Бўстон ул-орифийн/А.Л.Самарқандий; араб тилидан таржимонлар: Масъудхон Исмоилов ва Бекназар Муҳаммадшукур. –Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази”, 2018. –Б.62-63.

13. Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 64.

14. Саҳиҳ Муслим. II жилд. – Байрут: Дору ихйоит туросил арабий, 2010. – Б. 703.

15. Ибн Ҳажар Асқалоний. Таҳзибу-т-таҳзиб. Ж.1. – Ҳайдаробод: Матбаа мажлис доират ал-маориф ан-низомия, 1325. – Б. 275.

16. Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Абу Ҳотим Варроқ Бухорий. Шамоили Бухоорий. –Самарқанд,: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2023. –Б.64.

17. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб (Қалбга маҳбуб ҳикматлар ва ҳикоятлар). Ҳозирги ўзбек тилига табдил. –Тошкент: Sano-standart, 2018. – Б.121.

YOSHLAR ESTETIK MADANIYATI VA UNING TRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: pulatsamdu1988@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar estetik madaniyatining transformatsion xususiyatlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar, ommaviy madaniyat va global kommunikatsiyalar yoshlarning go‘zallikka munosabati hamda estetik qadriyatlarini o‘zgartirmoqda. Tadqiqotda an’anaviy va zamonaviy did o‘rtasidagi tafovutlar, raqamli muhitning estetik idrokka ta’siri hamda yoshlarning estetik ongini shakllantirishda ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va ijodkorlikning o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Estetik madaniyat, estetik qadriyatlar, transformatsiya jarayoni, ma’naviy rivojlanish, raqamli madaniyat, postmodern tafakkur, global qadriyatlar.

Аннотация: В статье с философской точки зрения анализируются трансформационные особенности эстетической культуры молодежи в условиях современного общества. Цифровые технологии, массовая культура и глобальные коммуникации изменяют отношение молодежи к прекрасному и их эстетические ценности. В исследовании освещаются различия между

традиционным и современным вкусом, влияние цифровой среды на эстетическое восприятие, а также роль духовного воспитания, национальных ценностей и творчества в формировании эстетического сознания молодежи.

Ключевые слова: эстетическая культура, эстетические ценности, процесс трансформации, духовное развитие, цифровая культура, постмодернистское мышление, глобальные ценности.

Annotation: The article analyzes the transformational features of the aesthetic culture of youth in the context of modern society from a philosophical perspective. Digital technologies, mass culture, and global communications are changing young people's attitudes toward beauty and their aesthetic values. The study highlights the differences between traditional and modern tastes, the influence of the digital environment on aesthetic perception, and the role of spiritual education, national values, and creativity in shaping the aesthetic consciousness of youth.

Keywords: aesthetic culture, aesthetic values, transformation process, spiritual development, digital culture, postmodern thinking, global values.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari inson hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlar ongining shakllanishi va ularning estetik qadriyatlar tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Estetik qadriyatlarning zamonaviy sharoitda yuz berayotgan o‘zgarishi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida namoyon bo‘lib, u jamiyat madaniy rivojlanishining dinamikasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, estetik madaniyat insonning go‘zallikni his etish, uni anglash, yaratish hamda kundalik hayotda ifoda etish qobiliyatining integral ifodasidir. U insonning ma’naviy olami, axloqiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasining estetik o‘lchovini belgilovchi konseptual tizimni tashkil etadi.

Yoshlar davri shaxsning estetik tafakkuri, didi va ma’naviy mezonlari shakllanadigan eng muhim bosqich bo‘lib, bu jarayon jamiyatda mavjud ijtimoiy-madaniy muhit, texnologik taraqqiyot, ommaviy madaniyat oqimlari va global kommunikatsion maydon ta’sirida kechadi. Shu bois yoshlar estetik madaniyati nafaqat shaxsning ichki ruhiy dunyosini, balki jamiyatning umumiy madaniy taraqqiyot darajasini ham aks ettiruvchi ijtimoiy indikator sifatida e’tirof etilishi zarur.

Zamonaviy davrda texnologik innovatsiyalar, raqamli platformalar va internet madaniyatining kengayishi natijasida estetik idrok va go‘zallik mezonlari sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An’anaviy estetik qadriyatlar — soddalik, tabiiylik, uyg‘unlik va ma’naviy chuqurlik — o‘rnini tobora texnologik mukammallikka, vizual effektlarga, individuallikka va sun’iy go‘zallikka asoslangan yangi estetik paradigmalarning egallashi kuzatilmoqda. Bu esa estetik

ongning transformatsion tabiatini yaqqol namoyon etadi: go‘zallikka munosabat, badiiy ifoda shakllari va estetik baholash mezonlari zamon talablari bilan uyg‘un holda yangilanmoqda.

Falsafiy jihatdan qaralganda, yoshlar estetik madaniyatining transformatsiyasi insonning o‘z “men”ini anglash, o‘z qadriyatlarini qayta baholash va mavjud ijtimoiy haqiqatga moslashishining yangi bosqichidir. Estetik tajriba orqali inson o‘zining sub’ektiv olamini tashqi dunyo bilan uyg‘unlashtiradi, shu orqali o‘zini ijodkor, mustaqil fikrlovchi va estetik ongga ega shaxs sifatida namoyon etadi. Bu jarayon shaxsiy erkinlik, ma’naviy o‘sish va ijtimoiy integratsiyaning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlar estetik madaniyati masalasi zamonaviy falsafada nafaqat san’at falsafasi doirasida, balki axloq, madaniyatshunoslik, kommunikatsiya va ta’lim falsafasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilishi lozim. Chunki estetik madaniyatni rivojlantirish jarayoni insonning ma’naviy kamoloti, ijodiy tafakkurining shakllanishi va milliy o‘zlikni anglash bilan bevosita aloqadordir. Estetik qadriyatlar tizimi yoshlarni go‘zallikni his etishga, badiiy fikrlashga, axloqiy mas’uliyat va estetik sezgirlikka yo‘naltiradi.

Mazkur maqolada estetik madaniyatning mohiyati, uning transformatsion xususiyatlari va yoshlar ongida shakllanish jarayoni falsafiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotda estetik qadriyatlarning raqamli madaniyat sharoitida o‘zgaruvchanligi, global kommunikatsiyalar ta’sirida yangilanishi hamda yoshlarning estetik tafakkurini boyitishda milliy qadriyatlar, ma’naviyat va ijodkorlikning o‘rni ilmiy asosda tahlil etiladi. Shu orqali maqola estetik madaniyatni insoniyatning ruhiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi fundamental falsafiy kategoriya sifatida anglashga hissa qo‘shadi.

Yoshlar estetik madaniyati zamonaviy falsafiy tafakkurda insonning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va ijodiy o‘zini ifoda etish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etiladi. Estetik madaniyat — bu insonning go‘zallikni his etish, uni idrok qilish, yaratish va hayotda ifoda etish qobiliyatini shakllantiruvchi ruhiy-intellektual tizimdir. U shaxsning nafaqat estetik tafakkurini, balki uning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy pozitsiyasini ham belgilaydi. Shu boisdan, “yoshlar estetik madaniyatining transformatsion xususiyatlari jamiyatda kechayotgan madaniy, texnologik va axloqiy o‘zgarishlar bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi” [1].

Zamonaviy davrda texnologik taraqqiyot, raqamli kommunikatsiyalar va ommaviy madaniyat ta’sirida estetik qadriyatlarning yangi shakllari vujudga kelmoqda. Virtual makonlar, ijtimoiy tarmoqlar va vizual media vositalari yoshlar dunyoqarashi hamda estetik didining shakllanishida markaziy o‘rinni egallamoqda. Bu esa insonning go‘zallikni anglash doirasini an’anaviy badiiy shakllardan

tashqariga olib chiqmoqda. Endilikda go‘zallik nafaqat san’at asarlarida yoki tabiiy uyg‘unlikda, balki raqamli tasvirlar, interaktiv muhitlar va sun’iy intellekt asosidagi estetik tajribalarda ham namoyon bo‘lmoqda. Natijada, “an’anaviy estetik mezonlar o‘z o‘rnini individuallik, kreativlik, texnologik uyg‘unlik va vizual dinamizmga asoslangan yangi estetik paradigmalar tizimiga bo‘shatmoqda” [2].

Falsafiy nuqtai nazardan, ushbu o‘zgarishlar inson tafakkurining yangilanishi, estetik ongning moslashuvchanligi va refleksiv xususiyatining kuchayishini anglatadi. Estetik idrok jarayonida go‘zallik tushunchasi ob’ektiv me’yordan sub’ektiv talqinga siljib, shaxsning ichki kechinmalari, estetik tajribasi va virtual dunyodagi o‘zini ifoda etish uslublari bilan boyimoqda. Bu holat go‘zallikning universal tabiati o‘rniga uning nisbiy, madaniyatlararo va kontekstual talqinlarini ilgari suradi [3].

Demak, yoshlar estetik madaniyatining transformatsiyasi — bu insonning o‘z estetik “men”ini raqamli makonda qayta kashf etish, zamonaviy jamiyatning estetik kodlariga moslashish va shu orqali ma’naviy o‘sishning yangi bosqichiga o‘tish jarayonidir. Bu jarayon falsafiy jihatdan qaralganda, postmodern davr estetik tafakkurining asosiy belgilaridan biri — ko‘pma’nolilik, sub’ektivlik va o‘zaro madaniy ta’sirchanlik tamoyillarini o‘zida mujassam etadi.

Shunday qilib, yoshlar estetik madaniyati zamonaviy davrda nafaqat san’at falsafasining tadqiqot ob’ekti, balki insonning raqamli mavjudligi, ijtimoiy kommunikatsiyasi va ma’naviy o‘zini anglash jarayonini ifodalovchi muhim falsafiy kategoriya sifatida shakllanmoqda.Shu bilan birga, transformatsiya jarayoni har doim ham ijobiy kechavermaydi. Raqamli madaniyatning haddan tashqari ta’siri natijasida sun’iy ideal, tashqi ko‘rinish va modaga asoslangan “virtual estetik ong” shakllanmoqda. Bu holat yoshlarning estetik didini yuzaki va iste’molchi ruhda shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin [4]. Shu bois, falsafiy jihatdan estetik madaniyatni shakllantirishda ma’naviy qadriyatlar, milliy o‘zlik va madaniy meros bilan uyg‘unlik zarurligi ta’kidlanadi [5].

Milliy madaniyat va an’anaviy qadriyatlar estetik tarbiyaning poydevorini tashkil etadi. Yoshlar o‘z milliy ildizlarini anglagan holda zamonaviy madaniyat bilan uyg‘unlikda go‘zallikka yangicha yondashuvni shakllantira oladi. Bu esa estetik madaniyatning transformatsion jarayonini muvozanatli yo‘nalishga olib keladi. Shu jihatdan, milliy estetik qadriyatlar global madaniy ta’sirlarga qarshi emas, balki ularni boyituvchi, insoniylikni saqlab qoluvchi omil sifatida talqin qilinadi [6].

Zamonaviy ijtimoiy voqelik sharoitida yoshlar estetik madaniyati o‘zgaruvchan, dinamik va ko‘p qatlamli ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida shakllanmoqda. U inson faoliyatining texnologik, ma’naviy va ijodiy jihatlarini bir

butun estetik tizimda uyg‘unlashtiradi. Estetik madaniyat shaxsning go‘zallikni idrok etish, uni anglash, yaratish va hayotda namoyon etish qobiliyatini belgilovchi falsafiy kategoriya sifatida inson borlig‘ining ma’naviy o‘lchovini aks ettiradi.

Zamonaviylik omillari — texnologik taraqqiyot, raqamli kommunikatsiyalar va ommaviy madaniyat — yoshlarning estetik ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu jarayon shaxsning ichki dunyosida yangi estetik ehtiyojlar, kreativ izlanishlar va o‘zini ifoda etishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, estetik qadriyatlarning transformatsiyasi yoshlarning o‘zini anglash, ijodkorlik ruhini rivojlantirish va hayotda go‘zallikni qadrlash qobiliyatini chuqurlashtiradi.

Shuningdek, bu transformatsion jarayon ikki yo‘nalishda kechadi: bir tomondan, texnologik innovatsiyalar va global madaniyat oqimlari estetik idrokni boyitadi, yangi badiiy shakllar va ko‘rinishlarni yaratadi; ikkinchi tomondan, bu jarayon ayrim hollarda estetik qadriyatlarning soddalashuvi, iste’molchilik ruhi va tashqi ko‘rinish estetikasining ustuvorligiga olib kelishi mumkin. Shu bois, yoshlar estetik madaniyatini shakllantirishda zamonaviylik bilan bir qatorda milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy poklik, axloqiy uyg‘unlik va ijodiy erkinlik tamoyillariga tayanish eng muhim falsafiy yo‘nalishlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Falsafiy jihatdan, yoshlar estetik madaniyatining rivojlanishi shaxsning o‘zligini anglash, ma’naviy o‘sish va jamiyat bilan uyg‘unlikda yashash intilishining estetik ifodasidir. Shu sababli, zamonaviy davrda estetik madaniyatni rivojlantirish strategiyasi texnologik yangilanishlar bilan bir qatorda ma’naviy yangilanishni ham o‘z ichiga olishi, insonning estetik tafakkurini chuqurlashtirish va go‘zallikni qadrlash madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Yoshlar estetik madaniyatining transformatsion xususiyatlarini falsafiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy, texnologik va madaniy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Estetik qadriyatlar hech qachon statik holatda bo‘lmaydi; ular doimo tarixiy sharoit va ijtimoiy muhit ta’sirida yangilanib, o‘z mohiyatini qayta ifoda etadi. Bugungi kunda raqamli makon, ommaviy madaniyat va global kommunikatsiyalar yoshlarning estetik idroki, didi va go‘zallik haqidagi tasavvurlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu holat yoshlarning estetik madaniyatini dinamik va ko‘p qatlamli tizimga aylantiradi [1; 2].

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy yoshlar estetik qadriyatlarni ko‘proq vizual shaklda — moda, dizayn, raqamli tasvir va virtual obrazlar orqali qabul qilmoqda. Shu bilan birga, bu estetik tajriba ko‘pincha iste’molchilik ruhida kechadi va chuqur ma’naviy mazmunga ega bo‘lmasligi mumkin [3]. Falsafiy nuqtai nazardan bu holat insonning ichki estetik uyg‘unligini zaiflashtiradi, go‘zallikni tashqi shakl bilan cheklaydi. Shu bois, yoshlarning

estetik tarbiyasida ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy merosni chuqur anglash va ijodiy tafakkurni rivojlantirish zarur [4; 5].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, estetik madaniyatning transformatsiyasi ikki yo‘nalishda kechmoqda:

birinchidan, innovatsion-estetik yo‘nalish, ya’ni texnologik yangiliklar orqali yangi estetik shakllarning paydo bo‘lishi;

ikkinchidan, ma’naviy-estetik yo‘nalish, ya’ni milliy qadriyatlar va insoniylik tamoyillarini saqlashga intilish. Bu ikki yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlikda rivojlansa, yoshlarning estetik dunyoqarashi barkamol shaklda namoyon bo‘ladi [6].

Shunday qilib, yoshlar estetik madaniyatining transformatsion xususiyatlari shaxsning ma’naviy o‘sishini, dunyoni go‘zallik mezonlari orqali idrok etish qobiliyatini hamda jamiyat bilan uyg‘unlikda yashash madaniyatini shakllantiruvchi muhim falsafiy jarayondir. Shu sababli, estetik madaniyatni rivojlantirish bugungi davrda faqat san’at sohasi vazifasi emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va falsafiy taraqqiyotning ajralmas yo‘nalishidir.

Yoshlar estetik madaniyatining transformatsion xususiyatlari zamonaviy falsafiy tafakkurda insonning ma’naviy o‘sishi, tafakkur yangilanishi va ijtimoiy moslashuv jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Estetik madaniyat — bu insonning go‘zallikni his etish, uni idrok qilish, yaratish hamda hayotda estetik tarzda ifoda etish qobiliyatini shakllantiruvchi ruhiy va madaniy mexanizmdir. U shaxsning axloqiy pozitsiyasi, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy faoliyatini belgilovchi muhim falsafiy kategoriya sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi raqamli va globallashgan davrda estetik qadriyatlar o‘zining sobit mazmunidan chekinib, ko‘p qatlamli, nisbiy va dinamik tus olmoqda. Raqamli kommunikatsiyalar, texnologik yangilanishlar va ommaviy madaniyat oqimlari yoshlarning estetik idrokini shakllantirishda asosiy omilga aylangan. Shu sababli, zamonaviy yoshlar estetik madaniyati an’anaviy go‘zallik me’yorlaridan farqli ravishda, texnologiya, axborot oqimi, kreativ tafakkur va kommunikativ tajriba bilan uyg‘unlikda rivojlanmoqda. Bu holat estetik ongning yangi turini — raqamli estetika va virtual go‘zallik konsepsiyasini vujudga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar estetik madaniyatining transformatsiya jarayoni ikki asosiy yo‘nalishda kechadi. Birinchidan, texnologik va vizual yangiliklar estetik idrok doirasini kengaytiradi, insonning estetik sezgirligini kuchaytiradi va go‘zallikni yangicha ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchidan, iste’molchilik madaniyati, reklama estetikasi va tashqi joziba kultining kuchayishi natijasida estetik qadriyatlarning ma’naviy mohiyati zaiflashmoqda. Bu esa estetiklikning ichki — ma’naviy va g‘oyaviy asoslaridan uzoqlashish tendensiyasini keltirib chiqarmoqda.

Shu bois, yoshlar estetik tarbiyasida milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, axloqiy mas’uliyat va insoniylik tamoyillarini mustahkamlash zamonaviy davrning dolzarb falsafiy-madaniy vazifalaridan biridir. Faqat shu yo‘l bilangina texnologik taraqqiyot shaxsning ma’naviy o‘sishini to‘ldiruvchi, emas, balki qo‘llab-quvvatlovchi kuchga aylanishi mumkin.

Falsafiy jihatdan qaralganda, estetik madaniyatning transformatsiyasi insonning o‘zini anglash, go‘zallikni qayta talqin etish va mavjudlikning estetik mohiyatini yangicha kashf etish jarayonidir. Estetik qadriyatlarning o‘zgarishi orqali yoshlar o‘zligini izlaydi, yangi ideal va ma’nolarni yaratadi, ijtimoiy borliqda o‘z o‘rnini belgilaydi. Shu ma’noda, estetik madaniyat shaxsni nafaqat go‘zallikka, balki ma’naviy mukammallikka, axloqiy barkamollikka va ijodiy tafakkurga yo‘naltiruvchi ma’naviy energiya manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy falsafiy xulosaga ko‘ra, estetik madaniyatni rivojlantirish strategiyasi texnologik innovatsiyalarni insoniy va ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilmog‘i zarur. Faqat shundagina estetik madaniyat yosh avlodni ruhiy barkamollik, ijodkorlik va ijtimoiy mas’uliyat sari yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

2. Baudrillard J. La société de consommation. – Paris: Gallimard, 1970. – 304 p.

3. Lipovetsky G. L’ère du vide: Essais sur l’individualisme contemporain. – Paris: Gallimard, 1983. – 254 p.

4. Fromm E. To Have or to Be? – New York: Harper & Row, 1976. – 240 p.

5. Alimov B. Estetika asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 220 b.

6. Habermas J. The Philosophical Discourse of Modernity. – Cambridge: MIT Press, 1987. – 430 p.

7. G‘ofurov A. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. – 312 b.

8. To‘laganov S. Estetik tafakkur va ijodkorlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 198 b.

9. Shou R. Culture and Aesthetics in the Digital Age. – London: Routledge, 2019. – 276 p.

3-SHO‘BA. SHARQ VA G‘ARB RENESSANSLARI VA O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH ISTIQBOLLARI

FRANKFURT FALSAFIY MAKTABI: E.FROMM MUXABBAT DOKTRINASI

Qodirov Anvar Qaxxorovich
Alfraganus universiteti professori

Annotatsiya: “Falsafa va insoniyat: utmish, xozirgi zamon, kelajak” triadasi bugungi zamon falsafasining rivojlanishining asosiy vektorini aniklanishiga va XX1 asrda xam uz dunekarash va metodologtk funksiyasini bajara olish imkoniyati va zaruratini anglab yetish xissiyotini jamiyatda shakllanishiga ko‘maklashadi.

Shu urinda milliy mustaqillikgacha zararli, “G‘arb burjua falsafasi” yoxud diniy-tavtologik mazmunda deb xisoblab kelingan XX asrning qator ilmiy-falsafiy yutuqlariga xam yangicha yondashish va baholash,Uchinchi Renessans poydevorini Sharq va G‘arb falsafiy yutuqlari mushtarakligida yaratish imkoniyati karor topadi.Ushbu kontekstda XX asrda G‘arb falsafasida sezilarli o‘rin egallagan falsafiy maktablar va ularning bugungi kunda xam ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatayotgan,insoniyat ma’naviyatida xanuz o‘z o‘rnini egallab turgan falsafiy konsepsiyalari xususida tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lish o‘rinli va zarurdir. Quyida XX asrda mashxur “Vena krujogi”, Geldenberg, Freyburg, Parij falsafiy maktablari kabi fan falsafasi, postpozitivizm, fenomenologiya, ekzistensializm, traditsionalizm va x.k. maktablar qatori G‘arbning yetakchi falsafiy maktablaridan biri -Frankfurt maktabi va uning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Xorkxaymer, Adorno, Markuze va ayniksa Erix Fromm falsafiy doktrinasi bilan tanishish bugungi oila instituti inqirozi sabablarini anglab yetish va uni mustaxkamlash masalalari xususida muloxaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Falsafa, G‘arb falsafasi, Frankfurt falsafiy maktabi, E.Fromm ta’limoti, ega bo‘lmoq va borliq, psixoanaliz, muxabbat, gumanizm.

Аннотация: Триада «Философия и человечество: прошлое, настоящее, будущее» помогает выявить основной вектор развития современной философии и сформировать в обществе осознание возможности и необходимости выполнения ею своей мировоззренческой и методологической функции и в XXI веке.

В этом контексте целесообразно и необходимо по-новому взглянуть и оценить ряд научно-философских достижений XX века, которые до

обретения национальной независимости считались вредными, «западной буржуазной философией» или религиозно-тавтологическими по содержанию, и создать основу Третьего Возрождения на основе общности философских достижений Востока и Запада. В этом контексте целесообразно и необходимо иметь представления и концепции о философских школах, занявших значительное место в западной философии XX века, и их философских концепциях, которые и сегодня оказывают влияние на общественное развитие и продолжают занимать своё место в духовности человечества. Ниже перечислены знаменитые философские школы «Венского кружка» XX века, Гельденбергская, Фрайбургская, Парижская, философские школы, философия науки, постпозитивизм, феноменология, экзистенциализм, традиционализм и др. Среди этих школ рассматривается одна из ведущих философских школ Запада – Франкфуртская школа и её видные представители: Хоркхаймер, Адорно, Маркузе и, в особенности, Эрих Фромм – с целью понимания причин кризиса современного института семьи и его укрепления.

Ключевые слова: философия, западная философия, Франкфуртская философская школа, учение Э. Фромма, обладание и бытие, психоанализ, любовь, гуманизм.

Abstract: The triad “Philosophy and Humanity: Past, Present, Future” helps to identify the main vector of development of modern philosophy and to form in society a sense of awareness of the possibility and necessity of fulfilling its worldview and methodological function even in the 21st century.

In this context, it is appropriate and necessary to have a new approach and assessment of a number of scientific and philosophical achievements of the 20th century, which were considered harmful until national independence, “Western bourgeois philosophy” or religious-tautological in content, and to create the foundation of the Third Renaissance in the commonality of the philosophical achievements of the East and the West. In this context, it is appropriate and necessary to have ideas and concepts about the philosophical schools that occupied a significant place in Western philosophy in the 20th century and their philosophical concepts that still influence social development today and still occupy their place in the spirituality of humanity. Below are the famous 20th century "Vienna Circle", Geldenberg, Freiburg, Paris philosophical schools, philosophy of science, post-positivism, phenomenology, existentialism, traditionalism, etc. Among the schools, one of the leading philosophical schools of the West - the Frankfurt School and its prominent representatives Horkheimer, Adorno, Marcuse and especially Erich Fromm - are considered in order to

understand the causes of the crisis of the family institution today and to strengthen it.

Keywords: Philosophy, Western philosophy, Frankfurt School of Philosophy, E. Fromm's teachings, having and being, psychoanalysis, love, humanism.

XX asr insoniyat tarixida aloxida davr tarzida muxrlanib qoldi- ikki jaxon urushi, ikki qutbli dunyo xarbiy-siyosiy tartibotini qaror tonishi va asr so‘ngiga kelib uning parchalanib ketishi, dunyoda ilk sotsialistik davlat va sotsialistik tizimning shakllanishi,"sovuq urush" davri,umumqirg‘in vositasi- atom bombasini amalda qo‘llanishi, bexisob beayb qurbonlar, Evropaning so‘nishi, (O.Shpengler), "G‘arbning o‘limi" (P.B'yukenen), G‘arb "ommaviy madaniyati"ning globallashuvi va nixoyat an'anaviy oila institutining inqirozi, "sun'iy aql" loyixasining amalga oshuvi, dunyoda gegemonlikka erishish uchun yetakchi davlatlar o‘rtasida o‘zaro raqobatning kuchayishi va x.k.lar bilan xarakterlanadi.

Ushbu xodisa va tendensiyalar falsafa soxasida xam o‘z aksini topdi.Garchi falsafa uzoq davr markscha-lnincha falsafa monopoliyasi davrida shakllanib qolgan dogmatik qarash jamiyatimizda o‘rnashib qolgan bo‘lsa-da "Oqqan daryo oqaveradi" degenlaridek insoniyatning ko‘xna qadriyati- falsafa bugungi ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy yutuqlar davrida xam rivojlanishdan to‘xtamagan.Buni Xalqaro faylasuflar uyushmasining davriy Kongresslarining muntazam o‘tkazilib kelinayotganligi,jaxon falsafasi umumilmiy metodologiya sifatida o‘z uslubiy mavqe'ini xamon yo‘qotmaganligini tasdiqlaydi.

XX asrda markscha-lenincha falsafa,uning dialektik va tarixiy materializmi kabi G‘arb burjua falsafasi xam taraqqiy etdi,falsafaning siyosiylashuvi va mafkuraviylashuvidan xoli bo‘lgan jaxon falsafasi natijada ulkan yutuqlarga erishdi. Buning sababi falsafiy erkinlik, erkin tafakkur imkoniyatining mavjudligi edi.G‘arb falsafasida markscha-lenincha falsafa qobig‘iga sig‘magan, zararli burjuacha fan deb xisoblanib kelingan kibernenika, genetika, bionika, semiotika, "sun'iy aql" va x.k. ilmiy soxalarning bugungi taraqqiyotining ilmiy loyixalariga asos solindi.Masalan,K.Shennon asos solgan informatika asoslari fani,kibernetika g‘oyasi ilk bor Astriyaning Vena universiteti qoshida o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan matematiklari, fiziklari, psixologlari, lingvistlari, mantiqshunoslari va faylasuflaridan L.Vitgenshteyn, R.Karnap, Vaysman, O.Neyrat va boshqalar tomonidan yaratilgan mashxur "Vena krujogi" da tug‘ildi. Falsafa azaldan evristik va kreativ tabiatga ega. Masalan, bugungi atom energetikasi, raqamli iqtisodiyot, elektron boshqaruv xaqidagi g‘oyalarni falsafiy jixatdan kadimgi yunon mutafakkirlari Demokrit, Pifagor va boshqalar yaratishgan. Bugun ushbu g‘oyalar reallashmoqda xolos. Muammoga ortiqcha chuqurlashmasdan shuni ta'kidlash lozimki, fanni,ilmiy tafakkurni siyosiylashuvi ilmiy yuksalishni sekinlashtiradi,uni

chirmoviq kabi o‘sishiga xalaqit beradi. XX asrning 30-yillarida Germaniyada xokimiyat boshiga A.Gitlerni kelishi A.Eynshteyn, L.Vitgenshteyn, E.Fromm va boshqa olimlarni AQShga jon saqlab immigratsiya qilishlariga majbur etdi. Xorkxaymer, Yu.Xabermas, G.Markuze va boshqalarning taqdiri xam shunday bo‘ldi.

Quyida taniqli Frankfurt falsafiy maktabi vakili Erix Fromm muxabbat nazariyasi xususida to‘xtaymiz.

Erix Fromm 1900-yil 23-martida Germaniyaning Frankfurt-Maynda shaxrida xudojo‘y yaxudiylar oilasida tug‘ildi. U 14 yoshga yetganida Yevropada 1-Jaxon urushi boshlandi. An’anaviy patriarxal oilada o‘sib-ulg‘aygan, mexnatsevarlik, diniy va dunyoviy qadriyatlar asosida tarbiyalanayotgan Erix uchun millionlab kishilarning bir-birlarini o‘ldirishlarini, urush sabablarini bilishga qiziqish yosh qalbda chuqur tug‘yon ko‘tardi. Ushbu savolga javob topish uchun u chuqur iztirobga tushadi. Muxabbat muammosiga qiziqishga (ota-onaning bolalarga, bolalarning ota-onaga, fuqaroning Vatanga va x.k.), inson tabiatida ezgulik va yovuzlik nisbatida qaysi jixat asosiy ekanligiga qiziqish shallandi.Bunday qiziqish uni dastlab Frankfurt,so‘ng Geydelberg universitetlariga yetakladi.Ushbu universitetlarda o‘sha davr yetakchi olimlari Maks Veber, Karl Yaspers, Genrix Rikkert va boshqalardan falsafa, sotsiologiya va boshqa fanlar asoslaridan ta’lim oladi. U.K.Marks inson erkinliklari xaqidagi g‘oyalari bilan xam tanishadi va inson to‘la erkinligini Z.Freyd psixoanalizi va “libido” konsepsiyasi asosida taxlil qilar ekan muxabbatni u inson ekzistensiyasi orqali ko‘radi.

Frommm keyinchalik Freyd biologizmidan uzoqlashadi va shaxs xaqida yaxlit ta’limot yaratar ekan antropologik psixoligizm va ekzistensializmga yaqinlashadi.E.Frommning muxabbat doktrinasi uning falsafiy merosida katta o‘rin tutadi. Fromm fikricha muxabbat o‘z genezisiga ko‘ra xayvonot dunyosida kuzatiladigan instinktlar bilan bog‘liq. Biroq inson tabiat qonunlarini,instinktiv mayllarini Injilda tasvirlangan azmu- gunox sodir etgani, “ezgulik” va “yovuzlik” daraxtidan o‘z nafsini tiya olmaganligi sababli uning mevasini ta’tib ko‘rar ekan umrbod gunox botqog‘iga botishga maxkum bo‘ladi. Odam Ato va Momo Xavo shu bilan tabiatdan ayri tug‘i lishlari sabab o‘zlarini aloxida-aloxida jinsga mansub ekanliklarini ko‘radilar. Fromm fikricha inson jinsiy farqdan o‘laroq yaxlitlikka tabiatan intiladi. Jinslar qo‘shilishi aloxidalikka barxam beradi. Bu yerda qo‘shilish emas, qovushish muximligi xaqida xulosa kelib chiqadi. Bugun G‘arb tamaddunida kuzatilayotgan, ommalashayotgan bir jinsli nikox, transseksualizm xodisasi shu orqali izoxlanadi.

Fromm ta’biriga ko‘ra inson tabiatan bir butunlikka, yaxlitlikka intiladi. Gender tenglik bu masalani xal qila olmaydi. Fromm muxabbat doktrinasida inson qanchalik tabiatdan uzoqlashgan sari uni yengishga extiyoji ortib boradi, degan

g‘oya ustuvorlik qiladi. Bu xolatga erishish uchun u turli vositalarga murojaat qiladi: giyoxvand moddalar, inson ongini xiralashtiruvchi alkogol ichimliklar, trans xolatlarga turli yo‘llar bilan tushib ibtidoiy tabiiy xolatga o‘tish va x.k. Masalaga ortiqcha chuqurlashmay ta’kidlash zarurki, Fromm muxabbat doktrinasiga binoan insonga xos eng muxim tuyg‘u bu -muxabbatga erishish, o‘zini boshqa bir jonzodga qurbon qilish, u bilan birlashishdir. Bu bilan Fromm Z.Freyd “libido” nazariyasiga yaqinlashadi. Darxaqiqat jinsiy instinkt barcha tirik jonzodlarga xos xususiyat. Birok uni boshqarish, jilovlash faqat insonga xos xussusiyat-axloq vositasida amalga oshadi. Fromm muxabbat doktrinasida G‘arb jamiyati uchun xos bo‘lgan oila instituti inqirozi, “erkak” va “ayol” tushunchalari o‘rtasidagi farqning tobora yo‘qolishi, jinslararo emas, balki bir jinsli qovushish (bir jinsli nikox) tabiiy birlashish deb baxolanadi. Bu xolat Fromm fikricha ibtidoiy qabilalarda kuzatiladigan orgaik raqslar, turlicha inson ongini xiralashtiruvchi vositalar ta’sirida mumkin bo‘ladi. Shu orqali inson go‘yoki o‘zining tabiiy erkinlik xolatiga erishishga muvaffaq bo‘ladi.

Fromm o‘z doktrinasida XX asr 20-yillarida farzandga nisbatan ota-ona o‘rtasida muxabbat borasida o‘zaro farq masalasini taxlil qiladi. Masalan, ona o‘z farzandini uni xizmatlaridan qat’iy nazar sevadi, ota esa farzandini uning irodasiga qanchalik bo‘ysinishiga, unga xar narsada o‘xshashligiga qarab sevadi. Jinslararo munosabatlarda sevish, sevmoq, sevilmoq barchaga xam nasib qilmasligini ta’kidlaydi. Sevish, Fromm fikricha, ikki kishini o‘zligini saqlagan xolda o‘zaro birlashishidir. Sevgi- xarakat, faollikdir. Sevmoq-olmoq emas, balki bermoqdir.

Fromm Marks ta’sirida sevgiga gumanistik rux beradi: inson sevgi orqali o‘zga kishiga o‘z sevgisi orqali xissiyotlarini, kechinmalarini xad’ya qiladi va o‘rniga xech narsa talab qilmaydi. Birlik, birlashish o‘ta lazzatli xodisadir. Ustoz nafaqat saboq beradi, balki o‘z o‘quvchilaridan o‘rganadi, aktyor o‘z quvvatini tomoshabindan oladi, psixoanalitik shifokor o‘z bemoridan shifo oladi. Fromm sevgi-bu ma’suliyat, birov xaqida g‘amxo‘rlik qilish, xurmat qilish va bilim deb xisoblaydi. Fromm nikox industrial jamiyatlarda kam uchraydigan xodisa ekanligini ta’kidlaydi. Bunday jamiyatlarda asosiy ijtimoiy institut-nikox sarobiy xodisaga aylanadi. Nikox bozor munosabatlari sharoitida beminnat ma’naviy jixatlarini yo‘qotib ratsional, pragmatik xususiyat kasb etadi -shartnoma tamoyiliga o‘tiladi.

Frommning bu g‘oyasi “P.B’yukenenning” G‘arbning o‘limi” kitobida aks etgan nikox, erkak va ayol o‘rtasidagi gender tenglik oqibatlari xaqidagi qarashlariga o‘xshab ketadi: “Nikox...qullikning bir shakli, nikox bor ekan, ayollarning ozod etilishiga umid qilish xomxayoldir”. Xulosa qilib aytganda ko‘zga ko‘ringan G‘arb olimi E.Frommning muxabbat doktrinasi G‘arb jamiyatida kechayotgan ma’naviy tanazzulni ifoda etadi.

ADABIYOTLAR.

1.Ерих Фромм.Искусство любви.- М.:Знание.1990.64 с.

2.П.Бъюкенен.Ғарбнинг ўлими.-Т.: “Илм-Зиё-Заковот”,2021.288 б.

3.Саидова К.У. Екзистенсиалная философская мысл как компоративисцкий дискурс семейных отношений на Востоке и Западе.-Т.: Ёшлар медиапринт. 2021. – 152 б.

4.Саидова К. Феномен свободы человека в восточном и западном екзистенсиализме: компоративисцкий анализ.-Т.: 2023.-194с.

5. Рауф Бекбаев.Историософия Рене Генона.-Т.: 2023.-145 с.

6.Кризис сознания.-М.:Алгоритм .2009.-272 с.

TAFAKKURDA FALSAFIY BAZMLAR...

(Uzoq vaqtlar davomida tafakkur qurshovida yuzaga kelgan g‘oyalar)

Sadulla Otamuratov

fal.f.d., professor

Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori

Milliy g‘oyaning zaminida millat, milliy meros, millat ajdodlarining asrlar davomida to‘plagan tajribalari turadi. Ular millatga quvvat bag‘ishlaydi. Zero, bironta millat o‘z zaminlaridan uzilib, o‘zgalarning zaminlariga tayanib, millat darajasiga ko‘tarila olmaydi. O‘z zaminlardan uzilib qolgan millat o‘zgalarga qo‘shilib olomonga aylanadi. Millat taqdirida milliy g‘oya belgilovchi ahamiyat kasb etadi. U millat qiyofasini asraydigan qo‘rg‘on, uni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, uni oziqlantirib quvvat bag‘ishlab turuvchi ma’naviy omildir.

Insonning ruhiyati har qanday moddiylikdan kuchli bo‘lishi lozim. Aks holda, u moddiy boyliklarning quliga aylanib, xatto o‘zining xalol mexnati bilan topgan moddiy boyliklaridan ham bahra olish, undan zavqlanib o‘zining kamoli yo‘lida foydalanish ruhiyatidan ham mahrum bo‘lib, ma’naviy qashshoq va notavon mavjudotga aylanib qoladi.

Milliy g‘oyaga ehtiyoj qolmagani – millatning tirik murdaga aylanganligini bildiradi.

Sho‘rolarning fojiasi – millatni ulug‘lab, undan umumiy taraqqiyot maqsadlarida foydalanish o‘rniga uni kuch bilan yo‘q qilish yo‘lidan borganliklari bo‘ldi.

Millat mavhum tushuncha emas, u bu ulug‘ qadriyatning dovrug‘ini taratadigan, yurak urishini qalbi bilan xis etadigan insonlar qiyofasida namoyon bo‘ladi.

Biz erkin millat bo‘la turib Ovropaga qanchalik intilib yashasak, uni o‘z vaqtida anglab yetmasak, milliy ma’naviyatimiz shu darajada bizdan uzoqlashib boraveradi.

Millat ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi, degan fikrlar bor, agar shunday bo‘lsa, o‘zbekning bolasi o‘zbek bo‘lib tug‘ilishi nimadan ekan! Unda otaning o‘zbeklikni belgilaydigan qoni qayerda?

Do‘stlik har doim shodu-xurramlikda, o‘yin kulgi, bazmi jamshidda birga bo‘lishda emas, balki dushman nayza sanchishini bilganda, unga qalqon bo‘la bilishdadir.

Do‘stlik inson uchun azaliy qadriyat ekanligi hammaga ma’lum. Ammo bugun uni ma’nan qashshoqlashayotgan «ko‘zi» bilan baholashga intilayotganlardan uzoqroq bo‘lgan ma’qul. Aks holda, do‘stlik sizni ham bu ummonga g‘arq bo‘lishingizga olib kelishi mumkin.

Tafakkur lazati nima? U o‘tmish, bugun va istiqbol zavqi ma’suliyatini xis eta bilish salohiyatida.

Inson ongi har doim yaxshilikka xizmat qilganida edi, u jaholat va yovuzlikka mubtalo bo‘lmagan bo‘lur edi.

Falsafa – hech narsa haqida xech narsani bilmaslikning oqibatidagi olib boriladigan munozara.

Jaholat va yovuzlikka yetakchilik qiladigan ongdan ongsizlik afzaldir.

Vatanni har kim o‘zicha tushunadi. Ammo, uning hamma uchun umumiy bo‘lgan ma’nosi ham borki, u ajdodlar qiyofasida tasavvur etilishidir.

Millat kim? U o‘zligini anglagan insonlarning botiniy va zohiriy moddiyligidir.

O‘zligidan begonalashgan insonlar bevatanlik va millatsizlikka mubtalo bo‘lgan mankurtlardir.

Bugun jahon fuqaroligiga da’vogarlar ko‘payib bormoqda. Bu nimaning belgisi? Aslida, bu ongi, dunyoqarashi va qalbidagi o‘zlikdan mahrum bo‘lgan insonlarning ma’nan yetimlikning alomatidir.

Inson «Men»ining me’yoridan oshgani ham, unga erisha olmaslik ham o‘zini anglamaslikdan kelib chiqadi.

Qalb haqida ko‘p gapiriladi, ammo uning bilan yashash hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi.

Vijdon nima? U odamning “ichidagi” ma’suliyatning tashqaridagi ko‘rinishidir.

Odamlar “vijdon” mohiyatini anglab, uni bu yorug‘ dunyoda yashash va u dunyoda javob berishning ma’suliyati ekanligini bilganlarida edi, ular o‘zlaridan bu darajadan ketib qolmagan bo‘lur edilar.

Ilm olishni hamma gapiradi, ammo unga amal qilish va lazzatlanish hammaga ham nasib qilavermaydi.

Mo‘tadillik insonlar hayotining mazmuni va amaliyotiga aylansa, bilingki, dunyoda yechilmagan muammo qolmaydi.

Har ishda vazminlik «men»likning «unikiligi» borligini e’tirof etish, o‘zi kam gapirib, o‘zgani ko‘p eshitish, «quyushqondan chiqmaslik», haddan oshmaslik.

Insonlarning intellektual salohiyati oshib borishi bilan ularning ochko‘zligi oshib bormoqda. Uni bu ofatdan qanday xalos qilsa bo‘ladi? Uni faqat intellektualning botiniy salohiyatiga yetakchilik qudratini bag‘ishlash bilan uni xalokatga olib keluvchi bu yovuzlikdan xalos qilish mumkin.

Bozorning millatga nisbatan shafqatsizligi shundaki, mehmonxonaning to‘riga millatning intellektuallarini emas, balki soxta ishbilarmonlarini o‘tqizilayotganligidir. Bu istiqbolda millatning moddiy boylikning qurboniga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Talabaga imtihonga tayyorlanish uchun bir kun yetganda edi, u albatta ertaga akademik bo‘lgan bo‘lur edi.

Tashqarisi yaltiroq, ichkarisi qaltiroq do‘stlikdan achchiq bo‘lsayam mardlikka sadoqati kuchli dushman afzal.

Millatning ma’nan o‘lishi – butun insoniyatning jismonan o‘lishiga olib keladi.

Nafs nima? U hayolga kelganini reallikka aylantirishga qurbi yetganda ham me’yordan oshmaslik, o‘zini tiya bilishdir.

Fanda o‘zini bamisoli «xo‘rozday» his etib, o‘zgalardan bilag‘on qilib ko‘rsatishga moyil bo‘lgan «olimlari» o‘zgalar soyasida yuradigan notavonlardir.

Haqiqiy fan darg‘alari xech qachon o‘zining «men»ligiga da’vogarlik qilmaydilar. Ularning «men»ligi o‘zgalar e’tirofida namoyon bo‘ladi.

Olomon – millat darajasiga ko‘tarila olmagan odamlar to‘dasidir.

Odam, individ, shaxs, fuqaro kabi tushunchalar qachonki milliy “Qiyofa” da namoyon bo‘lsagina u ma’naviy va moddiy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Fanda mohiyatiga yetmasdan hammaning fikriga qo‘shilishdan ko‘ra, o‘z fikrini himoya qila oladigan o‘jarlik afzal.

Ijod insonni tafakkurga yetaklovchi kuch, ungi ilhom beruvchi – hayotdan zavqlanish yoki nafratlanish ruhiyatidir.

Ijod hayotda yuzaga keladigan adolatsizlik, tengsizlikka nisbatan norozilik hayoqirig‘idir.

Ijod (she’riyat, falsafa, san’at) o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan narsa emas, unga “turtki” beradigan manba kerak! Uni topa bilish esa insonning iqtidori, Ollohning qudratiga bog‘liq.

Aql – hayotdan lazzatlanib yashash, dushmanni do‘stga aylantirishning yo‘li, ammo kelajakni oldindan aytadigan cho‘pchaklar kuch darajasida qolaveradi. U faqat Ollohga ayondir.

Miya oshqozonga emas, oshqozon miyaga ishlagandagina o‘zligimizni va millatimizni asrab qola olamiz. Aks holda, shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon ummoniga g‘arq bo‘lamiz va bu yorug‘ olamda faqat qorin uchun yashab o‘tamiz, bizdan nom-nishon qolmaydi.

Demokratiya insonlar hokimiyatdan o‘zi xohlaganicha erkinligini tortib ololmagani tufayli o‘zini ovutish uchun o‘ylab topgan orzularidir.

Agar insonlar erkin yashashlariga erishish uchun demokratiyani o‘ylab topmaganlarida edi, hokimiyat bilan murosa-i madoralikda hayot kechira olmas edilar.

Demokratiya aslida insonlarning hayollaridagi hokimiyati, ammo u real vakillik sifatida insonlarning hayotga qiziqishi, ertangi porloq kunga umid qilib yashashlari uchun o‘ylab topilgan ehtiyojidir.

Inson shunday ojiz, notavon bandaki, hatto u hayotning bebaho boylik ekanligini anglashdan ko‘ra, undan faqat moddiy boylik orttirishni afzal ko‘radi. U hayotning o‘tkinchiligini, moddiy boylik uning oldida choychaqaga ham arzimasligini tushunmasdan o‘tib ketaveradi.

Olamdagi mahluqlar ichida odamdan ojizi yo‘q. Chunki u hayvonlardan farqli o‘laroq, ongli bo‘lishiga qaramasdan Olloh bergan hayotni qadriga yetmasdan, uni moddiy boylikka qurbon qilguvchidir.

O‘zbeklarda “Qo‘shningni ko‘zi qiyshiq bo‘lsa, ko‘zingni yum”, degan naql bor. Agar seni ko‘zing qiyshiq bo‘lsa, qo‘shning ko‘zini yummasa-chi?

Muhabbat (sevgi)ning orombahshligi, uni oshkora etishda yoki barchaga ko‘z-ko‘z qilishda emas, balki har ikki tomonning o‘zgalar uchun sirli bo‘lgan qalb va ruhiy olamda kechadigan kechinmalarning nechog‘lik iztiroblarga boyligi bilan o‘lchanadi.

Davr insonning mintalitetini o‘zgartiradimi yoki inson davrni o‘zgartiradimi? Aslida inson bo‘lmasa davr ham o‘z holicha qolaveradi.

Ustozlar “ishbilarmonlik”ni talabalardan o‘rgansalar kerak. Chunki bugungi talabalar bu jabhada ustozlardan o‘zib ketganlar.

Ustozga pora berishga o‘rgangan talaba pora berib o‘qishga ham kirgan.

Ustoz va talaba munosabatlarida ozgina bo‘lsa ham masofa bo‘lmas ekan, bilingki, ular bir-birlarining manfaatlarini anglab yetganlar.

Inson axloqi haqida ko‘p va xo‘p yozilgan. Ammo haligacha mukammal andozasi yaratilmagan. Bu insonning nomukammalligidandir.

Dushmani, loaqal fikriga qarshi fikr aytadigan odami yo‘q kishi bilingki u ikkiyuzlamachidir.

Yaqinlarni yaxshiroq bilishning eng kuchli omili – ular sendan uzoqlashganda namoyon bo‘ladi.

Qon qonni tortadi – degan gap bor, agar uning to‘g‘riligiga iymon keltirmoqchi bo‘lsang, o‘zing tug‘ilgan zaminning seni har doim o‘ziga tortishidan izla.

Baxtni har kim ehtiyojidan kelib chiqqan holda tushinadi, bu bor gap. Ammo uning barcha uchun umumiy bo‘lgan mezoni ham bor – u bu yorug‘ olamning qadriga yetib yashashdir.

Ko‘p hollarda ko‘rinishidan “muloyim” odam amalda johil bo‘lib chiqadi va aksincha ko‘rinishi va so‘zida qo‘pol bo‘lgan kishi amalda samimiy bo‘lib chiqadi.

Ba’zi odamlarga nisbatan “bilgani ichida”, degan so‘z ishlatiladi, undaylarning ongi va tafakkuri notavonlik tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshgan bo‘ladi.

Do‘stni boy bo‘lib ketganidan xursand bo‘lgandan ko‘ra, uning amalda nimaga qodirligiga qarab baholagan odamgina do‘st tanlashda adashmaydi.

Odam hatto jismining arzimagan bir siqim tuproqqa aylanib qolishini bilsa-da, umri va hayotini boylikka bag‘ishlashdan qaytmaydi.

Ey inson! O‘z hayotingni arzimagan kayf-safoga bag‘ishlashdan ko‘ra, tafakkuringdan zavqlanishga o‘tsang edi, bu yorug‘ olam quvonchlarga to‘lib toshgan bo‘lur edi.

Ibo o‘zbek tilida ayollar ma’nan, axloqan go‘zalligini ramzi sifatida qo‘llaniladi. Ayol kishining iboli bo‘lishi, atrofga, o‘zgalarga, sevgilisiga nisbatan ilohiy-ruhiy holatdagi ma’noli qarashlarida namoyon bo‘ladi.

Iymonli bo‘lishning muhim belgilaridan biri – ayollarday iboli bo‘lishdir. O‘zbeklarda iboli bo‘lish deganda, uning qarashlaridagi ilohiy-ruhiy holatni tushunish mumkin. U o‘zining ko‘zlarida, qarashlarida, o‘zgalarni o‘ziga rom etadigan sirli bir tuyg‘ular barq etib turadi.

“Ibo” so‘zi ayollarga nisbatan qo‘llaniladi. Uning ma’nosi ayol zotining eng avvalo sirli boqishlarida mujassam bo‘lgan yigitni o‘zi anglab yetmagan holda maftun etuvchi boqishlarining in’ikosidir.

Bugungi ziyoli kim? U bozorning shafqatsizligi sharoitida kundalik yashash tashvishlariga limmo-lim to‘lib toshgan ijtimoiy guruh vakilidir.

OSVALD SHPENGLERNING JAMIYAT TARIXINI EVOLYUSION TUSHUNISHGA NISBATAN QARASHLARI

Pulatova Dildor Akmalovna
Alfraganus universiteti professori;
Mo‘minov Xondamir Ziyadullaevich
Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada nemis faylasufi Osvald Shpenglerning jamiyat va madaniyat tarixi haqidagi falsafiy qarashlari tahlil etilgan. Muallif tarixni evolyusion yoki progressiv jarayon sifatida emas, balki morfologik va davriy tizim sifatida talqin etgan. Shpengler ta’limotiga ko‘ra, har bir madaniyat mustaqil ruhiy organizm bo‘lib, uning tug‘ilishi, o‘sishi, gullab-yashnashi va so‘nishi tabiiy qonuniyatga bo‘ysungan. Maqolada mutafakkirning madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi farq haqidagi ta’limoti, sakkizta madaniyat tipiga bergan ta’riflari hamda tarixiy relyativizm g‘oyasi ilmiy tahlil etilgan. Uning qarashlari Yevropa markazchiligi va progress illyuziyasini tanqid qilib, har bir madaniyatning ichki ruhi va tarixiy taqdirini anglash zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Shpengler, tarix falsafasi, madaniyat, sivilizatsiya, morfologiya, faustcha madaniyat, relyativizm, siklli rivojlanish, Yevromarkazchilik, “tarraqqiyot haqidagi yanglish tasavvur”.

Annotation. The article analyzes the philosophical ideas of the German thinker Oswald Spengler concerning the history of society and culture. The author interprets history not as an evolutionary or progressive process but as a morphological and cyclical system. According to Spengler, each civilization is an independent spiritual organism that experiences birth, growth, flourishing, and decline according to natural laws. The article explores his concept of the distinction between culture and civilization, his classification of eight major cultural types, and his idea of historical relativism. Spengler’s views challenge Eurocentrism and the illusion of progress, emphasizing the necessity of understanding each culture’s unique spiritual essence and historical destiny.

Keywords: Spengler, philosophy of history, culture, civilization, morphology, Faustian culture, relativism, cyclical development, Eurocentrism, illusion of progress.

Аннотация. В статье анализируются философские идеи немецкого мыслителя О. Шпенглера, посвящённые пониманию истории общества и культуры. Автор рассматривает историю не как эволюционный или линейно-прогрессивный процесс, а как морфологическую и циклическую систему. Согласно Шпенглеру, каждая культура представляет собой самостоятельный духовный организм, проходящий стадии рождения, расцвета и заката в

соответствии с природными законами. В статье подробно рассматриваются его учение о различии между культурой и цивилизацией, описание восьми культурных типов, а также концепция исторического релятивизма. Идеи Шпенглера выступают против европоцентризма и иллюзии прогресса, подчёркивая важность осмысления внутренней духовной сущности каждой культуры и её исторической судьбы.

Ключевые слова: Шпенглер, философия истории, культура, цивилизация, морфология, фаустовская культура, релятивизм, циклическое развитие, европоцентризм, иллюзия прогресса.

Kirish

XX asr boshlarida insoniyat tafakkuri yangi yo‘nalishni oldi – bu davrda tarix va madaniyat falsafasi evolyusion yo‘nalishdan morfologik va sivilizatsion yondashuv sari burildi. Bu jarayonning eng yirik namoyandalaridan biri nemis faylasufi Osvald Shpengler (1880 -1936) bo‘lib, uning ikki jildli “Der Untergang des Abendlandes” (“Yevropa quyoshining so‘nishi”,1918-1922) asari jahon falsafasi tarixida yangi burilish yasadi.

Shpengler tarixiy jarayonni evolyusion emas, balki morfologik va siklli, ya’ni davriy tizim sifatida izohladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, har bir madaniyat tirik organizm singari tug‘iladi, o‘sadi, gullab-yashnaydi va so‘nadi [1]. Shu tariqa, tarix faqat bir yo‘nalishda faqat taraqqiyot (progress) tomon harakatlanadi, degan g‘oya rad etildi.

Shpenglerning falsafasi insoniyat tafakkurini yevrotsentrik dunyoqarashdan chiqarib, har bir sivilizatsiyaning o‘z ruhi, ichki qonuniyati va taqdiri borligini ilgari surdi.

Asosiy qism

XIX asrdagi O. Kont, G. Spenser, Ch. Darvin kabi mutafakkirlar jamiyatni bir yo‘nalishli evolyusion jarayon sifatida izohlagan edilar. Ular uchun tarix – ibtidodan mukammallikka intilish edi. Shpengler evolyusionizmni yevrotsentrik dunyoqarash deb baholaydi, chunki u butun jahonni faqat Yevropa madaniyati mezonlari bilan o‘lchashga harakat qiladi.

Shpenglerning ta’limotiga ko‘ra, jamiyat tarixi biologik organizm singari o‘z tabiiy davrlariga ega: tug‘ilish – o‘sish – gullab-yashnash – so‘nish. Bu bosqichlarda “tarraqqiyot” emas, balki aylanma hayot sikli kuzatiladi. Shu ma’noda u “tarixda ilgarilash yo‘q, faqat turli madaniyatlarning hayot shakllari mavjud”, [2] deb hisobladi.

Shpengler “madaniyat” va “sivilizatsiya” tushunchalarini tarix falsafasida asosiy muqobillar sifatida talqin qildi. Uningcha, madaniyat – bu ruhiy va ijodiy taraqqiyot bosqichi, sivilizatsiya esa madaniyatning tabiiy so‘nish bosqichidir. Ya’ni, madaniyat – ijod, din, san’at va ma’naviyatning yuksalish davri. U ichki

ruhiy kuch, ilhom va insonning tabiat bilan uyg‘unligini ifoda etadi. Sivilizatsiya esa, – tashqi mexanizatsiya, moddiylik va pragmatizmning ustuvorligiga asoslanadi. U ijodning o‘rnini texnika egallaydigan, ma’naviyatdan uzilish davridir.

Shpenglerning ta’limotida bu ikki holat tarixiy jarayonning tabiiy bosqichlaridir. Madaniyat yashovchanlik va yangilanish ramzi bo‘lsa, sivilizatsiya – turg‘unlik va inersiyaning timsolidir. Bu qarashlar asosida u Yevropa madaniyatini “faustcha madaniyat” deb atadi. Unda inson tabiatni zabt etishga intilgan, ammo bu intilish uni ma’naviy inqirozga yetaklagan.

Shpengler tarixni morfologik tizim sifatida tushuntirdi. “Morfologiya” – shakllar va ularning ichki qonuniyatlarini o‘rganish fani bo‘lib, u voqelikni biologik aylanish asosida tahlil qiladi. U tarixni xronologik ketma-ketlik emas, balki ruhiy shakllar silsilasi sifatida ko‘radi[9]. Shpenglerning fikricha, dunyoda sakkizta mustaqil madaniyat mavjud bo‘lib, har biri o‘z ruhiy arxetipiga va tarixiy taqdiriga ega: antik (apolloncha), arab (magiyaviy), xitoy, mayya, hind, vavilon, rus-pravoslav va faustcha (Yevropa) madaniyatlar.

Bu yondashuv “tarixiy relyativizm” deb ataladi – ya’ni, tarixning ma’nosi mutlaq emas, balki har bir madaniyatning ichki dunyosiga bog‘liq. Shuning uchun ham “progress” degan umumiy tushuncha illyuziya bo‘lib, “faqat madaniyatlarning turli hayot davrlari bor”. Bu g‘oya keyinchalik Arnold Toynbi, Karl Yaspers, Martin Xaydegger va boshqalar falsafiy qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Antik (apolloncha) madaniyat. Bu madaniyat qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyalarini qamrab oladi. Uning asosiy ruhi – apolloncha, ya’ni tashqi joziba, muvozanat, tanaviy go‘zallik va miqyos hissi bilan bog‘liq. Shpenglerning ta’kidlashicha, antiq inson “tanasi orqali dunyo bilan muloqotda bo‘ladi”, ya’ni moddiylikni ruh bilan uyg‘un holda anglaydi. Bu madaniyatda inson tabiatning bir qismi sifatida yashaydi, u uchun makon cheklangan, qahramonlik va estetika esa markaziy qadriyatlardir.

Arab madaniyatini Shengler “magiyaviy” deb ataydi. U milodning IV–XII asrlarida shakllangan Islom va Yaqin Sharq sivilizatsiyasini qamrab oladi. Bu madaniyatning asosiy belgisi – ichki ruhiy birlik va yaxlitlik hissidir. Unda inson o‘zini Allohning ifodachisi sifatida ko‘radi, borliq “ilohiy nur” bilan to‘lgan deb qabul qilinadi. Shuning uchun magiyaviy madaniyatda geometriya va arxitekturadagi simmetriya, misol uchun masjidlar va gumbazlar, birlik va cheksizlik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Xitoy madaniyati “assotsiatsiyali” madaniyat sifatida talqin etiladi. Bu madaniyatning asosiy belgisi – insonning tabiat bilan uyg‘unligi va urf-odatlarga sadoqatidir. Shpenglerning fikricha, xitoy madaniyatida vaqt tushunchasi davriy,

ya’ni doimiy aylanish bilan bog‘liq. Unda jamiyatning ustuvorligi shaxsdan ustun turadi, va asosiy qadriyatlar – an’ana, poklik, intizom va itoatkorlikdir.

Mayya madaniyati Amerika qit’asining qadimgi mayya va astek sivilizatsiyalari bilan bog‘liq. Uning markaziy g‘oyasi – qo‘rquv va qurbonlik orqali kosmik muvozanatni saqlash. Shpengler bu madaniyatni “qurbonlik madaniyati” deb ataydi, chunki u vaqt va hayotni abadiy aylanishda ko‘radi. Bu madaniyat uchun fazo cheksiz emas, balki “sirli shakllar maydoni”, vaqt esa qurbonlik orqali tozalanadigan ma’naviy jarayondir.

Hind madaniyati “metafizik madaniyat” deb ta’riflanadi. Uning asosiy belgisi – ruhiy ya’ni kosmologik bilishga intilish. Inson bu madaniyatda illyuziya dunyosida (mayyada) yashaydi va uning maqsadi – nafs va olam aloqalaridan ozod bo‘lish (moksha)dir. Shpenglerningcha, hind tafakkuri vaqtni “cheksiz aylanma” sifatida ko‘radi va real dunyoni “o‘tish bosqichi” deb hisoblaydi.

Vavilon madaniyati “kosmik madaniyat” sifatida ta’riflanadi. Bu madaniyatda inson borliqni matematik va astrologik tartibdagi tizim sifatida qabul qiladi. Uning asosiy belgisi – vaqt va fazoning cheksizligiga ishonch, yorug‘lik va yulduzlar orqali inson taqdirini belgilash g‘oyasidir. Bu madaniyatda falsafa va ilm astronomiya bilan uyg‘unlashgan, dunyo tartibi “osmoniy ilohiy hisob” sifatida anglangan.

Rus (pravoslav) madaniyatini Shpengler “passionar va mistik madaniyat” deb ta’riflaydi. Rus madaniyatining asosiy ruhi – insonning cheksizlikka intilishi va ma’naviy kenglik hissi. Unda “fazo” tushunchasi cheksiz dalalar, ma’naviy sabr va qanoat bilan bog‘liq. Pravoslaviy tafakkurda inson Xudoga yaqinlashish uchun azob va fidokorlikni qabul qiladi. Bu madaniyatda moddiy taraqqiyotdan ko‘ra ruhiy yuksalish ustuvor hisoblanadi.

Faustcha (Yevropa) madaniyati Shpengler ta’limotida eng muhim tiplardan biri. Bu madaniyatning markaziy arxetipi – cheksizlik va sinov ruhi. U insonning tabiatni zabt etishga, ilm va texnikani hukmron qilishga intilishi bilan tavsiflanadi. Shpengler bu madaniyatni Gyotening “Faust” qahramoni bilan qiyoslaydi: inson doimo izlanadi, ilm orqali abadiy kuch izlaydi, ammo shu izlanish uni ma’naviy inqirozga yetaklaydi.

Bu madaniyatning oxirgi bosqichi – sivilizatsiya bo‘lib, u ilm va texnika taraqqiyoti orqali ijodiy ruhning so‘nishini anglatadi. Shu sababli Shpengler Yevropa madaniyatini “ruhiy yorug‘likdan so‘nggi yong‘in” deb tasvirlaydi.

Xulosa

Osvald Shpenglerning tarix falsafasi insoniyat tafakkurini tubdan o‘zgartirdi. U tarixni bir yo‘nalishli evolyusion jarayon emas, balki madaniyatlarning ruhiy hayoti, siklik qonuniyatlar va ichki taqdirlar yig‘indisi sifatida talqin qildi.

Shpengler ta’limoti tarixiy determinizm va progress g‘oyalarini inkor etib, har bir madaniyatning mustaqil mohiyatini, uning tug‘ilishi, gullab-yashnashi va so‘nishidagi tabiiy qonuniyatni ko‘rsatdi. Bu ta’limot hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, u global sivilizatsiyaning ma’naviy inqirozini tushunish, madaniyatlar o‘zaro muloqotining falsafiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. – М.: Мысль, 1993.
2. Spengler O. The Decline of the West. – London: Allen & Unwin, 1932.
3. Toynbee A. A Study of History. – Oxford University Press, 1954.
4. Бердяев Н. Смысл истории. – Париж, 1931.
5. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1991.

YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSINING O‘RNI

Masharipova Gularam Kamilovna
Alfraganus university professori, falsafaf fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida shakllanayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Ayniqsa, XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ilgari surilgan adolat, ilm, axloq, insonparvarlik va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Maqolada Yusuf Xos Hojib falsafasining Uchinchi Renessans mafkuraviy poydevorini shakllantirishdagi o‘rni, yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlashdagi ahamiyati va uning falsafiy merosidan foydalanishning metodologik yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib merosi Yangi O‘zbekistonning ma’naviy-siyosiy taraqqiyotida, yoshlarni milliy g‘urur, adolat va ilmga sadoqat ruhida tarbiyalashda bebaho falsafiy manba hisoblanadi.

Аннотатsия. В данной статье анализируются философские основы идеи Третьего Ренессанса, формирующейся в процессе развития Нового Узбекистана. Особое внимание уделено исследованию взглядов мыслителя XI века Юсуфа Хос Ходжиба, изложенных в его труде «Кутадгу билиг», на темы справедливости, науки, нравственности, гуманизма и государственного управления с точки зрения современной социально-философской науки. В статье раскрывается роль философии Юсуфа Хос Ходжиба в формировании

идеологического фундамента Третьего Ренессанса, значение его идей для укрепления духовного иммунитета молодежи и методологические направления использования его философского наследия.

Ключевые слова: философское наследие Юсуфа Хос Ходжиба, духовно-политическое развитие Нового Узбекистана, воспитание молодежи в духе natsionalьной гордости, справедливости и преданности знаниям, бесценный источник философской мудрости.

Abstract. This article analyzes the philosophical foundations of the idea of the Third Renaissance, which is taking shape in the process of New Uzbekistan's development. Particular attention is given to the views of the 11th-century thinker Yusuf Khass Hajib, presented in his work "Kutadgu Bilig", regarding justice, knowledge, morality, humanism, and state governance from the standpoint of modern social philosophy. The article highlights the role of Yusuf Khass Hajib's philosophy in forming the ideological foundation of the Third Renaissance, its importance in strengthening the spiritual immunity of youth, and methodological directions for utilizing his philosophical heritage.

Keywords: philosophical heritage of Yusuf Khass Hajib, spiritual and political development of New Uzbekistan, education of youth in the spirit of national pride, justice and devotion to knowledge, invaluable source of philosophical wisdom.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri - Uchinchi Renessans g‘oyasini hayotga tatbiq etishdir. Bu g‘oya o‘zida milliy uyg‘onish, ma’naviy yangilanish, ilm-fan, madaniyat va tafakkur sohalarida yuksalishni mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek xalqi tarixida buyuk ma’naviy uyg‘onish davrlarini yaratgan ajdodlarimizning falsafiy merosi bugungi kunda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday allomalardan biri - Yusuf Xos Hojib, XI asrning yirik mutafakkiri, “Qutadg‘u bilig” asarining muallifidir. Yusuf Xos Hojib o‘z davrida jamiyatni boshqarish, adolat, ilm, axloq va insoniy kamolot masalalarini chuqur falsafiy tahlil qilgan. Uning g‘oyalari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi Yangi O‘zbekiston konsepsiyasida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytib o‘tganidek: “Ayni paytda xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o‘zi salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi” [1, 5-b.]. “Qutadg‘u bilig”ning bilimdonlaridan biri, yirik turkolog olim Rashit Rahmati

Aratning “Kutadgu Bilig, I.Metin, Türk Dil Kurumu Yayınları” asari turkshunos olimlar o‘rtasida ancha mashhurdir. Shuningdek, A.Dilachar [2, 203 b.], K.Eraslan, O.F.Sertkaya [3], A.B.Erjilasun [4, 488 b.], I.Kafeso‘g‘lu [5], N.Kulekchi [6, 104 b.], E.Ushenmez [7, 16 b.], K.Yavuz [8, 37 b.] kabi olimlar asarning matnshunosligi, lisoniy va badiiy jihatlari xususida bahs yuritganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yusuf Xos Hojib falsafasining asosiy yo‘nalishlari. 1. Adolat va davlat boshqaruvi falsafasi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, davlatning barqarorligi - adolatga asoslanadi. U shunday yozadi: “Adolat — davlatning ustuni, zolimlik esa uning yemiruvchi kuchidir.”

Bu g‘oya bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish konsepsiyasining falsafiy ildizidir. Yangi O‘zbekistonning “Inson qadri uchun” tamoyili ham aynan shu adolat konsepsiyasiga tayanadi.

Ilm va ma’rifatning jamiyatdagi o‘rni. “Qutadg‘u bilig”da ilm — insonni kamolotga, jamiyatni esa taraqqiyotga eltuvchi eng muhim omil sifatida talqin etiladi: “Ilmli kishi o‘zini ham, elini ham yuksaltirur.”

Bugun bu fikr Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatida, “Raqamli bilimlar”, “Yoshlar akademiyasi”, “Ilm-fan taraqqiyoti” dasturlarida o‘z ifodasini topmoqda.

Axloq va inson kamoloti falsafasi. Mutafakkir insonni axloqiy barkamollikka chorlaydi. Uningcha, rahbar ham, fuqaro ham “to‘g‘rilik” va “vijdon” bilan ish tutmog‘i kerak.

“To‘g‘ri so‘z va toza niyat – insonning ziynati.”

Bugungi global axborot makonida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun aynan shu qadriyatlar dolzarb ahamiyatga ega.

4. Insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalari. Yusuf Xos Hojib insonni jamiyatning markaziy qadriyati sifatida ko‘radi. Uningcha, inson qadrini ulug‘lash – jamiyatni yuksaltirishning asosidir. Bu g‘oya Yangi O‘zbekiston siyosatidagi “Inson qadri” konsepsiyasi bilan uzviy uyg‘unlikda.

Yusuf Xos Hojib merosining Yangi O‘zbekiston g‘oyalari bilan uyg‘unligi

/r	Yusuf Xos Hojib g‘oyasi	Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi bilan uyg‘un jihati
.	Adolat – davlatning poydevori	Huquqiy davlat, adolatli jamiyat qurish siyosati
	Ilm – insonni va elni	Ta’lim-tarbiya tizimini isloh

.	yuksaltiradi	qilish, ilm-fan rivoji
.	To‘g‘rilik – eng oliy fazilat	Korrupsiyaga qarshi kurash, halollik siyosati
.	Inson qadri – davlat mezoni	“Inson qadri uchun” tamoyili, ijtimoiy himoya siyosati

Bu uyg‘unliklar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston g‘oyaviy asoslarini shakllantirishda o‘zbek xalqining qadimiy falsafiy merosidan samarali foydalanish mumkin va zarurdir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yusuf Xos Hojib falsafasini Yangi O‘zbekiston mafkuraviy asoslaridan biri sifatida o‘rganish yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi. “Qutadg‘u bilig” asarining ijtimoiy-falsafiy talqinlarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish — Uchinchi Renessansning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Falsafiy merosni zamonaviy tahlil qilish orqali yosh avlodni milliy g‘urur, adolat va ilmga intilish ruhida tarbiyalash mumkin. Yusuf Xos Hojibning insonparvarlik g‘oyalari global axborot bosimlariga qarshi mafkuraviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy va g‘oyaviy asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Mutafakkirning “Qutadg‘u bilig” asarida ilgari surilgan adolat, ilm, axloq, to‘g‘rilik va insonparvarlik g‘oyalari hozirgi davrda Uchinchi Renessans g‘oyasining falsafiy mazmuni bilan uzviy uyg‘unlik kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning adolat haqidagi qarashlari Yangi O‘zbekistonning “inson qadri uchun” tamoyiliga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilm va ma’rifat haqidagi g‘oyalari yoshlar ongida ilmga intilish, tafakkur erkinligi va ma’naviy kamolot ruhini shakllantirishga yordam bermoqda.

Axloq va to‘g‘rilik haqidagi falsafasi esa jamiyatda halollik, mas’uliyat va insoniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yusuf Xos Hojib merosi yoshlar mafkuraviy barqarorligini ta’minlashda, ularni global axborot tahdidlariga nisbatan mustahkam ma’naviy pozitsiyada tarbiyalashda metodologik asos bo‘la oladi. Umuman olganda, Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosidan samarali foydalanish — Yangi O‘zbekistonni ma’naviy jihatdan boy, adolatli va ilm-fanga tayangan jamiyat sifatida rivojlantirish, shuningdek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ishonchli g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Renessansga sabab bo‘luvchi omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rivojlanishlarning ushbu hodisaga nechog‘lik xizmat qilganligini bilish mamlakatimizda Uchinchi Renessans davrining boshlanishida qo‘l keladi.

Renessans davrini keltirib chiqargan omillar orasida buyuk allomalar dahosining shakllanishi masalalari ham ahamiyatga molik bo‘lib, shu kontekstda Yusuf Xos Hojib ma’naviy merosini o‘rganish ham bugungi kundagi ilmiy muammolardan biridir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Renessans davrini o‘rganish fanlararo integratsiyani talab qiladi. “Bir vaqtning o‘zida iqtisodiyot, madaniyat, ma’naviy hayot va siyosiy jabhadagi o‘zgarishlar, shu bilan birgalikda aniq va tabiiy fanlar, falsafa va adabiyot kabi fundamental fan sohalaridagi yangiliklar, ularning mohiyatini ilmiy jihatdan tatbiq etish g‘oyatda keng ko‘lamli tadqiqotlarni taqozo etadi”. Shu bilan birgalikda falsafaning metodologik funksiyasidan kelib chiqib, Yuqoridagilarning barchasini umumlashtirgan holda xulosalar chiqarish mumkin. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat o‘z davrining siyosiy-ijtimoiy tafakkuri mahsuli, balki bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ham bebaho ma’naviy va falsafiy manbadir. Uning asarida ilgari surilgan adolat, ilm, axloq, insonparvarlik, rahbar va xalq munosabatlari haqidagi qarashlar zamonaviy demokratik jamiyat qurishning falsafiy poydevoriga aylanmoqda.

Mutafakkirning “adolat – davlatning ustuni”, “ilm – insonni yuksaltirur”, “to‘g‘rilik – eng oliy fazilat” kabi g‘oyalari bugungi Yangi O‘zbekiston siyosiy, ma’naviy va huquqiy hayotida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Bu jihatdan, Yusuf Xos Hojib falsafasi Uchinchi Renessans g‘oyasining ma’naviy ildizlari va mafkuraviy tayanchlaridan biri sifatida baholanishi lozim.

Shuningdek, mutafakkir merosida yosh avlodni ilmga, ezgulikka, halollikka va milliy g‘ururga chorlovchi qarashlar mavjud bo‘lib, ular hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi turish va barkamol insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish — bu faqat tarixiy o‘tmishni o‘rganish emas, balki Yangi O‘zbekistonning kelajak taraqqiyoti, Uchinchi Renessans poydevorini ilm, ma’naviyat va adolatga asoslangan holda barpo etishning mustahkam falsafiy asosidir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 5 b.
2. Dilaçar A. Kutadgu Bilig, Ankara, 1972. – 203 b.
3. Sertkaya O. İslâmî Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. Bochum, 1977.
4. Ercilasun A. B. Başlangıcından Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara, 2004. – 488 b.

5. Kafesoğlu İ. Kutadgu Bilig ve Kültür Tarihimizdeki Yeri, Kültür Bakanlığı Yayınevi. İstanbul, 1980.
6. Külekçi N. Yusuf Has Hacip ve Kutadgu Bilig, Toker Yay., İstanbul, 2011. – 104 b.
7. Üşenmez E. “Kutadgu Bilig (Nemengan /Fergana) Özbekistan, 2011. – 16 b.
8. Yavuz K., Yusuf Has Hacip ve Kutadgu Bilig, Tür Dili ve Edebiyatı Dergisi, Cilt 37, Sayı 37. 2007. – 37 b.

MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA RENESSANSINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Masharipova Gularam Kamilovna
Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori,
Rzayeva Adila Avaz qizi
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansi davrlarining o‘ziga xos jihatlari, ularning paydo bo‘lish sabablari hamda madaniyat, fan va san’at rivojiga qo‘shgan hissalari tahlil qilinadi. Asarda Sharq va G‘arb uyg‘onish davrlarining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari, ularga xos ilmiy tafakkur, insonparvarlik g‘oyalari hamda buyuk allomalar faoliyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Renessans, Markaziy Osiyo, Yevropa, uyg‘onish davri, madaniyat, fan, san’at, insonparvarlik, allomalar.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности эпох Возрождения в Центральной Азии и Европе, причины их возникновения, а также вклад в развитие культуры, науки и искусства. Анализируются сходства и различия между восточным и западным Ренессансом, гуманистические идеи и деятельность великих мыслителей.

Ключевые слова: Ренессанс, Центральная Азия, Европа, эпоха Возрождения, культура, наука, искусство, гуманизм, ученые.

Abstract. This article analyzes the unique characteristics of the Renaissance periods in Central Asia and Europe, exploring their origins and contributions to the development of culture, science, and art. It highlights the similarities and differences between the Eastern and Western Renaissances, focusing on humanistic ideas and the achievements of great scholars.

Keywords: Renaissance, Central Asia, Europe, revival period, culture, science, art, humanism, scholars.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). IX-XV asrlarda shakllangan falsafiy qarashlar, ta’limotlar, kashfiyotlar yangi davr yangicha tafakkur tarzi uchun yo‘l ochdi. Qomusiy mutafakkirlar tabiiy-ilmiy fanlar, antik davr ilmu fani hamda falsafasini o‘rganishga kuchli e’tibor qaratdilar. Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yusuf Xos Hojib, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Nizomulmulk, Mahmud az-Zamaxshariy kabi allomalar shu davrning mahsuli bo‘ldilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk Uyg‘onish davri - Birinchi (ma’rifiy - IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar - XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan. Bu - jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir” [1], - degan fikrlari mag‘zida ushbu haqiqat ifodalangan. Ushbu mavzuni o‘rganish dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Xorazm, Sug‘d, Farg‘ona va Xuroson xalqlarining o‘ziga xos madaniyatini, ularning dunyo madaniyatiga qo‘shgan hissalarini inkor etib bo‘lmaydi. IX asrda Bag‘dodda “Bayt ul-hikma”da faoliyat olib borgan olimlarning ko‘pchiligi, shu jumladan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yy), Abdulhamid ibn Turk al-Xuttaliy (IX asr), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abbos ibn Said al-Javhariy (IX asr), Abu-l-Abbos Ahmad al-Farg‘oniy (IX asr) Movarounnahr zaminidan ekanliklari ilm ahliga yaxshi ma’lum. O‘rta Osiyolik bo‘lgan va Yaqin Sharqning Bag‘dod, Halab, Damashq va boshqa shaharlarida yashab ijod etgan mashhur faylasuf va mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy (870-950-yy) ham Eronning Ray shahrida astronomik kuzatishlar olib borgan. “Faxriy sekstant”ni kashf etgan atoqli astronom Abu Mahmud al-Xo‘jandiy ham Eronning turli shaharlarida yashab ijod etgan. G‘arbda “Avitsenna” nomi bilan tanilgan mashhur Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy ham shu hududda faoliyat olib borgan. Manbalarda allomalarning aksariyati “Markaziy Osiyoning turli shahar va kentlarida tug‘ilib, o‘sha yerda turli fanlardan yetuk ma’lumot olganlar va keyinroq ayrim ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko‘ra Yaqin va O‘rta Sharqning boshqa shaharlariga ketishga majbur bo‘lganlar” [2, 6-b.]. Ularning ilm yo‘lidagi say’-harkatlari, safarlarda bo‘lishlari, ulug‘ ustozlar xizmatida, yoki ulardan ta’lim olish maqsadidagi intilishlari insoniyatni ma’rifatli qilish, inson zotini ulug‘lashdek oliyjanob, insonparvar maqsadlarga yo‘naltirilganligi bilan muhim sanaladi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy “Algebra” faniga asos solib, dunyo ilmiga aniq fanlarni har tomonlama rivojlantirdi. Xorazmiy buyuk matematik, geograf va astronom, algebra fanining asoschisi hisoblanadi. “Algebra” so‘zi uning

“Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” (الكتاب المختصر فى حساب الجبر والمقابلة) asaridan olingan. Bizgacha yetib kelgan “Hind hisobi haqida kitob”, “Qo‘shish va ayirish haqida kitob”, “Kitob surat-ul-arz”, “Zij”, “Usturlob bilan ishlash haqida kitob” kabi ko‘plab asarlari bilan aniq fanlar, tabiiy fanlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shganligi dunyo olimlari tomonidan e’tirof etilgan.

Buyuk matematik va astronom Xorazmiyning vatandoshi Beruniy “Xorazmiy ziji”ga atab (hozirgacha saqlanmagan) uchta asar yozgan. Ularning biri “Kitob al-masoil al-mufida val-javobot as-sadida” (“Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar kitobi” كتاب المسائل المفيدة والجوابات السديدة) deb ataladi. Beruniy Xorazmiy “Ziji”ni nazariy dalillar bilan himoya qilgan [3, 230-b.]. Shuningdek, Beruniy “Ibtol al-buxton birod al-burhon ala a’mol al-Xorazmiy fi ziji” (“Xorazmiy zijidagi amallarni dalillar bilan isbotlab, u haqdagi bo‘htonni fosh etish” ابطال البهتان برد البرهان على أعمال الخوارزمى فى زيجه) asarida Abu Talhaning Xorazmiy ziji haqidagi noto‘g‘ri qarashlarini rad etgan [4, 128-b.]. “Kitob al-vosita bayna Abu-l-Hasan al-Ahvaziy va al-Xorazmiy” (“Abul Hasan al-Ahvaziy va Xorazmiy ikkisi o‘rtasidagi vosita kitobi” كتاب الواسطة بين أبى الحسن الأهوازى والخوارزمى) [4, 128-b.] kitobi ham tanqidiy mazmunda yozilgan bo‘lib mazkur olimlarning adashishlarini ko‘rsatib bergan.

Ahmad ibn al-Mysanno ibn Abdulkarim “Xorazmiy ziji”ni sharhlagan. Ushbu asar XII asrda Abraxam ibn Ezra tomonidan yahudiy tiliga tarjima qilingan. Ibn al-Mucanno [5, 114-119-bb.] asarining ispan va ingliz tilidagi tarjimalari mavjud [6]. Aytish mumkinki, o‘rta asrning ilm-fan va falsafasi rivojida Sharq va G‘arb olimlarining xizmatlari e’tiborga molik. O‘sha davrning eng muhim yangiliklarini o‘zida aks ettirgan asarlarning turli tillarga tarjima qilinishi xalqlarning yaqinlashuvi, madaniyatlarning uyg‘unlashuvi uchun muhim omil bo‘la olgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Xalifalik davrida “Xorazmiy ziji” o‘ziga xosligi va yangiligi bilan olimlarni qiziqishlarini orttirgan. Ungacha bo‘lgan barcha astronomik asarlar 1) al-Fazoriy “Siddqontasi” yoki Ya’qub ibn Toriqning “Osmon sferasining tuzilishi” kabi hind astronomik asarlarining tarjimalari, islomdan avvalgi astronomik asar “Ziji shahriyoriy”ning qayta ishlangan nusxalari, Ptolemey “Almajist”ining suryoncha nusxalari mavjud bo‘lib, Xorazmiy ziji mukammalligi va o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning qarashlarini boyitishga xizmat qilgan. Xorazmiyning maqsadi ham o‘zidan avvalgi ana shu uch yo‘nalishdagi astronomik asarlarning eng yaxshi jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos asar, mufassal asar yaratishdan iborat bo‘lgan. Xorazmiydan keyingi barcha artronomlar o‘z zijlari uchun uning “Ziji”ni namuna sifatida qabul qilganlar. I.Y.Krachkovckiy fikriga ko‘ra, Xorazmiyning al-Majritiyning qayta ishlagan artronomik jadvallari G‘arbiy Yevropadagi keyingi

davrlardagi astronomik asarlar uchun asos vazifasini o‘tagan” [7, 92-b.]. Yevropada Kolumbgacha keng tarqalgan astronomik asarlardan biri Xorazmiydan bir oz keyin yashagan al-Battoniyning (IX asr) “Ziji” bo‘lib, u o‘z “Zij”ida “Xorazmiy ziji”dan foydalanganini ta’kidlagan.

Yevropa fani va geogpafik kashfiyotlari uchun ayilik Petrning (1330-1420 - yy) “Ymago mundi” nomli asari favqulodda muhim rol o‘ynadi. Bu asar 1410-yili yozilib, 1480-1487-yillar orasida nashr etgan edi. Bu asarda Arin nazariyasi ta’riflari bo‘lib, Xristofor Kolumb ham Arin nazariyasi bilan shu kitob orqali tanishgan. Ushbu kitobning Kolumbga tegishli nusxasida uning o‘z qo‘li bilan yozib qo‘ygan mulohazalari saqlanib qolgan. Kolumbning mazkur mulohazalaridan shu ma’lum bo‘ladiki, Arin nazariyasiga ko‘ra, y Yerni nok shaklida deb tasavvur qilgan va y g‘arbiy yarim sferada “Arin qubbasi”ning qarama-qarshi tomonida undan ham baland qubba bor bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Demak, bu aytganlaridan ko‘rinadiki, “Xorazmiy ziji”da keltirilgan ma’lumotlar Yevropada faqat astronomiya va trigonometriyaning rivojlanishidagina katta rol o‘ynab qolmay, balki g‘arbiy yarim sharning kashf etilishida ham ma’lum ahamiyat kasb etgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning Asturlob yordamida azimutni aniqlash (“Zaraifmin amal Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy ta’rif as-samtbil-asturlob” ظرائف من العمل محمد بن موسى الخوارزمى تعريف السمت بالأسطرلاب) asarining yagona arabcha qo‘lyozmasi Istanbulda Ayo Sufiyo kutubxonasida 4830/13 (198B-200a varaqlar, hijriy 622-yili ko‘chirilgan) raqam ostida saqlanadi.

Yevropada o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasining va raqamlarning tarqalishida XII asrdan boshlab, arabcha arifmetik asarlarning va ayniqsa, Xorazmiy risolasining lotin tiliga qilingan tarjimalari katta ahamiyat kasb etdi. Bu tarjimalar bilan birga Xorazmiy arifmetik va astronomik asarlarining qayta ishlanganlari, ular orasida seviliyalik Ioanning “Algorizmining arifmetika amali haqida kitobi”, A.Magistr tomonidan taklif etilgan “Algorizmining astronomiya san’atiga kirish kitobi” va ispaniyalik Savasordaning (taxm. 1070-1136-yy) “O‘lchashlar haqida kitobi” ham muhim rol o‘ynadi. Chunki, by asarlarda hind-arab raqamlari ham bayon etilgan edi. Yangi hisob sistemasi ancha jadallik bilan tarqaladi. XII acp o‘rtalariga kelib, y “Muqaddas Rim imperiyasi” yerlarida, xususan, Avstriya va Germaniyada ma’lum bo‘ldi. Ushbu davrda Italiya ham yangi arifmetikaning tarqalishida muhim markazlardan biriga aylandi. Bu yerda pizalik Leonardo 1202-yili o‘zining mashhur “Abak kitobi” (Liber abaci)ni yozadi. Uning kitobi o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasiga asoslangan arifmetika va algebradan mukammal asar edi. Leonardo arifmetikaga doir asar yozgan o‘zidan avvalgi mualliflar kabi ruxoniy bo‘lmay, balki savdo va hunarmand doiralaridan

edi. Uning kitobi ham ana shu sohadagi kishilarga mo‘ljallangan edi. Shu sababli uning bu asari Italiyada hind-arab hisobining tarqalishini ancha osonlashtirdi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlariga kelib algorizm haqidagi kitoblar milliy tillarda fransuz, ingliz, italyan va boshqa tillarda paydo bo‘la boshladi. Bu hind-arab raqamlari va hisobining tarqalishini ancha osonlashtirdi. Biroq, yangi raqamlarning ommaviylashishi osonlik bilan bo‘lmadi. U avvalo ko‘proq raqamlar bilan ish tutadigan kishilar-savdogarlar va pul egalari orasida tarqaladi. Biroq, raqamlarning qonunlashgan standart shaklining mavjud emasligi qalloblikka sabab bo‘lib, ular orasida ham yangi raqamlarning tarqalishi sekinlik bilan boradi. Shuning uchun ko‘proq savdo va pul ishlarida abak, ya’ni taxtachadagi hisob ma’qul topilardi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XII asr oxiriga kelib Yevropada qog‘ozning paydo bo‘lishi va yning keyingi asrlarda ko‘payishi algorizmning g‘alabasini osonlashtirdi va XVI asr boshiga kelib algorizm, ya’ni al-Xorazmiy kiritgan to‘qqizta raqam va nolga asoslangan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi G‘arbiy Yevropaning hamma yerlarida keng tarqaladi. Rossiyada bu hisob sistemasi XVII asr oxirida Pyotr I zamonidan boshlab ommaviy tus oldi. Umuman olganda, Xorazmiy aniq fanlar uchun yaratgan asos umuminsoniy taraqqiyot rivojida juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrdagi odamzotning yangi ilm-fan va texnologiyalar sohalaridagi erishayotgan ulkan yutuqlarida Xorazmiy misolida xalqimizning o‘zbek xalqining ham munosib hissasi borligi muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. / Yangi O’zbekiston gazetasi, 2021, 17 avgust, https://www.gazeta.uz/uz/ 2021/08/17 /renaissance/.
2. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 6.
3. Абу Райҳон Берунийнинг ўз асарларига ўзи тузган рўйхат / А.Расулов таржимаси; “Беруний. Туғилган кунининг 1000 йиллигига” китобида. - Тошкент, 1973. – Б. 230.
4. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Бируни. - Ташкент: Фан, 1972. – С. 127.
5. Millas Vallicrosa J-M., Laauticidadde lcommentaroaI astablas astronomical deal Qwarizmipor Ahmadibn al-Muthannain: Isis 54/1964, pp. 114-119.
6. Goldstein B.R., Ibn al-Muthannas Commentary on the Astronomical Tables of al-Khwarizmi, New Haven-London, 1967.
7. Крачковский И. Ю. Арабская, reографическая литература. Соч.-я, т. IV. – с. 92.

AXLOQIY SEZGI VA UYG‘UNLIK FALSAFASI

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat
oliy ta’lim tashkiloti professori
ORCID: 0000-0001-7046-1732
Email: gulnoz68@mail.ru

Annotatsiya. Antoni Sheftsberi (1671–1713) XVII-XVIII asrlardagi Britaniya Ma’rifatparvarlik davrining muhim faylasufi sifatida axloq, estetika va ijtimoiy tafakkur sohalarida o‘z izini qoldirdi. U Jon Lokkning shogirdi bo‘lsa-da, uning empirik va utilitar g‘oyalariga qisman qarshi chiqib, axloq va go‘zallik tushunchalarini inson tabiatiga xos ichki sezgilar bilan izohlashga intildi. Sheftsberining asosiy asari “Zamona, fikr, axloq va odamlar xususiyatlari” (1711) uning axloqiy va ijtimoiy qarashlarini to‘liq ochib beradi. U axloqni tasodifiy qonunlar yoki ilohiy amrlarga emas, balki insonning tabiiy yaxshilikka intilishi va jamiyat bilan uyg‘unligiga asoslaydi.

Tayanch iboralar: axloqiy sezgi, ijtimoiy uyg‘unlik, estetik yaxshilik, tabiiy axloq, ichki kompas, jamiyat farovonligi, go‘zallik va axloq, inson tabiati, ma’rifatparvarlik falsafasi, xayrixohlik.

Kirish. Antoni Sheftsberi (1671–1713) XVII-XVIII asrlar Britaniya Ma’rifatparvarlik falsafasining muhim namoyandasi bo‘lib, axloqiy sezgi, ijtimoiy uyg‘unlik va estetik yaxshilik konsepsiyalari orqali axloq falsafasiga muhim hissa qo‘shgan. Uning “Zamona, fikr, axloq va odamlar xususiyatlari” (1711) asarida axloqni ratsional qoidalar yoki ilohiy buyruqlar emas, balki inson tabiatidagi ichki sezgi va jamiyatdagi uyg‘unlikka intilish orqali tushuntiriladi. Sheftsberi insonning tabiiy ravishda yaxshilik va go‘zallikka moyilligini ta’kidlab, Tomas Gobbsning egoistik qarashlariga qarshi chiqadi. U axloqiy sezgini estetik sezgi bilan bog‘laydi, yaxshilikni go‘zallik va uyg‘unlik bilan tenglashtiradi. Uning falsafasi ijtimoiy kontekstda axloqiy xulq-atvorning ahamiyatini ko‘rsatib, Frensis Xatchison, Devid Yum va Adam Smit kabi keyingi faylasuflarga ta’sir ko‘rsatdi. Sheftsberi qarashlari axloqni insonning ichki intilishlari va jamiyat farovonligi bilan uyg‘unlashtirib, Ma’rifatparvarlik davri axloq falsafasida muhim o‘rin tutadi.

Natija va tahlillar. Antony Sheftsberi (1671–1713) XVII-XVIII asrlar Evropa falsafasida muhim shaxs bo‘lib, axloq falsafasi, estetika va ijtimoiy-falsafiy tafakkur sohasida katta ta'sir ko‘rsatgan. Uning axloqiy qarashlari, ayniqsa, axloqiy

sezgi tushunchasi orqali, zamonasining utilitar va ratsionalistik yondashuvlariga qarshi muqobil sifatida e'tirof etilgan.

Anthoni Sheftsberi Britaniya ma'rifatparvarlik davri falsafasida muhim o‘rin tutadi. U Jon Lokkning shogirdi sifatida tarbiyalangan bo‘lsa-da, Lokkning empirik va utilitar yondashuvlariga qisman qarshi chiqib, axloq va estetika sohasida o‘ziga xos pozitsiyani shakllantirdi. Sheftsberining asosiy asari, “Zamona, fikr, axloq va odamlar xarakteristikasi” (1711), uning axloqiy va ijtimoiy qarashlarini to‘liq aks ettiradi. U axloqni ratsional qoidalar yoki ilohiy buyruqlar bilan emas, balki inson tabiatidagi ichki sezgi va ijtimoiy uyg‘unlik orqali tushuntirishga harakat qildi.

Sheftsberi falsafasi stoitsizm, platonizm va xristian an'analaridan ilhomlangan bo‘lib, insonning tabiiy ravishda yaxshilik va uyg‘unlikka intilishini ta'kidlaydi. Uning axloqiy qarashlari, ayniqsa, Tomas Gobbsning inson tabiatini egoistik deb hisoblagan pessimistik nazariyasiga qarshi yo‘naltirilgan edi. Xobbs insonni o‘z manfaatlarini ko‘zlashga moyil deb hisoblasa, Sheftsberi insonning ijtimoiy va axloqiy sezgilarga ega ekanligini va bu sezgilar orqali yaxshilikni tanib olishini isbotlashga intildi.

Sheftsberining axloq falsafasining markazida axloqiy sezgi tushunchasi yotadi. Bu tushunchaga ko‘ra, inson tabiatida yaxshilik va yomonlikni farqlashga yordam beradigan ichki sezgi mavjud. Bu sezgi nafaqat aql yoki ratsional fikrlashga asoslanadi, balki hissiy va intuitiv xarakterdir. Ushbu sezgi insonning tabiiy ravishda boshqalarga nisbatan xayrixohlik va adolatli munosabatda bo‘lishga undaydigan ichki “kompas” sifatida ishlaydi. Sheftsberi uchun bu sezgi insonning axloqiy xulq-atvorining asosiy manbai bo‘lib, uni ilohiy buyruqlar yoki tashqi qonunlardan mustaqil ravishda ishlatish mumkin deb hisoblaydi.

Sheftsberi axloqiy sezgini estetik sezgi bilan bog‘laydi, chunki u yaxshilikni go‘zallik va uyg‘unlik bilan tenglashtiradi. Uning nazarida, axloqiy xatti-harakatlar nafaqat foydali yoki majburiy bo‘lishi kerak, balki insonning ichki go‘zallik va uyg‘unlikka intilishi natijasida tabiiy ravishda paydo bo‘ladi. Bu sezgi insonni nafaqat o‘z manfaatlarini, balki jamiyatning umumiy farovonligini ham hisobga olishga undaydi.

Sheftsberi axloqni individual xatti-harakatlar doirasidan tashqariga chiqarib, uni ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqadi. U insonning tabiiy ravishda ijtimoiy mavjudot ekanligini ta'kidlaydi va axloqiy xulq-atvor jamiyatning umumiy yaxshiligiga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. Uning qarashlarida, axloqiy sezgi insonlarni boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga va ijtimoiy uyg‘unlikni saqlashga yordam beradi. Bu Xobbsning “hamma hammaning dushmani” degan qarashiga mutlaqo qarshi keladi. Sheftsberi uchun insonlar o‘zaro hamjihatlikda yashashga qodir va bu tabiiy axloqiy sezgi orqali amalga oshiriladi.

Uning falsafasida ijtimoiy xulq-atvor va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim o‘rin tutadi. Masalan, u muloyimlik, xushmuomalalik va o‘zaro hurmatni axloqiy sezgi ifodasi sifatida ko‘radi. Bu xatti-harakatlar nafaqat shaxsiy foyda uchun, balki jamiyatdagi uyg‘unlikni mustahkamlash uchun muhimdir.

Sheftsberining axloqiy qarashlarining o‘ziga xos jihati uning axloq va estetika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta'kidlashidir. U go‘zallikni axloqiy yaxshilikning ko‘rinishi deb biladi. Uning nazarida, axloqiy xulq-atvor go‘zal va uyg‘un bo‘lib, insonning ichki axloqiy sezgisi go‘zallikka intilish orqali namoyon bo‘ladi. Bu qarash uni utilitar falsafadan, xususan, Bentam yoki Paleyning foydaga asoslangan axloq tushunchalaridan ajratib turadi. Sheftsberi uchun axloqiy xatti-harakatlar foydadan ko‘ra ichki go‘zallik va uyg‘unlikka xizmat qiladi.

Sheftsberi diniy axloqqa nisbatan tanqidiy yondashgan. U xristian an'analaridagi qat'iy qoidalar va ilohiy jazo qo‘rquviga asoslangan axloqni insonning tabiiy axloqiy sezgilariga zid deb hisoblagan. Uning fikricha, axloqiy xatti-harakatlar tashqi majburlik yoki mukofot umidi tufayli emas, balki insonning ichki yaxshilikka intilishi orqali shakllanishi kerak. Shu bilan birga, u o‘z falsafasida xristianlikning axloqiy tamoyillarini rad etmagan, balki ularni inson tabiatidagi tabiiy sezgilar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan.

Sheftsberining axloqiy qarashlari keyingi falsafiy an'analarga katta ta'sir ko‘rsatdi, xususan, Frensis Xatchison, Devid Yum va Adam Smit kabi faylasuflar uning “moral sense” tushunchasini rivojlantirdilar. Biroq, uning falsafasi tanqidga ham uchragan. Masalan, utilitarlar uning axloqiy sezgi tushunchasini sub'ektiv va noaniq deb hisoblashgan. Shuningdek, ba'zi tanqidchilar uning inson tabiatiga optimistik qarashini haddan tashqari idealistik deb bilishgan.

Anthoni Sheftsberining axloqiy qarashlari insonning tabiiy ravishda yaxshilik va uyg‘unlikka intilishini ta'kidlaydigan noyob falsafiy yondashuvni taklif etadi. Uning “moral sense” tushunchasi axloqni ratsional yoki diniy qoidalardan mustaqil, inson tabiatidagi ichki sezgi sifatida talqin qiladi. Bu sezgi insonlarni nafaqat shaxsiy manfaatlar, balki jamiyatning umumiy farovonligi yo‘lida harakat qilishga undaydi. Sheftsberi falsafasi axloq va estetika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta'kidlashi bilan ham o‘ziga xosdir. Uning qarashlari ma'rifatparvarlik davri falsafasida muhim o‘rin tutib, keyingi avlod faylasuflariga katta ta'sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaftesbury A. Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times. - London: Liberty Fund, 2001. – Vol. II.

2. Shaftesbury A. Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times. - London: Liberty Fund, 2001. – Vol. I.

3. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7). 444-448.

4. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nitzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.

5. Rakhimdjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.

6. Ruzmatova, G. (2024). Maurice Merleau-Ponty's Philosophy of "Phenomenological" Man // FILOLOGIYA VA MADANIYAT MASALALARI (ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami) № 3. / ISBN 978-605-9554-90-9 / Ocak 2024 / - B. 138-156. /www.atam.karabuk.edu.tr

7. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the ideas of rationality in the philosophical thought of early modern Europe / European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)/Available Online at: https://www.scholarzest.com / Vol. 5 No.02, February 2024/ISSN: 2660-5589/ – B. 7-10.

8. Ruzmatova, G.M. (2024). Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. – 2024-yil, yanvar. 1-son. – B. 689-694. / 74-91 xalqaro daraja ISSN: 2992-8982 / Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz. / OAK, ISNN, Google Scholar, DOI, ID ORCID, OPEN§ACCESS, Bielefeld Academic Engine, RESEARCHBIB-Academic Resoukce Index, Open AIRE

9. Ruzmatova, G.M. (2024). Problem of man in writings of albert Camus // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences / 4(02), Feb., 2024. 581-592 / (E)ISSN: 2181-1784. SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 / www.oriens.uz

ABU ALI IBN SINONING ILMIY MAQOMI VA ILMIY MEROSI

Qodirov Muhammadjon
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori
Falsafa fanlari nomzodi, professor

Vatanimiz shuhratini butun dunyoga yoygan buyuk iste'dod egasi Abu Ali ibn Sino merosi zarurat tufayli keng o'rganilgan va uning ijodini o'rganish hamon davom etmoqda. Hozirgacha bo'lgan tadqiqotlarni sinchiklab qarab chiqsak, shu

narsa ma’lum bo’ladiki, bu sohada eronlik tadqiqotchilarning hissasi havas qilarli darajada yuksak va sermahsuldir. Buning unchalik hayratlanarli joyi ham yo’q. Negaki, Ibn Sino Buxoroda tug’ilgan bo’lsa ham, yosh yigitligidan Eron shaharlarini kezib, umrining oxirigacha shu mamlakatda faoliyat yuritgan va oxirgi manzili va maqbarasi ham Eronning Hamadon shahridadir.

Eron davlati 20-asrning 60-yillaridan boshlab, o’z ilmiy yutuqlarini jahonga ko’rsatish uchun fransuz ma’rifatparvarlari 18-asrda qilganidek o’zlarining milliy ensiklopediyalari tuzishga kirishdilar va bu ish Eron milliy Majlisi, ya’ni parlamenti nazorati va mablag’i homiyligida to’xtovsiz davom etmoqda. Bu ensiklopediyaning nomi “Lug’atnomayi Dehxudo” deb ataladi. Bizni qiziqtirgan narsa, undagi ibn Sinoga bag’ishlangan maqoladir. Maqola Ibn Sinoning sharhi holi va ilmiy faoliyatiga bag’ishlangan. Unda qayd qilinishicha, Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali ibn Sino quyidagi laqablarga ega bo’lgan “hujatul haq”, “sharaful mulk”, “imomul hukamo” va “shayxul rais” sifatlari bilan mashhur bo’lgan. U eng yirik faxrli dunyo faylasufi bo’lib, uning ilmiy ishlarining qadr-qimmatini o’lchab bo’lmaydi. Uning fazilatli yuksak maqomini ko’rsatish uchun so’z ifodasi yetmaydi. Islom davrida uning fazilatlaridan ilm toliblari to’la bahramand bo’ldilar. Ibn Sinoning dadasi Abdulloh Balx shahri aslzodalaridan bo’lib, davlat devonida ishlashga loyiq shaxs edi. U somoniylar sulolasidan bo’lgan Mansur ibn Abdulmulk Somoniy tomonidan poytaxt Buxoroga chaqirilgan edi. U Buxoroda mas’ul vazifalarda ishlab, arkonu davlat va vazirlar orasida katta obro’ qozondi. Abdulmalik Somoniyning huzurida katta e’tibor topdi. Davlat ishlaridagi vazifasi tufayli Buxoroda qolib ketdi va unga yaqin bo’lgan Afshona qishlog’idan bo’lgan Sitora ismli qizni sevib qolib, unga uylandi. Hech qancha vaqt o’tmasdan xudovand unga shunday farzandni ato etdiki, u millatning iftixoriga aylandi. Tole’ baland bu farzand 363 hijriy yilning 30-safar oyida (mil. 980-yil) Xuramasin degan joyda tavallud topdi. Saodatmand bu farzandga Husayn deb ism qo’ydilar va tez orada tug’ilgan uning ukasiga Mahmud ismini berdilar. Husaynning umri 5 yoshga yetganda Abdullohning majburiy vazifasi tugagach ahli ayoli va farzandlari bilan Buxoroning o’ziga ko’chib keldi. Katta o’g’lida o’sish va bilim olishga bo’lgan rag’batni ko’rgach, uning tarbiyasiga himmat qo’ydi. Uni donishmandlikda nom chiqargan muallimga olib borib topshirdi. Dastlab u Qur’on va din usullarini o’rgandi. So’ngra arab ilmiga kirishib, nahv va sarf (grammatika), lug’at va ma’nolar to’lamlarini bayon qilish va boshqa sohalarni o’rganishga kirishdi. Uning iste’dodi va zehning tezligi besh yil mobaynida shunday namoyon bo’ldiki, bundan ortig’ini tsdsvvur qilish mumkin emas edi. Barcha uchun rasm bo’lgan bu boshlang’ich ilmlarni to’la o’zlashtirgandan so’ng riyoziyot fanlarida o’z donish va fozilligini ko’rsatgan Mahmud Masoh oldiga borib, bu sohadagi eng ilg’or bilimlarni o’zlashtirishga kirishdi. Undan hisob, algebra san’atini o’rgandi va

shunday darajaga erishdiki, ustozi saviyasigacha borib yetdi. Ushbu sohada zamonasining komil mutaxassislaridan biriga aylandi. So'ngra o'sha davrning eng mashhur faqihi Ismoil Zohid huzuriga borib, fiqh ilmini o‘rganishga kirishdi. Ushbu yetuk faqihdan faqihlar o‘rtasida an'anaviy tarzda keng yoyilgan e'tirozli savollar tuzib, ularga qoniqarli javoblar berish tarzlarini o‘rgandi. O‘sha vaqtda mantiq faniga muqaddima bo‘lgan Isog‘uji fanining mashhur mutaxassisi bo‘lgan Abu Abdulloh Notiliyga shogirt tushmoqchi bo‘ldi, dadasi Abdulloh uning maqsadini qo‘llab quvvatlab, mantiq sohasida nom chiqargan Notiliyni hurmat bilan o‘z xonadoniga yashashga taklif qildi. Undan iltimos qildiki, qaysi sohada nima bo‘lsa, barchasini o‘g‘liga to‘la-to‘kis o‘rgatsin. So‘ngra o‘sha farzona hakim uning uyida yashab, Isog‘uji kitobidan boshlab, mantiqqa doir barcha sohalarni o‘rgata boshladi. Ushbu ustoz jinslar hududigacha bo‘lgan barcha xil haqiqatlarning majmuasini bayon qildi, ammo ularning sharhiga kelganda xomush bo‘lib qoldi. Abu Ali uning ba'zi fanlarining rad etib, unga e'tirozlar bildira boshladi. Ammo ustozi uning e'tirozlarini rad qila olmadi. Abu Alining o‘zi e'tirozli joylarga o'zi javob bera boshladi. U shunday dalillar keltirdiki, ustozi hayratlanib, o'zi ham shubhalangan joylarga qoniqarli javob oldi va unga tahsinlar aytdi. So‘ngra shayxning dadasini yashirin ravishda chaqirib, dars vaqtida bo‘lgan voqeadan uni voqif qilib, uning tarbiyasiga doir o‘z qarashlarini bayon qilib, nasihatlar qildi va u haqda mubolag‘alarga yo‘l qo‘ydi. Abu Ali ilmu mantiqni shu darajada o‘rgandiki bu sohada hechkim unga teng kela olmadi. Bu sohada to‘la to‘kis kamolotga erishgach Iqlidis kitobini o‘rganishga kirishdi. Odatda rasm bo‘lganidek, kitobning avvalgi bir necha shakillarini o‘rgangach, qolganini o‘zining g‘ariza va intuitsiya quvvatiga tayanib, hal qilishga kirishdi. Iqlidis kitobidagi tunshunish qiyin bo‘lgan masalalarni ustozi uchun yozib chiqdiki, soat sayin ustozining hayrati oshar edi. Keyin o‘rtacharoq tarzda o‘rnini to‘ldirdi. Bundan keyin mufassilinni o‘qishga kirishdi, uning muqaddimasini o‘qib chiqgach geometriya shakillarini o‘rganishga kirishdi. Abu Abdulloh uni o‘qitishdan ojiz qolganini anglagach, ushbu kitobni o‘zing o‘qib o‘rgan, agar hal qilib bo‘lmaydigan masalalarga duch kelsangmenga aytginki, ikkalamiz hal qilishga urinamiz. Abu Ali ustozi aytganidek qildi. Ko‘p o‘tmay shunday darajaga erishdiki, hozirgacha har bir ustoz shu darajadagi saviyaga erishmagan edi. Shundan so‘ng mufassilinni ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan masalalarini hal qilib, yozma ravishda bayon qilib berdi.

Ana shunday bir sharoitda Abdu Abdulloh Notiliyga Gurganchga borish zarurati tug‘ildi. Va ular bir-birlari bilan ajralishdilar. Shundan so‘ng shayhul rais ustoz zahmatisiz o‘zi o‘qib-o‘rganishni davom ettirdi. Ilm olishga qiziqishi tufayli kechayu-kunduz tinchlik bilmadi. Falsafaning turli sohalari uni qiziqtirar edi. Nima haqida qanday kitob topsa, o'z kitobxonasiga olib kelar edi. Falsafaning tabiatga

yoki ilohiyot qismlariga ham qiziqardi. Shu vaqtlarda uning rag'bati tibb ilmiga ham qaratildi. U Abu Mansur Hasan ibn Nuh Alqamariy (uning sharhi holi yozib qoldirilgan) huzurida tabobat san'atini o'rganishga kirishdi. Qisqa vaqt ichida sharafli kasbning ko'plab qoidalarini o'rgandi va ushbu sohada barcha ustozlarning yozganlarini o'qib chiqib ushbu kasbning afzalliklarini bayon qilib berdi. Tabobatning barcha qismlariga doir nazariy va amaliy tadbirlarni belgilab berdi. Tez orada bu sohada alloma bo'lib yetishdi. Zamonasining bu sohadagi ustozlari undan o'rganish lozimligini his etdilar. Uning tadqiqotlaridan to'la bahramand bo'la boshladilar. So'ngra u bemorlarni davolashga kirishdi. Har kuni turli kasalliklarga chalingan bemorlar uning huzuriga kela boshladilar. U quli vozib bergan hamda o'zi yasagan davolari bilan bemorlarni davolay boshladi. Tibbiy mashg'ulotlariga qaramasdan, fiqh ilmidan ham o'zini ozod tutmasdan olib borilayotgan bahslarda faol qatnashar edi. Zamondoshlari shunga e'tibor qaratdilarki, shunga muvoffaqiyatlarga erishgan tabibning yoshi hali yigirmaga yetmagan edi. So‘ngra, ikkichi marta yana mantiq va falsafaning boshiqa jihatlarini o‘rganishni boshladiki, bir yilgacha kechalari uxlamay, kunduzlari ovqatlanishni ham unitib, shoshilinch ravishda o‘zini tang‘ib, butun vujudi bilan berilib, yangi ilmlar hosil qilish bilan o‘zini ovutdi. Kechalari juda kam uyqu ilitganda o‘zi tayyorlagan qo‘lbola sharobdan bir payola ichardi. Har qachonki, mantiqqa doir qiyin masalalarga duch kelsa, tahorat qilib, eng katta masjidlardan biriga kirib, namoz ado etar va fikrga shung‘ib, o‘zidan mahrum bo‘lish darajasida g‘arq bo‘lish holatida yechim topilfan holatda maktubda o‘qigandek, bayon qilar edi. Ana shunday muhitda birinchi ilm va oliy ilm deb atalgan Metafizika kitobini o‘rganishni boshladi. Bu ilmda juda ko‘p bahsli joylar mavjud bo‘lib, ilohiyotga doir shunday nuqtalar borki, ularda moddagi ehtiyoj sezilmay, masalan, Alloh taolo to‘g‘risida. Umuman metafizikani bir necha marta o‘qib chiqsa ham uning ma'nolarini tushuna ilmagan edi. Kunlardan bir kun shayxul rais Buxoro bozorining kitob rastasidan o‘tayotganda kitobfurush bir kitobni unga ko‘rsatdi. U kitobni varaqlab, metafizika ekanini bilib, tushunib bo‘lmas kitobni sotib olishdan ikkilandi. Shunda kitobfurush kitobning egasi juda nochor ahvolda ekanini aytib, arzonga beradi, turib oldi. Shayx uning ko‘ngliga qarab, kitobni 3 dirhamga sotib oldi. Uyiga olib kelib qarasa, ikkinchi Muallim deb nom chiqargan Abu Nasr Farabiyning asarlaridan bo‘lib, metafizikaning sharhi ekan. Ana shunday dono sharhchilar borligi tufayli eramizdan oldingi to‘rtinchi asrda Arastu tomonidan yozilgan “Metafizika asari Ibn Sino zamonigacha mufassil yetib kelgan. Farobiy sharhi tufayli Ibn Sinoning qiynagan ilmiy jumboqlar o‘zining yorqin ifodasini topdi.

MONTENNING MA’NAVIY RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

Muhamedov Asror Asadovich
falsafa fanlari doktori, professor

“Uyg‘onish davrida mutafakkirlar Yunon-Rim madaniyatini “qayta tiklash”ni o‘zining asosiy vazifasi qilib qo‘ygan va uni o‘zining so‘ngi o‘rta asr sivilizatsiyasi erishgan muvaffaqiyatlari bilan oziqlantirishga intilgan gumanistik xristianlik e’tiqodi va qadimiy donishmandlikning uzviy sintezini amalga oshirdilar. Bunday sintez antik davr va xristianlikning bir qator o‘xshash xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan darajada bo‘lishi mumkin edi”[1]. Xuddi shu paytda fransuz mutafakkiri, donishmandi hisoblangan Mishel Montenning “Tajribalar” asari yozib tugatildi. Mazkur asar jahon tamaddunida ijtimoiy-falsafiy jihatdan yangi yo‘nalishni boshlab berdi. Negaki, Mishel Monten qarashlari metafizika va sxolastikadan holi, asosan gumanistik xarakterga ega edi. Uyg‘onish davrining boshqa mutaffakkirlari singari Montenning “xudo” tushunchasi “tabiat” tushunchasi bilan osongina almashtiriladi. Uning fikricha, “Insonni dunyoga olib keladigan va uning hayotini boshqaradigan kuch aynan tabiatdir. Bu qanday tabiat tushunchasi ekanligi, biz uchun noma’lum bo‘lib qolmoqda. Bu qaysidir ma’noda taqdirga o‘xshaydi”[2]. Bunday hayot huquqlarini himoya qilish har safar mutafakkirdan hayajonli va’zni chiqaradi. O‘z uslubiga sodiq qolgan holda, Monten antik dunyo kishilarini nazarda tutib, delfiylik Orakulning bashoratini eslaydi: “O‘zingga nazar sol, o‘zingni bil, o‘zing bilan cheklan; tashqarida sen isrof qilgan fikring va irodangni, nihoyat o‘zingga yo‘naltir... Siz tarqoqsiz, diqqat-e’tiborni o‘zingizga qarating, sizni chalg‘itadilar, sizni o‘zingizdan o‘g‘irlashadi.

Ko‘ryapsizmi, bu dunyo nigohini faqat o‘ziga qaratadi va uning ko‘zlarida faqat o‘zi haqida o‘ylovlar? Behalovatlik – bu sening taqdiring: O‘zingning ichingda ham, o‘zingdan tashqarida ham. Ammo qat’iy chegaralar bilan o‘ralgan holda, u muayyan darajada jilovlangan”. “Ey inson”- deydi u, “parvardigor yaratgan mavjudotlardan yolg‘iz sendan tashqari barchasi, avvalo, o‘zini anglaydi va o‘zining ishlari va xohishlariga chegara qo‘yadi. Sen kabi bechora va nafsiga g‘arq bo‘ladigan biror bir jonzot yo‘q. Butun koinotni qamrab olishni orzu qiladigan, ey inson, sen bilimsiz, huquqsiz hukmdorsan va oxir-oqibat shunchaki hajviy pyesadagi masxarabozsan”[3].

Uyg‘onish davri g‘oyasi olamni yaratuvchi sifatida Xudoga bo‘lgan ishonchni inkor etmaydi. Shunchaki tafakkurda e’tiqod orqaga surilgandek tuyuladi, inson va uning tabiati birinchi o‘ringa chiqadi. Inson hayoti uchun zaruriy tushunchalardan biri – bu iymondir. Ammo, bu tushuncha umuminsoniy xarakter kasb etmaydi. Uyg‘onish davri g‘oyasi metafizik yoki teologik jihatdan emas,

tabiat to‘g‘risida fikrlarga, unga murojaat qilishga moyillikning mavjudligi aniq. E’tiqodli bo‘lishga intilish qiyin va mashaqqatlidir. E’tiqodli odam barcha qiyinchilik va yo‘qotishlarga ongli ravishda bardosh bergan holda halollik va poklik, insof-diyonatlilik, saxiylik, ezgulikni ulug‘lash va yovuzlikka qarshi kurashish, vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi fazilatlarni o‘zida gavdalantirishga harakat qiladi va bunga erishadi.

Bu haqiqatni, albatta, tabiat uchun eng yuqori va so‘nggi chora bo‘lgan stoiklarning ta’siri bilan izohlash mumkin. Ammo, shu narsaga alohida ahamiyat qaratish lozimki, Uyg‘onish davri ma’naviy ma’noda butunlay boshqacha vaziyatda edi. O‘sha zamon kishisi xristianlik ta’limotini va Xudoning mutlaq hukmdor sifatida tan olgan diniy ta’limotini yaxshi bilar edi. Tabiat esa bu yerda hech qanday tarzda yagona va abadiy haqiqat ustuvorligini zabt eta olmaydi. Demak, hatto tushunchalarni (Xudo yoki tabiat) ishlatishda ham doimo nomuvofiqlik, ikkilanish mavjud. “Ehtimol, bu holat Uyg‘onish davrining o‘ziga xos falsafasi mavjud emasligidadir”[4].

Faylasuf va yozuvchi sifatida Montenning diqqat markazida Xudo emas, insonning o‘zi va, yoki tom ma’nodagi odam – Mishel Montenning o‘zi turadi. Ammo u Uyg‘onish davrining “ulug‘ siymolaridan” farqli o‘laroq o‘zini soddalik bilan ro‘y-rost va ochiqchasiga baholaydi. U faqat oddiy inson (odam), shuning uchun ham odam o‘ziga xos umid va g‘ayratni qo‘zg‘atmaydigan mavjudotdir. Hayratlanarli darajada behalovat, chindan ham o‘zgaruvchan va doimo ikkilanadigan jonzot – bu inson, shu sababli u haqda barqaror va bir xil g‘oyani shakllantirish juda murakkabdir.

Bundan tashqari, “mazmun jihatidan Monten ijodi va uning “Tajribalar” asari o‘zi yashagan davrning rasmiy mafkurasiga zid edi, asarning o‘zi esa keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan edi”[5]. Mishel Monten insonning o‘ziga xos hayot nazariyasini yaratdi. U o‘zining “Tajribalar” asarida borliqning barcha ekzistensial muammolari sabablarini ochib berdi. Mutafakkir insonning barqaror g‘oyasini yaratishning murakkab va mushkul ekanligini angladi. Bu bilan u epikurizm va transsendental skeptitsizm tamoyillarini qo‘llash orqali borliqning avtonom tabiatini asoslab berdi. Monten odamlarning holatlarini, fazilatlari va xususiyatlarini o‘rganishning o‘ziga xos uslubini qo‘llagan bo‘lib, u o‘z-o‘zidan aniq introspektivlikni, boshqalarni sezgir kuzatishni, voqea-hodisalar rivojlanishini “kitobiy tasavvur” ehtiyotkorligi bilan taqqoslagan. Faylasufning o‘ziga xos noyob yondashuvi, uning shaxs haqidagi hikoyaga murojaat qilishi, inson hayoti haqida hikoya qilishga urinishi bilan bog‘liq. Mutafakkirning aytishicha, bu namunali fuqaro, lekin aniq bir shaxs hisoblanmaydi.

Fransuz mutafakkiri, faylasuf Volter Monten g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchi sifatida, o‘zining tasviri bilan bog‘liq bo‘lgan mutafakkirning g‘oyasi

juda zo‘r ekanligini ta’kidladi, chunki oxir-oqibat u umuman odamni tasvirlay oldi. Ammo Montenning o‘zi ta’kidlaganidek, eng katta qiyinchilik bo ‘lgan o‘z-o‘zini tavsiflash unga juda katta foyda keltiradi. Monten hayotning mazmunini va inson mavjudligining asoslarini baxtni anglash orqali tushunadi. “Baxtning stoiklar bo‘yicha mezonini – ruhning falsafiy ravshanligini hisobga olgan holda, muallif inson harakatlarining asosiy sababi – xudbinlik ekanini ko‘rsatib beradi, ammo shu bilan birga, u buni inson baxtli bo‘lish zarurati sifatida tan oladi. Xudbinlik, mutafakkirning fikriga ko‘ra, xotirjamlikni (va baxtni) saqlab qolish, bir tomondan, boshqa odamlarning xudbinlik faoliyatining kengayishini cheklaydi, ikkinchidan, bu mutlaq haqiqatni bilishga intiladigan mag‘rurlikni ichkaridan yo‘q qiladi”[6]. Monten psixologiyani “dunyoviylashtirish” uslubiy prinsipiga asoslanib, metafizik muammolarni “asoslash” orqali, ruh esa tanaga bevosita bog‘liqligi muqarrar deydi. Ushbu dalillar mutafakkirni ruhning boqiyligini inkor etishga majbur qiladi. O‘tkinchi xoy-u havasni ko‘zlamaslik kerakligini uqtiradi. Monten chinakam yo‘l deganda ham ijtimoiy, ham diniy yo‘nalishdan holi bo‘lgan o‘ziga xos “me’yor”ni topishga harakat qiladi. Biroq, inson o‘zining ichki ideallariga mos, erkin va mustaqil hayotga intilishini namoyon qilishi lozim. Bunday ichki prinsip sifatida Monten inson fazilatini ta’kidlaydi, bu insonga qiyinchiliklarni, azoblarni yengishga yordam beradi, bu undagi o‘lim qo‘rquvini bosadi.

Faylasufning ta’kidlashicha, beparvoligi va sabrsizligi bilan ajralib turadigan odamlargina o‘z o‘limini tezlashtirishga qodir. U hayotga bo‘lgan muhabbat haqida gapiradi, barcha yomon voqealar haqiqiy ezgu insonni o‘ldirishga qodir emasligini ta’kidlaydi: “Hatto qayg‘u va azobda ham haqiqiy fazilat o‘z rizqini qidiradi”, deydi mutafakkir. Bundan tashqari, muallif hech qanday tashqi jismoniy holatlar (jahldorlik, qiyinchiliklar, og‘riq, uyat) odamni o‘limga nisbatan xotirjam bo‘lishga o‘rgata olmaydi, degan fikrni keltiradi. Chunki buni faqat bir marta boshdan kechirish mumkin. Mutafakkir “Biz hammamiz o‘lim holatiga kelganda tajribasiz, ojizmiz” - degan falsafiy xulosaga keladi.

Mutafakkir o‘z qarashlarini davom ettirib, ma’nosiz va mazmunsizligi bilan ajralib turadigan “umumiy qabul qilingan” dogmalarga qarshi ekanligini bildiradi. Buning sababi urf-odatlarning hukmronligi, hokimiyatning ustunligi bilan bog‘liq bo‘lib, buni mutafakkirning quyidagi xulosasidan bilsak bo‘ladi: “odamlar bir xil yo‘l tutishadi, fanlarni o‘rganish hokimiyatning buyrug‘i bilan amalga oshiriladi, barcha maktablar bir xil ko‘rinishda va bir xil tarbiya va ta’limga rioya qilishadi”[7]. “Faylasuf bu borada bir qator nazariy manbalarning haqiqatga yaqin ekanligini ta’kidlaydi. U ta’kidlaganidek, ular qadimgi davrlarda, inson turli xil yondashuvlar va ilmiy maktablar orasida mustaqil ravishda tanlov qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan davrda hukmronlik qilgan fikr erkinligida aks etadi”[8]. “Monten o‘rta asr dogmatizmining asosiy kamchiligini falsafa avtoritetining

ustunligida ko‘radi, shu sababli Aflotun, Aristotel fikriy hokimiyatiga (lekin ularning ta’limotiga emas) qarshi chiqadi”[9]. Shuningdek, mazkur mutafakkirlarning falsafiy g‘oyalarini baholashda tarixiylik yondashuvini himoya qiladi. Uning fikricha, haqiqiy falsafa o‘tmishdagi falsafiy ta’limotlar bilan ochiq tizim sifatida o‘zaro aloqador, nisbatan xolis va erkin munosabatda bo‘lishi zarur. Mutafakkir xuddi shunday tanqid ruhida inson yaratilish toji bo‘lgan diniy yondashuvni ko‘rib chiqadi. O‘sha davr aqidalarining pozitsiyasi “gunoh va ehtiros bilan yukungan odam ilohiy poklanish orqali najot izlayotgan zaif va ahamiyatsiz mavjudot sifatida harakat qiladi”[10].

Monten “Tajribalar” asarida o‘zi haqida, tarbiyasi, kasbi, odatlari, kasalliklari, yaqinlari, kitoblari va e’tiqodlari haqida ko‘p gapiradi. Lekin, mutafakkir o‘zining hayoti haqida ma’lumot bermaydi, aksincha bundan qochishga harakat qiladi. Vaholanki, Bordoda parlament maslahatchisi, shahar hokimi lavozimlarida xizmatlari tarjimai holining bir qismi sifatida zamondoshlarining katta qiziqishini uyg‘otishi mumkin edi. Ular o‘rniga biz “Tajribalar” asarida yozilgan o‘sha davrdagi Fransiyaning holati, mutafakkirning siyosiy partiyalar bilan olib borgan aloqalari kabi foydali fikr-mulohazalar keltirilgan. “Tajribalar” asarini mavzular doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak, unda insonda uchraydigan sifat-xislatlar, jumladan, g‘azab, takabburlik, tavba qilish, behuda va beparvoliklarga alohida e’tibor beriladi. Shuningdek, “asarda turli xalqlarning odob-axloqi va odatlari ularning millat sifatida mavjudligining asosiy qismi ekanligi ta’kidlanadi. Mishel Montenning “Tajribalar” asarida, shuningdek, din va falsafa, siyosat, urush va siyosiy tuzimning saqlanib qolishi jamiyat taraqqiyotidagi muhim ijtimoiy hodisalar sifatida, davlat parchalanishining oldini olishda mansabdor shaxslar hayotining normalari bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlari keltirilgan. Muallif diqqatini jalb qilgan har bir mavzu uning o‘tmishini, o‘zi yashagan jamiyat a’zolarining taqdiri o‘z hayotining bir qismi sifatida gavdalanadi”[11].

Uyg‘onish davri o‘z fikrlari va ishlarida erkin bo‘lgan, har tomonlama zamonaviy shaxsni shakllantirdi. Ushbu shaxsning universalligi, uning o‘ziga xos uyg‘unligi o‘tmishda qoldi. Uyg‘onish davridagi gumanizm vakillari markazida o‘z erkin hayotini kechiradigan, avtonom shaxs joylashgan yangi turdagi madaniyatni shakllantirdilar. Shu munosabat bilan insonlarni ajratish keng tarqalib, Uyg‘onish davridagi butun adabiy yo‘nalish ham qayta ko‘rib chiqildi. Bu Bu Montenning “Tajribalar”ida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda muallif insonning fazilatlariga, shaxsning xususiyatlariga e'tibor beradi. Bu o‘rinda Yevropa Uyg‘onish davri bo‘yicha mutaxassis, professor Q.B.Shodmonovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Asrlar davomida Xudo va cherkov oldida sukut va itoatkorlikdan so‘ng, inson birinchi marta: “Men! Buni men yozyapman; buni men ifodalayman; men odamman; men yer yuzining hukmdoriman” demoqchi bo‘ldi.

Chunki inson oxir-oqibat dunyo haqiqatini, umuminsoniy ongning maqsadli birligini, keyin esa o‘z-o‘zini anglaydigan shaxsning birligini his qildi”[12].

Monten buyuk Goratsiyning so‘zlarini eslab, o‘zining hayotiy tajribasini “yumshoqroq muomalaga muhtoj bo‘lgan” qarilik shaklida xulosa qilishi ramziy ma’noga ega. Sog‘liq va donolik xudosi unga rahm-shafqat qilsin, u quvnoq va odamlar bilan doimiy aloqada o‘tishiga yordam bersin. “Darhaqiqat, inson aql-idrokini doimiy ravishda ayblash “Tajribalar” asarida uning o‘limiga olib kelmaydi, ammo aql o‘rniga hayotni quvonchli qabul qilishdan iborat bo‘lgan “donolik” qobiliyatini ta’kidlaydi. “Quvonch” halol bajarilgan “burch” bilan bog‘lanadi. Bu esa yangi davrda o‘zini namoyon qiladi, bunda odamlar davrni yaratadi, davr esa shaxslarni yaratadi”[13]. Uyg‘onish davri o‘z fikrlari va ishlarida erkin, dunyo ahli bilan har tomonlama aloqalarga jasorat bilan kirib boradigan shaxsni shakllantirdi. “Ushbu shaxsning universalligi, uning o‘ziga xos uyg‘unligi o‘tmishda qoldi. Biroq ma’naviy-axloqiy salomatlikni tiklash, shaxsiy erkinlikka bo‘lgan ehtiyoji bejiz emas edi va u yo‘qolmadi. Bugungi kunda ham u Uyg‘onish madaniyatining buyuk maktabidan o‘tgan xalqlarga jahon tarixidagi eng ayanchli vaziyatlarda o‘zlarini saqlab qolish, yo‘ldan og‘ishmaslik, hayotga qaytish, ko‘zlarini ochish va o‘zlarining “men”larini tasdiqlashga yordam beradi”[14]. Inson uchun o‘zini anglash jarayoni “o‘zida” amalga oshiriladigan eksperimental faoliyat doirasida kechadi.

Monten ta’kidlaganidek, inson hayot faoliyatini olib boradigan empirik holatlar tufayli doimiy o‘zgarishlarga duch keladi. Inson qalbi bo‘ysunishi kerak bo‘lgan skeptitsizm inson tabiatining zaruratidir. Ammo o‘z qalbini bilish, inson borligi sirini bilish zarurati qadriyatlarning boshqacha moslashuvi va har ikkalasining ham faol, haqiqiy kuchi bo‘lgan inson – oddiy odam va asar muallifi “men”ini olg‘a siljitish bilan tavsiflangan yangi pafosni aks ettiradi. Insonning o‘z-o‘zini anglashi keyinchalik Gegel falsafasida aks etadi, ammo uning asoslari Montenning “Tajribalari”da yaratilgan edi. “Tajribalar” asarida “jamiyatda hukm surgan qarashlar va urf-odatlar har qadamda inson ongiga to‘siqlar qo‘yishi, uning ongini chulg‘ab olishi va unga zulm qilishi doimiy takrorlanadi. Mutafakkir bu to‘siqlarga din, qonun, turli urf-odatlar, stereotiplar, arboblarning nazariya va ta’limotlarini kiritadi. Mazkur to‘siqlar orqali go‘yo insonni abadiy jazo va mukofotlar bilan jilovlashga va bog‘lashga urinmoqdalar”[15], - deydi mutafakkir.

Ushbu ekspluatatsiyaga qarshi norozilik, fikr erkinligi va intellektual huquqlarni himoya qilish talabi “Tajribalar” sahifalarida yaqqol ko‘rinadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga ayrim falsafa tarixchilari munosabat bildirishgan. Jumladan, Montenning an’anaviy qarashlarga va urf-odatlarga istisnosiz rioya qilishni qadrlashi, u “inson avtomatizm g‘oyasini himoya qilish” haqidagi fikrlari bir xil emasligidan dalolat beradi.

Odamlar bilan muloqot qilish jarayonida inson ongi hayratlanarli ravshanlikka erishadi. Zero, biz o‘zimizga singib ketganmiz, o‘z qobig‘imizga o‘ralganmizki bizning dunyoqarashimiz nihoyatda tor, biz burnimizdan narini ko‘ra olmaymiz. Bir paytlar Suqrotdan uning qayerdanligini so‘rashganda, “Men Afinadan” deb emas, “Men koinotdanman” - deb javob qaytaradi. Fikri shunchalik kengligi va boyligi bilan ajralib turadigan bu donishmand olamga o‘z shahri sifatida qaradi. Bu o‘rinda Suqrot koinot sirlarini bilishga va bu orqali butun insoniyatning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishga bag‘ishladi, – deydi Monten. Suqrot ta’limotini yuksak baholagan mutafakkir: “u biz kabi emas, chunki biz faqat o‘z oyoqlarimiz ostidagi narsalarni payqaymiz, xolos”[16] - deydi. “Ushbu ulkan dunyo, biz o‘zimizni to‘liq anglashimiz uchun qarashimiz kerak bo‘lgan oynadir. Xullas, u (ayni dunyo) mening o‘quvchimga kitob bo‘lishini istayman”.

Mana shunday turli-tuman ishoralar, yo‘nalishlar, buyruqlar, yondashuvlar, an’ana hamda qoidalarni o‘rganish mushkul ekanligi bois, biz o‘z xatti-harakatlarimizni tartibga solamiz, bundan tashqari, ulardagi irsiy xastaliklarni yaxshi bilamiz. Shuncha davlat muammolari va turli xalqlar taqdiridagi o‘zgarishlarning mavjudligi bizni o‘zimizdan g‘ururlanmaslikka o‘rgatadi. Yo‘qotish changiga ko‘milgan shuncha nomlar, shuncha g‘alabalar va zabt etishlar, faqat qulagandan keyingina tanilgan tovuq katagini qo‘lga kiritish yoki o‘nlab otliq askarlarni asirga olish orqali tarixda nomimizni abadiylashtirishga umid qilishimiz kulgili. Boshqa davlatlarda o‘tkaziladigan ulug‘vor va g‘ururli tantanalar, shuncha hukmdorlar va sudlarning ulug‘vorligi va takabburligi bizning ko‘zimizni quvontiradi va o‘z mahkamamiz va hukmdorimizning yuziga ko‘z qirini tashlamasdan qarashga yordam beradi, shuningdek, o‘lim qo‘rquvini yengib, xotirjamlik bilan boshqa dunyoga otlanishni yengillashtiradi – u yerda bizni mukammal jamiyat kutadi.

“Bizning hayotimiz – deydi Pifagor, olimpiya o‘yinlarida olomonning yig‘ilishiga o‘xshaydi. Ba’zilar musobaqalarda shon-sharaf qozonish uchun mashq qilishadi, boshqalari foyda olish uchun mollarini sotish uchun u yerga borishadi. Ammo bu yerda hech qanday foyda izlamaydiganlar ham bor va ular yomon emaslar, ular bu qanday va nima uchun qilinganligini ko‘rishni xohlashadi, ular shunchaki tomoshabin bo‘lishni, boshqalarning hayotini kuzatishni xohlashadi va o‘sha hayot haqida xulosa chiqarib, shunga mos ravishda o‘zlarini tartibga solishni o‘ylaydilar”[17].

“Bu g‘alati, ammo bizning asrda falsafamiz, deydi Monten, hatto fikrlaydigan odamlar uchun ham, bu shunchaki puch so‘z bo‘lib, mohiyatan hech narsani anglatmaydi. U o‘zi uchun hech qanday foyda topmaydi va hech kimning ko‘zida yoki amalda hech qanday qadr-qimmatga ega emas. Menimcha, buning sababi uni o‘rab turgan cheksiz muammolar tufayli. Uni qoshlarini chimirgan,

hayrat va qo‘rquvga soluvchi sifatida tasvirlaydiganlar yanglishadilar. Kim unga bu ayyor va jirkanch niqobni berdi? Aslida falsafadan shirinroq, kulgiliroq, o‘ynoqiroq narsani topa olmaysiz. Falsafa faqat tantanalar va o‘yin-kulgiga chaqiradi. Agar sizning oldingizda g‘amgin va xira narsa bo‘lsa, demak, bu yerda umuman falsafa yo‘q. Faylasuf Monten to‘la ishonch bilan falsafani o‘z ichiga olgan ruhga tana salomatligi hamroh bo‘lmasligi mumkin emas degan xulosaga keldi. “Uning ichida tinchlik bor va u bu mazmunni tarqatishdan o‘zini tutolmaydi; xuddi shunday, o‘zining qiyofasini o‘zgartira olmaydi ham”[18]. U g‘urur, quvnoqlik va g‘ayrat, mamnunlik va yaxshi tabiatni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Donolikning o‘ziga xos xususiyati hayotga doimo ishonch bilan qarashdir. Dunyodagi hamma narsa singari, u hech qachon so‘nmaydigan tiniqlikka ega.

Xulosa qilib aytganda, Mishel Montenning o‘limdan keyingi hayot haqidagi qarashlari an’anaviy sxolastik falsafadan farq qilardi. Mutafakkir oxiratda mukofot olish umidida bu dunyoda darvishona hayot kechirayotganlarni qattiq tanqid qiladi. Monten o‘limdan keyingi hayot borligiga ishonmaydi. Uning fikricha, o‘lim ham hayot kabi borliq holatlaridan biri. Undan keyingi hayotning bo‘lishi mumkin emas. Shunday ekan, inson birinchi va oxirgi marta beriladigan hayot imkoniyatlaridan foydalanib, aql hukmi bilan yashay bilishi kerak. Inson hayotining o‘tkinchiligini doimo eslatib turuvchi diniy e’tiqodlardan farqli o‘laroq, Monten odamlar hayotdan zavqlanib, baxtga erisha olishlari kerakligiga qat’iy ishonadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чичерин Б. Н. Курс государственной науки. Тома I-III. – М.: И.Н.Кушнерев и Ко, 1894. – 455 с.
2. Бестаева Э.Ш. Философия. – Ульяновск: Зебра, 2015. – 102 с.
3. Монтень М. Опыты. Подготовили Бобович А.С., Коган-Бернштейн Ф.А., Рыкова Н. Я., Смирнов А.А. Том I. – М.: Наука, 1979. – 279 с.
4. Бестаева Э.Ш. Философия. – Ульяновск: Зебра, 2015. – 94 с.
5. Балашев Л.Е. Философия. – М.: Дашков и Ко, 2018. – 612 с.
6. Бестаева Э.Ш. Философия. – Ульяновск: Зебра, 2015. – 95 с.
7. O‘sha manba: – 82-83 p.
8. Скоропуд С.Н. Методологические возможности герменевтики для социально-философского анализа базовых концептов китайской культуры: Дисс… канд. филос. наук. – Красноярск, 2014. http://research.sfu-kras.ru/sites/research.sfu-kras.ru/files/Sorokopud_17_k_.pdf.
9. Коркунов Н. М. История философии права. – СПб.: М.М.Стасюлевича, 1915. – 502 с.

10. Балашев Л.Е. Ko‘rsatilgan manba. – 612 с.
11. Бестаева Э.Ш. Философия. – Ульяновск: Зебра, 2015. – 99 с.
12. Шадманов К. Английская духовность и язык. Дюссельдорф: Изд-во Lambert, 2015. – 74 с.
13. Qarang! O‘sha manba: – 158 с.
14. Пигалев А. И. Эзотерическая метаистория между секретностью и разоблачением иллюзорности реальности // Вопросы философии. – № 9, 2013. – С. 63-74. https://pq.iphras.ru/issue/view/295
15. Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, 1988. – L.I. – 85-88.
16. Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, 1988. – L. I. – 85-88.
17. Порфирий. О жизни Пифагора. http://psylib.org.ua/books/diogenl/txt12.htm
18. Чичерин Б. Н. Курс государственной науки. Тома I-III. – М.: И.Н.Кушнерев и Ко, 1894. – 455 с. http://elib.shpl.ru/ru/nodes/55418-ch-1-obschee-gosudarstvennoe-pravo-1894
19. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
20. Bobojonov, A. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti. Toshkent: Fan, 2019.
21. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
22. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 23-sentabr.
23. UNESCO. Education Transformation Report: Uzbekistan Case Study 2023. Paris: UNESCO, 2023.
24. OECD – bu Organisation for Economic Co-operation and Development, ya’ni Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining qisqartmasi. U 1961-yilda tashkil etilgan va dunyo iqtisodiyotini rivojlantirish, siyosatlarni muvofiqlashtirish hamda a’zo davlatlar orasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadida faoliyat yuritadi. A’zolari asosan rivojlangan davlatlardir.
25. Fransiyada joylashgan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bag‘ishlangan xayriya tashkiloti.

O‘RTA ASR HINDISTONDA SUFIYLIK VA BHAKTI HARAKATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Pulatov Sherdor Nematjonovich
Alfraganus university
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori., (PhD) . dotsent
https://orcid.org/0009-0002-1665-0545
psherdor88@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola O‘rta asr Hindistonining diniy-madaniy hayotida beqiyos o‘rin tutgan ikkita yirik ma’naviy oqim – Sufiylik va Bhakti harakatlarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va ijtimoiy-falsafiy mohiyatini keng yoritadi. Tadqiqot turli tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida akademik tahlil qilingan bo‘lib, asosiy g‘oyalar, tarixiy faktlar, shaxslar va jarayonlar ilmiy manba sifatida qayta ishlanadi. Sufiylikning Hindistonga kirib kelishidagi omillar, Chishtiya, Suhravardiya, Qodiriya tariqatlarining xalq orasidagi mashhurligi, Bhakti harakatining Veda an’analaridan boshlangan falsafiy ildizlari, Ramananda, Kabir va Nanak singari arboblar faoliyatidagi sinkretik birlik fenomeni maqolada chuqur yoritiladi. Ushbu harakatlarning diniy qatlamlarga qarshi tanqidi, rasmiy ruhoniylikdan mustaqil yo‘l tutishi, jamiyatdagi tengsizlik va kastachilikka munosabati, axloqiy poklanish konsepsiyasi, Allohga yoki Bhagavanga muhabbat markazidagi ruhiy tajribasi ushbu ilmiy ishning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Maqolaning ilmiy xulosasida Sufi–Bhakti harakatlari Hindistonning diniy uyg‘unligi, madaniy ko‘p qirraliligi va ijtimoiy totuvligiga qo‘shgan hissasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: Sufiylik, Bhakti, tasavvuf, advaita, kastachilik, Chishtiya, Ramananda, Kabir, Nanak, sinkretizm, ruhiy poklanish.

KIRISH

Hindiston o‘rta asrlardagi diniy hayoti nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali manzara bo‘lib, bu davrda turli madaniy, siyosiy va diniy kuchlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatgan. Aynan mana shunday sharoitda Sufiylik va Bhakti singari ruhiy-ma’naviy harakatlarning shakllanishi Hind jamiyatining tubdan yangilanishiga sabab bo‘ldi. Bu ikki harakat bir-biridan mustaqil tarzda rivojlangan bo‘lsa-da, ularning maqsadi, ruhiy tabiati, metodologiyasi, insonparvarlik yo‘nalishi, adolat izlash tamoyillari va jamiyatni uyg‘otishga qaratilgan chaqiriqlari o‘ta o‘xshash edi. Tarixiy manbalarda bu harakatlarning ildizlari va falsafiy xarakteri haqida aniq, manbaviy kuchli faktlar keltiriladi; ushbu maqola aynan shu ma’lumotlarni kengaytirilgan ilmiy tahlil bilan boyitadi.

Sufiylik Hindistonga kirib kelgandan boshlab bu makonning ruhiy iqlimi bilan moslashib, juda tez ommalashdi. Sufi shayxlar, xususan Chishtiya tariqati vakillari xalq tilida so‘zlashgani, kastachilikni qat’iyan rad etgani, hindu va musulmonlarni teng ko‘rgani ularni hech qaysi rasmiy ruhoniy qatlam egallay olmagan darajada mashhur qildi. Sufi shayxlar odamlarning dardini tinglash, ularning ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi noroziligini yumshatish va ruhiy tasalli berish orqali jamiyat ongida chuqur iz qoldirgan. Chishtiya shayxlarining sama’ majlislari, Suhravardiylarning ilmiy suhbatlari, Qodiriylarning muruvvat asosidagi faoliyati oddiy xalq uchun Xudoga yetishishning eng to‘g‘ri yo‘li kabi ko‘ringan.

Bhakti harakati ham xuddi shunday xalqchillikka tayangan bo‘lib, hindu jamiyatidagi kastachilik, murakkab ritualchilik, rasmiy brahmanizmning haddan tashqari kuchayib ketgan nazorati natijasida xalqning ruhiy ehtiyojini qondira olmay qolgani sabab Bhakti shiddat bilan tarqaldi. Bhakti harakati janubdan boshlab Shimoliy Hindistonga ko‘tarilib, Tamil Alvarlarining ilohiy qo‘shiqlari, Nayanarlarning Shiva yo‘lidagi sadoqati, keyinchalik Ramananda, Kabir, Tulsidas, Mirabai ijodi bilan uyg‘unlashib, butun Hindistonni birlashtiruvchi ruhiy oqimga aylandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sufiylik va Bhakti harakatlarining o‘zaro yaqinlashuvini chuqurroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularning ruhiy va falsafiy o‘xshashliklari tasodifiy emasligini ko‘ramiz. Hindistonning madaniy tabiatida asrlar davomida shakllangan bag‘rikenglik, turli dinlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, xilma-xillikni qabul qilish tamoyili mavjud edi. Bu tamoyil Sufiylikning talqinida ham, Bhakti an’analarida ham aniq ko‘rinadi. Sufi shayxlar Hindistonning qadimiy ruhiy an’analariga – yoga, tapasya, vairagya – chuqur hurmat bilan qaragan va mahalliy aholi orasida katta ishonch qozongan. Bhakti santlari esa Sufiylarning zikr an’anasiga qiziqish bildirgan, ruhiy mushohada, ichki poklanish, nafsni tiyish kabi tamoyillarni ulardan o‘rgangan.

Sufiy va Bhakti harakatlarining aynan shu ruhiy umumiyligi sababli ular beqiyos darajada ommalashdi. Sufiylar tasavvufning nozik ma’rifiy tamoyillarini hind til-madaniyati va urf-odatlariga moslashtirdi, Bhakti donishmandlari esa o‘z ta’limotini kastachilikka qarshi ijtimoiy harakatga aylantirdi. Bu ikki an’ananing eng yorqin sinkretik timsoli Kabirdir. Kabir hindu muhitida tug‘ilib, musulmon ijtimoiy muhiti bilan ham tanish bo‘lgan, tasavvuf bilan yaqindan aloqada yashagan va har ikki an’ananing eng chuqur ma’naviy yo‘llarini o‘zlashtirgan. Uning she’rlarida “Ram” ham bor, “Rahim” ham bor; u hindu va musulmon ruhoniylarining rasmiylikka berilib ketganini tanqid qilib, inson qalbidagi Xudoni ko‘rishga chaqiradi. Kabirning g‘oyalari Bhakti va Sufi qarashlarining eng yuksak

uyg‘unligi bo‘lib, uning o‘zi “Men na hindu, na musulmonman; men faqat haqiqatning quliman”, degan mazmundagi fikrlarni ilgari surgan.

Sufi va Bhakti harakatlarining xalq tili va poetik shakllardan keng foydalanishi ham ularning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Sufiylar forsiy, arabiy va hindaviy tillarida she’rlar bitgan bo‘lsa, Bhakti shoirlari avadhi, braj, marathi, tamili va boshqa xalq tillarida ijod qilgan. Bu tillar xalqning yuragiga yaqin bo‘lgani uchun ularning she’r va qo‘shiqlari katta ta’sir kuchiga ega bo‘ldi. Zikr va sama’, kirtan va bhajan majlislari oddiy xalq uchun ruhiy tasalli, ijtimoiy birdamlik va ma’naviy uyg‘onish manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Mana shu musiqiy, she’riy va xalqchil shakllar har ikki harakatning eng muhim kuchi bo‘ldi.

Sufi va Bhakti harakatlarining o‘rta asr Hind jamiyatidagi eng katta xizmati – kastachilik, tabaqachilik, diniy bo‘linishlar kabi ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash bo‘ldi. Kastachilik asrlar davomida hind jamiyatining asosiy ijtimoiy strukturasini tashkil qilgan bo‘lsa-da, bu tizim past tabaqalar hayotini izdan chiqarar, ularga inson sifatida munosabatni buzardi. Bhakti harakati esa “Xudo oldida hech kim ustun emas” degan prinsipni ilgari surdi. Bu g‘oya jamiyatning eng quyi qatlamlarini ruhiy jihatdan ko‘tarib, ularga munosib maqom berdi. Sufiylik esa musulmon jamoalaridagi tabaqaviy bo‘linishlar – ashrof, ajlaf, arzal kabi farqlarning keskinligini yumshatdi. Sufiylar hech kimni nasabi yoki kasbiga ko‘ra ajratmagan; ular uchun eng muhim mezon qalb pokligi edi.

Sufiylik Hindistonning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida ham muhim rol o‘ynagan. Sultonlar, keyinchalik Mug‘allar davrida hukmdorlar Sufi shayxlarning obro‘sidan foydalanishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, ko‘plab Sufi shayxlar hukmdorlarga tanqidiy munosabatda bo‘lgan, ularning zolimliklarini mahkum qilgan, adolatli hukmronlikka chaqirgan. Nizamuddin Avliyoning sultonlikdan uzoq turishi, muridlariga saroyga bormaslikni maslahat berishi yoki Baba Farid singari shayxlarning faqirlik va soddalikni yashash tarziga aylantirishi xalqning ularga bo‘lgan ishonchini yanada orttirgan.

Bhakti harakatining siyosiy ta’siri esa ikki yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchisi, kastachilikka qarshi kurash orqali jamiyatni demokratlashtirish bo‘lsa, ikkinchisi hindu jamiyatida ma’naviy uyg‘onish yaratishdir. Ramananda o‘z o‘quvchilariga kastadan qat’i nazar Bhakti yo‘lini o‘rgatgan, Mirabai esa saroyning rasmiy an’analariga bo‘ysunmay, Krishna muhabbati yo‘lida butun kastaviy qoidalardan voz kechgan. Tulsidasning “Ramcharitmanas” asari esa hind jamiyatining milliy o‘zligini kuchaytirgan, xalqning ruhiyatini birlashtirgan.

Sufi va Bhakti harakatlari bir-birini faqat ruhiy jihatdan emas, balki madaniy jihatdan ham boyitgan. Sufi darveshlar hind musiqa an’analaridan ta’sirlanib, qawwali, zikr va sama’ majlislarini hind ohanglari bilan boyitgan. Bhakti qo‘shiqlaridan Sufi majlislarida foydalanilgan holatlar ham uchraydi. Madaniy

sintezning bu holatlari bugungi Hindistonning musiqa, adabiyot, raqs, xalq og‘zaki ijodida chuqur iz qoldirgan. Bu sinkretik madaniyat “Ganga–Jamuni tehzeeb” – ya’ni hindu va musulmon madaniyatlarining daryo kabi qo‘shilib oqishi sifatida ta’riflanadi.

Sufi-Bhakti harakatlarining Hindiston jamiyatidagi tinchlik, bag‘rikenglik va madaniy barqarorlikni saqlashdagi o‘rni nihoyatda muhim. Diniy ziddiyatlar va siyosiy mojarolar bilan to‘la bo‘lgan o‘rta asr Hindistoni sharoitida bu ikki harakat jamiyatni birlashtiruvchi, ruhiy tarbiya beruvchi, ijtimoiy uyg‘unlikka chorlovchi kuch sifatida maydonga chiqqan. Diniy, etnik va madaniy xilma-xillikni qabul qilish, odamlarni Xudo oldida teng ko‘rish, rasmiy muassasalardan mustaqil holda ishlash ushbu harakatlarni yuksak ma’naviy darajaga ko‘tardi. Ular xalqni diniy bo‘linishdan, kastachilikning qattiq qatlami ostida ezilishdan, saroylar o‘rtasidagi siyosiy intrigalardan, ruhoniylardagi rasmiylik va manfaatparastlikdan himoya qildi.

Bu harakatlarning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, ular diniy ta’limotni xalqning kundalik hayoti bilan bog‘lab bergan. Sufiylikda muruvvat, saxiylik, faqirlikni ixtiyoriy tarzda tanlash, yaqinlarga yordam berish, qattiq mehnat qilish, halol rizq topish kabi tamoyillar mavjud bo‘lsa, Bhakti harakatida oila, mehnat, jamiyat, muhabbat, fidoyilik kabi g‘oyalar asosiy o‘rin tutadi. Bhakti santlari oddiy dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, quyi tabaqa vakillarining hayotini ulug‘lagan; Krishna, Rama singari ilohiy timsollar orqali inson intilishlarining sof ma’nosini ko‘rsatgan.

Sufiy va Bhakti harakatlarining adabiyot, san’at va musiqa sohalaridagi o‘rni ham beqiyosdir. Kabir, Nanak, Tulsidas, Soordas, Mirabai, Namdev, Tukaram, Andal va boshqa Bhakti santlarining ijodida Xudo inson qalbida yashashi, unga muhabbat orqali yetishish mumkinligi, dunyo o‘tkinchidir, inson o‘z “ego”sidan, nafsidan voz kechishi zarurligi asosiy mavzu bo‘lgan. Kabirning “doha”lari xalqning kundalik shevasida bitilgani uchun har bir odam uni bemalol tushunishi mumkin edi. Sufiy shayxlar, jumladan Amir Xusro, forsiy va hindaviy tillarda ijod qilib, ikki madaniyatni badiiy jihatdan birlashtirgan, qawwali an’anasini yaratgan. Qawwali, bhajan, kirtan singari janrlar bugungi kungacha millionlab insonlar uchun ruhiy manba bo‘lib qolmoqda.

Sufi va Bhakti harakatlarining falsafiy yondashuvlarini taqqoslaganda, ular o‘rtasida juda chuqur ruhiy yaqinlik borligi ko‘rinadi. Tasavvuf “vahdat ul-vujud” – mavjudotning yagona haqiqat ekani fikriga asoslangan bo‘lsa, Bhaktida “advaita” – ruhiy birlik konsepsiyasi mavjud. Ikkalasi ham insonni Xudo bilan birlashtiruvchi ichki tajribaga tayanadi. Sufiylikda “qalbni poklash”, Bhaktida esa “dilni Xudoga bag‘ishlash” tamoyili yetakchi o‘rinda turadi. Ikkalasi ham zahiriy amal yoki tashqi marosimlardan ko‘ra ichki muhabbatni ustun qo‘yadi. Bhakti

santlari rasmiy brahmanlar, Sufi shayxlari esa rasmiy qozilar va muftiylarning tashqi marosimchiligini tanqid qilib, haqiqiy dindorlik – qalb pokligi, rostgo‘ylik, halollik ekanini uqtirgan.

Madaniy sintezning cho‘qqisi sifatida Guru Nanak ijodi turadi. Nanakning diniy-falsafiy qarashlari Sufi–Bhakti uyg‘unligining mukammal namunasi bo‘lib, Sikhizmning asosini tashkil etadi. Nanakning asosiy tamoyili – “Ik Onkar”, ya’ni Xudo yagona, diniy bo‘linishlar esa odamlar orasidagi sun’iy devorlardir. Har ikki an’anada o‘qituvchi – murshid yoki guru – muqaddas mavqega ega bo‘lib, tarbiyaning asosi shaxsiy namunaga tayanadi.

XULOSA

Sufiylik va Bhakti harakatlarini o‘rta asr Hindistonining ma’naviy uyg‘onishida tutgan o‘rni jihatidan baholaganda, ular o‘z zamonining eng yuksak ruhiy-falsafiy oqimlari bo‘lganini ko‘rish qiyin emas. Bu harakatlar ko‘hna Hindiston zaminida ilgari ham mavjud bo‘lgan yuksak ruhiy an’analarning qayta uyg‘onishiga sabab bo‘ldi. Ularning asosiy maqsadi dunyoviy va diniy zulm ostida ezilayotgan oddiy xalqning ruhiy ehtiyojini qondirish, jamiyatni axloqiy jihatdan tozalash, insonni Xudo bilan bevosita bog‘lash edi.

Bu harakatlar faqat diniy yoki ruhiy oqim sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy islohotchi kuch sifatida ham maydonga chiqqan. Hind jamiyatida kastachilik, tabaqalanish, diniy bo‘linishlar, siyosiy zulmlar keng tarqalgan davrda Sufi va Bhakti harakatlarining “tenglik”, “mehr”, “rahm-shafqat”, “samimiylik” kabi g‘oyalarni yoyishi jamiyatni bir butun sifatida mustahkamladi. Bhakti harakati vakillari kastachilikka ochiq qarshi chiqib, quyi tabaqalar va ayollarning ruhiy maqomini yuqori baholadi. Sufi shayxlari esa saroy hokimiyatidan mustaqil turib, zulmni tanqid qildi, adolatni targ‘ib qildi, xalqni ezgulikka chorlab, ma’naviy yetakchilik qildi.

Sufi va Bhakti harakatlarining eng muhim xususiyati shundaki, ular diniy tajribani murakkab marosimlar, rasmiy institutlar yoki elit doiralarga xos ilmiy bahslardan chetda turib ham rivojlantirdi. Ular dinni xalqning o‘ziga qaytardi: Xudoga yetishish yo‘lini muhabbat, poklik, bag‘rikenglik, halollik kabi universal axloqiy qadriyatlarga bog‘lab qo‘ydi. Tasavvufdagi “ishq” va Bhaktidagi “prema” inson qalbi orqali ilohiy haqiqatga erishish mumkinligini dalillaydi.

Sufi–Bhakti merosi bugungi global dunyo uchun ham katta ahamiyatga ega. Millatlar, dinlar, tillar, madaniyatlar o‘rtasida ziddiyatlar kuchayib borayotgan davrda bu harakatlarning tinchlik, bag‘rikenglik, sevgi va adolatga asoslangan qarashlari umuminsiy ma’naviy mezon sifatida qadr topmoqda. Ular insoniyatni diniy bo‘linishlar, irqiy va madaniy tafovutlar ortidagi umumiy asos – ruhiy birlik, axloqiy mas’uliyat, ilohiy muhabbat sari chorlaydi.

Shu tariqa, mazkur maqolada taqdim etilgan tahlillar Sufi va Bhakti harakatlarining tarixiy ildizlarini, jamiyatdagi ishtirokini, falsafiy mohiyatini, madaniy merosini va bugungi kundagi ahamiyatini izchil yoritdi. Bu harakatlar Hindiston tarixidagi eng buyuk sinkretik, insonparvar va ma'naviy oqimlardan biri bo'lib, ularning g'oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rizvi, S. A. A. (1978–1983). A History of Sufism in India. New Delhi: Munshiram Manoharlal Publishers. (2 jildlik fundamental tadqiqot.)
2. Schimmel, Annemarie. (1975). Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press.
3. Lorenzen, David N. (1995). Bhakti Religion in North India: Community Identity and Political Action. Albany: SUNY Press.
4. Singh, Khushwant. (1963). A History of the Sikhs. Princeton: Princeton University Press.
5. Hawley, John Stratton & Juergensmeyer, Mark. (1988). Songs of the Saints of India. New York: Oxford University Press.
6. Eaton, Richard M. (2000). India's Islamic Traditions, 711–1750. New Delhi: Oxford University Press.
7. Sharma, Arvind. (1987). The Philosophy of Religion and Advaita Vedanta. University Park: Pennsylvania State University Press.
8. Ramanujan, A. K. (1973). Speaking of Śiva. London: Penguin Classics.

ДИАЛЕКТИЧЕСКАЯ ТРАКТОВКА АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ ПОНИМАНИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЫШЛЕНИЯ И ЯЗЫКА

Степанова О.И.

Кандидат философских наук, и.о. профессора кафедры «Социальные науки» университета «ALFRAGANUS»

E-mail: olgast1961@gmail.com

Аннотация.

В статье делается попытка дать краткий, но существенный анализ диалектического подхода Аль-Фараби к пониманию взаимоотношения мыслительных, логических структур и грамматических структур в процессе

нахождения истины. Также проиллюстрировано, что позиция Аль-Фараби отличается от аристотелевской.

Annotatsiya.

Ushbu maqola haqiqatni kashf etish jarayonida Al-Farobiyning fikr, mantiqiy tuzilmalar va grammatik tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatni tushunishga dialektik yondashuvini qisqacha, ammo muhim tahlil qilishga harakat qiladi. Shuningdek, Al-Forobiy pozitsiyasi Aristotelnikidan qanday farq qilishini ko‘rsatadi.

Abstract.

This article attempts to provide a brief yet essential analysis of Al-Farabi's dialectical approach to understanding the relationship between thought, logical structures, and grammatical structures in the process of discovering truth. It also illustrates how Al-Farabi's position differs from Aristotle's.

Ключевые слова: диалектика, рациональное мышление, язык, уровни языка, принципы логического построения суждений, формирование научных понятий

Kalit so'zlar: dialektika, ratsional tafakkur, til, til darajalari, hukmlarni mantiqiy qurish tamoyillari, ilmiy tushunchalarni shakllantirish**.**

Key words: dialectics, rational thinking, language, levels of language, principles of logical construction of judgments, formation of scientific concepts

Диалектический подход Аль-Фараби проявляется и в понимании им предмета, задач и разделов логики. Здесь Аристотелевская концепция в определенной мере была им изменена. Логические процессы он рассматривает как функции говорящей силы, а следовательно, как неотъемлемую часть общей проблемы познавания внешних предметов, объективной реальности. Логика требует строгой последовательности и доказательности мысли и является лучшим методом отыскания и обоснования истины. Поэтому логику (также диалектику) он считает и методом получения истинных знаний и способом развития научного стиля мышления у человека.

Аль-Фараби отмечает, что диалектические суждения вырабатываются у человека только при наличии здравой природы в чувствах и логической речи. «Совершенство человека в искусстве диалектики не заключается в том, чтобы победить другого, и слабость его в ней не заключается в том, чтобы по временам его побеждали. Совершенство человека в ней [диалектике] заключается в том, чтобы не оставить совершенно ничего или очень мало из того, что принято (имеет своим уделом) применять для достижения своей

цели для того или иного диалектического тезиса, причем таким образом, чтобы применить [все это] независимо от того, является он вопрошающим или отвечающим. Так, если он является вопрошающим, то он прилагает непрерывно все усилия для того, чтобы применить все то, чему присуще опровергать этот тезис, а если он является отвечающим, то он также прилагает максимум возможностей для того, чтобы не передавать противнику все то, чему присуще опровергать этот тезис, и выдвигает возражения на все то, что заслуживает его в том, что применяет спрашивающий [относительно тезиса], и совершает действие, из которого становится ясно, что он так не поступает относительно тезиса со своей стороны и из-за слабости своих сил.» [1]Он также пишет: «В научном вопросе также используются обе стороны противоречия. Посредством диалектического вопроса требуется выдача отвечающим одной из двух сторон противоречия, именно той, которую он предпочтет другой, а посредством научного вопроса требуется получить достоверное знание именно той одной из двух сторон противоречия, которая является истинной.» [2] Если поставлена научная проблема, оформленная в вопросе, то по мнению Аль-Фараби, “оно, искомое, нуждается в том, чтобы был выработан на него силлогизм», а «другой должен проверить этот силлогизм». Весьма интересной и продуктивной представляется концепция вопросов и ответов, которую разрабатывал Аль-Фараби.

Он считал, что вопрос является одной из важнейших составляющих диалектического процесса познания мира. Правильно сформулированный и поставленный вопрос требует такого же четкого и хорошо оформленного ответа. Таким образом, вопросно-ответная форма научного диалога является движущей силой в поисках истины. Аль-Фараби проводит различие между обучающими, диалектическими и научными вопросами. Так, он пишет: «Обучающий вопрос—это такой вопрос, который требует [от спрошенного], о котором спрашивающий знает, что у того есть доказательство искомого положения, чтобы он [спрошенный] обучил его [спрашивающего] этому доказательству. А диалектический вопрос есть такой вопрос, который требует от спрашивающего выдачу суждения, которое спрашивающий стремится опровергнуть или использовать для опровержения другого, выданного ему ранее. Это может происходить только тогда, когда спрашивающий уже знает силлогизм, которым он собирается опровергнуть положение, которое выдано ему или будет выдано. Эти три вопроса (обучающий, диалектический, научный) различны. Так, диалектический вопрос есть вопрос о том, что спрашивающий уже знает (до того, как задает свой вопрос) силлогизм, который опровергает положение, которое выдано

ему [отвечающим] или будет выдано. А научный вопрос есть вопрос о том, что спрашивающий уже знает до того, как задаст свой вопрос, что отвечающий располагает силлогизмом, посредством которого он [отвечающий] доказывает спрошенное у него [спрашивающему]. А вопрос, содержащий проверку, есть вопрос о том, что спрашивающий знает, что у него [собеседника] отсутствует силлогизм на вещь, о которой он спрашивает, или есть вопрос о том, что спрашивающий не знает, есть силлогизм на нее [вещь у спрошенного или нет».[3] В результате научного обсуждения, спора рождаются идеи, понятия.

«Если говорить о понятии в широком смысле слова, то оно закрепляется в лексическом значении слова. Научное понятие, выражаемое тем или иным словом, играет и роль значения этого слова и роль мысли, раскрывающей сущность предмета, обозначаемого этим словом. Проблема понятия в логической теории аль-Фараби в том виде, как она у него изложена, представляет собой одну из самых важных и сложных, поскольку связана с вопросами онтологии и гносеологии, логики и грамматики. Фараби ставит проблему многоуровневости языка: так, существует обыденный язык и язык науки. Дискуссия, если она ведется при смешении этих языков, никогда не будет продуктивной. Существенным признаком различия между логическим суждением и грамматическим предложением является несовпадение логических категорий субъекта и предиката (мауду и мах-мул) с грамматическими категориями подлежащего и сказуемого (мубтада и хабар) ни с точки зрения их понятийного содержания, ни с точки зрения структуры, ни с точки зрения терминологического обозначения. [4]

Литература:

1. Абу Наср Аль-Фараби Историко-философские трактаты Алма-Ата, 1985 г с 210.

2. Абу Наср Аль-Фараби Историко-философские трактаты Алма-Ата, 1985 г с 210.

3. Абу Наср Аль-Фараби Историко-философские трактаты Алма-Ата, 1985 г с 211.

4.Степанова О.И.История и теория логики. Учебник. Часть 2. Ташкент. “Университет”, 2022, - С 29

INSON KAMOLOTI G‘OYASI MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTIDA: SAʿĪD AD-DĪN AL-FARG‘ONIY, YUSUF XOS HOJIB VA AHMAD YASSAVIY

Obidov Asliddin Shavkatovich
Alfraganus universitetining “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0000-0002-9848-2364
e-mail:asliddin.obidov@gmail.com

Annotatsiya maqolada Saʿīd ad-Dīn al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviylarning inson kamoloti haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ko‘rsatilishicha, al-Farg‘oniyda ma’naviy bilish uch birlikli zikir (til – qalb – mavjudlik) orqali amalga oshadi; Xos Hojibda adolat, donishmandlik va tarbiya uyg‘unligi davlat hamda shaxsiy kamolotning asosini tashkil etadi; Yassaviyda esa kamolot yo‘li “hikmat” va jamiyatga xizmat orqali ifodalanadi. Tadqiqot ushbu g‘oyalarning zamonaviy ta’lim, axloqiy tarbiya va dinlararo bag‘rikenglikni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Inson kamoloti, Saʿīd ad-Dīn al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, hikmat, ma’naviy bilish, adolat, bag‘rikenglik.

Аннотация в статье проводится сравнительный анализ взглядов Саида ад-Дина аль-Фаргони, Юсуфа Хас Хаджиба и Ахмада Яссави на идею человеческого совершенства. Показано, что у аль-Фаргони духовное познание достигается через триединство зикра (язык – сердце – бытие); у Хас Хаджиба гармония справедливости, мудрости и воспитания служит основой государственного и личного развития; у Яссави путь к совершенству реализуется через «хикмат» и служение обществу. Исследование подчёркивает значение этих идей для формирования современного образования, нравственности и межрелигиозной терпимости.

Ключевые слова: Совершенство человека, Саид ад-Дин аль-Фаргони, Юсуф Хас Хаджиб, Ахмад Яссави, хикмат, духовное познание, справедливость, толерантность.

Abstract: This paper compares the views of Saʿīd al-Dīn al-Farghānī, Yusuf Khass Hajib, and Ahmad Yasawi on human perfection. Al-Farghānī interprets spiritual realization through the triadic dhikr (tongue–heart–being); Khass Hajib emphasizes justice, wisdom, and moral order as the unity of governance and personal virtue; Yasawi links perfection to hikmat (wisdom) and social service. The study highlights how these philosophical concepts contribute to modern education, ethical development, and interreligious tolerance.

Keywords: Human perfection, Saʿīd al-Dīn al-Farghānī, Yusuf Khass Hajib, Ahmad Yasawi, hikmat, spiritual knowledge, justice, tolerance.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – inson kamoloti g‘oyasini Saʿīd ad-Dīn al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy merosida izchil ochib berish

hamda ularning qarashlarida bilish (ma’rifat) → axloq → ijtimoiy mas’uliyat zanjirining qanday shakllanishini ko‘rsatishdir. Buning uchun, avvalo, har bir mutafakkirda kamolotning mazmuni va mezonlari aniqlanadi, so‘ngra ma’rifatning amaliy axloqqa aylanish jarayoni hamda axloqiy barqarorlikning jamiyat oldidagi burch va xizmatga tutashishi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida gnoseologik tamoyillar – ma’rifatning ishonchliligi (haqiqatga mosligi), ichki guvohlik (qalbda tasdiq topishi) va amaliy tasdiq (xulq va odatda namoyon bo‘lishi) – alohida oydinlashtirilib, ular uch mutafakkir talqinlari bilan taqqoslanadi. Yakunda, mazkur natijalar asosida zamonaviy ta’lim va fuqarolik tarbiyasiga mos amaliy model taklif etiladi: ma’rifatni ongda mustahkamlash, odob va halollikni kundalik xulqqa singdirish, hamda jamiyatga foydali xizmatni (bag‘rikenglik, hamjihatlik, mas’uliyat) ta’lim jarayoniga kiritish orqali shaxsiy yuksalishdan ijtimoiy foydaga yo‘naltirilgan uzluksiz yo‘l ishlab chiqiladi.

Metodlar va manbalar. Tadqiqot matnshunoslik va mazmuniy tahlilga tayandi: Saʿīd ad-Dīn al-Farg‘oniyning sharhlarida borliq birligi va zikrning uch bosqichi (til–qalb–mavjudlik) haqidagi tasvirlar ichki kontekstda o‘qildi; Yusuf Xos Hojibning **“Qutadg‘u bilig”** asaridagi **adab–adolat** g‘oyalari hamda Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”idagi ichki poklanish va xizmat talqinlari bilan qiyosiy bog‘landi. Qiyosiy yondashuvda **ma’rifat → axloq → ijtimoiy mas’uliyat** zanjiri uch mutafakkirda qanday uyg‘unlashishi aniqlashtirildi; bunda Yassaviy hikmatlarining tarbiyaviy ohangi va xizmatga chaqiruviga doir ochiq manbalar ham tekshirildi [1], “Qutadg‘u bilig”ning adolatli boshqaruv va komil inson g‘oyalarini alohida ta’kidlagan, ma’naviy-axloqiy mazmunini yorituvchi mahalliy materiallar jalb qilindi [2], shuningdek Yassaviy “Devoni hikmat”ining turkiy tasavvufdagi markaziy o‘rni haqidagi maqolalar ko‘rib chiqildi [3]. Gnoseologik mezonlar sifatida bilishning ichki barqarorligi (qalbda tasdiq), amaliy sinov (xulqdagi natija) va ijtimoiy tasdiq (bag‘rikeng muhitga qo‘shiladigan foyda) ishlatildi; bu mezonlar “Qutadg‘u bilig”dagi axloqiy qadriyatlar — adolat, halollik, sabr, xushmuomala — bilan hamohang tarzda baholandi [4]. Qisqa mulohaza: mazkur manbalar (muslim.uz’dagi ma’rifiy maqolalar va o‘zbekcha ilmiy nashrlar) uch muallifdagi kamolot tasavvurini amaliy foyda bilan bog‘lash imkonini berdi; shu bois natijalarni ta’lim va fuqarolik tarbiyasiga moslashtirish, xususan ma’rifatni odob va xizmat bilan birlashtirish, metodik jihatdan asosli ko‘rinadi.

Ilmiy yangilik. Tadqiqot inson kamolotini **“bilishning amaliy tekshiruvi”** sifatida talqin qiladi: ma’rifat haqiqatga mos ekanini faqat nazariy dalil bilan emas, balki **xulqdagi barqaror o‘zgarish** va **jamiyatga aniq foyda** orqali sinaydi. Shu nuqtada Farg‘oniydagi (*vahdat al-vujūd* + uch pog‘onali **zikr**) bilishdan fazilatga o‘tishning ichki yo‘lini beradi; zikrning til → qalb → butun hayot darajalariga ko‘tarilishi ma’rifatni **kundalik amal**ga aylantiradi [5]. Yusuf Xos Hojibning

adab–adolat konsepsiyasi ma’rifatning ijtimoiy mezonlarini — halollik, me’yor, xizmat – aniqlaydi va komil shaxsni **davlat–jamiyat** muvozanatida ko‘rsatadi [6].

Ahmad Yassaviy esa **hikmat–xizmat** bog‘lanishi orqali ichki poklanishni **odamlar uchun foyda**ga yo‘naltiradi: ma’naviy o‘sish – bag‘rikenglik, hamjihatlik va mehr bilan o‘lchanadi [7]. **Qisqa mulohaza:** shunday yondashuv ma’naviy kamolotni shaxsiy poklanishdan ijtimoiy foydaga bog‘laydi; ya’ni **bilish ishonchliligi** qalb tasdig‘i va **amaliy sinov** bilan mustahkamlanib, jamiyatda **bag‘rikeng muhit** va **foydali xizmat** orqali ko‘rinadi.

Kutilayotgan natijalar. Tadqiqot yakunida kamolotning bosqichli modeli amalda tekshiriladi: avval **ichki tartib** *(nafsni tarbiya, hushyorlik, zikr odobi)* mustahkamlanadi; keyin **axloqiy barqarorlik** *(adolat, halollik, muloyimlik)* kundalik xulqqa singadi; nihoyat **ijtimoiy xizmat** *(bag‘rikenglik, hamjihatlik, qo‘shniga naf keltirish)* ko‘rinadigan natijalarga aylanadi. Shunga mos **ta’lim moduli** ishlab chiqiladi: “**ma’rifat darsi**” *(bilishning ichki tasdig‘i va dalilga tayanish),* “**odob darsi**” *(adolat, rostgo‘ylik, sabr kabi xulqiy ko‘nikmalarni mashq qilish),* hamda “**xizmat loyihasi**” *(jamoaga foydali amaliy topshiriqlar)* ketma-ketligi bo‘yicha baholash: **nazariy tushunish → axloqiy o‘zgarish → jamiyatga foyda**.

Farg‘oniydagi birlik va **zikrning uch darajasi** (“*til – qalb – butun hayot*”) borliqni yagona markaz atrofida anglashdan ijtimoiy javobgarlikka o‘tishni asoslaydi; Chittick tahlilida **ḥaqīqa muḥammadiyya** “kelib chiqish va qaytish o‘qi” sifatida talqin etilib, bu dunyoda mas’uliyatni kuchaytiradi [8]. **Adolat** qadri “Qutadg‘u bilig”dagi davlat–jamiyat muvozanatining tayanch ustuni sifatida qayd etiladi (to‘rt tayanchdan birinchisi — *Adolat*), bu esa axloqiy barqarorlikni boshqaruv va fuqarolik madaniyati bilan bog‘laydi [9]. Ahmad Yassaviy “*Hikmatlar*”ida ichki poklanish va **xizmat** g‘oyasi Qur’on asos va amaliy foyda bilan birga ko‘rsatiladi: zikr qalbni yumshatib, xulqni tuzatadi, foyda esa jamiyatda ko‘rinadi [10]. **Qisqa mulohaza:** shu uch yo‘nalish bitta **“ma’rifat → axloq → ijtimoiy mas’uliyat”** modelida birlashadi; modelni ta’limga modul sifatida tatbiq etish mumkin (ma’rifat darsi → odob amaliyoti → xizmat loyihasi) va natijalar **o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar** (xulqdagi barqaror o‘zgarish, ko‘ngillilikka ishtirok, bag‘rikeng muhitga hissa) orqali tekshiriladi.

Amaliy ahamiyat. Taklif etilayotgan yondashuv universitet kurslari uchun sodda, ammo samarali modulni beradi: “ma’rifat darsi”da talaba haqiqatni bilish vositalarini o‘rganadi (ichki tasdiq va dalilga tayangan fikrlash), “odob darsi”da adolat va halollik kabi fazilatlarni mashq qiladi, “xizmat loyihasi”da esa ko‘ngillilik, bag‘rikeng muloqot va hamjihatlikka yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajaradi; bu uch qadam Farg‘oniy talqinidagi birlik va zikrning til–qalb–hayot bosqichlari bilan mazmunan mos keladi va mas’uliyatni kuchaytiradi

[11]. Shuningdek, “Qutadg‘u bilig”dagi to‘rt tayanchdan biri — adolat — fuqarolik tarbiyasida me’yor va javobgarlikni aniq belgilaydi, shu bois dars mazmunida adolat–odob bog‘lanishi alohida baholash mezonlari bilan mustahkamlanadi [12]. “Hikmatlar” asosida ishlab chiqiladigan qisqa qo‘llanmasi esa ichki poklanishni kundalik xulq bilan bog‘laydi: zikr va xizmat g‘oyalari talabaning axloqini yumshatadi, foydali ishga chorlaydi, sinf muhitida bag‘rikenglikni oshiradi [13]. Qisqa mulohaza: shu modul nazariy bilimni bevosita xulqdagi o‘zgarish va jamiyatga foyda bilan bog‘laydi; ya’ni “ma’rifat → axloq → ijtimoiy mas’uliyat” zanjiri o‘quv rejasiga oson qo‘shiladi va natijalar o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar orqali baholanadi (xulqiy barqarorlik, ko‘ngillilikka ishtirok, bag‘rikeng muhit). Qisman ilmiy yangilik: Farg‘oniy (vahdat al-vujūd + uch bosqichli zikr), Yusuf Xos Hojib (adolat–adab) va Yassaviy (hikmat–xizmat) chiziqlari bir modulga birlashtirilib, dars jarayonida nazariy idrokni amaliy xizmatga aylantirish mexanizmi ko‘rsatiladi.

Aadabiyotlar ro’yxati

1. “Tasavvuf haqida tasavvur: Tariqat silsilasi (Yassaviy zikri va hikmat doirasi)” (maqola). muslim.uz
2. “Ilm-ma’rifat beshigi” (maqola; “Qutadg‘u bilig”ning adolat va ta’limiy ahamiyati tilga olinadi). muslim.uz
3. “Ahmad Yassaviyning ‘Devoni hikmat’i va yangi topilgan namunalar” (maqola). Ziyouz.com.
4. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007.
5. Tasavvuf haqida tasavvur: tasavvufning ma’nosi, ta’rifi va manbai. https://muslim.uz/uz/e/post/21471-tasavvuf-haqida-tasavvur-tasavvufning-ma-nosi
6. Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarining til xususiyatlari. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2025 / Volume 6 Issue 6.
7. Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). Ahmad Yassaviy. "Movarounnahr" Toshkent -2004.
8. William C. Chittick, “Farghānī on the Muhammadan Reality,” Horizonte 21(64), 2023: 3–5, 11, 17.
9. G. Hajıyeva, “Kutadgu Bilig, Philosophical-Legal Political Treatise…,” David Publishing, 2020
10. E. D. To‘lashev – M. U. Tursunpo‘latova, “Ahmad Yassaviy asarlari — pedagogik g‘oyalar manbayi,” Science and Education 4(5), 2023: 1–2.
11. William C. Chittick, “Farghānī on the Muḥammadan Reality,” Horizonte 21(64), 2023: 4–5, 16–17.

12. G. Hajıyeva, “Kutadgu Bilig, Philosophical-Legal Political Treatise…,” David Publishing, 2020: 279–280.

13. E. D. To‘lashev – M. U. Tursunpo‘latova, “Ahmad Yassaviy asarlari — pedagogik g‘oyalar manbayi,” Science and Education 4(5), 2023: 968–970.

O‘ZBEK ETNOMUSIQASI ETNOMADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Yusupova Nargiza Ro’stamovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek etnomusiqasining mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi, rivojlanish xususiyatlari, etnomadaniyat tarkibida etnomusiqaning tutgan o‘rni masalasi falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada etnomusiqaning o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlari, etnomusiqaning xalq, millatning madaniy rivojidagi o‘rniga ham e’tibor qaratilgan va bu masalalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: Etnomadaniyat, etnomusiqa, o‘zbek madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, milliy madaniyat, madaniy taraqqiyot.

Etnomadaniyat bu xlaq, millatning o‘tmishi, madaniy rivojlanishi va tarqqiyoti natijasi sifatida shu xalqning ming yillik orzo‘-umidlari, milliy ruhi va harakterini o‘zida aks ettiradigan tarixiy xotiraning bir bo‘lagi, ajralmas qismi hisoblanadi. Etnomadaniyat — bu ma’lum bir xalqning tarixiy shakllangan turmush tarzi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, diniy-ma’naviy qarashlari, musiqasi, og‘zaki ijodi va san’ati kabi moddiy hamda ma’naviy qadriyatlar majmuasidir. U milliy o‘zlikni anglashning muhim omili bo‘lib, xalqning o‘z tarixiy xotirasi va ma’naviy merosini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Etnomadaniyatni o‘rganish orqali nafaqat bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va qadriyatlarini, balki umuminsoniy madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ham anglash mumkin. Shu bois u milliy madaniyatni ilmiy tahlil qilishda va uni yangi avlodga yetkazishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Xusussan bu haqda A.Ashirov quyidagilarni yozadi: “Etnomadaniyat esa — bu ma’lum etnosga xos bo‘lgan xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida o‘zlashtirilgan ko‘rinishlar majmuidir; an’anaviy xalq madaniyati — etnosning tarixiy-ma’naviy ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan, ajdodlar qarashlari, tajribalari, orzu-istaklari, an’analari va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan merosdir.”[1]

Etnomadaniyat bir xalq tomonidan arslar davomida yaratilgan iptidoiy diniy qarashlari, urf-odatlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari (dostonlari, rivoyatlari, ertaklari, matallari, masallari, maqollari, topishmoqlari, askiya, latifa va loflari), msuiqasi, qo‘shiqlari, raqs va teatr san’ati namunalarini o‘z ichiga oladi. Bu yuqoridagi barcha etnomadaniyat namunalari o‘zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan orzo‘-umidlarini, milliy g‘oya va mafkurasini, shuning milliy mentalitetini o‘zida aks ettiradi. Bu haqda U.Mengliqulov quyidagi fikrlarni bildiradi: “etnomadaniyat — bu millatning moddiy va ma’naviy boyliklari yig‘indisi bo‘lib, u inson hayoti va ijtimoiy borliqning barcha jabhalariga ta’sir etuvchi polifunksional hodisadir. Etnomadaniyat odat-an’ana, marosim, bayram, hunarmandchilik, xalq og‘zaki ijodi va boshqa elementlar orqali ifodalanadi; u milliy madaniyatning yadro qismini tashkil etadi, avloddan-avlodga meros-mashg‘ulotlarni yetkazib, milliy o‘zlikni va milliy xarakterni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.”[2] Tadqiqotchi ma’lum bir xalq etnomadaniyatini shakllanishiga e’tibor qaratadi va etnomadaniyatning shakllanishida geografik-iqtisodiy sharoitlar, turmush faoliyati va tarixiy omillar muhimligini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Etnomusiqa — etnomadaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Chunki u xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, diniy marosimlari, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini musiqiy shaklda ifoda etadi. Xalq qo‘shiqlari, dostonlar, maqomlar va an’anaviy cholg‘u asboblari orqali etnomusiqa milliy identiklikni saqlashga, avloddan-avlodga qadriyatlarni yetkazishga xizmat qiladi. Shu bois u etnomadaniyatning ma’naviy qatlamini yorituvchi, xalqning o‘zligini ifodalovchi asosiy unsurlardan biri sifatida qaraladi. Etnomusiqaning xalq, millat madaniy rivojidagi o‘rni haqida mamalakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ham quyidagi so‘zlarni aytib o‘tadi: “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.”[3] Yuqoridagi mamlakatimiz prezidentining so‘zlaridan ham ko‘rinib turibdiki milliy madaniy rivojlanishimizda, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishimizda etnomusiqaning ahamiyati va o‘rni juda katta hisoblanadi.

Etnomusiqaning mohiyatini ochib berishda Bruno Nettlning quyidagi so’zlari muhim hisoblanadi: “Ko‘pgina etnomusiqa olimlari … aspiranturada ushbu sohada tahsil olishadi; … Ular nima bilan shug‘ullanadi? … Ular G‘arbning zamonaviy musiqasini emas, balki, xalq, ommabop va mahalliy musiqalarni tadqiq qiladi, hamda musiqiy tovush bilan, odamlarning musiqaga bo‘lgan munosabati

bilan – asosan etnomadaniyat tarkibidagi etnomusiqa nuqtai nazaridan o‘rganadi.”[4] Ushbu fikrlardan etnomusiqa o‘tmish ajdadlar tomonidan yaratilgan xalq madaniyatining bir bo‘lagi ekanligini anglab olish mumkin va bu sohani ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlariga bezavol yetkazish muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Etnomusiqani o‘rganish zarur, chunki u xalqning tarixiy xotirasi, milliy identiklik va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Xalq qo‘shiqlari, maqomlar, dostonlar va an’anaviy asboblar orqali avlodlar o‘tmishdan kelajak sari ma’naviy ko‘prik quradi. Etnomusiqa nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va ijtimoiy hayoti haqida chuqur bilim beradi. Shu bois uni o‘rganish madaniyatni asrab-avaylash, milliy o‘zlikni mustahkamlash va umuminsoniy madaniyat taraqqiyotidagi o‘rnini anglash uchun muhimdir.

Etnomusiqa tushunchasining kelib chiqishi, tushunchaning etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikki tuhunchaning qo‘shilishi ya’ni etnos bu qadimgi yunon tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda xalq, millat, elat degan ma’noni bildirsa, I.Umurzoqovning ta’biri bilan aytganda: “Musiqa (qadim yunoncha: “μουσική” – “musiqalar san’ati”) - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi hisoblanadi”[5] gan so‘zlardan tashkil topgan tushuncha hisoblanadi. Bu yerda etnomusiqa bir xalqning shunchaki, xissiy kechinmalari emas balki, uning orzo‘-umidlari, istak va hoxishlari, ma’naviy ideallari aks etgan madaniyat namunasi nazarda tutilmoqda.

Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari – Pifagor, Platon, Arastu va Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Kavkabiy kabi tasavvuf arboblari – Imom G‘azzoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, ilmiy va falsafiy jihatdan tadqiq qilingan.[6]

Etnomusiqaning ilk ildizlari insoniyatning qadimiy marosim va turmush amaliyotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Qadimgi davrlarda musiqa mehnat jarayonida ritm saqlash, ovchilik va dehqonchilik marosimlarida birlashuv ramzi sifatida, shuningdek, diniy e’tiqod va sehr-jodu amaliyotlarida muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Shamanlikda qo‘shiq va cholg‘u asboblari ruhlar bilan aloqa qilish vositasi deb qaralgan bo‘lsa, Sharqdagi qadimgi jamiyatlarda musiqa inson ruhiy tarbiyasining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilgan. Shu bois etnomusiqaning ilk ildizlari nafaqat estetik ifoda, balki ijtimoiy birdamlik va dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida qadrlangan. Jumladan “Stanford Encyclopedia of Philosophy” 2025 yildagi nashrida etnomusiqaning kelib chiqishiga oid quyidagi mulohaza berilgan: “Ko‘pgina G‘arb falsafiy qarashlarida musiqaning paydo bo‘lishi qadimgi Gretsiyaga — Pifagorliklar musiqiy uyg‘unlik kosmosning matematik tartibini aks ettiradi deb hisoblagan va musiqa axloqiy hamda metafizik funksiyalarga ega ekanligi ta’kidlangan markazga bog‘lanadi.”[7] Bu yuqoridagi fikrlarni mantiqiy davom ettiradigan bo‘lsak, musiqaning paydo bo‘lishiga oid qarashlar borasida qadimgi yunon olimlarining fikrlari muhim ahamiyat egadir.

Xususan, musiqaning paydo bo’lishi haqida qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor musiqaning kelib chiqishini ko‘proq matematik nisbatlar va ohanglar orasidagi uyg‘unlik nazariyasi asosida tushunadi. U ta’kidlagan fikr — musiqiy intervallar (oktava, kvinta, kvarta) sonlar orasidagi oddiy nisbatlar yordamida aniqlanishi mumkin. Bu fikrga ko‘ra, musiqa nafaqat estetik zavq beradi, balki kosmik tartib va axloqiy uyg‘unlikni aks ettiradi. Musica universalis (osmon musiqasi) g‘oyasi shundaki, samoviy jismlar harakatga kelganda, ularning havoda va matematik nisbatlarda uyg‘unlik yaratishi inson ruhiga tushunilmasa-da, ruhiy jihatdan ta’sir qiladi. Shu tarzda, musiqa Pifagor uchun tabiatdagi tartib va inson ruhidagi tartibni uyg‘unlashtirishi orqali paydo bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda etnomusiqaning dastlabki namunalarining shakllanishi qadimgi dehqonchilik madaniyati va marosimiy amaliyotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Miloddan avvalgi davrlardayoq bu hududda hosil bayramlari, nikoh va dafn marosimlarida qo‘shiq va raqslar muhim ijtimoiy vazifa bajargan.

Arxeologik topilmalardan ma’lum bo‘lishicha, So‘g‘d, Baqtriya va Xorazm madaniyatida nay, doira, chang singari cholg‘u asboblari keng qo‘llanilgan. Shuningdek, Avesto kitobida qo‘shiq va musiqaning marosimiy hamda ruhiy poklanishdagi o‘rni qayd etilgan. Shu tariqa, O‘rta Osiyoda etnomusiqaning dastlabki namunalari diniy marosim, mehnat jarayonlari va ijtimoiy hayotning turli ko‘rinishlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

Zardushtiylik dini hukmron bo‘lgan qadimgi davr madaniy qatlamlari o‘zbek etnomusiqasining eng qadimgi arxaik unsurlaridan birini tashkil qiladi. Avestodagi kosmogonik tasavvurlar, olov va yorug‘likka sig‘inish, shuningdek tabiat unsurlari bilan uyg‘unlik prinsipi dastlabki musiqa marosimlarida ritmik takrorlar, barqaror ohang strukturasi va kollektiv kuylash shaklida namoyon bo‘lgan.

Zardushtiylik marosimlari — yashtlar va g‘oshalardagi matn–ohang birligi keyinchalik o‘zbek baxshichiligi, cho‘pon cholg‘ulari va marosim qo‘shiqlarida saqlanib qolgan qadimiy modal (lad) tuzilmalarga, ayniqsa tor diapazonli, monotoniya asosidagi kuylash uslublariga ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, “yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal” tamoyiliga asoslangan zardushtiy axloqiy-estetik qarashlar musiqaning ijtimoiy funksiyalarini — xotirjamlik, uyg‘unlik, marosimiy poklanish va jamoaviy birlikni mustahkamlovchi vosita sifatidagi rolini kuchaytirgan.

Natijada zardushtiylikning musiqiy an’analari o‘zbek etnomusiqasining marosimiy qatlamida — Navro‘z, bahor qo‘shiqlari, olov va tabiatni madh etuvchi ashulalarda — arxaik ritm, ohang va semantik ramzlar orqali hozirgacha yashab keladi.

Qadimgi davrlarda o‘tkazilgan Navro‘z bayramidagi musiqalar mazmuni asosan kosmogonik, marosimiy va hosildorlikka oid ramzlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Dastlabki Navro‘z kuy va qo‘shiqlari tabiatning qayta tug‘ilishi, yorug‘likning zulmat ustidan g‘alabasi, yil fasllarining almashinuvi va hosilning barakali bo‘lishi kabi qadimiy tasavvurlarni ifodalagan. Zardushtiylik ta’siridagi an’analarda musiqa olov, suv, yer va havo kabi to‘rt unsurga sig‘inish ramzlari bilan uyg‘un bo‘lgan; kuylarda barqaror ritmik takrorlar, tor diapazon, monoton ohanglar marosimiy trans holatini yaratgan.

Navro‘z marosimlarida ijro etilgan qo‘shiqlar chorvadorlik va dehqonchilik bilan bog‘liq tilaklar, yurt tinchligi, farovonlik, yangi yilning poklik va baraka olib kirishi haqidagi duolar mazmuniga ega edi.

Qadimiy cholg‘ular — doira, nog‘ora, surnay va cho‘pon naylarining ovozi jamoani birlashtiruvchi, yangilanish ruhini ifodalovchi musiqa manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, Navro‘z musiqalarida “jonlanish” va “uyg‘onish” timsollari ustuvor bo‘lib, ular tabiatning yangilanish jarayonini insonning ruhiy poklanishi bilan bog‘lovchi estetik mazmunga ega bo‘lgan.

O’zbek etnomusiqasini mazmuni va xususiyatlarini bir maqolada tahlil qilib, oxiriga yetish qiyin. Shu sababli ham bu boradagi tadqiqotlarinimizni keyingi maqola va ilmiy ishlarimizda yoritishni inobatga olib, o‘zbek etnomusiqasi etnomadaniyatning muhim tarkibiy qismi ekanligi hamda xalqning, millatning shakllanish tarixida asosiy omillardan biriligini ta’kidlamoqchimiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2008 (176 bet).

2. Menliqulov U. O‘zbek etnomadaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 11 | 2022. - B. 94.

3. “Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro maqom san’ati” – Gazeta.uz, nutq, 2018 yil, 7 sentyabr. https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/07/nutq/

4. Bruno Nettl. The Study of Ethnomusicology: Thirty-One Issues and Concepts. Chikago. 2005. University of Illinois Press, P. 32–33.

5. Umurzakov I. O‘zbek musiqa san’ati rivojlanish tendensiyalarining falsafiy-madaniy tahlili. Mavzusidagi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya. – Toshkent. 2024. –B. 12.

6. Umurzakov I. O‘zbek musiqa san’ati rivojlanish tendensiyalarining falsafiy-madaniy tahlili. Mavzusidagi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya. – Toshkent. 2024. –B. 12.

7. Stanford Encyclopedia of Philosophy. “History of Western Philosophy of Music: Antiquity to 1800”. Kaliforniya. Stanford Encyclopedia of Philosophy, 2025. P. 1. ttps://plato.stanford.edu/entries/hist-westphilmusic-to-1800/

ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA ABU HOMID AZZOLIYNING BILISH NAZARIYASIGA OID YONDASHUVLAR

Xakimova Nigora Alisherovna

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o‘rganish

ICESCO kafedrasi dosyenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada Abu Homid G‘azzoliyning (1058–1111) bilish nazariyasi, falsafaga va tasavvufga bo‘lgan munosabati ilmiy tahlil qilinadi. Muallif Abu Homid G‘azzoliyning tanqidiy tafakkuri va haqiqatga intilish usulini tarixiy-falsafiy kontekstda ko‘rib chiqadi. G‘azzoliyning bilish nazariyasida shubha tushunchasi metodologik yo‘nalishda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Maqolada G‘azzoliydagi falsafiy bilish va irfoniy tajriba o‘zaro zid emas, balki bir-birini to‘ldiradigan bilim manbalari ekani asoslab beriladi. Shu nuqtai nazardan, G‘azzoliy ilm va amal, aql va ruhiy tajribani uyg‘unlashtirgan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Abu Homid G‘azzoliy, falsafa, tasavvuf, bilish nazariyasi, haqiqat, metodologik skeptisizm, irfoniy bilim

Abu Homid G‘azzoliy (vaf. 1111 y.), “Hujjatul islom” (islom dinining hujjati) degan sharafli unvon bilan tanilgan, musulmon olamining eng yirik olimlari va nufuzli mutakallimlaridan biri bo‘lgan. U 1058 yilda Saljuqiylar hamda Abbosiylar hukmronligi davrida Xuroson viloyatining Tus shahrida (hozirgi Eron hududi) tug‘ilgan.

Abu Homid G‘azzoliy haqiqatga erishish yo‘lida izchil ravishda nazariy izlanish olib borgan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega olim edi. G‘azzoliyning bilish nazariyasida mavjud shubha va haqiqat haqidagi qarashlar turli yondashuvlarda talqin qilingan bo‘lib, ba’zi tadqiqotchilar unda aqliy-falsafiy jihatni, boshqalar esa ruhiy-ma’naviy (tasavvufiy) tomonni ustun qo‘yadi.

G‘azzoliyning falsafa va tasavvufga bo‘lgan munosabati uning shubha va aniq fakt haqidagi ta’limoti orqali tahlil qilinadi. Sharqshunos olimlar, jumladan Montgomeri Uottning fikricha, G‘azzoliy 1095 yilda Bag‘dodni tark etganidan so‘ng falsafaga qarshi chiqishni boshlagan va o‘zining keyingi asarlarida faqat tasavvufni asos qilib olgan [14:24]. Musulmon tadqiqotchilaridan Abdulkarim Surush va Hasan Hanafiy ham G‘azzoliyning falsafaga nisbatan munosabati borasida Uottning nuqtai nazarini ma’lum darajada qo‘llab-quvvatlaganlar.

So‘nggi yillarda G‘azzoliyning falsafaga munosabati va uning ash’ariylik ta’limoti hamda tasavvufga bo‘lgan sadoqati haqidagi tadqiqotlarda jiddiy burilish kuzatildi. Richard Frank kabi olimlar mavjud ustuvor qarashlarga qarshi chiqib, ash’ariylikning G‘azzoliy tafakkuriga ta’siri kam bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Frankning fikricha, G‘azzoliy butun umri davomida Ibn Sinoning falsafiy qarashlari ta’sirida bo‘lgan [5:135]. Binyamin Abraxamov esa G‘azzoliy uchun Allohni anglashning eng yaxshi usuli tasavvuf orqali emas, balki aqliy izlanish orqali bo‘lganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, G‘azzoliy bir qarashda go‘yoki tasavvuf tajribasini afzal ko‘rgandek ko‘rinadi, aslida esa falsafiy tafakkurni ustun qo‘ygan [1:150].

Yangi tadqiqotlarda jumladan, Aleksandr Treygerning G‘azzoliyning bilish nazariyasi borasidagi ishlari va Frank Griffelning G‘azzoliy kosmologiyasiga oid tadqiqotlari G‘azzoliy tasavvufiy qarashlari va kosmologiyasida Ibn Sino falsafasining aniq ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi [13:98].

Griffelning ta’kidlashicha, «Tahofut al-falosifa» asarida G‘azzoliy falsafachilar ta’limotining yolg‘onligini isbotlashni maqsad qilmagan, balki ularning ta’limotlarini ilmiy-mantiqiy yo‘l bilan isbotlay olmaganini ko‘rsatishni niyat qilgan [7:28]. Shu bois, uning “raddiyasi” murakkab tusda bo‘lib, u faylasuflarning ko‘plab g‘oyalarini qabul qilish imkonini ham qoldiradi.

Treyger esa «Tahofut» asarini psevdo-raddiya deb baholaydi va G‘azzoliyning haqiqiy qarashlari omma uchun mo‘ljallanmagan, deb hisoblaydi. Uning fikricha, G‘azzoliy ba’zi asosiy falsafiy g‘oyalarni, jumladan oxiratda jismonan qayta tirilishni inkor etish g‘oyasini ham aslida qabul qilgan edi [13:123].

Afifi Akitining G‘azzoliyning «al-Madnun al-kubro» asari tahlilida bu asar mazmuni Ibn Sino falsafasi bilan o‘xshashligini, shu bilan birga G‘azzoliyning islom asoslariga rioya qilgan holda faylasuflarning nuqsonlarini tuzatishga qaratilgan tanqidiy yondashuvini namoyon etganini ko‘rsatadi [2:65].

Kennet Gardenning ta’kidlashicha, G‘azzoliyning «Al-Munqiz min ad-dalol» nomli asari uni mutlaq sufiy sifatida tasvirlaydi, lekin bu haqiqatdan yiroq tasavvurdir. Gardenning fikricha, bu asar G‘azzoliyni 1106 yilda Nishopurda yuz bergan nizoli holat davomida falsafa va ismoiliylar g‘oyalariga moyillikda ayblashdan himoya qilish maqsadida yozilgan. Uning fikricha, G‘azzoliy Bag‘dodni tark etgandan keyin ham o‘zining falsafa bilan bog‘liq faoliyatini davom ettirgan [6:102].

Jyul Yanssens esa G‘azzoliyni “tahsil orqali bilim olish yo‘lini afzal ko‘ruvchi” deb ta’riflaydi, biroq shu bilan birga u falsafa va tasavvuf o‘rtasida ikkilanish holatida bo‘lganini ham ta’kidlaydi [8:626]. Luis Ksavye Lopes-Farjeat esa G‘azzoliyning bilish nazariyasida ishonchning rasional asoslariga tayanadigan yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, sufiylarning tajribalari G‘azzoliyni to‘liq

qoniqtirmagan va G‘azzoliy aql orqali bilishni Allohni anglashning eng yuksak yo‘li deb hisoblagan.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar ham G‘azzoliyning haqiqat va ishonchli bilimga erishish yo‘li sifatida tasavvufga sadoqatini yanada yaqqol namoyon etmoqda. Jozef Lumbard G‘azzoliy fikrlarida falsafaning muayyan o‘rnini tan oladi. Biroq uning ta’kidlashicha, G‘azzoliy falsafaga nisbatan tasavvuf va tajriba asosidagi mushohada orqali hosil bo‘luvchi ishonchni ancha yuqori qo‘ygan [10:406].

Massimo Kampanini bu borada mo‘tadil pozisiyani egallab, falsafani hikmat sifatida talqin qiladi va uni din bilan uzviy bog‘liq deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u G‘azzoliy bilish jarayonida tasavvufiy yo‘lni ustun deb hisoblaganini qayd etadi [4:5].

Erik Ormsbi fikricha, G‘azzoliyning dunyoqarashida eng oliy haqiqat ilm va amal uyg‘unligida namoyon bo‘ladi, bu esa “zavq” ya’ni boshqalarga so‘z bilan yetkazib bo‘lmaydigan ruhiy tajriba bilan ifodalanadi. Unga ko‘ra, haqiqat na dalil, na mantiq yordamida, balki ruhiy tajriba orqali kashf etiladi [11:140].

Usmon Bakar esa, G‘azzoliyni falsafadan avval sufiy sifatida tavsiflaydi va uning ta’limotida intuisiya, ya’ni “samodon keluvchi bilim”ga yetaklovchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi [3:123].

Ishonchli bilim bilan shubha bir tanganing ikki tomoni bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq mavzulardir. Ularning har ikkisi ham G‘azzoliyning bilim nazariyasida muhim o‘rin tutadi. G‘azzoliy qarashlarida shubha va ishonch tushunchalariga oid tadqiqotlarning aksar qismida ularni Dekart qarashlari bilan taqqoslash asosida yoritilgan. Bu masalani Rene Dekart, Devid Hyum yoki boshqa G‘arb faylasuflarining g‘oyalari bilan bog‘lamasdan tahlil qilish, shubha va ishonch tushunchasini islom ilmiy an’anasi doirasida, ya’ni G‘azzoliy qarashlari orqali tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

G‘azzoliyning shubha (skeptisizm) haqidagi qarashlarini boshqa mutafakkirlar bilan taqqoslamasdan faqat uning o‘zi doirasida tahlil etgan bir nechta tadqiqotlar mavjud. Osmon Bakarning fikricha, G‘azzoliyning “shubha”si

uslubiy (metodologik) xususiyatga ega bo‘lib, u haqiqatga ishonch bilan yetishishga qaratilgan sa’y-harakat edi. Uning ta’kidlashicha, G‘azzoliy qarashlaridagi shubha tushunchasi haqiqatning o‘ziga emas, balki uni bilish va qabul qilish usullariga qaratilgan edi.

Sobhiy Rayan esa, G‘azzoliydagi shubha tushunchasini haqiqatni kashf etish vositasi sifatidagi tafakkur uslubi, ya’ni ruhiy beqarorlik holati emas, balki fikriy jarayon sifatida talqin qiladi. Biroq u G‘azzoliy bilishning yuqori darajasini tan olishi va tasavvufni yuqori darajadagi ishonchga yetishish vositasi sifatida ko‘rsatishini tilga olmaydi [12:165].

Tanneli Kukkonen esa, G‘azzoliydagi shubha tushunchasining turli tomonlarini muhokama qilib, unda falsafiy ishonchning ahamiyatini ham, sufiy an’anasi doirasidagi ishonchning o‘rnini ham tan oladi [9:35].

Pol Xek esa G‘azzoliyning “shubha”sini “o‘zlashtirilgan johillik” deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, bu atama inson aqlining cheklanganligini, ya’ni haqiqatni (Haqni) to‘liq anglashda aqliy bilishning yetarsiz ekanini tan olishni anglatadi. Uning ta’kidlashicha, aqlning taslim bo‘lishi metafalsafiy qaror qabul qilishga, shuningdek, vahiy va irfoniy idrokni yuqori darajadagi ishonchga erishish vositasi sifatida qo‘llashga olib keladi.

Umumiy ilmiy yo‘nalish, jumladan G‘azzoliy va Dekartni taqqoslovchi tadqiqotlar ham, G‘azzoliydagi shubhani ikki jihatda talqin qiladi: ekzistensial yoki uslubiy (metodologik) ma’noda. Myetodologik talqin shubhani bilish usullarini tahlil qilish, bilimning asoslarini mustahkamlash va yolg‘on ta’limotlarni rad etish vositasi sifatida ko‘radi. Ekzistensial talqin ham G‘azzoliyning bilim nazariyasida muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, G‘azzoliyni umumiy ma’noda doimo shubha qilishni o‘rinli sanagan deb bo‘lmaydi. U barcha bilish tizimlarini yoki islom e’tiqodining asosiy tamoyillarini shubha ostiga olmagan. Aksincha, u haqiqatning mohiyatini bilish mumkinligiga ishongan va bu bilimga erishishning eng to‘g‘ri usulini izlagan.

Demak, G‘azzoliy nazdida shubha bu haqiqat va ishonchni anglashga qaratilgan tanqidiy tafakkur, ya’ni shubha qilish haqiqatni izlash jarayonidir. Shu

sababli, G‘azzoliyning “shubha”si ikki yo‘nalishda o‘rganiladi. Birinchisi, ekzistensial shubha, ikkinchisi esa, metodologik shubha. Ko‘rinib turibdiki, u borliq haqiqati haqida bilimga erishish imkoniyatini tan olgan mutafakkir hisoblanadi. Odatda ilm orqali xosil bo‘ladigan falsafiy dalil vositasida erishilgan bilim bilan, ruhiy tajriba orqali hosil bo‘ladigan irfoniy kashf (mukoshafa) orqali erishilgan bilimni bir-biriga zid va bir vaqtda mavjud bo‘lmaydigan ikki turdagi bilim deb qarash urf bo‘lgan. Biroq G‘azzoliy asarlarida tasavvuf va falsafa o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiradigan ikki bilim manbai ekani o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abrahamov. Al-Ghazali’s Supreme Way to Know God. // Studia Islamica. – 1993. – S.141–168.
2. Al-Akiti. The Good, the Bad, and the Ugly of Falsafa: Al-Ghazali’s Maḍnun, Tahafut, and Maqaṣid, with Particular attention to their Falsafi Treatments of God’s Knowledge of Temporal Events. // Avicenna and his Legacy: A Golden Age of Science and Philosophy. – 2010. – S. 51–100.
3. Bakar. The History and Philosophy of Islamic Science. – Kembridj: Islamic Text Society, 1999. – 253 s.
4. Kampanini. Al-Ghazali and the Divine. – Nyu-York: Routledge, 2019. – 151 s.
5. Frank. Al-Ghazali and the Ashʿarite School. – Darem: Duke University Press, 1994. – 142 s.
6. Garden. The First Islamic Reviver: Abu Ḥamid al-Ghazali and His Revival of the Religious Sciences. – Oksford: Oxford University Press, 2014. – 225 s.
7. Griffel. Al-Ghazali’s Philosophical Theology. // Journal of Islamic Studies. – 2006. – S. 1–42.

8. Yanssens. Al-Ghazali between Philosophy (Falsafa) and Sufism (Taṣawwuf): His Complex Attitude in the Marvels of the Heart (Ajaib al-qalb) of the Iḥya ulum al-din. // The Muslim World. – 2011. – S. 614–632.

9. Kukkonen. Al-Ghazali’s Skepticism Revisited. // In Rethinking the History of Skepticism. – 2010. – S. 29–59.

10. Lumbard. Abu Hamid Al-Ghazali and the Art of Knowing. // Essays in Islamic Thought and History in Honor of Gerhard Bowering. – 2019. – S. 401–419.

11. Ormsbi. The Taste of Truth: The Structure of Experience in Ghazali’s Munqidh. – S. 133–152.

12. Rayan. Al-Ghazali’s Method of Doubt. // MESA Bulletin. – 2004. – S. 162–173.

13. Treyger. Inspired Knowledge in Islamic Thought: Al-Ghazali’s Theory of Mystical Cognition and its Avicennian Foundation. – Nyu-York: Routledge, 2012. – 183 s.

14. Uott. Muslim Intellectual: A Study of Al-Ghazali. – Edinburg: Edinburg University Press, 1963. – 215 s.

ILAB MAXMUDOVNING ILMIY MAKTABI VA UNING IZDOSHLARI

Laylo Tursunova
Farg‘ona davlat universiteti
katta o‘qituvchisi falsafa fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) E-mail: l.e.tursunova@

Annotatsiya:

Ushbu maqolada professor Tilab Mahmudovning estetik tafakkur sohasida yaratgan ilmiy maktabi va uning izdoshlari faoliyati tahlil qilinadi. Olimning ilmiy merosi go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgi kabi estetik kategoriyalarni milliy va jahon adabiyoti hamda san’ati asosida talqin qilish bilan ahamiyatlidir. Maqolada shuningdek, Mahmudov ilmiy maktabining o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy-metodologik qarashlari hamda zamonaviy ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Uning izdoshlari tomonidan davom ettirilayotgan ilmiy

izlanishlar estetik tafakkurni yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar ma’naviy kamolotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qilayotgani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tilab Mahmudov, ilmiy maktab, estetik tafakkur, go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgi estetikasi, izdoshlari, milliy meros, ma’naviy tarbiya**.**

Аннотация: В статье анализируется научная школа профессора Тилаба Махмудова в области эстетического мышления и деятельность его последователей. Научное наследие ученого отличается трактовкой категорий прекрасного, возвышенного, трагического и комического на основе национальной и мировой литературы и искусства. Также рассматриваются особенности школы Махмудова, его теоретико-методологические взгляды и место в современном научном развитии. Показано, что исследования его учеников способствуют выводу эстетического мышления на новый уровень и служат гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей в духовном становлении молодежи.

Ключевые слова: Тилаб Махмудов, научная школа, эстетическое мышление, прекрасное, возвышенное, трагическое, эстетика комического, последователи, национальное наследие, духовное воспитание.

Abstract: This article analyzes the scientific school of Professor Tilab Mahmudov in the field of aesthetic thought and the activities of his disciples. The scholar’s legacy is distinguished by his interpretation of the categories of beauty, the sublime, the tragic, and the comic based on national and world literature and art. The paper also discusses the specific features of Mahmudov’s school, his theoretical and methodological perspectives, and its role in the development of modern science. It is shown that the research carried out by his followers contributes to raising aesthetic thought to a new level and serves to harmonize national and universal values in the spiritual development of youth.

Keywords: Tilab Mahmudov, scientific school, aesthetic thought, beauty, sublimity, tragedy, aesthetics of the comic, disciples, national heritage, moral education.

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviyat va estetik tafakkurni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning intellektual va estetik salohiyatini yuksaltirishga oid qarorlari bu borada muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda[1]. Shu nuqtai nazardan, estetik tafakkur sohasida ilmiy maktab yaratgan

olimlardan biri – professor Tilab Mahmudov va uning izdoshlari faoliyatini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Estetika va falsafa sohalarida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan olimlardan biri – professor Tilab Mahmudovdir. Uning ilmiy qarashlari nafaqat milliy tafakkur taraqqiyotiga, balki umuminsoniy estetik tafakkur rivojiga ham muhim hissa qo‘shdi. Mahmudov ilmiy maktabi o‘zining yangicha yondashuvlari, falsafiy va estetik tahlil uslublari bilan ajralib turadi. U go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgililik kabi estetik kategoriyalarni milliy va jahon madaniyati misolida tahlil qilib, ularni zamonaviy ilmiy-nazariy darajaga ko‘tardi.

Professor Mahmudovning ilmiy merosi bugungi kunda ko‘plab izlanuvchilar, tadqiqotchilar va shogirdlari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy maktabi nafaqat nazariy-estetik izlanishlarni, balki yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy kamolot masalalarini ham chuqur qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Olimning izdoshlari – bugungi kunda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilar estetik tafakkurning turli qirralarini yangi davr talablari bilan uyg‘unlashtirib, ilmiy an’anani davom ettirmoqdalar.

Tilab Maxmudovning ilmiy maktabi va uning izdoshlari ustoz-shogird an’analari asosida shakllanib, o‘ziga xos ilmiy meros va ma’naviy qadriyatlarni qamrab olgan edi.

Tilab Maxmudov o‘zining ilmiy-nazariy qarashlari, adabiy-estetik tadqiqotlari bilan nafaqat alohida olim sifatida, balki mustaqil ilmiy maktab yaratgan siymo sifatida ham alohida o‘rin egallaydi. Uning maktabi o‘ziga xos ilmiy yondashuv, badiiy-estetik tahlil, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Mazkur maktabning eng muhim xususiyatlaridan biri — ustoz va shogird an’analarining izchil davom etishidir. Sharq falsafasida qadimdan shakllangan “ustoz-shogird” tizimi ilmiy izlanishlarda ham o‘z aksini topgan. Tilab Maxmudov ana shu an’anani zamonaviy pedagogik va estetik qarashlar bilan uyg‘unlashtirdi.

Sharq mutafakkirlaridan Forobiy ilmiy maktablarning mohiyatini “ilmiy izchillik va ilmiy avlodlar davomiyligida” deb ta’riflab, ustozning bilim va tajribasi shogird orqali yangi bosqichga ko‘tarilishini qayd etadi[1] . Ibn Sino esa ilmiy izlanishlarning faqat nazariy emas, balki axloqiy va estetik qirralarini ham ustozdan shogirdga o‘tishini ta’kidlaydi[2] .

G‘arb mutafakkirlaridan Gegel “ilmiy maktab” tushunchasini “ruhning tarixiy taraqqiyoti va avlodlar ongida davomiylik” sifatida talqin etadi . Kant esa ustoz-shogird aloqalarini “aqlning amaliy tajribaga tatbiqi va axloqiy-estetik qarashlarning shakllanishi” bilan bog‘laydi[3] .

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ilmiy maktablarning mohiyatini “ilmiy izchillik va ilmiy avlodlar davomiyligida” deb ta’riflab, ustozning bilim va tajribasi shogird orqali yangi bosqichga ko‘tarilishini qayd etadi. Bu yerda Forobiyning fikricha, ilmiy maktab faqat bilim uzatish tizimi emas, balki ustoz va shogird o‘rtasidagi intellektual va ma’naviy uyg‘unlikning davomiy jarayonidir. Shu bilan birga, shogirdning bilimni qabul qilishi va uni rivojlantirishi orqali maktab ilmiy merosni yangilaydi va boyitadi. Ibn Sino esa ilmiy izlanishlarning faqat nazariy qirralari emas, balki axloqiy va estetik jihatlarini ham ustozdan shogirdga o‘tishini ta’kidlaydi. Uning qarashida ilmiy maktab nafaqat tafakkur va bilimni, balki insonning ruhiy, estetik va axloqiy kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi.

G‘arb mutafakkirlaridan Gegel “ilmiy maktab” tushunchasini “ruhning tarixiy taraqqiyoti va avlodlar ongida davomiylik” sifatida talqin qiladi. Gegel nazarida ilmiy maktab orqali avlodlar o‘tmish tajribasini qabul qilib, uni yangi zamon ehtiyojlariga moslashtiradi va shu tariqa ilmiy tafakkur tarixi davomiyligini ta’minlaydi. Kant esa ustoz-shogird aloqalarini “aqlning amaliy tajribaga tatbiqi va axloqiy-estetik qarashlarning shakllanishi” bilan bog‘laydi. Kant uchun ilmiy maktab shunchaki bilim uzatish maskani emas, balki shogirdning estetik tafakkurini rivojlantirish, axloqiy ongini mustahkamlash va amaliy hayotga tatbiq etishning samarali platformasidir.

Tilab Maxmudovning fikricha, ilmiy maktablar nafaqat nazariy bilimlarni uzatish, balki shogirdlarni ilmiy va estetik tafakkur asosida rivojlantirish orqali jamiyat madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Ustozning ilmiy merosi va shogirdning ijodiy faoliyati bir-birini to‘ldiradi, shu tariqa ilmiy maktablar uzluksiz va samarali rivojlanadi. Bizning qarashimiz shundan iboratki, ilmiy maktablar falsafiy, estetik va ijtimoiy jihatlari bilan birgalikda shakllanadi; ular faqat bilim va tajriba uzatish joyi emas, balki ilmiy tafakkur, axloqiy me’yorlar va estetik didning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiluvchi maydon hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan, ustoz-shogird aloqalari ham ilmiy, ham falsafiy va estetik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Shogirdlarining izlanishlari Tilab Maxmudov qarashlarini yanada rivojlantirib, yangi yo‘nalishlarga yo‘l ochdi. Ularning tadqiqotlarida adabiy-estetik tafakkurning turli bosqichlari, milliy merosning zamonaviy talqini, yoshlar ongida estetik dunyoqarashni shakllantirish masalalari keng yoritilgan.

Tilab Maxmudovning ilmiy maktabi nafaqat aniq bir ilmiy yo‘nalish bilan chegaralanib qolmay, balki falsafa, estetika, pedagogika va adabiyotshunoslikning turli masalalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bu jihatdan uni Forobiy va Navoiy ta’kidlagan ilmiy an’analar, shuningdek, Hegel va Kant kabi buyuk

mutafakkirlarning “ilmiy izchillik va maktab yaratish” tamoyillari bilan uyg‘unlashtirib ko‘rish mumkin.

Tilab Maxmudov nafaqat ilmiy rahbar sifatida, balki samimiy ustoz sifatida ham shogirdlari bilan dildan suhbatlashar, ularning dissertatsiya yozish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarga qanday yondashish kerakligini o‘rgatardi. U qiyosiy tahlillarga, ilmiy tanqidlarga faqatgina dalil va mantiq nuqtai nazaridan emas, balki estetik munosabat va falsafiy ildizlar asosida yondashish zarurligini uqtirardi. Olimning fikricha, ilmiy izlanish jarayonida dil va tuyg‘u, ichki did va sezgi ham muhim o‘rin tutadi.

Mazkur qarashlar Sharq va G‘arb tafakkuridagi bir qator buyuk an’analar bilan hamohangdir. Masalan, Zardushtiylik falsafasida insonning ilmiy va ruhiy izlanishlari “ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” birligi asosida baholangan4 . Tasavvuf olimlari (Xoja Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy) esa ilmiy jarayonni qalb pokligi va ma’rifat uyg‘unligi bilan izohlashgan . Jadidchilik harakati vakillari ilmiy-ijodiy faoliyatni milliy uyg‘onish va ma’naviy taraqqiyotning asosi sifatida ko‘rganlar .

Adabiyot namoyandalari ham bu jarayonni o‘z asarlarida yoritganlar: Alisher Navoiy ilmiy-estetik faoliyatda “did va ilm uyg‘unligi”ni zaruriy shart sifatida ko‘rsatadi[5]. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z “Boburnoma”sida ilmiy kuzatuvni estetik tasvir bilan uyg‘unlashtirib, shogirdlarga ibrat bo‘luvchi meros qoldirgan[6]. G‘arb adabiyotida A. Pushkin ilmiy va ijodiy erkinlikni “qalb va aqlning uyg‘unligi” sifatida ko‘rgan bo‘lsa[7], M. Lermontov insonning ichki ruhiy kechinmalari va tashqi olam tahlilini badiiy-estetik asos sifatida talqin qilgan[8].

Tilab Maxmudovning shogirdlari bilan olib borgan suhbatlari, ularga bergan saboqlari qadimiy Sharq donishmandligi, tasavvufiy qarashlar, jadidchilik ruhiyati hamda G‘arb adabiy-falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu asosda Tilab Maxmudovning ilmiy faoliyati va shogirdlari bilan suhbatlar jarayonida qadimiy Sharq donishmandligi va tasavvufiy qarashlar nafaqat estetik didni, balki shaxsning ichki dunyosini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jadidchilik ruhiyati va G‘arb adabiy-falsafiy tafakkuri bilan uyg‘unlashgan pedagogik yondashuv yoshlarning ilmiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga samarali vosita ekanini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Tilab Maxmudovning shogirdlariga berilgan saboqlar nazariy bilimlarni amaliy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish, ijodiy mustaqillik va estetik qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda milliy va xalqaro adabiy-falsafiy an’analarni uyg‘unlashtirish orqali yosh avlodning estetik didini yuksaltirish mumkin.

Tilab Maxmudov nafaqat ilmiy rahbar sifatida, balki samimiy ustoz sifatida ham shogirdlari bilan dildan suhbatlashar, ularning dissertatsiya yozish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarga qanday yondashish kerakligini o‘rgatardi. U qiyosiy

tahlillarga, ilmiy tanqidlarga faqatgina dalil va mantiq nuqtai nazaridan emas, balki estetik munosabat va falsafiy ildizlar asosida yondashish zarurligini uqtirardi. Olimning fikricha, ilmiy izlanish jarayonida dil va tuyg‘u, ichki did va sezgi ham muhim o‘rin tutadi.

Mazkur qarashlar Sharq va G‘arb tafakkuridagi bir qator buyuk an’analar bilan hamohangdir. Masalan, Zardushtiylik falsafasida insonning ilmiy va ruhiy izlanishlari “ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” birligi asosida baholangan[4].

Bizning qarashimizga ko‘ra, tasavvuf olimlarining merosi bugungi ilmiy maktab va ustoz–shogird an’analarini anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Xususan, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida va Jaloliddin Rumiy asarlarida ilmiy jarayonning mohiyati faqatgina aqliy izlanishlarda emas, balki qalb pokligi, axloqiy yetuklik va ma’rifiy uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Bizningcha, ana shu yondashuv hozirgi davrda ham ilmiy faoliyatni nafaqat bilim olish, balki insoniy komillik sari yo‘naltiruvchi jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

“Raqobatdan qo‘rqmang. Chunki raqobat bor joyda inson o‘zini hushyor sezadi, intilishlari kuchayadi va ijodiy salohiyati yuzaga chiqadi. Turmushda duch kelgan qiyinchiliklarni dadil yengish — nafaqat shaxsiy g‘alaba, balki ilmiy tafakkurning yetuklashuvi uchun ham zaruriy shartdir” .

Demak, raqobat inson ruhiy va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi tabiiy jarayon sifatida qaraladi. Raqobat bor joyda shaxs o‘zini hushyor his qiladi, intilishlari kuchayadi va ijodiy salohiyati faol namoyon bo‘ladi. Turmushdagi qiyinchiliklarni dadil yengish nafaqat shaxsiy g‘alaba, balki ilmiy tafakkurning yetuklashuvi uchun zaruriy shartdir. Shu jarayonda shaxsning ichki dunyosi va tafakkuri sinovdan o‘tadi, ong va qalb uyg‘unligi orqali bilim va san’atni qabul qilish, badiiy-estetik qarashlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Raqobat va qiyinchiliklarni intilish va ijodiy o‘sish vositasi sifatida baholash ilmiy va estetik tajriba orqali yosh tadqiqotchilarda mustahkam intellektual va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Ilmga faqat aql ko‘zi bilan emas, balki yurak ko‘zi bilan ham qarang. Chunki ilmning eng chuqur mohiyati estetik idrok orqali ochiladi. Fikrlar ketma-ketligini aql, jism va ruh uyg‘unligida, ongli ravishda hal qilish insonni nafaqat bilimli, balki estetik didli va ma’naviy barkamol shaxsga aylantiradi .

Ijodkor xalqdan bir qadam oldinda yuradi. Shu bois bilim, ko‘nikma, tajriba va malaka sizga doimo yo‘ldosh bo‘lsin. Nusxa ko‘chirish bilan ish tutmang, aksincha, ilmli bo‘ling, chunki ilm sizni nurlantiradi. Noodatiy tafakkurga yo‘l ochadigan nodir asarlarni o‘qing, tafakkur erkinligiga intiling. Zero, erkin tafakkur sizni ilmiy-ijodiy izlanishlarda yangi ufqlarga olib chiqadi.

Estetika — bu go‘zallikni idrok qilish emas, balki uni hayotda va ilmda yaratish, ongda uyg‘otishdir. Shu bois, sizlarning har bir izlanishingiz ilmiy haqiqatni topish bilan birga, go‘zallikni anglash, go‘zallikni yaratish jarayonidir. Bu jihatdan Forobiyning ilmiy izchillik haqidagi ta’limoti, Ibn Sinoning axloqiy-estetik qarashlari, Navoiy ta’kidlagan “ilm va did uyg‘unligi” hamda G‘arb mutafakkirlari — Gegel va Kantning tafakkurdagi estetiklikka urg‘u bergan qarashlari sizning ilmiy faoliyatingizga tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Demak, raqobat va qiyinchiliklardan qo‘rqmang, ilmga estetik va axloqiy nigoh bilan qarang, fikrni esa ruhiy, jismoniy va aqliy barkamollikda uyg‘unlashtiring. Ana shunda sizlarning ilmiy izlanishlaringiz hayotiy tajriba, falsafiy mazmun va estetik go‘zallikni o‘zida mujassam etgan haqiqiy maktab darajasiga ko‘tariladi.”

Shu tariqa, Tilab Mahmudovning shogirdlariga aytgan pand-nasihatlari oddiy nasihat emas, balki ilmiy-nazariy, falsafiy va estetik asosga ega bo‘lib, o‘zida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining eng ilg‘or qarashlarini mujassam etadi. Zero, olimning nutqi va saboqlarida nafaqat shaxsiy tajriba, balki ustozlaridan olgan ilmi, ma’naviy tarbiyasi va hayotiy ibratlari ham namoyon bo‘ladi.

Tilab Mahmudov o‘z ustozlarini yuksak ehtirom bilan yodga olib, ularning ilmiy maktabidan olgan saboqlari asosida shogirdlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Chunki ustozdan o‘rgangan ilm — shogird tafakkurining poydevori, ustoz bergan estetik saboqlar esa uning qalb nuridir. Forobiyning “ustozsiz bilim yo‘q, bilim esa kamolotsiz qoladi ” degan fikri ham bejiz emas. Mahmudov ana shu haqiqatni teran anglab, o‘z ustozlari orqali olgan saboqlarini shogirdlariga ilmiy-nazariy boylik sifatida yetkazadi.

Xulosa. Professor Tilab Mahmudovning ilmiy maktabi estetik tafakkur rivojida yangicha yondashuvlar, chuqur nazariy asoslar va falsafiy-estetik qarashlari bilan ajralib turadi. Uning estetik kategoriyalarga bergan talqini milliy merosni jahon madaniyati bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Olimning “go‘zallik – inson ruhining uyg‘unligi”, “ulug‘vorlik – ma’naviy yuksalish”, “fojeaviylik – hayotiy haqiqat”, “kulgi – ruhiy poklanish” haqidagi qarashlari estetik tafakkurning nazariy asosini tashkil etadi. Mahmudov ilmiy maktabi estetik ongni shaxs va jamiyatning ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi hodisa sifatida talqin qiladi. Uning izdoshlari bu g‘oyalarni davom ettirib, estetik tarbiya va ma’naviy yuksalishda milliy qadriyatlar bilan zamonaviy ilmiy tamoyillarni uyg‘unlashtirmoqdalar. Shunday qilib, Mahmudov maktabi bugungi estetik tafakkur taraqqiyotida uzviylik, yangilanish va ilmiy an’anaviylikni birlashtirgan holda, falsafiy-estetik qarashlar rivojida mustahkam o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4351-son Qarori “Yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash…” Toshkent, 2019.

2. Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993. — 160 b.

3. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – B. 112–115.

4. Gegel, G.V.F. Filosofiya istorii. – Moskva: Mysl’, 1993. – B. 42–47.

5. Kant, I. Kritika prakticheskogo razuma. – Moskva: Nauka, 1994. – B. 89–93.

6. Avesto. Yasht kitobi. M. Is’hoqov tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. — 8-b. 31-bet.

7. Mahmudov T hayotiy saboqlar T:.Mumtoz sos 201y,b-60

8. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

9. Bobur, Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

10. Pushkin, A.S. Complete Works / Полное собрание сочинений. – Moskva: Nauka, 1979.

BUYUK AJDODLAR MEROSI – UChINChI RENESSANS ASOSI

Ilyos QUVONDIQOV
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangier filiali dotsenti, falsafa doktori (PhD)
E-mail: ilyaskuvandikov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kishilar ongli faoliyati tabiiy tarixiy jarayon bulib, bu kundalik an’anaviy turmush faoliyatida tarixdan saboq olish, yoshlar dunyoqarashini ilmiy asoslangan xulosalar bilan boyitish hamda ularda ilmiy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishga, tafakkurni faollashtirishga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, renessans, ta’lim, tarbiya, mafkura, Vatanga muhabbat, qadriyat, mehr-oqibat, ma’naviy meros.

Abstract: This article discusses the conscious activities of individuals as a natural historical process. It focuses on learning lessons from history in daily traditional life, enriching the worldview of young people with scientifically grounded conclusions, and developing their scientific and ideological immunity while activating their thinking.

Keywords: spirituality, enlightenment, education, upbringing, ideology, love for the fatherland, values, compassion, cultural heritage, renesans.

Ma’lumki, 2024 yil 23-26 avgust kunlari Toshkent va Samarqandda “Buyuk ajdodlar merosi - Uchinchi renessans poydevori” VIII xalqaro kongressi bo’lib o’tgan edi. Unda dunyoning 35 da davlatidan 300 ga yaqin olimlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar ishtirok etdi. Unda IRSIKA, AYSESKO, TURKSOY, “Al-Furqon” fondi, Xalqaro Turkiy akademiya rahbarlari, Islom olami robitasi va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Kongress ishtirokchilariga Prezident Shavkat Mirziyoevning tabrigi o’qib eshittirildi. Davlat rahbarining tabrigida kongressda “joriy va kelajakka mo’ljallangan ilmiy dastur va rejalari muhokama qilinishi, ayniqsa diqqatga sazovor"ligi alohida ta’kidlandi. Shuningdek, tabrikda qayd etilishicha, “fundamental tadqiqotlarni o’tkazishga doir dasturlar, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar hech shubhasiz, o’zaro hamkorligimiz uchun yangi imkoniyat va istiqbollar ochib beradi”.[1]

Xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ilmiy, ma’naviy, axloqiy merosi, mutafakkirlar va allomalarimiz qoldirgan ko’plab ilmiy asarlar, kashfiyotlar, umrboqiy qadriyatlar va an’analar ana shu qo’lyozmalarda ham aks etgan. Milliy madaniy merosimizning ming-minglab namunalari turli taloto’p zamonlarda chetga chiqib ketgani va ularni asl vataniga qaytarish borasida ham amaliy ishlar boshlanganini haqli bir qoniqish bilan qayd etish kerak, albatta. Ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy va betakror madaniy merosini sanab bitirish mushkul. Vatanimiz tarixida o’tgan ikki renessans davrida yaratilgan osori-atiqalarga bugun jahon afkor ommasi hayrat bilan qarab turibdi, xorijdan kelayotgan sayyohlar oqimi esa aynan ana shu tarixiy obidalarni ko’rishga oshiqmoqda. Chunki ajdodlarimizning e’tiboridan chetda qolgan sohaning o’zi yo’q. Ana shularni qamrab olgan asarlar, yodgorliklar, mamlakatimizning turli tarixiy shaharlaridan topilgan osori-atiqalar faqat O’zbekistonning emas, balki butun jahonning, YuNESKOning bebaho mulkidir. U xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslar, ya’ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy va ruhiy an’ana, qadriyat hamda tamoyillardir.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, **“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo’yib, uni milliy g’oya darajasiga ko’tarmoqdamiz”[2].** Ana shu tarixiy fikrini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev yaqinda bo’lib o’tgan BMT Bosh assambleyasining 80- yubiley sessiyasida yanada rivojlantirib shunday dedi: “Buyuk ajdodlarimiz – mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini Birlashgan Millatlar Tashkilotida o’tkazish niyatidamiz. Yangi O’zbekiston barcha davlatlar bilan o’zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin

sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida o'z hissamizni qo'shishga doim tayyormiz".[3]

Xalqimizning betakror madaniyatini va qadriyatlarini o'rganish yo'lida islom dinining insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalaridan samarali foydalanish, ularni chuqur o'rganish, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Qaffol Shoshiy, Abul Muin Nasafiy, Makhul Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' mutafakkirlarning ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq etish bugungi kunda insonlarni, ayniqsa yoshlarni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, betakror an'analar ruhida tarbiyalashga etarlicha e'tibor qaratmaydigan va bu yo'lda o'zining tarixiy, madaniy, axloqiy merosini asrab-avaylab, uni kelajak avlodga qoldirishga e'tibor bermaydigan mamlakat tarixiy taraqqiyot chorraxasida qolib ketishi tayin. Hartomonlama uyg'un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o'z qarash va yondashuviga, fuqarolik nuqtai nazariga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi O'zbekistonda madaniy yodgorliklar, aziz qadamjolar hozirgi paytda yoshlarimizning dunyoqarashini boyitish, ularning tariximizga bo'lgan munosabatini shakllantirish vositasiga aylanib bormoqda.

Ana shunday murakkab bir mafkuraviy makonda boy o'tmish madaniyatimiz va milliy an'analarimizni yoshlar ongiga singdirish, ularni tarixiy xotira, ajdodlarimiz merosiga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalash istiqboldagi muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Prezidentlikka kirishishga bag'ishlangan tantanada nutq so'zlagan Shavkat Mirziyoev yoshlar haqida to'xtalar ekan, shunday degan edi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".[4]

Markaziy Osiyo madaniyati azaldan dunyoni lol foldirib kelgan va G'arb uchun maktab vazifasini o'tagan. Bu o'rinda o'rta asrlar Sharq uyg'onish davrining ikki bosqichida, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan (birinchi bosqich) va XIV asrning ikkinchi yarmi hamda XV asrlarda (ikkinchi bosqich) yashab ijod etgan muttafakkir va allomalar ijodiga nazar tashlab o'tish o'rinlidir. Ma'lumki, O'rta asrlar Sharq uyg'onish davriga kelib, xalq boy an'analarini o'zida mujassam etgan tarbiyaviy-axloqiy risolalar paydo bo'ldi, ularda axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi.

“Qutadg’u bilig”, “Axloqi-Nosiriy”, “Qobusnoma”, “Hibatul haqoyiq”, “Guliston”, “Bo’ston”, “Axloqi Jaloliy”, “Mahbub ul-qulub ”, “Boburnoma” kabi Yusuf Xos Xojib, Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimizning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. 2014 yil 15 mayda “O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusida o’tkazilgan xalqaro anjumanda Birinchi Prezident Islom Karimovning so’zlagan tarixiy nutqida Sharq ma’naviyati va ma’rifatining jahon tamaddunidagi roli haqida qimmatli fikrlar olg’a surildi va uning roli ta’kidlangandi.

“O’zi poku, so’zi poku, ko’zi pok…” yoki xalqimiz ma’naviyatining noyob yodgorligi bo’lmish “Avesto” kitobida ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu amal degan da’vatlarga urg’u berilishi ajdodlarimizning komillikni juda keng ma’noda tushunganini ko’rsatadi. Insonning ma’naviyati, fikri, so’zi va harakati halol mehnat va halol rizq asosiga qurilishi lozimligi ming yillar mobaynida tarbiyamizning mazmun mohiyatini belgilab kelgan va ushbu g’oyalar milliy g’oyamizning ham poydevoriga asos qilib olingan. Yurt tinchliga, xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi kabi g’oyalar ajdodlarimiz amal qilgan va meros qoldirgan an’analarga to’la mos va xosdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning keyingi 7-8 yilda amalga oshirayotgan jadal islohotlari u davlat rahbarligiga saylangan dastlabki yillarda olg’a surgan “Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” degan g’oyasiga mos va xosdir. Ana shu gumanistik g’oya xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan adolat mezonlariga to’la javob bermoqda hamda milliy g’oyamizning safarbarlik tamoyillariga asos bo’lmoqda. Bu mamlakatimizda tobora keng quloch yozayotgan uchinchi renessansni bunyod etish harakatini kengaytirmoqda.

Ma’lumki, insonning etuklikka intilishida va kamol topishida hamisha ma’naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etgan. Bu boradagi Sharq mutaffakirlarining dahosi, ilm-fanning turli yo’nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari hamon insoniyatni hayratga solmoqda. Sharq Uyg’onish davri falsafasida ta’limiy-axloqiy yo’nalish muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, tarixchi-yu shoir va adiblarning diqqat markazida bo’lgan. Ta’limiy-axloqiy risolalar yozilgan, axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «Ishq risolasi», «Qutadg’u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Qobusnoma», «Guliston», «Bo’ston», «Mahbub ul-qulub» kabi Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus,

Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda tarbiyaviy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Afsuski, insoniyat boshidan kechirgan fojialar, urushlar, tabiiy ofatlar natijasida ular qoldirgan buyuk merosning, aytish mumkinki, mingdan bir qismigina bizgacha etib kelgan, xolos. Tarixning zulmat va jaholat hukmronlik qilgan muayyan davrlarida olimlarning quvg’inga va ta’qibga uchragani, ko’pchiligining hayoti fojiali yakun topganiga tarix guvox.

Qadimgi dunyoning eng ulkan Aleksandriya kutubxonasi, Mirzo Ulug’bekning noyob shaxsiy kutubxonasi yo’q qilib yuborilgan. Bunday fojiali ro’yxatni yana davom ettirish mumkin. Biroq, barcha qiyinchilik va ayovsiz sinovlarga qaramasdan, alloma va mutafakkirlar o’zlarining ilmu fan rivoji yo’lidagi burchiga, gumanizm va ma’rifat g’oyalariga sodiq qolganlar, ijoddan to’xtamaganlar.

Ana shulardan biri XI asrda yashab ijod etgan olim va mutafakkir Mahmud Qoshg’ariydir. Uning ta’lim-tarbiyaga, xulq-atvorga oid «Devonu lug’otit turk» asarida olg’a surgan g’oyalari hamon o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ushbu asarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so’zlarning arabcha izohli tarjimasi berilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug’ati deyish mumkin. «Devon»dagi qo’shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, sevgi-muhabbat tuyg’ulari, o’git-nasihatlar o’z ifodasini topgan.

She’rlarda ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo’stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ’ib etuvchi, o’z manfaatini ko’zlagan molparast, baxil, ochko’z, do’stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan she’rlar ko’p uchraydi. Bunday she’rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berganligini ko’rsatadi. Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o’rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to’g’risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan pand-nasihatlar olish maslahat beriladi. Asarda xalqning ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo’shiqlardagi kabi do’stlik va hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg’usi, tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarchilik oldini olish, adolat va adolatizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o’gitlar beriladi. Ushbu jihatlari bilan asar bugungi kunda ham yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr – intellektual yoshlar asri hisoblanadi. Yangi O’zbekistonda yoshlarning o’z imkoniyatlarini yorqin namoyish qilishlari uchun barcha shart-

sharoitlar, keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi sakkiz yil mobaynida yoshlar hayotida yuz yillarga teng bo'lgan tub islohotlar amalga oshirildi. Bu borada mantiqan va tarixan o'z isbotini topgan bog'liqlik, o'tmish-bugun-kelajak o'rtasida uzviylikni amalga oshira oladigan intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni boy milliy meros va an'analarimiz asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Xullas, Sharq ta'lim-tarbiyasida ilmni targ'ib etish, ta'limiy-axloqiy asarlardagi ma'naviy an'analarga suyanishga bevosita bog'liqdir. Shaxs kamoloti muammosiga bunday yondashish ta'lim-tarbiya maksadi, vazifalari, mazmunini yanada boyitishga yordam beradi, uchinchi renessans poydevorini qurishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. "Buyuk ajdodlar merosi – uchinchi Renessans asosi" mavzusidagi VIII xalqaro kongress ishtirokchilariga Prezident tabrigidan 2024 yil, 24 avgust. OzA.

2. Mirziyoev SH.M. **"Yangi Ozbekiston" gazetasi bosh muxarririga bergan intervyusidan.** 17 avgust.2021 yil. OzA.

3. Mirziyoev SH.M. BMT Bosh assambleyasining 80 –sessiyasidagi nutqidan.

4. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz "Xalq so'zi" gazetasi 2016 yil 15 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqidan.

THE LIFE AND WORKS OF MUHAMMAD RIZO ERNIYOZBEK UGLI OGAHIY

Sherali Shavkatovich Shavkatov
PhD Candidate,
Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan.
Email: sheradonis2022@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-1130-4419

Abstract: This article thoroughly explores the life and works of Muhammad Rizo Ogahiy, one of the greatest creators of the 19th-century Khiva Khanate. Sources related to his birth, life, and death are scientifically analyzed. Additionally, his scholarly legacy in Uzbek literature and history is revealed.

Key words: Ogahiy, Munis, Laffasiy, Sh. Mirziyoyev, Muhammad Rahim Khan I, Firdavs-ul Iqbal, Ta'viz-ul Oshiqin, Khiva Khanate, Khorezm.

Introduction: The long millennia of history indicate that the history of Uzbek national statehood is closely linked, first and foremost, to the significant role of spirituality and enlightenment in society. This tradition has continued uninterrupted even after Uzbekistan gained independence. In particular, special attention has been given to spiritual and educational factors, focusing on the restoration of national values, the recognition of national identity, and the formation of national ideology and philosophy as one of the country's strategic priorities.

As the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, has emphasized: "Nothing disappears without a trace in great history. It is preserved in the blood of nations, in their historical memory, and is reflected in their practical actions. Preserving, studying, and passing down historical heritage from generation to generation is one of the key priority directions of our state's policy". In the current era of globalization, where new threats such as the danger of "mass culture," a mindset of dependency, and the risk of losing ethics and values are emerging, this issue has become extremely important. Therefore, preserving and enriching the sources that define human spirituality and the culture of nations is more crucial today than ever before”[13, B.29].

The philosophical and ethical teachings and values cherished by our ancestors and passed down through centuries were, for a certain period, deliberately sidelined due to targeted political policies. As a result, they were neglected, which had a negative impact on the spiritual development of the younger generation. Now, the time has come to deeply understand, study, and honor our great figures who have secured their place in the realm of global spirituality and enlightenment. Their works are being studied with great interest by the public and are actively used to nurture a well-rounded younger generation..

The consistent efforts being made to deeply study and widely promote our ancient history and culture, as well as the scientific, spiritual, and educational heritage of our great scholars and thinkers, play a crucial role, especially in raising young people to become well-rounded individuals. These efforts help instill love for the homeland and respect for both national and universal values. As our First President emphasized: "It is especially important to draw inspiration from our national culture and the life-giving, profound sources of Eastern philosophy, which provide strong spiritual energy for rapid progress along our chosen path of development and reform"[8, B.205].

Literature review: Like other Muslim Eastern nations, the Uzbek people's aspiration to study their national and religious values and research the works of great thinkers became a reality only thanks to independence. In the early years of independence, Uzbekistan began publishing examples of the heritage of our great ancestors and revered saints, along with numerous scholarly works. Within a short historical period, prominent scholars such as N. Komilov [10, 11, 12], I. Haqqulov[3, 4, 5, 6, 7], O. Usmon, G. Navruzova, B. Nazarov, A.Sh. Juzjoniy, S. Rafiddinov, R. Nosirov, E. Ochilov, and others conducted dozens of significant research studies.

Shavkat Mirziyoyev has rightly stated: "One of the most important issues that always concerns us is the morality, behavior, and, in short, the worldview of our youth. The world is changing rapidly, and it is the youth who feel these changes the most. Let them be in harmony with the demands of their time, but at the same time, let them not forget their identity. They should always ask themselves: Who are we? What great ancestors do we descend from? This call should constantly resonate in their hearts, urging them to remain true to their roots. How do we achieve this? Through education, education, and only education"[14, B.380].

These meaningful words carry deep significance, as they form the foundation for the future of our youth and the progress of our nation. In today's modern world, to protect young minds from the influence of foreign ideologies, the importance of our national values and the rich heritage passed down from our ancestors is immense.

The most talented representative of the progressive literature that emerged in Khorezm between the 17th and 19th centuries was undoubtedly Muhammad Rizo Ogahiy. Numerous sources detail Ogahiy’s biography, and references to his life frequently appear in 19th-century Khorezm historical manuscripts.

In this regard, several notable works provide valuable insights, including the historical chronicle Firdavs-ul Iqbal by the renowned scholar and poet Munis Khorezmi, the poetry anthology Majmuat ush-Shuaro by Ahmad Tabibi, Shajarai Khorezmshohi by Khorezm historian Bayani, and the 1944 work Biographies of Khiva Poets and Writers by Hasan Murad Muhammad Amin ogli, known by the pen name Laffasiy. This last work, written during the reign of Muhammad Rahim Khan II, documents the creative activities of 51 poets and translators who served in the Khiva literary circle and worked on translations from Arabic and Persian into Uzbek.

Results and discussion: Additionally, several handwritten and lithographic collections compiled in the second half of the 19th century deserve attention. While these esteemed sources discuss aspects of Ogahiy’s biography, none were

specifically intended to provide a complete and comprehensive account of his life. Instead, they focus on particular episodes or individual aspects of his biography. As a result, despite the reliability and sometimes great value of the manuscript sources, they do not offer a fully developed and complete biographical picture of the poet's life.

The information provided by Ogahiy's own works is of immense importance and value in constructing his scholarly biography. Many of his poetic compositions, as well as his historical chronicles, contain details about his life and career, helping to fill in the gaps in his biography.

Drawing from scattered but highly valuable sources, we attempt to present a chronological account of his life as an experimental approach to creating his scientific biography.

"Ogahiy" was the poet's literary pseudonym, while his real name was Muhammad Rizo, and his father's name was Erniyozbek. Regarding the time, place, and family background of Ogahiy's birth, we find the following passage in Munis Khorezmi's "Firdavs-ul Iqbal": "In the fourth year of Muhammad Rahim Khan's rule, on the tenth day of Dhu al-Qa'dah, on a Saturday, Erniyozbek—who is the brother of this humble servant—was granted a noble and blessed son by Allah. That radiant light of grandeur and perfection was named Muhammad Rizo" [17, V.128a].

The Khiva ruler mentioned above is Muhammad Rahim Khan I, who ascended the throne in the Hijri year 1220. The "fourth year" of his rule corresponds to the year 1224 in the Hijri calendar, which, when converted to the Gregorian calendar, is 1809. Now, considering the reference to the "tenth day of Dhu al-Qa'dah, on a Saturday," this date translates to December 17, 1809, in the Gregorian calendar. Therefore, according to the precise information provided by Munis Khorezmi, Ogahiy was born on December 17, 1809.

Another significant detail from Munis's account is that Ogahiy was his close relative—his nephew. This suggests that Ogahiy grew up in an intellectual and artistic family environment, surrounded by people involved in literature and the arts. Such an upbringing undoubtedly influenced his early life, education, and future aspirations.

The genealogical ties between Munis and Ogahiy are documented in Firdavs-ul Iqbal, where Munis mentions his father Avaz Mirob's death. According to this account: "During the time of Avaz Inoq, in the Hijri year 1215, which was the Year of the Goat, on the 18th night of Rabi' al-Thani, a Sunday night (19th September, 1800 DA), my esteemed father, Avaz Mirob, son of Shermuhammad Mirob, son of Eshim Biy Mirob, son of Hasanquli Ataliq, son of Orozmuhammad Bakovul, son of Davlat Biy, son of Giroy Biy, son of Muhammadjon Sufi Biy Yuz,

passed away. May God grant him mercy. A week before this event, his grandson To‘ramurodbek, son of Muhammadniyoz Bek, was also laid to rest in the gardens of paradise".

This genealogy clearly shows that both Munis and Ogahiy belonged to the Yuz clan of the Uzbeks, further solidifying their familial ties and noble heritage.

There are two different hypotheses regarding the familial relationship between Munis and Ogahiy in academic discussions. According to the first theory, Munis was related to Ogahiy from his mother's side, meaning he was his maternal uncle (toga). Other scholars suggest that Shermuhammad Munis and Erniyozbek were brothers. Some even claim that they were cousins.

Ogahiy’s father, Erniyozbek, lived in the village of Qiyot, about seven or eight “chaqirim” (approximately 7–8 kilometers) from the city of Khiva. He made a living through farming and gardening on a small piece of land. Despite this, his relatives, such as Shermuhammad Munis and their cousins Rojix (Muhammad Qilichbek) and Nozim (Muhammad Ya‘qubbek), were well-known and talented poets of their time.

Ogahiy spent his childhood and teenage years in his native village, where he received his primary education. Later, he was sent to one of the madrasahs in Khiva for further studies. Being naturally intelligent and gifted, Ogahiy pursued his studies with great enthusiasm. The following quatrain reflects his dedication and passion for learning during his education years:

Qadam aylabon ilm yo‘lida bosh,
Xunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne tunlar menga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog‘at edi[20, B.3].
(Taking steps on the path of knowledge, I bowed my head,
Striving tirelessly to master a craft.
Many nights brought me no restful sleep,
Many days passed without ease and comfort)

While Ogahiy was still studying at the madrasa, his father passed away. This tragic event brought immense hardship upon him, which he expressed with the words: “...ro‘zg‘or anduhi shiddatining og'ir yuki tog‘ yanglig‘ boshim ustiga tushti”[20, B.3] (The heavy burden of livelihood’s sorrow fell upon me like a mountain).

Another great misfortune in Ogahiy’s life also occurred during his madrasa years, adding to the challenges he had to endure during his youth.

In 1829 (1244 Hijri), during Khiva Khan Allakuli Khan’s military campaign to Khorasan, the court historian Shermuhammad Munis contracted an outbreak of

cholera and suddenly passed away. Following his untimely death, Allakuli Khan appointed Ogahiy as his successor in the role of mirob (court historian).

Ogahiy, speaking with deep respect and reverence for Munis, describes this appointment: "...Munis mirob o‘rniga faqirkim, oning birodarzoda va dastparvardasidurman, inoyati podshohonadin miroblig‘ mansabi kiromisi bilan o‘z ashbah va akronim orasida mumtoz va sarafroz qildi"[21, V.628a] (As the nephew and disciple of Munis Mirob, I was honored by the king's grace, being distinguished among my peers by receiving the esteemed position of mirob in his place).

This appointment marked the beginning of Ogahiy's significant role in documenting Khiva's history and further developing his literary and historiographical contributions.

uring the military campaign to Khorasan in 1244 AH (1829 AD) led by the Khivan ruler Allakulikhan, Munis Khorezmi, who participated as the court historian, fell ill with an outbreak of cholera and suddenly passed away. Following Munis's untimely death, Allakulikhan appointed Ogahiy to the position of mirob (court historian) in his place.

Ogahiy, speaking about this event, expressed great respect and admiration for Munis and acknowledged that he was honored to be assigned to his mentor's former role.

Starting from 1829, after becoming involved in court affairs and serving as a mirob, Ogahiy gained extensive life experience by closely observing the daily lives of the people. He witnessed all aspects of life—from the grandeur of the royal court to the struggles of craftsmen, laborers, and impoverished peasants who were forced to live in misery.

As a keen observer and deep thinker, the poet's sentiments during this period are particularly well reflected in the following passage:

Etak sonchib belimga chustu choloq,
Qadam har yo‘l sori urdim tarabnok...
Eturdim har jamoatga o‘zimni,
Ochib ibrat bila har yon ko‘zimni.
Borining holidin buldim xabardor,
Ayon ko‘nglimga bo‘ldi barcha asror[20, B.3].
(Tying my belt tightly, determined and strong,
I stepped forward on every path with longing...
I went among all people, near and far,
Opening my eyes wide, seeking wisdom and truth.
I learned of the state of both rich and poor,
And all secrets of life became clear to my soul)

Inson bilimiga ichki talqin, tuzilish, izchillik va faollik kabi xususiyatlar xosdir. Shu ma'noda, kompyuter tizimidagi bilimlarni inson bilimining u yoki bu bo'lagining modeli yoki tasviri sifatida ko'rish mumkin. Biroq, AIga xos ma'noda bilimning bilim bilan bog'lanishi ba'zi strukturaviy xususiyatlarning o'xshashligi bilan cheklanmaydi. Zero, SI bilimlar bazasida taqdim etilgan ma'lumotlarning kattva qismi ushbu tizim qo'llanilishi kerak bo'lgan sohada to'plangan bilimlar tashkil etadi. Ushbu bilimlarni o'rganish (axborot tizimini qurish vazifalari nuqtai nazaridan) AIning bilimga texnologik yondashuvini belgilaydi.

Bilimga texnologik yondashuv bilimga oid texnologik savollarni qo'yish, tadqiq qilish va hal qilishni o'z ichiga oladi va har qanday inson hayotining ajralmas elementi hisoblanadi. Bilimga oid texnologik savollar ma'lum darajada ekzistensial savollarga, ya'ni bilim qanday mavjudligi va u nimani ifodalashiga oid savollarga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Bularga, masalan, bilim va fikr yoki e'tiqod o'rtasidagi bog'liqlik, bilimning tuzilishi va uning turlari, bilim ontologiyasi, bilish qanday sodir bo'lishi haqidagi savollar kiradi.

SI doirasida o'rganilgan bilimlarga oid texnologik savollar, asosan, bilimlarni ifodalash usullariga tegishli. Bilimlarni ifodalash muammolari, o'z navbatida, tegishli tillar va modellarni ishlab chiqish bilan bog'liq. Modellarning har xil turlari mavjud: mantiqiy, ishlab chiqaruvchi, semantik tarmoqlar va boshqalar.

Mantiqiy modellar bilimlarni rasmiy tizimlar (nazariyalar) shaklida ifodalashni o'z ichiga oladi va bunday modellarda bilimlarni ifodalash tili sifatida odatda predikat mantiq tilidan foydalaniladi. Predikatlar mantiqi tilidan foydalanadigan mantiqiy modellarning afzalliklari predikatlar hisobining deduktiv imkoniyatlari, tizimda qilingan xulosalarning nazariy asoslanganligidadir. Biroq, bunday modellar etarli bo'lmasligi mumkin. Kompyuter tizimlarining rivojlanishini gnoseologik nuqtai nazardan tushunish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ehtiyojlarini ham hisobga olish kerak.

SI tizimlari imkoniyatlarini avtonom tizim sifatida rivojlantirish bilimlarni odamdan odamga o'tkazishda vositachi rol o'ynaydigan AI tizimlari bilan mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bunday sharoitda falsafa dunyoqarashning oqilona turi sifatida o'z oldiga sun'iy intellekt tizimlarini amalga oshirishga asosli va muvozanatli munosabatni rivojlantirish, uning imkoniyatlarini, shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq xavflarni, ular zamonaviy shaxsning dunyoqarashiga, uning atrofidagi dunyoga

munosabatiga qanday ta'sir qilishini hisobga olgan holda o‘rganish vazifasini qo'yadi.

Sun'iy intellekt zamonaviy fan va texnologiyaning eng tez rivojlanayotgan va eng muhim sohalaridan biridir. Biroq, SIning texnik yutuqlari va amaliy qo'llanilishi ortida tadqiqotchilar tomonidan bir necha o'n yillar davomida faol muhokama qilingan chuqur falsafiy savollar yotadi.

Falsafa va SI murakkab va o'zaro manfaatli munosabatlarga ega bo'lib, bir-biriga ta'sir qiladi xamda aql, ong va inson va mashinaning o'zaro ta'siri haqidagi tushunchamizni shakllantiradi. Ushbu maqolada biz quyidagi o‘zaro ta’sirning ayrim jihatlarini ajratib ko‘rsatdik:

1.Sun'iy intellektning falsafiy ildizlari

Zamonaviy aql falsafasi va fan falsafasi SIni nazariy tushunish uchun asos yaratadi. Masalan, ongni muhokama qilish - sub'ektiv tajriba - oddiygina ma'lumotlarni qayta ishlash emas, balki "tushunish" qobiliyatiga ega sun'iy tizimlarni yaratish uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

2.Eptistemologiya va bilish nazariyasi

SI gnoseologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, falsafaning bilim tabiati, uni egallashi va cheklovlarini o'rganadi. Mashinalar ma'lumotlardan o'rganadi, ma'lumotlarni qayta ishlaydi va xulosalar chiqaradi, bu esa insonning fikrlash jarayonlariga o'xshaydi. Biroq, sezgi, kontekst va mazmunli tajribaga ega bo'lgan odamlardan farqli o'laroq, SI hozirda asosan algoritmlar va statistik modellar doirasida ishlaydi. Faylasuflar so'rashadi: mashinani o'rganish natijalarini haqiqiy bilim deb hisoblash mumkinmi?

3. Etika va ijtimoiy ta'sir

Axloqning murakkab sohasi SI rivojlanishining kalitidir. Faylasuflar ishlab chiquvchilarning ma'naviy javobgarligini, SIning jamiyatga ta'sirini, algoritmik tarafkashlik ehtimoli va avtonomiya masalalarini o'rganadilar. Xavfsizlik, maxfiylik, adolat va SI ustidan nazorat masalalari texnologiyaning inson hayotiga uyg'un integratsiyalashuvini ta'minlaydigan me'yor va qoidalarni ishlab chiqish uchun falsafiy tahlilni talab qiladi.

4. Ong, fikrlash va o'z-o'zini anglash

Sun'iy intellektdagi ong va o'z-o'zini anglash muammosi eng qiyin masalalardan biridir. Ong falsafasi sohasidagi faylasuflar mashinada haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkinmi yoki barcha "tushunish" shunchaki simulyatsiyami yoki yo'qligini o'rganmoqdalar. Funksionalistik nuqtSI nazardan, agar mashina aqlning barcha funktsiyalarini bajarsa, uni fikrlash tizimi deb hisoblash mumkin. Biroq, kontseptual va axloqiy muammolar saqlanib qolmoqda: haqiqiy ongni qanday aniqlash va unga qanday munosabatda bo'lish kerak?

5. O'zaro ta'sir va rivojlanish istiqbollari

Zamonaviy SI tadqiqotlari ko'pincha fikr, til va ongning falsafiy tushunchalariga tayanadi va SI sohasidagi yutuqlar, o'z navbatida, yangi empirik ma'lumotlar va ongning yangi modellarini taklif qilish orqali falsafa rivojlanishini rag'batlantiradi.

Kelajakda falsafa va SIning o'zaro ta'siri inson tabiatini chuqurroq tushunishga, shuningdek, axloqiy jihatdan mas'uliyatli, ijtimoiy foydali va intellektual rivojlangan tizimlarni yaratishga olib kelishi mumkin. Falsafa va sun'iy intellekt o'zaro yaqin muloqotda bo'lib, birinchisi aql, bilim va axloqning tabiati haqida fundamental savollar beradi, ikkinchisi esa ularni amaliy o'rganish va tahlil qilish uchun vositalar va misollar keltiradi. Faqatgina SI rivojlanishining falsafiy jihatlarini hisobga olgan holda, insoniyat ushbu texnologiyalardan eng samarali va axloqiy tarzda foydalanishi mumkin, shu bilan birga ularning jamiyat va shaxslarga ta'siri ustidan nazoratni saqlab qoladi. Falsafa va sun'iy intellektning zamonaviy o'zaro ta'siri tizimli bo'lib, ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Falsafa asosiy kontseptual va qiymat ko'rsatmalarini belgilaydi, SIning rivojlanishi esa falsafiy tushunchalarni sinash va takomillashtirish uchun amaliy material beradi. Bunday muloqot nafaqat texnologiyalarni nazariy tushunishga, balki ulardan foydalanishning axloqiy va qonunchilik-me'yoriy asoslarini shakllantirishga ham yordam beradi.

ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Иззетова Эмине Мустафаевна
доктор филос.наук, профессор ТГУВ
izzetova@bk.ru

Аннотация: Работа посвящена философскому анализу цифрогенной цивилизации, выявлены отличия информационного общества от цифрового общества. Определены основные этапы развития цифрового общества и его признаки, а также обоснована идея, что перманентно идет архитектурная эволюция информационно-коммуникативных технологий, Интернета, девайсов. Дана характеристика цифрового общества, цифровой экономики, «цифрового поколения». Показана амбивалентность влияния цифровых технологий на общество, человека, стиль мышления и образ жизни.

Ключевые слова: глобальный мир, наука, цифрогенная цивилизация, цифровая экономика, человек, цифровая социализация, цифровые технологии, ноосферная цифровизация, фактор риска, «клиповое мышление»

Актуальность данной проблематики детерминируется ценностью осмысления трансформаций, происходящих в современном мире, культуре и науке. Наука вместе с NBICS – технологиями детонируют жизненный мир человека. Технонаука и NBICS – технологии, превращаются в мощный фактор, который способен кардинальным образом изменить природу человека и его жизнедеятельность. В контексте вышесказанного важнейшей задачей становится «обретение умудренного разума». Планетарные масштабы, происходящих процессов, более широкое использование научных знаний и наукоемких, конвергирующих технологий, стали главными отличительными чертами цифровой цивилизации. Наука играет особую роль в современной социокультурной реальности. Технико-технологический прогресс XX-XXI веков, который привел развитые страны Запада и Востока к новому качеству жизни, основан на применении научных достижений.

Наука преобразовывает не только сферу производства, но оказывает влияние на все другие сферы человеческой деятельности. Культурная матрица техногенной цивилизации закладывается в эпоху Ренессанс, которая начинает свое собственное развитие в XVII веке. Она проходит в свое развитии три стадии: а) доиндустриальную, б) индустриальную, в) постиндустриальную, электронно-информационную. Сегодня в нашу жизнь стремительно ворвались цифровые технологии. Цифрогенная цивилизация – это новый вид техногенной цивилизации[1, С.205]. Отличие нового этапа состоит в том, что специфику информационного общества составляла изменившаяся роль информации как в сфере материальной деятельности, так и в области человеческих отношений, духовной жизни. Для цифрового же общества ключевой характеристикой становится не сама информация, а электронно-цифровой способ ее хранения и распространения, электронно-цифровое опосредование любых социальных отношений. [2, С.74]. Безусловно, структура общества сильно меняется в эпоху цифрового развития, масштабного перехода к "цифре", рассматриваемой в качестве носителя информации.

Трансформация информационных технологий привела к становлению цифрового общества, цифровой экономики, «цифровой личности». Важнейшей основой жизнедеятельности цифрового общества становится развитие информационно-цифровых технологий, генерация все новых научных знаний и их внедрение в технико-технологические процессы. Возникает тип развития, который основан на ускоряющемся изменении природной среды, предметного мира, в котором живет человек. Изменение этого мира приводит к активным трансформациям социальных связей, форм

коммуникации людей, типов личности и образа жизни. «Интернет Вещей - это не просто «умный дом», «умный город», а принципиально иное антропологическое пространство [3, С.5, 15]. В этой ситуации технологический детерминизм, как основополагающая причина изменений социальной реальности, не применим, так как из него выпадает живой человек со своими эмоциями, иррациональным мышлением и духовной сферой. Однако значительно важнее сейчас оценить гуманитарную составляющую сети и цифры, ее ценностные и смысловые основания. [4, С. 322].

В программно-технологической части «цифрового» мира перманентно и бесконечно идет архитектурная эволюция информационно-коммуникативных технологий, Интернета. [5, С. 13]. Цифровое общество проявляет себя через такие признаки, как: а) ориентация на знания, функционирование когнитивного общества; б) цифровая форма представления объектов; в) виртуализация всех сфер деятельности человека; г) инновационная природа развития; д) интеграция и глобализация; е) конвергенция и динамизм; ж) широкое и разнообразное применение Интернета, гаджетов и др. [6]. «Цифровая трансформация» – это не только экономика, а глобальное явление, которое оказывает влияние на жизнь общества, в том числе и на философские проблемы. Возникновение цифровой экономики обычно связывают с широким внедрением электронных цифровых машин, персональных компьютеров, планшетов, сотовых телефонов и т.д.

Однако это явление имеет свою давнюю историю. Как свидетельствует история генезис «цифровой экономики» начался с появлением первой системы телекоммуникации – оптического телеграфа. Ее технология была заложена еще до нашей эры и применялось до XIX в. нашей эры. [7, С.46]. В 1995 г. американский информатик, основатель меда-лаборатории МТИ Н. Негропонте назвал происходящие перемены становлением «цифровой экономики». [8, С.245]. Цифровая экономика базируется на «цифровой платформе», которая представляет собой виртуальную коммуникационную платформу, обеспечивающую алгоритмизированную систему взаимодействия участников экономической деятельности в рамках единой информационной среды. Мировое сообщество в полной мере осознает необходимость интегрироваться в цифровую среду, которая порождает в социальном пространстве такие инновационные явления, как цифровое общество, цифровая культура, цифровое сознание, цифровизация экономики, «цифровая личность», «цифровая этика» и т.п.

К предпосылкам цифровизации на государственном уровне можно отнести: глобализацию экономики, стирающую границы национальных экономик; функционирование действующих и создание новых экономических зон и единого экономического пространства; активное развитие интернет-технологий; рост вычислительной мощности процессоров; повсеместное распространение мобильных устройств; глубокую интеграцию в жизнь социальных сетей; появление цифровых стартапов, с которыми «традиционным» предприятиям приходится конкурировать; понимание необходимости цифровой трансформации как условия выживания в цифровом пространстве техногенной цивилизации.

Становление этой цивилизации происходит в настоящее время ускоренными темпами в результате взаимодействия трех основных процессов: глобализации общества, его комплексной информатизации и новой технологической революции, приоритетными направлениями которой стали биоинженерия, цифровые и нанотехнологии. Судя по результатам научных прогнозов, именно глобализация, информатизация, цифровизация позволят сформировать тот новый технологический уклад общества, который кардинальным образом изменил привычный образ жизни всего населения планеты. Технологическая инфраструктура самоорганизующегося цифрового общества включает четыре новейшие цифровые технологии: сети, большие данные (Big Data), алгоритмы, платформы [9, С. 47].

В цифровой цивилизации существенным образом возрастает роль человека. Но эта роль носит амбивалентный характер: а) человек является главным ресурсом и движущим фактором развития электронно-цифрового общества; б) именно человек является одним из основных факторов риска на пути этого развития [10, С.56-57]. Возрастание роли человека в цифровом обществе является объективно обусловленным. Основным объектом труда в этом обществе становится научное знание, информация и цифра. Цифровая эпоха коренным образом изменила не только структуры повседневности, но и роль человека в общественной жизни. В результате цифровой социализации в современном мире появились поколения зуммеров (z) и альфа, программы общения которых задаются, прежде всего, социальными сетями, возможностями Скайпа, Imo, интернета, Zoom, смартфонов, гаджетов и других электронных средств коммуникации [11, С. 125]. Это те поколения, которые пришли на смену поколений: беби-бумеры, поколение - икс, миллениалы. Как следствие, появляется все больше детей с периферийным мышлением, лишенных сутевого, смыслового восприятия действительности. Соответственно, развиваясь и приспосабливаясь к новым технологиям, мозг теряет базовые социальные навыки, происходит их угасание, социальное

поведение ухудшается [4, С.321]. Ученые Германии считают, что наиболее популярным определением, характеризующим современное общество, является термин «Generation Kopf unten» (буквально, «поколение с опущенной головой»), поскольку сегодня взгляды большинства людей, прежде всего молодого поколения, устремлены в гаджеты, что и требует постоянно опущенной головы [12, С. 21].

Цифру можно назвать своеобразной точкой роста различных видов цифровой реальности. Модифицируются и средства коммуникации. Поэтому привычно-обиходными становятся слова, имевшие ранее специализированное применение: «алгоритм», «интернет», «перезагрузка», «социальные сети», искусственный интеллект, нейросеть. Следует так же отметить, что в повседневное диалогово-коммуникативное пространство вовлекаются новые слова: мобильник, смайлик, киборг, юзер, комп, мыло (e-mail) и т. д. Анализ модифицированных средств повседневного языка помогает проследить изменения в мышлении, образе жизни и потребностях субъекта цифровой реальности [13, С. 31–32].

Цифровизация несет с собой не только благополучие, комфорт, но и определенные риски. Цифровая социализация может привести к эскапизму (бегству от реальности), аутизму, виртуальной зависимости, «цифровому слабоумию», кретинизму, формированию клипового мышления, кризису рациональности, нарциссизму. «Вовлеченность мышления и сознания в техносферу и глобальные коммуникации таит в себе угрозу упрощения языка и роботизации сознания. В век высоких технологий блага цивилизации сопряжены с потерями естественного разума» [14, С. 10]. Цифровые технологии предполагают колоссальные темпы развития, глубинные изменения всех сфер жизнедеятельности человека.

В условиях сверхтехнологичного общества на первое место выходит обеспечение личной безопасности человека. ИКТ усложняют технику и оглупляют людей, так как мозг утрачивает способность к долговременной памяти за счет расширения использования памяти оперативной. Это позволяет работать в условиях многозадачности, но разрушает способности к концентрации внимания и глубокому системному анализу. Специалисты констатируют, что уровень цифрового доверия является ключевым условием развития глобальной цифровой экономики и цифрового общества. Чтобы ее рост продолжился, ученые, провайдеры и органы власти должны сделать своим приоритетом обеспечение безопасности цифровых технологий.

Развитие и практическое применение цифровых технологий должно отвечать таким критериям, как: а) безопасность, прозрачность; б) устойчивое развитие; в) функциональность [15]. Для гибридной реальности XXI века

особую актуальность приобретает проблема ноосферной безопасности личности и её сознания. Прежде всего ориентация на императивное сохранение доминирования естественного разума человечества перед искусственным интеллектом. Соответственно, возникает необходимость «повышения эффективности развития естественного разума человечества - как в его личностном и персоналистическом выражении, так и в контексте интенсивного развития коллективного разума стремящегося к всеединству человечества на основе всечеловеческой парадигмы космопланетарного бытия» [16, С.132]. В формате этих рассуждений интересна позиция Дж.Ст. Милля, утверждавший, что человечество эволюционирует от варварства к цивилизации, а «развитие всех сторон жизни человечества зависит прежде всего от развития умственной жизни людей, т. е. от закона последовательных изменений в человеческих мнениях» [17, С.832]. Согласно его позиции, «мерой продвинутости общества служит уровень его интеллектуального состояния, а будущий его прогресс напрямую связан с продолжением развития научного знания, особенно в области социальных наук» [18, С.682-683].

Цифровой мир способствовал тому, что вся жизнь людей стала открытой, прозрачной, оказалась как на ладони. Эта тенденция в развитии социума берет свое начало с момента внедрения информационно-компьютерных технологий, способствовавших превращению мира в «глобальную деревню». Возникло целое новое направление «финтех». С одной стороны, это специализация основанная на использовании технологий и инноваций, усиливающих конкурентные возможности фирмы, корпорации. С другой стороны, «финтех - история про поток данных о нашей жизни и про то, кто получит больше информации об этом потоке». В конечном итоге этот феномен приведет к возможной потере индивидуумом свободы как таковой, а не ее обретением и укреплением.

Весьма серьезную угрозу для человека представляет развитие глобальных сетей телевидения, компьютерных, электронно-цифровых коммуникаций, нейросеть, искусственный интеллект, которые создают широкие возможности для воздействия на общественное сознание и манипуляции этим сознанием. Еще одной проблемой информационного-цифрового мира можно считать появление «клипового мышления», которое стало ответом на возросшее количество информации. Обладатель клипового мышления затрудняется, а подчас не способен анализировать какую-либо ситуацию, ибо получает информацию пульсами, не фокусируясь на идеях, воспринимает мир не целостно, а как череду почти не связанных между собой фактов, событий.

Синтезируя вышесказанное мы пришли к следующему выводу. Современная техногенная цивилизация поставила человека и человечество перед дилеммой: или обретение общества знания и свободы духа, или общество потребления и окончательное порабощение через «цифру». Сегодня современные технологии во многом уже закабалили людей, открыв перспективу ничем не ограниченного потребления, комфорта и развлечений, с одной стороны, и тотального контроля над людьми, управления ими - с другой. Долг философии в этой ситуации – всемерно содействовать сохранению человеческого достоинства, ясности мысли, оптимистической перспективы, решимости преодолеть кризисные явления, противоречия, порожденные внедрением цифровых технологий.

Использованная литература:

1.Дождиков Р.Н. Обыденное познание и цифровая социализация// Интеллектуальная культура Беларуси: методологический капитал философии и контуры трансдисциплинарного синтеза знания. Том 1. – Минск: изд-во «Четыре четверти», 2018. - С. 204 – 207.

2.Беляева Е.В. Цифровое общество и возможности его этического регулирования.// Ж. «Ведомости прикладной этики», 2018, № 52.- С.74-82.

3. Чеклецов В.В. Чувство планеты: Интернет Вещей и следующая технологическая революция.- М.: Российский исслед. центр по Интернету Вещей, 2013. - 130 с.

4. Чернышов А.Г. Цифровизация и технологизация общественной жизни как социально-политическая проблема: сохранение идентичности и роль государства в условиях развития глобальных сетей. Вестник Томского государственного университете. Философия. Социология. Политология. 2017. № 40. - С. 319 – 325.

5. Робачевский А. Интернет изнутри: экосистема глобальной сети. - М.: Альпина Паблишер, 2017. 271 с.

6. Прангишвили И. В. Энтропийные и другие системные закономерности: Вопросы управления сложными системами [Электронный ресурс] // Персональный сайт Аполова О. Г.URL: http://apolov-oleg.narod.ru/olderfiles/1/Prangishvili_I.V_JEntropiinye_i_dr-88665.pdf [архивировано в WaybackMachinel (дата обращения: 15.02.2018).

7. Семенюта Н.Ф. От телеграфа до интернета - история становления цифровых телекоммуникаций (философский аспект). – М.: Горячая линия – Телеком, 2017.- 227с.

8. Никитина Ю.Ф. Социальные эффекты внедрения цифровых платформ.// Интеллектуальная культура Беларуси: методологический

капитал философии и контуры трансдисциплинарного синтеза знания. Том 1. – Минск: изд-во «Четыре четверти», 2018.- С.244-247.

9.Прончев Г.Б. Становление электронно-цифровой цивилизации: ключевые понятия// Общество: социология, психология, педагогика, 2022, №6. – С.47 – 57.

10.Колин К.К. Информационная культура в информационном обществе. //Открытое образование, № 6 (59), 2006.- С.50-57.

11. Данилов А.Н., Грищенко Ж.М. и Щелкова Т.В. Студенчество цифровых технологий: смысловые инварианты духовных практик // Журнал Белорусского государственного университета. Социология = Journal of the Belarusian State University. Sociology. – 2018, - № 1. - С. 125-134.

12. Миронов В. В. Тоска по истинному бытию в дигитальной культуре / В. В. Миронов, З. А. Сокулер // Вестн. Моск. ун-та. Серия 7. Философия, 2018, №1.- С. 3–22.

13.Дождикова Р. Н. Обыденное познание и некоторые проблемы когнитивной социализации / // Журн. Белорус. гос. ун-та. Социология. 2018, №1. - С. 30–40.

14. Герасимова И. А. Инженерное знание в техногенной цивилизации // Эпистемология и философия науки. 2018. Т. 55. №2. – С. 6–15.

15.КореловА.А. К вопросу о философии цифровой среды https://korelov.ru/tpost/l20smc7ht1-k-voprosu-o-filosofii-tsifrovoi-sredi

16. Смирнов Г.С., Ветчинин Н.М. Всеобщая цифровизация как глобальная проблема: человек и его цифровое сознание//Вестник Ивановского государственного университета, 2021, № 4. – 128 – 134.

17. Милль Дж.Ст. Система логики силлогистической и индуктивной: изложение принципов доказательства в связи с методами научного исследования. Москва, 2011.- 845 с

18. Strauss L., Cropsly J. History of political philosophy.- Chicago, 2012. - 1452 p.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА ЯНГИ ДУНЁҚАРАШНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Fayzixodjaeva Dilbar Irgashevna
f.f.d., dotsent
O‘zMU Falsafa kafedrasi
dfayzixodjaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada inson va sun’iy intellekt munosabatining inson tafakkuri transformatsiyasiga ta’siri - dunyoqarashning o‘zgarishi masalasi bilan

bog‘liq xolda tadqiq qilingan. Unda sun’iy intellekt ta’sirida shakllanayotgan yangi integral dunyoqarashning ikki qutbi va ular o‘rtasidagi oraliq xolatlarga xos xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, dunyoqarash, integral dunyoqarash, bilim, Ken Uilber, fikrlash paradigmasi.

Аннотация. В статье исследуется влияние взаимоотношений человека и искусственного интеллекта на трансформацию человеческого мышления, в частности, на изменение мировоззрения. Рассматриваются особенности двух полюсов нового интегрального мировоззрения, формирующегося под воздействием искусственного интеллекта, а также промежуточные состояния между ними.

Ключевые слова: искусственный интеллект, мировоззрение, интегральное мировоззрение, знание, Кен Уилбер, парадигма мышления.

Annotation. The article explores the influence of human-artificial intelligence relationships on the transformation of human thinking, particularly on the alteration of worldview. It examines the characteristics of the two poles of a new integral worldview, forming under the influence of artificial intelligence, as well as the intermediate states between them.

Keywords: artificial intelligence, worldview, integral worldview, knowledge, Ken Wilber, paradigm of thinking.

XXI asr insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi — bu sun’iy intellekt (SI) asridir. Sun’iy intellekt texnologiyalari faqat texnik yoki iqtisodiy sohalarnigina emas, balki inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashini ham chuqur o‘zgartirmoqda. SI inson tafakkurining transformatsiyasi - yangi modeli sifatida namoyon bo‘lmoqda. U ma’lumotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va bilim yaratish jarayonlarida inson bilan hamkor bo‘lmoqdi. Bu esa insonning SI bilan faol muloqotini (interaktivlik) ta’minlaydi va tafakkur tarzini muayyan algoritmlar asosida shakllantiradi.

Sun’iy intellekt inson fikrini rakamli modellar orqali ifodalash imkonini berib, ong va mashinaning o‘zaro ta’sirini kuchaytirmoqdi. Natijada inson faqat o‘zining sub’ektiv tajribasiga emas, balki SI ma’lumotlariga tayangan ratsional tizim sifatida nomoyon bo‘lmoqda.

Inson va SI munosabatidagi yangi antropologik burilishning yuz berishi uning tabiatdagi o‘rnini qayta belgilamoqda. Avval inson “aqlli mavjudot” sifatida ta’riflangan bo‘lsa, endilikda aql sun’iy tizimlar tomonidan ham namoyon bo‘lmoqda. Bu holat insonga nisbatan yangi antropologik qarashlarni vujudga keltirdiki, natijada inson o‘zini tabiat ustidan hukmron deb emas, balki aqlli tizimlar bilan birga ekotizimning bir qismi sifatida anglay boshladi. Bu esa

gumanistik va texnologik integratsiyani boshlab berish bilan birga, inson tafakkuri transformatsiyasiga, dunyoqarashining o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Biz ushbu maqolada bu jarayonni imkon qadar falsafiy tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ydik. Buning uchun avvalo “dunyoqarash” tushunchasining mohiyatini, ta’rifini aniqlab olish zarur bo‘ldi. Bu tushunchaning ta’rifini “Falsafa” dan yozilgan darsliklardan oldik. Bu darsliklarda “dunyoqarash- bu insonning ijtimoiy guruh yoki qatlamning voqelikka bo‘lgan munosabatini belgilaydigan tamoyillari, qarashlari, qadriyatlari, e’tiqodlari tuzilishidir.”[5,9.], “dunyoqarash - insonning o‘zini qurshagan borliqqa va o‘z o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimi, shuningdek ularning mazkur munosabatlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e’tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo‘ljallaridir.”[6,9.] -deb ta’riflangan. Bu ta’riflarda urg‘u asosan insonning tashqi olamga bo‘lgan munosabatlariga berilgan. Lekin har qanday munosabatlar, ideal, e’tiqod, qadriyat va b.larning asosini bilim tashkil etadi. Shu bois biz quyidagi ta’rifni ma’qul ko‘rdik:“Dunyoqarash insonning tevarak atrofni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.”[4,13.]

Bilimning taraqqiyoti bilish vositalarining takomillashuvi va bilish ob’ektlarining kengayib, murakkablashib borishi bilan proporsional bog‘liq. Hozirgi kunda SI bilish vositasi sifatida insonning hayotiga chuqur kirib bormoqda. SI nafaqat yangi texnologiya, u yangi falsafiy voqelikdir. U inson tafakkurini ratsional, integral va axborot asosida qayta shakllantirmoqda. Natijada, zamonaviy sivilizatsiya “alohida inson tafakkuri”dan “inson va SI hamkorligidagi integral tafakkur” bosqichiga o‘tmoqda. Bu jarayon insoniyatning intellektual va ma’naviy kelajagini belgilamoqda va “yangi integral dunyoqarash” deb atalmoqda. u inson va axborot tizimlari, tabiat va texnologiya, moddiy va ma’naviy borliq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglatadi.

Integral dunyoqarash nima? Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda bu tushunchaning uch xil talqini beriladi. Birinchi talqinga ko‘ra integral dunyoqarash deganda Sharq va G‘arb g‘oyalarining sintezi tushuniladi. Ikkinchi talqinga ko‘ra jamiyat va inson ma’naviy madaniyati barcha sohalarining integratsiyasi tushuniladi. Uchinchi talqinga ko‘ra integral dunyoqarash umumiy universal, umuminsoniy dunyoqarash bo‘lib, unda tabiiy va gumanitar fanlar birlashadi. [1.23-24]

So‘nggi vaqtda bu masalada amerikalik faylasuf va yozuvchi Ken Uilberning individual va kosmik ongning (borliqning barcha ko‘rinishlari va ongning turli darajalari) birligiga asoslangan integral yondashuvi yetakchilik qilmoqda. Bu yondashuvda ong, inson va koinotga oid turli sohalarning o‘xshash

tomonlari umumlashtirilib, dunyoqarashni tashkil etuvchi elementlar yangi rakursda beriladi. Uilber o‘z integral nazariyasida butun va bo‘lak o‘rtasidagi munosabatni tushuntirishda “bo‘lakning o‘zi ham butundir“ degan postulatga asoslanadi. U o‘zaro bog‘langan to‘rtta fundamental olamni to‘rtga bo‘lingan kvadrat shaklida tasvirlaydi. Kvadratning chap yuqori qismi “men”ni – aloxida insonning introspektiv olamini, maqsadini, o‘z menini anglashini; kvadratning chap pastki qismi “biz”ni – inson mansub bo‘lgan madaniyat – munosabat, kommunikatsiya, tushunish, talqin qilish olamini bildiradi. Kvadratning o‘ng yuqori qismi “u” – voqelikni, men ob’ekt sifatida o‘rganadigan olamni, kvadratning o‘ng pastki qismi “ular” – tashqi kollektiv olamni, ijtimoiy tizimlar setkasini ifodalaydi. Uilberning ta’kidlashicha, bu olamlar inson bilimlarining tabiiy taraqqiyoti natijasida shakllangan bo‘lib, har bir insonning dunyoqarashi shu kvadratlarning birligida va evolyusiyasida shakllanadi.[3.56] Aytish mumkinki, Uilber integral dunyoqarashni bir butun yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Biz uning integral yondashuviga asoslanib, integral dunyoqarashni o‘z o‘zidan o‘zining qismlarini paydo qiluvchi va har bir qismining o‘zi butundan iborat bo‘lgan fenomen sifatida ta’riflashimiz mumkin. Bunday dunyoqarashda Sharq va G‘arb, bilim va e’tiqod, fan va din, an’ana va innovatsiya bir biriga qarshi qo‘yilmaydi, ularga birlikda, bir butunning alohida tomonlarini tashkil etuvchi butun sifatida qaraladi.

Integral dunyoqarash bugungi kunda zamon talablariga mos fikr yuritish uslubidir. Ma’lumki, fikrlash uslubi-bu ma’lumotni qayta ishlashning o‘ziga xos usuli bo‘lib, u odamning bilimga ega bo‘lishini, fikrlarni tartibga solishini, qarashlar va fikrlarni shakllantirishini, shaxsiy qadriyatlarni qo‘llashini, muammolarni hal qilishini, qarorlar qabul qilishini va rejalashtirishini belgilaydi. Fikrlash uslubida odatda quyidagi tarkibiy elementlar ajratiladi: dunyo tasviri; voqelikni bilish usullari; aqliy faoliyatning usullari va standartlari; qadriyatlar; an’analar; olingan bilimlarning haqiqat mezonlari; ma’lum bir odamning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan jihatlar. Integral dunyoqarashda dunyo tasviri men va u, biz va ularning birligida, umumiy tomonlarining birlamchi o‘ringa qo‘yilishida, tabiat va insonning bir butun yaxlitligida olinadi. Munosabatlar ”hukmron va tobe”, “kuchli va kuchsiz” nuqtai nazaridan baholanmaydi.

Voqelikni bilish usullarida bir chiziqlik emas, ko‘pchiziqlikka urg‘u beriladi. Empirik, ratsional va irratsional bilish usullari birlashib ketadi, ular o‘rtasiga to‘siq qo‘yilmaydi.[2.17] Integral dunyoqarashda diniy, milliy va dunyoviy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi amalga oshadi. Natijada qadriyatlar insonlarni birlashtiruvchi vasitaga aylanadi. Insonning shaxsiy qadriyatlari fikrlash usulida aks etadi.

SI integral dunyoqarashning shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Ma’lumki, hech bir narsa mutlaq yaxshi yoki mutlaq yomon bo‘lmaydi. Shu bois, yuqoridagi savolga javob berganda SIning ham ijobiy, ham salbiy ta’sirini ko‘rish mumkin. Biz avvalo SIning bilim olish vositasi sifatidagi imkoniyatlarini so‘ngra bu bilimlarning integral dunyoqarashni shakllantirishidagi ta’sirini tahlil qilamiz.

SIning, bilim olish vositasi sifatida, integral dunyoqarashning shakllanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta’siri mavjud. Bu ta’sir keng qamrovli bo‘lib, jamiyat, fan va har bir insonning shaxsiy hayotigacha kirib boradi. SI ning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- cheksiz miqdordagi ma’lumotni tezkor tahlil qilish va umumlashtirish imkonini beradi. Bu esa insonlarga yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirish, murakkab muammolar yechimini topish va ilmiy kashfiyotlar qilishda yordam berib, dunyo haqidagi tasavvurni kengaytiradi;
- analitik vositalari yordamida odamlar va tashkilotlar ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu ratsionalizm va mantiqqa asoslangan dunyoqarashni mustahkamlaydi;
- insonlarga ijodiy jarayonlarda sherik bo‘lib, yangi san’at asarlari, musiqa yoki g‘oyalar yaratishga yordam beradi. Bu esa insonning o‘z ijodiy salohiyatiga bo‘lgan ishonchini oshiradi;
- har bir insonning ehtiyojlariga mos keluvchi kontent, mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi, bu esa insonning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qoniqtirishga, qadriyatlarining oydinlashuviga va hayot sifatini oshirishiga yordam beradi;
- iqlim o‘zgarishi, kasalliklar tarqalishi kabi global muammolarni tahlil qilishda katta rol o‘ynab, insoniyatni birdamlikda harakat qilishga undaydi.

SI tez va tayyor, tushunarli javob berayotgani sabab, uning bilim olish jarayoniga salbiy ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tanqidiy va mustaqil fikrlash susayadi, ya’ni mavjud muammoning yechimini mustaqil izlanishga ehtiyoj kamayadi. «Javob topish» o‘rniga «javob olish» odati shakllanadi;
- tayyor referat, diplom, hatto dissertatsiya ishlarini SI ning yozib berishi mumkinligi, bilimni tekshirishning adolatli mezonlarini buzadi, plagiatga yo‘l ochadi va ilmda halollik qadrlanmay qo‘yadi. Bu esa akademik muhitni jiddiy zaiflashtiradi;
- foydalanuvchilar ma’lumotlarni filtrlash va to‘g‘ri manbani tanlashni o‘rganmaydilar va faqat SI javoblariga ishonib qoladilar. Natijada chin, to‘g‘ri ma’lumot bilan yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotni ajratish (tanish) qobiliyatlari pasayadi;

- foydalanuvchilarning ruhiy va ijtimoiy ko‘nikmalari zaiflashishi mumkin, bunda muloqot, nutq, jamoaviy fikr bildirish ko‘nikmalari kamayadi;
- foydalanuvchilarda kreativ fikrlash o‘rnini tayyor javoblar egallaydi, mustaqil ijod qilish kamayib, «qolipbozlik» kuchayadi;
- SIga haddan tashqari bog‘liqlik real tajriba, amaliyotni kamaytiradi, axborotni qayta ishlash o‘rniga uni avtomat ravishda qabul qilishga odatlaniladi, «ko‘nikma» emas, «axborot» ustunlik qila boshlaydi;
- xujjatlar, yozilgan matn, savol va qarorlar SI servislarida avtomat ravishda saqlanib qolishi shaxsiy ma’lumotlarni xavf ostiga qo‘yadi.

SIning bilish jarayoniga ijobiy va salbiy ta’sirini imkon darajada aniqlab oldik. Endi integral dunyoqarash shakllanishiga ta’sirini “Men” va “U”, “Biz” , “Ular” munosabatida tahlil qilish mumkin.

SIning bilish jarayoniga ijobiy ta’sirida “U” (voqelik) haqida bilimlarining kengayishi, “Biz” madaniy muhitda o‘zaro tushunishning, madaniyatlararo muloqotning samaradorligining ortishi, “Ular” ijtimoiy tizimlarda raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi hayot sifatining yuksalishi “Men”ni intellektual rivojlantiradi va u pozitiv integral dunyoqarashga ega bo‘ladi.

SIning bilish jarayoniga salbiy ta’sirida “Men”ning “U”bilan bo‘lgan munosabatida voqelik haqidagi bilimlar faqat SI axborotlari asosida shakllanadi; “Biz” bilan bo‘lgan munosabatida, ya’ni madaniy muhitda individualizm kuchayadi, “Men”ning o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmasi susayadi; “Ular”, ya’ni ijtimoiy tizimlarda raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi ish o‘rinlarining qisqarishiga, yengil hayotga bo‘lgan intilishning kuchayishiga olib keladi; “Men”da mustaqil ijod qilish kamayib, bir qolipda fikrlash shakllanadi va negativ integral dunyoqarashga ega bo‘ladi.

SIning bilish jarayoniga ikki qutbli ta’siri sof xolda namoyon bo‘lmaydi. Bu ta’sir ikki qutb oralig‘idagi xolatlarda namoyon bo‘ladi. Shu sabab sof pozitiv va sof negativ integral dunyoqarash real voqelikda uchramaydi. Yuqoridagi fikrlar aqliy mushohada natijasi bo‘lib, mavjud muammoni tushunish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonni kuzatish, ijtimoiy so‘rovnomalarni izchillik bilan o‘tkazish va natijalarini qiyosiy taxlil qilish individual va ijtimoiy dunyoqarashning transformatsiyasi qanday yo‘nalishda va qaysi omillar ta’sirida yuz berayotganini aniqlashga imkon beradi. Natijada shu xolatga mos qarorlarning qabul qilinishi, ma’lum darajada jarayonni boshqarishga yordam beradi. O‘zbekiston Oliy Majlisi Senatining 2025 yil 1 noyabr kuni bo‘lib o‘tgan majlisida sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi qonunning ma’qullanishi yuqoridagi fikrning yaqqol dalilidir.

SI jadallik bilan inson hayotiga kirib kelgan bir davrda, yoshlar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishning muhim jihatlaridan biri tanqidiy

tafakkurni rivojlantirishdir. Bu insonga axborotni taxlil qilish, yuzaki va ziddiyatli jihatlarini aniqlash, empirik ma’lumotlar va ratsional argumentlar asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantirish, ilmiy farazlarni tekshirish, dalillarni baholash imkonini beradi. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun mantiq ilmini, uning zamonaviy yo‘nalishlaridan ko‘p qiymatli mantiq va savol javob mantig‘i (interrogativ mantiq) ni o‘rganish zarur. Ko‘p qiymatli mantiq masalaning faqat ikkita emas, balki ko‘plab yechimlarga egaligini va ularni aniqlash usullarini o‘rgatsa, interrogativ mantiq dialog, ya’ni savol-javobni tashkil qilish, savol va javobning turlari va qo‘llash usullari haqida bilim beradi.

Integral dunyoqarashni shakllantirish ta’lim tarbiya sohasida qanday natijalarga olib keladi? Integral dunyoqarashni shakllantirish insonning tushunchalar olamining kengayishiga, voqelikni adekvat aks ettirishga, voqea va xodisalarga ziddiyatlar to‘qnashuvi sifatida emas, hamkorlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida yondashishga o‘rgatadi.

Integral dunyoqarashni shakllantirish - shaxs identikligini saqlagan xolda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, maishiy, axloqiy streotiplar doirasini kengaytirish, uni boshqalar bilan o‘zi o‘rtasidagi farq qiluvchi yoki ziddiyatli tomonlarga emas, ularni birlashtirib turuvchi tomonlarga e’tiborini qaratish, atrofidagilariga qarshi emas, hamkor deb qarashga o‘rgatishdir. Bu yoshlarni SIdan axloqiy va huquqiy me’yorlarga amal qilgan xolda foydalanishga o‘rgatish orqali, ularda zamonaviy mantiqiy fikrlash madaniyatini tarbiyalashni taqazo qiladi.

Adabiyotlar:

1. Наследие ал-Фараби и формирование нового интегрального мировоззрения. Коллективная монография./ Под общ.ред. З.К.Шаукеновой. – Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2012.

2. Тураев Б.О. Маънавий меросни ўрганишда синергетик методологиянинг ўрни // Синергетика-3: маънавий мерос. Илмий тўплам. Т.: “FAN ZIYOSI” нашриёти, 2024.

3. Уилбер К. Краткая история всего /пер.с анг. С.В.Зубкова. Москва:Аст: Астрель, 2006.

4. Falsafa asoslari.[Matn]: o‘quv qo‘llanma /Q.Nazarov va b. T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

5. Falsafa. Darslik. /Z.Davronov va b. - T.:”Fan va texnologiya”, 2019.

6. Shermuxamedova N. Falsafa. 2009.

RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY TARBIYA MUAMMOLARI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
Alfraganus universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. professori, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari va zamonaviy muammolari tahlil etilgan. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga kirib kelishi inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani ilmiy asosda yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy mezonlarning zaiflashuvi, soxta qadriyatlar targ‘iboti, axborot oqimining chegarasizligi shaxsning ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani tanqidiy nuqtai nazardan baholanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli jamiyat, axloqiy tarbiya, ma’naviy immunitet, axborot madaniyati, virtual axloq, raqamli axloq, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация. В данной статье проанализированы особенности и современные проблемы нравственного воспитания в условиях цифрового общества. Научно обосновано, что проникновение цифровых технологий во все сферы жизни оказывает существенное влияние на человеческое мышление, систему ценностей и поведение. С критической точки зрения оценивается ослабление этических норм в социальных сетях, пропаганда ложных ценностей и безграничность информационного потока, которые негативно воздействуют на духовный мир личности.

Ключевые слова: цифровое общество, нравственное воспитание, духовный иммунитет, информационная культура, виртуальная этика, цифровая этика, социальные сети.

Abstract. This article analyzes the characteristics and contemporary challenges of moral education in the context of the digital society. It is scientifically substantiated that the infiltration of digital technologies into all spheres of life significantly impacts human thinking, value systems, and behavior. From a critical perspective, the weakening of ethical norms in social media, the promotion of false values, and the boundlessness of information flow are assessed as factors negatively affecting the spiritual world of the individual.

Keywords: digital society, moral education, spiritual immunity, information culture, virtual ethics, digital ethics, social media.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida inson hayotining barcha jabhalari raqamli muhit bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va virtual kommunikatsiya tizimlari inson tafakkuri, qadriyatlari va axloqiy qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli jamiyat sharoitida inson nafaqat iste’molchi, balki axborot

oqimini shakllantiruvchi subyektga ham aylanmoqda. Shu jarayonda yoshlar ongida axloqiy mezonlar, mas’uliyat, burch va insoniylik tushunchalarining yangicha talqini shakllanmoqda. Shu bois, raqamli jamiyatda axloqiy tarbiya muammolarini ilmiy tahlil etish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganish, shuningdek, shaxsning ma’naviy immunitetini mustahkamlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli jamiyat insoniyat tarixida yangi sivilizatsion bosqichni boshlab berdi. Unda ijtimoiy munosabatlar, muloqot, mehnat, ta’lim, hatto axloqiy qadriyatlarning shakllanishi ham virtual makon orqali amalga oshmoqda. Bu jarayon inson ongini shakllantirish, bilimni erkin olish imkonini yaratish bilan birga, ma’naviy-axloqiy sohada yangi xavf-xatar va ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumki, axloqiy tarbiya shaxsni jamiyatning ma’naviy qadriyatlariga mos ravishda shakllantirish jarayoni bo‘lib, raqamli davrda bu jarayonning shakl va mazmuni tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda tarbiya jarayoni faqat oila va maktab doirasida emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media, bloglar va onlayn platformalar orqali ham amalga oshmoqda.

Bugungi raqamli jamiyatda insonning e’tibor maydoni cheksiz axborot oqimi ostida qolmoqda. Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp, YouTube kabi platformalarga kirgan har bir insonni turli yo‘nalishdagi postlar, videolar, maslahatlar va “motivatsion” kontentlar qarshi oladi. Ularning orasida axloqiy tarbiya, ma’naviy o‘sish, sog‘lom turmush, hatto ozish bo‘yicha millionlab tavsiyalar bor. Ammo ularni o‘qib chiqishga, tahlil qilishga, hatto bir soniya to‘xtab o‘ylashga ham vaqt yetmaydi biri tugamasdan, boshqasi chiqib turadi.

Axborot oqimi cheksiz, ammo inson ongining qabul qilish imkoniyati chegaralidir. Shu sababli, raqamli tarmoqdagi bu “axborot to‘fonida” insonning diqqat markazi tarqoq holga keladi, fikrlash tezligi va axloqiy sezgirlik pasayadi. Har bir yangi post yoki video shaxsni ichki mulohazadan emas, tashqi taassurotlardan quvish sari undaydi. Natijada, inson tafakkuri “like” va “scroll”ga bog‘langan refleksiyaga aylanish xavfida qolmoqda. Qaysidir ma’noda axborot huruji tahdidlari desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Kelayotgan xabarlar va ularga tezkor munosabat ayniqsa yoshlarni xotirjamligi va vaqtini egallab bormoqda.

Bu jarayonning salbiy oqibatlari shundan iboratki, axloqiy va ma’naviy qadriyatlar aniq idrok etilmaydi, faqat shior va yuzaki shaklda iste’mol qilinadi. Odamlar “ma’naviyat” so‘zi bilan bezatilgan, ammo ich-ichidan tijoratga, shaxsiy brendga yoki manipulyatsiyaga xizmat qiluvchi kontentni tanimasdan iste’mol qilmoqda. Shu holatda insonning axloqiy immuniteti ya’ni axborotga tanqidiy yondashish, haqiqatni soxtadan ajratish, o‘z qadriyatiga sodiq qolish qobiliyati zaiflashadi. Biroq, bu muhitning ijobiy jihatlarini ham inkor qilib bo‘lmaydi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan holda raqamli platformalar axloqiy-ma’naviy tarbiyaning

kuchli vositasiga aylanishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda insonparvarlik, halollik, mehr-oqibat, ekologik va madaniy mas’uliyat haqidagi sifatli kontentlar inson ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, raqamli savodxonlik va ma’naviy ong uyg‘unligini talab etadi. Shunday ekan, raqamli jamiyatda axloqiy tarbiyaning eng dolzarb vazifasi axborot tanlash madaniyatini shakllantirishdir. [1.140-150.] Bu insonni har bir ko‘rgan va o‘qigan narsa ustidan fikrlashga, uni axloqiy mezonlar orqali tahlil qilishga, zararlisidan himoyalanishga o‘rgatadi. Shaxsning ma’naviy immuniteti aynan shu tanqidiy tafakkur orqali mustahkamlanadi.

Axloqiy mezonlar inson xulq-atvori, qarorlari va munosabatlarini baholashda yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiluvchi axloqiy o‘lchovlar yoki qadriyatlar tizimidir. Ular jamiyatda “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri”, “yaxshi” va “yomon”, “odobli” va “odobsiz” xatti-harakatlarni ajratish imkonini beradi. Asosiy axloqiy mezonlarga quyidagilarni keltirish mumkin, insonparvarlik (gumanizm), adolat va halollik, mas’uliyat va burch hissi, mehr-oqibat va kechirimlilik, hurmat va odoblilik, tabiat va jamiyat oldidagi mas’uliyat, haqiqatparvarlik, vijdon kabilardir. Bugungi kunda raqamli axloqiy mezonlar ham shakllanmoqdaki, ularga soxta ma’lumot tarqatmaslik, boshqalarning shaxsiy hayotini hurmat qilish, haqoratli so‘zlardan tiyilish, fikr bildirishda madaniyat va empatiya ko‘rsatish kabilarni kiritish mumkin. [2]

[6] OECD – bu Organisation for Economic Co-operation and Development, **ya’ni** Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining qisqartmasi. U 1961-yilda tashkil etilgan va dunyo iqtisodiyotini rivojlantirish, siyosatlarni muvofiqlashtirish hamda a’zo davlatlar orasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadida faoliyat yuritadi. A’zolari asosan rivojlangan davlatlardir.

[7] Fransiyada joylashgan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bag‘ishlangan xayriya tashkiloti.

Tanqidiy Ratsionalizimi ilmiy usul sifatida induktsiyani rad etishdan boshlanadi. Popperning ta’kidlashicha, ilmning haqiqiy usuli — bu doimiy taxmin va rad etish jarayoni bilan izohlanadi. Uning fikriga ko‘ra “Bilim qanday rivojlanadi, ayniqsa ilmiy bilim, bu asoslanmagan (va asoslanishi mumkin bo‘lmagan) taxminlar, farazlar, muammolarimizga vaqtinchalik yechimlar va gipotezalar orqali sodir bo‘ladi. Bu gipotezalar tanqid orqali nazorat qilinadi, ya’ni qat’iy sinovlar orqali ularni rad etishga harakat qilinadi. Ular bu sinovlardan omon qolishi mumkin, lekin hech qachon ijobiy asos bilan tasdiqlanmaydi. Ular nafaqat mutlaq to‘g‘ri, hatto “ehtimoliy” deb hisoblanishi mumkin…”.[3]

Boshqa asarlarida Popper bu masalani qisqaroq ifodalaydi. “Barcha bilimlar gipoteziyadir” yoki “Barcha bilimlar taxminiydir” va aynan “barcha bilimlar taxminiydir” shaklida uning falsafasining mohiyati aks ettirilgan hamda bu boshqa olimlarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Tanqidiy ratsionalizm dastlab Popper tomonidan ilmni ilmiy bo‘lmaganidan ajratib olish maqsadida ishlab chiqilgan. U shunday degan edi: “ilmiy bilimni bilim sifatida qabul qilish uchun uni rad etish mumkin bo‘lishi kerak”.[4] “Ilmiy bayonotlar tajribaga murojaat qilgan qadar, ular rad etilishi mumkin bo‘lishi kerak, agar ular rad etib bo‘lmaydigan bo‘lsa, ular tajriba dunyosiga taalluqli emas”.[5]

Karl Popper tamoyillarini ayniqsa, tanqidiy ratsionalizm va falsifikatsiyani o‘rganish ta’lim paradigmalari va texnologik yutuqlar uchun yangi bosqichni ochib beradi. Ushbu tamoyillar o‘rganilgan bilimlarni sintez qiladi, ularni zamonaviy kontekstda kontekstlashtiradi va hozirgi ma’lumotlarga asoslangan kelajak senariylarini loyihalashtiradi.

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni ta’lim o‘quv dasturlariga integratsiyalashuvi talabalarni murakkab, globallashgan va tobora raqamlilashib borayotgan vaziyatda inson o‘z maqomini saqlab qolishi hamda keying avlodga vorisiylik asosida qoldirishi muhim ahamiyatga ega.

Empirik tadqiqotlar tanqidiy fikrlashni kuchaytirishda innovatsion o‘qitish usullarining samaradorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Reboot Foundation (2020) hisoboti shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning atigi 55 foizi o‘rta maktabdan beri tanqidiy fikrlash qobiliyatlari yaxshilanganini his qilishgan va bu joriy ta‘lim amaliyotlarida sezilarli bo‘shliq borligini ta’kidlaydi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish ta’limning asosiy natijalari sifatida tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan ta’lim sohasidagi tizimli islohotlarni talab qiladi.

Sun’iy intellekt sohasida soxtalashtirish printsipi mustahkam va ishonchli modellarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Soxtalashtirilganlik sun’iy intelekt modellarini empirik tarzda sinab ko‘rish va potentsial ravishda rad etishni ta’minlaydi hamda ushbu modelni tasdiqlashga ilmiy yondashuvni qo‘llab-

quvvatlaydi. Ushbu metodologiya[6] Popperning ilmiy nazariyalar chinakam taraqqiyotga yordam berish uchun inkor etilmaydigan bo‘lishi kerak degan fikriga mos keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Popper tamoyillarining ta’lim va sun’iy intellektni rivojlantirishga integratsiyalashuvi murakkab insoniy muammolarni hal qilish yo‘lini taklif qiladi. Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ilmiy qat’iylik ustuvor bo‘lgan muhitni qo‘llab-quvvatlagan holda, jamiyatlar Popperning ochiq va ilg‘or jamiyat haqidagi qarashlariga mos ravishda innovatsiyalar va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Karl Popper tamoyillarining, xususan, tanqidiy ratsionalizm va soxtalashtirishning ta’lim tizimi va sun’iy intellekt rivojlanishiga hamda integratsiyalashuvi jamiyat taraqqiyoti uchun chuqur ta’sir ko'rsatadi. Empirik dalillar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda innovatsion o‘qitish metodologiyalarining samaradorligini ta’kidlaydi. Masalan, 168 nafar 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda umumiy tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining statistik jihatdan sezilarli o‘sishi qayd etildi, ballar oldingi testdan keyingi testgacha o‘rtacha 2,3 ballga yaxshilandi.

Sun’iy intelektni ishlab chiqishda soxtalashtirishni qo‘llash amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, modelni baholash jarayonlariga soxtalashtirishni integratsiyalash sun’iy intelekt tizimlarining ishonchliligini oshirishi, xato chegaralarini kamaytirishi va bashorat qilish aniqligini oshirishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat samarali, balki shaffof va hisobdor bo‘lgan sun’iy intelekt modellarini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayoni va sun’iy intellektni rivojlantirishda Popper tamoyillarini qabul qilish murakkab insoniy muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ilmiy qat’iylikni shakllanishiga olib keladi hamda jamiyatda sun’iy intelektning ijobiy jihatlaridan unumli foydalanishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Reboot Foundation. The State of Critical Thinking in 2020. 2020.
2. Ness, R. O. Falsifiability Helps Me Focus. 2019. P 56.
3. OECD. Teaching, Learning and Assessing Creative and Critical Thinking Skills. Retrieved from [https://www.oecd.org/education/ceri/teaching-learning-and-assessing-creative-and-critical-thinking skills/] (https://www.oecd.org /education/ceri/teaching-learning-and-assessing-creative-and-critical-thinking skills/)
4. Holmes, N. G., Wieman, C. E., Bonn, D. A. Teaching Critical Thinking. 2015. P-15.

5. A Popperian Falsification of Artificial Intelligence - Lighthill Defended. Steven Meyer smeyer@tdl.com April 30, 2020. https://arxiv.org/pdf/1704.08111
6. Bouygues, H. L. Critical Thinking Skills Not Emphasized By Most Middle School Teachers. 2022. P-41.
7. Шишков И.З. В поисках новой рациональности: философия критического разума. - М.: эдиториал УРСС, 2003. – С. 280.
8. Поппер К.Р. Все люди-философы: как я понимаю философию; Иммануил Кант-философ. Просвещения. // Пер. с нем., вступи. статьи и примеч. И. З. Шишкова. Изд. 2-е, стереотипное. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С 4.
9. Современная британская философия / Hrsg. Ф. Вайсманн, Х.Д.да. Льюис. 2 Ауфл. Л.: Джордж Аллен и Анвин Лтд., 1961. Серия 3. – С. 447-490.

SHARQ RENESSANSI ASOSIY XUSUSIYATLARI VA OLIMLARI FAOLIYATINING ZAMONAVIY IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRI

Axatova Dildora Axtamovna
email:axatovadildora795@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-6849-0603
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b.dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur ishda Sharq Renessansi asosiy ijtimoiy omillari, allomalar ilmiy merosining zamonaviy O'zbekiston jamiyatidagi axloqiy-ma'naviy va intellektual ahamiyati hamda "uchinchi renessans" konsepsiyasi asosida yangicha taraqqiyot paradigmasi yoritilgan.

Аннотация. В данной работе раскрываются ведущие социальные факторы Восточного Ренессанс, научное наследие великих мыслителей и его актуальное значение в морально-духовной и интеллектуальной жизни современного общества Узбекистана.

Abstract. This paper explores the main social drivers of the Eastern Renaissance, the scientific legacy of great scholars, and the relevance of their heritage for the moral and intellectual development of contemporary Uzbek society.

Kalit so'zlar: Sharq Renessansi, allomalar merosi, ma'naviyat, taraqqiyot, zamonaviy jamiyat, intellektual salohiyat, uchinchi renessans.

Ключевые слова: Восточный Ренессанс, наследие учёных, духовность, развитие, современное общество, интеллектуальный потенциал, третий ренессанс.

Keywords: Eastern Renaissance, scholars' heritage, spirituality, development, modern society, intellectual potential, third renaissance.

Sharq Renessansi X–XI asrlarda Movarounnahr va Xorazm hududlarida yuzaga kelgan ilmiy-ma'naviy uyg'onish jarayonidir. Bu davr inson tafakkurining ravnaqi, ilm nurlanishi va ma'naviy o'zlikning mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Sharqning qadimiy falsafiy an'analari, yunon ilmiy merosi, islom diniy-huquqiy tamoyillari va turkiy ma'naviy olam o'zaro uyg'unlashib, yangi dunyoqarash va yangi ilmiy tamoyillarni yuzaga keltirdi. Ushbu uyg'onish bir tasodif emas, balki jamiyat hayotida ilmga, tafakkurga va ma'rifatga ehtiyoj natijasi bo'lib, uni rivojlantirishga kuchli turtki bo'lgan [1, 713].

Sharq Renessansi davrida ilm-fanning yuzaga chiqishi va taraqqiyoti uchun bir qator fundamental omillar shakllandi. Bu davrda inson ongi va tafakkuriga cheksiz ishonch bildirildi—bilish va aniqlash imkoniyati har bir shaxs tabiatiga xos eng muhim fazilat, jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi deya baholandi. O'sha zamon olimlari ong va tafakkur kuchiga suyanib, har bir ilmiy natijani dalil, mantiqiy mushohada va tajriba asosida o'rganib, xulosalar chiqarishga intildilar. Ilm-fanda dogmatizm va ko'r-ko'rona qabul qilish emas, chuqur tahlil, tanqidiy yondashuv va ilmiy metod ustuvor bo'ldi.

Sharq Renessansi olimlari qomusiy bilim egasi bo'lishga intildilar: ular bir vaqtning o'zida falsafa, mantiq, tabiiy fanlar, tibbiyot, matematika, musiqa, falakiyot, fiqh, tilshunoslik va tarix kabi ko'plab fan sohalarida faol tadqiqot olib bordilar [2, 19]. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan sohalari keng ko'lamda rivojlandi va bu jarayonda ko'plab salohiyatli olimlar faoliyat yuritdi. Falsafa va mantiq sohalarida Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlar ajralib turadi. Ular qadimgi yunon falsafasini, xususan Aristotel va Platonning asarlarini chuqur o'rganib, ularni Sharq madaniy-tarixiy sharoitida qayta talqin qildilar. Farobiy tafakkurning mukammalligi insonni kamolot sari boshlashini ta'kidlab, "fozil jamiyat" g'oyasini ilgari surdi. Ibn Sino esa borliq tuzilishini jism va ruh birligi orqali tushuntirib, inson tabiatini falsafiy va psixologik nuqtai nazardan tahlil qildi. Beruniy esa falsafiy tafakkurni ilmiy tajriba va kuzatish bilan uyg'unlashtirib, ilmni hayotiy amaliyotdan ajratmaslik zarurligini uqtirdi.

Tibbiyot sohasida Ibn Sinoning tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Uning "Tib qonunlari" asari o'z davri uchun tibbiy bilimlarni izchil tizimlashtirib, kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olish tamoyillarini ilmiy asosda bayon

qildi. Bu asar nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham 600 yil davomida tibbiyot bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida tan olindi.

Matematika va astronomiya yo‘nalishida Muhammad al-Xorazmiy alohida mavqega ega bo‘lib, u algebra fanini shakllantirgan, hisoblash usullarini takomillashtirgan va algoritm tushunchasiga asos bo‘lgan ilmiy tamoyillarni ishlab chiqqan. Ahmad al-Farg‘oniy esa osmon jismlarining harakati, sayyoralar o‘rtasidagi masofa va Yerning shakli haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqargan. Uning astronomiyaga oid asarlari keyinchalik Yevropa ilmiy maktablarida ham darslik sifatida ishlatilgan.

Musiqa va san’at rivojida ham Sharq allomalari o‘ziga xos iz qoldirdilar. Farobiyning musiqaga oid risolalari musiqaning nazariy asoslarini, lad tizimlari va ohanglarning ruhiy ta’sirini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berdi. Uning qarashlari Sharqning musiqa maktablarida ham, keyinchalik Yevropada ham yuqori baholandi.

Fiqh va tilshunoslik sohalarida ham bu davr mutafakkirlari chuqur ilmiy izlanishlar olib bordilar. Islom huquqining shakllanishi, tilning madaniy va ma’naviy ong bilan bog‘liqligini tahlil qilish, arab tili grammatikasi va lug‘atshunoslikka oid ilmiy yondashuvlar keyingi davrlarda yuridik tafakkur va lingvistika fanlarining rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Sharq mutafakkirlari ijodida til — tafakkur qudrati, fiqh esa jamiyatning axloqiy tartibi sifatida talqin qilindi.

Natijada, Sharq uyg‘onish davrida yaratigan ilmiy meros bugungi zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy hayotning ham poydevorini tashkil etadi. Bu meros tafakkurning erkinligi, ilmning izchilligi va ma’naviyatning ustuvorligini ta’kidlaydi.

Olimlar ilmiy ishlanmalarida doimiy ravishda dalil va tajribaga tayanish, har bir ilmiy natijani tekshirish va mantiqiy mushohada asosida tanqidiy baholash tamoyillarini ilgari surdilar. Bu zamonaviy ilmiy metodologiyaning tub ildizlaridan hisoblanadi. Masalan, qadimgi yunon merosi qayta o‘rganildi va rivojlantirildi, tajriba va amaliyotga asoslangan tibbiyot, geografiya, matematikaga asos solindi.

Ibn Sino o‘z falsafasida insonni jism va ruh birligida tushuntiradi. Uning fikricha, inson badanining hayotiylik manbai ruhdir; ruh esa aql, idrok va ma’naviy kamolot orqali komillikka erishadi. Bu jarayon insonning jismoniy va ruhiy uyg‘unligi jamiyat taraqqiyotining poydevoriga aylanadi [3, 31]. Shu bois Ibn Sino ta’limoti nafaqat shaxsiy balki ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onishning metodologik asosini yaratdi.

Beruniy esa borliqni yaxlit tizim sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, tabiatdagi barcha hodisalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, inson tabiatning ajralmas qismi sanaladi. Shu sababli, tabiatni o‘rganish – insonni, uning o‘rnini va mas’uliyatini anglash

demakdir. Beruniyning ilmiy merosi fanning universalligini, inson aqlining cheksiz imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Forobiy o‘zining “Fozil shahar” konsepsiyasida jamiyat barkamolligi ilm, axloq va ma’naviyatga tayanishini asoslab beradi. Uning nazarida, fozil jamiyat aql, bilim va adolat ustiga qurilgan bo‘lib, bunda bilimli insonlar jamiyatni mukammallikka yetaklaydilar. Demak, Forobiy uchun ijtimoiy baxt ilm va ma’naviyat uyg‘unligida mujassamdir.

Imom Buxoriy esa inson axloqini poklash orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash g‘oyasini ilgari surgan. U hadislar orqali inson kamolotini axloqiy-me’yoriy tizim sifatida talqin etadi. Buxoriy merosi ma’naviyatning har bir davrda jamiyatni ma’rifat asosida yangilashga xizmat qilishi mumkinligini isbotlaydi.

Sharq Renessansi merosi bugungi zamonaviy O‘zbekiston hayotida nafaqat tarixiy xotira sifatida, balki milliy rivojlanishning faol intellektual kuchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Uchinchi Renessans” g‘oyasining ilgari surilishi bejiz emas. Bu konsepsiya Sharq uyg‘onish davrida shakllangan ilmiy tafakkur, ma’naviy yangilanish, insonning aql-zakovat va bilishga intilish salohiyatiga tayanadi. Uchinchi Renessans g‘oyasi jamiyat taraqqiyotining markaziga ilm, ma’rifat, ma’naviy barkamollik va tafakkur madaniyatini qo‘yadi. Shu ma’noda Sharq Renessansi bugungi kun uchun tarixiy bosqich emas, balki zamonaviy taraqqiyotning ma’naviy-madaniy negizi sifatida davom etayotgan jarayondir.

Sharq allomalari asarlarida ilgari surilgan ilmga tayanish, insonning ichki komillikka intilishi, jamiyatning ma’rifat orqali kamol topishi haqidagi g‘oyalar bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimi, yoshlar siyosati, ma’naviyat targ‘iboti, ilmiy izlanishlar strategiyasida o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, ta’lim tizimini transformatsiya qilish jarayonida Ibn Sino va Beruniy kabi olimlarning ilmiy merosi faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki metodologik asos, tafakkur modeli sifatida o‘rganilmoqda. Farobiyning “fozil jamiyat” haqidagi qarashlari jamiyatda ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish siyosatida muhim yo‘nalishga aylangan.

Sharq Renessansining zamonaviy hayotga ta’sirini madaniyat va ma’naviy ong sohalarida ham kuzatish mumkin. Masalan, milliy teatr va san’at maktablarida Abu Nasr Farobiyning musiqiy-nazariy qarashlaridan ilhomlangan holda badiiy didni tarbiyalashga e’tibor kuchaymoqda. Adabiyot va ma’naviy targ‘ibotda Alisher Navoiy timsolida shakllangan ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, axloqiy poklik g‘oyalari yoshlar ongini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Buxoro, Xiva, Samarqand, Termiz kabi tarixiy markazlar bugungi kunda ilmiy-ma’naviy turizm, xalqaro madaniy muloqot va ilmiy almashinuv makonlariga aylanishi ham Sharq Renessansi merosining zamonaviy ifodasidir.

Yosh avlod ongida milliy g‘ururni mustahkamlash jarayonida Sharq allomalari tomonidan yaratilgan bilim va tamaddun yodgorlari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu meros yosh avlodni ilm-fanga muhabbat, mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, ruhiy poklik va axloqiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu orqali Sharq Renessansiga xos bo‘lgan “aql—ma’naviyat—madaniyat” birligi bugungi jamiyatning ma’naviy asosini shakllantiradi.

Shuningdek, Uchinchi Renessans g‘oyasi globallashuv sharoitida O‘zbekistonning o‘z madaniy va ilmiy maktabini mustaqil ravishda rivojlantirish, boshqa sivilizatsiyalar bilan teng asosda muloqot qilish, o‘zining intellektual ovoziga ega bo‘lish imkonini yaratadi. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlaydi, ilmiy hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga chiqaradi va global tafakkur makonida sharqona ilmiy-ma’naviy maktabning izchil davomiyligini ta’minlaydi.

Shu tarzda Sharq Renessansi merosi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining falsafiy-ideaviy, ma’naviy-ruhiy va ilmiy-intellektual poydevorini tashkil qiladi. Bu poydevor jamiyatni yangilash, milliy qadriyatlarni chuqur anglash, ma’naviy o‘zlikni tiklash va yangi taraqqiyot paradigmasini shakllantirishda mustahkam tayanch vazifasini bajaradi.

Sharq Renessansi — bu o‘tgan tarixiy bosqichning yakunlangan hodisasi emas, balki bugungi va kelajak avlodlar hayotida davom etayotgan ma’naviy va intellektual jarayondir. Ushbu uyg‘onish davri inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlari, ilmga bo‘lgan muhabbat, ezgulikka intilish va jamiyatning ma’naviy yangilanishini o‘zida mujassam etadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilm-ma’rifatga asoslangan rivojlanish modeli aynan Sharq Renessansi tamoyillariga tayanadi, yosh avlodda mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish madaniyati, ma’naviy mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi. Demak, Sharq allomalari merosi — bu nafaqat tarixiy faxr, balki kelajakni bunyod etuvchi faol ma’naviy kuchdir. Ushbu meros Uchinchi Renessans sari intilayotgan Yangi O‘zbekiston jamiyatining ruhiy, madaniy va ilmiy asoslarini belgilab bermoqda. Shu tariqa, Sharq Renessansi qadriyatlari milliy o‘zlikning mustahkamlanishiga, jamiyatning ma’naviy yangilanishiga va global maydondagi intellektual raqobatda munosib o‘rin egallashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamedov A. Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar // Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari. – 2024. – T. 4, № 21. – B. 711–718. – (E)ISSN: 2181-1784. – URL: https://www.oriens.uz (murojaat sanasi: 11.11.2025). – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12187291

2. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. – 228 b.
3. Axatova D. A. Ibn Sino metafizikasida jism va ruhning o‘zaro aloqadorligi fenomeni : PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2025. – 54 b.
4. Farg‘oniy, A. Ta’lim va ilm-fan taraqqiyotida Sharq Renessansi ahamiyati // web-journal.ru. – 2024. – 4-jild, 19-qism. – B. 115–125. – ISSN 3030-3680. – URL: http://web-journal.ru/ (11.11.2025).
5. Yuldoshxo‘jayev H.H. Sharq Renessansi va Abu Nasr Forobiyning ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni // CyberLeninka. – 2025. – URL: https://cyberleninka.ru (11.11.2025).
6. “Uyg‘onish davri” // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: 2000. – 6-jild.
7. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan (10—15-asrlar). – Toshkent, 1970. – 250 b.
8. Abu Rayhon Beruniy. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2001. – J. 1–3.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MADANIY RELYATIVIZM HAMDA AXLOQIY MUAMMOLAR RIVOJINING SABAB VA OQIBATLARI

Toshpulatov Odil Nodirovich
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi, falsafa fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatda bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ishsizlikning oshishi, ijtimoiy guruhlar va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy ziddiyatlarning kuchayishi, buning ortidan yuzaga kelayotgan siyosiy inqirozlarning barchasi yangi davrning dolzarb muammolaridir. Axborot asrida jamiyat rivojlanish sur’atlarining tezlashuvi bu muammolarga yana yangi, o‘ta keskin xavf-xatarlarni qo‘shmoqda.

Globallashuv oqibatida yuzaga kelayotgan madaniy xavflar tobora kuchayib borar ekan, odamlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘lanishlar ham zaiflashib bormoqda. Bu ayniqsa yuqori texnologiyalar og‘ir qo‘l mehnati o’rnini egallayotgan hududlarda yaqqol seziladi. Bunday joylar bifurkatsiya nuqtalari sifatida namoyon bo‘lib, insonning moddiy yoki ma’naviy inqirozini yanada kuchaytirmoqda. Ijtimoiy aloqalarning zaiflashishi ko‘pincha axloqiy relyativizm shaklida namoyon bo‘ladi. Bunda odamlar ijtimoiy inqirozlar uchun mas’uliyatni “kimdir aybdor, lekin men emasman” tamoyili asosida baholaydilar. Karl Popper axloqiy

relyativizmni intellektual relyativizmning oqibati sifatida izohlagan va bu illatning jamiyatda paydo bo‘lish muammosiga e’tibor qaratgan[8].

Ma’naviy qadriyatlarning susayishi ham jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda. Inson erkinligini inkor etish, haqiqatni rad etish, yaxshilikning mutlaq g‘oyalarini mensimaslik bunga misol boladi. Bularning barchasi sharaf, qadr-qimmat, adolat va muhabbat kabi yuksak qadriyatlarning so‘nishiga sabab bo‘ladi. Natijada insonlar o‘rtasidagi hissiy-emotsional aloqalar pasayadi. Bu esa odamlarning axloqiy tanlov qilish qobiliyatiga ham ta’sir qiladi. Ko‘plab insonlar endi murakkab ruhiy yoki falsafiy mavzularda suhbatlashishni ham qiyin deb biladi.

Madaniy va intellektual relyativizm bilan bog‘liq xavflarni yanada chuqurroq tushunish uchun jamiyat ongida yuz berayotgan o‘zgarishlarning asosiy sababini aniqlash zarur. Axborot asrida “inson – jamiyat – tabiat” tizimida ratsional omil keskin kuchayib bormoqda. Bu omil, avvalo, ikki jarayon bilan belgilanadi: 1) ishlab chiqarishning texnik va texnologik jihatdan o‘zgarishi; 2) insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning texnologiyalashuvi.

Birinchi jarayon tirik mehnatning o‘rnini texnik vositalar egallayotganini bildiradi. Texnika buyumga mujassamlangan ratsionallikdir. Shu sababli jamoaviy mehnatning hissiy va subyektiv jihatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jarayonlaridan asta-sekin chetga surilmoqda. Bu holat jamiyatda ma’naviy muvozanatning izdan chiqishiga turtki bo‘ladi. Raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi virtual kommunikatsiya tizimini shakllantirib, uni ijtimoiy munosabatlarning ajralmas bo‘lagiga aylantirdi. Shu jarayonning natijasi sifatida inson ongida ratsional fikrlash uslubi tobora ustuvorlik kasb etmoqda. Ratsionalizm hissiy-emotsional kechinmalarga nisbatan ancha sodda va psixologik jihatdan kamroq talabchan bo‘lgani uchun insonning ichki ma’naviy olamini siqib chiqarishga moyil. Bu hodisa, bir tomondan, zamonaviy texnologiyalarning qulayligi va takrorlanuvchanligi bilan izohlanadi; boshqa tomondan, insonning tabiiy va murakkab his-tuyg‘ular olami sun’iy texnik vositalar bilan almashtirilayotganini ko‘rsatadi.

Emotsional muhitdan uzoqlashgan shaxs o‘zini texnologiyalar hukmronlik qilayotgan sun’iy makonda nisbatan xavfsiz va erkin his qilishi mumkin. U asta-sekin ushbu makonning faol subyekti emas, balki tarkibiy elementi sifatida shakllanadi. Insonning kundalik faoliyatida zamonaviy mashinalar, mexanizmlar, robotlar va murakkab texnologik komplekslarning keng qo‘llanishi uning jamiyatdagi axloqiy o‘rnini anglash va o‘zini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq masalalarni sun’iy ravishda soddalashtirib qo‘yadi. Bunda murakkab axloqiy qarorlar talab qiladigan vaziyatlar o‘rnini texnologik jarayonlarga singdirilgan

[8] Поппер К. Открытое общество и его враги (в 2-х томах). - М.: Феникс, Международный фонд «Культурная инициатива», 1992. - 448

tayyor algoritmlar egallaydi. Bu hol shaxsning mas’uliyat darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Natijada totalitar jamiyatlarga xos bo‘lgan xavfli ijtimoiy stereotip qayta yuzaga chiqmoqda. Ya’ni inson o‘zini jamiyat tizimidagi mavqeiga, ya’ni tizim unga bergan o‘rniga qarab baholay boshlaydi. Bugungi sharoitda mazkur stereotip yangi shaklga kirgan. Inson o‘zining va boshqalarning ijtimoiy maqomini ular foydalanayotgan texnologik qurilmalar, ularning qimmatligi, yangiligi, texnik quvvati va «zamonaviyligi» orqali baholaydi. Natijada xalqona donishmandlikka xos «Insonni o‘rin emas, o‘rinni inson bezaydi» degan hikmatli ibora o‘z mazmunini yo‘qotib bormoqda. Innovatsiyaga yo‘naltirilgan zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ko‘pchilik inson o‘z qadrini texnologik imkoniyatlar darajasi bilan o‘lchashga o‘rganib qolmoqda.

Shunday sharoitda insoniyat duch kelayotgan o‘z-o‘zini yo‘q qilish xavflari jamiyatning umumiy axloqiy mas’uliyati doirasiga olinishi zarur. Chunki bunday xavflarni bartaraf etish faqat siyosiy yoki iqtisodiy mexanizmlar bilan emas, balki qat’iy axloqiy nazorat orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Axloqiy mas’uliyatning asosi shaxsning erkin axloqiy tanlovidir. Axloq ijtimoiy ongning shunday shakliki, unda har qanday geteronom omil, ya’ni tashqi bosim, majburiylik yoki vositachilik rad etiladi. Shuning uchun axloqning majburiyligi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy tamoyil hisoblanadi.

Axloqiy tanlovning markazida vijdon turadi. Vijdon insonning ichki axloqiy mezoni bo‘lib, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni topishga yordam beradi. “Vijdon insonning ikkiga bo‘linib yashashiga chek qo‘yadi: hammasini to‘g‘ri tushungan holda noto‘g‘ri xatti-harakat qilishi mumkin emas. Vijdon bilan berkinmachoq o‘ynab bo‘lmaydi, uni aytganingga ko‘ndira olmaysan. Uni uxlatib qo‘yish ham mumkin emas, ertami-kechmi uyg‘onadi-da, qilmishingga javob berishga majbur etadi”[9]. Shu bilan birga, jamoatchilik fikri, diniy tashkilotlar, davlat tuzilmalari kabi institutlar ba’zan vijdon bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Ular o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlardan kelib chiqib qaror qabul qilganida, axloqning mustaqilligiga putur yetkazish ehtimoli yuzaga keladi. Axloqning geteronom tus olishi esa zamonaviy texnologiyalar hukmron bo‘lgan jamiyatda axloqiy relyativizm xavfini kuchaytiradi. Bunday jamiyatda axloqiy me’yorlar nisbiy tus olib, ularni istalgancha o‘zgartirish yoki texnologik maqsadlarga moslashtirish mumkin bo‘lib qoladi.

Axloq esa insoniyatni yovuzlikdan, zo‘ravonlikdan, inqirozdan asrab turgan asosiy himoya mexanizmi. Uning mavjudligi jamiyatga har qanday ijtimoiy yoki texnologik inqirozlarni ma’naviy asosda yengib o‘tish imkonini beradi. Masalan,

[9] Abdulla Sher. Axloqshunoslik. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, -Toshkent: 2010. 115-bet.

roboetika inson faoliyatida robot va sun’iy intellekt ishtiroki bilan bog‘liq axloqiy tahdidlarni oldini olishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish. Bu texnologiyalar rivojining aynan axloqiy chegaralarini belgilash zaruriyatidan kelib chiqqan. Demak, texnikaviy taraqqiyotga beriladigan har qanday ijtimoiy baho, avvalo, axloqiy mezonlarga asoslanishi kerak. Chunki xavfsizlikning asosida nafaqat siyosiy va ekologik, balki chuqur axloqiy muammolar ham yotadi.

Axloqiy relyativizm axloqiy me’yorlar umumiy, yakdil va mutlaq bo‘lmay, ma’lum bir jamiyat, madaniyat yoki ijtimoiy guruhga bog‘liq holda shakllanishini ta’kidlovchi falsafiy qarashdir. Ushbu yondashuv axloqiy baholashning o‘zgaruvchanligini, vaqt, makon va ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog‘liqligini asoslaydi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, robototexnika va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ushbu nazariyaning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirib, yangi axloqiy, ijtimoiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Roboetika bu robotlar yoki mashinalarning axloqi emas, balki robotlarni ishlab chiqayotgan va jamiyatga tatbiq etayotgan insonlarning axloqiy mas’uliyatini tahlil qiluvchi ilmiy soha. Bu yo‘nalish robototexnikaning ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy oqibatlarini o‘rganadi. 2004-yilda San-Remoda o‘tkazilgan birinchi xalqaro simpoziumdan so‘ng “roboetika” atamasi ilmiy muomalada rasmiy tus oldi. “Roboetika - bu amaliy etikaning yo‘nalishi bo‘lib, u turli ijtimoiy guruhlar va turli qarashlarga ega insonlar uchun umumiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan ilmiy, madaniy va texnik yechimlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Bunday yechimlar robototexnika rivojini qo‘llab-quvvatlash, uni alohida shaxslar hayotini yaxshilashga hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, robototexnikaning inson va insoniyat manfaatlariga zid tarzda, g’ayriaxloqiy va noqonuniy qo‘llanilishining oldini olish ham roboetikaning vazifasidir”[10].

Professor Janmarko Verudjio robotlar, ayniqsa harbiy robotlarni qo‘llash masalasini misol qilib keltirib, ularning axloqiy bahosi turli davlatlar, siyosiy tizimlar yoki madaniy an’analarga qarab tubdan farq qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ko‘plab texnologik yetakchi davlatlar katta miqdorda resurslarni uchuvchisiz jangovar apparatlar, aqlli raketalar, harbiy robotlar va boshqa avtonom tizimlarni yaratishga sarflayotgan bo‘lsa-da, xalqaro huquqda ularning qo‘llanilishiga oid aniq me’yorlar mavjud emas[11].

Bu holat axloqiy relyativizmning amaliy namunasidir. Bir jamiyat bu texnologiyalarni “mudofaa vositasi” deb qabul qilishi mumkin. Boshqasi esa ularni

[10] Введенская Е.В. Актуальные проблемы робоэтики // Науковедческие исследования. 2019, pp. 88-101.
[11] Veruggio, Gianmarco, and Fiorella Operto. “Roboethics: A Bottom-up Interdisciplinary Discourse in the Field of Applied Ethics in Robotics”. The International Review of Information Ethics, vol. 6, Dec. 2006, pp. 2-8, doi:10.29173/irie133.

“insoniyatga tahdid” sifatida baholaydi. Ayrimlar esa bunday robotlarni axloqan aslo qo‘llash mumkin emas deb hisoblaydi. Demak, robototexnika bilan bog‘liq axloqiy qarashlar universal emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekst bilan belgilanadi. Ushbu tamoyillar ham axloqiy relyativizm bilan uyg‘unlashadi. Chunki robotning axloqiy maqomi turli jamiyatlarda turlicha baholanishi mumkin: ba’zi madaniyatlarda robotni “hamkor”, boshqalarida “xavf”, yana boshqalarida esa “odatdagi vosita” sifatida ko‘rishadi.

Xulosa qilib aytganda roboetika va axloqiy relyativizm o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, robototexnika va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi bilan yanada murakkablashib bormoqda. Axloqiy me’yorlarning madaniy va ijtimoiy kontekstga bog‘liqligi robotlardan foydalanish, ularga mas’uliyat yuklash, inson–texnika munosabatlari, hamda AI’ning globallashuv jarayonidagi o‘rnini baholashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar faqat texnik jihatdan emas, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy mezonlar asosida ham keng ko‘lamda tahlil qilinishi zarur. Axloqiy relyativizm ushbu jarayonda nazariy asos yaratib, jamiyatlar tomonidan qabul qilinayotgan axloqiy qarorlarning nisbiyligini ochib beradi. Aynan shunday yondashuv texnologik o‘zgarishlarning inson va jamiyat hayotiga ta’sirini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA SODIR BO‘LAYOTGAN “QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA QADRIYATLARNING UMUMIY RIVOJLANISH QONUNIYATI

Feruza X Inagamova

Dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrasi

O‘zbekiston TMC Tashkent Instituti

inagamovaferuza4@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunga kelib Yangi O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan “qadriyatlar transformatsiyasi ham qadriyatlarning umumiy rivojlanish qonuniyatiga bo‘ysunib, o‘zida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlarni aks ettirib bormoqda”[12]. Xususan, bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy, milliy hamda diniy qadriyatlarni baholash va shaklantirishda yana bir

[12] Марченко М.Н., Дерябина Е.М. Теория государства и права России: учебное пособие: в 2 т. Т. 1. Государство. - "Проспект", 2019.

ma’naviy indikatorlar sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi hisoblanuvchi va ijtimoiy samarasi amaliyotda o‘z isbotini topib borayotgan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Mehr daftari” kabi dasturlarni e’tirof etish mumkin.

Kalit so’zlar: oila instituti, oila taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy-me’yoriy asos, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhit, iqtisodiy barqarorlik, demografik rivojlanish, xalqaro ilg‘or tajriba.

Mazkur dasturlarning tub zamirida Yangi O‘zbekistondagi asosiy qadriyat sifatida shakllanib kelayotgan inson qadri, uning manfaatlari, huquqlari, imkoniyatlari o‘z aksini topmoqda, aynan mana shu qadriyat Yangi O‘zbekistondagi qadriyatlar tizimining markaziy tushunchasiga aylanib bormoqda. Shuningdek, qadriyatlar tizimida ilm va innovatsiyalarning ham roli oshib, mazkur qadriyatlarning ijtimoiy nufuzi ortib borayotganligini ham ko‘rish mumkin. Binobarin, globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasining ham jadallashuvi kuzatilar ekan, mazkur jarayonda markaziy qadriyat sifatida inson va uning ilmi turishi jamiyatning keyingi taraqqiyotiga ijobiy hissa qo‘shadi. Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimining ham aynan mana shu qadriyatlar negizida rivojlanib borishi individual, oilaviy va milliy darajada qadriyatlarning takomillashuviga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, qadriyatlar transformatsiyasining sotsiomadaniy jihatlariga e’tibor qaratsak. Yuqorida ta’kidlanganidek, qadriyatlarning o‘zgarishi jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalar bilan dialektik munosabatda bo‘lib keladi. Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-madaniy va aksiologik tizimdagi o‘zgarishlarning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri katta bo‘lib, qadriyatlar transformatsiyasining bevosita yoshlar va yosh oilalarga taalluqli bo‘lgan ijtimoiy jihatlarini bir necha misollarda ko‘rish mumkin.

Ta’lim modernizatsiyasi. Qadriyatlar tizimining yangilanishi davomida zamonaviy “yadro” qadriyatlar sifatida ilm, innovatsiya va texnologik bilimlar namoyon bo‘la boshladi. Ayniqsa, mazkur qadriyatlar jamiyatning eng innovatsion, texnologik taraqqiyotga eng tez va samarali moslashuvchi yoshlar qatlamiga bevosita ta’sir qilmoqda. Natijada Yangi O‘zbekistonda an’anaviy ta’lim tizimidan yangi texnologiyalar va xalqaro standartlarga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim tizimiga o‘tish amaliyoti boshlandi. Bu bilimga qadriyatli yondashish va uning jamiyatdagi rolini tushunish bilan bog‘liq aksiologik qarashlarning chuqur o‘zgarishlarini o‘zida aks ettiradi. Falsafiy nuqtayi nazar bu o‘zgarishlarni nafaqat texnologik siljish yoki innovatsion sakrash, balki madaniyat va qadriyatlar

kontekstida ta’lim mazmunini takomillashtirish sifatida ham ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Vatandoshlik. Yangi O‘zbekistonda asosiy qadriyat sifatida e’tirof etilayotgan inson qadriga bog‘liq ravishda jamiyatda ish yoki o‘qish maqsadida xorijiy mamlakatlarga ketgan migrantlar hamda uzoq yillardan buyon boshqa mamlakatda yashab kelayotgan vatandoshlarimizga nisbatan ijtimoiy munosabat ham transformatsiyaga uchramoqda. Vatandosh sifatida e’tirof etilayotgan mamlakatimizdan tashqarida turli maqsadda vaqtinchalik yashayotgan fuqarolarimiz, asli o‘zbekistonlik bo‘lgan, ma’naviy va madaniy nuqtayi nazardan O‘zbekistonga mansublikni his qilgan hamda etnik, til va madaniy-tarixiy jihatdan o‘zini o‘zbek yoki qoraqalpoq sifatida identifikatsiya qilgan shaxslar[13]ni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat tomonida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda, “Vatandoshlar” jamoat fondi tuzildi[14], yosh vatandoshlarimiz uchun alohida reyestr (“Yosh vatandoshlar reyestri”) tashkil etilib[15], ularning potensialidan ijtimoiy taraqqiyotimiz yo‘lida foydalanish, vatandoshlar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga e’tibor qaratilmoqda. Umuman olganda, xorijdagi vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlat va jamiyatning ijobiy imijini shakllantirishga, inson qadrining ijtimoiy hayotda tom ma’noda to‘laqonli aks etishiga hissa qo‘shadi. Ikkinchi tomondan, vatandoshlik nisbatan keng tushuncha sifatida talqin etilib, vatandosh bo‘lish ijtimoiy va madaniy hayotda o‘zini vijdonli, mas’uliyatli tutish uchun yetarlicha shartlarni jamlash[16] ham hisoblanadi.

E’tibor talab qilinadigan qadriyatlar transformatsiyasining yana bir ijtimoiy jihati axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta’siri ortib borishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan nafaqat muloqot usullari o‘zgarib, qadriyatlar transformatsiyasi sodir bo‘lmoqda, balki yangi ijtimoiy-madaniy me’yorlar ham shakllanmoqda. Masalan, yoshlarning individual qadriyatlar tizimi ustuvorligini shakllantirishda mediamadaniyatning ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda qadriyatlar o‘zgarishining madaniy jihatlari an’anaviylik va zamonaviylikning murakkab uyg‘unligini ifodalaydi. “Axborot kommunikatsiya texnologiyalar, media platformalar orqali qanday

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-oktyabrdagi PQ-3982-sonli “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // https://lex.uz/ru/docs/-4022649.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5220-sonli ““Vatandoshlar” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // https://lex.uz/docs/-5570582.

[15] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-sonli “Davlat organlari va tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan yosh mutaxassislar va yosh vatandoshlarga zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // https://lex.uz/docs/-5903520.

[16] Vooglayd Y. Vatandoshlik dasturi. — Toshkent: “Azon kitoblari”, 2023. — B. 89.

g‘oyalar va qadriyatlarning yoshlarga yetkazilayotgani va ularning jamiyatdagi an’anaviy qadriyatlar bilan uyg‘unligi yosh oilalarning ijtimoiy hayotda”[17] o‘z o‘rinlarini topib ketishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda ayollarning jamiyatdagi rolining qayta ko‘rib chiqish, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish jarayonlarida ham O‘zbekistondagi qadriyatlar trasnformatsiyasi va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning gender tengligi bilan dialektik aloqadorligini kuzatish mumkin. Jamiyatda gender stereotiplarni rad etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun tenglikni ta’minlash bilan bog‘liq tendensiyalar qadriyatlar o‘zgarishining aniq belgilari sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 81-son Farmoni.
3. Жамолов, Д. Б. О. (2020). Национальная культура и идентичность в контексте глобализации. Досягнення і перспективи науки, освіти та виробництва: 2020 [зб. наук. пр.], 108.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.
6. Римский В. П. и др. Антропогенез, этногенез и происхождение сознания //Гуманитарные ведомости ТГПУ им. ЛН Толстого. – 2021. – №. 1 (37). – С. 19-35.
7. https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilaning-rivojlanish-tarixi

[17] Социальная адаптация молодой семьи в России.

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonining hozirgi holati va rivojlanish yo‘nalishlari

Sirojbek Sultanov
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy davlatni shakllantirish jarayonining bosqichlari, mavjud muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy himoya tizimi, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi islohotlarning mazmun-mohiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat, inson qadri, ijtimoiy siyosat, fuqarolik jamiyati, ma’naviyat, subsidiarlik, ishonch, barqaror rivojlanish.

Kirish. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi davlatning jamiyat oldidagi mas’uliyatini, aholining farovonligini oshirishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlarning samaradorligini anglatadi. Zamonaviy O‘zbekistonda ushbu konsepsiya Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar ijtimoiy himoya va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida “ijtimoiy davlat” tushunchasi jamiyat taraqqiyotining strategik tamoyili sifatida talqin qilinmoqda. Bu konsepsiya davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha mazmunda anglashni, erkinlik va mas’uliyatning uyg‘unligini ta’minlashni talab etadi. Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan ijtimoiy davlat – bu inson erkinligini ijtimoiy adolat, hamjihatlik va davlat mas’uliyati bilan muvofiqlashtiruvchi tizim bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishini kafolatlovchi g‘oyaviy-axloqiy asosni tashkil etadi. Shu ma’noda, O‘zbekistonda ijtimoiy davlat g‘oyasi faqat iqtisodiy parametrlar bilan emas, balki ma’naviy yetuklik, axloqiy barqarorlik va ijtimoiy ongning rivoji bilan uzviy bog‘liq holda shakllanmoqda.

Z. S. Botirov o‘zining “O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurishning huquqiy va iqtisodiy asoslari” izlanishida ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash ekanini ta’kidlaydi. Muallif fikricha, mamlakat taraqqiyotining barcha ko‘rsatkichlari — ta’lim, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash va boshqalar — eng avvalo, aholi turmush darajasi orqali baholanadi (Botirov, 2025). Ushbu yondashuv davlatning qudrati va inson farovonligi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Biroq falsafiy nuqtayi nazardan inson manfaatlarini faqat iqtisodiy mezonlar bilan o‘lchash yetarli emas,

chunki inson ehtiyojlarining asosiy qismi ma’naviy qoniqish, ijtimoiy faollik, madaniy rivoj va erkin fikrga asoslanadi.

S. S. Jabborova “Islohotlarning muhim yo‘nalishi – ma’naviyatni yuksaltirish siyosatining asosiy vazifalari” nomli ishida ma’naviy-axloqiy salohiyatni davlat siyosatining poydevori sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jamiyatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, fuqarolarning axloqiy ongiga va ma’naviy o‘zini anglash darajasiga bog‘liq (Jabborova, 2025). Shunga qaramay, ma’naviy qadriyatlarni davlat siyosati bilan haddan ortiq bog‘lash erkinlik tamoyillarini cheklashi mumkin. Falsafiy jihatdan ma’naviyat jamiyatning o‘z-o‘zini anglash va yangilanish mexanizmi sifatida rivojlanishi lozim.

U. A. Azimovning “Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli” maqolasida inson jamiyatning passiv elementi emas, balki faol subyekti sifatida talqin qilinadi (Azimov, 2025). Insonning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan qadriyatlar ijtimoiy davlat barpo etishda muhim omil bo‘lsa-da, bu jarayonda shaxs erkinligining qanchalik ta’minlanishi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari o‘tish inson manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etishdan boshlanadi” deya ta’kidlaydi (Mirziyoyev, 2021). Bu g‘oya insonni davlat siyosatining maqsadi emas, balki mazmuniy markazi sifatida e’tirof etish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat konsepsiyasi uch asosiy tamoyilga tayanadi:

1. iqtisodiy adolat va farovonlikning ta’minlanishi;
2. ma’naviy uyg‘unlik va madaniy barqarorlik;
3. insonning o‘zini anglash va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish.

Shunga qaramay, ijtimoiy davlat g‘oyasining konseptual asosida insonni erkinlik subyekti sifatida falsafiy talqin yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan. Shu sababli ijtimoiy falsafaning vazifalaridan biri – ijtimoiy davlat nazariyasini “axloqiy erkinlik” tushunchasi bilan boyitishdir. Chunki axloqiy erkinliksiz adolat, ma’naviy uyg‘unliksiz farovonlik va ongli mas’uliyatsiz taraqqiyot to‘liq shakllanmaydi.

A. Marshallning fikricha, ijtimoiy davlat barqarorligining asosiy sharti — fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlar o‘rtasidagi muvozanatdir (Marshall, 1950). O‘zbekiston tajribasida bu borada sezilarli ijobiy siljishlarga qaramay, farovonlikdagi tafovutlar, ijtimoiy tengsizlik, himoya tizimining yetarli darajada diferensial emasligi kabi muammolar mavjud. P. Rosanvallon “ijtimoiy siyosat iqtisodiy mexanizmdan uzilganda, adolatning mazmuni yo‘qoladi” deya ta’kidlaydi (Rosanvallon, 1995). Bu mulohaza O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir,

chunki iqtisodiy liberallashuv sur’ati ko‘pincha ijtimoiy siyosat islohotlaridan tezroq kechmoqda.

Sharq mutafakkirlari asarlarida ham ijtimoiy davlatning axloqiy poydevori haqida fikrlar mavjud. Abu Hamid al-G‘azzoliy “davlat qudrati adolat bilan o‘lchanadi” deya ta’kidlaydi (G‘azzoliy, 1105). Bugungi O‘zbekiston uchun ham ushbu g‘oya muhim ahamiyatga ega, chunki adolat davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchning asosiy omilidir. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning “ijtimoiy davlatning asosi — inson qadri va huquqlari ustuvorligidadir” degan fikri bu yondashuvni amaliy siyosatning markaziga qo‘ymoqda (Mirziyoyev, 2023). Ammo ijtimoiy siyosatning byurokratik murakkabligi, resurslarning notekis taqsimlanishi va turli hududlarda xizmatlarning sifati o‘rtasidagi tafovutlar ushbu tamoyilni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

A. Sattorovning fikricha, O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy muammolaridan biri – tizimlilik yetishmasligi, ya’ni yordam ko‘proq vaqtinchalik choralar bilan cheklanib, kompleks yondashuv sust rivojlanmoqda (Sattorov, 2022). A. Giddensning “Uchinchi yo‘l” konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy ijtimoiy davlat passiv yordamdan faol ishtirok va imkoniyatlar yaratish tizimiga o‘tishi lozim (Giddens, 1998). Bu yondashuv O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, ijtimoiy siyosatni fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

F. Fukuyama ishonchni “ijtimoiy kapitalning eng muhim shakli” sifatida talqin etadi (Fukuyama, 1995). O‘zbekiston misolida ham ijtimoiy davlat barpo etishning muvaffaqiyati davlatning adolatli siyosati va fuqarolarning unga bo‘lgan ishonchi uyg‘unligiga bog‘liq. J. Rawlsning “Adolat nazariyasi”da ilgari surganidek, iqtisodiy tafovutlar eng ehtiyojmand qatlamlar foydasiga xizmat qilishi lozim (Rawls, 1971). Biroq amaliyotda resurslar taqsimotida samaradorlik va adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hozirgacha murakkab masala bo‘lib qolmoqda.

U. Bekning “xavf jamiyati” konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyatlar ichki ijtimoiy nomutanosibliklar tufayli xavf ostida qoladi (Beck, 1992). Bu jarayon O‘zbekiston sharoitida ham kuzatilib, iqtisodiy liberallashuv sur’atlari bilan ijtimoiy himoya tizimi moslashuvi o‘rtasida muvozanat yetarli emas.

Sharq falsafasida Forobiy “adolat – davlat tanasining ruhi” deb ta’kidlaydi (Forobiy, 940). Mazkur g‘oya O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatni ma’naviy asosga tayanishi zarurligini ko‘rsatadi. D. Qodirovning fikricha, ayrim hollarda ijtimoiy siyosat natijalari tashqi ko‘rsatkichlarda ifodalanayotgan bo‘lsa-da, jamiyatda adolat hissi yetarlicha shakllanmayapti (Qodirov, 2022). Shu sababli kelajakda ijtimoiy barqarorlik subsidiar hamkorlik, fuqarolik faolligi va mahalla institutini yanada kuchaytirish orqali ta’minlanadi.

R. Putnamning “ijtimoiy kapital jamiyatning haqiqiy kuchidir” degan konsepsiyasi (Putnam, 2000) O‘zbekiston sharoitida ham o‘z tasdig‘ini topadi. BMTning 2021-yilgi hisobotida esa ijtimoiy davlatning zamonaviy modeli iqtisodiy raqobatbardoshlik va ijtimoiy inklyuzivlik uyg‘unligiga asoslanishi zarurligi ta’kidlangan (UNDP, 2021). Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining istiqboli raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish, manzilli ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlarning sifati va adolatini ta’minlash bilan bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-falsafiy tahlil, sistemali yondashuv, aksiologik, komparativ (taqqoslama) va gnoseologik metodlar tashkil etadi.

Birinchidan, ijtimoiy-falsafiy yondashuv ijtimoiy davlat konsepsiyasini inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar birligi sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Bu yondashuv orqali ijtimoiy adolat, inson qadri va davlat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik falsafiy jihatdan yoritildi.

Ikkinchidan, sistemali tahlil metodi yordamida O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy omillari o‘zaro aloqadorlikda o‘rganildi. Bu metod ijtimoiy davlatni kompleks ijtimoiy tizim sifatida talqin etish imkonini berdi.

Uchinchidan, aksiologik metod asosida ijtimoiy davlat g‘oyasining markazida turgan inson qadri, adolat, ishonch va mas’uliyat kabi falsafiy qadriyatlar tahlil qilindi. Mazkur yondashuv inson manfaatlarini nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy mezon sifatida baholash imkonini yaratdi.

To‘rtinchidan, komparativ (taqqoslama) metod orqali G‘arb (J. Habermas, A. Sen, J. Rawls, A. Giddens) va Sharq (Forobiy, Beruniy, Navoiy) mutafakkirlarining ijtimoiy davlat haqidagi qarashlari qiyosiy o‘rganildi. Bu tahlil O‘zbekiston tajribasini global falsafiy kontekstda baholashga yordam berdi.

Beshinchidan, gnoseologik metod yordamida ijtimoiy ong, ishonch va mas’uliyat kabi tushunchalarning bilish nazariyasi nuqtayi nazaridan mohiyati ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, empirik kuzatuv va mantiqiy tahlil metodlaridan ham foydalanildi. Ushbu metodlar ijtimoiy davlat qurilishi jarayonini nazariy asoslash va amaliy islohotlar bilan bog‘lashga xizmat qildi.

Zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida milliy modernizatsiya, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy adolat tamoyillarining uyg‘unlashuvi bosqichini boshdan kechirmoqda. Biroq, bu jarayonda davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy kontrakt to‘liq shakllanmaganligi sababli, ijtimoiy tenglik, adolat va ishonch muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

J. Rawls ta’kidlaganidek, “haqiqiy adolat tizimi insonlar o‘rtasidagi imkoniyatlar tengligi va ijtimoiy institutlarning eng zaif qatlamlarga xizmat qilishi bilan belgilanadi” (Rawls, 1971). O‘zbekiston sharoitida esa ijtimoiy siyosat hali bu tamoyilni to‘liq amalga oshira olmayapti, chunki ijtimoiy himoya tizimi ko‘proq kompensatsion, emas balki rivojlantiruvchi xarakterga ega. N. Luhmann ijtimoiy tizimlarni “o‘zini o‘zi tartibga soluvchi mexanizm” sifatida talqin qilgan (Luhmann, 1997), ammo O‘zbekistonda bu jarayon asosan davlat tashabbusi bilan boshqarilmoqda, fuqarolik jamiyati esa hali yetarli darajada faollashmagan.

Tahlil va natijalar. Sharq tafakkurida ijtimoiy davlat axloqiy birlik bilan bog‘lanadi. Beruniy “davlatning mustahkamligi xalqning axloqiy birdamligiga bog‘liq” deb yozgan Shuning uchun ijtimoiy siyosatda ma’naviyatni boshqaruv mexanizmlariga integratsiya qilish muhimdir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev “ijtimoiy siyosatning markazida inson qadri turmog‘i kerak” deb ta’kidlaydi. Ammo ijtimoiy boshqaruvda byurokratiya va resurslarning notekis taqsimlanishi bu tamoyilning to‘liq amalga oshishiga to‘sqinlik qilmoqda.

A. Sattorov ijtimoiy siyosatning iqtisodiy maqsadlardan orqada qolayotganini qayd etib, adolat ko‘pincha deklarativ tusda qolayotganini tanqid qiladi (Sattorov, 2022). A. Giddens esa ijtimoiy davlat “passiv yordamdan faol imkoniyat yaratish tizimiga o‘tishi kerak”ligini ta’kidlaydi (Giddens, 1998). Bu yondashuv O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lib, subsidiarlik va fuqarolik hamkorligi tamoyillarini kuchaytirishni talab etadi.

F. Fukuyama fikricha, “ishonch – ijtimoiy kapitalning eng muhim shakli” (Fukuyama, 1995). O‘zbekistonda ham ijtimoiy davlatning barqarorligi aynan ishonch va hamkorlik muhitiga tayanadi. Shu bois, ijtimoiy siyosatning kelajagi iqtisodiy samaradorlikdan tashqari, axloqiy boshqaruv, shaffoflik va adolat mexanizmlarini mustahkamlash orqali ta’minlanadi. Zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy davlatni shakllantirish yo‘lida muhim bosqichni bosib o‘tmoqda. Uning barqaror rivoji inson qadriyatlarini amalda ta’minlash, ijtimoiy ishonchni kuchaytirish va fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirishga bog‘liqdir.

Zamonaviy O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurish konsepsiyasi inson manfaatlarini markazga qo‘ygan yangi sivilizatsion modelni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, bu jarayon tizimli muammolarsiz kechmayapti. Ijtimoiy davlatning mohiyati tengsizlikni kamaytirish, imkoniyatlarni adolatli taqsimlash va ijtimoiy himoyani ta’minlashdan iboratdir. Ammo amaliyotda bu tamoyillarni ro‘yobga chiqaruvchi institutsional asoslar hali to‘liq shakllanmagan. Muammolar nafaqat iqtisodiy va huquqiy tizim bilan, balki ijtimoiy ong, boshqaruv madaniyati va ma’naviy qadriyatlar bilan ham bog‘liq.

J. Habermas fikricha, “ijtimoiy davlatning kuchi iqtisodiy resurslardan ko‘ra kommunikativ hamjihatlik va o‘zaro ishonchga tayanadi” (Habermas, 1981).

O‘zbekiston sharoitida esa bu uyg‘unlik hali to‘liq shakllanmagan: farovonlik tafovutlari, byurokratik to‘siqlar va ijtimoiy xizmatlar sifati masalalari mavjud. A. Senning “erkinlik sifatida taraqqiyot” konsepsiyasiga ko‘ra, haqiqiy rivojlanish insonning imkoniyat va erkinliklarini kengaytirishdir (Sen, 1999). Biroq O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat asosan davlat tashabbusiga asoslanib, fuqarolarning faolligi pastligicha qolmoqda.

Forobiy “Fozil shahar ahlining qarashlari” asarida “davlatning baxti – adolat va aql ustuvorligida” deb yozgan. Bugungi kunda ham adolat mezonining zaifligi ijtimoiy befarqlikni kuchaytiradi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev “ijtimoiy davlatning mohiyati inson huquqlari va qadriyatlarini amalda ta’minlashdadir” deya ta’kidlaydi (Mirziyoyev, 2023). Shu bois, boshqaruv tizimini moslashuvchan qilish va joylardagi muammolarga tezkor yechim topish muhimdir.

M. Jo‘rayevning fikricha, “iqtisodiy o‘sish ijtimoiy adolatni avtomatik ta’minlamaydi”. Shu sababli, islohotlarning maqsadi nafaqat iqtisodiy natija, balki adolat va hamjihatlik tamoyillarini mustahkamlash bo‘lishi kerak. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” hisobotida ta’kidlanishicha, teng imkoniyat, gender muvozanati va ta’lim hamda sog‘liqni saqlashning adolatli taqsimoti barqaror ijtimoiy tizimning asosidir.

O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayoni zamonaviy islohotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning nazariy-metodologik asoslari milliy falsafa, zamonaviy ijtimoiy nazariyalar va davlat boshqaruvi amaliyoti bilan uyg‘un tarzda shakllanmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat konsepsiyasi mamlakat sharoitida iqtisodiy farovonlik, ma’naviy barqarorlik va inson kapitali rivojini bir markazga jamlaydigan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar, ijtimoiy himoyaning manzilliligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari ijtimoiy davlatning institutsional poydevorini mustahkamladi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tengsizlikning saqlanishi, resurslarning notekis taqsimlanishi, ayrim hududlarda ijtimoiy xizmatlar sifati pastligi, ijtimoiy siyosatning byurokratik murakkabligi kabi omillar ijtimoiy davlat tamoyillarining to‘liq amalga oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy liberallashuv sur’ati ijtimoiy himoya tizimining modernizatsiya jarayonidan tezroq kechayotgani falsafiy va amaliy muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar — A. Marshallning huquqlar muvozanati, J. Rawlsning adolat tamoyillari, A. Giddensning “faol ijtimoiy davlat” modeli, P. Rosanvallonning adolat va samaradorlik uyg‘unligi haqidagi g‘oyalari — O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining rivojlanish istiqbollari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiy va G‘azzoliy

tomonidan ilgari surilgan adolat va ma’naviylik g‘oyalari esa milliy ijtimoiy siyosatning axloqiy poydevorini belgilab bermoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni anglatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurishning kelgusi bosqichidagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat: ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini chuqurlashtirish, ijtimoiy siyosatni hududiy tenglik tamoyili asosida olib borish, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy kapital va ishonchni mustahkamlash. Eng muhimi, ijtimoiy davlat g‘oyasini “axloqiy erkinlik”, “ijtimoiy adolat” va “insonga yo‘naltirilgan rivojlanish” tamoyillari bilan boyitish kelajak taraqqiyotning falsafiy poydevorini yaratadi.

Shu bois, ijtimoiy davlatning muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki jamiyatning ma’naviy yetukligiga, fuqarolarning mas’uliyati, ijtimoiy hamjihatlik va davlatga bo‘lgan ishonch darajasiga chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kuchli ijtimoiy davlat – kuchli inson, kuchli jamiyat va barqaror taraqqiyotning asosiy shartidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Habermas, J. (1981). *Theorie des kommunikativen Handelns*. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag.
2. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. New York: Oxford University Press.
3. Forobiy, A. N. (940). *Fozil shahar ahlining qarashlari*. (O‘zbek tilidagi tarjimasi). Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
5. Jo‘rayev, M. (2022). *Ijtimoiy adolat va iqtisodiy o‘sish uyg‘unligi muammolari*. Toshkent: Ijtimoiy fikr markazi.
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Sustainable Development Goals Report 2022*. New York: UN Publications.
7. Sattorov, A. (2022). *O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning zamonaviy muammolari*. Toshkent: “Fan va taraqqiyot” jurnali, №4, 85–92.
8. Fukuyama, F. (1995). *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity*. New York: Free Press.
9. Giddens, A. (1998). *The Third Way: The Renewal of Social Democracy*. Cambridge: Polity Press.
10. Beruniy, A. R. (1030). *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. (O‘zbekcha nashri). Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997.

O‘ZBEKISTONDA TALABALAR UCHUN MILLIY QADRIYATLAR TARIXINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Andayeva Shaxnoz Sanaqulovna

Texnologiya, menejment, kommunikatsiya instituti

“Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri

E-mail: shahnoza7448@gmail.com

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, avvalo, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni chuqur o‘rganish va yosh avlodda tarixiy xotirani mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Milliy qadriyatlar tarixi — xalqning adabiy, ma’naviy, urf-odat va ijtimoiy-madaniy merosi bo‘lib, uni talabalarga zamonaviy metodlar orqali yetkazish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omildir. Globallashuv kuchaygan hozirgi davrda yoshlarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlari, identiteti va madaniy immunitetini mustahkamlash metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom etmoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ta’limiy-ma’naviy islohotlarda yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb pedagogik masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy qadriyatlarga oid tarixiy bilimlarni talabalarda shakllantirish samaradorligi, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan tajriba-sinov ishlarining ilmiy asosda, izchil va to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud metodik kamchiliklarni aniqlash, mavjud yutuqlarni boyitish hamda takomillashtirilgan metodikaning qo‘llanish imkoniyatlarini belgilash maqsadida dastlabki diagnostik (ta’kidlovehi) tajriba ishlari amalga oshirildi. Ushbu bosqichda maxsus indikatorlar tizimini o‘z ichiga olgan dastur ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayonining mazmuni, vazifalari hamda baholash mexanizmlari aniq belgilab olindi.

Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi

Tajriba-sinov jarayonining mantiqiy izchillikda tashkil etilishi tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qildi. Jarayon davomida quyidagi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari sifatida bir nechta oliy ta’lim muassasalari belgilandi.
2. Tajriba-sinovning **muddatlari, bosqichlari va har bir bosqichning xususiy vazifalari** aniq belgilab chiqildi.
3. Ishtirokchilar — **respondentlar soni** aniqlanib, guruhlar **tajriba** va **nazorat** guruhlariga ajratildi.
4. Respondentlar tajriba-sinov jarayonining maqsadi, vazifalari va tartibi haqida **oldindan xabardor qilindi**.
5. Jarayonni amalga oshiruvchi **mas’ul shaxslar** va ularning funksional vazifalari belgilab olindi.
6. Tajriba-sinov materiallari sifatida **boshlang‘ich metodik ishlanmalar** tayyorlandi va ular universitet kengashlarida muhokama qilindi.
7. Talabalarga ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan **optimal shakl, metod va vositalar** tanlab olindi.
8. **Ishlab chiqilgan metodika** tajriba-sinov jarayonida sinovdan o‘tkazildi, natijalari esa ilmiy tahlil qilindi.
9. Metodikaning **samaradorligini baholash** maqsadida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llanildi, zarur hollarda mazmuniga o‘zgartirishlar kiritildi.
10. Tajriba-sinov jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi **pedagogik sharoitlar** yaratildi.
11. Tajriba-sinovning **ta’kidlovehi, o‘zgartiruvchi va nazorat bosqichlari** bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi, yakuniy natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, umumiy xulosa chiqarildi.

Tadqiqot metodologiyasi talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o‘rganish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizimni tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan amaliy ishlar quyidagi ilmiy-metodik tamoyillarga tayanadi:

- tadqiqotning **aniq maqsadga yo‘naltirilganligi**;
- izlanayotgan jarayonda **bog‘liqlik, uzviylik va izchillik**ning ta’minlanishi;
- **nazariya va amaliyot uyg‘unligi**;
- ta’lim-tarbiya jarayonining **yaxshi tashkil etilganligi va metodik asoslangani**.

Mazkur metodologik yondashuvlar milliy qadriyatlar tarixini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik talablarga mos ravishda takomillashtirish, talabalarning ma’naviy dunyoqarashi va milliy identitetini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni shakllantirdi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratildi:

1.Talabalarda milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish jarayonida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga erishish.

2.Tahsil oluvchilarda milliylikga xos qadriyatlar tarixinioshirishning yakdil ya‘ni tarbiya bilan bog‘liq omillarga suyanish.

3. Ilmiy merosimizni negizlarini talabalar o‘zlashtirib olishiga erishish.

4.Talabalarning milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish borasida ijtimoiy faollikka erishish.

Qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda 2018-yildan 2021-yilgacha uch bosqichda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlar 3.1.1-jadvalda o‘z aksini topgan.

Tadqiqotimizdagi tajriba-sinov ishlarini quyidagi insonparvalashtirish tamoyillarga asoslanib o‘tkazdik:

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b) talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o‘rganilayotgan hodisaning o‘rnini aniq belgilash; v) o‘rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi.

Tajriba-sinov ishlarini quyida jadvalda ko‘rsatilgan umummilliylikga xoslik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi:, Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to‘xtalib o‘tamiz.

3.1.1-jadval

Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari

Bosqich	**Tavsif**
I bosqich (2021-	Maqsad – oliy bilim yurtida tahsil olayotgan talabalarning milliylikga xos qadriyatlar tarixinioshirishning ilk holatini o‘rganib chiqish va muammoning yechimini hal etishning foydali bo‘lgan

2022 yy)	yo‘nalishlarini belgilab olish
	Metodlari: tekshirish va taqqoslash, birlashtirish, tartibga solish; anketa; test; kuzatish; talabalar bilan suhbat o‘tkazish; aniqlovchi eksperiment; matematik statistika metodlari; ma‘lumotlarga ishlov berishning grafik metodlari; natijalarga ishlov berishning matematik metodlari.
	Vazifalar: savodxonlikni qanday holatdaligini aniqlab olish; ushbu holatni rivojlantirishga oid modelni ishlab chiqish; ushbu holatni rivojlantirishga oid ta‘limiy va tarbiyaviy jarayonlarni aniqlash; nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish; milliylikga xos qadriyatlar tarixinioshirishning tamoyillarini belgilab olish;
II bosqich (2022-2023 yy)	Maqsad – 1. Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o‘tkazish. 2. Tadqiqot farazini aniqlashtirish va tekshirish. 3. Taklif etilayotgan inovatsiyalarni tajriba jarayonlarida ishlatib ko‘rish,
	Metodlari: ta‘lim oluvchining shart-sharoitlari bilan tanishish, ularni o‘quv jarayonlarini o‘rganish; shu soha yetakchilari bilan birgalikda baholash; so‘rovnomalar o‘tkazish shu sohaga oid testlar olish; raqamlarga oid tahlillar olib borish,olingan ma‘lumotlarga ishlov berish.
	Vazifalar: Ilmiy ishni modelini tuzib olish; raqamlarga tayangan holda tahlillar o‘tkazish; olingan natijalarni hayotda qo‘llab ko‘rish; oxirgi hal qiluv qororga kelish;; tolibi ilmlarda fuqaro savodxonligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.
III bosqich (2023-2024yy)	Maqsad – O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; o‘rganilayotgan mavzuga oid ma‘lumotlarni ielab topish va tadqiqot ishida foydalanish,
	Metodlari: raqamlarga tayangan holda tahlillar olib borish, ma‘lumotlarni taqqoslash, yig‘ilgan dallillarni joy-joyiga ko‘yish
	Vazifalar: Shu o‘rganilayotgan mavzuga oid tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalda qo‘llab ko‘rish, barcha dalallarni to‘plagan holda dissertatsiyani shallantirish, olingan bilimlarni kelajakda amaliyotda foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to‘xtalib o‘tamiz.

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b)talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o‘rganilayotgan hodisaning o‘rnini aniq belgilash; v) o‘rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida talabalarda milliylikga xos qadriyatlar tarixini rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi.

Ob‘yektivlik tamoyili: a) bir qancha metodlar bilan har bir dalilni tekshirish; b) tadqiq etilayotgan ob‘yektdagi o‘zgarishlarning har tomonlama namoyon bo‘lishini qayd etib borish; v) mazkur tadqiqot ma‘lumotlarini boshqa izlanishlarda qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlar bilan solishtirishni talab etadi. Ushbu tamoyildan olingan dalillarni baholash va tahlil etishda foydalanildi.

Samaradorlik tamoyilining mohiyati shundaki, olingan natijalar talabalarni kasbiy tayyorlashning tipik, standart shart-sharoitlarida qo‘lga kiritilgan natijalardan yuqori bo‘lishi lozim. U ham tamoyil, ham tadqiqotnning yakuniy maqsadidir. Mazkur tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish metodikasini rejalashtirishda o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda talaba shaxsiga yondashuv quyidagi qoidalarni amalga oshirishni talab etdi: eksperimentatorning diqqatini talabalarning tajriba-sinovga munosabati, taqdim etilayotgan topshiriq va mashqlarni bajarishda ta‘lim oluvchilarning qiziqishiga jalb etish; ta‘lim oluvchilarning ishchanlik qobiliyati (psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari) va individual yordam ko‘rsatish, konsultatsiya berish; topshiriq va metodik materiallarni ta‘lim oluvchilar o‘rtasida murakkablik darajasi va uni o‘zlashtirishning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlash; o‘rganilayotgan muammoning murakkab masalalarini chuqur qayta ishlab chiqish bo‘yicha ta‘lim oluvchilarning o‘z-o‘zini aniqlash, o‘z-o‘zini baholashiga erishish.

Ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo‘lishi tamoyili tajriba-sinovni aniq baza(bizning tadqiqotda ana shunday baza sifatida Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etishda o‘z aksini topadi. Talabalarga taqdim etilayotgan axborot yetarli va zaruriy hajmda bo‘lishi lozim.

Ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi o‘qituvchining o‘zidan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi. Talabalarni axborot xavfsizligini ta‘minlashga tayyorlashga ko‘plab omillar, shu jumladan, ta‘lim mazmuni va metodlarining ta‘lim oluvchilarning imkoniyatlariga mosligi o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tajriba-sinov o‘tkazish jarayonida talabalarga maslahatlar berish quyidagi talablarga javob beradi:

- maxsus koʻrsatmalar asosida topshiriqlarni taqdim etish uni bajarishni osonlashtiradi;
- subʻyektiv pozitsiyani anglash va ishonch hosil qilishga yoʻnaltirilgan, yangi material mazmunini oʻzlashtirishning interfaol metod va usullari taklif etiladi;
- axborot tahdidlariga qarshi kurashishning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

Pedagogik eksperimentni insonparvarlashtirish tamoyili texnokratik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, maʻmuriy kabilardan insoniy qadriyatlarning ustunligi gʻoyasiga asoslanadi. U tajriba-sinovda quyidagi shartlarni amalga oshirishni talab etadi: oʻrganilayotgan jarayonda talabalarni qadr qimmatini ulugʻlash; oʻrganilayotgan jarayonda talabalarga ijobiy tomondan yondashish; oʻrganilayotgan jarayonda talabalar orasidagi oʻzaro xurmatni saqlash; oʻrganilayotgan jarayonda talabalardagi emotsional holatlariga etibor berish muhim hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlari asosida milliy qadriyatlarni oʻrgatishning innovatsion metodikasi ishlab chiqildi. Dissertatsiyada talabalarda milliylikka xos qadriyatlar tarixini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va ular asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, muammoli oʻqitish va loyiha asosidagi yondashuvlar uygʻunlashtirilgan holda amaliyotga tadbiq qilindi.

Tajriba-sinov ishlarining ilmiy-metodik bosqichlari asoslab berildi. Sinov ishlari diagnostika, tayyorgarlik, eksperimental va nazorat bosqichlarida olib borildi. Har bir bosqichda milliy qadriyatlar tarixini oʻzlashtirishga oid talabalarning bilim, munosabat va amaliy koʻnikmalaridagi oʻzgarishlar muntazam monitoring asosida baholab borildi.

Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori samaradorlik koʻrsatdi. Tajriba-sinov ishlari natijasida milliy qadriyatlarning tarixiy asoslarini anglash, ularga nisbatan barqaror ijobiy munosabat, milliylik gʻoyalarini amalda qoʻllash kabi koʻrsatkichlarda sezilarli ijobiy oʻsish kuzatildi. Bu esa taklif etilgan metodikaning samaradorligini isbotladi.

Milliy qadriyatlarni shakllantirishda faoliyatga asoslangan yondashuvning ustunligi koʻrsatildi. Talabalarni milliy anʻanalar, tarixiy qadriyatlar, urf-odatlar asosida tashkil etilgan amaliy mashgʻulotlarga jalb etish orqali ularning shaxsiy identifikatsiyasi, ijtimoiy faolligi va gʻoyaviy qarashlarida ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi.

Tajriba natijalari asosida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi. Oliy ta‘lim tizimi uchun milliy qadriyatlar tarixini o‘rgatishga doir maxsus modulli dasturlar, o‘quv-metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari va reflektiv topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Ular pedagogik amaliyotda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan materiallar sifatida baholandi.

Tadqiqot ishida talabalarning milliy qadriyatlar tarixini o‘rganganligini baholash mezonlari va ko’rsatkichlari ishlab chiqildi (3.1.2.jadvalga qarang).

3.1.2-jadval

Talabalarda milliylikga xos qadriyatlar tarixinirivojlanganlik darajasini baholash mexanizmi

Mezonlar	**Ko‘rsatkichlar**	**Ko‘rsatkich bahosi**	**Ko‘rsatkich-ning miqdor bahosi**
Motivatsion qadriyat	Milliylikga xos g‘oya va mafkurani o‘zlashtirish, yot g‘oya va mafkuralarga qarshi turish motivlarining shakllanganligi		
Kognitiv - intellekt	G‘oyaviy-mafkuraviy bilimlar, yot g‘oya va mafkuralarga qarshi kurashishga oid bilimlarning to‘liqligi		
Amaliy	Moslashuvchan (Soft skills) va maxsus (Hard skills) kompetensiyalarni o‘zlashtirganlik o‘zlashtirganligi		
	Refleksiv nuqtayi nazarning shakllanganligi		
Refleksiv	Milliylikga xos g‘oya va mafkuraga aksiologik munosabat, milliylikga xos va umuminsoniy qadriyatlarning		

	shakllanganligi;		
	Vatanparvarlik va milliylikga xos-qadriyatlarka oid qadriyatlarning shakllanganligi		

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalar ongida milliy qadriyatlar tarixini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari amaliy jihatdan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Bunday yondashuv talabalarda tarixiy ong, milliy g‘urur va fuqarolik mas‘uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda pedagogik amaliyot uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 56.
2. Abdurahmonov A. Qadriyat – ma’naviy merosdir // «Ma’rift gulshani» g. – 12 (77) 2007y. – 7-bet
3. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
4. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta’lim nazariyasi) Oliy o’quv yurtlari uchun o’quv qo’llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik komponiyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
5. Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet 6. Zaripov M.Z.Ma’naviy qadriyatlar va milliy o’zlikni anglashning rivojlanishi «Pedagogik ta’lim»,-T.: 2000.- №2.-6-9 betlar.
7. Yo’ldoshev J.G’. Usmonov S.A. Pedagogik texnolgiya asoslari. T:«O’qituvchi», 2004, - 95 bet.

Ijtimoiy davlatda inqirozlarning ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etish usullari.

Boboyeva Mohim SHukurovna
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi dotsenti
Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
mohimboboyeva@gmail.uz

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ijtimoiy inqirozlar sharoitida xalqlar o’rtasida yuzaga keladigan munosabatlar. Ularning davlatlar va jamiyatlar ijtimoiy hayoti hamda rivojiga ta’sirlari xususida mulohazalar keltirib o’tilgan.ijtimoiy davlatning o’ziga xos belgilari. Ijtimoiy davlatlarning hukumat va xalqaro hamkorlik doirasidagi o’zaro munosabatlari, ijtimoiylashuv masalalarining ijtimoiy davlat tashkil etilishidagi o’ziga xos jihatlari yoritilgan. Jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlari hamda ularning ijtimoiy muhofazasi xususida O’zbekiston tajribasi keltirib o’tilgan.

KALIT SO’ZLAR : ijtimoiy davlat, tolerantlik, ijtimoiy tamoyilar, ijtimoiy munosabatlar, mehr shavqat, ijtimoiy zaiflik, ijtimoiy zaif qatlam.

O’zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo’lini tanlagan va amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatning eng muhim xarakterli jihati shundan iboratki, bunda kishilar va davlat o’rtasidagi o’zaro munosabatlar muvozanating ta’minlangan bo’lishligi, olib borilayotgan islohatlar, katta-yu kichik tadbirlar, belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida fuqarolarning ishtimoiy fikrlari, qarashlari, manfaatlari eng birinchi o’ringa ko’tarilishida nomoyon bo’ladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ham O’zbekiston respublikasining ijtimoiy davlat deb atalishi ham ushbu sohaga berilayotgan davlat va hukumat etiborining natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri unda inson va uning manfaatlari, shaxsi, erkinligi oliy qadriyat darajasida ezozlanishida ko’rishimiz mumkin. Ijtimoiy davlat sifatida aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini birinchi navbatda qo’llab quvvatlash va himoyalash eng oliy maqsad hisoblanadi. Ijtimoiy zaif qatlam sifatida esa bolalar, yoshlar, ayollar, qariyalar, nogironlar, ijtimoiy muhtoj oilalar, ko’p bolali oilalar, ishsizlar va boshqalarni kiritiladi.

Ijtimoiy davlatda asosiy mexanizm ijtimoiy yordam tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy yordam tizimi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, ijtimoiy yoki shaxsiy muammolar tufayli og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlarni qo'llab-quvvatlashda xayriya yordamidan, ijtimoiy ish kabi kasbiy yordamning paydo bo'lishiga, nafaqat fuqarolarning ijtimoiy xavfsizligi uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga qaratilgan, shuningdek, o'z hayotlarini qurish qobiliyatlari hamda qobiliyatlarini rivojlantirish, hayotiy inqirozlarni yengishda ichki manbalarni safarbar qilish. Ijtimoiy ishlarni kasbiy faoliyat turi sifatida shakllantirish jarayoni XX asr boshlarida boshlangan. G'arbiy Evropa va AQSh mamlakatlarida. Ukrainada, boshqa slavyan davlatlarida bo'lgani kabi, yetim

bolalarga, nogironlarga, kambag'allarga, harbiy xizmatchilarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam Kievan Rus davrida rivojlangan va Kiyev knyazlari va xristian cherkovi faoliyatida o'z aksini topgan.

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ijtimoiy qo’llab quvvatlash davlatning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil qiladi. Bu sohaga etibor davlatimiz taraqqiyotining ajralmas bo’lagi bo’lib kelgan. Har bir mentalitetiga ya’ni xarakteriga ta’rif berilganda unga xos bo’lgan o’ziga xos jihatlar ko’rsatilib o’tiladi. O’zbek millatiga xos bo’lgan o’ziga xos jihatlardan biri bu mehribonlik, boshqalar taqdiriga befarq bo’lmaslik, o’zaro mehr – muruvvat, shavqat, hamjihatliklarni ko’rishimiz mumkin.

Ijtimoiy krizislar bu jamiyatning ma’lum bir rivojlanish boqqichida yuzaga kelgan o’zgarish, harakat va rivojlanishlarni tushunish mumkin. Bularga misol tariqasida: o’tish davrlarini, mustaqillikka erishish, ochlik, qashshoqlik, urush, ishsizlik, inflyatsiya va boshqalarni sohalari bo’yicha keltirishimiz mumkin. Inqiroz tushunchasini ko’pchilik adabiyotlarda turli shakllarda qo’llaniladi. Shunga muvofiq undan kelib chiquvchi ma’no mazmun ham o’ziga xos tarzda turlicha nomoyon bo’ladi. Ammo uni umumiy xolis baholaydigan bo’lsak krizislar hayot sur’atlarining o’zgarishiga, voqea jarayonlarga munosabatlarning o’sishiga, jamiyatning rivojlanishiga turtki bo’ladigan misollarda ko’rishimiz mumkin. Masalan, ikkinchi jahon urushi bu davlatlar o’rtaidagi ijtimoiy krizisning bir namunasi. Urushning sabalari qanchalik g’ayritabiiy bo’lsa, uning keltirib chiqargan oqibatlari, yo’qotishlari shunchalik ayanchli hisoblanadi. Ammo shu bilan birga bevosita shu urush natijasida kelib chiqqan ayrim, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy sohadagi muammolar shu tarmoqlarda yangi munosabatlarning, o’ziga xosliklarning, tarmoqlarning shakllanishi uchun asos vazifasini bajarganini ko’ramiz. Masalan, Yangi davlatlar tashkil topdi, ayrim davlatlardagi mavjud faoliyat olib borayotgan tuzumlar quladi, milliy darajadagi manfaatlar davlat darajasida etirof etilib o’z mustaqilligi, hurriyati uchun harakatlarni boshlanishlarida ko’rishimiz mumkin.

Misol, urush oqibatida davlatlar iqdisodiy jihatdan izdan chiqib ketdi. Ammo hayot darajasini ko’tarish uchun urunishlar texnika va texnologiyalarning rivojlanishiga sabab bo’ldi. Yoki urush bo’lgan hududlarda aholini evakuatsiya qilish natijasida urush harakatlari bo’lmayotgan hududlarda bolalarning ko’chirilishi va oilalarga farzandlikka berilishi xalqlar o’rtasida baynanminal faoliyatning kuchayishiga olib keldi. Birgina O’zbekistonda Shomahmudovlar oilasining 16 nafar bolani oilaga olishi xalqlar o’rtasida g’amxo’rlik, bolalarga etibor, mehribonlik, tolerantlik tuyg’ularining o’ziga xos isboti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. O’zbekiston. 2023 y
2. Robins Nik “Ushbu imperator kompaniya – ingliz Sharqiy Hindiston kompaniyasi va uning korporativ javobgarlik uchun merosi ”. doi:10.9774
3. A.Yo’ldashbekov “Voyaga yetmaganlar o’rtasida ijtimoiy inqirozlar”. – T. “Yurudik adabiyotlar”, 2017 y.
4. N.Latipova “Gumanitar inqirozlar” o’quv qo’llanma

CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA

Ismailov A. //	Tabrik so‘z	3
1-SHO‘BA. INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLAR		
Saifnazarov I. //	O‘zbekistonda dunyoviy davlat rivoji: nazariy asoslar va zamonaviy tendensiyalar	5
Abdullayeva N. //	Globallashuv jarayonida antrof-muhitga antropogen ta’sirning oqibatlari	11
Muxamedjanova L.//	Siyosiy faoliyatda axloqiylik talabi: klassik va zamonaviy qarashlar	14
Nishonova N. //	Axloqiy ixtiyor erkinlining yoshlar hayotida o‘rni	20
Ergasheva M. //	O‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonining - zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati	25
Xolmirzayev N. //	Shahar aholisidagi ijtimoiy muammolar: tahlil va takliflar	30
Uralov D. //	G‘oyalar transformatsiyasining globallashuv jarayoniga ta’siri	36
Yakubova M. //	Zamonaviy falsafiy va ilmiy tasavvurlar kontekstida kommunikativ reallikning mohiyati	40
Jo‘rayev A. //	Zamonaviy jamiyatning clobal muammolari va ularning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	48
Sultanova A.//	Qadriyatlar tizimining o‘zgarishi: global jamiyat muammolari va falsafiy yechimlar	53
Toshov X. //	Kauzal aloqadorlik suiiste’moliga aloqador mantiqiy hiylalarga qarshi kurash usullari	56
Каримов Б.//	История возникновения и развития ЮНЕСКО и значение 43-ой сессии юнеско в самарканде	61
Raximdjanova D. //	Axloqiy erkinlik haqida mutafakkirlarning falsafiy mushohadalari	80

Pardayev S. //	Dunyoning tabiiy-ilmiy tasavvurida mifologik bilimlarning o‘ziga xos o‘rni	84
Azamova S. //	Ekologik globallashuv sharoitida o’quvchilar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	88
Nishonov S.//	Turkiy falsafiy tafakkurda inson konsepsiyasi va uning paradigmatik asoslari	92
Alikulov X. //	Global iqlim o‘zgarishi sharoitida koglobalistika paradigmasining transformatsiyasi	100
2-SHO‘BA. FALSAFA, FAN, SIYOSAT VA DINNING INSONIYAT KELAJAGINI SAQLASHDAGI AHAMIYATI		
Qodirov A.//	Mintaqaviy identitlik-milliy yuksalish omili	108
Ramatov J. //	Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali mexanizmlari	111
To‘xtayev X.//	«Qadriyatlar sohasi» va «aksiologiya qonuniyatlari» tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	118
Pulatova D.//	Islom falsafasi manbalari: g‘oyalar va qadriyatlar	128
Turgunov A. //	Axborot madaniyatining shakllanish jarayoni: tarixiy taraqqiyot omillari va rivojlantirish mexanizmlari	134
Кулуева Ф.Г. Абдукаримова М. //	Китайская философия в XX веке	138
Mamanov J. //	O‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari ijodida davriylik masalasi	144
Shadimetova G. //	Estetik ehtiyoj tushunchasining falsafiy mazmuni va inson tabiatidagi o‘rni	150
Salomova H., Tursunova Sh. //	Zamonaviy falsafiy tadqiqotlar va insoniyatning sog‘lik haqidagi falsafasi	156
Ikramova I. //	Diniylik va dunyoviylik integratsiyasi – ijtimoiy	160

	barqarorlik asosi	
Ruzmetova D. Habibjonov I. //	Sharq va g‘arb konsepsiyalarida siyosat falsafasini anglash	165
Mamanov J. //	Qadimgi sharq falsafasi tafakkurida “davr” (sikl) tushunchasining namoyon bo’lish xususiyatlari	170
Tursunov B. //	Imom Buxoriyning falsafiy qarashlari	176
Qaxorov P. //	Yoshlar estetik madaniyati va uning transformatsion xususiyatlari	182
3-SHO‘BA. SHARQ VA G‘ARB RENESSANSLARI VA O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH ISTIQBOLLARI		
Qodirov A.//	Frankfurt falsafiy maktabi: E.Fromm muhabbat doktrinasi	189
Otamurodov S. //	Tafakkurda falsafiy bazmlar	194
Pulatova D. //	Osvald Shpenglerning jamiyat tarixini evolyusion tushunishga nisbatan qarashlari	198
Masharipova G. //	Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosining o‘rni	203
Masharipova G., Rzayeva A //	Markaziy Osiyo va Yevropa Renessansining o‘ziga xos xususiyatlari	208
Ruzmatova G. //	Axloqiy sezgi va uyg‘unlik falsafasi	214
Qodirov M. //	Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy maqomi va ilmiy merosi	217
Muhamedov A.//	Montenning ma’naviy rivojlanish konsepsiyasi	221
Pulatov Sh. //	O‘rta asr hindistonda sufiylik va bhakti harakatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlil	228
Степанова О. //	Диалектическая трактовка Абу Наср Аль-Фараби понимания взаимоотношения мышления и языка	234

Obidov A. //	Inson kamoloti g‘oyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta’limotida: Saʿīd ad-Dīn al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy	238
Yusupova N. //	O‘zbek etnomusiqasi etnomadaniyatning tarkibiy qismi sifatida	242
Xakimova N. //	Zamonaviy tadqiqotlarda Abu Homid Azzoliyning bilish nazariyasiga oid yondashuvlar	247
Tursunova L.//	Tilab Maxmudovning ilmiy maktabi va uning izdoshlari	253
Quvondiqov I. //	Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans asosi	260
Shavkatov Sh. //	The life and works of Muhammad Rizo Erniyozbek ugli Ogahiy	265
Turdiyeva I. //	Jadidchilik harakatining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga ta’siri	274
Xamdamov E. //	Ziyo Go‘kalp til sofligini soddalashtirishi va tilning ahamiyati	280
4-sho‘ba. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOT STRATEGIYASINING FALSAFIY ASOSLARI		
Masharipov I. //	Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va inson qadri tamoyilining falsafiy tahlili	291
5-sho‘ba. ZAMONAVIY FALSAFADA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI		
Махаматов Т. //	Проблемы эволюции искусственного интеллекта и природы человеческого мышления	295
Туленова К., Расулев Э. //	Тенденции цифровизации системы образования в Узбекистане	303
Tulenova G. //	Falsafa, bilim va sun'yiy intellektning o'zaro ta'siri (texnologik yondashuv)	308
Иззетова Э. //	Философско-методологические аспекты	312

	цифровой цивилизации	
Fayzixodjaeva D. //	Сунъий интеллект ва янги дунёқарашнинг шаклланиши	319
Tursunkulova Sh. //	Raqamli jamiyatda axloqiy tarbiya muammolari	326
Saydaliyeva N. //	Sun’iy intellektning falsafiy muamolari	330
Qodirov F. //	Sun’iy intellekt va insonning “mavjudlik” tushunchasini qayta talqin qilish	336
Kuchimova F. //	Proyektiv tafakkur va sun’iy intellekt kelajakni yaratish falsafasi	342
Усманов С. //	Влияние искусственного интеллекта на человеческое мышление: философский подход	347
Nasriddinov O.//	Zamonaviy falsafada sun'iy intellektning axloqiy va amaliy masalalari	353
Жумаева А. //	Искусственный интеллект в криминалистике: возможности и риски	359
Sherboboyev M. //	Karl Popper g‘oyalarini sun’iy intelekt muammosini hal qilishdagi o‘rni	364
Axatova D. //	Sharq Renessansi asosiy xususiyatlari va olimlari faoliyatining zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy hayotga ta’siri	370
Toshpulatov O.//	Globallashuv davrida madaniy relyativizm hamda axloqiy muammolar rivojining sabab va oqibatlari	375
Inagamova F.//	Yangi O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan “qadriyatlar transformatsiyasi va qadriyatlarning umumiy rivojlanish qonuniyati	379
Sultanov S.//	O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayonining hozirgi holati va rivojlanish yo‘nalishlari	383
Andayeva Sh.//	O‘zbekistonda talabalar uchun milliy qadriyatlar tarixini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	390

Boboyeva M.//	Ijtimoiy davlatda inqirozlarning ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etish usullari	397



/altraganus_university